

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НИЗОМИЙ НОМИДАГИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ**

*“Мактабгача таълим” факультети*

**“Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили”**  
доирасида ҳамда

педагог олима О.Ҳасанбаева таваллудига бағишлаб ўтказилаётган

**“УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ДАВРИДА  
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ  
РОЛИ”**

мавзусидаги талабаларнинг

**илмий-амалий анжумани  
материаллари**

**2022 йил 11 март**

**Тошкент – 2022**

# **“UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYANING ROLI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-KONFERENSIYANING TASHKILIIY VA DASTURIY QO‘MITASI**

- 1. Qirg`izboyev A.K.**- TDPU rektori, tashkiliy qo‘mita raisi.
- 2. Abdullayeva B.S.**- TDPU innovatsiyalar va ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor.
- 3. Xamdamova M.T.**-“Maktabgacha ta’lim” fakulteti dekani.
- 4. Agzamova M.N.**- “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi mudiri.
- 5. Kayumova N.M.**- “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi dotsenti.
- 6. Choriyeva D.A.** -“Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi PhD., v.v.b. dotsenti.
- 7. Irisbayeva Yo.O`.**- “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
- 8. Najmiddinova G.O.**-“Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi.
- 9. Jo`rayeva N.T.** - “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

**“Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi dotsenti N.M.Kayumova, PhD., v.v.b. dotsent D.A.Choriyeva tahriri ostida.**

## **Taqrizchi:**

**Agzamova M.N.** - pedagogika fanlari bo`yicha PhD

To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldirlar.

Konferensiya materiallari “Maktabgacha ta’lim” fakultetining ilmiy - uslubiy Kengashi majlisida muhokamadan o‘tib, nashrga tavsiya etilgan.

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI REKTORI  
ABDUG`AFFOR KARIMJONOVICH QIRG`IZBOYEVNING  
KIRISH SO`ZI**

**Hurmatli konferensiya qatnashchilari!**

Barchangizga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakultetining Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasidan mamlakatimizda 2022 yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" doirasida maktabgacha ta'lim tizimida ko'p yillar samarali faoliyat ko'rsatgan pedagog olimi Oysha Hasanbayeva tavalludiga bag'ishlab, "Uchinchi renesans davrida maktabgacha ta'lim-tarbiyaning roli" mavzusidagi talabalar ilmiy-amaliy anjumaniga xush kelibsiz, -deymiz.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu ilmiy- amaliy anjumanning asosiy maqsadi - maktabgacha ta'limning tizimini samarali tashkil etish va oilada qizlar tarbiyasi bilan bog'liq masalalar bo'yicha samarali ijodiy ishlarni olib borgan, pedagogika sohasiga munosib hissa qo'shgan olimi, professor Oysha Hasanboyevani xotirlash va uning ilg'or g'oyalari, qarashlari, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim va pedagogika sohasi bo'yicha chop etilgan asarlaridan ta'lim-tarbiya jarayonlarida samarali foydalanishning ahamiyati va zaruriyatiga qaratilgan.

Bugungi ilmiy-amaliy anjumanda professor O.Hasanboyevaning maktabgacha ta'lim sohasida olib borgan faoliyati, amalga oshirilgan ishlari, ularning natijalari, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlashga qo'shgan hissasi, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va ularni metodik ta'minotini ta'minlashdagi olib borgan xayrli ishlari yuzasidan shogirdlari, soha bo'yicha faoliyat yuritib kelayotgan mutaxassislar, ya'ni

professor-o‘qituvchilarning ma’ruzalari, fikr-mulohazalari tinglanadi.

Mazkur ilmiy konferensiyaning natijalari universitetda amalga oshirib kelinayotgan ustoz-shogird tizimi faoliyatini samarali tashkil etish, talaba-yoshlar hayoti va faoliyati davomida ustozlarni xotirlash orqali ularning o‘giti, jonbozligi va olib borgan mashaqqatli mehnatlarini qadrlash, yod etish eng muhim ularning munosib izdoshlari va davomchilari sifatida jamiyat taraqqiyotida o‘z-o‘rniga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk kadrlar bo‘lib, mamlakatimizni porloq kelajagi yo‘lida munosib xizmat qilishga tayyorlaydi.

## **OLIV TA’LIM MUASSALARI FAOLIVATIDA RAHBARLARNING HAMKORLIKDAGI BOSHQARUVINI TAVSIFLANISHI**

**p.f.d., prof. B.S.Abdullayeva**

Mustaqillik yillarida o‘shib kelayotgan yosh avlodni intellektual boylik yarata oladigan qilib tarbiyalashga e’tibor qaratilib, bu borada yurtboshimizning: “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘shishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz”, – degan fikrlari juda o‘rinlidir.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolligini oshirish, ularning o‘z faoliyatidan qoniqish hosil qilish, kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, shuningdek, pedagog-xodimlarning mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, ularga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratish yo‘nalishida halaqit berayotgan sun’iy to‘siq va muammolarni aniqlash, hamda ularni bartaraf etish yo‘nalishlarida hamkorlikda boshqaruvni tashkil etish, hamkorlikdagi boshqaruv jarayonini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlarni qabul qilishlari, hamda ularni amalga oshirish uchun turli xil tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishlari zarur.

Rahbar bilan pedagog-xodimlar o'rtasidagi hamkorlikdagi boshqaruvni yo'lga qo'yish ta'lim-tarbiya jarayonida o'ziga xos ahamiyat kasb etib bunda rahbardan talab qilinadigan jihatlar quyidagilarni tashkil etadi: jamoa o'rtasida obro'-e'tiborga egalik; boshqaruvda adolatlilik va shaffoflikni ilgari surish; jamoaning ishonchini qozonish, o'zaro hurmat va e'tiborni qozonish; xodimlar faoliyatini to'g'ri idrok qilish, ularni har tomonlama o'rganish va analiz qilish; talabchanlik, adolatli bo'lish, o'z ustida ishlash, mehnatsevarlik; pedagog-xodimlarning mehnatini qadrlash, ularni taqdirlay bilish.

Oliy ta'lim muassasalari pedagog-xodimlarni boshqarishni faollashtirishga to'siq bo'luvchi bir qator motivlar mavjud bo'lib ularga quyidagilar kiradi:

✓ jamoa a'zolarining ta'lim muassasasi faoliyatini yuksaltirishga, samaradorligini oshirishga va takomillashtirishga oid takliflar kiritishdagi ularning loqaydlik va e'tiborsizligi;

✓ ta'lim muassasasi hayotidagi mavjud kamchiliklarni doimo tanqid qilish, pedagog-xodimlarga nisbatan hurmatsizlik va murasasizlik;

✓ pedagog-xodimlarning hamkorlik boshqaruvidagi ishtirokining sustligi, pedagog-xodimlarning faol emasligi.

Yuqoridagi mavjud motivlarni bartaraf etishda rahbar shaxs qo'yidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishi lozim:

- faqat jamoa fikrini inobatga olib ish ko'rish emas, aksincha ularning erkin faoliyat yuritishiga, o'z ustida ishlashiga va ijod qilishiga shart-sharoitlarni yaratib berish;

- pedagog-o'qituvchilar faoliyatida ularning faolligini oshirish uchun tanqidga to'g'ri munosabat bildirish, iqtidori, qobiliyati va imkoniyatlarini hisobga olish;

- mehnatni ratsional tashkil etish – qog'ozbozlikdan, majlisbozlikdan, foydasiz ishlardan tiyilish va vaqtni qadriga yetish;

- jamoa a'zolarining madaniy ongini o'sishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- boshqaruvni faollashtirish, ya'ni jazolashga emas, balki rag'batlantirishga, qo'llab quvvatlashga, turli shart-sharoitlarni yaratib berishga erishish.

Shuningdek, rahbarlar o'rtasidagi hamkorlik faoliyati undagi psixologik muhitni belgilovchi omil hisoblanadi. Shu bois rahbarning jamoasi va yordamchilari bilan

munosabati ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda bir qator ahamiyatga ega.

Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, rahbar va uning kuchli tomonlariga quyidagilar muhim o'rin tutishi alohida ta'kidlab o'tiladi. Bularga quyidagilar kiradi: tashkilotchilik, kasbiy ishchanlik, muomalaga kirishimlilik va o'zini tuta olishlik, talabchanlik, insoniylik, kasbiy imkoniyat, uddaburonlik, maslahatgo'ylik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, kreativlik, kompetentlik, kognitivlik kabi sifatlarga ega bo'lishini afzal hisoblashar ekan. Rahbarning o'rinbosarlari bilan ishlashlariga to'siq bo'luvchi sifatlariga quyidagilar kiradi: faoliyat jarayonida pedagogik taktika va mahoratning yetishmasligi; o'quv - tarbiya jarayonini tashkil etishda uyushganlikning mavjud emasligi; taktika, vazminlik, emotsiya va irodaviylikning yetishmasligi; jamoadan talab qilish malakasining yetarli shakllanmaganligi; ishda uddaburonlik va jamoaviy yondashishning yetishmasligi. Rahbar bilan rahbar o'rinbosari o'rtasida nizo keltirib chiqaruvchi ayrim jihatlar mavjud bo'lib, ushbu holat ish unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbar jamoa a'zolari bilan hamkorlikdagi faoliyatida rag'batlantirish bilan bir qatorda jazolash yoki tanqid qilish asosida ular faoliyatini to'g'ri yo'nalishga solishi mumkin. Buning uchun rahbarning pedagoglarni tanqid qilishida bir qator qoidalarni inobatga olishi o'rinli bo'ladi. Jamoa ishini tashkil etishda rahbar shaxsining namuna sifatida o'rnatilishi muhimdir. Chunki psixologiyada jamoada rahbar shaxsining nufuzga egaligi, shaxsiy namuna bo'la olishi, xodimlarga emotsional ta'sir ko'rsatishi doimo e'zozlab kelinadi.

## **I-SHO‘BA**

### **“PROFESSOR OYSHA HASANBOYEVA PEDAGOGIK QARASHLARIDA MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM UZVIYLIGI HAMDA IZCHILLIGI”**

#### **OYSHA XASANBOYEVA VA QADR QIMMAT, OR- NOMUS TARBIYASI**

*Hamdamova Mahzuna Tursunovna*

*Maktabgacha ta‘lim dekani*

*Temirova Barno Kiyomxonovna*

*Maktabgacha ta‘lim fakulteti 1- kurs talabasi*

Bugun mamlakatimizdagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari menejment, marketing, o‘quv jarayoni, ta‘lim-tarbiya nuqtai nazaridan ilmiy laboratoriyaga o‘xshaydi. Ushbu laboratoriya faoliyatida qilingan ishlardan qilinmaganlari ko‘proqdir. Shular jumlasiga maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim va tarbiya berishda qadr- qimmat va or- nomus tarbiyasini tashkil qilish, uning samaradorligini oshirish masalasi kiradi. Ushbu masalani hal qilish uslubiyatida ko‘rgazmalilik, xususan, millatimiz fahri va iftixori bo‘lgan shaxslarning qadr- qimmat, or- nomus bo‘yicha maktabgacha ta‘limda arzigulik hayoti va ijodidan foydalanish ahamiyatlidir. Bu o‘rinda Xasanboyeva Oysha Usmonovnaning hayot yo‘li, ijodi, hamda u haqidagi zamondoshlarining esdaliklari, Oysha Xasanboyevaning ilmiy asarlari, monografiyalari va uning ilmiy izlanishlaridan, rahbarlik lavozimida olib borgan boshqaruvidan bevosita xabardor bo‘lgan kishilarning taassurotlari, fikrlari va xulosalari muhim ahamyat kasb etadi.

Oysha Xasanboyevaning or- nomus va qadr- qimmatga bog‘liq bo‘lgan sifatlari, uning umumiy xarakterini belgilab beruvchi mezonlar turkumini tashkil etadi. Undagi rostgo‘ylik, olijanoblik, insonparvarlik, vafodorlik, inson qadriga hurmat nafaqat uning ongli faoliyatining ko‘rsatgichlari, balki bular uning kundalik turmush tarzi, uning ko‘nikmalaridir. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, Oysha Xasanboyeva ahloqiy faoliyatini belgilovchi asosiy ahloqiy- etik mezon undagi so‘z va amal birligidir.

Shulardan kelib chiqqan holda, birinchidan, bozor munosabatlari ta‘sirida milliy, ahloqiy normalarimizda sodir bo‘layotgan kentiklar, pul, manfaat ustunligi kabi gohi-

gohida ko'zga tashlanadigan illatlar, ikkinchidan, "ommaviy madaniyat" ta'sirida shakllanayotgan qalloblik, yolg'onchilik, betayinlik, sotqinlik, ahloqsizlik kabi illatlar, uchinchidan, o'tmish sarqitlari hisoblanadigan va turmushimizda uchraydigan bir qator ahloqiy kamchiliklar yangilanayotgan O'zbekistonning ahloqiy normalari va uning talablariga javob bermaydi.

Ushbu kamchilikni tuzatish esa kompleks yondoshuvni talab qiladi. Shular orasida Oysha Xasanboyevaga xos bo'lgan ahloqiy sifatlarni, xususan, or-nomus va qadr- qimmatga aloqador bo'lgan ahloqiy qarashlarni, normalarni, talablarni, g'oyalar tizimini va kodekslarni ishlab chiqish va ularni xilma-xil vositalar yordamida aholining barcha qatlamlarida shakllantirish hamda rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

Shulardan kelib chiqqan holda, ahloqiy tarbiyaga Oysha Xasanboyeva siymosini olib kirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish kerak. Pedagogikada "falonday bo'lgin, nega sen falonday bo'la olmaysan, sen falonday bo'lishing uchun senda qobiliyat yo'q"- degan qarashlar mutloq o'zini oqlamaydi. Aksincha, bu o'rinda tarbiyachilarimiz Oysha Xasanboyeva hayotidagi ilmga intiqlik, nafosat, mehribonlik namunalarini keltirib tarbiyalanuvchilardan Oysha Xasanboyevaning shu sifatlariga qiziqish va izlanish malakasini shakllantirishlari kerak.

Qiziqish bu- yo'nalishli va tizimli jarayondir. Ushbu tizim bilan tarbiyalanuvchi shug'ullanganda bir tomondan, u Oysha Xasanboyevani o'rganadi, ikkinchi tomondan o'zini Oysha Xasanboyeva bilan o'zini solishtiradi, uchinchi tomondan, o'ziga baho beradi, to'rtinchi tomondan, ushbu bahoni odamlarning unga berayotgan bahosi bilan solishtiradi, va nihoyat o'zining tuzatishi kerak bo'lgan odatga ko'ra, harakatga ko'ra, munosabatga ko'ra, baho va qarashlarga ko'ra kamchiliklarini tuzatish yo'llarini axtaradi. Ushbu holatda Oysha Xasanboyevadagi or va nomusning har narsadan ustun ekanligi, uning hech narsaga sotilmasligi, insonni inson qilguvchi va insonni boshqa insonlardan farq qildirguvchi or va nomus ekanligini anglaydi. Shuning uchun ham Oysha Xasanboyevaning tarbiyasida "Or-nomusingni, qadr- qimmatini bolalikdan saqla"- degan tamoyil uning hayotida shakllantiruvchi tamoyil bo'lib qolgan.

Oysha Xasanboyeva yoshligidan to umrining oxiriga qadar o'zining qadr-qimmatini boshqalarning qadr-qimmatida ko'rgan. Shuning uchun ham ko'p yillar



davomidagi rahbarlik lavozimida o'tirganida holatlarni aniqlamasdan turib, u xoh yuqori mansabdor bo'lsin, xoh oddiy farrosh surishmasdan turib xulosa chiqarishga shoshilmagan. Oysha Xasanboyeva faoliyatida hamkasblarining, zamondoshlarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, biror shaxs haqoratlanmagan, shaxsni haqoratlash Oysha Xasanboyeva tasavvurida ahloqsizlikning eng xunuk ko'rinishlaridan biri bo'lib hisoblangan. Oysha Xasanboyeva shaxs haqida, ikkinchi shaxsning bahosi haqida gapirar ekan unga baho berishdan oldin,- "shaxsning ketida turgan oilasi, bolalari, eri yoki xotini, qarindosh-urug'i, avlodi turganligini fahmlash kerak"- deydi. Uning bunday qarashi bugungi kunda yoshlarni or nomus va qadr-qimmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamyatga ega.

Ushbu zaruriyatni anglagan holda bolalarimiz maktabgacha yoshdanoq "agar shundoq qilsam- dadam nima deydi, oyim nima deydi, odamlar nima deydi"- degan qarashlar bilan o'sishi kerak. Agar biz maktabgacha yoshdagi bolalarda xuddi shunday o'z- o'zini onglash va o'zida ota- onasi, oilasining qadr- qimmatini, or- nomusini himoya qilish odatini shakllantirsak bolalar tarbiyasiga zarur bo'lgan muhim hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TENGDOSHLARI BILAN BO'LADIGAN MULOQOTINI O'RGANISH**

*M.N.Agzamova Nizomiy nomidagi TDPU Makabgacha ta'lim psixologiyasi  
va pedagogikasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

Muloqot deganda insonlarning umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda, kelishilgan holda olib borgan o'zaro munosabati tushuniladi.

Muloqot bolaning ilk yoshidan boshlab psixik taraqqiyotining asosiy faktorlaridan biridir. Maktabgacha yoshda bolaning kattalar bilan muloqoti 4 xil ko'rinishda bir-birini to'ldiradi, ular: vaziyatli-shaxsiy, vaziyatli-ishchanlik, vaziyatdan tashqari- bilish va vaziyatdan tashqari-shaxsiy muloqot. Tengdoshlari bilan 3 xil munosabat shakllari:hissiy-amaliy, vaziyatli-ishchanlik va vaziyatdan tashqari-ishchanlik ko'rinishlari mavjud. Muloqot qilish motivlari va mazmuni o'zgaradi,

muloqotga kirishish malakasi hamda ko'nikmasi shakllanib maktabga psixologik tayyorlikning komponentlaridan biri bo'lmish muloqotga kirishish sifatida shakllanadi. Bola sekin-asta kattalar bilan o'z munosabatlarini aniqlay boshlaydi (kattalar bolalarga qanday munosabatdalar va boladan nimani kutadilar). Tengdoshlariga nisbatan qiziqish kattalarga qiziqishga nisbatan kech ro'yobga chiqadi. Tengdoshlari bilan muloqot turli jamoalarda to'planadi. Boshqa bolalar bilan munosabat shakllanishiga faoliyatlarning qanday olib borilishi va bolaning bu topshiriqlarni bajarish malakalari ta'sir ko'rsatadi.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar-bu bolalarning birinchi ijtimoiy birlashmasi hisoblanadi, bu jamoada bolalar turli faoliyatlarda o'z muloqotlarini boshqaradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'zaro do'stona munosabatni shakllantirishda turli nizolarga duch kelish mumkin. Ulg'aygan sari maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlariga bo'lgan munosabati o'zgarib boradi, bolalar o'rtoqlarini ishchanlik xususiyatlariga qarab emas (qiziq o'yinlarni tashkil etish malakasi, tengdoshlari bilan kelishib ishlashi, kattalarga, kichkintoylarga yordami), balki shaxsiy sifatlariga qarab ham, ayniqsa, ahloqiy sifatlariga qarab ham baholay boshlaydilar. Bu bolalarning ahloqiy me'yorlar haqidagi tasavvurlarining shakllanishiga va ahloqiy sifatlar mazmunini tushunishlariga bog'liq.

Bolaning tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlarini kuzatilganda atta yosh guruhida bolalar orasida tanlanish munosabatlari o'rnatilganini kuzatish mumkin. Bolalar tengdoshlari o'rtasida har xil o'rinni egallay boshlaydilar, ba'zi bir bolalarni bolalar boshqalardan ko'proq tanlaydilar, ba'zi birlarini kamroq tanlaydilar. Bolalar tomonidan tanlanish boshqaruvchilik tushunchasi bilan bog'liq. Boshqaruvchilik ijtimoiy psixologiyada asosiy ahamiyatga ega. Boshqaruvchilik ba'zi bir bolalarga boshqarish imkoniyatini yaratib, boshqalarga boshchilik qilish, ularni maqsad sari olib borish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruv jarayoni, birorta guruh faoliyatini tashkillashtirishda aniq maqsad qo'yish va unga erishishda o'z ifodasini topadi. Bunday tasavvurni maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi uchun ifodalash qiyin, asosan maktabgacha ta'lim tashkilotda qo'llash mumkin emas, chunki bu yoshda hech qanday maqsad va vazifalar belgilanmaydi, bunda ijtimoiy ta'sir to'g'risida

gapirish mumkin emas. Ayrim bolalarni tanlash bu tashqi tomondan tanlanish hisoblanadi. Bu tanlanish faqat shu bolalarga intilish xolos. Bolalarning taniqli bo'lishi tengdoshlari orasida katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolaning guruhdagi tengdoshlariga munosabati qanday taraqqiy etishiga qarab bolaning kelgusidagi shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyoti qay darajada rivojlanishini belgilash mumkin.

Bolaning muloqat qilish qobiliyati nutqiy rivojlanishini ham o'z ichiga oladi. Nutq bolaning kognitiv rivojlanishida muhim vosita bo'lib, ijtimoiy rivojlanish va dunyoni bilish uchun zarur vositadir. Mazmunga boy va rag'batlantiruvchi ta'lim muhitida bolalar og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar, bu ularga o'zlariga ishonishga, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, mashg'ulotlarda ishtirok etishga va loyiha ishlarini jamoa bo'lib bajarishga yordam beradi. Bolalar kattalar va boshqa bolalar tomonidan tushunilishlari uchun o'zlarini ifoda etishlari mumkin. Ular aytilganlarni tushunishlari uchun tinglaydilar va kuzatadilar; savollar va ko'rsatmalarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni rivojlantirish mashg'ulotlarga ijobiy qarashadi. Ular nutqning turli shakl va funksiyalarini biladilar, ulardan foydalanadilar va kerak bo'lganda ularni turli xil muloqot holatlarida moslashtiradilar. Ushbu kompetentsiya, shuningdek, axborot olish uchun turli xil aloqa vositalari va kanallardan mustaqil foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi; o'z ta'limi va rivojlanishida foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va tanlash, ularni tartibga solish, o'zgartirish, saqlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Bolaning muloqat qilish qobiliyatini rivojlantirish orqali bolaga o'z fikrini bayon etish, bahslashish, munozaraga kirishish, tasavvurlarini erkin nutq vositasida ifodalashga o'rgatilib boriladi.

Bolaning muloqat qilishga kirishishi bolaning jamoada o'zini tutish, tengdoshlari bilan samimiy munosabatda bo'lish, atrofdagilar bilan barqaror aloqalar o'rnatish, do'stlar orttirish, ularga yordam berish, o'z fikrini ifodalash, agar tushunmasa savol bilan murojaat qilish, kelishib o'ynash, ovutish, o'yinchoqlari va

qalamlari bilan o'rtoqlashish, kichkintoylarga yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarori.
2. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasova Ye.N., Galimova E.F. "O'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rejalashtirish". – T.:2020.
3. Vigotskiy.L.S. Pedagogicheskaya psixologiya.-M. 1998.
4. Diagnostika i korreksiya psixicheskogo razvitiya doshkolnikov. Pod red Ya.I.Kolomenskogo, Ye.A.Panko. M. 1998.
5. Korepanova M.V. Teoriya i praktika stanovleniya ti razvitiya obraza Ya doshkolnikov. Monografiya. Volgograd.Premena. 2002.

## **СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА**

**Абдуллаева Нафиса Шавкатовна**, PhD по педагогическим наукам,  
доцент, заведующая кафедрой Института переподготовки  
и повышения квалификации директоров и специалистов  
дошкольных образовательных организаций

В результате дальнейшего развития кластерной модели, которая рассматривается как новый механизм повышения и повышения эффективности всех видов и этапов образования в мировой практике, становится все более важным находить новые возможности образовательных парадигм, гарантировать результаты их перспектив путем установления взаимовыгодного сотрудничества субъектов, разрабатывать новые подходы и методы.

В целях дальнейшего совершенствования системы дошкольного образования совершенствуются программы "повышение содержания и качества образования, внедрение инновационных кластеров педагогического образования, эффективных в подготовке кадров педагогов с высшим образованием, обладающих конкурентоспособными, высокими знаниями и навыками". Это влечет за собой углубленное изучение проблемы обеспечения

интеграции видов и содержания образования на основе кластерного подхода в дошкольных организациях.

Президент Ш.М.Мирзиеев отметил: “В развитых странах большое внимание уделяется инвестированию в полный цикл образования, то есть инвестированию в образование ребенка от 3 лет до 22 лет. Потому что эти же инвестиции принесут обществу в 15-17 раз больше прибыли. У нас эта цифра всего в 4 раза больше. Следовательно, мы должны обратить внимание на человеческий капитал, мобилизуя для этого все возможности”.

Среди развитых стран обеспечение повышения качества образования в настоящее время является одной из важных задач. В этом месте давайте ответим на вопрос о том, что такое “качество образования”. “Качество образования” – это процесс, в котором функции качества компонентов всей образовательной системы, обладающие комплексной силой развития, объясняются изменениями в социальной, экономической, методологической и технологической среде деятельности образовательных учреждений. Целостность характеристик качества образования заключается в сочетании наиболее удобных методов, которые служат для формирования и личностного развития приобретенных знаний, навыков и квалификаций в области дошкольного образования, можно утверждать, что особый социально-педагогический и психологический процесс, осуществляемый с эффективным образовательным процессом, направленным на улучшение базового и всеобщего обеспечения качества образования, станет основой для достижения нами намеченного результата, начиная с дошкольного образования, которое является рычагом непрерывного образования.

В настоящее время возрастает потребность в эффективном функционировании дошкольных образовательных организаций и применении к ним современных методов с целью устранения возникших проблем. Одним из таких инновационных методов является кластер.

Практическое значение кластера предполагает повышение конкурентоспособности и достижение высокой эффективности экономики стран, отраслей и предприятий.

Для более полного удовлетворения потребности дошкольных образовательных организаций в высококвалифицированных кадрах будет организовано целенаправленное обучение.

В соответствии с требованиями дошкольных образовательных организаций формируются целевые учебные планы учебно-производственных комплексов, учебных дисциплин, спецкурсов.

Высшие учебные заведения принимают активное участие в советах, аттестационных комиссиях, ярмарках вакансий, где организуются выпускные экзамены.

Дошкольных образовательных организаций организует специальные проекты, стипендии и курсы в своих областях.

Поэтому для того, чтобы внедрить кластерную систему в деятельность системы дошкольного образования, необходимо провести:

- совершенствование квалификационных требований к дошкольному образованию, учебных планов и программ;
- создание необходимых условий для развития профессиональной компетентности педагогов;
- помочь студентам, окончившим высшие учебные заведения, перейти на следующий этап своего образования или в направлении;
- определение прав и обязанностей;
- создание современных учебников, пособий, электронных средств;
- практическая подготовка, организация прочной материально-технической базы для повышения качества дошкольного образования;
- использование зарубежного опыта;
- совершенствование дошкольного образования на уровне мировых требований и обеспечение его качества и эффективности;
- осуществление эффективной финансовой и экономической политики;
- создать систему менеджмента качества для образовательных учреждений;
- предоставление детям с ограниченными возможностями здоровья возможности получать образование в организации дошкольного образования.

Развитие кластерной системы дошкольного образования требует достижения динамичного баланса между рынком труда в социальной сфере и рынком образовательных услуг. Для этого:

- создание инновационной сетевой инфраструктуры, ориентированной на потребности перспективного рынка труда в системе дошкольного образования;
- повышение качества дошкольного образования;
- необходимо направить поток молодежи в социальную сферу.

С этих точек зрения можно сказать, что внедрение кластерной системы в систему дошкольного образования приводит к следующим результатам:

- дошкольные образовательные организации предоставляет возможности для повышения эффективности дошкольного образования благодаря их непосредственному контакту с квалифицированным персоналом, информационными и образовательными учреждениями;
- образовательные и исследовательские центры создают новые научно-методические разработки, тестируют их в короткие сроки и внедряют в практику;
- молодые кадры проходят подготовку в сфере дошкольного образования.

В заключение можно сказать, что в сегодняшнем стремительном развитии акцент делается на конкурентоспособных кадрах больше, чем когда-либо прежде. Развитие системы дошкольного образования, являющейся начальным этапом непрерывного образования, на уровне современных требований, внедрение в нее кластерного метода – это внезапный способ достижения намеченной цели, результата, устранения проблем.

#### **Использованная литература:**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun– T.: 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5313-son Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 213-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.04.2021 y., 09/21/213/0330-son.

5. Muhamedov G.I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija // "Xalq so'zi" 15 fevral 2019 yil. <http://xs.uz/uzkr/post>.
6. Muxamedov G.I., Xo'jamqulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri / monografiya – T.: Universitet, 2020. 280 b.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH**

*Abduqodirova Roxila Mamayusupovna Nizomiy nomidagi TDPU  
Maktabgacha ta'lim fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida qarorlar qabul qildi. Unda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishni ta'minlash bo'yicha farmoyish qabul qilindi.

XXI asr texnika va texnologiyalar asri. Bu zamonda yangiliksiz, izlanishsiz, yaratuvchanliksiz inson mustaqil individ sifatida hayotda o'z o'rniga ega bo'lolmaydi.

XXI asr texnika va texnologiyalar asri hisoblanadi. Bugungi kunda har bir oilada texnik qurilmalar – masalan, mobil telefonlari, televizor, kompyuter, planshet va boshqalar kundalik iste'molda keng qo'llanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, kichik yoshdagi bolalar kattalarga nisbatan bu qurilmalardan tez va oson foydalanishadi. Ammo, maqsadga yo'naltirilganlik darajasi juda oddiy. Shu ma'noda, maktabgacha ta'lim muassasalarini to'liq texnologiyalar bilan ta'minlanish bosqichiga o'tilmoqda. Bu esa ta'limda ko'rgazmali qurollardan, zamonaviy texnologiyalar asosida foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Ayniqsa, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar uchun o'yin dasturlarining bilimga qaratilgan turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.



Darhaqiqat, bugun barcha texnik vositalar bizning qo`limizdagi eng yaxshi qurol, bilimlar manbai hamda imkoniyatlar kalitidir. Faqat, maktabgacha ta`lim muassasalaridanoq undan to`g`ri va ongli foydalanish, ma`naviyatimizni yuksaltirishga qaratilgan uzluksizlik va uzviylik asosidagi dasturlar yaratishga loqayd bo`lmasagina bu hamkorlik porloq istiqbolga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta`lim tizimida bolalarning qiziqishi inobatga olingan holda hatto aniq bir yo`nalish bo`yicha ularni guruhlarga ajratish va ma`lum sohaga yo`naltirish mumkin. Alohida guruh tashkil qilinishi yoshligidanoq ma`lum sohalarga qiziquvchan bolalar bilan ishlash maqsadini ham osonlashtiradi.

Bunda bolalar ruhiyatiga, kayfiyati hamda qiziqishlariga hatto ularning bir xildagi kiygan kiyimlari ham ta`sir qilishi nazarda tutilsa, kichkintoylarda o`ziga bo`lgan ishonch, faxr tuyg`ulari yanada barqarorlashuvini yaqqol sezamiz. Masalan, bo`lajak vatanparvar bolajonlarning barchasi kichkintoy harbiylarga xos kiyimda bo`lishi o`zilariga ham katta zavq, mas`uliyat bag`ishlaydi.

Mutaxassisligi boshqa bo`lgan maktabgacha ta`lim muassasalarida ham xuddi shu kabi islohotlar o`tkazilishi mumkin. Masalan, har bir guruh uchun alohida rangdagi kiyimlar tanlanishi mumkin.

Bundan tashqari, bolalarga konlarni, qazilma boyliklarni izlab topish haqida tasavvur uyg`otish maqsadida turli o`yinlar tashkil etiladi: tuproqning yuzaroq qismiga qandaydir buyumni yashirish va uni mashaqqat bilan topgan bola rag`batlantirilishi muhim. Hatto, kichkintoylarga uni sekin, ohistalik bilan qidirish kerakligi, bo`lmasa zarar yetkazib qo`yish mumkinligi ta`kidlanadi. Bunday mashg`ulotlar bolalarni toza havoda chiniqtirish, tuproqda mashq bajarish bilan birga ularda topag`onlik qobiliyatini ham shakllantiradi.

Shuningdek, Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalar uchun alohida ingliz va rus tili xonalarini tashkil etish foydadan xoli emas. U yerda guruhlar navbat bilan mashg`ulot o`tkazishadi. Bolalar barcha innovatsion texnologiya vositalari, o`yinchoqlar, ko`rgazmalar vositasida mashg`ulot olib borsalar, jihozlarga ham shikast yetmaydi, nurlanishning oldi ham olinadi. Muhimi, bunday alohida xonalar bo`ylab yurish bolalarga yaxshi ta`sir qiladi. Ularda ana shunday xonalarga bo`lgan intilish

darsga bo`lgan qiziqishning ortib borishiga sabab bo`ladi. Xonaga kirganda bolalar o`zlarini xuddi chet elga tushib qolgandek his qilishlari uchun xona devorlari ham aynan shunday beztiladi. O`yinchoqlar berilganda tarbiyachi har bir o`yinchoqning inglizcha nomini aytib asta sekinlik bilan bolalarga o`rgatishi kerak.

Multfilmlarning inglizcha variantlari qo`yilishi ham til o`rganishni ancha mustahkamlaydi. Binobarin, endigi bo`lajak tarbiyachi pedagog axborot texnologiyalari va chet tillarini yaxshi bilishi ayni muddao hisoblanadi. Aks holda, ingliz tili mashg`ulotlarini aynan tarbiyachi emas, balki maxsus ingliz tili o`qituvchilari olib borsalar samarali natijalarga erishiladi.

Maktabgacha ta`lim tizimidagi islohotlar jamiyat va mamalakat taraqqiyoti bilan jadal suratda rivojlanib boradi. Shunday ekan, endilikda juda katta doimiy ish o`rinlariga ega sex hamda fabrikalar yonida kelajakda maktabgacha ta`lim muassasalariga ehtiyoj paydo bo`ladi. Bunda uzoqroqda yashaydigan bolalarni olib keluvchi alohida avtobuslar tashkil qilish, bunday muassasalarning ish tartibi va dasturlari haqida fikr yuritish ham alohida muammolardan hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakatlar strategiyasi.
2. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.
3. Bolalar bog`chasida tarbiyaning mazmuni //Maktabgacha pedagogika. Ikki qismli. 1-qism /V.I.Loginova va P.R.Samorukova tahr. ostida. -T.: «Tarbiyachi», 1991.-256 b.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING ILMIY SALOHIYATINI OSHIRISH**

*Abdullayeva Dilfuza TDPU "Maktabgacha ta`lim" talabasi*

Har bir davlatning rivojlanib taraqqiy etishi uchun albatta unga ilmi, bilimli kuchli, irodali, sadoqatli va vataniga cheksiz mehr muhabbatli farzandlar kerak. Jamiyatda pedagog (o`qituvchi, tarbiyachi) oldida bir qancha ulkan vazifalar turadi.

Birinchiidan, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchiidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma'suliyatli vazifalarni amalga oshiradi. Dunyoda biror kimsa yo'qki, uning ustoz bo'lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mexrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchaning o'z ustoz va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'l boshchisi bo'ladi. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishiga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi kerak bu haqda O'zbekiston Respublikasining biringi Prezidenti I.A.Karimov o'qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta'riflaydi: «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak». Buning uchun asosiy vosita sifatida dasturiy mahsulotlardan foydalanish davr talabidir. Bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun tarbiyachi katta kuch sarf qilishi kerak. Uning oldida mashg'ulot, darsni qiziqarli va boy qilish vazifasi turibdi, bu esa bolalarni faol o'rganishga undaydi. Ya'ni, tarbiyachi tomonidan mashg'ulot jarayonida taklif qilingan materialda favqulodda, hayratlanarli, kutilmagan ma'lumotlar elementlari bo'lishi lozim, ular maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv jarayoniga qiziqishini uyg'otadi va ijobiy hissiy muhitni yaratishga yordam beradi. Nafaqat o'quv jarayonini tashkil etishga, balki mustaqil o'yin faoliyatida ham dasturiy mahsulotlardan foydalanish bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ana shunday vazifalarni amalga oshirishda pedagoglarni yuksak bilimli qilib tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. Lekin afsuski bugungi kunda mamlakatimizda yuqori bilimli va oliy malumotli mutahassislar kam. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

tashabbuslari bilan ushbu sohada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buni 2017 -yil tashkil etilgan Maktabgacha ta'lim vazirligi misolida ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim jarayonining kadrlar va uslubiy ta'minoti bilan birgalikda, bu nafaqat zamonaviy maktab, balki maktabgacha ta'lim muassasasining huquqiy imkoniyatlarini baholashning hal qiluvchi ko'rsatkichidir. 2018 yilda oliy ma'lumotli pedagog-tarbiyachilar soni 23 272 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda 34 180 nafarni, 2020 yilda esa 37 000 nafarni, 2021 yil holatiga ko'ra 40 388 nafarni tashkil etmoqda. Bu degani, oxirgi 4 yil ichida 27,6% ko'rsatkich 31,7% ga yetgan.

Jumladan, hududlarda maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha fakultetlar va maxsus sirtqi guruhlari yaratildi. Pedagog va tarbiyachilarning oylik maoshi bosqichma-bosqich ko'tarilib, 70 foizgacha yetkazildi. Qolaversa, oliy ta'lim tashkilotlariga qabul kvotalari oshirilib, sohaga mutaxassislarni tayyorlaydigan Puchon Universiteti va A.I.Gertsen filiali tashkil etildi. Puchon universitetida jami 1 198 nafar talaba tahsil olib kelmoqda. I.A.Gertsen filialida esa 2021-2022 o'quv yiliga jami 405 nafar talaba qabul qilinishi rejalashtirilgan. Ayniqsa, bakalavr yo'nalishi bo'yicha ta'lim olish muddatining 3 yil yetib belgilangani mutaxassislarning tezkor yetishib chiqishiga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida kichik hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo'yicha davlat talablariga muvofiq va xalqaro standartlar asosida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ishlab chiqildi. Ma'lumki, ta'lim jarayonining asosini o'yin faoliyati tashkil qiladi. Eng asosiysi, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi doirasida har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida 5 ta rivojlanish markazlari tashkil etilgan bo'lib, pedagog-tarbiyachilar bolajonlarga qurilish va matematika, san'at, ilmiy va tabiat, til va nutq, syujetli-rolli o'yinlar kabi yo'nalishlarda tahsil berishmoqda.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tegishli sohada Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Singapur, Turkiya, Polsha va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Shu kunga qadar Maktabgacha ta'lim vazirligi va xorijiy hamkorlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan 66 ta memorandum va kelishuvlar imzolangan. Shuningdek, UNISEF, UNESCO, KOICA, JICA, TIKA, EXHT, Jahon

banki guruhi, Saudiya taraqqiyot fondi, “Россотрудничество” kabi xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan birgalikda ish olib bormoqda.

Qo‘shimcha ma’lumot sifatida aytish joizki, UNESCO tomonidan 2022 yilda Toshkent shahrida ilk yoshdagi bolalarga tarbiya va ta’lim berish bo‘yicha Butunjahon II konferentsiyasini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini joriy etish rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra 2020 yilda BMTning UNISEF xalqaro bolalar jamg‘armasi bilan birgalikda maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini sinovdan o‘tkazish rejalashtirilib 2021 yilda amaliyotga joriy etilmoqda. Olib borilayotgan bunday islohotlarning barchasi ona vatanimizda o‘tib ulg‘ayayotga yosh avlodlar uchun va yana har bir fuqaro uchun hamdir. Berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish, ularning qadriga yetib, yurt ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shadigan inson bo‘lish har birimizning burchimizdir.

## **YOSHLARNI IJTIMOIIY FAOL SHAXS SIFATIDA TARBIYALASH – DOLZARB PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Shukurullayev Ozodbek Arziyevich** *“Maktabgacha ta’lim” fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda erishilgan moddiy va ma’naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasini bo‘lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e’tiqod va so‘z erkinligi, ijtimoiy faolligi, diniy bag‘rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarining hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularni huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini obyektiv baholashga o‘rgatish yo‘nalishida o‘ziga xos vazifalar yuklaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom

ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"- deb ta'kidlab o'tganlar.<sup>1</sup>

Bugungi kunda "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!" degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan mazkur g'oyalarni yoshlarning onggi va shuuriga singdirishning eng asosiy vositalaridan biri - bu badiiy qadriyatlarni internalizatsiyalashdir. Badiiy qadriyatlar inteorizatsiyasi – ijtimoiy ahamiyatga ega yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni shaxs fazilatlariga aylanishidir. Ijtimoiy g'oyalar qachonki, shaxs sifatlariga aylanmas ekan, uning faoliyatda namoyon bo'lishi ehtimoldan yiroqdir.

Inson ijtimoiy munosabatlar jarayonida hayot kechiradi. Ijtimoiy jamiyatda qaror topgan ijtimoiy munosabatlar, ularni mazmuni, g'oya va yo'nalishlari shaxsning ijtimoiy shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Avvalambor ijtimoiylashish nima? Ijtimoiylashish – jamiyatning muvoffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan psixologik mexanizm, ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni individ tomonidan o'zlashtirish jarayoni. [3] Ijtimoiylashuv kishilik madaniyati, xususan, milliy madaniyat an'analarni o'zlashtirib borish jarayoni sifatida ham talqin etiladi. Madaniy muhitga moslashish jarayoni sifatida ijtimoiylashuv insonning butun umri bo'yi davom etadi, biroq bu jarayon bolaning 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan davrida boshlanadi. Mazkur davrda bola madaniy qadriyatlarni o'rganish jarayonidan uzib qo'yilsa ijtimoiylashuv jarayoni to'xtab qoladi. Insonning madaniy an'analarni o'zlashtirish jarayoni uning individualligining shakllanishi bilan hamohangdir.[5]

---

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent- "O'zbekiston"-2016.

Hayotga kirib kelayotgan bola va o'smir, yigit va qiz ko'pgina muammolarga ro'baro keladi. Shular orasida istiqbolda na'munali jamiyatni rivojlantirishning yangi yo'llarini, hayot – tartib qoidalari tizimini va qadriyatlarini belgilash, ijtimoiy holatlarni mustahkamlash va kasb tanlash muammolar asosiy o'rin tutadi .

Yoshlarning ijtimoiy faolligi muammosini o'rganish jarayoni shuni ko'rsatmoqdaki, u hali yetarlicha o'rganilmagan, ayniqsa, yoshlar bilan ishlash, dunyoqarash va milliy qadriyatlarni shakllantirish yo'llari tadqiq etilgan alohida monografiya, risola yoki ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi muammoning dolzarbligini belgilamoqda. [4]

Yoshlarda ijtimoiy faolligini oshirish natijaviylikni ta'minlash uchun ularning boshlang'ich tushunchalari, ijtimoiy faolligining ahamiyati va zaruriyati haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish; ta'lim-tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; yoshlarda ilm olishga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish; yoshlarda ijtimoiy faolligini oshirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish; pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash; ijtimoiy faolligini oshirish jarayonlariga innovatsion tuzilishga ega bo'lgan murakkab pedagogik tizim sifatida yondashish; pedagogik jarayonlarda yoshlarda o'tmish va kelajak haqidagi boy tasavvurni shakllantiruvchi reflektiv yondashuvni joriy etish; pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni ahamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish kabi shartlarning bajarilishini ta'minlash zarur.

Ijtimoiy faollik - ijtimoiy subyektlar (jamiyat, tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi. [3]

Buyuk davlat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek "Yoshlarimizning iymon e'tiqodini mustahkamlash irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarining muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning men o'zbek farzandiman,

deb g'urur va iftixor bilan yashashga erishishdir.” [2] Ijtimoiy faollik shaxsning hamiyatda o'z o'rnini topishi va hulq-atvorini ongli ravishda boshqirishining asosiy sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bunday dolzarb muammolarni yechish, avvalo milliy mustaqillik sharoitida ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Uni rivojlantirish esa ikki tamoyilga tayanadi. Birinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda o'tmishni teran his etib, xalqimizning ruhiyatini, uning tarixiy va milliy o'ziga xos jihatlarini, an'ana va urf-odatlarini hisobga olib, tarixiy taraqqiyot davomida to'plangan ma'naviy merosi va milliy qadriyatlardan foydalanish bo'lsa, ikkinchi tomondan tafakkuri va ijtimoiy amaliyotida to'plangan boy tajribasidan samarali foydalanishdir. Bu tamoyillar jamiyatimizning yangi rivojlanishi uchun ijtimoiy-ma'naviy asos bo'lishi tabiiy.

#### **Adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent-“O‘zbekiston”-2016.
2. I.A. Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2008y.
3. Ma'naviyat asosiy tushunchalari izohli lug'ati. –T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013y.
4. Ergashev I. Yoshlarni ijtimoiy faolligi. –T.: “Akademiya” nashriyoti, 2008y.

## **MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KASB TANLASHGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISH**

*Abduqodirova Ozoda A'zam qizi*  
*TDPU “Maktabgacha ta'lim” magistranti*

Davlat standartida har bir bolaning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash, har bir bolaning, shu jumladan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi, xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish. Ularga



ta'lim berishda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish zarurligi keltirib o'tilgan.

Shunga ko'ra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Bolada kasbga qiziqish o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bolada biron bir kasbga qiziqish quyidagi sabablar tufayli paydo bo'ladi:

- oiladagi muhit;
- biror bir faoliyatga nisbatan qobiliyatning mavjudligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida kasbga yo'naltirish orqali.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga kattalarni kasblar bilan tanishtirishning asosiy maqsadi:

- kasblar haqida aniq bilim va tushunchalar berish;
- kasblarga nisbatan qiziqish va xohishni uyg'otish;
- barcha kasblar muhimligini va uning jamiyat hayotida ahamiyatini bola ongiga singdirish;
- kattalar mehnatini qadrlash va hurmat qilishni tarbiyalash.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish bo'yicha bir qator olmlar tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan. N.K.Krupskaya bolalar bog'chasida kattalar mehnati haqidagi g'oyalarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tizimli ravishda olib borish kerakligini aytdi.

Kozlova bolalarning kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda vizual usullarning rolini ta'kidladi: illyustratsiyalarni ko'rish, filmlar ko'rsatish, namuna ko'rsatish. U maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar haqidagi g'oyalarini kengaytirishda bosqichma-bosqichlik tamoyiliga amal qildi.

T.A.Markova va V.G.Nechayevalar ekskursiyaga katta ahamiyat berganlar. Ular ekskursiyani maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblar haqidagi g'oyalarini shakllantirishning eng yaxshi usuli deb hisoblashgan.

MTT da bolalarni kasblar bilan tanishtirish har xil tashkiliy yo'llar va metodlar orqali amalga oshiriladi.

Birinchi yo'l - ekskursiya, mashg'ulot, maqsadli sayrlar orqali. Bunda kuzatish, kino va diafilm, diapazitiv, teleeshittirish, badiiy adabiyot, ko'rgan va eshitgani to'g'risida suhbat, tarbiyachi va bolalarning hikoyalari, tarbiyachining hikoya va tushuntirishi, didaktik o'yinlar kabi turli-tuman metodlardan foydalaniladi.

Ikkinchi yo'l - mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda. Bunda gigiyenik va pedagogik jihatdan mumkin bo'lgan ishlarni (binoni tozalash, idish yuvish, yuvilgan kirlarni dazmollash va taxlash, bayram kiyimlarini tikish, bolalar bilan o'yin, mashg'ulot uchun kerakli materiallarni tayyorlash va boshqalar) bolalar oldida bajarish, kuzatish, ko'rsatib tushuntirish, suhbat, tarbiyachining so'zlab berishi va shunga o'xshash materiallardan foydalaniladi. Kuzatishdan keyin bolalar bilan shunga o'xshash mehnat turlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi: kutubxonaga borib kelgandan keyin yirtilgan kitoblarni yamash, modalar atelyesiga borib kelgandan keyin qo'g'irchoqqa kiyim tikish va hokazolar.

Uchinchi yo'l - bolalarning kattalar bilan birgalikdag mehnatlari. Bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatlari har xil bo'lishi mumkin (xona o'simliklarini yuvish, polizda ko'chat yoki urug'larni ekish uchun jo'yaklar tayyorlash, binoning ichini tozalash va h.k.).

Shu o'rinda maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirishda ota-onalarni ham ushbu ta'lim jarayoniga jalb qilish ham yaxshi samara beradi. Aksar xorij davlatlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda kasbga nisbatan qiziqishni shakllantirishda mashg'ulotlar jarayoniga bevosita ularning ota-onalari jalb qilinadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirishda tarbiyachi har bir bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularni shu kasbga yo'naltirishlari lozim. Bolalarning kelajakda qanday inson bo'lishlari va qaysi kasbni egallashlari aynan maktabgacha yosh davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bizning masadimiz ham yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan barkamol avlodni tarbiyalab

voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu sababdan, maktabgacha yosh davridan bolalarni kasb tanlashga qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risida” qarori
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo’latova, N.M.Qayumova, M.N.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika” Darslik. Toshkent. 2019 yil

## **BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINI IJTIMOIYLASHTIRISH METODOLOGIYASI.**

*Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi*

*Nizomiy nomidagi TDPU. Boshlang’ich ta’lim mudiri, PhD.*

*Ortiqboyeva Zumradxon Xasanboy qizi*

*BT fakulteti va STI yo’nalishi III kurs talabasi*

Bilamizki, so’ngi yillarda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan ta’lim sohasida ko’plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan boshlang’ich ta’lim tizimida ham qator o’zgarishlar va yangilanishlar olib borildi. Bularning barchasini esa kelajak avlodni yanada ilmiy, ma’rifatli, respublikamizga kerakli kadr qilib yetishtirish yo’lidagi harakatlar deb atasak so’zimizda mubolag’a bo’lmasa kerak.

Boshlang’ich ta’limni rivojlantirish respublikamizda qator qonun va farmonlarda ham asosiy yo’nalish sifatida belgilab qo’yilgan. Jumladan, qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va senat tomonidan 2020-yil 7- avgustda ma’qullangan O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonunida, “Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasi”da, O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” va uni tasdiqlash to’g’risidagi Prezident farmonida yaqqol ko’zga tashlanadi. Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqib shuni aytishimiz joizki, o’sib kelayotgan yosh avlod kelajagiga davlat, jamiyat, maktab, mahalla hamda oila birdek mas’uliyat bilan yondashishi zarur. Yosh avlodni jamiyatda o’z o’rni va o’z pozitsiyasida tura olishi uning maktab va oilada rivojlantirilgan ijtimoiylashuv jarayoniga ko’p jihatdan bog’liq. Bola maktabgacha bo’lgan davrda birmuncha ijtimoiylashish elementlarini o’ziga singdiradi. Bu elementlar albatta

maktabgacha ta'lim muassasalari, oila va atrof muhitdan olingan taassurotlar natijasida hosil bo'ladi. Boshlang'ich sinfga kelganda esa har bir bola o'zini yangi pozitsiyada, ya'ni, o'quvchi pozitsiyasida ko'ra boshlaydi. Endi uning mas'uliyatlari birmuncha darajaga oshgan va bolaga nisbatan talabchanlik ham sezilarli darajada ko'paygan.

Ayni shu davrdan boshlab bola sotsiologiyasida tubdan o'zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Ayrim o'quvchilar maktabdagi o'quvchilik statusini mustahkam egallab, oiladagi farzandlik statusidan birmuncha ortda qolayotgandek tuyiladi yoki aksincha holat yuzaga keladi. Bunday vaziyatlar ro'y bermasligi, bolaning jamiyatdagi har bir statusini saqlab qolish va har qanday holatda ham ushbu statusda o'z fikrini ravon ifodalay olishiga ko'maklashish bizning oldimizdagi asosiy vazifalarimizdan biri bo'lishi kerak. Va bu vazifani bajarishda boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan birgalikda maktab psixologi, ota-ona va jamiyat ham birgalikda teng harakat qilishlari kerak. Bir qancha malakali pedagoglar tajribasidan kelib chiqqan holda shularni ta'kidlashimiz kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligi maktabdagi va oiladagi statuslarini birdek olib keta olmasliklari sababli bola psixologiyasida ko'plab o'zgarishlar ro'y beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning eng asosiy muammolaridan biri shuki ijtimoiylashtirishning metodologiyasi har doim ham to'g'ri tashkil etilmayotganligidadir. O'quvchilarni ijtimoiylashtirish metodologiyasini har bir pedagog o'z sinfidagi o'quvchilarning kelib chiqishi, psixologiyasi va o'quvchilarning oilaviy sharoitlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqishi lozim deb o'ylayman. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari, ayniqsa dastlabki birinchi va ikkinchi yillarda maktab sharoitiga ko'nikishi qiyin yoki umuman ko'nika olmayotgan bo'lishi kuzatiladi. Lekin yana shuni ham aytish kerakki, ayrim bolalar maktabda, dars jarayonida o'zlarini erkin va qat'iyatli tutadilarki, lekin oila a'zolari bilan suhbat olib borilganida oilada juda kamsuqum farzand ekanligini aniqlash mumkin. Demak bola o'z statuslarini yaxshi anglolmagan yoki shu statusda turishida unda qo'rquv bor. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bolaning ijtimoiylashuvida oila va maktab birgalikda ish olib borishi zarur. Chunki bola psixologiyasidagi har bir o'zgarish o'qituvchi va

ota-ona o'rtasida muhokama qilinib, agar muammoli vaziyatlarga duch keladigan bo'lsa, o'z vaqtida va samarali bartaraf etish lozim.

Bola ijtimoiylashuvi metodologiyasini tashkil etishda avvalo o'quvchilar bilan muntazam suhbat olib borish, o'quvchilarning shaxsiy fikrini so'rash, zarur bo'lgan holatlarda ularga chalg'ituvchi fikrlar yoki savollar bilan murojaat qilish talab etiladi. Ana shundagina o'quvchi o'z fikrini to'g'riligini isbotlashga harakat qiladi va shu orqali o'z shaxsiy dunyoqarashi va fikri shakllanib boradi. Ijtimoiylashuv metodlarini maktabdagi tarbiya darslaridan tashqari yana ko'plab fanlar mavzulariga singdirilgan holda olib borilsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, o'qish darslarida o'tilgan har bir mavzu bo'yicha o'quvchilarning fikri va mulohazalari so'rab borilsa, bora-bora o'quvchilarning fikridagi teranlik va aniqlik yaxshi tomonga o'zgarib borishini kuzatish mumkin. "Asar qahramoni haqida fikringiz qanday?", "Qahramonning o'rnida siz bo'lganingizda nima qilar edingiz?" kabi o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga undovchi savollardan har bir mavzuda foydalanib borish zarur. Bola ijtimoiylashuviga yaxshi ta'sir qilish maqsadida guruhlarda ishlash metodidan ham foydalanish zarur. Kichik guruhlar bilan ishlanganda har bir o'quvchining fikri aniqroq va o'ziga ishonchi balandroq bo'ladi. Buning sababi esa, o'quvchi, ayniqsa kichik boshlang'ich sinf o'quvchilari guruhda yetakchi bo'lishga, o'z pozitsiyasini guruhga singdirishga harakat ko'proq qiladi. Shu orqali pedagoglarning o'quvchilar ijtimoiylashuvidagi kamchiliklari yoki yutuqlarini muntazam ravishda kuzatib borish imkoniyatlari ortadi. Va har bir o'quvchi bilan alohida ishlashda ham kichik guruhlar samaraliroq hisoblanadi.

Biz pedagoglar kelajak avlodning bunyodkori sifatida o'z oldimizga har bir o'quvchi, har bir bolaning jamiyatdagi o'z o'rniga, o'zining mustahkam pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tarbiyalash, uning kamolini ko'ra olish maqsadlarini qo'yishimiz zarur. Buning uchun esa o'qituvchilar o'zi ham tinmay izlanishda bo'lishi zarur. Yangi metod va texnologiyalardan o'z o'rnida va samarali foydalana olish ham pedagoglarning yuksak mahorati hisoblanadi. Yangi texnologiyalardan biri STEAM texnologiyasi ham o'quvchilarni ijtimoiylashuvida yaxshi natija berishi ko'zda tutulgan. Ushbu texnologiyasining asosi fanlar integratsiyasi bo'lganligi uchun ham

aynan bola ijtimoiylashuvida foydalansak katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barcha fanlarga qiziqish katta bo'ladi, lekin vaqt o'tishi sayin o'quvchilar ayrim yo'nalishga qiziqishi kuchayishi mumkin. Buning natijasida esa, ko'plab fanlardan ortda qolish holatlari kuzatiladi. Ayni shunday holatlar yuzaga kelmasligi uchun STEAM texnologiyasi samarali yechim bo'la oladi.

Yuqoridagi fikrlarimizga hulosasi qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda davlatimizda o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bularga javoban esa biz pedagoglardan o'z kasbimizga mas'uliyat bilan yondashish va har bir o'quvchini o'z farzandimizdek ko'rib, kelajagiga befarq bo'lmasligimiz zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirishning metodologiyasini yaratishda eng yangi texnologiya va metodlarni bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda joriy qilinishi har bir pedagogning faoliyatida samarali natijalar kasb etishi shubhasizdir.

## **BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH.**

*Absatova Barno Eshmuratovna Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 6-maktab  
ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham ma'naviy-ahloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan: "Yosh avlodni ma'naviy – ahloqiy tarbiyalashda halqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analari asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi,"-deb alohida ko'rsatib o'tilgan[1]. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish Harakatlar strategiyasining ustivor yo'nalishi etib belgilandi .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3271 qarori kitobxonlik madaniyati dolzarb, kechiktirib bo‘lmaydigan davlat siyosati darajasidagi masala sifatida kun tartibiga qo‘ydi. [1]. Ta’lim oluvchilarda kitobxonlik, kitobni sevish kabi sifatlarini shakllantirish masalalari g‘oyat muhim muammolardan biridir.

Mazkur muammo xalq pedagogikasi, islomiy adabiyotlar, buyuk mutafakkirlarning ta’limotlarida aqliy tarbiya, bilim olish bilan bog‘langan holda talqin etilgan. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Kaykovus, Axmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husain Voiz Koshifiy, Zahriddin Muhammad Bobur, keyinroq esa Abdurauf Fitrat va boshqalarning ta’limiy – ahloqiy qarashlarida kitob va uning ilm olishdagi o‘rni haqidagi fikrlari bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Shuning uchun ham ma’naviyat, ta’lim, xususan oila muammolari bilan shug‘ullangan faylasuf, psixolog, pedagog, adabiyotshunos olimlar oila kitobxonligining yosh avlod ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rniga alohida ahamiyat berganlar. Pedagog olimlar O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Quronov, S.Ochilov M.Nigmatovlarning tadqiqodlarida oilada bolalar kitobxonligi, mustaqillik va ma’naviy kamolot negizlari, shaxsni ma’naviy – ahloqiy shakllantirish hamda komil inson tarbiyasida kitobning o‘rni kabi muammolar bilan uyg‘un holda tadqiq etildi.

Keyingi o‘n yillikda kitobxonlik muammolari va uni hal etish bo‘yicha A.Zunnunov, Q.Yo‘ldoshev, S.Matjonov, M.Mirqosimova, T.Niyazmetovalar adabiy ta’lim jarayonida, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda, oilada bolalar kitobxonligini tashkil etishda kitob bilan ishlash metodlari haqida tadqiqotlar olib bormoqdlar .

M.Murodov, X.Jamolov, F.Habibullayev, L.A.Nikitina, L.Strel’kova, I.V.Grebennikov, N.I.Bocharova, O.G.Tixinova va boshqalar esa kitobxonlik, oila kitobxonligi, kutubxonalar bilan hamkorlik muammolariga doir tadqiqot ishlari olib bordilar. Xususan, M.M.Nigmanova bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tadqiq etdi.

Kitob — barcha davrlarda bolalarning dunyoni anglashi, do‘st orttirishi, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘makchi bo‘lib kelgan. Bola qalbida Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mehr-oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlangan . Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog‘liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma‘naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o‘stirib, xotirasini mustahkamlaydi. O‘zbek oilalarida kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylash va kitobxonlik qadimiy an‘analardan biri bo‘lib, xalqimiz ma‘naviy kamolotida muhim o‘rin tutib kelmoqda. [3].

Xulosa qilib aytganda, bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ota-onalar bolalarni kitob dokonlarga olib borish, ularga rasmlı kitoblarni sovg‘a qilishi ularda kitobga bo‘lgan muhabbatini uyg‘otadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947- sonli farmoni. 2017-2021 yillar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 2017 yil 13-sentabr. PQ-3271.
3. Yoldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. T.Ozbekiston.2003.
4. Mutolaa madaniyati; shaxs, jamiyat, taraqqiyot.-T; Fan, 2004.

### **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СЕНСОРНОГО РАЗВИТИЯ И ВОСПИТАНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ**

**Антонова Кристина Александровна, Гараева Розалина Руслановна**  
студенты ТГПУ им.Низами

Процесс освоения окружающего мира в раннем и дошкольном возрасте происходит путем чувственного познания. Непосредственное чувственное восприятие окружающего мира составляет основу представлений, полнота и точность этих представлений зависит от степени развития сенсорных процессов, которые обеспечивают отражение действительности, то есть развитости ощущения и восприятия. Дошкольный возраст - это возраст, когда складываются



и развиваются сенсорные процессы. Сенсорное развитие — это процесс совершенствования ощущения и восприятия. Оно является условием успешного овладения любой практической деятельностью, поэтому сенсорное воспитание в этот период занимает важнейшее место.

Под сенсорным воспитанием в педагогике понимается система педагогических воздействий, направленных на формирование способов чувственного познания и совершенствования ощущений и восприятий.

Целью сенсорного воспитания является формирование сенсорных способностей у детей дошкольного возраста. Сенсорные способности складываются в процессе развития восприятия, которое определяется условием и использованием в деятельности систем перцептивных действий и систем сенсорных эталонов.

На этой основе можно определить следующие задачи сенсорного воспитания:

- 1) формирование у детей систем обследовательских (перцептивных) действий;
- 2) формирование у детей систем сенсорных эталонов – обобщенных представлений о свойствах, качествах и отношениях предметов;
- 3) формирование у детей умений самостоятельно применять системы перцептивных действий и системы эталонов в практической и познавательной деятельности.

Содержание сенсорного воспитания представляет собой круг свойств и качеств, отношений предметов и явлений, которые должны быть освоены ребенком дошкольного возраста. Этот объем определяется, с одной стороны, многообразием особенностей окружающего ребенка мира, а с другой стороны - разнообразием деятельностей, которые начинают складываться в дошкольном возрасте и имеют различные сенсорные основы.

Сенсорное воспитание осуществляется в неразрывной связи с разнообразной деятельностью детей. Особое значение в сенсорном развитии играют продуктивные виды деятельности: рисование, лепка конструирование. Успешное овладение той или иной деятельностью зависит от совершенствования

и развития сенсорных процессов, т.е. от восприятия и анализа того, что нужно делать. Поэтому воспитатель организует обследование - специально организованное восприятие предметов с целью использования его результатов в той или иной содержательной деятельности. Правила для общих видов обследования: восприятие целостного облика предмета; мысленное деление на основные части и выделение их признаков (форма, величина, цвет, материал); пространственное соотнесение частей друг с другом (слева, справа, над, сверху и т.д.); вычленение мелких деталей, установление их пространственного расположения по отношению к основным частям; повторное целостное восприятие предмета.

Для обогащения сенсорного опыта детей можно использовать дидактические игрушки и предметы, продуктивные виды деятельности (изобразительная деятельность, конструирование, лепка). Эффективным средством сенсорного воспитания является природа, т.к. познание природного окружения осуществляется чувственным путем: при помощи зрения, слуха, осязания, обоняния. Игры с природным материалом, с песком и водой, а также организация труда в природе обогащают сенсорный опыт ребенка.

Таким образом, чем больше органов чувств «задействовано» в познании, тем больше признаков и свойств выделяет ребенок в исследуемом объекте, следовательно, интенсивно осуществляется сенсорное воспитание и развитие дошкольника. Это позволяет формировать разнообразные представления об окружающем мире, на основе которых развиваются мыслительные процессы, воображение, формируются эстетические чувства ребенка.

Для сенсорного воспитания необходимо соблюдение ряда условий. Одним из важных условий сенсорного воспитания является осуществление его в процессе содержательной деятельности детей. Именно в условиях содержательной, результативной деятельности складываются возможности сделать особенности, отношения, свойства предметом внимания детей, предметом освоения.

Таким образом, в результате сенсорного воспитания ребенок овладевает

способами чувственного познания мира, наглядно-образным мышлением; происходит дальнейшее совершенствование всех видов детской деятельности, формируется относительная самостоятельность в познавательной и практической деятельности. Успех сенсорного воспитания обуславливается содержательной деятельностью детей и обучающим воздействием взрослого.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ATROF-MUHIT HAQIDAGI TASAVVURLARINI ANGLASHGA O'RGATISH**

*Artikbayeva A.A Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, halqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloqlga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy ma'naviyatni takomillashtirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloql g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish orqali ular tomonidan har tomonlama bilimlarni egallashi, psixik jarayonlarning rivojlanishi, qobiliyatlarini o'sishi, dunyoqarashini shakllanishi, ahloqiy sifatlar, ijobiy hulq-atvor odatlarini o'zlashtirilishi rivojlanishiga erishiladi.

Bolani o'rab turgan atrof-olam haqidagi tushunchalar bolalarda ona Vatanga muhabbat, ularni tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirish, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san'ati haqidagi shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga, foydalanishga o'rgatish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» davlat dasturi asosida amalga oshiriladi. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor

yo`nalishidir. So`nggi yillarda maktabgacha ta`lim tizimini takomillashtirish, ta`lim tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yengilashga alohida e`tibor berilmokda. Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo`lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo`yadi. Ta`lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so`z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu uzluksiz ta`lim tizimining ilk turi – maktabgacha ta`limga o`ziga xos yondoshuvni talab etadi. Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-ona zimmasiga uni sog`lom, aqlli, xush hulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo`yiladi.

Ona Vatan va atrof-olam: bolaning mustaqil O`zbekiston haqidagi tasavvurlarini boyitish; O`zbekistonning qadimiy shaharlari Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Toshkent va Buyuk ipak yo`li haqidagi bilimlarini mustahkamlash; bolaga “Konstitutsiya saboqlari” asosida tushunchalar berishni davom ettirish; O`zbekistonning mustaqillik kuni, davlatimiz ramzlari: gerb, bayroq va madhiyasi, O`zbekistonda davlat tili – o`zbek tili ekanligi haqidagi bilimlarini takomillashtirish; O`zbekiston Respublikasi Prezident tomonidan boshqarilishi, O`zbekistonning poytaxti Toshkent shahri ekanligi haqidagi tushunchalarini mustahkamlash; O`zbek xalq og`zaki ijodi namunalari asosida bola qalbida o`z millatiga muhabbat, milliy g`urur hissini tarbiyalash.

Buyuk siymolar: Bolani tariximiz va Sharqning buyuk allomalari, ularning hayoti va ijodi bilan tanishtirishni davom ettirish; ulug` allomalar: Alisher Navoiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, musavvir Kamoliddin Behzod haqidagi tushunchalarini aniqlash va mustahkamlash.

Xalq amaliy san`ati: bolani o`zbek xalq amaliy san`ati, milliy hunarmandchiligidan: zargarlik, zardo`zlik, misgarlik, ganchkorlik kabilar bilan tanishtirish; xalq ustalari tomonidan tayyorlangan buyumlardagi; kashtachilarning tikkan so`zanalari, zargarlarning nozik did bilan yasagan taqinchoqlardagi go`zallikni, ranglar jilosini his qilishga undash. Shu tariqa bola qalbida xalq ijodiyotiga, amaliy san`at asarlariga nisbatan qiziqish hissini tarkib toptirish.

Vatan, Vatan tuyg'usi, insoniylik odobi kabi tushunchalar oilada, jamiyatda milliy urf-odat va an'analarga rioya qilish bilan shakllanadi. Bolalarga atrof-alam haqidagi tushunchalarni singdirishda, ma'naviyatini shakllantirishda quyidagicha mavzularda suhbatlar tashkil etish ham ahamiyatlidir. Jumladan, «O'zbekiston – mening Vatanim», «Ona shahrim».

«Toshkent – O'zbekistonning poytaxti». «Samarqand – qadimiy shahar». «Vatanimiz ramzlari». «Maktabga sayohat». «Bozorlar va ularning turlari», buyuk siymolar, mashhur sarkardalar, bayramlar, xalq amaliy san'ati: «Kim bo'lsam ekan?», «Kashtachilik», «Zardo'zlik», «Shifokor», «Oshpaz» kasblari va hokazo. Bu mavzulardagi suhbatlar bolalarga tevarak- atrofga bo'lgan munosabatlarni mushohada qilib eshitib, tushungalarini bayon etish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurini qay darajada rivojlanganligini namoyon etadi.

Bola 6-7 yoshdan maktabga o'tishi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish yetarli bulishini ta'minlash tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta'lim yoshida bilim tez sur'atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, ijtimoiy faoliyatga kirish bilan amalga oshiriladi.

Tevarak-atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga ya'ni analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. (Issiq-sovuq, g`adir-budur). Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Bolalarni bilimlarni egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Umarova M. Bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. Metodik tavsiyalar. –T.: Nur-sehri Oshiyoni, 2007. -67 b.
- 2.Z.A.Raxmonqulova, M.Fayzullayeva, M.Nuriddinova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish. Metodik qo'llanma, T., 2015.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ ПЕДАГОГИКИ СОТРУДНИЧЕСТВА

*Асланова Низора Джурабекова*

*студентка факультета и направления «Дошкольное образование»*

*ТГПУ имени Низами*

Система отношений сотрудничества многоаспектное, но важнейшее место в нем занимает отношение воспитатель-дошкольник. Традиционное обучение основано на положении воспитателя в качестве субъекта, а дошкольника объекта педагогического процесса. В концепции сотрудничества это положение заменяется представлением об дошкольнике как о субъекте в процессе игровой деятельности.

Поэтому два субъекта одного процесса должны действовать вместе, быть сотоварищами, партнёрами, составлять союз более старшего и опытного с менее опытным (но обладающим преимуществами молодости); ни один из них не должен стоять над другим.

Сотрудничество в отношениях воспитатель-дошкольник реализуется в общей жизнедеятельности дошкольных коллективов, принимая различные формы (содружества, соучастия, сопереживания, сотворчества, соуправления).

Особенности содержания педагогики сотрудничества, в которой выделяются три направления:

- Гуманно-личностный подход к ребёнку.
- Дидактический активизирующий и развивающий комплекс.
- Концепция воспитания.

*Гуманно-личностный подход.*

Гуманно-личностный подход ставит в центр дошкольной образовательной системы развитие всей целостной совокупности качеств личности. Мера этого развития провозглашается главным результатом дошкольного образования, критерием качества работы воспитателя, руководителя, дошкольного учреждения в целом.

Такой подход обращает дошкольные учреждения к личности ребёнка, к его внутреннему миру, где таятся ещё не развитые способности и возможности, нравственные потенции свободы и справедливости, добра и счастья. Цель дошкольного учреждения - разбудить, вызвать к жизни эти внутренние силы и возможности, использовать их для более полного и свободного развития личности, средствами национальных и подвижных игр.

Гуманно-личностный подход к ребёнку в учебно-воспитательном процессе – это ключевое звено, коммуникативная основа личностно ориентированных педагогических технологий. Он объединяет следующие идеи:

- новый взгляд на личность как цель общего развития;
- гуманизацию и демократизацию педагогических отношений;
- отказ от прямого принуждения как метода, не дающего результатов в современных условиях;
- новую трактовку индивидуального подхода;
- формирование положительной Я - концепции.

Новый взгляд на личность представляют следующие позиции:

- личность проявляется, выступает в раннем детстве, ребёнок в дошкольном учреждении полноценная человеческая личность;
- личность является субъектом, а не объектом в педагогическом процессе;
- личность - цель образовательной системы, а не средство для достижения каких - либо внешних целей;
- каждый ребёнок обладает способностями, многие дети талантливы;
- приоритетными качествами личности являются высшие этические ценности (доброта, любовь, трудолюбие, совесть, достоинство).

*Гуманизация и демократизация педагогических отношений.*

Личностные отношения являются важнейшим фактором, определяющим результаты учебно-воспитательного процесса. Гуманное отношение к детям включает:

- педагогическую любовь к детям, заинтересованность в их судьбе;

- оптимистическую веру в ребёнка;
- сотрудничество, мастерство общения;
- отсутствие прямого принуждения;
- терпимость к детским недостаткам.

*Демократизация отношений* – утверждает

- право ребенка на свободный выбор;
- право на ошибку;
- право на собственную точку зрения;
- соблюдение Конвенции о правах ребенка;
- стиль отношений воспитателя и дошкольника не запрещать, а направлять; не управлять, а соуправлять; не принуждать, а убеждать; не командовать, а организовать; не ограничивать, а предоставлять свободу выбора.

*Новая трактовка индивидуального подхода*

Суть нового индивидуального подхода в том, чтобы в процессе обучения идти от тех возможностей, которыми располагает ребенок, учить его с учетом потенциальных возможностей, которые необходимо развивать, совершенствовать, обогащать.

Новая трактовка индивидуального подхода включает:

- отказ от ориентировки на среднего дошкольника;
- поиск лучших качеств личности;
  - применение психолого-педагогической диагностики личности (интересы, способности, направленность, Я - концепция качества характера, особенности мыслительных процессов).

### **Литература:**

1. Педагогика. Педагогика сотрудничества [электронный ресурс].-Режим доступа - <http://paidagogos.com/?p=4291>.



# **PEDAGOGLARDA FASILITATORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM UZVIYLIKINI TA'MINLASH OMILI**

**Z. M. Ashurova** Bux DUning P.I., maktabgacha ta'lim  
kafedrası tayanch doktoranti

Davr o'zgarishi bilan ta'lim-tarbiya tushunchasiga bo'lgan qarashlar va e'tibor ham zamonaviy tus olib boradi. Biroq, bunda biz uchun eng ahamiyatlisi shuki, ta'lim tizimidagi milliy ruhiyat, sharqona tarbiyaning uzviyligi o'zaro bir-birini to'ldirgan holda yosh avloni zamonaviy yetuklikka erishishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib, kamol topishi, baxtli bo'lishi" uzluksiz ta'lim tizimi jarayonining sifati va samaradorligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, bugungi kunda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, kreativ usullarni qo'llash orqali ta'lim berish, xalqaro talablar asosida o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu o'z o'rnida pedagoglar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Negaki, rad qilib bo'lmaydigan bir haqiqat bor — qilingan barcha sa'y-harakatlar oxir-oqibat o'qituvchi mehnati orqali o'z natijasini o'quvchilarning yaxshi bilimi va xush ahloqida namoyon etadi. Demak, ta'lim-tarbiyaning sifati, samaradorligi birinchi navbatda o'qituvchining qobiliyati va mahoratiga, xalqona tilda aytganda yaxshi muallimga, o'qituvchi va tarbiyachiga bog'liq.

Bugun biz aynan, zamonaviy ta'limdan talab qilinayotgan o'qituvchi-pedagogning *fasilitatorlik qobiliyatiga* to'xtalmoqchimiz.

Xo'sh, fasilitator kim, u qanday ma'noni anglatadi? degan savolga javob izlaymiz.

“Fasilitator” - inglizcha soʻzdan olingan boʻlib, “yordam beruvchi”, “yengillashtiruvchi” degan maʼnoni anglatadi. Yaʼni oʻquv-tarbiya jarayonida taʼlim oluvchilarning kafolatlangan bilimlarga ega boʻlishiga, oʻquv topshiriqlarni mustaqil bajarishga va ularda hayotiy koʻnikmalarni shakllantirishga koʻmaklashadi

Pedagog – fasilitator quyidagi qobiliyatlarni oʻzida mujassamlatirgan boʻlishi kerak:

- Oʻquvchiga doimo koʻmakchi boʻlish qobiliyati
- Jarayonni boshqara olish qobiliyati
- Savol bera olish qobiliyati
- kuzatuvchanlik qobiliyati
- Maslahat berish qobiliyati
- Eshitish va soʻzlash qobiliyati

Oʻquv mashgʻulotlari jarayonida fasilitator baʼzida maʼruzachi, baʼzida trener, baʼzida esa moderator vazifasini ham oʻrin almashtirib bajarib boradi.

Zamonaviy taʼlim uzviyligi va uzluksizligini taʼminlashda pedagogning fasilitatorlik qobiliyati quyidagicha dolzarflik kasb etadi:

- Jahon miqiyosida taʼlim sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy taʼlim yondashuvlaridan foydalanishga boʻlgan ehtiyojning kuchayib borayotganligi;
- taʼlim oluvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari, layoqatlari hamda bilimlarni oʻzlashtirish darajalarini hisobga olgan holda taʼlim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga eʼtiborning oshayotganligi;
- mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy tizimi har tomonlama rivojlanayotgan hozirgi sharoitda taʼlim sifati va samaradorligini taʼminlash maqsadida pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish zaruriyatiga ehtiyoj;
- maktabgacha va boshlangʻich taʼlimdagi oʻquv dasturlari va oʻquv-metodik majmualarda oʻz aksini topgan, taʼlim oluvchilarni hayotga tayyorlash va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DT va DTS ning prinsiplarining bajarilishini taʼminlash;
- uzluksiz taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli taʼlim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori


malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish yo‘nalishida shaxslararo hamkorlik va muloqot muhitini tarkib toptirish vazifasining ustivorligi;

Ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishda fasilitator:

- o‘quv mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etishi;
- “innovatsion muhit”ni shakllantirishi;
- ta‘lim oluvchilar orasida ijodiy, samimiy, do‘stona munosabatni yaratishi;
- o‘quvchilarning o‘zlarini erkin his qila olishlari va jamodagi ichki intilish moddiy-ma‘naviy qiziqish yuqori darajada bo‘lishini ta‘minlashi;
- kichik yoshdan boshlab bolalarni qobiliyatlari asosida ijodiy fikr yuritishga, maqsad sari intilishlariga yo‘naltirishi shart.

Ya‘ni fasilitatorlik qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagog ta‘lim – tarbiya jarayonida har bir bolaning qobiliyatidan kelib chiqib, ularga beriladigan vazifalarni to‘g‘ri taqsimlay olishi bilim sifatining yuqori natijasini kafolatlaydi.

O‘quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarishda fasilitatordan talab qilinadigan mezonlar



Natijada, ta‘lim tizimini tashkil etuvchi elementlar: o‘quv maqsadi, natijalar, mazmun, metod, shakl, vositalar, nazorat va baholash mezonlari tizimli amalga oshiriladi. Ya‘ni fasilitator ta‘lim jarayonini texnologiyalashtirishga erishadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachilarida fasilitatorlik ko‘nikmalarining mavjudligi tarbiyalanuvchilarda yoshlikdan quyidagi sifatlarning tarkib topishiga imkoniyat yaratadi:

- o‘zaro hurmat;
- hamkorlik qilish;

- o‘zgalarni qabul qila olish;
- o‘z-o‘zini baholash;
- refleksivlik;
- kreativlik;
- tolerantlik;
- boshqalar bilan muloqotda bo‘lib, muloqot vaqtida yoqimli, psixologik iqlim

yarata olish kabilar.

Natijada, o‘quv - tarbiya jarayonida pedagogning fasilitatorlik faoliyati ta’lim uzviyligining ta’minlanishiga imkon beradi. Ya’ni bog‘chada zamonaviy ta’lim – tarbiya olgan bola boshlang‘ich sinfda zaruriy ko‘nikmaga ega bo‘lgan holda yangi bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli egallab boradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy ta’lim maqsadlariga erishish, o’quv jarayonida murakkablikni oshirish, natijani kafolatlash, bilimlarni aniqlash va baholashda to’g’ri yechim topish, ijodkorlikni talab qilish, ta’lim oluvchilarning qiziqishini, shuningdek, ularning imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishga olib kelishda pedagogdagi fasilitatorlik qobiliyatining mavjudligi juda muhimdir.

Mavzuga oid tavsiyalarimiz:

- Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini innovasion yondashuvlar asosida fasilitatorlik faoliyatiga tayyorlash va boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari faoliyatida ushbu ko‘nikmani rivojlantirib borish;
- Tarbiyachilarga fasilitatorning maqsad, vazifasi, unga qo‘yilgan talablar haqida to‘liq tushuncha berish asosida ularning fasilitatorlik faoliyatini samarali tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish va boshlang‘ich ta’lim jarayonida ushbu ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogni fasilitatorlik faoliyatiga tayyorlashning samarali texnologiyalarini tanlash va takomillashtirishning ilmiy metodik jihatlarini aniqlashtirish;
- Pedagoglarining kasbiy kompetentligi va bilim darajasini aniqlovchi va rivojlantiruvchi zamonaviy psixologik va pedagogik korreksion metodikalarni

takomillashtirish hamda ularni fasilitatorlik faoliyatiga tayyorlashning samarali takomillashtirilgan texnologiyalarini ishlab chiqish va jarayonda qo'llash.

### **Adabiyotlar**

1. Futures for higher education: analysing trends. highereducation:meeting thechallengesof the 21stcentury. www.universitiesuk.ac.uk - ISBN: 978-1-84036-268-8 Universities UK January 2012- 128 b.
2. Rays O.I. Fasilitaciya, kak metod interaktivnogo obucheniya. Mejdunarodnaya Treningovaya Kompaniya. 2022g
3. R.P. Pathak. Methodology of Educational Research. USA-2008 Atlantic
4. Abraham Harold Masloou. Motivation and Personality. Year of the edition: 2011
7. Jan Kielven the artful science of instructional integration. Adapted from: Beyond monet. Barrie Bennett / Carol Rolheiser. 2001 p 14-15.

## **АКТУАЛЬНОСТЬ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Бабаева Доно Раззаковна** к.п.н., профессор кафедры Методика  
дошкольного образования ТГПУ им. Низами

**Каримова Регина Равильевна** студентка ТГПУ им. Низами направления  
Психология и педагогика дошкольного образования

Эстетическое воспитание - это целенаправленный, систематический процесс воздействия на личность ребенка с целью развития у него способности видеть красоту окружающего мира, искусства и создавать ее. Начинается оно с первых лет жизни. Эстетическое воспитание - понятие очень широкое. В него входит воспитание эстетического отношения к природе, труду, общественной жизни, быту, искусству. Однако познание искусства настолько многогранно и своеобразно, что оно выделяется из общей системы эстетического воспитания как особая его часть. Воспитание детей средствами искусства составляет предмет художественного воспитания. В свою очередь, эстетическое воспитание является частью всестороннего воспитания детей. Особенно тесна его связь с нравственным воспитанием. Знакомство с красотой в жизни и искусстве не только воспитывает ум и чувства ребенка, но и способствует развитию воображения и фантазии. В процессе осуществления эстетического воспитания необходимо решить следующие задачи: систематически развивать эстетическое восприятие, эстетические чувства и представления детей, их художественно-

творческие способности, формировать основы эстетического вкуса. Развитие эстетического восприятия, чувств и представлений детей. Ребенок с первых лет жизни неосознанно тянется ко всему яркому и привлекательному, радуется блестящим игрушкам, красочным цветам и предметам. Все это вызывает у него чувство удовольствия, заинтересованность. Слово «красивый» рано входит в жизнь детей. С первого года жизни они слышат песню, сказку, рассматривают картинки. Одновременно, с действительностью искусство становится источником их радостных переживаний. В процессе эстетического воспитания у них происходит переход от безотчетного отклика на все яркое, красивое к сознательному восприятию прекрасного.

Эстетическое восприятие действительности имеет свои особенности. Основным для него является чувственная форма вещей - их цвет, форма, звук. Поэтому его развитие требует большой сенсорной культуры. Красота воспринимается ребенком как единство формы и содержания. Форма выражается в совокупности звуков, красок, линий. Однако восприятие становится эстетическим только тогда, когда оно эмоционально окрашено, сопряжено с определенным отношением к нему. Эстетическое восприятие неразрывно связано с чувствами, переживаниями. Особенностью эстетических чувств является бескорыстная радость, светлое душевное волнение, возникающее от встречи с прекрасным. Воспитатель должен вести ребенка от восприятия красоты, эмоционального отклика на нее к пониманию, формированию эстетических представлений, суждений, оценок. Это работа кропотливая, требующая от педагога умения систематически, ненавязчиво пронизывать жизнь ребенка красотой, всячески облагораживать его окружение. Развитие художественно-творческих способностей детей. Дошкольникам доступны почти все виды художественной деятельности - составление рассказов, придумывания стихов, пение, рисование, лепка.

Цель обучения навыкам художественной деятельности заключается не только в том, чтобы дать детям знания и навыки в пении, рисовании, чтении

стихов и т.д., но и в том, чтобы вызвать в них интерес и желание самостоятельной творческой деятельности.

Актуальность эстетического воспитания детей дошкольного возраста заключается в том, что эстетическое развитие является важной составляющей гармоничного развития личности ребенка дошкольного возраста. Эстетическое воспитание тесно связано со всеми сторонами развития ребенка, позволяет ему оценить окружающую действительность, выделять прекрасное в окружающем нас мире, влияет на формирование полноценного восприятия окружающей действительности, которое служит основой познания мира.

Эстетическое развитие детей дошкольного возраста тесно связано со всеми сторонами воспитания. Оно усиливает воспитательный эффект других сторон воспитания через формирование эстетических чувств, эстетической отзывчивости, начальных этических понятий и оценок. В настоящее время появились публикации психологов, педагогов, этнографов, искусствоведов и других, в которых убедительно доказывается, что дети для полного гармоничного развития нуждаются не только во внимании взрослых, в благожелательном, эмоциональном, тактичном общении, но и в эстетически оформленном предметном пространстве, окружающим ребенка и развивающим его эстетическое восприятие мира и творческие способности.

Эстетическое воспитание является важнейшей стороной воспитания ребенка, оно способствует обогащению чувственного опыта, эмоциональной сферы личности, влияет на нравственные стороны действительности, повышает познавательную активность, даже влияет на физическое развитие.

Эстетическое воспитание не что иное, как одна из центральных сторон воспитания ребенка, оно направлено на обогащение чувственного опыта, эмоциональной сферы личности, так же оказывает влияние на познание нравственной стороны действительности.

Таким образом, можно прийти к мнению, что под эстетическим воспитанием понимается процесс формирования эстетического отношения к действительности, становление творчески активной личности, способной

воспринимать и оценивать прекрасное в окружающем мире с позиции эстетического идеала, а так же испытывать потребность в эстетической деятельности.

Эстетическое воспитание – это ежедневная работа во всех видах деятельности ребенка. На протяжении всего дошкольного периода происходят изменения восприятия ребенком от простого к сложному. В связи с этим, эстетическое воспитание является сложным и длительным процессом: дети получают первые впечатления, так же очень важно, чтобы родители вместе с ребенком обращали внимания на красоту окружающего мира, открывали для себя и для ребенка все новое и непостижимое, наблюдали объекты окружающего социума и подчеркивали красоту даже в мелочах.

## **ВИДЫ ВОСПИТАНИЯ И МОТИВАЦИЯ ДОШКОЛЬНИКА НА УЧЕБНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ**

*Гаипова Ольга Валерьевна*

*Студентка факультета “Дошкольное образование” ГПУ имени Низами*

Дошкольное детство – уникальный возраст, именно в этом возрасте закладываются основы всего будущего развития человека. Все участники учебно–воспитательного процесса в детском саду должны представлять себе цели воспитания, так как воспитание является главным в учебно - воспитательном процессе дошкольного учреждения. Чаще всего воспитание определяется как формирование личности. Воспитание – целенаправленный процесс разностороннего, полноценного развития ребенка в соответствии с его возрастными возможностями. Поэтому, я буду говорить о целях, задачах, о видах воспитания, и решения некоторых проблем у детей, которые развивают множество навыков дошкольников. Целью учебно–воспитательного процесса является всестороннее развитие ребёнка. Разберем несколько видов воспитания:

- 1) Трудовое воспитание. Трудовое воспитание является одной из важнейших сторон воспитания подрастающего поколения. В детском саду трудовое воспитание заключается в ознакомлении детей с трудом взрослых. Благодаря



этому у детей формируется положительное отношение к их труду, бережное отношение к его результатам, стремление оказывать взрослым помощь. Трудовая деятельность способствует повышению общего развития детей, расширению их интересов, проявлению форм сотрудничества, формированию таких качеств как трудолюбие, самостоятельность, ответственность за порученное дело, чувство долга и т.д. В процессе труда активизируется физическая сила и умственная деятельность детей. 2) Нравственное воспитание. Особое внимание в дошкольном образовательном учреждении отводится нравственному воспитанию. Развитие нравственных чувств, воспитания нравственных привычек, формирование нравственных суждений и оценок – всё это является составными частями при решении задач нравственного воспитания детей дошкольного возраста. Но нравственность пронизывает все направления деятельности с детьми: игру, знакомство с культурой быта, развитие познавательной активности, речевое развитие ребенка, социальное развитие. 3) Умственное воспитание. Умственное воспитание – прежде всего развитие активной мыслительной деятельности дошкольников. Полноценное умственное воспитание происходит только в педагогически правильной организованной деятельности. В содержание умственного воспитания входит развитие интеллектуальных умений и навыков, воображения, восприятия, памяти, мышления. Основой умственного развития и воспитания ребенка является сенсорное воспитание, которое направлено на развитие ощущений и восприятий. 4) Сенсорное воспитание. В содержание сенсорного воспитания входит развитие зрелищных ощущений: первая ступень познания окружающего мира, у детей формируются процессы рисования, конструирования, звукового анализа слов, труда в природе и т.д. Большое значение уделяется играм, которые способствуют развитию психологического здоровья. Прекрасным игровым материалом являются народные игры, которые помогают развивать: мышление, память, внимание, речь. Игры делятся на разные категории, например:

1. Логические игры (составь загадку, лодочки, составь рассказ)

2. Игры, развивающие фонетический слух (эхо, расколдуй слово)

3. Игры, расширяющие кругозор и словарный запас ребёнка (ловля рыб, цветы, море волнуется)

4. Игры, развивающие внимание и память (пуговицы, исчезнувший предмет, хамелеон, найди различия)

Как мотивировать ребенка на успешность учебной деятельности? Известно, что успешность учебной деятельности зависит от многих факторов, психологического и педагогического порядка. Толчком деятельности к учебе могут в равной степени стать и желание достичь успеха и страх перед неудачей. Мотивация успеха – так же носит положительный характер. При такой мотивации действия человека направлены на то, чтобы достичь положительных результатов. Личностная активность здесь зависит от потребности в достижении успеха.

Для достижения каких-то определенных успехов в мотивации, вам достаточно просто дать понять ребёнку пару элементарных вещей, например: 1) Интерес к изучаемым предметам. Часто у детей пропадает интерес к изучению некоторых предметов только потому, что они кажутся детям скучными. Однако нужно дать понять ребёнку, что на всех уроках дают нужную информацию, которая развивает разные навыки, поэтому важно изучать все предметы. Существует много дисциплин, изучение которых требует большего труда. В этом случае нужно найти другую мотивацию. Многое зависит от преподавателя, умеющего простым языком объяснять сложные вещи и так упрощать процесс изучения. 2) Способ изучения предметов. В группах детям намного проще обучаться с помощью активных методов, обсуждений и игровой формы. Воспитателю стоит обратить внимание, что задания типа «работаем самостоятельно» снижают интерес детей, а творческие и различные необычные, наоборот, повышают. 3) Восприятие информации. Некоторые дети лучше воспринимают информацию через зрение, другие через слух, третьи через изображения. Эффективность обучения детей во многом зависит от типа

восприятия информации. Родители могут сами подбирать способы обучения ребёнка, если поймут его особенности восприятия информации.

### **Литература**

1. Красовский Ю.Д. Управленческие ценности руководителей // ЗПУ. 2012. №2. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/upravlencheskie-tsennosti-rukovoditeley> (дата обращения: 03.05.2016).
2. Куряков А. В. Этико-педагогическая система А. С. Макаренко // МНКО. 2013. №5 (42). URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/etiko-pedagogicheskaya-sistema-a-s-makarenko> (дата обращения: 03.05.2016).

## **ИГРА - КАК ОСНОВНОЙ ВИД ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ**

*Гараева Розалина Руслановна*

*Студентка факультета “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами  
Антова Кристина Александровна*

*Студентка факультета “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами*

В современной педагогической теории игра рассматривается как ведущий вид деятельности ребёнка-дошкольника.

В дошкольном возрасте, игра становится ведущим видом деятельности, не потому что ребёнок большую часть времени проводит в развлекающих его играх, а потому что игра вызывает качественные изменения в его психике.

Влияние игры на общее развитие ребёнка.

Игровая деятельность влияет на формирование произвольности психических процессов. В игре у детей начинает развиваться произвольное внимание и произвольная память. В условиях игры дети сосредотачиваются лучше и запоминают больше.

Игровая ситуация и действия в ней оказывают постоянное влияние на развитие умственной деятельности ребёнка. В игре ребёнок учится действовать с предметами заместителями- он даёт им игровые названия и действует с ними в соответствии с названием.

Предмет заместитель становится опорой для мышления. Таким образом игра влияет на мыслительные процессы. Ролевая игра имеет определяющее значение для развития воображения.

Влияние игры на развитие личности ребенка заключается в том, что через нее он знакомится с поведением и взаимоотношениями взрослых людей, которые становятся образцом для его собственного поведения. В игре ребенок приобретает основные навыки общения.

Влияние игры на развитие речи.

Очень большое влияние оказывает игра на развитие речи. Игровая ситуация требует от каждого включенного в нее ребенка определенного уровня развития речевого общения.

Если ребенок не умеет высказывать свои пожелания относительно хода игры, если он не способен понимать словесные инструкции своих товарищей по игре, то он будет в тягость сверстникам. Игра как ведущий вид деятельности имеет особое значение для развития знаковой функции речи ребенка. В игре развитие знаковой функции осуществляется через замещение одних предметов другими.

Предметы заместители выступают как знаки отсутствующих предметов. Называние одним и тем же словом отсутствующего предмета и его заместителя концентрирует внимание ребенка на некоторых свойствах предмета по новому осмысливаемым через замещение.

Рефлексия.

Игра как ведущий вид деятельности имеет особое значение для развития рефлексивного мышления. Рефлексия – это способность человека анализировать свои собственные действия, поступки, мотивы, и соотносить их с общечеловеческими ценностями, а также действиями, поступками, мотивами других людей.

Рефлексия способствует адекватному поведению человека в мире людей. Игра ведет к развитию рефлексии, поскольку в игре возникает реальная возможность контролировать то, как выполняется действие, входящее в процесс общения.

Зарождение новых видов деятельности.

В игре складываются и другие виды деятельности ребенка, которые потом

приобретают самостоятельное значение. Так продуктивные виды деятельности (рисование, конструирование) первоначально тесно связаны с игрой. Рисуя ребенок разыгрывает тот или иной сюжет.

Стройка из кубиков вплетается в ход игры. Только к старшему дошкольному возрасту результат продуктивной деятельности приобретает самостоятельное значение. Так же внутри игровой деятельности начинает складываться и учебная деятельность, которая позднее становится ведущей деятельностью. Дошкольник начинает учиться играя- он к учению относится как к своеобразной ролевой игре, с определенными правилами.

**Игра как средство воспитания.**

В педагогической теории игры особое внимание уделяется изучению игры как средства воспитания.

Воспитание – это процесс развития качеств личности человека.

Основополагающим является положение о том, что в дошкольном возрасте игра является тем видом деятельности, в котором формируется личность, обогащается ее внутреннее содержание. Выдающиеся педагоги подчеркивали полярное влияние игры на развитие ребенка в зависимости от содержания деятельности: путем игры можно воспитать зверя, а можно прекрасного человека, нужного обществу [1]. В многочисленных психологических и педагогических исследованиях убедительно доказано что в игре происходит разностороннее развитие ребенка. Важнейшим средством воспитания становится и игрушка, формирующая представление о мире развивающая вкус, нравственные чувства.

Таким образом огромное значение игры для развития всех психических процессов и личности ребенка в целом дает основание считать, что именно эта деятельность является ведущей в дошкольном возрасте.

**Источники.**

1. <http://raguda.ru/ds/igra-kak-vid-dejatelnosti-v-doshkolnom-vozhaste.html>

## **PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA FANINI RIVOJLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI**

*N.N.Djamilova Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası professori, p.f.d*

Akmeologiya fanining rivojlanishi uzoq tarixga egadir. Akmeologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari tarixiy - falsafiy davrlar silsilasi bilan bog'liq. Ya'ni, akmeologik dunyoqarash qadimgi Yunoniston mutafakkirlari va zardushtiylik ta'limotining kitobi «Avesto», islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Hind eposi «Kalila va Dimna» hamda Kaykovusning «Qobusnoma» asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu davrda «akme» so'zi o'rnida «mukammallik», «oliy nasab» kabi tushunchalar ishlatilgan, Kaykovusning «Qobusnoma» asarida har bir yosh kasb-hunar yo'lida ilm-bilim egallashi, aql-zakovatni charxlashi bilan birga eng oliy insoniy fazilatlarga ega bo'lsagina yuksak maqsadlarga erisha olishi mumkinligi to'g'risida so'z boradi. «Barcha donish va hunardmandning sarmoyasi, – deydi. Kaykovus, «adab, tavoze, hayo, pokdillik, beozorlik, sabr va matonatdir. Fazl egasi bo'lay desang, so'zlash va so'zlashish san'atini egalla, chunki aql, idrok bilan aytilgan so'z yoki harakat aql va hikmat ko'zining surmasi va do'sti yog'idur».<sup>2</sup> Bizningcha, ilm-bilim va hunar egallash eng zaruriy jihat bo'lsa, ikkinchi muhim jihat – kishilar bilan doimiy muloqotda, munosabatda bo'lish har bir yoshdan ma'naviy, ahloqiy madaniyatni chuqur egallashni talab qiladi. Inson yoshi, vazifasi, faoliyatidan qat'i nazar doimo insonlar orasida yashaydi, o'qiydi va o'z faoliyatini namoyon etadi. Chunki har kim ilm-bilim egasi bo'lsa ham, o'z. muomala, xatti-harakati va odobida xato qilsa, saodatdan, boshqalar hurmat izzati, obro'si va qadrlashdan mahrum bo'ladi. Zero, mustaqil yurtimiz yoshlari yanada aqlli, dono, bilimdon, odobli, ijodiy va intellektual salohiyatga ega yetuk va mukammal shaxs bo'lib yetishishlari uchun, eng avvalo, o'zlarida insoniy sifatlarni jo etmoqilar muhim.

Xitoy manbalarining guvohlik berishicha, Sug'diyonada o'g'il bola besh yoshga yetgach, yozuv va hisobga o'rgatilgan, 20 yoshga kirganida biron kasb, hunarni

---

<sup>2</sup> Kaykovus «Qobusnoma». Yangi Asr avlodi T.: 2016 y 224 b.

egallagan bola savdo-sotiqni o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi. Xalifalikning yangi poytaxti Bog'dodda 832-yili «Baytul hikma» («Donishmandlar uyi») tashkil etilib, uning ehtiyoji uchun katta mablag' ajratildi. Uning qoshida ikkita rasadxona, ilmiy markaz tashkil etilib, dunyoning turli yerlaridan avvallari bitilgan, ilmga oid adabiyotlar to'plandi. Ular yunon, lotin, hind, xitoy, fors va boshqa tillardan arabchaga tarjima qilindi, o'rganildi. Bunday ilmiy, madaniy va ma'naviy yuksalish matematika, astronomiya, geografiya kabi fanlarning yaratilish va rivojlanish davri bo'ldi, desak, aslo adashmaymiz. Xorazmshox davlatiga xos osoyishtalik asosida moddiy ishlab chiqarish va madaniy rivojlanish jarayoni jadallashdi, shahar hayoti yuksala bordi. Ishlab chiqarish va hunarmandchilik turlari ko'paydi. Tog' jinslarini ishlash, shishasozlik, savdo-sotiq kuchaydi, Davlat boshqaruvi tizimida madaniyatni yaxshi anglagan, ilmi insonlar ko'paydi. Bu davrga kelib san'at, ayniqsa, devoriy tasvir, haykaltaroshlik, badliiy yog'och o'ymakorligi ham rivojlaridi.

Tabiiyki, akmeologiya fanining tarixiy va madaniy ildizlari uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi «Avesto»da mukammallik haqida ayrim qaydlar keltirilgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida akmeologik qarashlar yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, kabi allomalar asarlarida tariximiz va madaniyatimiz yorqin ravishda ko'zga ko'rinadi. IX-XII asrlarda va undan keyingi davrlarda mintaqamiz tarixiga oid solnomalar va risolalar talaygina yaratildi. Bular orasida «Buxoro tarixi», «Kesh va Nasaf o'tmishi», «Samarqand tarixi», «Xorazm tarixi» kabi i yoki bu hudud o'tmishi, aholi turish-iurmushi, siyosiy ijtimoiy ahvoli to'g'risida katta-kichik asarlar vujudga keldi. Mahmud Qoshg'ariyning uch jildlik «Turkiy so'zlar lug'ati» o'zbek va boshqa turkiy tillar tarixini o'rganishdagi muhim manbadir. Akademik B.Axmedovning «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» kitobida o'lkamiz tarixiga oid o'rta asrlarda yaratilgan yetmish olti asarga izohlar beriladi.

Vatanimiz tarixini chuqurroq o'rganishda «Nizomul-mulkning «Siyosatnomasi», An-Nasaviyning «Sulton Jamshiddin Manguberdi», Sohibqironning «Temur tuzuklari», Ali Yazdiyning «Zafamomasi» Mirzo illug'bekning «To'rt ulus tarixi»,

Zahiriddin Boburning «Boburnoma», Abulgʻozixonning «Shajarayi turk», M.Solihning «Shayboniynoma» asarlari ham muhim manbadir.

Akmeologiyada obyektiv va subyektiv omillarga katta eʼtibor qaratiladi. Bu omillar oʻzaro aloqadorlikda boʻlib, katta yoshdagi insonni a k t ye darajasiga erishishiga imkoniyatlar yaratadi. Markaziy Osiyoda IX–XII asrlar fan va madaniyatning yuksalishi, «uygʻonish», «tiklanish» maʼnosidagi renessans jarayoni bilan ifodalanishi mumkin. Bunday holat maʼlum bir davrdagi alohida jamiyatning «akme»sini ifodalabgina qolmay, balki moddiy va taʼnaviy taraqqiyotga erishish omillarini ham koʻrsatadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Kaykovus, Nizomulmuluk, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Gʻazzoliy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida insondagi kasb-hunar fazilati tugʻma aks holda fikriy fazilatda mutlaqo kuch va ulugʻlik boʻlmasligi, agar kasb-hunar fazilati tugʻma boʻlganda, podshohlar ham oʻzlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy bir majburiyat boʻlib qolishi, kasb-korlikda mukammallikka erishish uchun ham fikriy va aqliy fazilat, va ham tugʻma qobiliyatlarni birdek ishga solish, taʼlim va taʼlim, oʻrganish orqali malaka hosil qilishi mumkinligi uqtiriladi. Meʼmorchilikdagi yangi gʻoyalar, yangicha naqsh uslublarining rivojlanishi, binokorlikda pishgan gʻisht ishlatish shular qatoridan oʻrin olishi mumkin. Yoki Markaziy Osiyoda soʻfiylik taʼlimoti sifatida paydo boʻlgan qarashlarda insonning pok boʻlishi, Alloh yoʻlida har qanday nomaʼqul ishlarni qilmaslik, adolatli boʻlish kabi xislatlarni rivojlantirgan.

XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida paydo boʻlgan jadidchilik harakati davri tafakkur rivoji insonlar ongida yuksaklik, beqiyoslik, komillik kategoriyalarining shakllanishiga olib keldi. Jadidchilik harakatining fidoyilaridan Mahmudxoja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriylarning nazariy qarashlarida ikkita muhim xususiyat koʻzga tashlanadi: mustahkam irsiy ildiz hamda Sharq va Gʻarb maʼrifatchilari, faylasuflarining nazariy merosini egallashga intilish, ular mamlakatni taraqqiyot yoʻliga olib chiqishning mukammal jamiyatga ega boʻlish



g'oyasi tafakkur rivoji insonlar ongida yuksaklik, beqiyoslik, komillik tushunchalarining shakllanishiga olib keldi. Umuman olganda, Sharq mutafakkirlarining qarashlarida kasb egallashda kamolotga erishish bilan birga uning ma'naviy-ahloqiy fazilatlar bilan chambarchas bog'liqligi haqida so'z boradi.

G'arb tarixiy tafakkurida akmeologik nazariyalar I.A.Ribnikov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsada, V.G.Anan'yev tomonidan shakllantirilgan va A.A.Bodalyov tomonidan rivojlantirilgan. Zarnonaviy akmeologiyaning vakili rossiyalik psixolog, akademik AA.Derkachning ilmiy izlanishlari bu fanni institutsional bosqichga ko'tardi. Akmeologiyaning tabiiy fan sifatida shakllanishini izohlashda Frensis Galtonning xizmati alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning oliy va tuban nuqtalari, shaxsning yetuk, mukammal, professional mutaxassis sifatida shakllanishi, uning «akme» cho'qqilarga erishishi barobarida ijtimoiy-axloqiy muhit hamda irsiy sabablar ta'sirida tubanlikka yo'l tutishi haqidagi g'oyalar bir guruh frenolog olimlar – Iogann Kasar Lavater, Frans Iosif Gall, Georg Kombe, Chezare Lombroz asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu olimlar ilgari surgan nazariyaning asosiy mazmuni inson tabiatining asosiy shakllanish sharti, avvalo, uning irsiylikida bo'lsa, so'ngra sog'lom turmush tarzining takomillasha borishidadir. Akmeologiya sohasi tadqiqotchilari – psixolog, pedagog va faylasuflar B.B.Barsis, I.A.Bespalov, G.P.Verbitskaya, L.E.Elshina, S.E.Zakoviyashina, Y.P.Kostenko, N.V.Kurbet, N.V.Kozlova, Y.A.Lixacheva, O.V.Mixaylov, K.V.Petrov, V.N.Sofma, V.A.Semikov, I.N.Stepanova, O.V.Faller psixologik nuqtayi nazardan akmeologiyani o'rganish va tahlil qilish, ijodiy kasbiy mahorat hamda professionalizmni rivojlantirish uchun optimal texnologiyalar yaratish, turli kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning ish jarayoni, usullari ustida kompleks tekshiruvlar o'tkazish asosida yangi yutuqlarga erishishning institusional shaklini yaratish taklifini ilgari surdilar. Lekin, shuni aytish lozimki, ko'pchilik adabiyotlarda kasb-hunar va kasbiy mahorat alohida, shaxs ma'naviy-ahloqiy kamoloti alohida tahlil qilinadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng olimlarimiz kasb-hunar egallashda mukammallikka erishish, kasbiy mahorat to'g'risida o'tmish mutafakkirlarining qarashiari, hozirgi

zamonda. turli kasblarning ijtimoiy-ahloqiy jihatlari to'g'risida qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar.

Jumladan, akademik M.Xayrullayev, faylasuf olimlar X.A.Shayxova, Y.Jumaboyev, A.Q.Qodirov, R.Nosirov, G.Navro'zova, M.M.Qahhorova, X.Rahmatovalar, filologlardan N.Komilov, S.Olim va boshqa mutafakkirlar turli kasb egalarining ahloqiy qiyofasi, ularning qanday ahloqiy fazilatlar va hulq-odob qoidalarini egallashlari lozimligi to'g'risidagi fikrlarni tarixiy falsafiy jihatdan o'rgandilar. Umuman olganda, mavjud tadqiqotlarda akmeologiya yaxlit va tizimli holda o'rganilmagan, uning maxsus fan sohasi, ta'limot silatida, qirralari, muhim xususiyatlari kasbiy etikasiz tasavvur qilib bo'lmasligi ochib berilmagan.

Shular asosida barcha fanlar qatori akmeologiyaning o'ziga xos uslubiy yo'nalishlari yuzaga keldi.

-Birinchidan, tabiiy ilmiy yo'nalish – klassik tabiiy fanlarni murakkablashtiruvchi metodologik jihatdan intizom standartlari bilan (dalillar, mexanizmlar, qonuniyatlar, matematik modellashtirish) mustaqil fan sifatida shakllanishiga yo'naltirilgan.

-Ikkinchidan, bir qator akmeologik masalalarni, tabiiy qobiliyat, genetik va psixofiziologik qobiliyatlar tarkibiy qismlari va professional mahoratli bo'lishda psixologik ko'nikma va boshqalarni hal qilishda yoshlar fiziologiyasi; psixogenetika, mehnat psixofiziologiyasi o'rnini egallaydi. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalish yanada ko'p qirrada namoyon bo'ladi. Akmeologiya bir tomondan, inson haqidagi bu fanlarning genetik manbasi sifatida tarixan birgalikda rivojlanadi, ikkinchi tomondan, ularning fan sifatida erkin rivojlanishini shakllantirish orqali o'z ontologik ahamiyatini ko'rsatadi. Demak, akmeologiya fan sifatida kirib kelgunga qadar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika fanlari akmeologik masalalarga o'xshab ketuvchi professionalizm, ijod, salohiyat va gerontologiya masalalari bilan shug'ullangan. Taraqqiy qilgan sayin asosiy fan, ya'ni akmeologiyaning maxsus obyekti va uslubi paydo bo'ldi. Umuman olganda, akmeologiya bugungi insonshunoslik fanlari orasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, yuksak professional kadrlar tayyorlash siyosatining ajralmas qismi desak, aslo xato qilmaymiz.

**Adabiyotlar:**

1. Kaykovus «Qobusnoma». Yangi Asr avlodi T.: 2016 y 224 b.
2. H.Homidiy “Avesto qaydlari” T.2001 y
3. Mirsoliyeva M.T, Djamilova N.N. “Pedagogik akmeologiya” T.; 2021 y

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARNING METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

**Davurova Lobar**-Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani 19-umumta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Zamonaviy ta‘lim paradigmalari o‘tish Respublikamizning oliy o‘quv yurtlari oldiga o‘quv jarayonini tubdan isloh qilish, jumladan, o‘qituvchi kadrlarni zamon talabalariga mos ravishda tayyorlash muammosini qo‘ydi. Maktabda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini tashkil etish va boshqarishning samarali modellarini izlashni amalga oshiraoladigan o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar alohida ahamiyatga ega. Pedagogika yo‘nalishlari bitiruvchilarining raqobatbardoshligi va kasbiy kompetentligi asosiy talab sanaladi. Oliy pedagogik ta‘limni modernizatsiya qilish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammosi keskin ravishda oshib ketgan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga e‘tiborning ortishi ta‘limni rivojlantirish texnologiyalari va usullarini maktab amaliyotiga ommaviy joriy etishni taqozo etadi.

Ayni paytda esa, pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi zamonaviy ta‘limning ob‘ektiv tendensiyalarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorlash “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi, oliy kasbiy ta‘lim standartlariga va tegishli vazirliklarning tavsiyalariga muvofiq o‘quv rejalari ishlab chiqilgan, asosiy ta‘lim dasturini o‘zlashtirishning muammolari ma‘lum bir o‘lchov birliklarida aniqlangan, bitiruvchining majburiy umumiy madaniy va kasbiy malakalari ro‘yxati tuzilgan. Biroq, o‘qituvchilarni tayyorlashning yangi maqsadlari ham, o‘quv jarayonini tashkil etishdagi o‘zgarishlar ham universitet o‘qituvchilarini tayyorlashda mavjud bo‘lgan tushunmovchiliklarni hal qilmagan:

pedagogik amaliyotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limini va kasbiy faoliyatining yangi turini hamda oliy pedagogik ta'limning belgilangan modelini ishlab chiqishda, asosan, "bilim" paradigmasiga yo'naltirilgan bo'lib, ta'lim yo'nalishlari, ta'lim darajasini oshirish shakllari, ta'lim mazmunini varinatlarni tanlash cheklanganligini bilan tavsiflanadi;

oliy pedagogik ta'limning yangi fanlar bilan boyitish va boshlang'ich ta'lim mazmunining o'zgaruvchanligi sharoitida o'qituvchilarni tayyorlashni ana'naviy axborot bilan boyitish orqali ta'minlay olmasligi;

boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsiga jamiyatning ortib borayotgan talablari va uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun dasturlarning yetishmasligi;

talabaning bo'lajak kasbga yo'naltirilishi va OTMdagi o'quv jarayonining ijtimoiy tajribaga murojaat qilishi va boshqalar. Ushbu holatning sababi o'qituvchi tayyorlash tizimining yangi maqsadlari va eski shakllari hamda talabalar bilan ishlash usullarni o'rtasidagi aloqalarning yo'qligi deb xisoblanadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimi uchun yangi texnologiyalar zarur, ular esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchini tayyorlash uchun yangi g'oyalar, yangiliklar va tadqiqotlarni talab etadi

Hozirgi kunga qadar oliy ta'lim jarayonida ma'ruza mashg'ulotlar usuli ustunlik kilb kelmoqda. Test va imtihonlar orqali mustaqil ishlarni nazorat qilish bilimlarni oshirishga qaratilgan, davlat imtihoni kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish darajasini emas odatda, xotira va eslaba qolgan ma'lumotlarni "qaytarish" qobiliyati tekshiriladi. Bunday sharoitda bo'lajak o'qituvchiga zamonaviy maktabda faoliyat olib borish uchun kerak bo'ladigan sifatli ta'lim berish mumkin emasligi aniq. Zamon talablarini hisobga olgan holda mamlakatimizdagi mavjud pedagogik tadqiqot institutlari innovatsion faolityaga yo'naltirilgan kasbiy ta'limiga paradigmasiga o'tishmoqda. Innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan kasbiy ta'lim kompetensiyaga asoslangan yondashuvi, ilmiy bilimlar va amaliy ko'nikmalar hamkorligini ta'minlashga qaratilgan; ta'lim dasturlarining variativligini (o'zgaruvchanligini) rivojlantirish va boshqalar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlash jarayonida, bizning fikrimizcha, quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

interfaol muammoli ma'ruzalarni o'tkazish, ya'ni ma'ruza davomida "savol-javob" usulidan faol foydalanish;

amaliy mashg'ulotlar davomida "davra suhbat", "seminar" kabi ta'lim shakllarini joriy etish, unda talabalar muhokama davomida o'z mustaqil ishlanmalari asosida mutaxassislikning muhim jihatlarini o'rganadilar;

debatlar, bahs-munozaralar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, darslarning video lavhalar oraqali o'tkazish;

o'qituvchining faoliyati, ijodkorligi, kreativligi rivojlantirishga yordam beruvchi rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, keys-metodlarini, "aqliy hujumi" ni oliy maktab ta'lim jarayonida qo'llash;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirishga ko'maklashuvchi seminarlar, mahorat darslari, o'quv mashg'ulotlari o'tkazish;

ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida elektron ta'lim resurslari, Interenet-qidiruv tarmog'i, multimediya vositalaridan keng foydalanish;

individual amaliy mashg'ulotlar jarayonida imitatsiya, refleksiya, relaksatsiya elementlaridan foydalanish.

Innovatsion o'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlashning guruhli shakllaridan foydalanish imkoniyatlariga e'tibor qaratish lozim.

## **ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5748 son Qarori.
2. Moreva N.A. Sovremennaya texnologiya uchebnogo zanyatiya. M., 2007
3. Yeroshima V.I. Organizatsiya metodicheskoy slujby v uchrejdeniyax professionalnogo obrazovaniya. «Innovatsii v obrazovanii»– 2010. – №5.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA O'YINCHOQLARNING AHAMIYATI.**

*Sh.Doniyorova SamDU o'qituvchisi, M.Yusupova SamDU talabasi*

O'yinchoqlar bola tug'ilishining ilk kunlaridanoq uning doimiy hamrohidir. U kattalar tomonidan bolani ijtimoiy munosabatlarga kirishishga tayyorlash maqsadida maxsus yaratilgan. Yaxshi o'yinchoq bolani o'ziga jalb qiladi, uni o'ylashga undaydi, o'yinchoqlar bilan bo'lgan munosabati orqali o'z ichki kechinmalarini atrofdagilarga namoyon qiladi.

O'yinchoq bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Psixolog va o'qituvchilarning ko'plab tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'yinchoqlar doimo psixikani rivojlantirishning samarali vositasi bo'lib kelgan va xalq pedagogikasida ijtimoiy tarbiya va bolani kattalar hayoti bilan tanishtirish uchun keng qo'llanilgan.

Mashhur psixolog G.A.O'runtayeva aytganidek, kattalarning asosiy vazifasi bolani o'yinchoqlar bilan harakat qilishga o'rgatishdir. Buning uchun o'qituvchi o'yinchoqdan psixologik-pedagogik ish vositasi sifatida foydalanishni bilishi kerak. Ikki yoshga kelib, u obyektlarni boshqarish qobiliyatini mukammal egallaydi, ulardan qanday foydalanishni biladi. Bola alohida hikoyalarni o'ynaydi: mushukni boqish, qo'g'irchoqni kiyintirish, kichkina mashinada kublarni tashish va boshqalar. O'yinchoq o'ynayotganda bolalar atrofdagi dunyoni anglaydilar, turli xil obrazlarga kirgan holatda o'zlarini go'yoki kattalar o'rnida tasavvur qiladilar. Bolalar o'yinchoqlar orqali o'z hayotida ko'rayotgan kichik, kichik voqealarni o'zining yosh bolacha ongiga sig'dirishga harakat qiladi va keyin ularni rolga kirgan holatda ijro qilib beradi.

K.D.Ushinskiy birinchilardan bo'lib o'yinchoq bolaning his-tuyg'ularini tarbiyalashning o'ziga xos maktabi ekanligiga e'tibor qaratdi. "Bola o'yinchoqlariga chin dildan bog'lanadi, ularni iliq va mehribon sevadi va ulardagi go'zallikni emas, balki o'zi ularga bog'langan tasavvurning rasmlarini sevadi." Ushinskiy shuningdek, bola o'yinida qanday taassurotlar aks etishi, unda o'yinchoqlar qanday ishlatilishi, inson rivojlanishining xarakteri va yo'nalishi shakllanishini ta'kidladi. N.K. Krupskaya o'yinchoqlarning bolalarni atrofdagi voqelik bilan tanishtirish, ular uchun ahamiyati

haqida yozgan. Mendzheritskaya D.V. o'yinchoqlarni o'rganish sohasidagi taniqli o'qituvchi, o'yinchoq bolalarni mehnatga qiziqishlarini tarbiyalashga yordam beradi, qiziquvchanlik va qiziquvchanlikni shakllantirishga yordam beradi deb hisoblaydi.

O'yinchoq bu o'yin va boshqa hayotiy maqsadlar uchun mo'ljallangan maxsus buyum. O'yinchoq bolalarga atrof-dagi aniq haqiqatni o'rganishga yordam beradi. Kichkintoyga obyektlarning rangini, hajmini, ularning materiallarini va boshqalarni farqlash qobiliyatini rivojlantiradigan o'yinchoq kerak.

O'yinchoqlarning turlari, tabiati, mazmuni va dizayni bolalarning yoshiga qarab ularning taraqqiyoti va qiziqishlarini hisobga olgan holda aniq ta'lim vazifalari belgilanadi. O'yinchoqlarga malum bir pedagogik, estetik, giginik, texnik va iqtisodiy talablar qo'yiladi. Bolamiz uchun olayotgan o'yichog'imiz albatta ushbu talablarga to'liq mos bulishi kerak. Chunki o'yinchoq bola organizimiga salbiy tasir ko'rsatmasligi kerak.

O'yinchoq bolani quvontiradi va xursand qiladi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqqa hamdardlik va mehr ham o'yinchoqda tasvirlangan narsalarga, odamlarga o'tkaziladi. Qo'g'irchoq bilan o'ynash bolalarda g'amxo'rlik, mehri munosabat, ehtiyotkorlik va muloyimlikni uyg'otadi va ijobiy ahloqiy tajribalarni to'plashga yordam beradi. O'yinchoqni nafaqat o'yin -kulgi balki aqliy rivojlanish vositasi sifatida ham ko'rib, ularni ikkita katta guruhga ajratadi: 1) bolaning kognitiv rivojlanishiga qaratilgan o'yinchoqlar (shovqin-suron, uyali qo'g'irchoqlar, piramidalar, o'yinchoqlar-insoniyat madaniyatining haqiqiy obyektlari, asboblar); 2) bolaning shaxsiyatining ahloqiy sohasiga ta'sir etuvchi o'yinchoqlar (qo'g'irchoqlar, yumshoq o'yinchoqlar - quyon, maymun, it va boshqalar ).

Bolaning kognitiv rivojlanishiga qaratilgan o'yinchoqlar orasida, birinchi navbatda, uning hulq -atvori, uning manipulyatsiyasi mazmunini aniqlaydigan shovqinlarni chiqarish kerak. Bola ko'zlari oldida qo'yilgan o'yinchoqlarni diqqat bilan tekshiradi, bu uning idrokini mashq qiladi (shakl va ranglarning izi bor, yangisiga yo'nalish paydo bo'ladi, afzallik paydo bo'ladi). Bolaligidanoq bola didaktik o'yinchoqlarni oladi, ular yordamida bolalar narsalarning ranglarini, shakllarini, o'lchamlarini farqlashni, taqqoslashni, nomlashni o'rganadi. Bu guruhga xalq

o'yinchoqlari: piyola, to'p va tuxumli tovoqlar, har xil mayda –chuyda o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar, piramidalar kiradi. Bu o'yinchoqlarning barchasi so'nggi yillarda tashqi qiyofasini tubdan o'zgartirdi. Masalan, o'yinchoqlar turli shakllarga ega: geometrik shakllar, meva va sabzavotlar, turli hayvonlarning konturlari. Rossiyaning qo'g'irchoqlari ranglarini va naqshlarini bir necha bor o'zgartirdi. Ammo, bu o'zgarishlarga qaramay, bu o'yinchoqlarning tarbiyaviy vazifasi o'zgarishsiz qoldi. Rus matryoshkasini o'qituvchilar haligacha klassik didaktik material deb bilishadi. Uning yordami bilan bolani balandligi, kengligi, hajmi, rangi bo'yicha narsalarni solishtirishga o'rgatish mumkin.

O'yinchoqlar tasnifi.

O'yinchoqlar umumiy jihatdan quyidagicha bo'linadi:

1. Musiqiy o'yinchoqlar.
2. Sport o'yinchoqlari.
3. Qiziqarli o'yinchoqlar.
4. Harakatli o'yinchoqlar.
5. Qurish yasashga oid o'yinchoqlar.

O'yinchoqlar sifati, tayyorlik darjasi, nimadan tayyorlanganligi, hajmi, holati, xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1-Sifatiga qarab o'yinchoqlar: 1).sifatli o'yinchoqlar(ishlatishga yaroqli tabiiy mahsulotlardan tayyorlangan). 2).sifatsiz o'yinchoqlar (ishlatishga yaroqsiz, bola uchun zararli) .

2- Tayyorlik darajasiga qarab o'yinchoqlar: 1).Tayyor o'yinchoqlar. 2). Olib tashlanadigan qismlar va detallardan iborat o'yinchoqlar. 3). Uy o'yinchoqlari uchun bo'sh va yarim tayyor mahsulotlar. 4). Uy qurilishi o'yinchoqlar yaratish uchun turli materiallar to'plami.

3-Nimadan tayyorlanganligi bo'yicha o'yinchoqlar: 1). Yog'och o'yinchoqlar. 2). Plastik o'yinchoqlar. 3). Metall o'yinchoqlar. 4). Matodan, shu jumladan to'ldirilgan o'yinchoqlar. 5). Kauchuk o'yinchoqlar. 6). Qog'oz va karton o'yinchoqlar. 7). Keramika o'yinchoqlar, chinni va fayans o'yinchoqlar. 8). Yog'och material o'yinchoqlar, papier-mache o'yinchoqlar.



4-Hajmiga ko'ra o'yinchoqlar: 1). Kichik o'yinchoqlar (o'lchamlari 3 dan 10 sm gacha). 2). O'rta o'yinchoqlar (o'lchamlari 10 dan 50 sm gacha). 3). Katta o'lchamli o'yinchoqlar (har xil yoshdagi bolalarning o'sishiga mutanosib).

5- Funktsional xususiyatlari bo'yicha o'yinchoqlar:

- 1). Oddiy, harakatlanuvchi qismlar yo'q o'yinchoqlar.
- 2). Harakatlanuvchi qismlari bor o'yinchoqlar, mexanik (shu jumladan o'rash va inert mexanizmlar).
- 3). Shlangi o'yinchoqlar.
- 4). Pnevmatik o'yinchoqlar.
- 5). Magnitli o'yinchoqlar.

O'yinchoqlarni bolalar yoshiga moslab tug'ri tanlay olishimiz kerak. O'yinchoq o'ynagan bola o'ynayotgan o'yinchog'idan o'zi uchun nimadir bir kerakli yang narsa ola olishi kerak. Demak o'yinchoqlar bola uchun faqatgina oddiy ovunchog'i bulibgina qolmay unga tarbiyaviy jihatdan o'rnak bo'la olishi kerak.

#### **Adabiyotlar:**

- 1 "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat dasturi. T. 2018 y.
2. Maktabgacha ta'lim davlat standartlari. 2020 y
3. L.Mirjalolova va boshqalar. "Mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:2019 y.

### **MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING MUSTAQILLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MEHNAT FAOLIYATINING TA'SIRI**

**Jumaniyazova Zelixa Reymovna** Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarni har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy amalga oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash,

pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish”<sup>3</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo’yicha alohida dastur ishlab chiqish va ilmiy-metodik ta’minotini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu esa, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo’llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish doimiy va maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. Shu nuqtai nazardan amaldagi o’quv-tarbiya jarayonining tadqiqiy va tahliliy yo’nalishga ega bo’lgan metodikalarni takomillashtirish zamonaviy talablarga mos mutaxassislarni yetishtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning ijtimoiy foydali ishlarda to’g’ri ishtirok etishi erta, hayotning ikkinchi yili atrofida boshlanadi. Hatto jismonan va ma’naviy jihatdan cheklangan kichkina bola ham ish topshiriqlarini bajarishda, xonada, saytdagi narsalarni tartibga solish, idishlarni tozalash, qo’g’irchoq uchun kiyim yuvish va hokazolarni almashtirish bilan bog’liq holda mustaqillik, hayotdagi faolligini namoyish etish imkoniyatiga ega. ma’lum siklik. Bu jarayonda nafaqat mehnat operatsiyalari takrorlanadi, balki odatdagi hayotiy vaziyatlar ham paydo bo’ladi. Shu bilan birga, ish topshiriqlarini bajarishda bolalardan muvofiqlashtirish, to’g’ri ishbilarmonlik munosabatlarini o’rnatish qobiliyati, tashkilotchilik va hamma uchun ishlash istagi talab qilinadi. Bunday ishlarni doimiy ravishda amalga oshirish, maxsus hissiy munosabat (ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga tayyorlik, do’stiga, tarbiyachiga, enaga, onaga yordam berishdan mamnunlik) mehnat, qat’iyat, qat’iyatlilik, mehnat faoliyati motivlari va shu bilan birga maktabgacha yoshdagi shaxsning jamoaviylik tamoyillari boshqalarga nisbatan xayrixoh munosabat kabi ijtimoiy ahloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ammo bu ijtimoiy foydali mehnatning yagona ta’siri emas. Bu bolalarga mehnat madaniyatining boshlang’ich ko’nikmalarini singdirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi: individual va jamoaviy ishlarni oqilona tashkil etish (masalan, guruh xonasida narsalarni tartibga solishda ishtirok etish), uni oldindan rejalashtirish, topshiriqni bajarish uchun kerakli materiallarni tanlash qobiliyati, ularga hurmat, qilish istagi

---

<sup>3</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar Strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. 2017 yil., 6-son, 70-modda.

yaxshi va o'z vaqtida ishlash. Bu, o'z navbatida, ushbu turdagi ishlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Uy ishlari jarayonida bolalarda narsalarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, eng kichik tartibsizlikni sezish qobiliyati va o'z tashabbusi bilan uni yo'q qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Ushbu ish maktabgacha ta'lim tashkilotiida va uyda doimiy ravishda paydo bo'lib, u bolalarning har qanday faoliyatiga hamroh bo'ladi. Masalan, bir necha kun davomida bolalar katta qurilish materiallaridan qurilgan bino bilan o'ynashadi. Undan changni artib tashlash kerak. Yoki bola bo'yashni xohlaydi; u qalamni tanlab, singanlarini topadi, ularni buzishni boshlaydi. Shundan so'ng, bola axlat yig'ishi kerak, uni ma'lum joyga olib borishi kerak. Kundalik hayotda har doim qattiq ishlashga ehtiyoj bor: kimdir tasodifan o'yinchoqni, tarqoq erni, to'kilgan suvni bo'yab tashlagan. Yuvish, yig'ish yoki o'chirish kerak. Shunday qilib, bolalarni mehnatga, mehnat odatlariga tayyor bo'lishga o'rgatish uchun imkoniyat yaratiladi [2].

Ijtimoiy foydali mehnatning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, uning natijalari, boshqa mehnat turlarida bo'lgani kabi, ba'zan ko'rinmas bo'ladi. Bu ingl. Faqatgina qisqa vaqt ichida seziladi: ular changni artdi, ertaga u yana paydo bo'ldi; kechki ovqat uchun stol qo'ying, ovqatlaning va hamma narsani olib tashlang. Va hech narsa bolalarga sarf qilingan kuchni, boshlangan ishni oxirigacha tugatishni eslatmaydi. Shu bilan birga, bir xil narsani kundan-kunga takrorlash ularga qiziqishni kamaytiradi. Bolalar ko'pincha tomosha qilishdan bosh tortishadi, ish olib borishmaydi yoki juda ehtiyotkorliksiz ishlashadi.

Kundalik hayotda har doim qattiq ishlashga ehtiyoj bor: kimdir tasodifan o'yinchoqni, tarqoq erni, to'kilgan suvni bo'yab tashlagan. Yuvish, artish yoki olish kerak. Shunday qilib, bolalarni mehnatga, mehnatga odatlarga tayyor bo'lishga o'rgatish uchun imkoniyat yaratiladi.

Mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirganda, bolalar harakatlarni bajarishda mustaqillikka ega bo'ladilar, tez, to'g'ri, aniq ishlashni o'rganadilar. Uy mehnatiga oid ko'nikma va ko'nikmalarni o'zlashtirish kundalik hayotda ko'proq faollik,

harakatlarning tashabbuskorligini, turli xil mehnat jarayonlarini qo‘shilishini ta’minlaydi [3].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, uy va maishiy ishlarda qatnashish, katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar uning kundan-kunga takrorlanuvchanligini, takrorlanishini his qilishadi. Bu ish yigitlardan katta sabr-toqatni, doimiy mehnat harakatlarini va kundalik o‘zini o‘zi nazorat qilishni talab qiladi. Tabiiyki, ular maktabgacha ta’lim tashkilotida tartibni o‘rnatish va saqlash uchun kundalik ish vazifalarini bajarishdan ko‘ra, epizodik xarakterdagi ishlarda ishtirok etishni ancha osonroq va xohlashadi. O‘yinchoqlarni o‘zlaridan keyin qo‘yish; bo‘yoqlar bilan bo‘yashdan keyin bezaklarni yuvish, yopiq o‘simliklarni yuvish va bolalar bu ishning zarurligiga aminlar.

O‘qituvchining vazifasi bolalarda xo‘jalik-uy ishlariga ijobiy va hissiy munosabatni tarbiyalash va saqlashdir. Buning uchun ahloqsizlik, beparvolik, atrof-muhitga nisbatan hissiy - estetik sezgirlik uchun sabr-toqatni shakllantirishni ta’minlaydigan sharoitlarni yaratish kerak.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 yil., 6-son, 70-modda.

2. Arnautova Ye.L. O vospitaniy trudolyubiya: ucheb. posobie / Ye.L.Arnautova // Doshkolnoe vospitanie. – 2013. – № 12. – 68-69s.

2. Volchkova V.N. Konspekti zanyatiy v starshey gruppe deskogo sada posobiye dlya vospitateley i metodistov DOU. – M, 2009.

### **MAKTABGACHA TA’LIM SIFATI INDIKATORLARINI AMALIYOTGA JORIY ETISH MAZMUNI**

*Jo‘rayeva Nargiza Tairovna “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasida o‘qituvchisi,  
Elmurodova Gulxayo, Mirzajalolova Soxiba talaba*

Ta’lim tizimining ilk bosqichi – maktabgacha ta’lim tizimi mazmuni Davlat talablari hamda “Ilk qadam” dasturi vazifalarini bajarishdan iborat muhim ijtimoiy buyurtmani ijro etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga dastur bo‘yicha 3-7 yoshlik

davridan boshlab aniq fanlardan ilk tasavvur- tushunchalar beriladi. Ta'lim sifatining risoladagidek bo'lishini ta'minlash pedagogdan bir qator talablarga mos ravishda faoliyat olib borishni talab etadi. Bu jarayonni xolis baholash uchun pedagog faoliyatiga quyidagi mazmundagi talablarni belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Masalan, pedagogning ish hujjatlari mavjudligi –dastur mavzulariga mos ravishda ish rejasi, kuzatuv-taxlillar va tashxis olib borish. Kundalik o'yin va mashg'ulotlarga tayyorgarligi–kun davomida tashkil etiladigan o'yin-mashg'ulotlar ishlanmalari va borishi (tartibi) aks etgan daftar. Ko'rgazmali va tarqatma materiallarmavjudligi – rejalashtirilgan o'yin- mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlovchi vositalar tayyorlash.

Guruhda bolalar faoliyati uchun zarur muhitning yaratilganligibolalarning qiziqishlari, intilishlari, individual va yosh xususiyatlari hisobga olingan faoliyat muhiti mazmunan aniqfanlarni o'rganishga qaratilgan bo'lishi. Ta'limning zamonaviy texnologiyalarini keng qo'llash–ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar: Axborot Kommunikatsiya Texnologiyalari, bolalarning faolashtirishning turli zamonaviy ko'rinishlari: musobaqa, munozara, testlar, blits- o'yinlari va hokazolardan foydalanish. Davlat talablari va dasturni bilish, amalga tatbiq etish–pedagog o'zi faoliyat ko'rsatayotgan guruh bolalar yoshi yuzasidan dastur va davlat talablari mazmunini yaxshi egallagan bo'lishi shart. Turli tanlov va ko'riklarda ishtirok etish – ta'lim muassaasi va undan tashqarida mavzu yuzasidan tashkil etiladigan tanlov-ko'riklarda imkon darajasida ishtirok etishi kerak.Ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan o'z ustida ishlashning tashkil etilganligi – pedagog ma'lum mavzu va yo'nalish bo'yicha muntazam ravishda o'z ustida ishlashi lozim, buning uchun “Ustoz-shogirdlik” maktablarida saboq olish, mustaqil o'rganish, muassasa va undan tashqarida o'zaro tashriflar qilish.Ota-onalar o'rtasida pedagogik tashviqot olib borish –Guruh ota-onalarining pedagogik va psixologik bilimlaridan kelib chiqib, turli vositalar orqali ularning bilimlarini takomillashtirishga yordam berish.Bolalar shaxsining psixologik jihatlarini hisobga olinishi – bolalarning aniq fanlarga qiziqishini hisobga olib, ularga individual yondashuvni amalga oshirishi kerak. Bolalar bilimni kuzatish, natijalarni belgilash orqali jarayonga pirovard baho berish –har

yarim yillik natijalariga ko'ra bolalarning o'tilgan mashg'ulotlarda olgan bilimlarini kuzatib, tashxis qilingan holda, ular bilan kelgusidagi ish mazmuni belgilab olinadi. Jamoada pedagogik jarayonda ishtirok faolligi– pedagog o'z jamoasida tashkil etiladigan pedagogik kengashlar, seminar mashg'ulotlari va tanlovlarda o'z muloxazalari, ish tajribasi xulosalari bilan muntazam ishtirok etib turishi lozim. Bolalarning ta'limning keyingi bosqichidagi o'zlashtirish monitoringini o'rganish – pedagog ta'lim bergan bolalarining keyinchalik boshqa yosh guruhida yoki maktabda ta'lim jarayonida qanday o'zlashtirayotganidan xabardor bo'lib tursa, o'z faoliyatida yo'l qo'ygan xatolari va qo'lga kiritgan yutuqlarini tahlil qila oladi. Iqtidorli bolalarni ajratib, ularni tegishli qo'shimcha ta'limga rag'batlantirish - bolalarga aniq fanlardan berilgan ta'lim natijasida aniqlangan iqtidorli bolalarga alohida e'tibor berib, zarur xollarda ularni maxsus yoki chuqurlashtirilgan ta'lim beruvchi muassasalarga yo'llash lozim. Ochiq mashg'ulotlar tashkil etish – pedagog o'z faoliyatini taqqoslash, tahlil qilish imkoniga ochiq mashg'ulotlar jarayonida ega bo'ladi. Fikr almashadi, munozara qiladi, xulosalar belgilaydi. O'zaro tashriflarda ishtirok etish- tajriba o'rganish va o'rgatish imkoniga ega bo'ladi.

Tavsiyalar: Bolalarning ta'limning keyingi bosqichidagi o'zlashtirish monitoringini o'rganish maqsadida maktab pedagogik jamoasi bilan hamkorlik rejasini tuzib chiqish, xar yarim yillik natijalarini qiyoslash.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH ORQALI MA'NAVIY-AHLOQIY JIHATDAN TARBIYALASH**

**Jo'rayeva Nargiza Tairovna** “Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi o'qituvchisi, **Ubaydullayeva Moxira, Umarova Malika talaba**

Maktabgacha yosh bolaning atrof-olamni o'rganish, uni tahlil qilish, o'z qiziqishlarini namoyon etish hamda shaxsida ma'naviy-ahloqiy jihatlar tarkib topadigan o'ziga xos davr bo'lib hisoblanadi. Bu jihatlarning to'laqonli shakllanishi, rivojlanishida badiiy so'zning o'rni beqiyosdir. Bola ongida rivojlanadigan malaka, ko'nikma hamda tushunchalarni kattalar tomonidan hikoya qilib beriladigan, o'qib

beriladigan va ayniqsa mavzuga mos tasvirlar ko'rsatish bilan badiiy asarni yetkazish kutilgan samarani beradi.

Maktabgacha yoshda bolalarni badiiy asarlarga qiziqishini o'stirish uchun qo'shiqlar, o'yinlar, aytishmalar, sanamalar, topishmoqlar, she'rlar, ertaklar, hatto rivoyat, masal, doston kabi asarlar bilan yoshiga mos ravishda tanishtirish lozim. Ilk yoshda bolalar bilan foydalanishga tavsiya etiladigan kitoblar o'lchami kattaroq, muqovasi qalinroq, suratlari yirik va yorqin, matni qisqa va qiziqarli bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ularga tavsiya etiladigan asarlar asosan, sanamalar, kichik hajmli she'rlar, qisqa ertaklar bo'lishi mumkin. Mazmunan esa, birmuncha sodda, asosan, hayvonlar haqidagi syujetlar orqali bolaga tushunarli bo'lgan voqea-xodisa aks ettiriladi. Masalan, ayiqcha qo'lini tozalab yuvyapti, mushukcha uyquga yotyapti, quyuncha oyisiga salom beryapti kabi. Bola 3-4 yoshligida esa kitoblar o'lchami birmuncha kattaligicha qolsada, asarlar mazmunan ancha kengayadi. Bu yoshda bolalarga qisqaroq ertak o'qib berish va mavzuga oid rasm- tasvirlar ko'rsatilishi mumkin. Bolaga asar mazmuni asosida savollar berish, javob berishiga yordamlashish kerak. Bola 4-5 yosh bo'lgach, beriladigan kitoblar rangli suratlarga boy, kitob ihcham, matn qisqa bo'lgani ma'qul. Katta maktabgacha yoshga kelib, asarlar ancha katta hajmli, bolalar bilan savol-javob va suxbat o'tkazishga qulay, mazmunan turli-tuman bo'lishi kerak. Badiiy adabiyot janrlari jihatidan turicha bo'lgan asarlarni tushunish, mavzusi bo'yicha savollarga javob berish, she'r matnlarini yod olish kabi mashg'ulotlar jarayonida bolalar shaxsida ijobiy insoniy hislatlar tarkib toptiriladi. Bu yoshdagi bolalar nafaqat insoniy fazilatlarni, balki insonlarda uchrashi mumkin bo'lgan yoqimsiz xususiyat va illatlarni ham nomlashni o'rganadilar, ularni farqlash, izohlashni biladilar. Badiiy adabiyot mashg'ulotlarini bolalar faoliyatining turli ko'rinishlarini bilan uzviy bog'lash orqali ma'naviy – ahloqiy jihatlarni mustahkamlash choralarini ko'rish lozim. Shundagina bolada shakllangan ma'naviy-ahloqiy sifatlarni mustahkamlash mumkin. Tabiat bilan tanishtirish, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, tasviriy faoliyat, jismoniy rivojlantirish, matematik tasavvurlarni kengaytirishga oid mashg'ulotlar, voqeband - rolli o'yinlar,

harakatli o‘yinlar vositasida bolalar badiiy adabiyot mashg‘ulotlarida olgan malakalarini mustahkamlaydilar.

Ma’naviy – ahloqiy jihatlarni shakllantirishda, o‘z navbatida, bolalarning kitobga nisbatan ijobiy munosabatini ham tarkib toptirishga e’tibor berish muhim. Kitobni ehtiyotlash, uni avaylash, toza qo‘l bilan ushlash, bukmasdan tutish, xar yerga tashlamaslik, uni boshqalarga ham berib turish kabi odatlarni o‘z vaqtida shakllantirish uchun bola bilan bevosita ishlaydigan, uni tarbiyalaydigan katta yoshli kishilarga alohida mas’uliyat yuklanadi. Zero ular bolalarda shu malaka- odatlarning to‘g‘ri shaklanishida namuna bo‘lishlari, o‘z hatti – harakatlariga doimo ma’sul bo‘lishlari talab etiladi. Shunda bola kichik yoshdan kitobni avaylash, uni ehtiyotlab varaqlash, mazmunini qayta-qayta eslash, kattalardan yana takror o‘qib yoki hikoya qilib berishlarini so‘rashni o‘rganadi. O‘zidan kichik yoshdagi bolalarga ham namuna bo‘lishni istashadi. Bolalarning bu intilishlarini vaqtida rag‘batlantirish, yaxshi odatlarini mustahkamlash maqsadida ular bilan kitoblarni ta’mirlash, ezilgan – bukilgan varaqlarini tekislash, yirtilgan varaqlarini yelimlash, “qo‘lbola” kitobchalar yasash, boshqalarga turli munosabatlar bilan kitob sovg‘a qilish, bola bilan birgalikda kitob do‘koniga borib o‘ziga yoki boshqa biror kishiga kitob tanlash ishlarini amalga oshirish kerak. Bolaning kitobga, unda bayon etilgan asar mazmuniga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda savol-javob, suxbat, viktorina, topishmoqlar kechasi, she’rlar mushoirasi kabi tadbirlar tashkil etilishi yaxshi natija beradi. Shuningdek, badiiy adabiyot vositasida bola shaxsida tarkib topgan ma’naviy- ahloqiy jixatlarni rag‘batlantirib borish uning kitobga nisbatan ijobiy munosabatini mustahkamlaydi.

Bolaning kitob bilan muloqotini maroqli mashg‘ulotga aylantirish – murakkab vazifa. Buning uchun avvalo bu mashg‘ulot uchun to‘g‘ri va qulay vaqtni tanlay bilish kerak. Bolani majburlash yo‘li bilan kitobga ijobiy munosabat shakllantirilmaydi, aksincha, bola bu mashg‘ulotdan bezib qolishi, bu jarayonni hatto jazo sifatida qabul qilishi ham mumkin. Buning oldini olish maqsadida bolaga kitob bilan muloqotni biror “yaxshi” ishi, ma’qul hulqi evaziga “sovg‘a” sifatida taklif etish to‘g‘ri bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy ko‘rinishi o‘yin jarayoni ekanligini unutmagan holda ularning kitobga mehrini, qiziqishini shakllantirishda



o‘yin tarkibiga badiiy asarlarni mazmunan uyg‘unlashtirish mumkin. Ertaklar va she‘rlar mazmunidan kelib chiqib tashkil etiladigan harakatli, voqeaband – rolli, sahnalashtirish ko‘rinishidagi o‘yinlar, topishmoqlar topish musobaqasi, sport o‘yinlari shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsida ijobiy, insoniy ma‘naviy – ahloqiy jihatlarni tarkib toptirib, rivojlantirishda bolalar kitobxonligiga o‘rinli e‘tibor qaratishimiz va badiiy adabiyotdan unumli foydalanishimiz lozim.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI DIALOGIK NUTQINI O‘STIRISH MAZMUNI**

*Inamova Mavlyuda TDPU “Maktabgacha ta‘lim” fakulteti talabasi*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida; maktabgacha ta‘lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim –tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida etibor qaratildi[1.3]. Bu qaror maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta‘lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘shishiga. Ahloqiy sifatlariga o‘quv dasturini o‘zlattirishda me‘yorli bajarilishini ta‘minlashshiga, qo‘llanmalarning monandligiga bog‘likdir. Bu masalalar maktabgacha ta‘limda o‘z yechimi ifodasini topishi va o‘z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Nutq vazifasi va shakli. Kattalar bilan ko‘rgazmali vaziyatdan chetga chiqadigan mavzular bo‘yicha dialog qilishni yo‘lga qo‘yish. Tengdoshlar bilan jamoaviy o‘yinlarda o‘yinga kirishib ketish uchun sharoitlar yaratish. O‘z nutq faolligi paydo bo‘lishini rag‘batlantirish: dialogdagi sheriklarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilish; o‘yin vaziyatlari, o‘rin

bosuvchi buyumlar, rollarni belgilashda nutqdan foydalanish. Buyumlar xususiyatlari va ularning qanday maqsadda ishlatilishiga, turmushdagi sababli aloqalar va munosabatlarga qiziqishni, qiziqtirayotgan masalaga oid savollarni va qisqa matn shaklidagi (3-4 ta gap) mulohaza va fikrlashlarni rag‘batlantirish.

Maktabgacha davrdagi katta yosh (5-7 yosh) bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar dialog sohasidagi chuqur o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Tengdoshlar bilan dialog qilish birinchi o‘ringa o‘tadi. Bola o‘z tengdoshini kattalardan afzal ko‘ra boshlaydi. O‘yin jarayonidagi o‘rtog‘iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo‘lgan dialogga qaraganda ancha mazmunliroq bo‘la boshlaydi. Sherik bilan dialog - muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy faoliyat tusiga ega bo‘ladi. Bolalar endi qo‘shnilari eotiborini jalb qila oladilar, o‘zlari xam uning ishlari va bildirgan fikrlari bilan qiziqadilar. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqining vazifalari turlichadir. Nutqdan atrofdagilar bilan aloqa o‘rnatishda, o‘ziga, o‘z ishlariga va kechinmalariga diqqatni jalb qilishda, bir-birini o‘zaro tushunishda, sherik hulqiga, uning fikri va xissiyotlariga ta’sir ko‘rsatishda, o‘z faoliyatini tashkil etishda, o‘yindagi o‘z o‘rtog‘ining harakatlarini muvofiqlashtirishda foydalaniladi. Nutq atrof-muhit haqidagi muhim bilim manbai, tabiat, narsalar va odamlar dunyosi haqidagi tasavvurlarni qayd etish vositasi, bilish faoliyati vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning nutqi shuningdek, obyektiv aloqalarning o‘ziga xos sohasi sifatida namoyon bo‘ladi, u bularni so‘z, tovush, qofiyalar va fikrlar bilan o‘ynab turib anglaydi.

Dialogni rivojlantirish nafaqat shunchaki nutqning muayyan kompozitsion shaklini o‘zlashtirish, balki bolaning ijtimoiy va shaxs jihxatdan shakllanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dialogik dialog nafaqat aloqa (intellektual mazmun) va o‘z manfaatlariga yo‘nalishni, balki sherikning nuqtai-nazarini, uning qiziqishlari, istaklari, kayfiyatini hisobga olishni ham ko‘zda tutadi. Bolalar bunday tajribani kooperativ tUSDagi faoliyat (birgalikda yasash, chizish, jamoa o‘yinlarini o‘ynash) natijasida to‘playdilar. Tengdoshlari bilan dialog qilishda bola nutqi mazmundorlikka (dialog vaziyatidan qatoiy nazar mazmun faqat til vositalaridan foydalanish orqaligina tushunarli) ega bo‘lishi isbotlangan. Maktabgacha yoshdagi

katta bolalarning dialogik dialogi negizida nutqning yangi shakli - monolog tug'ildi va shakllanadi. U bolaning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari, atrof-muhit haqidagi bilimlarini o'rtoqlashish istagi oqibatida vujudga keladi. Bunda nutq qisqa hikoya shakliga ega bo'ladi. Hikoyada albatta bolani lol qoldirgan va uni hayajonga solgan biron-bir qiziq hodisa (tabiat qo'ynidagi qiziqarli uchrashuv, ukasining kulgili harakatlari va h.k.) aks etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tanish ertaklarni, multfilmlar mazmunini aytib berishni, o'qiganlarini so'zlab berishni xush ko'radilar. Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning eng muhim yutug'i - jaranglayotgan nutqqa qiziqishning shidda bilan rivojlanishi, til faoliyatini eng oddiy anglashning shakllanishidir [2. 105].

So'zga nisbatan lingvistik munosabat dabdurustdan tovush, qofiya, mazmun bilan o'tkaziladigan o'yinlarda, so'z ahamiyati haqidagi savollarda, ularning jarangdorligi va mazmunida ko'rinadi. Til voqeligini anglash uning barcha tomonlarini - fonetik, leksik, grammatik tomonlarini qamrab oladi. So'zga nisbatan ongli munosabat lug'atni takomillashtirishga (antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlarni tushunish), nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga (tovush talaffuzi, tinglash qobiliyati, intonatsiya ifodaviyligi), nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirishga (morfologiya, so'z yasash, sintaksis), ravon nutqni rivojlantirishga taosir ko'rsatadi. Maktabgacha davrdagi katta yoshda nutqning grammatik jihatdan to'g'riligini shakllantirish nutqqa nisbatan tanqidiy munosabatning paydo bo'lganligi va rivojlanganligi, aniq va to'g'ri gapirishga intilish bilan bog'liqdir. To'g'rilikka intilish grammatikaning barcha so'zlarida, ya'ni - morfologiyada (shaklning aniq shakllanishida, ko'p turdagi shakllarni o'zlashtirishda), so'z yasashda (non uchun - nondon, tuz uchun - tuzdon), sintaksisda (og'zaki nutq tuzilmasini bartaraf etish: «va» bog'lovchisini ko'p marta qo'llash orqali gapni «cho'zish» xamda bir gapda to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish) paydo bo'la boshlaydi. Nutqning grammatik to'g'riligiga intilish bola hayotining yettinchi yilida ro'y beradi. Besh yoshli bola 'ali xam ishtiyoq bilan grammatik shakllarni o'ynaydi va aynan so'z bilan amalga oshirilayotgan ana shu sinovgina nutqning grammatik to'g'riligini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Lug'atni rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik to'g'rilikni shakllantirish ravon nutq tuzish

usullarini o'zlashtirish (bog'lovchilar, o'rin-hol, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida gaplarni bog'lash vositalari; tavsiflash, bayon qilish tuzilmasi) bilan uzviy bog'liqdir. Ko'p turdagi vazifalarni bajarish munosabati bilan dialogik nutq negizida rivojlangani holda nutqning barcha jihatlarini tilni anglashni shakllantirishga to'gridan-to'gri bog'liq holda bo'ladi hamda buning uchun bolaning katta bilan muayyan shakldagi dialog turiga muhtoj bo'ladi. Bu nafaqat tashqi dunyo va boshqa odamni anglashga, balki tilning o'zini, uning tuzilishi va faoliyat yuritishni anglashga ham yo'naltirilgandir. Nutqiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari kirishuvchanlik ko'rinishlarida hamda ayni paytda til va ravon nutqni egallash suroatida ifodalanadi. Ko'pchilik bolalar o'z harakatlarini shar'lashni, atrofdagilar e'tiborini o'ziga jalb qilishni xush ko'radilar. Bunda ayrim bolalarda nutqiy dialog amaliy faoliyat bilan zid keladi va buning natijasida bunday ko'p gapiruvchi bolakay ish bajarishda guruhdagi boshqa bolalardan ortda qola boshlaydi. Unchalik kirishimli bo'lmagan bolalar kam so'zlaydilar, lekin odatda ular amaliy vazifalarni tez va to'gri hal etadilar. Ravon nutqning paydo bo'lish muddati va mas'uldorligi ham farq qilishi mumkin.

#### **АБИЙОТЛАР:**

1. Turkiston ro'znomasi 2017 yil 1-fevral 3-bet.
2. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi-T.: 2018 105-bet.

### **ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ ПРЕДМЕТНО-РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ**

**Ирисбаева Ёкутхон Утбосаровна**

преподаватель Ташкентского государственного педагогического университета  
имени Низами

Государственная программа «Илк кадам» строится с учетом принципа интеграции образовательных областей, согласуясь с возрастными возможностями и индивидуальными особенностями воспитанников. Решение программных образовательных задач предусматривается не только в совместной деятельности взрослого и детей, но и в самостоятельной деятельности дошкольников, а также при проведении режимных моментов.

Предметно-пространственная развивающая среда должна быть обогащена элементами, стимулирующими познавательную, эмоциональную, двигательную деятельность детей. Содержание предметно-развивающей среды дошкольной образовательной организации, согласно Государственной программе, должно соответствовать культурно-историческим ценностям: национальным и региональным традициям; особенностям, обусловленным природой, климатом; спецификой производственной жизни местности; содержание среды должно закладывать основы первичного мировоззрения, способствовать успешной социализации ребенка.<sup>4</sup>

Вопросы создания и организации развивающей среды в дошкольной образовательной организации являются актуальными, так как среда является важным фактором развития детей дошкольного возраста. Дошкольные образовательные организации, имеющие определенную образовательную среду, могут сформировать личность, отличающуюся творческим подходом к решению жизненных и профессиональных проблем, обладающую такими качествами, как активность, самостоятельность, инициативность, умение общаться и взаимодействовать с другими людьми. Такая личность легче адаптируется, самоопределяется и самореализуется в быстроменяющихся условиях современного общества.

При построении среды необходимо учитывать возрастные и половые особенности детей как в содержательном характере игрушечных материалов, так и в организации пространства (размер и расстановка мебели и пр.). В построении среды, особенно в старших группах ДОО, следует учитывать возможности и мальчиков, и девочек, чтобы они могли проявлять свои склонности в соответствии с принятыми в обществе эталонами мужественности и женственности. К данному положению относится и подбор соответствующих полу игр и игрушек. Это важное требование к организации пространства

---

<sup>4</sup> Яфизова Р.И., Никитина П.С. Развитие ценностного отношения дошкольников к миру взрослых как направление взаимодействия ДОО с семьей в современных условиях // Инновационные процессы в дошкольном образовании: Сборник научных статей по материалам международной научно-практической конференции. РГПУ им. А.И. Герцена, Институт детства. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2012– (35с).

жизнедеятельности детей. В то же время в группе должны быть материалы для игр и занятий, объединяющие детей обоего пола. В этой связи при оценке организации пространства в старшей группе необходимо учитывать наличие игрушек и игровых материалов для девочек, для мальчиков и для детей обоего пола.

Игровая среда должна, с одной стороны, обеспечивать ребенку ощущение постоянства, устойчивости, а с другой – позволять взрослым динамично (гибко) видоизменять обстановку в зависимости от меняющихся потребностей, возможностей детей, приучать их оптимально использовать имеющиеся площади, творчески преобразовывать пространство. В среде должна быть заложена возможность ее изменения.<sup>5</sup>

### **Литература:**

1. Полякова М.Н. Как сделать среду группы развивающей: советы воспитателю // Детский сад: теория и практика. - 2015. -№3. - С. 6-19.
2. Гогоберидзе А.Г., Атарова А.Н., Новиков М.С., Новицкая В.А., Яфизова Р.И. Дошкольник как субъект проектирования социокультурного пространства и образовательной среды своего развития. Замысел одного проекта // Современное дошкольное образование. – 2018. – (87с).

## **ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ ПРЕДМЕТНО-РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ**

*Ишкулова Наргиза Шавкатовна*

*Студентка факультета “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами*

Государственная программа «Илк кадам» строится с учетом принципа интеграции образовательных областей, согласуясь с возрастными возможностями и индивидуальными особенностями воспитанников. Решение программных образовательных задач предусматривается не только в совместной деятельности взрослого и детей, но и в самостоятельной деятельности дошкольников, а также при проведении режимных моментов.

---

<sup>5</sup> Менджерцкая, Д. В. Воспитателю о детской игре. Пособие для воспитателей детского сада – М.: Просвещение, 1982. – 128 с.

Предметно-пространственная развивающая среда должна быть обогащена элементами, стимулирующими познавательную, эмоциональную, двигательную деятельность детей. Содержание предметно-развивающей среды дошкольной образовательной организации, согласно Государственной программе, должно соответствовать культурно-историческим ценностям: национальным и региональным традициям; особенностям, обусловленным природой, климатом; спецификой производственной жизни местности; содержание среды должно закладывать основы первичного мировоззрения, способствовать успешной социализации ребенка.<sup>6</sup>

Вопросы создания и организации развивающей среды в дошкольной образовательной организации являются актуальными, так как среда является важным фактором развития детей дошкольного возраста. Дошкольные образовательные организации, имеющие определенную образовательную среду, могут сформировать личность, отличающуюся творческим подходом к решению жизненных и профессиональных проблем, обладающую такими качествами, как активность, самостоятельность, инициативность, умение общаться и взаимодействовать с другими людьми. Такая личность легче адаптируется, самоопределяется и самореализуется в быстроменяющихся условиях современного общества.

Ребенок является субъектом, а не объектом процесса воспитания и образования, этот факт общеизвестен. На данный момент в педагогике становятся очень популярны формы и методики, которые активизируют внимание, имеют творческий, а не репродуктивный характер. Большой интерес как для самих детей, так и для педагогов и учителей представляет такой способ организации образовательного и воспитательного процесса, как игровая деятельность. Этот метод в равной степени и творческий, и необычный. Для игры

---

<sup>6</sup> Яфизова Р.И., Никитина П.С. Развитие ценностного отношения дошкольников к миру взрослых как направление взаимодействия ДООУ с семьей в современных условиях // Инновационные процессы в дошкольном образовании: Сборник научных статей по материалам международной научно-практической конференции. РГПУ им. А.И. Герцена, Институт детства. - СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2012– (35с).

характерны разного рода свершения, «исполнения», различная полезность, широкий круг отражаемых видов деятельности, различные назначения-функции.

Воспитательный потенциал игр для детей дошкольного возраста довольно полно и всесторонне исследован. Педагогами и психологами отмечается их роль в познании мира, в развитии сфер интеллекта, в накоплении опыта коллективных эмоциональных переживаний, в формировании трудовых навыков, навыков культуры межличностных, коммуникативных отношений (партнерство, дружба и прочее), в физическом развитии ребенка, в приобретении опыта нравственного поведения и опыта разнополовых и разновозрастных связей, в развитии чувства юмора и многих других умений и навыков. Детям игра кажется несерьезной, имеющей лишь развлекательный характер, поэтому она и вызывает у них живейший интерес и желание включиться в нее. Трудно оценить тот огромный воспитательный эффект, который заключен в участии в играх разных форм и тематической направленности. В современных ДОО игра – единственный вид деятельности, выводящий дошкольника за рамки его непосредственного опыта. Многие игры детей, подростков и юношей носят прежде всего коллективный характер, реже являются единичным актом. Вот почему они несут заряд коммуникативной деятельности, общения и передают от поколения к поколению коллективный социальный опыт, традиции, ценности и идеалы.

Игровая среда должна, с одной стороны, обеспечивать ребенку ощущение постоянства, устойчивости, а с другой – позволять взрослым динамично (гибко) видоизменять обстановку в зависимости от меняющихся потребностей, возможностей детей, приучать их оптимально использовать имеющиеся площади, творчески преобразовывать пространство. В среде должна быть заложена возможность ее изменения.<sup>7</sup> Планировка дошкольного учреждения должна создавать возможность – и взрослым, и детям – активно преобразовывать среду. Это могут быть специальные предметы (легкие перегородки, ширмы, геометрические модули, скамейки, большие лоскуты ткани, мягкие пуфы,

---

<sup>7</sup> Менджерицкая, Д. В. Воспитателю о детской игре. Пособие для воспитателей детского сада – М.: Просвещение, 1982. – 128 с.



элементы крупного конструктора и соответствующие условия), легко передвигаемые, преобразующие пространство.

Целенаправленно организованная образовательная среда в дошкольном учреждении играет большую роль в гармоничном развитии и воспитании каждого ребенка. Помимо основных, она несет еще и эстетическую функцию: вызывает у детей чувство радости, эмоционально положительное отношение к детскому саду, желание каждый день посещать его.

Создавая предметно-развивающую среду любой возрастной группы следует учитывать психологические основы конструктивного взаимодействия участников воспитательно-образовательного процесса, дизайн современной среды, психологические особенности возрастной группы, на которую нацелена данная среда. В связи с глобальными изменениями в законодательстве дошкольного образования обновляются все детские сады, их интерьеры, материально-техническое оснащение, что безусловно благоприятно скажется на воспитанниках.

#### **Литература:**

1. Полякова М.Н. Как сделать среду группы развивающей: советы воспитателю // Детский сад: теория и практика. - 2015. -№3. - С. 6-19.
2. Гогоберидзе А.Г., Атарова А.Н., Новиков М.С., Новицкая В.А., Яфизова Р.И. Дошкольник как субъект проектирования социокультурного пространства и образовательной среды своего развития. Замысел одного проекта // Современное дошкольное образование. – 2018. – (87с).

## **MUSIQA MADANIYATI O`QITUVCHISINING PEDAGOGIK FAOLIYATI**

*D.A.Karimova Nizomiy nomidagi TDPU “Musiq nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsenti,*

*M.Ishanova, M.Karimova IV kurs Musiqa ta`limi yo`nalishi talabalari*

“Ta’lim to’g’risida»gi “O’zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida milliy tajribaning taxlili va ta’lim tizimida jaxon miqyosidagi yutuqlarga tayanib yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to’g’ri ola bilish, istiqbol vazifalarini ilgari surish

va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirishda pedagog mahorati alohida o`rin tutadi.

O`qituvchining pedagogik mahorati – o`quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo`naltirish, talaba- o`quvchilarda dunyoqarash qobiliyatini shakllantirish, jamiyat uchun zarur bo`lgan faoliyatga moyillik uyg`otish asosiy vazifalardan hisoblaniladi.

Pedagogik maqsadning o`ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya'ni pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog`liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo`naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta'minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o`tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro`yobga chiqaradi.<sup>8</sup>

Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog`liq. Bunda pedagogik maqsad o`quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o`z faoliyati maqsadini va unga erishish yo`llarini aniq tasavvur qilishi hamda bu maqsadga erishish o`quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonida o`quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o`quvchi kelajagi tomon yo`naltirilgan bo`ladi. Buni anglagan holda moxir pedagoglar o`z faoliyatining mantiqini o`quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o`ziga xosligi o`qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to`la anglab, o`z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining “o`sib”, uning pedagogik nuqtai nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijobiy yondashishi;
- o`quvchilar qiziqishlarini e`tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

---

<sup>8</sup> D.A.Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. T.Moliya Iqtisod 2008 yil.

Pedagogik faoliyatning o`ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo`ladi:

Inson o`zining alohida xususiyatlariga ega bo`lgan, ro`y berayotgan voqealarni idrok qila oladigan va ularga o`zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta`kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o`z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy hulqqa ega bo`lgan ishtirokchisi hamdir.

O`qituvchi doimo o`sib-o`zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan hatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa o`qituvchidan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

O`quvchilarga o`qituvchidan tashqari, atrof-muhit, ota-ona, boshqa fan o`qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy hayot ham ta`sir etadi. Shuning uchun ham o`qituvchi mehnati bir vaqtning o`zida jamiki ta`sirlarga va o`quvchilarning o`zida paydo bo`lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O`quvchi shaxsiga doimo ijobiy-ahloqiy ta`sir ko`rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachi hisoblanadi. Bunga erishish uchun pedagog o`zining ahloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi talab etiladi.

O`quvchilarni mehnat, muloqot, o`yin, o`qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir o`qituvchi o`zining individual pedagogik tizimiga ega bo`lishi lozim. Bunda albatta mamlakatimizdagi ilm-fan, ta`lim, milliy-madaniy qadriyatlar, hamda musiqiy meros, musiqiy ijrochilik, xonandalikdagi qator yutuqlarimiz bilan o`quvchi-yoshlarni tanishtirib borish katta ahamiyat kasb etadi.

U o`quvchi-yoshlar psixologiyasini o`rganishi va har biriga nisbatan individual yondoshishi, dars va mashg`ulot jarayonida ularning talab va istaklari qondirilishi uchun harakat qilishi, yaxshi ijodiy natijaga erishishga, har bir o`quvchi-yoshlarni safarbar eta olishi, bir so`z bilan aytganda, yoshlarning ma`naviy ehtiyojini qondirish uchun sharoit yaratishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda undan yuqori badiiy did, yangilikni tez his qilish, hayot bilan hamnafas bo`lish, mohir tashkilotchilik qobiliyati talab qilinadi. Bosh vazifa - badiiy ijodiyot yoki san`atning biror tor yo`nalishi bo`yicha mutaxassislar tayyorlash emas, balki, har tomonlama komil insonni

tarbiyalash uchun uni ahloqiy pok, go`zallik va ezgulikni yaxshi his eta oladigan, o`z ahloqi bilan boshqalarga o`rnak bo`la oladigan ma`naviy etuk insonlarni tarbiyalash ishiga ko`maklashishdir.

O`sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va unga puxta talim berish ishida o`quv-tarbiyaning yanada samaradorligini taminlash maqsadida cholg`u ijrochiligi malakalarini egallash uslubiyotining nazariyasi va unga xos bo`lgan o`rgatish “texnologiyasini” rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O`quvchi-yoshlar ta`limida muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritishi, bilmaslikdan-bilishga, qo`lidan kelmaslikdan uddalay olishga, yani o`z kuch-g`ayratlarining ma`nosi va samarasini anglashga tomon siljish, yutuqlar quvonchini his etishni ta`minlovchi sharoitlarni yaratish, mehnatsevarlik, o`qishga havas va o`qish iqtidorini tarbiyalash asosiy vazifa va muruvvatlardan biridir. Musiqa tufayli insonda oliyanoblik, ulug`vorlik, go`zallik tashqi dunyodagina emas, balki uning o`zida ham mavjud ekanligi to`g`risidagi tasavvur yuzaga keladi. O`zbek xalqining bebaho, mumtoz, nodir musiqa asarlarini xalq cholg`ularida badiiy, yetuk ijro etishni rivojlantirish, hozirgi davrimizda yoshlarni musiqaga bo`lgan qiziqishini orttiradi.

### **Adabiyotlar:**

1. R.G. Qodirov “Musiqa psixologiyasi” T. “Musiqa” nashriyoti 2005
2. G.M. SHaripova Musiqa va uni o`qitish metodikasi. 2019 Turon-iqbol
3. D.A. Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari T. Moliya -iqtisod 2008
4. D.A. Karimova “Musiqa o`qitish texnologiyalari va loyihalash ” darslik LESSON PRESS nashriyoti. 2021 y.

## **TARBIYADA MILLIY URF-ODAT VA AN`ANALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**N.M. Kayumova** Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta`lim fakulteti dotsenti

O`zbek milliy-ma`naviy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g`oyalari yotadi. Shuningdek, o`zaro hamkorlik va hamdarlik, vafodorlik va o`zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo`shnichilik, bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e`zozlanib kelinadi. Bunday insoniy fazilatlar, xislatlarning

qaror topishida Islom dinining alohida o'rnini borligini unutmasligimiz kerak. Chunki millatimiz bir necha asrlardan buyon e'tiqod qilib kelayotgan Islom dinining asosi hisoblangan «Qur'onu-Karim» va «Hadisu-Sharif» qoidalarida insoniy fazilatlar, xislatlar eng oliy qadriyat sifatida har tomonlama ulug'langan.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar negizini esa an'analar ya'ni urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu-sayillar tashkil etadi. Ana shu negizlardan biri an'analardir. Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining ko'pgina an'analari, urf-odatlari, dini «qoloq», «reaksion», «eskilik sarqiti» sifatida tilga olindi, ularga nisbatan ayovsiz kurashlar avj oldi. Hatto ularni sotsialistik mazmun kasb etishiga urinishlar bo'ldi. Vaholanki, har bir xalqning an'ana va urf-odatlari shu xalq madaniyatining ko'rinishidir. An'analar jamiyatda asrlar buyi joriy etilib, mustahkamlanib kelganligi uchun yashovchan xarakterga egadir. Shu sababdan ularni yo'qotib yuborish yoki «eskilik sarqiti» sifatida qoralash mumkin emas.

An'analar urf-odatlardan ko'ra kengroq tushunchadir. An'analar millat ijtimoiy hayotining hamma tomonlariga xos bo'lib, ular ijtimoiy ongning hamma shakllarida bor, ularni faqat ahloq, huquq, dinda emas, balki siyosat, fan, san'atda, ba'zan kishilarning ish faoliyatlarida ham uchratish mumkin.

Ayniqsa, mustaqilligimizdan keyingi davrlarda xalqimizning eng yaxshi an'analari qayta tiklandi. Jumladan, Xotira va qadrlash kunining nishonlanishi o'tmish avlodlarimizga cheksiz hurmatimiz belgisi bo'lishi bilan birga, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashning asoslaridan biridir. Milliy an'analarni quyidagi ko'rinishda ifodaladik:

- vatanga e'tiqodni shakllantiruvchi an'analar (turli vatanparvarlikni tarbiyalovchi tadbirlarning o'tkazilishi, ko'rik tanlovlarning tashkil qilinishi, harbiylar kunining nishonlanishi kabilar);

- mehnat an'analari (ommaviy hasharlarning tashkil qilishi, paxtakor, g'allakorlar mehnatini qadrlash, tozalik kunlarining o'tkazilishi);

- milliy o'yinlar, sport turlari (ko'pkari, milliy kurash, poygalar...);

- oilaviy-maishiy an'analar (mehmondo'stlik, o'zaro hurmat, ota-onalarni e'zozlash kabilar);

- Islom diniga hurmat yuzasidan o'tkaziladigan an'analar (qurbon hayiti, iydi ramazon);

- boshqa millat vakillariga hurmat yuzasidan o'tkaziladigan an'analar

Shuningdek, o'zbek an'analarning ko'rinishlari ko'proq oila sharoitida namoyon bo'ladi. Oilaviy an'analar - bayram va marosimlar, oila hayotida ro'y beruvchi turli yutuqlar, voqealar, sanalarni nishonlash, xotirlash sifatida o'tkaziluvchi an'analardan iborat bo'lib, ular yosh avlodda oila a'zolariga nisbatan hamjihatlilik, hamdardlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, mehribonlik kabi fazilatlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan o'zbekona oilaviy an'analarning o'ziga hosligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu esa oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi, ya'ni ota va farzand, er va xotin, qaynona va kelin, aka va uka, qo'ni-qo'shni o'rtasidagi hurmat, e'tibor, samimiylilik yuzasidan o'rnatilgan aloqalar jarayonida ko'zga tashlanadi. Oilaviy an'analar vorisiy hisoblanib, avlodan-avlodga berib boriladi.

Oilada bayram va an'analarni nishonlash, kishilar hayotini zavq-shavqqa to'ldirishi bilan birga, oila a'zolari o'rtasida o'zaro mehr-oqibatni, e'tiborni ta'minlab boradi. Bayramlarning chiroyli qilib o'tkazilishi oila a'zolariga ko'tarinkilik kayfiyatini baxsh etadi. Ayniqsa, bunda bolalar kattalar qatori o'z o'rniga ega bo'la boshlaydi. Shuningdek, bolaning oiladagi hulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi. Oilaviy an'analarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

-umummilliy an'analar (yangi yilni kutib olish, onajonlar bayrami...);

-shaxs an'analari (farzand tug'ilishi, tug'ilgan kunlar...);

-bolaning hayot yo'li bilan bog'liq an'analar (birinchi qo'ng'iroq, yoshlar tashkilotlariga a'zo bo'lish, fuqarolik pasportini olish, so'nggi qo'ng'iroq).

- milliy urf-odatlar bilan bog'liq an'analar (chaqaloqning qulog'iga azon aytish, beshikka belash, atak-chechak, muchal yoshining nishonlanishi, sunnat to'ylari...).

Har bir millatning o'ziga xos urf-odatlari bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham rang-barang urf-odatlari, rasm-rusumlari, marosimlari asrlarga tengdoshdir. O'zbek

xalqi bayramlari o‘ziga xos bo‘lib, “Navruz bayrami”, “Hosil bayrami”, “Mehrjon bayrami” kabilar xalq hayotida muhim o‘rin tutadi.

Xullas, an’analar, bayramlar, urf-odatlar, marosimlar insonning dunyoga kelishidan tortib, to umrining oxirigacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Bolaning dunyoga kelishi, qulog‘iga azon aytish, tish chiqishi, beshikka solish, yurishi, soch olinishi, sunnat tuyi, uylanish - nikoh to‘yi, payg‘ambar yoshi to‘ylari, yuz yoshi, kumush to‘y, oltin to‘y kabi sanab o‘tilgan marosim-odatlarimizning, boshqacha qilib aytganda qadriyatlarimizning qirralari nihoyatda ko‘pdir. Hoh oilada bo‘lsin, hoh jamiyatda bu kabi marosimlarning nishonlanishi bola tarbiyasiga ham o‘z ijobiy ta‘sirini o‘tkazadi. Bu qadriyatlar orqali yosh avlod barcha ahloqiy xususiyatlarga ega bo‘lib boradi, jumladan vatanga e‘tiqodli, mehnatkash, ona tabiatni asrovchi, otanonaning qadriga yetadigan, ilmli, saxiy, vatani uchun jonini fido qiladigan insonlar bo‘lib yetishadi.

## **TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI O‘YINLAR VOSITASIDA AHLOQIY TARBIYALASHNI TASHKIL ETISH**

*N.M.Kayumova Nizomiy nomidagi TDPU  
Maktabgacha ta’lim fakulteti dotsent,  
R.A.Atabayeva ”Maktabgacha ta’lim”yo’nalishi talabasi*

O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo‘lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ulanadigan ko‘pchilik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘ladi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik

ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba'zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega– deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin – bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi.

P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

1. O'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish
2. O'yinda bolalarning bo'lajak mehnat axliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi



Ahloq so‘zi – lotincha «moros», ya‘ni moral, mantiq so‘zidan kelib chiqib, u hech qaerda qat‘iy yozib qo‘yilmagan ijtimoiy konundir. Inson kundalik hayotida undan (ahloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Ma‘naviy-ahloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo‘ladi. Ahloqiy tarbiyada kishi ahloqiy bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o‘zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar ahloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Ahloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma‘naviy motivlar shakllangan bo‘ladi. Bu motivlar esa o‘sha kishini jamiyatda munosib xulk-atvorga rag‘batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o‘ziga munosabatni ochib beruvchi ma‘naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, ahloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Ahloqiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirib olishgina o‘quvchilarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi.

Ilk yoshli bolalar o‘yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o‘yin bo‘lib, u narsa-buyum-o‘yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo‘l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o‘yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o‘yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta‘lim-tarbiyaviy ishlarini ma‘lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o‘z o‘yinlarida qo‘llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o‘yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o‘yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo‘lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish keraqligini aks ettiradi. Navbatdagi bosqich rolli o‘yin bo‘lib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va qishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalar o‘yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o‘yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib, MTTning pedagogik jarayonda o‘yinning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, o‘yindan

maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISHDA FAOLIYATNING O'RNI**

*N.M.Kayumova Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti dotsenti, M.N.Bozorova "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabasi*

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida roli uning bilish, ko'rgazmali, o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi, Shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

Faoliyat – kishining moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xatti-harakatlar majmuasidir.

Faoliyat – insonni belgilangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishishdir. Faoliyat – bir narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayoni)<sup>9</sup>.

Bolaning faoliyatdagi faol mavqei uni faqat tarbiya obyektiga emas, shu bilan birga tarbiya subyektiga ham aylantirdi. Bu bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutular namoyon buladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining

---

<sup>9</sup> «Pedagogika» fanidan izohli lug'at. –T., 2010. 534-535 betlar.

xilma-xilligi va boyligi, uni egallashdagi muvaffaqiyat oiladagi, bolalar bog'chasidagi tarbiya va ta'lim sharoitlariga bog'lik, bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining (hissiy va hissiy-predmetli muomalasining) eng oddiy turlari unda ta'surotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo'yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog'liq bo'ladi. Hayotning dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o'z ichiga oladigan yo'l-yo'riq tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo'ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yul bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o'zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi.

Buyumlar bilan bog'lik faoliyatni tashkil etish oilada ham, maktabgacha talim muassasasida ham bir va ikki yoshli bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyatda barcha bilish jarayonlari, maqsadlari va hulq-atvor sabablari rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to'g'risida dastlabki bilimlarni o'zlashtiradilar.

Bola ikki yarim yoshga to'lganda buyumlar bilan bog'lik faoliyat va muomala ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o'yin va tasviriy faoliyatga o'tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uyushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola o'zini atrofdagi odamlardan ajratadigan, o'z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo'la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari hulq-atvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora mustaqil, o'z xoxishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O'yin hayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o'z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko'nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 3-4 yoshda ta'lim paytida bolalarning e'tibori tabiat, odamlar hayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o'zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga karatilgan bo'ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda

qo‘llaydilar. Bularning hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta’sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg‘ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o‘qishga o‘tish imkonini beradi.

Kichik maktab yoshida asosiy narsa o‘qish bo‘lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqei o‘z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o‘zgacha nuqtai nazardan maktab o‘quvchisi nuqtai nazaridan baholashni shart qilib qo‘yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko‘rsatib, kattalarning uning xulk-atvoriga va faoliyatiga qo‘yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi.

Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy-tarixiy tabiati har bir yosh avlodga obyektiv ravishda berilgan bo‘ladi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimlarda, san’atda, ahloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo‘lgan paytda tarbiya va ta’lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiati ana shunday shakllanadi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchida kuchli faoliyat ehtiyojini uyg‘otib, yangi hulk-atvor sifatlarini shakllantirishga yordam bergandagina kutilgan natijalarga erishadi.

## **BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING FAOLIYATLAR JARAYONIDAGI KREATIVLIGI**

*N.M.Kayumova Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim fakulteti dotsent,  
O.S.Ne’matullayeva ”Maktabgacha ta’lim”yo‘nalishi talabasi*

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma’lum bir kasbga yo‘naltirish og‘ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta’lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O‘zbekistonning istiqboli, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan tarbiyachi-o‘qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta’lim berish

va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog‘liq. Ma’lumki, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon bevosita o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish va kasbga yo‘naltirish o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan.

Tarbiya – o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo‘lib, tarbiyalanuvchini ma’lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta’sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning hulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo‘naltirilgan qizg‘in faoliyat jarayonidir. Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va his-tuyg‘ulari rivojlanadi, o‘zida ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan, kishilar bilan o‘zaro munosabatni to‘g‘ri tashkil etishga xizmat qiladigan ahloqiy odatlar hosil bo‘ladi. Tarbiya xususida taniqli o‘zbek adibi Abdulla Avloniyning “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidir”<sup>10</sup> – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

O‘z faoliyatini endigina boshlayotgan o‘qituvchilar va doimiy izlanishda bo‘lgan tajribali o‘qituvchilar ham tarbiyachilik mahoratiga zamin yaratuvchi quyidagi jarayonlarni bilishi kerak:

- har qanday pedagogik vaziyatlarda o‘quvchining ichki va tashqi dunyosini to‘g‘ri tushunish malakasi;
- pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri idrok qilish uchun diqqatni jamlash;
- tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchanlik;
- tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;

---

<sup>10</sup> Avloniy Abdulla. “Turkiy guliston yohud ahloq”. – Toshkent, O‘qituvchi, 1992y.

- xilma-xil pedagogik taktlardan o‘zi uchun eng muhimini ajrata olish qobiliyati;
- ziddiyatli tasodifiy holatlarda ikkilanmasdan to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- tarbiyada ta’sir etishning turli usullaridan foydalana olish qobiliyati;
- fikr va mulohazalarini so‘z bilan, mimika va pantomimik harakatlar bilan o‘quvchi ongiga aniq yetkaza olish;
- dars va darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilar bilan kommunikativ aloqa o‘rnata olish qobiliyati;
- o‘quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni, o‘z fikr; mulohazalarini qo‘rqmasdan bayon qilish ko‘nikmalarini tarbiyalash;
- o‘quvchilarning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo‘lish.

Tegishli ma’lumotli, kasb tayyorgarligi bor va yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega deyiladi «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasida.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta’sir ko‘rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning hulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi o‘z kasbini sevishi va bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqati o‘qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Pedagog-tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablaridan biri shuki, u o‘z predmetini, uning metodikasini chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi zarur. Bu pedagog-tarbiyachining obro‘sini ko‘taradi. Tarbiyachi kasbiga xos bo‘lgan muhim fazilatlaridan, talablaridan biri bolalarni sevish ularning hayoti bilan qiziqish har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan

odamgina haqiqiy tarbiyachi-pedagog bo'la oladi. Bolalarni sevish – pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, o'qituvchiga bolalarni chinakam ma'naviy murabbiysi bo'lishga imkon beradi.

Pedagog – tarbiyachi shaxsini shakllantirish

Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahlok, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatgo'ylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxurlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi ahloqiy sifatlarni tarbiyalaydi.

Xalq san'ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san'atni bilish, san'atga muhabbat tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tadbiiq eta oladigan bo'lishi;

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning hulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;



4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o'sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb kilib, faolligini o'stirish, bolalarning hulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi;

Eng muhimi – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to'g'ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

### ***MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR HAYOTINI TASHKIL ETISH***

*N.M.Kayumova Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti dotsent,*

*N.Normo'minova" Maktabgacha ta'lim"yo'nalishi talabasi*

Bolalarining ko'p vaqti guruh xonasida o'tadi. Yaxshi jihozlangan xona, o'yinchoq va qo'llanmalarni to'g'ri tanlash bolalarning to'laqonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o'yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 4-3 ta bo'lib o'ynashlarini e'tiborga olib joylashtirilishi, o'yinlarni o'ynashlari uchun o'yinchok. burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o'yinchoqlar ham bo'lishi kerak, qolgan o'yinchoqlar, rasmlar shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirishi lozim. Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o'ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak. Harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jixozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo'yiladi.

**II kichik guruh** Moddiy muhit ikkinchi guruh bolalari uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek tashkil etiladi. Bundan tashqari kuzatish va mehnat uchun tabiat burchagiga akvariumda balik., to'rlarda kushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. MTT maydonchasida sport o'yinlari bilan shug'ullanish uchun maxsus joy bo'ladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab

qo'yiladi: velosipedda uchish uchun yo'lka, tirmashib chiqish uchun jismoniy tarbiya narvonchalari, muvozanatni saqlash uchun ma'lum balandlikda yotqizilgan g'ola va shunga o'xshashlar bo'ladi. Olib chiqilgan o'yinchoqlarni o'ynash uchun maxsus stollar, o'rindiqlar, suv bilan o'ynash uchun maxsus idish, qum yashigi bo'lishi kerak.

**O'rta guruh** Guruh xonasi uxlash xonasi, xojatxona va yechinish xonasiga ega bo'lishi kerak.

Guruh xonasi bir necha bo'limdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi o'yin bo'limida qo'g'irchok. bilan o'ynash uchun hamma kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf buladi. Ikkinchi o'yin bo'limida qurilish materiallari qo'yiladigan shkaf va ular bilan o'ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun kerakli materiallar qo'yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o'yini bilan shug'ullanishlari uchun o'yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqda joylashtirgan ma'kul. Xona amaliy san'at asarlari va ko'kalamzorlashtiruvchi o'simliklar bilan bezatiladi.

Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o'simliklar bilan to'silib, jismoniy mashqlar va sport ermak o'yinlari uchun kerakli asboblardan jihozlanadi.

**Katta guruh.** O'yin bo'limlari bolalarning yoshiga mos holda, o'rta guruh xonasi kabi jixozlanadi. Guruh xonasida yana mashg'ulot o'tkaziladigan bo'lim ajratiladi va u yerga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, doska joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o'ynashlari uchun hamma kerakli materiallar ular bemalol foydalana oladigan qilib joylashtirilishi kerak (stollar, o'yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafi, tokchalar va boshqalar). Tabiat burchagi, qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanadigan burchak, musiqaviy faoliyat burchaklari bo'lishi kerak. Bulardan tashqari bolalar bemalol, erkin harakat qilishlari uchun kattagina bo'sh joy bo'lishi zarur. Maydonchada sport o'yinlari, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, irg'itish uchun katta joy ajratiladi. Syujetli o'yinlar uchun o'yinchoqlar ham bo'ladi.

**Tayyorlov guruhi.** Bu yerdagi mashg'ulot o'tkaziladigan bo'limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo'yiladi. Guruh xonasidagi jihozlar zarurat tufayli shug'ullanganda o'yinga joy bo'shatish maqsadida boshqa

tomonga surib qo'yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o'yinlari va har xil o'yinlar uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u yerda bolalar o'zlari gul va sabzavotlarni yetishtiradilar.

Bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish, bolalarning MTTda 9-10 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning MTTdagi vaqti qiziqarli, sermazmun o'tishini ta'minlaydi.

Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chehra bilan kutib oladi, ota-onalari bilan xushmuomala, xayrixox munosabatda bo'ladi. Ertalabki qabul vaqtida ijodiy o'yinning hamma turlari tashkil etiladi, tabiat burchagida kuzatish, bolalarning guruh xonasidagi, ovqat va mashg'ulotlardagi navbatchiliklari, nonushtadan oldin ertalabki gimnastika va yuvinish tashkil etiladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ovqatlanish madaniyatini nazorat qilib turadi.

Nonushtadan keyin dasturda ko'rsatilgan vaqt mobaynida mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotgacha va mashg'ulot o'rtasida o'yinlar tashkil etiladi. Qanday o'yin o'tkazilishi mashg'ulotning mazmuni va xususiyatiga bog'liq. Bolalar o'tirib shug'ullanadigan mashg'ulotdan oldin harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg'ulotdan oldin tinch o'yinlar o'ynashadi. Mashg'ulotdan keyin sayr o'tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi. Harakatli o'yinlar o'tkazadi, mustaqil o'yin o'tkazishni taklif etadi. Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, didaktik o'yinlar, ijodiy o'yin turlari bilan shug'ullanishlari uchun katta e'tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyushtiriladi. Sport o'yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o'xshashlar bolalarning harakat faolligini o'stirishga ham katta ahamiyat beriladi.

Bolalarning sayrdan qaytishlari, yechinib yuvinishlari, tushki ovqat va kunduzgi uyqu ham juda uyushqoklik bilan o'tishi kerak.

Kunning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni uyg'otib, faoliyatga kirishlarini ta'minlaydi va kechki nonushta tashkil etiladi. Keyin musiqaviy yoki jismoniy tarbiya mashg'uloti o'tkazilishi mumkin. Kechki sayrga quyidagilar kiradi: hamma ijodiy,

didaktik o‘yinlar, tinch harakatli o‘yinlar, kuzatish, qo‘l mehnati, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyati, ko‘ngil ochishlar (haftada bir marta). Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talab har bir bolaning mazmunli va qiziqarli faoliyat bilan shug‘ullanishini, ularning har tomonlama rivojlanishi va baxtli bolaligini ta‘minlashdir.

### ***MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR.***

**N.M.Kayumova** Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta‘lim fakulteti,  
“Maktabgacha ta‘lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi dotsenti,  
**X. Manzurboyeva** “Maktabgacha ta‘lim” yo‘nalishi talabasi

Shaxsning kamol topishida va uning hulqida ijtimoiy va biologik omillarning ta‘sir kuchi hamisha ham bir xil bo‘lavermaydi. Chunki uning hulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta‘sir etadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta‘lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o‘sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘ladi. U o‘zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallangan miqdor va sifat o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo‘yicha o‘sishi, vazinning ortishi, sezgi a‘zolarini mukammallashuvi, harakatlarni to‘g‘ri boshqara bilish bilan bog‘likdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning hulqida, tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, ta‘lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo‘lgan mazmuni tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta‘lim-tarbiya jarayonda

amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi. Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faol ish jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi.

Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar. Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanida asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki harakat va tasavvurlar, ta'surotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo'ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni asta-sekin buyumlar olamiga olib kiradilar.

Mashg'ulotlardagi o'quv faoliyati orqali bolalar tevarak atrofidagi tabiat to'g'risidagi, ijtimoiy hayot, kishilar to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar. Shuningdek ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi. Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini

rivojlantirish bilan erishiladi. Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o'ziga munosabat sistemasini izchil o'zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro'y beradi. Bunda bolalik va o'smirlik yoshi ayniqsa muhimdir. Odamning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma'naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ma'naviy sifatlar, his-tuyg'ular (burch, vijdon, mas'uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta'sir, etadi.

Shaxs faoliyati muomalada shakllanadi hamda rivojlanadi. Agar odam ijtimoiy faoliyatning turli xillarida: o'quv, ishlab chiqarish faoliyati va hokazolarda ishtirok etsa, bu faoliyat shaxsni rivojlantiradi, lekin faoliyat odamni u yoki bu ijtimoiy munosabatlardan chegaralab qo'ysa, u yo shaxsning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, yoki uning rivojlanishini buzadi. Shaxsning yetakchi xususiyatlari shaxsga, uning ichki dunyosiga tashqi ta'sir natijasida rivojlanadi. Shaxsning ma'naviy hayot mazmuni - bu shaxsning o'z ichki ishining yakuni bo'lib, bu jarayonda tashqi ta'sirlar qayta ishlanadi va o'zlashtiriladi.

Shaxsni shakllantirishga muhit – ijtimoiy va tabiiy muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muxit shaxsni rivojlantirishda ustun ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi.

Tabiiy muhit (iqlim sharoitlari, o'simliklar, hayvonot dunyosining ahvoli) ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat tabiiy boyliklarni muhofaza kilib va ko'paytirib, kishilarini xayvonlarni, o'simliklarni, suv havzalarini va hokazolarni muhofaza etishga jalb qiladi, tabiat bilan faol muloqatda bo'lish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa o'z navbatida odamga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, modda almashinuvi tipini, asab sistemasi tipi va qayishqoqligini (bular uning atrof-muhit ta'siriga beriluvchan qilib qo'yadi), asab reaksiyalari jo'shqinligi va tezligini meros qilib oladilar.

## **OILADA BOLALARNI XALQ MEROSI VOSITASIDA MA'NAVIY-AHLOQIY TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI**

*N.M.Kayumova Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti dotsent,*

*M.M.Ro'ziyeva "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabasi*

Jamiyatning ravnaqi inson hayot kechirayotgan muhit, ana shu inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo'layotgan ma'naviy asosga ko'p jihatdan bog'liq. Ma'naviy asosga yillar davomida tarkib topgan xalq pedagogikasi ham kiradi. Zero, shaxsning rivojlanishi, uning ma'naviy kamol topishida xalq pedagogikasi boy manbalarga ega.

Xalq pedagogikasi umumxalq, ijodiy mahsulining natijasi, pedagogik madaniyatining asosiy ifodasi bo'lib, uning ildizi qadim-qadimlarga borib taqaladi. U o'zida xalqning orzu istaklari, qarashlari, inson, oila, yosh avlod tarbiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va xalq donishmandligining yosh avlodni maqsadga muvofiq kishilar etib yetishtirishdagi tarbiyaning maqad va vazifalariga bo'lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta'lim-tarbiyani amalga oshirish borasida qo'llanilib usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligini ifodalovchi tajribalar asosida to'plangan bilim va ma'lumotlar majmuidir. Boshqacha qilib aytganda, xalq pedagogikasi xalq ommasining og'zaki tarzda yaratgan va avloddan – avlodga o'tib kelayotgan tarbiya haqidagi ma'lumotlari – pedagogik ijodlari majmuidir.

A.E.Izmailovning ta'kidlashicha xalq pedagogikasini tadqiq etgan barcha tadqiqotchilarning ta'rificha, xalq pedagogikasi avlodan-avlodga o'tgan tarbiya haqidagi bilimlarining yig'indisiga emas, balki xalqning tarbiyaviy faoliyati tajribasi asosida mazkur bilimlarning malaka va ko'nikmaga aylanishi majmui hamdir. Haqiqatdan ham xalq pedagogikasida faqat tarbiya jarayoni emas, balki ta'lim jarayoni ham asosiy manba sifatida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday ekan, olimning fikricha xalq pedagogikasi ta'rifida ta'lim va tarbiya ikki tomonlama jarayon sifatida o'z ifodasini topmog'i kerak, ya'ni, xalq pedagogikasi – xalq ommasining tarixiy va

ijtimoiy tajribasi sifatida og‘zaki shaklda avloddan-avlodga o‘tib kelgan, tajribada sinab ko‘rilgan va jamlangan empirik bilimlar, ma’lumotlar, malaka va ko‘nikmalar majmuidir.

Xalq pedagogikasi keng qamrovli, ko‘p qirrali bo‘lib, tadqiqotchilar uning manbalarini quyidagilardan iborat deb ko‘rsatadilar.

1. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.
2. Milliy urf – odatlar, an’analar, marosimlar.
3. Xalq o‘yinlari va o‘yinchoqlar.
4. Diniy ta’limotlar.
5. Xalq amaliy san’ati va hunarmandchilik.
6. Milliy musiqa.
7. Tasviriy san’at.
8. Raqs san’ati.

Biz bu manbalarga yana xalq tabobatini ham qushgan bo‘lar edik. Zero, xalq tabobatida ham ta’lim-tarbiyaga oid juda ko‘p qimmatli manbalar mavjud. Mazkur manbalarning ko‘pchiligi alohida emas, bir-biriga uyg‘un holda ham ifodalandi.

Masalan, xalq og‘zaki ijodi tarkibida milliy urf-odatlar, an’analar, marosimlar, xalq o‘yinlari, diniy ta’limotlar, xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligiga oid, milliy musiqa, raqs san’ati, xalq tabobati va boshqa manbalarni ham uchratish mumkin.

Ana shu manbalardan eng muhimi xalq og‘zaki ijodi bo‘lib, xalqimizning o‘z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti davomida avloddan-avlodga o‘tib, sayqallanib kelayotgan, shaxsning ma’naviy-ahloqiy takomilida o‘ziga xos ta’sir doirasiga ega.

Xalq og‘zaki ijodi bilan tarixchilar tarixiy voqealarning unda qanday aks etgani bilan, elshunoslar xalqning urf-odatlari bilan, san’atshunoslar folklordagi musiqa, raqs, o‘yin va boshqalarni, tilshunoslar uning lahja va shevalari bilan, adabiyotshunoslar uning yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradilar, - deydi K.Imomov. Biz esa bu ta’rifga pedagogika fani ta’lim-tarbiya masalalari xalq og‘zaki ijodida qanday ifodalangani bilan shug‘ullanishi, uning aqliy, ahloqiy, mehnat, nafosat, jismoniy tarbiyada muhim manba ekanligini alohida ta’kidlamoqchimiz. Zero, xalq og‘zaki ijodi xalq hayotining badiiy ifodasi bo‘lib, xalqning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalarini,



uning didini, zavqini, ijtimoiy, tarixiy, falsafiy, badiiy-estetik qarashlarini o'zida aks ettiradi.

Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodining qimmatini, uning ma'rifiy, g'oyaviy tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. U Xalqimizning uzoq tarixi, urf-odati, ijtimoiy hayoti, dunyoqarashining kengligi ijtimoiy munosabatining xilma-xilligi, orzu – umidlarining ulug'vor va shaxs munosabatining hilma-xilligi, orzu-umidlarining ulug'vor va teranligi bilan bilim beradi va ma'naviy – ahloqiy tarbiya manbai bo'lib xizmat hisoblanadi.

Ayniqsa, bolalarning o'smirlik davrida xalq og'zaki ijodiga qiziqishi o'ta kuchli bo'ladi. Chunki bu yoshda ular kata orzu-umidlar bilan yashaydilar va o'z orzu-umidlarini yuzaga chiqarishda xalq og'zaki ijodidagi sehr kuchiga, fantaziyaga ishonuvchanlik kuchli bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodining badiiyligi, tilining ravonligi, musiqiyligi, soddaligi ham o'smirlarga katta ta'sir etadi, qiziqish uyg'otadi. Aynan, maktabgacha yoshdagi bolalar o'rganadigan dasturlarida xalq og'zaki ijodining qo'shiq, maqol, topishmoq, ertak, doston, afsona, rivoyat, asotir va boshqa janrlari kengroq o'rin olgan bo'lib, ularda ta'lim-tarbiyaga oid xalq donishmandligi ifodalangan.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIYATINI O'RGANISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**N.M.Kayumova** Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha ta'lim fakulteti,  
dotsent, **D. Saidova** "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabasi

Bolani tarbiyalash va rivojlantirishda faoliyatning yetakchilik roli to'g'risidagi qoidadan kelib chiqib, uning o'quv-tarbiya muassasalaridagi va oiladagi hayotini u faoliyatning xar-xil turlariga boy bo'ladigan qilib uyushtirish zarur. Bunda ularga mazmuni boyitishga, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga, mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan rahbarlik ta'minlanishi kerak. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi. Tarbiya vazifalari

mazmuni, metodlarini yoshga qarab tabaqalashtirish hozirgi fanda qabul qilingan odam hayotini davrlarga bo'lishga tayanadi. Bir tomondan, vaqtni orqaga qaytarib bo'lmazligi, odam umrining qancha davom etishi va ikkinchi tomondan, tarbiya va ta'lim sistemasi bilan izohlanadigan ruhiy rivojlanishning olg'a harakat qilishi yoshga qarab tabaqalashtirishning asosi hisoblanadi. Yosh davrlari – odam rivojlanishining majburiy bosqichlaridir. Har bir yosh davri yashalgan yosh, organizm biologik sistemalarining yetilish darajasi, ularning vazifalari, shu bilan birga odamning hayotiy tajribasi, bilimlarining hajmi, faoliyat turlari va mazmuni bilan belgilanadi. Yosh kattalashgan sari ruhiy faoliyat boyib boraveradi, shu bilan birga teskari jarayon ham ro'y beradi, shu sababli har bir yosh uchun shaxsning sensor, akliy, hissiy, irodaviy tomonlari kabi xususiyatlar xosdir; ular orasidagi o'zaro aloqa o'zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, hulq-atvorni tartibga solishga ta'sir ko'rsatadi. Yosh bilan birga faoliyatning yetakchi turi ham o'zgaradi. Biroq shaxsning ruhiy rivojlanish darajasi faqat yashagan yillar natijasi emas har qanday yoshda, ayniqsa bolalikda tarbiya va ta'lim sistemasi, shaxsning faoliyati va faolligi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Yosh bilan bog'liq rivojlanish muddatlarida o'ziga xos siljishlar ham bo'lishi mumkin.

Ilk yoshdagi bolalar yordamga muhtoj, ko'ngli nozik bo'ladi. Shu bilan birga bu o'sish va rivojlanish sur'atlari juda yuqori bo'lgan yoshdir. Shu sababli to'laqonli rivojlanishni ta'minlash uchun bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash, ularning hayotini to'g'ri tashkil etish uchun har bir bolaning hissiy ijobiy holatiga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarini yaratish to'g'risida g'amxurlik qilish zarur. Ilk yoshda bolalar emaklash, tirmashish, biror narsaga osilib o'zini kutarish, yurish kabi xilma-xil harakatlarni egallaydilar. Ilk yoshda sensor rivojlanish, aqliy rivojlanish asoslari, his-tuyg'ularni, idrok etishni, tasavvurlarni takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Ilk yoshdagi bolalar bilan ish yuritishning asosiy yo'nalishlari, o'yin faoliyati, tasviriy, konstruktorlik faoliyatining eng oddiy shakllari tarkib topadi. Bolalar o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatishning eng sodda ko'nikmalarini egallaydilar, bu bolaning o'ziga xos mustaqilligini belgilab beradi. Kichkintoylarda dastlabki uch yoshda tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar rivojlanadi: ular birgalikdagi o'yinlarda

bir-birlari bilan muomalada bo'lishni va o'zlarini o'yin qoidalariga muvofiq tutishni o'rganadilar.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash uchun ularning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilish kerak, bu ishni ilk yoshdan boshlab amalga oshirish zarur.

Maktabgacha yoshda bola organizmining takomillashishi davom etadi: 3 yoshdan 5 yoshgacha bolaning o'sish sur'ati avvalgi yosh davriga nisbatan birmuncha susayadi, lekin 5 yoshdan 8 yoshgacha yana kuchayadi. Umumiy o'sish va tana og'irligining oshishi bilan bir vaqtda bolaning barcha asosiy to'qimalari va organlari anatomik o'zgarishlari va funksional rivojlanishi ro'y beradi. Asta-sekin skelet qotib boradi, muskullar hajmi oshadi, bola organizmining ishlash qobiliyati kuchayadi. Shu bilan birga asab hujayralari tez charchaydi va madori quriydi. 6-7 yoshga kelib bola yurish, yugurish, sakrash, arkonga osilib chiqish, uloqtirish va hatto chang'ida yurish, konkida uchishdek murakkab harakat turlarini muvaffaqiyatli egallaydi.

Jismoniy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda markaziy o'rinni tutadi. Bolaning imkoniyatlariga muvofiq oilada va bolalar bog'chasida ta'sir ko'rsatishning aniq vositalari va metodlarni qo'llash sistemasi: hayot, ovqatlanish tartibi, gimnastika mashqlari va harakatli o'yinlar, chiniqish usullari belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolada miya qobig'ining funksional faolligi takomillashib boradi. Asab sistemasining yuksak darajada ta'sirchanligi idrok etishning yorqinligi, o'tkirligini, bolalar ta'sirlanuvchanligini shart qilib qo'yadi, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va unga ta'lim berishda taassurotlar va bilimlarni (bu asosan atrofdagi hayot haqidagi eng oddiy bilimlar bo'ladi) tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning tarbiyaga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish metodikasini bilish muhim. Temperament – lotincha “temperamentum”, ya’ni “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:

- go‘daklik (1 yoshgacha);
- ilk yosh (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o‘rta yosh (4-5 yosh);
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)<sup>11</sup>.

*Ilk yosh davri bolalarining rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar.*

Go‘dakning vazni tug‘ilgan paytda 3,5 kg, bo‘yi 50 sm bo‘lgan bo‘lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo‘yi 60 sm, 6 oylik bo‘lganda esa taxminan 7 kg, bo‘yi 64 sm bo‘ladi.

Bir yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta’sirida bo‘lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo‘lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a’zolarini tanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham go‘daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo‘lgan davrda dastlabki so‘zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a’zolari go‘dakni to‘g‘ri parvarish qilishni yo‘lga qo‘yishlari lozim. “Bola tushunmas ekan” deb, unga befarq bo‘lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to‘g‘ri talaffuz qilib, ularning nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun keng yo‘l ochishlari kerak.

---

<sup>11</sup> Ilk qadam davlat dasturi. – T., 2017. – B.5.

*Kichik guruh (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.* Bola 3 yoshga qadam qo‘yganda jismoniy o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og‘irligi 14-15 kg., bo‘yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o‘z hatti-harakatlarini idora qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo‘lib o‘ynash ko‘nikmalari shakllanadi. O‘yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi.

*O‘rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.* Bola to‘rt yoshga yetgach, uning jismoniy o‘sishi bir muncha jadallashadi, bu davr mobaynida bo‘yi 105-108 sm gacha o‘sadi, og‘irligi esa 18-19 kg bo‘ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po‘stlog‘ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko‘nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo‘ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o‘zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o‘yinqaroq, o‘ta qiziquvchan bo‘ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to‘g‘ri ovqatlantirish, o‘z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo‘lishini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir.

*Katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.* Bu davrda bolaning bo‘yi bu davrda 7-8 sm ga o‘sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to‘g‘ri o‘sishini ta‘minlashga alohida e‘tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi. Olti yoshga yetganda miya po‘stlog‘ining asab katakchalari rivojlanib, og‘irligi va tashqi ko‘rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi.

Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralari ko'rish lozim. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

*Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari.* Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo'yi 120 sm ga yetadi, og'irligi 22-24 kg bo'ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigiyenik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim.

### ***MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR HAYOTINI TASHKIL ETISH***

*N.M.Kayumova Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti dotsenti, M.N.G'oziqulova "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi talabasi*

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va har bir mashg'ulot qancha davom etishi belgilab qo'yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o'zining haftalik mashg'ulotlar jadvalini tuzib oladi, bu ta'limning hamma bo'limlari bo'yicha belgilangan ta'lim-tarbiya

ishlarini to'g'ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi. Mashg'ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

Dasturning hamma bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni haftaga teng taqsimlash.

Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi.

Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.

Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Ikkinchi mashg'ulotga yengilroqlari: tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'uloti va shunga o'xshashlar rejalashtiriladi.

Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va hokazo.

Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini yengilroq o'zlashtirib olishiga imkon yaratadi. O'yin bolalarning muhim faoliyati hisoblanadi. U bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida, shaxs sifatida shakllanishida va bolalar jamoasining tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolaga quvonch bag'ishlaydi, ijobiy his va kechinmalarini, hayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi. O'yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun kattalar bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularda tevarak-atrofdan olayotgan taassurotlari ijobiy tomonini aks ettirish xohishini uyg'otishlari kerak.

Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, ularning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi bilimlarini boyitadi (bu orqali o'yin mavzusi, mazmuni, syujeti boyiydi), bolalarning ahloqiy hislarini, o'zaro ijobiy munosabati va odatlarini tarbiyalaydi. O'yindan bolalardagi o'zaro o'rtoqlik, do'stlik, bir-biriga yordam ko'rsatish xislatlarini tarbiyalashda va bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida foydalanadi.

Bolalarning o'yin bilan shug'ullanishi va mehnat qilishlari uchun kerakli materiallar bilan ta'minlanadi, shu orqali bolalar o'yinining mehnat bilan uyg'unlashib ketishiga erishiladi.

Tarbiyachi bolalarning syujetli-rasmi o'yinlarining hamma xilini syujetli-rolli, qurilish dramalashtirilgan tabiiy materiallar bilan o'ynaydigan qilib tashkil etadi.

Bolalarga o‘yin harakatlarini o‘rgatadi, tengdoshlari bilan bo‘ladigan munosabatlarda xaqqoniylik prinsipiga rioya qilishni uqtiradi. Shu bilan birga u bolalardagi ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik va boshqa xislatlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ijodiy o‘yinlar ertalabki qabul paytida, kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi sayrda, ya’ni mashg‘ulotdan tashqari hamma vaqtda tashkil etilaveradi.

Mashg‘ulotlarda va mashg‘ulotdan tashqari vaqtda o‘ynaladigan didaktik va harakatli o‘yinlar muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini, bilish jarayonlarini didaktik o‘yinlar orqali amalga oshiradi. Harakatli o‘yinlarda bolalarning jismoniy madaniyatinn tarbiyalash uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak.

Harakatli o‘yinlar ertalabki va kechki sayr soatlarida tashkil etilib, kuniga 1-2 marta butun guruh, yoki guruhcha bilan o‘tkazilishi kerak. O‘rta va katta gurhlarda turli xil sport o‘yinlari o‘tkazib turiladi. Hamma o‘yinlar uchun kun tartibidan vaqt ajratish va kerakli materiallar bilan ta’minlash tarbiyachining zimmasiga yuklatilgan.

Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan didaktik va harakatli o‘yinlarni o‘ynaydilar, xohlagan rasmlarini chizadilar, xohlagan narsalarini (plastilindan) yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o‘z-o‘zini tashkil eta bilish qobiliyati o‘shishiga, xulk, madaniyati irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o‘ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi taqozo etiladi: chunki xohlagan ishi bilan shug‘ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta’minlashda yordam berishda, tarbiyachining maslahati lozim bo‘ladi.

Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish mashg‘ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatida



amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e'tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma-xilligiga, ahloqiy munosabatlarga qaratiladi.

Bolalarning ovqatlanishga, mashg'ulotga tayyorlanishlari, tabiat burchagida navbatchilik vazifasini bajarishlari, ularda topshiriqqa nisbatan javobgarlik hissini rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi.

Navbatchilik ikkinchi kichik guruxda yilning ikkinchi yarmidan boshlanadi va hamma yosh guruhlarida davom etadi. Katta guruh bolalarining qo'l mehnati, tabiatdagi mehnati, xo'jalik-maishiy mehnatlari har kuni ertalabki soatda ertalabki va kechki sayrda sistemali ravishda tashkil etib boriladi. Haftasiga bir marta butun guruh ishtirokida bolalarning jamoa mehnati tashkil etiladi, mashg'ulotlarda qo'l mehnatining yangi turi o'rgatiladi. Mehnat jarayonida bolalarning mehnat qilish malaka va ko'nikmalari takomillashadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, qiziqishlari ortadi, mehnatsevarlik, javobgarlik, burch hissi kabi ahloqiy sifatleri shakllanib boradi.

Bolalarning mehnat faoliyatini ularning jismoniy va aqliy faolligini o'stiradigan qilib tashkil etilishi kerak. Buning uchun ularni hamma kerakli materiallar va mehnat qurollari bilan ta'minlash lozim. O'z-o'ziga xizmat bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi.

Kichkina guruhdan boshlab bolalar mustaqil kiyinish va yechinishga o'rgatiladi. Katta guruh bolalari o'zlarini har doim batartib (tashqi ko'rinishi, sochi, kiyimlari, oyoq kiyimi) tutishlari kerak. Ular o'yinchoqlarni, kitoblarni, ish qurollarini o'yin va mashg'ulotdan keyin joy-joyiga yig'ishtirib qo'yadilar.

Har kuni ertalabki mashg'ulotdan keyin, kunduzi uyqu, kechki nonushtadan keyin sayr uyushtiriladi. Sayrda ijodiy o'yinning hamma turlari, bolalarga tanish va yangi qoidali, o'yinlar tashkil etiladi. Bolalarning o'yin, mehnat, mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi bolalarning xilma-xil mustaqil faoliyatlari uchun shart-sharoit yaratadi: kerakli material, asbob-anjomlar, o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi, maydonchada, guruh xonasida o'yin uchun joy tayyorlaydi.

O'yin va mashg'ulotlar o'tkaziladigan joy gigiyenik jihatdan talabga javob berishi (yorug', ozoda, yaxshi shamollatilgan, nam latta bilan pollari artilgan, havo harorati normal bo'lishi) kerak.

## ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

*Касимова Дилрабо Баходировна* ТДПУ имени Низами преподаватель кафедры «Психология и педагогика дошкольного образования»

В методике развития речи дошкольников в детском саду вопросам обогащения, закрепления и активизации словаря традиционно уделяется большое внимание. Этот аспект работы по развитию речи детей тесно связан с решением задач умственного воспитания дошкольников, поскольку формирование знаний и представлений невозможно без опоры на обогащение лексики, без введения в речевую и мыслительную деятельность детей новых слов, которые обозначают входящие в сферу их познавательной деятельности предметы, явления, процессы, их свойства и взаимосвязи.

В методике развития речи дошкольников необходимо повысить удельный вес работы над словом как структурной единицей языка, определяющим свойством которой является семантическое содержание, значение. Слова, как знаки, обозначающие объекты действительности, в системе языка вступают в разнообразные семантические отношения, которые необходимо раскрыть детям, если мы хотим обеспечить полноценное усвоение ими родного языка. Именно работа над смысловой стороной слова в процессе развития речи дошкольников (особенно старших), имеющая важное значение в обучении детей родному языку, в подготовке их к обучению в школе, в современной методике представлена недостаточно.

Речь возникает при наличии определенных биологических предпосылок, зависит от ряда факторов, прежде всего, от нормальной работы центральной нервной системы. Однако кроме биологических предпосылок становления речи, важны и социальные, поскольку она формируется только в условиях

коммуникации ребенка и взрослого. В раннем и младшем дошкольном возрасте эмоциональное общение с близким взрослым является для ребенка определяющим.<sup>12</sup>

Развитие речи происходит как результат взаимодействия ребенка и окружающего мира. Ребенок является активным участником взаимодействия, активно усваивая речевые модели взрослого. Развитие речи непосредственно связано с общением, коммуникацией. Л.В.Выготский определял речь как средство социального общения, основной функцией которой является коммуникативная функция.<sup>13</sup>

Мотивация к коммуникации формируется во время взаимодействия ребенка со взрослыми. Она возникает уже в первые месяцы жизни ребенка, в основе лежит удовлетворение жизненных потребностей ребенка.

В жизни каждого человека речь имеет огромное значение. Ученые выделяют три основных функции речи: коммуникативную, или функцию сообщения или общения; сигнификативную, или функцию обозначения; функцию обобщения.<sup>14</sup>

Функция общения или сообщения коммуникативная функция речи включает в себя ее функции как средства выражения и как средства воздействия. Она состоит в том, что с помощью слов человек может сознательно сообщить о своих мыслях и чувствах, а также об окружающей действительности. Для общения также необходима сигнификативная (обозначающая) функция речи, так как слушатель должен понимать обращенную к нему речь, иначе теряется ценность данного общения; услышанная, но непонятая информация перестает быть сообщением для него. Третья основная функция речи - функция обобщения. Она проявляется в способности человека выделения существенных признаков и их обобщение, а также отнесение предмета на основе обобщения признаков к определенной категории.

---

<sup>12</sup> Логопедия: основы теории и практики / Н.С. Жукова, Е.М. Мастюкова, Т.Б. Филичева. - М. : Эксмо, 2011. - 288 с.

<sup>13</sup> Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6 т. Т. 2: Проблемы общей психологии / Под. ред. В. В. Давыдова. - М.: Педагогика, 1992. - 504 с.

<sup>14</sup> Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии - Издательство: Питер, 2002 г., 720 с.

Три перечисленные функции речи отражают ступени процесса развития речи в онтогенезе. Маленький ребенок сначала вступает в коммуникацию со взрослым, произносит свое первое слово, обращенное ко взрослому, а потом на протяжении следующих нескольких лет овладевает способностью использовать вербальные средства при взаимодействии с окружающими людьми, сначала только со взрослыми, а потом с другими детьми. Поведение ребенка в процессе овладения речью также носит изменения. В работах А.В.Запорожца отображена взаимосвязь развития речи и появления регуляторной функции поведения. С развитием речи планирование и контроль деятельности переходят от взрослого к ребенку.

Разные авторы по-разному описывают количество этапов в становлении речевого общения, выделяют различные возрастные периоды. Нами была выбрана для описания особенностей становления речевого общения у детей дошкольного возраста периодизация, предложенная М.И.Лисиной<sup>15</sup>. Автор выделяет три этапа:

1. Подготовительный этап (довербальное общение): этап охватывает первый год жизни ребенка и имеет определяющее значение в формировании вербальной коммуникации ребенка. В основе данного этапа лежит эмоциональное взаимодействие между ребенком и близким взрослым. В этот период времени у ребенка появляется особое внимание к звукам речи взрослого, связь речевых звуков с фигурой взрослого человека, формируется пассивный словарь ребенка. К 6 месяцам ребенок начинает реагировать на свое имя, а к 7 - появляется понимание простых речевых инструкций с жестом взрослого. Первый этап включает две формы общения ребенка со взрослым: ситуативно-личностное (ребенок использует экспрессивномимические средства общения, общение находится под воздействием ведущей деятельности детей и ситуативно-деловое (общение происходит на фоне манипуляций с предметами, основным средством общения являются предметные действия). Во втором полугодии

---

<sup>15</sup> Общение и речь: Развитие речи у детей в общении со взрослыми / В. В. Ветрова, Д. Б. Годовикова, М. Г. Елагина, М. И. Лисина, А. Э. Рейнштейн, А. Г. Рузская, Е. О. Смирнова; под ред. М. И. Лисиной; Научноисслед. ин-т общ. и пед. психологии АПН СССР. - М.: Педагогика, 1995.

жизни ребенка у него появляется необходимость в новых, вербальных средствах коммуникации. В этот период появляются предречевые вокализации, происходит подготовка к овладению языком.

2. Этап перехода с довербального к вербальному. К началу второго года жизни у ребёнка оказываются сформированными предпосылки развития импрессивной и экспрессивной речи. Данный этап длится обычно до 2,5 лет. На этом этапе появляется понимание речи и первые собственные вербализации - лепет, отдельные слова и короткие фразы. Если ребенок не получает ответа от взрослого, то может произойти разрыв между уровнем развития активной и пассивной речи. Также у ребёнка отмечается повышенное внимание к речи окружающих людей и увеличение речевой активности. В возрасте 1,5-2 лет у ребенка появляется возможность объединить слова в простое предложение. К концу данного периода объем предложений увеличивается до 34 слов.

3. Этап речевого общения или вербальной коммуникации. В этот период речь развивается преимущественно как средство общения. Ребенок активно познает мир, удовлетворяет свои познавательные интересы посредством коммуникации. Форма общения при этом так же перестраивается - она становится внеситуативно-личностной и протекает на фоне ведущей деятельности - игры. Ребенку становится важна помощь взрослого, его оценка происходящего, его личность. Что касается активного словаря, а к концу третьего года жизни насчитывается примерно 100 слов. Активная речь ребенка развивается быстро, что связано с ведущей деятельностью ребенка. При этом важно не только количественное, но и качественное увеличение словаря, понимание значений слов.<sup>16</sup>

Итак, дошкольный возраст можно охарактеризовать как этап наиболее активного развития вербальной коммуникации детей. Ребенок проявляет потребность в общении, речь служит средством удовлетворения его познавательных, игровых потребностей. В этом возрасте ребенок ищет

---

<sup>16</sup> Яшина Б.И., Алексеева М.М. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников 3-е изд., стереотип. М.: Издательский центр «Академия», 2000. 400 с.

эмоциональной поддержки взрослого, проявляет инициативу к общению, совместным делам, играм; реагирует на реакцию взрослого и сверстников. Вербальная коммуникация - основное средство человеческого общения, которое происходит посредством устной и письменной речи. Вербальные средства коммуникации - это живая, активная речь. Использование вербальных средств общения характерно только для человека, таким образом он выражает свои мысли, чувства, поведение.<sup>17</sup>

### **Литература:**

1. Логопедия: основы теории и практики / Н.С. Жукова, Е.М. Мастюкова, Т.Б. Филичева. - М. : Эксмо, 2011. - 288 с.
2. Выготский Л.С. Собрание сочинений: в 6 т. Т. 2: Проблемы общей психологии / Под. ред. В. В. Давыдова. - М.: Педагогика, 1992. - 504 с.
3. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии - Издательство: Питер, 2002 г., 720 с.
4. Общение и речь: Развитие речи у детей в общении со взрослыми / В. В. Ветрова, Д. Б. Годовикова, М. Г. Елагина, М. И. Лисина, А. Э. Рейнштейн, А. Г. Рузская, Е. О. Смирнова; под ред. М. И. Лисиной; Научноисслед. ин-т общ. и пед. психологии АПН СССР. - М.: Педагогика, 1995.
5. Яшина Б.И., Алексеева М.М. Методика развития речи и обучения родному языку дошкольников 3-е изд., стереотип. М.: Издательский центр «Академия», 2000. 400 с.

## **ВОСПИТАНИЕ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ**

*Ким И.Н старший преподаватель факультета «Дошкольное образование» ТГПУ им Низами, [irina\\_day@mail.ru](mailto:irina_day@mail.ru)  
Цой В. бакалавр 2 курса факультета «Дошкольное образование»  
ТГПУ им Низами*

Изменение социально-экономической, политической и социальной структуры современного общества нашей страны в последние десятилетия определили новые приоритетные требования общества к личности, ее активности в социальной жизни. Приоритетной потребностью общества стала мера успешности каждого человека в обществе. Первостепенную роль в этом процессе играет воспитание ребенка.

---

<sup>17</sup> Лисина М.И. Проблемы онтогенеза общения // Науч.исслед. инт общей и педагогической психологии Акад. пед. наук СССР.М.: Педагогика, 1996. - 144 с.

Воспитание – одна из основных категорий педагогики. К тому же общепринятого определения понятия «воспитание» нет. Одно из объяснений этого является его многозначность. Воспитание можно рассматривать как общественное явление, деятельность, процесс, результат, ценность, систему, воздействие и взаимодействие.

Каждое из этих значений справедливо, но ни одно из них не позволяет охарактеризовать воспитание, как педагогическую категорию в целом. Определяя объем понятия «воспитание», многие исследователи выделяют воспитание как социальное или как педагогическое явление, рассматривая их, в свою очередь, в широком или узком смысле. Воспитание как социальное явление – один из факторов жизни и развития общества. Воспитание в широком социальном смысле – это передача накопленного опыта от старших поколений младшим. Под опытом понимаются знания, умения, способы мышления, нравственные, эстетические, правовые нормы, духовное наследие человечества.

Как социальное явление воспитание носит:

Исторический характер. Оно возникло вместе с обществом и будет существовать, пока существует общество;

Классовый характер. Хорошее воспитание требует больших затрат, в том числе и финансовых, а значит, становится недоступным для всех людей в обществе, начинает служить господствующему классу, который и определяет его направленность;

Социальный характер. Цели, содержание, формы воспитания определяются потребностями общества и формулируются исходя из его интересов.

Воспитание в узком социальном смысле – это направленное воздействие на человека со стороны общественных институтов.

Воспитание как педагогическое явление в широком педагогическом смысле – это специально организованное, целенаправленное и управляемое воздействие коллектива, воспитателей на воспитуемого с целью формирования

у него заданных качеств, осуществляемое в учебно-воспитательных учреждениях и охватывающее весь учебно-воспитательный процесс. Воспитание в узком педагогическом смысле – это процесс и результат воспитательной работы, направленной на решение конкретных воспитательных задач.

К задачам воспитания традиционно относят задачи умственного, физического, нравственного, эстетического, трудового, гражданского воспитания.

Задача дошкольного воспитания – разбудить внутренние силы ребенка и направить их на саморазвитие, а также руководить их самовоспитанием. Для решения этих задач используются такие средства: сообщение знаний о развитии и самовоспитании, организация коллективной и индивидуальной деятельности по самовоспитанию, консультирование, поощрение. Существуют приемы самовоспитания: самоанализ, саморегуляция, самооценка и самоконтроль.

Процесс воспитания включает в себя и перевоспитание, понимаемое как перестройка установок, взглядов и способов поведения, противоречащих этическим нормам и другим требованиям общества. Процесс изменения, ломки сознания и поведения очень сложен, поскольку должны изменяться стереотипы поведения, имеющие устойчивый характер. В перевоспитании нуждаются ученики, называемые трудными, имеющие отклонения в поведении, часто не успевающие в учебе. Причиной этого являются, как правило, ошибки в семейном и школьном воспитании, влияние малых социальных групп.

Таким образом воспитание - это целенаправленное формирование личности на основе развития у неё определённых отношений, мировоззрения, форм поведения.

### **Литература:**

1. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах (Приложение №1 к Указу Президента РУз от 07.02.2017 г. №УП-4947)
2. Постановление Президента Республики Узбекистан "О мерах по коренному совершенствованию системы дошкольного образования" (№ пп-3261 09.09.2017)



3. Куликова Т.А. Семейная педагогика и домашнее воспитание: Учебник для студ. сред. и высш. пед. учеб. заведений . -- М.: Издательский центр «Академия», 1999. - 232 с.
4. Козлова С.А., Куликова Т.А. Дошкольная педагогика: Учеб. пособие для студ. сред, пед. учеб. заведений. -- 4-е изд., стер. - М.: Издательский центр «Академия», 2002. - 416 с.

## **MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDAGI IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI**

**Surayyo Mansurova** *Navoiy davlat pedagogika instituti*  
*Maktabgacha ta’lim kafedراسi o‘qituvchisi*

Muayyan jamiyatda asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda shaxsning fiziologik, psixologik va jismoniy rivojlanishiga ko‘ra yondashish tajribasi shakllangan. Jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarga nisbatan ijtimoiy rivojlanish insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan har qanday jamiyatda achinish, yordam berish, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va ruhan madad berish tarzida munosabatda bo‘lib kelingan. Ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha alohida qobiliyatga ega bo‘lgan shaxslarning ruhiyati, xatti-harakatlari hamda atrof-dagilarga munosabatlarida namoyon bo‘luvchi o‘ziga xos jihatlari (jumladan, o‘z-o‘zini boshqara olmaslik, yig‘loqilik, ruhiy tushkunlik, o‘z-o‘zidan qoniqmaslik va hokazolar) ularga nisbatan jamoatchilikning salbiy munosabatda bo‘lishiga olib kelgan. Shu sababli asrlar davomida qobiliyatli shaxslar tomonidan e’tirof etilgan fikrlar, kashfiyotlar, sodir etilayotgan xatti-harakatlar tanqidiy baholangan va «sehrgarlik» deb nomlattgan. Ayrimlarda namoyon bo‘ladigan yuqori darajadagi aqliy rivojlanish, ko‘p hollarda, atrof-dagilarda simpatiya (ijobiy munosabat) tug‘dirmagan. Aksincha, aqllilarni yomon ahvolga tushishiga majbur qilganlar. Bunday munosabat esa o‘z-o‘zidan qobiliyatli, iqtidorli shaxslarning ruhiyatida yanada «salbiy sifatlar»ning shakllanishiga olib kelgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya fanida shaxs iqtidori, qobiliyatlilik darajasi, qobiliyatni maqsadli rivojlantirish masalalarini tadqiq etishga kirishildi. N.S.Leytes, M.Karne, V.S.Blum, B.Klark, J.Uitmor, A.Sh.Shvedel, R.S.Stounberner, L.Termen kabilar tomonidan qobiliyatlilik va uning darajalarini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi, shuningdek, qobiliyatli shaxslarning o‘ziga

xos psixologik sifatlarining tadqiq etilishi hamda ular bilan munosabatni to'g'ri tashkil etish yuzasidan tavsiyalarning ilgari surilishi nafaqat soha rivojini ta'minlab qolmay balki, qobiliyatli shaxslarning «cheksiz imkoniyatlari»dan samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatib berdi.

J.Uitmor 1980 yillarda quyidagi omillar bolalarda alohida qobiliyatning namoyon bo'lishiga zamin yaratishini asoslab bergan:

1. Mukammallikka intilish (perfeksionizm). Qobiliyatli bolalar uchun kamolotga intilishning ichki ehtiyojiga egalik xosdir. Ular yuqori natijalarni qo'lga kiritmagunlariga qadar tinchimaydilar. Buning ilk ko'rinishi juda yoshlikdan ko'zga tashlanadi.

2. Qoniqmaslik tuyg'usiga egalik. O'z-o'ziga bunday munosabatda bo'lish qobiliyatlilar nima bilan shug'ullansa ularning barchasida mukammal bo'lishga intiluvchi bolalarga xos xususiyat sanaladi. Ular shaxsiy yutuqlariga tanqidiy yondashadilar, ko'p holatlarda ulardan qoniqmaydilar, bundan o'z-o'zini noto'g'ri va past baholash hissi yuzaga keladi.

3. Noreal (amalga oshish imkoniyati kam bo'lgan) maqsadlarga egalik. Qobiliyatli bolalar odatda o'z oldilariga yuksak maqsadlarni qo'yadilar. Qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatiga ega bo'lmasalar, ular tashvishlana boshlaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, mukammallikka intilish yuksak yutuqlarga erishish imkonini beruvchi kuchdir.

4. O'ta sezgirlik (sensitivlik). qobiliyatli bolalar eshitish imkoniyatining yuqoriligi tufayli ular munosabat va aloqalarni yaxshi tushunadilar, ular nafaqat o'zlariga, shu bilan birga atrofdagilarga nisbatan ham tanqidiy munosabatda bo'ladilar. Qobiliyatli bolalar juda ta'sirchan bo'lib, ular atrofdagilardan o'zlariga nisbatan bildirilayotgan yoqimsiz so'z yoki so'zsiz harakatlarning paydo bo'lishi bilanoq qabul qiladilar. Doimiy ravishda turli ko'rinishdagi salbiy ta'sirlarga javob beraverish oqibatida bunday bolalar ko'p hollarda giperfaol va tez chalg'iydigan bo'lib qoladilar.

5. Kattalarning e'tiborlariga ehtiyoj sezish. Tabiatan qiziquvchanliklari va bilishga bo'lgan intilish ko'p hollarda o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa katta yoshli

kishilarning e'tiborlari o'zlarigagina qaratilishini xohlaydilar. Bu boshqa bolalar bilan munosabatlarda bunday istakni keskinlashtiruvchi ziddiyatni keltirib chiqaradi.

6. Sabrsizlik. Qobiliyatli bolalar ko'p holatlarda aqliy jihatdan o'zlariga nisbatan past salohiyatga ega bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo'ladilar. Shu sababli ular toqatsizlik va sabrsizlikni ifodalovchi tashqi tanbehlariga duch keladilar.

Bolalarning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishda ular uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim omillardan biri sanaladi. 1980 yillarda amerikalik olimlar M.Karne, A.Shvedel va S.Minnemayerlar bolalar qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarning inobatga olinishi muhim ekanligini alohida qayd etib o'tganlar:

1. Har bir bola takrorlanmas, o'ziga xos hususiyatlarga ega.
2. Qobiliyatli bolalar o'zlariga nisbatan nihoyatda tanqidiy yondashadilar va ko'p hollarda u qadar ijobiy bo'lmagan «Men» obraziga yegalliklari bilan ajralib turadilar.
3. Oila qobiliyatli bolalarga ta'lim berishda yetakchi o'rinni egallashi lozim.
4. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dasturda ularning qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq keluvchi turli-tuman o'quv materiallari o'rin olishi kerak.
5. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dastur uning har tomonlama – harakat, hissiy, shuningdek, muloqot malakalarini shakllantirishdagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashi hamda ularni rivojlantirishga yordam bera olishi zarur.
6. Qobiliyatli bolalar «bilimlarni o'rtacha o'zlashtiruvchi» bolalar bilan bir guruhda o'qitilganda xuddi o'zlari singari qobiliyatli bolalar bilan muloqot qila olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak.
7. Bu kabi dasturlarni amalga oshirishga maxsus tayyorgarlik va qobiliyatli bolalar bilan ishlash tajribasiga ega mutaxassisning rahbarlik qilishi yuqori natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.
8. Qobiliyatli bolalar uchun namunaviy dasturlar bolalarni bir ta'lim muassasasida uzluksiz o'qitishni talab etadi.

9. Ota-onalar va tarbiyachilar uchun bola oldiga qo‘yiluvchi maqsadlar va ularni amalga oshirish yo‘llarini aniqlashga bo‘lgan munosabatlarda hamkorlik qilish muhim sanaladi.

10. Qobiliyatli tarbiyachilarni iqtidorli bolalarga ta’lim berishga jalb etishning zaruriy yo‘llarini topish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maktabgacha katta yosh juda sensitiv davr hisoblanadi. Bu davrda bola tabiatan faol va izlanuvchan bo‘lib, dunyoni o‘zi tasavvur qilgan go‘zallik qonunlariga asosan o‘zgartirishga intiladi. Bu yoshdagi bolalarning o‘zini namoyon qilish istagi raqsga tushishi, harakatlari, rasm chizishi kabilar bilan ajralib turadi. Bolaning hissiy sohasiga ta’sir qiladigan va atrofdagi dunyoni bilish istagiga asoslangan tasviriy san’at vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi o‘zgartirish istagi paydo qilib va ijodkorlikni uyg‘otishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning ijodkorligini rivojlantirish uchun sharoit yaratish muammosi mavjud. Ma’lumki, ijodiy tashabbus namoyon bo‘lmasa, o‘quv jarayoni o‘z mazmunini va ahamiyatini yo‘qotadi. Psixologik va pedagogik adabiyotlar o‘quv jarayonining oqilona tanlangan yo‘nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarda ehtiyoj, hissiyotlarini, o‘z fikrlarini, g‘oyalarini, taassurotlarini ifoda etishga tayyorlik shakllantirishi kerakligi ko‘rsatilgan.

Bolalar faoliyatini obyektiv yangiligi va ahamiyati nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, ushbu faoliyatni “ijodiy” deb atash birmuncha murakkab masala hisoblanadi. Chunki bolalar chizgan rasmlar, mato, qog‘oz yoki plastilindan tayyorlangan turli o‘yinchoqlar, albatta, badiiy ahamiyat kasb etmaydi. Biroq pedagogika va psixologiya sohasidagi ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra, bolalar ijodkorligi o‘ziga hosligini – dunyoni endigina “o‘rganayotgan”, uni “kashf” qilayotgan bolalarning bunday faoliyatini shartli ravishda “ijodkorlik” deb hisoblash mumkin.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlari faqatgina rasm chizish, ashula aytish yoki plastilindan turli shakllarni yasash bilan chegaralanmaydi. Ulardagi ijodiy qobiliyatlarning arsenali nihoyatda keng bo‘lib, olamni o‘rganish va kashf etish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash, kundalik xodisalarda g‘ayrioddiy narzalarni

ko‘rish, tasavvur va fantaziya; tashabbusning namoyon bo‘lishi; intuitsiya; ongning faolligi kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, Bu tushunchalarning barchasi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tadqiq etilishida aniq ifodasini topadi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarga zamonaviy ta‘lim berish, ularni psixik, aqliy va ijtimoiy jihatdan faol rivojlantirish – hozirgi kunda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarga zamonaviy ta‘lim-tarbiya berish O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi davrning bolada inson sifatidagi individuallikning asoslari shakllanadigan va rivojlanadigan eng faol nuqtasi bolalar 5-6 yoshga to‘lguniga qadar bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Bola psixikasini yosh davrlari bo‘yicha rivojlanishi bosh miyasining o‘sishi va shakllanishi bilan bevosita bog‘liqligi sababli, o‘qitish jarayonini tashkil etishda aynan shu “nozik” mutanosiblikni hisobga olish – ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bolalar qobiliyati va iqtidorini rivojlantirishda maktabgacha katta yosh juda sensitiv davr hisoblanadi. Bu davrda bola tabiatan faol va izlanuvchan bo‘lib, dunyoni o‘zi tasavvur qilgan go‘zallik qonunlariga asosan o‘zgartirishga intiladi.

Bolalar ijodkorligi o‘ziga hos bo‘lib, dunyoni endigina “o‘rganayotgan”, uni “kashf” qilayotgan bolalarning bunday faoliyatini shartli ravishda “ijodkorlik” deb hisoblash mumkin. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarining arsenali nihoyatda keng bo‘lib, olamni o‘rganish va kashf etish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash, kundalik xodisalarda g‘ayrioddiy narzalarni ko‘rish, tasavvur va fantaziya; tashabbusning namoyon bo‘lishi; intuitsiya; ongning faolligi kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: “O‘zbekistan”, 2017. – B.163.
3. Abdullayev A., Jajda prekrasnogo, T., 1994.

4. Gegel G. V., Estetika, v 4-x tomax, M., 1968. -73.
5. Gulyamov D.R. Bilish jarayoni faolligi va neyropedagogik tadqiqotlar talqini / - Toshkent, "Pedagogika" J., №5, 2015. –B. 29-35.
6. Gulyamov D.R., Kalanxodjayeva K.B. K voprosu ucheta osobennostey mejpolusharnoy funktsionalnoy asimmetrii mozga obuchаемых v uchebnom protsesse / J. Aktualnie problemi gumanitarnix i yestestvennix nauk. № 11, 2018. –S.38-43.

## **OTA-ONA MAS'ULIYATI VA FARZAND VAZIFALARI**

**Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna** Nizomiy nomidagi TDPU  
 "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi,  
**Mirdadayeva Nodira Irkinovna** 605-sonli DMTT metodisti

Insonga sodiq farzand bo'lish juda ulug' ne'mat, katta baxt hisoblanadi. Oilada ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati, burchi o'ziga xosdir. Ota-onalar farzandni dunyoga kelishiga sababchi bo'libgina qolmay, balki ming mashaqqatlar chekib voyaga yetkazadilar, tarbiyalaydilar, bag'riga bosib, mehr berib ulg'aytiradilar. Kasal bo'lganimizda boshimizda girdi-kapalak bo'lib boylanib, butun rohatlarini yo'qotadilar, tuzalib ketishimiz uchun hamma choralarni izlaydilar, yeydigan, ichadigan, kiyadigan, narsalarimizni hozirlab, har kimdan ziyoda sevadilar. Boshlarimizni silab, o'qitadilar, ta'lim-tarbiya beradilar. O'qimishli, dono, ahloq-odobda tengsiz kishilar bo'lishimiz uchun butun kuch va imkoniyatlarini sarflaydilar.

Shu o'rinda yana bir fikrni keltiraman. O'sib, ulg'ayganimizdan keyin ham boshimizga biror mushkul ish tushganda tasalli berib, hamisha ko'nglimizni ko'tarib, sabr-toqatli bo'lishimiz uchun pand-nasihatlar qiladilar. Shod-xurram bo'lganimizda bo'lsa shodligimizga sherik bo'lib, nomus va sharafimizni saqlaydilar. Baxtli, saodatli bo'lishimizni bir umr tilaydilar.

Ko'rinadiki, bizga ozgina ezgulik qilgan kishilarga ezgulik qilish burchimiz ekan, shu qadar ezgulik qilgan ota-onalarimiz biz farzandlarning burchlarimiz ham yuqoridir. Shuning uchun ularning roziliklarini, tahsinlarini olishimiz, izzat va hurmatlarini joyiga qo'yishimiz, nojo'ya fe'l-atvordan saqlanishimiz lozim.

Farzand hamisha ota-ona oldida burchli. Kuzatish va tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bajaradigan vazifani uch davrga bo'lish mumkin. Chunonchi, birinchi davri – go'daklik davri. Bu davrda bolada hali vazifa, burch, majburiyat degan

tushunchaning o'zi bo'lmaydi. U faqat ota-ona buyrug'iga itoat qilish kerakligini anglaydi, xolos. Lekin ikkinchi davrda yoshi ulg'aygan sari bolaning aqli, harakati oshib, qiladigan ish, vazifalari ham tobora ravshanlashib boradi.

Boshqacha ibora bilan aytganimizda, ota-onalarimiz bizning manfaatimizni ko'zlab sa'y-harakat qilganlari, hayot va turmush ishlarida ma'lumotlari, tajribalari yuqori bo'lgani uchun ularning ko'rsatgan yo'llaridan borishimiz suv bilan havodek zarur bo'ladi.

Endilikda bu davrda ota-onalarimiz ko'proq pand-nasihat beradilar. Ayniqsa, qarindosh-urug'larni hurmat qilish, ularni ranjitmaslik, chiroyli muomala qilish hamda imkoni boricha qarindoshlik haqini o'tish to'g'risida ko'proq gapiradilar.

Ota-onalar yana faqat o'z qarindoshlargina emas, hamma odamlarga yaqin bo'lib, izzat hurmatqilish, qarindosh, do'stlar va boshqa insonlarning boshiga biror kulfat tushsa, ularning ko'ngillarini ko'tarish, ona-Vatan va tabiatimizni sevish va e'zozlashimiz to'g'risida ham ijobiy gap-so'zlarni qulog'imizga quyadilar.

Uchinchi davr mustaqillik davri hisoblanadi. Endi o'sdik, odam bo'ldik, turmushimizni o'zimiz yo'lga qo'ya oladigan kuchga ega bo'lib, ota-ona yordamiga ehtiyojimiz qolmadi, hayotiy tajribamiz kundan-kunga oshib, o'z taqdirimizni o'zimiz tayin qiladigan bo'ldik. Bizni shu davrga qadar boqib, tarbiyalab, o'qitganlari uchun ota-onamizga cheksiz minnatdorchilik bildiramiz va bugungi kunda bizlarni shu darajaga yetkizganlariga qanday mehnat qilganliklarini, bu yo'lda qanchalik azob-uzubat chekkanlarini yorqin anglay boshlaymiz.

Ha, bugungi kunda ota-onalarimiz kuch-quvvatdan qolib qaridilar deylik. Bizning muhtojlik, kuchsizlik paytlarimizda ularga yuklatilgan vazifalar bugun bizga yuklatiladi. Ota-onalarimiz hayot va quvvatlarini, mol va davlatlarini bizning yo'limizda sarf qiladilar. Bugungi kunda ularning bu xizmatlarini to'laydigan payt keldi. Shuning uchun ota-onalarimizning izzat-hurmatlarini bajo keltirishga, ro'zg'orlarini ta'min etishga ham qonun oldida, ham vijdon oldida majburlamiz.

Oilaviy tarbiyada ma'naviy ruhda kamol topgan bolalar saodatmand, dono odamlar xush fe'l-atvorni o'zlariga abadiy najot sarmoyasi deb biladilar, fursat, vaqtni qo'ldan qochirmaydilar, g'animat sanaydilar, go'zal ahloq, odob bilan

ziynatlanadilar. Mol-dunyo yig'ishga o'ch bo'lmaydilar, hech kimning ko'nglini og'ritmaydilar. Ojiz va g'arib kishilarga g'amho'rlik qiladilar, ularning ehtiyojlarini o'taydilar, birovning aybini ko'rsalar oshkora qilmasdan uni bekitadilar, birovdan yomonlik ko'rsalar, u kishiga yaxshilik qiladilar, ulug' olim, fozillarning siyratlari, go'zal fe'l-atvorlarini o'zlariga peshvo qilib oladilar, o'z manfaatlarini ko'zlab, boshqa ziyon keltirmaydilar, hech kimga qo'pollik bilan muomala qilmaydilar, to'g'ri so'zlaydilar, yolg'onchilik ko'chasiga qadam qo'ymaydilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta'lim sohasida bir necha yillar faoliyat olib borgan oilashunos olim Oysha Xasanboyeva oilada farzand tarbiyasi, ota-ona mas'uliyati haqida qimmatli fikrlarini keltirib o'tganlar. Yuqorida keltirilgan oilada farzand ta'lim-tarbiyasi haqidagi ilg'or tajribalar bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

#### **Adabiyotlar:**

1. O.Xasanboyeva "Barkamol avlod ma'naviyati" T-2010 yil
2. M.Jumaboyev "O'zbek bolalar adabiyoti" T-2009 yil
3. Yu.Shukurova "Odob.Nutq.Muomala" T-2006 yil
4. Yu.Maxmutazimova "Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi" (STEAM texnologiyasi asosida) metodik qo'llanma T-2021 yil

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR NUTQINI O'YINLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

**Yu.R.Maxmutazimova** Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi, **Abdullayeva Madina, talaba**

Har bir bola maktabgacha ta'lim tashkilotida o'z fikrini mazmunli, grammatik jihatdan to'g'ri, bir-biriga mantiqan bog'langan holda bayon etishga o'rganishi kerak.

Bog'lanishli nutq deganda, ma'lum bir mazmundagi fikrni mantiqan bir-biriga bog'lab, izchil ravishda grammatik jihatdan to'g'ri va obrazli qilib bayon qilish tushuniladi. Bog'lanishli nutqning ikki xil: dialogik va monologik turlari mavjud.

Dialogik nutqda savol tuza olish va savol berish, eshitgan savoliga taalluqli javobni berish, kerakli e'tirozni berish, suhbatdoshini javobini tuzatish va to'ldirish,



muhokama va munozara qilish, o'z fikrini asoslash kabilar juda muhimdir. Monologik nutq bir kishining nutqi bo'lib, so'zlovchidan keng, aniq, to'liq, bog'langan fikrni talab etadi. Monolog hikoyani tushuntirishi, so'zlovchidan o'z fikrini asosiy narsaga qaratishni, jonli, obrazli, his-xayajon bilan gapirishni talab etadi.

Dialogik nutqini rivojlantirish – bolalarni kattalarning nutqini tinglash va tushunish, savollarga javob berish, boshqa odamlarning oldida o'z fikrini aytish, bir-birini tinglashdan iborat. Kichik guruhlarda bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatishda mashg'ulotning o'yin shaklidan foydalaniladi. Bu mashg'ulot turiga bolalarning nutq faolligi, savollarga javob berishi asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek maxsus mashg'ulotlar va logopedik o'yinlar bolalarning so'zlashuv nutqini tarkib toptiradi.

1. Suhbatlar
2. Logopedik o'yinlar
3. Suratlarini ko'rib chiqish va uhaqida suhbat

Suhbat ta'lim-tarbiya ishining murakkab turidir. Suhbat logoped va tarbiyachining guruhdagi bolalar bilan mahlum bir mavzu yuzasidan maqsadga qaratilgan holda tashkiliy so'zlashishidir.

MTT da bolalar bilan o'tkaziladigan suhbat ularning kundalik faoliyatlari va turli voqea-hodisalarni kuzatishi natijasida olgan tushunchalarini aniqlash va ularni bir tizimga solish maqsadida o'tkaziladi.

Logoped bolalar bilan suhbatni tashkil etar ekan, u bolalarga haqiqatni to'liq va chuqur idrok etishga yordam beradi, ularning diqqatini tushunishi qiyin bo'lgan narsalar, voqea-hodisalarga jalb etadi.

Suhbat mashg'ulotida bola ilgari ko'rgan, kuzatgan voqea-hodisalarni esga tushiradi, mantiqiy fikr yuritishga harakat qiladi, tahlil qiladi. Suhbat bolalarni jamoaga birlashtiradi, bir-birlariga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, nutqini faollashiga ta'sir ko'rsatadi. Suhbat bolalarni o'z fikri bilan o'rtoqlashishga, jamoaga so'zlashishga, faolligini oshirishga, o'zini tuta bilishga odatlantiradi, dunyoqarashini shakllatiradi.

Suhbat mashg'ulotida bolalar kelgusida maktabda ta'lim olish jarayonida zarur bo'lgan bilim, malaka va odatlarni egallaydilar. Suhbat asosan uch xil bo'ladi:

1. Kirish suhbat

2. Sayohat va kuzatish davomida o‘tkaziladigan suhbat

3. Yakuniy suhbat

Suhbatda asosiy o‘rgatish usuli savollar berishdir. Mazmuni va shakli jihatidan har xil murakkablikka ega bo‘lgan savollardan foydalaniladi. Bolalarni nutqini to‘liq rivojlantirishda, lug‘atini faollashtirishda suhbatning ahamiyati juda kattadir. Guruhlarda bolalarni so‘zlashuv nutqiga o‘rgatishda mashg‘ulotning o‘yin shaklidan foydalaniladi. Bu mashg‘ulot turiga bolalarning nutq faolligi savollarga javob berishi asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan logopedik o‘yinlarda ham o‘zi savol berib, o‘zi javob beradi, so‘zlashuvning bunday shakli bolalar qiziqishini oshiradi, nutqini faollashtiradi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqini o‘stiruvchi, tasavvurlarini kengaytiruvchi seriyali suratlardan foydalanish mumkin: Quyida nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar dialogik nutqini rivojlantirishga oid o‘yinlardan namunalar keltiramiz.

#### **“Non- bizning boyligimiz” she’riy o‘yini.**

**Maqsad:** bolarning lug‘at boyligi, nutqi, tafakkuri, xotira va diqqatini rivojlantirish.

**Jihoz:** loy va plastilindan yasalgan non, bug‘doy, non aks ettirilgan predmetli va syujetli rasmlar.

**O‘yinning borishi:** logoped bolalarga qarata shunday deydi: bolajonlar noz-ne‘matlarimiz orasida eng aziz narsa nima? – to‘g‘ri non. Non nimadan tayyorlanadi? – to‘g‘ri bug‘doydan. Bug‘doy qaerda o‘stiriladi? – to‘g‘ri dalada. Dexqon bobolarimiz baxordan kuzgacha mexnat qilib bizga bug‘doy yetkazib beradi. Bug‘doydan un tayyorlanadi. Undan nimalar pishiramiz?

To‘g‘ri - patir, bulochka, lochira, shirinliklar, bo‘g‘irsoq, kulchatoy...

Xammamiz yaxshi bilar ekanmiz. Kelinglar birgalikda

“Shirin kulcha yopamiz ” she’rini o‘rganamiz.

Shirin kulcha yopamiz,

Dasturxonga tortamiz,

Qarang qanday mazali,

Ham chiroyli jizzali,

Shakar, tuxum solamiz,

## **“Uchar qushlar” o‘yini.**

**Maqsad:** bolalarga qushlar xaqida bilim berish, nutqi, lug‘atini boyitish, diqqat, xotirasini, mayda qo‘l motorika harakatlarini rivojlantirish.

**Jixoz:** qushlarning mulyaji, qushlar tasvirlangan rasmlar.

**O‘yinning borishi:** logoped- bolajonlar xozir oltin kuz fasli. Barglar to‘klyapti, shamol esib, yomg‘ir yog‘moqda. Qushlar xam o‘z inlariga uchib kirishadi. Qani bolalar qushlarni nomini eslaylik. To‘g‘ri, kaptar, musicha, chumchuq, qaldirg‘och, qarg‘a, zag‘izg‘on. Qaysi qushimiz issiq o‘lkalarga uchib ketadi? – qaldirg‘och. Qaysi qush qishda uchib keladi? – qarg‘a. Qaysi qushlar yil davomida o‘lkamizda yashaydi? – kaptar, musicha, chumchuq, zag‘izg‘on. Bolalarga qushlarning uchish harakati ko‘rsatilib, harakatlar bajartiriladi. Bolalar qo‘llarini silkitib, oyoq uchida yengil harakat qiladilar.

### **Adabiyotlar:**

1. Mo‘minova L.R. «Bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish»- T.: «O‘kituvchi», 1992.
2. Mo‘minova L. R., Ayupova M. Yu. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni savodga o‘rgatish dasturi. (maktabga tayyorlov guruxlari uchun)». - T.: «Ijodkor», 1995.
3. Pojilenko Ye.L. «Volshebnyy mir zvukov i slov». - M.: «Vlados», 2003.
4. G.Shalayeva “Logopedicheskie igri” - M-2010 g.
5. R.Sh.Shomaxmudova “Maxsus va inklyuziv ta’lim” . T -2011 y.

## **ERTAKLAR - BOLALARGA MA’NAVIY OZUQA**

### **Mirjalolova Lobar Rustamovna**

Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi” kafedrası dotsenti, p.f.n.

Xalq og‘zaki ijodida eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertaklar xalq hayoti, milliy ma’naviyati, urf-odatları, udumlari, an’analari, orzu-umidlarini aks ettirib, bolalarga ma’naviy, ahloqiy va badiiy oziqa beradi.

Xalqimiz “Ertaklar - yaxshilikka yetaklar” deb bejiz aytmagan. Ular har bir xalqqa xos va mos bo‘lgan hikoyatlardir. Xalq ertaklari tarbiyaviy jarayonni yaxlitligicha tashkil etish, ya’ni ahloqiy, ma’naviy, ekologik, estetik va aqliy

rivojlanish chegaralarini kengaytirish imkonini beradi. Ayni paytda ular tinglovchining ko'pgina yaxshi xotiralarini yodiga soladi. Inson bolaligidan boshlab yaxshilikka, ezgulikka doimo intilib yashaydi.

Har bir bola ertak tinglayotgan chog'ida qahramonlardan biriga o'xshashni, ularga taqlid qilishni orzu qiladi. Kitoblardagi rasmlarni qiziqish bilan tomosha qilish, kattalarning nutqini qanday maroq bilan tinglash bolalarning ertaklarga ijobiy munosabatda ekanligidan dalolat beradi. Ertaklardagi obrazlar his-hayajonga boy, rangdor va shu bilan birga kichkintoylarning tushunishlari uchun sodda bo'lib, haqiqatga yaqinligi bilan ularni o'ziga rom etadi. Ertaklar yordamida bolalarning xotirasi, diqqati, tafakkuri rivojlantiriladi, tasavvur va fantaziyalari uyg'otiladi. Fantaziyaning uyg'otilishi har xil hayvonlarning kesilgan tanalarini birlashtirish orqali turli ajoyibotlarni yaratishda yaqqol ko'rinadi.

Har bir ertakning o'z g'oyasi bor. Masalan, «Sholg'om» o'yin ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni muayyan ketma-ketlikda aytishga undaydi, "Kuch - birlikda" degan naqlning mazmunini anglab yetishlariga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklar hikoya qilish, ya'ni ertak aytish yo'li bilan, shuningdek, ularni o'qib berish orqali yetkaziladi. Lekin bugungi kunda yangi pedagogik texnologiya talabiga ko'ra bu kabi ish turlari yetarli emas. Ayniqsa, axborot texnologiyalari keng ommalashayotgan davrda kompyuter ekranlari orqali ertakni ko'rsatmali eshittirish imkoniyatlari yuzaga kelganligi tufayli ham yangidan yangi usullarga yo'l ochilmoqda.

Ertak so'zlab berilgandagina matn «jonlanadi». Hikoyalovchining xatti-harakatlari, imo-ishoralari, ohangi va belgilangan bayon ritmikasi ertakni kichik tinglovchilar uchun yanada tushunarli qiladi. Masalan, Zumrad - mehnatsevar qiz. Qimmat esa yalqov. Bunday suhbatlar bolalarda ko'proq ertak tinglab borish kerak, ekan degan xulosaning shakllanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bitta ertakni qayta-qayta eshitishni yoqtiradilar. Shunga ko'ra ham uni bir marta emas, bir necha marta o'qib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda tarbiyachi: «Bolalar, ertak yoqdimi? Mazmunini tushundinglarmi? Yana bir marta o'qib beraymi?» deb murojaat etib turishi kerak. Odatda, ayrim tarbiyachilar ertakni birinchi marotaba eshittirganidan

keyinoq bolalarga savollar berib, javob olishga intiladilar. Biroq bunga kichkintoylar hali yetarlicha tayyor bo'lmaydilar. Chunki bolalar ertak mazmunini yuzaki tushungan bo'lishlari mumkin. Shuning uchun dastlabki idrokni chuqurlashtirish maqsadida bolalarni ertak mazmuniga olib kirish lozim bo'ladi.

Ertakning bolalarda tug'ilayotgan his-hayajonga ta'siri nechog'lik jadal bo'lsa, ular chizgan rasm shunchalik qiziq va rang-barang bo'ladi. Bundan tashqari, bolalar o'zlari chizgan rasmlarni (odam, hayvon) qirqib olib erkin mavzularda o'yin o'ynashni ma'qul ko'radilar. Kattalar bolalarga ertak o'qib berish mobaynida ertak elementlari orqali ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirgan holda obrazli tafakkurining o'sishiga ma'lum darajada ta'sir etadilar. Sekin-asta bolaning o'zi ham bu jarayonda ishtirok eta boshlaydi, ya'ni avval rasmlarni tomosha qiladi, so'ngra ovozga taqlid qilish orqali ertak qahramonlarining nomini aytishga, tanish jummalarni davom etgirishga harakat qiladi va, nihoyat, ertakni qayta so'zlab beradi.

Ertakning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, qahramonlardan biri ijobiy, ikkinchisi salbiy bo'ladi. Asar qahramoni kuchli va jasur bo'lsa, u atrof olamni go'zallik bilan boyitadi. Albatta, kuchli bo'lish uchun gavgdali odam, pahlavon bo'lish shart emas. Kichkina bolalar ham kuchli va jasur bo'lishlari mumkin. Ertakda mitti tipratikon ham sahovatli, qalban mard, tirishqoq bo'lgani uchun kuchli va jasur qahramonga aylanadi. Ertak o'qib bo'lingandan keyin bolalarni umumlashma, xulosa chiqarishga undash, «Agarda sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding? Seningcha, ertak qahramoni yaxshimi yoki yomonmi? Agarda u qilishi kerak bo'lgan ishni bajara olmaganida nimalar yuz berishi mumkin edi?» kabi savollar bilan erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini yanada oshirishga yordam beradi.

Tarbiyachi tomonidan mahorat bilan yetkazilgan ertaklar bolada ko'tarinki, quvnoq kayfiyatni yuzaga keltirishga, kichkintoy bilan hishayajonli, do'stona muloqotni o'rnatishga, sezdirmay, osonlik bilan tarbiyaviy ta'sirni tashkil etishga, atrof-muhit haqidagi bilim va ma'lumot zahiralarini samarali to'ldirishga imkon yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar badiiy matn bilan asosan eshitish orqali tanishadilar. Shu bois asosiy diqqatni matnni ifodali o'qish mahoratiga, kerakli

joylarda mantiqiy urg‘u berish, to‘xtamlarga amal qilish, shuningdek, matnni qabul qilishga yordam beradigan rangli illyustratsiyalar tanlashga qaratmoq lozim.

Ertak mazmunini qayta hikoya qilish jarayonida bolalarda ohangga (ifodalilikka) e‘tibor berish malakasini shakllantirish lozim. Bunda ertak qahramonlarining ovozi qanday bo‘lishi mumkinligi haqida suhbat o‘tkazish yo‘li bilan, ularda tegishli bilim hosil qilish talab etiladi. «Ertak nimasi bilan bizni qiziqtiradi?» degan savol tug‘iladi. Birinchidan, timsolga aylanish orqali bolalar hayvonlarning hulqatvori va yurish-turishi, nutqi, harakati, ovozi, imo-ishoralari bilan kengroq tanishadilar. **Ikkinchidan**, ertakka kiritilgan she‘rlarni ifodalilikka rioya qilib aytish, ularni kuylash bolalarning tovushlar talaffuzini egallashlari, musiqiy bilimlarini rivojlantirishlari oson kechadi. Uchinchidan, sahnalashtirishda biz asosiy maqsadga: muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish va ovoz berish, tegishli ohangni tanlash orqali ifodali nutqqa erishamiz.

Bolalarning so‘z boyligani oshirish maqsad qilib olinar ekan, albatta, ertaklar tasvirlangan rasmlar asosida suhbatlar uyushtiriladi. Rasm asosida suhbatda e‘tibordan chetda qolgan joylarga turli yo‘naltiruvchi savollar orqali bolalar diqqatini qaratmoq lozim. Masalan, «Sholg‘om» ertagi asosida bolalarga quyidagi savollarni berish tavsiya etiladi: Sholg‘omni birinchi bo‘lib kim tortdi? Chol kimni chaqirdi? Kampir kimning orqasidan turdi? Kampir kimni chaqirdi? Kampirning oldida kim turibdi? Kampirning orqasida kim turibdi? Ertakda yana nimalar sodir bo‘ldi? Hammalari birgalikda sholg‘omni tortib ololdilarmi? Bu ertakda kimning bo‘yi eng baland? Kimning bo‘yi eng past? va hokazo (1-ilova). Bundan tashqari, ertaklarning mazmunini hikoya qilishga o‘rgatish, shu jarayonda bolalarning so‘z boyligini oshirish ishini tasviriy faoliyat hamda loy ishi bilan uzviylikda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, loy ishida ayiq, ilon, toshbaqa, quyon, uycha kabi ertak personajlarini yasash orqali bolalarda sezish va idrok qilish tajribasi, tasavvur, xotira, diqqat rivojlanadi, aqliy qobiliyati yanada kamol topadi. Shuningdek, kichkintoyning nutqiy faolligi ortib, nutqni to‘g‘ri tushunish malakasi mustahkamlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, ertak yuzasidan olib boriladigan ishlarni ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etish orqali tarbiyachi samarali ravishda

bolalarning soʻz boyligini oshirish, nutqini oʻstirish, tafakkurini rivojlantirishga erishadi.

### **Adabiyotlar:**

1. O.Xasanboyeva “Barkamol avlod ma’naviyati” T-2010 yil
2. M.Jumaboyev “O‘zbek bolalar adabiyoti” T-2009 yil
3. A.Suyumov “Bolalar adabiyoti” T-2006 yil

## **BOLALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH DAVR TALABI**

*Muhamalaliyeva Mohira TDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti o'qituvchisi,  
Maxfuza Bo'ranova I kurs talabasi*

Inson bolasi dunyoga kelibdi ota-onasi u bolani kelajakda yetuk komil inson boʻlib yetishishini orzu qiladi, oʻzida bor barcha imkoniyatlarni ishga solib bolasini oq yuvib oq taraydi, parvarishlaydi, voyaga yetkazadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 oktabr kuni maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bagʻishlangan yigʻilishda shuni taʼkidlagan edi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy boʻgʻini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga koʻra, inson oʻz umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha boʻlgan davrda oladi. Ana shu dalilning oʻzi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs boʻlib voyaga yetishida bogʻcha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol koʻrsatib turibdi. Bunga qoʻshimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yoʻq. Bogʻcha tarbiyasini olgan bola bilan bogʻchaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi oʻrtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta koʻrib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga koʻtarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta oʻylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat oʻzgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin boʻladi, deya taʼkidladi [1].

Kelajak avlod tarbiyasi haqida gap ketganda buyuk bobomiz Abdulla Avloniyning dono fikrlarini takror va takror aytishga toʻgʻri keladi: ta'lim-tarbiya – biz

uchun hayot-mamot masala ekanligi, ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Chunki, ta'lim-tarbiya- ong maxsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni tafakkurni o'zgartirmasdan esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. Darhaqiqat bu so'zlarning zamirida qanchalik ma'no-mazmun borligini ko'rish qiyin emas. Sababi, yurt vatan kelajagi yoshlarning qo'lida deb bejiz aytilmaydi. Shuning uchun ham bolalarning ta'lim tarbiyasiga birdek mas'uliyat bilan yondosha olsak samarasi albatta namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida o'tkir haqiqatga to'xtalgan edi: "Ta'limni tarbiyadan tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi, bu sharqona qarash va sharqona hayot falsafasi" [2].

Bundan ko'rinib turibdiki; bolalarning har tomonlama yetuk, komil inson darajasiga yetishishida ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos hisoblanadi. Yana shunday jumlar ham borki biz bolaning tarbiyasini ona qornidan ham emas, balki inson o'ziga juft tanlashdan boshlash kerak. Bu so'zlarga asos qilib buyuk ajdodimiz Amir Temur so'zlarini ham misol keltirsak bo'ladi. Amir Temur o'g'illariga, nabiralariga kelin tanlashda yetti avlodini surishtirish kerakligini aytgan. Albatta bolalarning kelajakda qanday inson bo'lishi uning irsiy jihatlariga ham bog'liq.

Umuman olganda, bola tarbiyasini onaning homiladorlik davridan e'tibor berilsa, shuncha maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bolalar oq qog'ozdek beg'ubor bo'lishadi. Ana shu beg'ubor bolaga ota-onalar, tarbiyachilar, o'zlarining ma'sulyatlaridan kelib chiqib ta'lim-tarbiya bersa, to'g'ri yo'lga bosqichma-bosqich yetaklab borsa, tarbiyachilar ham har bir bolaga o'z bolasiday mehr qo'yib ta'lim-tarbiya bersa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu borada ya'ni tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablarga keladigan bo'lsak, ularning kasblari eng ma'suliyatli, kelajakka poydevor bo'ladigan kasblardan biri hisoblanadi.



Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim-tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida”gi PQ-2707 sonli qarorida maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga ko’tarish hamda sohani sifat bosqichiga olib chiqish vaqti kelganligini ta’kidlab o’tgan edi [3].

Tarbiyachi bolaga ta’lim berish jarayonida amaliy mashg’ulotlarga bilan tashkil etsa, jumladan sahna ko’rinishlari ham ertak qahramonlari ro’lini berib yoki har xil teatr tomoshalarini ko’rsatib ham bolaning tafakkurini, ongini o’stirishi samarali natijaga erishiladi. Agar bolaning o’zi sahnalashtirish jarayonida rol o’ynab ishtirok etsa, bolada individuallik har xil vaziyatlardan chiqib keta olishlik qobiliyatlari rivojlanib boradi. Ota-onalar esa bolalarga har qadamda o’rnak bo’lishadi. Agarda ota-ona bola uxlashidan oldin bolaning o’zi ishtirok etgan ertaklar to’qib kelajakka bo’lgan orzularini uyg’otsa bolaning ongida, tafakkurida ota-ona aytgan ertaklar, orzular xotirasida saqlanib qoladi va kelajakka bolalikdan orzu-maqсад qo’yib borishi yanada yorqinlashadi. Bola maktabga chiqqanidan so’ng va maktab yoshida ham o’sha orzular tomon harakat qiladi. Yana eng muhim narsani aytish kerakki, bolalarning o’spirin yoshida ota-ona, o’qituvchi va albatta mahalla ham katta e’tibor qaratishi kerak. Sababi o’spirin yoshidan boshlab bolalarda deviant hulq-atvor paydo bo’la boshlaydi. Bola ongida bo’shliq paydo bo’ladi. Ana shu bo’shliqni to’ldira olmay bolalar o’zi bilmagan holatda zararli odatlarni orttirib oladi. O’zining fikrini to’g’ri deb o’ylab, atrofdagi zararli odatlarga qo’shib boraveradi. Aksincha, ota-onalar o’sha paytda bola bilan ko’proq fikr almashinib, e’tibor qaratib, ularning qiziqqan mashg’ulotlari, sport to’garaklari, fan to’garaklari bilan bolani band qilsa, ortiqcha fikrlarga qiziqishi kamayib, yo’qolib ketadi. Albatta, bu oson jarayon ham emas, bosqichma-bosqich bosib o’tilishi kerak bo’lgan jarayon hisoblanadi. Umuman olganda, bolalarga yashab turgan joyimiz har qarich tuprog’imizga mehr-muhabbat uyg’otsak, kimning avlodlari ekanligimizni eslatib tursak, albatta bolalarga vatanga muhabbat uning har qarich tuprog’ini sevib ardoqlash kerak bo’lsa vatan uchun jonini fido qilishga ham tayyor bo’ladi.

Xulosa o’rnida shuni aytmoqchimanki, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan ta’kidlagan edi. “Menga vatan nima berdi deb emas, men vatanga nima

berdim deb yashash zarur” deya ta’kidlagan fikrlari biz yoshlarga yanada o‘z ustimizda ishlashga undab keladi[4]. Bundan ko‘rinib turibdiki, jonajon vatanimizning kelajagi biz yoshlarning qo‘lida ekanligini his qilib yashaymiz. Uni rivojlantirish asrab avaylash rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shish uchun biz yoshlar faqat va faqat berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, o‘qib o‘rganib jon-jahdimiz bilan mehnat qilishimiz kerak bo‘ladi.

## **TALABALARDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH**

**Nasirova Zilolaxon Marat qizi** Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 20-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 242-sonli qarori, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ulkan islohotlardan sanaladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 1-oktabr – “O‘qituvchi va murabbiylar kuni”ga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tarixga nazar solib, IX-XII asrlarda yurtimiz hududida birinchi, XV asrda ikkinchi Renessans porlaganini ta’kidladi. Ko‘pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o‘ylayman: Mamlakatimizda uchinchi Renessansni XX-asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas”, degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar, deya ta’kidladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilanganini ta’kidladi. “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy

harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak<sup>18</sup>".

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.

Bugungi kunda ta'limning demokratik modelini vujudga keltirish muhim masalalardan biridir. Ta'lim, ayniqsa, o'quv-biluv jarayoni demokratik modelining dastlabki elementi talaba shaxsining individual faoliyat ko'rsatishida namoyon bo'ladi.

Muloqot - ikki yoki undan ortiq shaxsning bir-biriga qaratilgan og'zaki yoki yozma nutqi. Og'zaki hamda yozma nutq og'zaki yoki yozma matn shaklida ifodalanadi. Muloqot shaxslararo o'zaro fikr almashinish vastasidir.

Ma'lumki, bugungi kunda talabaning ham individual, ham umumiy rivojlanishini ta'minlash dolzarb muammo hisoblanadi. Buning uchun ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining talabaga bo'lgan aqliy rivojlanish dinamikasini o'stirish, o'quv-biluv jarayonida barcha talabalarning bilim olishi va rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar ko'lamini kengaytirish zarur hisoblanadi.

Muloqot - yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr alraashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijti-moiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, ahloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida ka-molotga yetadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan bin hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi.

Pedagogikada muloqot ta'lim oluvchi va talabalar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

---

<sup>18</sup>.Mirziyoyev Sh.M. "1-Oktabr ustoz murabbiylar kunidagi nutqi"-Toshkent. 2020-yil

- muloqot ta'lim oluvchining o'quv faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;

- muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim aha-miyatga ega;

- ta'lim oluvchi va talaba munosabatlarning eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi;

- pedagogikada muloqot - ta'lim oluvchining talabalarga ta'sir o'tka-zish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maq-sadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;

- muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chi-qadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;

- noto'g'ri pedagogik muloqotdan talabalarda qo'rquv, o'z kuchi-ga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

*Talabalarda shaxslararo munosabat madaniyati* — bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

- salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
- o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rnatish;
- o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;
- dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

Rus pedagogi A.S.Makarenkoning fikricha, ta'lim oluvchi muloqoti hypmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida boiishi lozim<sup>19</sup>.

---

<sup>19</sup> Makarenko A.S..Pedagogika. –M.: Vldos, 2001 y.

Bu borada V.D.Suxomlinskiy ta'lim oluvchining "...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi. Ta'lim oluvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat talaba qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman ilg'or ta'lim oluvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat ta'lim oluvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi.

Talabalarda shaxslararo munosabat madaniyati jarayonida ta'lim oluvchi qisqa muddatda o'zining psixologik bilimlariga tayanib talabalarni psixik xususiyatlarini mukammal bilishga harakat qilishi lozim. Talabalarning ichki dunyosiga, ruhiy holatiga kirib bormasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy jazolar qo'lish, tanbeh berish mumkin emas. Bu holat talabalar bilan o'zaro muloqotni tuzatib bo'lmas darajada buzilishiga, talabalarning yashirin holatga o'z "qobig'I"ga kirib olishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim oluvchilarning o'zaro axborot almashishi bilan bog'liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog'liq. Sinf jamoasida ro'y berayotgan har qanday voqea va hodisalar o'qituvchilar nazoratida bo'lishi, ularning oqibatini ta'lim oluvchilar tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim. Bu faqat faol talabalar bilan axborot almashib turish natijasida amalga oshiriladi. Shundagina, ta'lim oluvchining o'quv tarbiyaviy jarayondagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijobiy natijalar beradi.

Ta'lim oluvchi ta'lim - tarbiyaviy faoliyatni talabalar bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda sinfning faol talabalari hamda norasmiy liderlari bilan o'zaro muloqotning adolatli bo'lishi muhim ahamiyatga ega: talabalarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil bajarishga jalb etish, bunda talabalarga tashkilotchilik va ijro etish rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim.

Ta'lim oluvchining to'g'ri tashkil etilgan muloqoti talabaning o'zligini anglash funksiyasini takomillashtiradi. Bunda ta'lim oluvchining vazi-fasi muloqot asosida talabalarga o'zining "Men"ligini anglashni, shaxs sifatida o'z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o'z o'rnini bilishni, o'z-o'zini baholashni o'rgatishi kerak.

Talabalarda shaxslararo munosabat madaniyati pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan ta'lim oluvchi ijodkorligining noyob namunasi. Pedagog olimlar ta'lim oluvchining talabalar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot, avvalo, ta'lim oluvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi

#### **ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".T.: 2020-55 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son,70-modda.
4. Макаренко А.С.Педагогика. –М.: Владос, 2001г.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.–T.,1994. –35b.
6. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz)

#### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSTAQIL MUSIQIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHINING ROLI**

*Nurmatova Iroda Toxtasinovna Nizomiy nomidagi TDPU  
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi*

Bolani maktabga tayyorlash, uni faol, ijodiy, ongli ravishda harakat qilishga o'rgatish demakdir. Bunga MTTda bolalar mustaqil musiqiy faoliyatni rivojlantirish va uni to'g'ri tashkil etish orqali erishiladi. Mustaqil musiqiy faoliyatda bolalar o'z tashabbusi bilan qo'shiq kuylaydi, raqsga tushadi, metallofonda yengil ohanglarni ijro etadi. Ularning o'zlari "konsert", "teatr", "spektakl" o'yinlarini tashkil qilishadi. Bolalar mustaqil musiqiy ijodida bolaning musiqani o'zi boshqarishi - o'ynashi, qo'shiq aytishi, raqsga tushishi, takrorlashi yoki o'rganilgan biror bir narsani improvizatsiya qilishi bilan tavsiflanadi. Tarbiyachi o'z kuzatishlariga asoslanib, har bir bolani mustaqil musiqiy faoliyatga qiziqtirib, musiqaga qiziqish uyg'otadi. Bolalarning mustaqil musiqiy faoliyati ularda tashabbuskorlik, mustaqillik va ijodiy faoliyat kabi shaxsiyat xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalarning musiqa ijodkorligining paydo bo'lishining manbai, eng avvalo, musiqa mashg'ulotlari, bayramlar va

ko`ngilocharlardir.Ularda olgan bilimlarini bolalar mustaqil musiqiy faoliyatda qo'llaydilar. Olingan taassurotlar qanchalik yorqin bo`lsa, bolalar musiqani shunchalik qiziqarli ijro etadilar.Tarbiyachining vazifasi bolalarni musiqa mashg'ulotida olgan ko'nikmalarini bolalar bog'chasining kundalik hayotida qo'llashga undashdir.Bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatini rivojlantirish uchun guruhda bolalar musiqa asboblari, didaktik o'yinlar, qiziqarli o'yinchoqlar joylashtiriladigan "musiqiy burchaklar" bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Вторая группа - обучающие игры, которые предусматривают присутствие взрослого. Он создает правила и координирует работу детей до достижения ими результата. Используются эти игры с целью обучения, развития, воспитания. К данной группе можно отнести игры - развлечения, игры-драматизации, музыкальные, дидактические, подвижные игры. От игры обучающего типа можно плавно направлять деятельность ребенка на обучение. Игры сопровождают ребенка на протяжении всего периода детства. Важную роль в развитии детей играет организация игровой деятельности в детских дошкольных учреждениях. Игра занимает важное место в системе эстетического, трудового, нравственного, физического и интеллектуального воспитания детей дошкольного возраста. Она удовлетворяет его социальные нужды и личные интересы, повышает жизненный тонус ребенка, активизирует его работу. В детских садах игровая деятельность должна составлять комплекс игр, которые направлены на физическое и интеллектуальное развитие детей. К таким играм принадлежат творческие, которые позволяют детям самостоятельно определить цель, правила и содержание. Они отражают деятельность человека во взрослой жизни. К разряду творческих игр относят сюжетно-ролевые, театрализованные, игры-драматизации, конструкторские игры. Кроме творческих на формирование игровой деятельности ребенка влияют дидактические, подвижные, спортивные, народные игры

Для организации игр важно создать предметно - игровую среду. Важное требование - развивающий характер и соответствие таким принципам, как реализация ребенком права на игру (свободный выбор игрушки, темы, сюжета игры, места и времени ее проведения). В состав предметно-игровой среды входят: большая игровая площадка, игровое оборудование, игрушки, разнообразная игровая атрибутика, игровые материалы. Все эти игровые средства находятся в игровой комнате, спортивном зале, на площадке. В интерьере не должно быть ничего лишнего, все игровые средства должны быть безопасными для детей.

Для проведения игр создаются игровые ячейки:

общий (набор различных видов игрушек),

драматический (комплекты оборудования, несложные декорации, элементы одежды и костюмы для игр-драматизаций, инсценировок)

для настольных и строительных игр (конструкторы: деревянные, пластмассовые, металлические, коробки, колодки и другие материалы, орудия и вспомогательное оборудование).

Все оборудование должно быть удобным и легко трансформироваться. Дети могут самостоятельно выбирать игру, менять центр, переходя от одной игры к другой. Ведущее место в детской игре отводится игрушкам. Они должны быть безопасными, интересными, привлекательными, яркими и простыми. И не только привлекать внимание ребенка, но и пробуждать, активизировать его мышление.

Все игрушки можно условно разделить на три типа:

1) готовые игрушки (автомобили, самолеты, куклы, различные животные и т.п.);

2) полуготовые игрушки, т.е. требующие доделки (кубики, картинки, конструкторы, строительный материал и т.д.);

3) игрушка-материал (песок, глина, проволока, шпагат, картон, фанера, дерево).

С помощью готовых игрушек детей знакомят с техникой, окружающей средой, создают определенные образы. Играя ими, дети воспроизводят свои впечатления, переживают яркие чувства, активизируют свое воображение, корректируют содержание игр. Такие игрушки предоставляют широкий простор для детской фантазии.

Полуготовые игрушки используются преимущественно с дидактической целью. Игра с ними требуют активизации умственной деятельности, для выполнения поставленных педагогом задач: расположить кубики по размеру, в порядке увеличения или уменьшения, подобрать пару к картинке, составить из деталей конструктора какое-то здание т.д. Материал для создания игрушек дает большие возможности для развития творческого воображения детей. Дети строят



из песка пароходы, дома, автомобили, из веточек, собранных на прогулке, «разбивают» в песочнице небольшой садик, лепят посуду, животных из глины. Из обрезков дерева, шпагата, цветной бумаги получается хороший, украшенный флажками автомобиль и т.п. Желательно комбинировать все три типа игрушек, ведь это очень расширяет возможности для творчества.

К особой группе можно отнести театральные игрушки и костюмы для разных персонажей, атрибуты, которые дополняют созданные образы. Это театрально-игровой материал (игрушки, куклы, плоскостные фигуры, пальчиковые персонажи), элементы костюмов (головные уборы, различные шляпки, воротнички, манжеты и т.д.). В детских садах активно используются персонажи-куклы, декорации, изготовленные воспитателями, родителями и детьми самостоятельно. Педагогам необходимо стараться не занимать время, отведенное для игры другими видами деятельности. Создать игровую среду в соответствии с возрастными особенностями, учитывать уровень развития детей, игровая среда должна быть динамичной. Атрибуты сюжетно-ролевой игры должны быть расположены в легко - доступном для детей месте. Иногда атрибуты формируются в специально установленном порядке, а иногда детям предоставляется возможность создать игровую среду самостоятельно. Руководство игрой должно строиться на основе результатов наблюдения за самостоятельной сюжетно-ролевой игрой детей. Педагог должен как можно чаще ставить ребенка в позицию «взрослого». Это способствует развитию самостоятельности у детей.

Воспитатель должен уделить внимание:

- обеспечению условий для возникновения и развития игровой деятельности (достаточное количество времени для игры; наличие площади для развертывания игровых действий, необходимых игрушек и пособий, и правильное их расположение в группе; обогащение детей впечатлениями и хорошее их самочувствие);

- знать методику руководства игровой деятельностью; методы и приемы, направленные на поддержание и улучшение эмоционально-положительного

состояния детей; обеспечение активности играющих; своевременное переключение с одного вида деятельности на другой, какими методами и приемами это достигается, направление детей на игру.

Организация игр сложный разделов методики дошкольного воспитания, педагог не может предвидеть ход игры. Важным условием успешного руководства играми является умение завоевать доверие детей, установить с ними контакт. Должен ли воспитатель вмешиваться в игру? - да если это требуется для того, чтобы дать игре нужное направление, но вмешательство взрослого будет только тогда успешным, когда он пользуется у детей достаточным уважением и доверием, когда он умеет, не нарушая их замыслов, сделать игру увлекательнее.

Задачи воспитателя при организации игры: - помочь организовать игры - сделать их увлекательными - сделать их насыщенными действиями - помочь ребенку выбрать из массы жизненных впечатлений самые яркие, которые могут послужить сюжетом хорошей игры. Огромная роль в развитии и воспитании ребенка принадлежит игре – важнейшему виду детской деятельности. Она является эффективным средством формирования личности дошкольника, его морально-волевых качеств, в игре реализуется потребность воздействия на мир.

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ТАШМУХАМЕДА НИЯЗОВИЧА КАРЫ-НИЯЗОВА**

*Урманова Мафтунабону Фаррухбековна Студентка факультета  
“Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами  
Исламова Лайло Миразизовна Студентка факультета “Дошкольное  
образование” ТГПУ имени Низами*

Педагогические взгляды Т.Н.Кары-Ниязова условно можно классифицировать по их тематической направленности: 1) Исследование вопросов истории педагогической мысли в Узбекистане; 2) Собственные педагогические методики, содержащие оригинальные мысли об обучении и воспитании; 3) Работы по использованию норм языкознания и математической

терминологии в образовательных целях; 4) Изучение дидактического значения учебников и учебных пособий по математике.

Историко-педагогические работы Т.Н.Кары-Ниязова имеют две ярко выраженные тенденции.

Это – описание опыта работы национальных педагогов в XIX – начале XX в., системы начального и среднего образования в 1-й половине XX в., методик, учебников, обучения и воспитания в школах Туркестанского края и Узбекистана.

Вторая тенденция представляет собой анализ педагогических идей выдающихся ученых Средневекового Востока – Улугбека, Бируни, аль-Фергани, аль-Фараби, Алишера Навои и т.д. Во всех работах Т.Н.Кары-Ниязова по истории и культурологии, где освещаются вопросы истории развития народного образования в республике прослеживается четкая тенденция деления ее на два этапа: 1) до 1917 г. и 2) после 1917 г.

Автор, подвергая глубокому анализу состояние системы образования на территории Туркестанского края, описывает две антагонистические тенденции в развитии культурных традиций: консервативное и реформаторское.

К консервативной или, как ее называет Кары-Ниязов, реакционной он относит систему просвещения, создаваемой патриархально-феодальной местной властной структурой вплоть до кон. XIX в. и поддержанной русскими колониальными властями в XIX – нач. XX в.

Другой тенденцией, активно вступившей в борьбу с первой в нач. XX в., стала прогрессивная политика реформаторов системы образования в крае: представителей тюркской интеллигенции – джадидов и русских, и местных революционеров-народников.

Заслугой Т.Н.Кары-Ниязова является то, что им была изучена система школ, существовавших на территории Туркестана. Все школы он разделил на четыре типа: 1) старометодные мактабы и медресе; 2) новометодные школы; 3) русско-туземные школы; 4) школы с русским языком обучения для русского населения. Данная классификация используется в науке по сей день.

Обоснованность такого деления им была доказана. Основанием для этого были особенности постановки учебно-воспитательного процесса в этих школах, использования школьных программ, учебников и учебных пособий, отношения к ним местного и российского колониального правительства.

Одновременно с анализом развития национального общего среднего образования Т.Н.Кары-Ниязов освещает вопросы развития высшего и среднего специального образования в республике, приводит огромное количество фактического материала, статистических данных, уникальных фактов.

Особую ценность представляют собранные им материалы по истории организации САГУ. Историк образования раскрывает роль приехавших в Ташкент в 1920 г. ученых из России, ставших основателями многих национальных научных школ и направлений.

Одним из достижений Кары-Ниязова в истории высшего и специального образования был проведенный впервые на тот момент анализ роли, которую сыграли рабфаки Узбекистана по подготовке квалифицированных специалистов общего и узкоспециального профилей. Это позволило ему обосновать и еще одну серьезную проблему – возникновение того или иного профиля обучения в вузах республики и поставить их в зависимость от объективных условий экономической и культурной жизни Узбекистана.

В педагогических высказываниях Т.Н.Кары-Ниязова особое место занимают вопросы «правильного воспитания», в основу которого им была положена идея стремления к идеальному. Он неоднократно подчеркивал, что молодежь должна воспитывать в себе непоколебимую волю, дух героизма в борьбе за достижение поставленной цели. Им приводятся примеры героизма человека как яркого проявления его внутренних качеств.

Интересны размышления ученого о времени, материи, религии, духовности. Впрочем, эти категории более характерны для философии.

Практическое внедрение авторских методик Т.Н.Кары-Ниязова нашло место при создании им оригинальной системы национальной математической терминологии в 30-е гг. и узбекского письменного языка на основе

кириллического алфавита в начале 40-х гг. Конечно, эти работы нельзя в полной мере отнести к работам по педагогике. Однако в них также, как и во всех работах Т.Н.Кары-Ниязова рассматривается педагогическая составляющая – анализируется воспитательный потенциал языка.

Свое дальнейшее развитие научно-педагогические идеи академика Т.Н.Кары-Ниязова получили в трудах его последователей и учеников, положили начало национальной школе научной педагогики. Они остаются востребованными и в современном Узбекистане, а его имя присвоено национальному НИИ педагогики (аналог российской академии педагогических наук).

#### **Использованные источники:**

<https://qazbrand.info/all/11307/o-sozdanii-natsionalnoy-nauchno-pedagogicheskoy-shkoly-na-primere-nauchno-pedagogicheskikh-vzglyadov-akademika-t-n-kary-niyazova-qazbrand-info/>

### **BOLANING “MEN” KONSEPSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**M.Fayzullayeva, M.Rustamova** MTTMQTMOI katta o‘qituvchilari

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi va tarbiyasi- bu bir butun va uzluksiz jarayon bo‘lib, u doimo pedagog va ota- onalarning diqqat- e’tiborida bo‘lishi lozim. Bola qanchalik muvaffaqiyatli rivojlanayotganligini, ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini egallash jarayonida qanday to‘siqlar uchrashi mumkinligini oldindan tushunish uchun bolalarga malakaviy yondashish zarur. Psixologiya va pedagogika fanida shakllanib kelayotgan insonning psixologik va jismoniy taraqqiyoti mexanizmini o‘rganishda bir muncha ilg‘or tajriba to‘plangan. Bola bilan shug‘ullanish, mashg‘ulotlarni qiziqarli o‘tish uchun jihozlarni to‘g‘ri tanlash bilan kifoyalaniq qolmasdan bola shu jihozlarni tushuna oladimi, ular bilan ishlay oladimi, shuni nazarda tutish lozim.

Bola aniq bir dastur asosida ta’lim- tarbiya olish imkoniyatiga ega. “Shu bilan birga bola tanlangan dasturni o‘z tabiatiga, o‘z qiziqishiga, o‘zining intellektual tafakkuriga, o‘z nuqtai nazariga asoslangan holda o‘zlashtiradi. Shuning uchun bu

dastur izchillik bilan ta'lim- tarbiyaviy jarayonda bolaning qiziqishini, tafakkurini e'tiborga olgan holda olib borilishi lozim”(L.S.Vigotskiy).

Shuning uchun kattalarga o'zlarining pedagogik faoliyatlarini to'g'ri yo'nalishda olib borayotganliklarini tushunishlari uchun ta'lim-tarbiyaviy jarayonda tashxisga alohida ahamiyat beriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatga erishishi borasidagi tashxis qilishning ahamiyati faqat natijalarni to'g'ridan- to'g'ri aniq olishgina emas, balki uning asosiy vazifasi bola taraqqiyotning yuqori pog'onasiga ko'tarilishi uchun to'siq bo'ladigan sabablarni aniqlashdan iborat. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llarini topish esa pedagoglarga yuklatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik jihatlari quyidagilardan iborat:

- 1.Bolada ilk dunyoqarashning paydo bo'lishi(L.S.Vigotskiy);
- 2.Bolada birinchi ahloqiy sifatlarning shakllanishi (L.S.Vigotskiy);
- 3.Bola motivlarining bir-biriga o'zaro bog'langanligi;(A.P.Leontyev).
- 4.Bolalarda ixtiyoriy hulq-atvorining shakllanishi (D.B.Elkonin, A.V.Zaporojes)
5. Bolaning o'z-o'zini anglashi ("Men" konsepsiyasi)

Maktabgacha yosh mobaynida bolada “Men” obrazining yaratilishida, ya'ni bolaning o'z- o'zini anglashi davrida affektiv va kognitiv jihatidan ba'zi bir o'zgarishlarni u boshidan kechiradi.(M. I. Lisina). Affektiv tarafdin insonning o'ziga nisbatan munosabati tushunilsa, kognitiv tarafdin— o'zi to'g'risida bilish yoki o'zligini anglash tushuniladi. “Men”obrazining shakllanishi asosida birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarda individual faoliyat tajribasi, ikkinchidan, bolaning kattalar va bolalar bilan muloqot qilish tajribasi yotadi. Birinchi asos bolaning o'ziga nisbatan kognitiv munosabatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, ikkinchisi esa affektiv munosabatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ilk marotaba o'z- o'zini anglash go'daklik davridan boshlanadi, bu vaqtda bola o'z tanasini atrof muhitdan ajrata boshlaydi. O'z- o'zini anglashning muhim bosqichi bolaning uch yoshligidan boshlanadi va shaxsning yangi xususiyati, ya'ni “o'z yutuqlaridan faxrlanish” kabi xususiyati paydo bo'ladi.Bola o'z istagini, holatini anglab yeta boshlaydi, o'zini faoliyatning subyekti sifatida bila boshlaydi va ilgari ajratib ololmagan holatlarni narsalardan ajrata boshlaydi. Bola o'z- o'zini anglashga intila boshlaydi.

O‘z- o‘zini anglash maktabgacha yoshda quyidagi yo‘nalishlar orqali shakllanib boradi:

1. Shaxs sifati va faoliyat turlari ko‘payadi, bular esa bolani o‘z- o‘zini baholash qobiliyatini oshiradi;

2. O‘z-o‘zini baholash umumiylikdan guruhlashtirilgan tabaqaga o‘tadi;

3. O‘z-o‘zini vaqt mobaynida baholay boshlaydi, bu esa bolaning kelajakda o‘z oldiga maqsad qo‘yish qobiliyatini shakllantiradi(masalan:“Agar men o‘qishni o‘rgansam, singlimga kitoblar o‘qib bera olaman”). Maktabgacha yoshdagi bola o‘z-o‘zini baholashga o‘rganadi, bu esa bolaning maktab ta‘limiga tayyorligini ta‘minlaydi.

Bolaning "Men" konsepsiyasini rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog‘lom turmush tarzini amalda qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi. Bolalar o‘zlarining ahamiyatini tushunadilar, o‘zlarining, shuningdek, boshqalarning farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilishni o‘rganadilar. Bola mustaqil va o‘ziga ishonadi. O‘zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, ularni bartaraf etish ustida ishlay boshlaydi. U boshqalardan farqli tomonlarini tushunadi. O‘z g‘oyalarini ilgari surish va targ‘ib qila oladi; o‘zi uchun qaror qabul qilishni o‘rganadi. U tanlashni biladi, o‘z oldiga maqsadlar qo‘yadi. O‘z harakatlari uchun tashabbus va mas‘uliyatni namoyon qiladi. O‘zining tanlovlari, qiziqishlari, his-tuyg‘ularini baham ko‘rishadi. O‘zib borayotgan jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini ta‘minlaydilar. O‘z ehtiyojlarini bildiradi va ularni qondirishni biladi, o‘zini boshqara oladi; sog‘lom turmush tarzi qoidalariga, madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarga rioya qiladi, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanadi, o‘z salomatligi uchun mas‘uliyatni namoyon qiladi.

Bolaning "Men" konsepsiyasini rivojlantirish orqali o‘zining ismi-sharifi, yoshi, manzili, oila a‘zolari, qaysi mamlakat, shahar, qishloqda yashayotganligini, ona Vatani, uning tabiati, sevimli o‘yinchoqlari, xalq milliy an‘analari va odatlarini, milliy

va madaniy qadriyatlarni bilishi va ular bilan g'ururlanish kabi fazilatlar tarbiyalanib boriladi.

Bolaning "Men" konsepsiyasini rivojlantirishda tengdoshlari o'rtasida o'z o'rnini anglashi, o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqa bolalar bilan almashishi, o'g'il bolaga (jasur, mard, ziyrak, chaqqon, qizlarga hurmat) va qiz bolaga (nazokatli, muloyim, oqila, chaqqon, sarishta) xos bo'lgan fazilatlarini tarbiyalash, topshiriqni bajarishda sabr-toqatli, qat'iyatli bo'lish, o'yinlarni tashkillashtirish, faoliyatlarda mustaqil harakat qilish, o'ziga nisbatan samimiy va nosamimiy munosabatlarni anglash, jahli chiqqanida o'zini tuta olish, o'z xohishini kattalarning talabiga bo'ysundirish, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qarash, o'zi erishayotgan natijalarni haqqoniy baholash, o'ziga o'zi bergan bahosi bilan kattalarning bahosini solishtirish, o'z kamchiliklarini tuzatishi mumkinligini anglash, milliy an'analarni va madaniy qadriyatlarni hurmatlash, ular bilan faxrlana olishi (*milliy kiyimlar, o'yinlar, urf-odatlar*) o'rgatilib boriladi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarori.
2. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukayeva A.G., Vlasova Ye.N., Galimova E.F. "O'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida rejalashtirish". – T.:2020
3. Vigotskiy L.S. *Pedagogicheskaya psixologiya*. -M. 1998.

### **MAKTABGACHA KATTA GURUH TARBIYALANUVCHILARI BILAN SAXNALASHTIRISH O'YINLARINI TASHKIL QILISH**

*Sh.T.Xasanova - Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida dotsent v.b.*  
*N.S.Xodjayeva - Maktabgacha ta'lim 1-bosqich magistri*  
*M.E.Aliqulova - Maktabgacha ta'lim 301-gurux talabasi*

Saxnalashtirish faoliyati bolalar ijodiyotining eng keng tarqalgan turidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun har bir adabiy asar yoki ertak har doim ahloqiy yo'nalishga ega (do'stlik, mehr-oqibat, halollik, jasorat va boshqalar), ular tufayli ijtimoiy xatti-harakatlar ko'nikmalarini shakllantirish tajribasini shakllantiradi.



Ertaklar tufayli bola dunyoni nafaqat aqli bilan, balki qalb bilan ham o'rganadi. Va nafaqat biladi, balki yaxshilikka ham, yomonga ham o'z munosabatini bildiradi. Sevimli qahramonlar ideallariga aylanishadi. Aynan bolaning qahramonlarga taqlid qilish qobiliyati tarbiyachi-pedagoglarga teatr faoliyati orqali bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Aynan teatr faoliyati bolaga muammolarni personaj orqali bilvosita hal qilishga imkon beradi. Bu uyatchanlikni yengishga, o'ziga ishonchni ortishga olib keladi. U o'yin bilan bog'liq bo'lganligi sababli bola shaxsiga yaqin va tushunarli, chunki u bola tabiatida o'z-o'zidan aks ettiriladi.

Saxnalashtirish o'yinlari qobiliyatlarni rivojlantiradi, umumiy rivojlanishga yordam beradi, qiziquvchanlikni namoyon qiladi, yangi narsalarni o'rganishga intiladi, ma'lumot va yangi usullarni o'zlashtirish, fikrlashni rivojlantiradi, qat'iyatlilikni shakllantiradi. Bundan tashqari, ushbu o'yinlar ijodiy qobiliyatlarni va ma'naviy ehtiyojlarni rivojlantiradi, o'ziga bo'lgan hurmatni oshiradi.

Saxnalashtirish faoliyatining ta'lim imkoniyatlari keng. Unda ishtirok etgan bolalar rasmlar, ranglar, tovushlar, mohirlik bilan berilgan savollar orqali atrofdagi dunyo xilma-xilligi bilan tanishadilar, ularni o'ylashga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga va umumlashtirishga majbur qiladilar. Aqliy rivojlanish nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni yaxshilaydi. Mazkur mashg'ulotlar bola nutqini personajlarga taqlid etish harakati tufayli yaxshilanib boradi. Amalga oshirilgan rol, aytilgan gaplar bolani aniq, qisqa va lo'nda o'z fikrini ifoda etishga o'rganadi. U o'zining dialogik nutqini, uning grammatik tuzilishini yaxshilaydi

Pedagoglar o'z ish faoliyatlarida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolani tarbiyalash va ta'lim berishda teatrlashtirilgan o'yinlarning ahamiyatini yaxshi tushunib, undan foydalanishlari lozim. Ijodiy faollik, ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, teatr madaniyati bilan tanishtirish, uni pedagogik jarayonda boshqa faoliyat bilan aloqasini ta'minlash xar bir pedagogning o'z oldiga qo'ygan vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har bir yosh guruhda, avvalambor, bolalarning teatr qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muayyan sharoitlarni yaratish: teatr zonasi, reja, tegishli adabiyotlarni tanlash, turli xil qo'g'irchoqlar tayyorlash. L.S.Vigotskiy ijodiy faoliyatning yetarlicha kuchli

asoslarini yaratish uchun bolaning tajribasini kengaytirish kerak deb hisoblagan. Stol va barmoq teatrlari, flanelegraf va dramatisiyalashgan o‘yinlar orqali bolalarda san’atkor bo‘lish istagi uyg‘otiladi. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda teatrning eng oddiy va qiziqarli turi bu - barmoq teatridir. Barmoqlar bilan o‘ynash – teatr faoliyati bilan tanishishning birinchi qadamidir. Bu atributlarsiz teatr hisoblanib, qahramon va uning hayoti bola uchun muhim bo‘ladi. Ajablanarlisi shundaki, ushbu qiyin vazifani bola osonlikcha tushunadi. Shu bilan bir qatorda, u yaxshi tanish she‘rlar va qahramonlarni muvaffaqiyatli solishtiradi. Bolalar bilan mashg‘ulotlar jarayonida ulardagi yuz ifodasi, o‘yin improvizasiyalaridan foydalanib, o‘zlarining personajlari uchun ekspressiv xususiyatlarni topishga yordam berish lozim. Xuddi shu ish o‘rta guruhda ham davom etadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda saxnalashtirish o‘yinlarini tashkil qilishda bolalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini, boshqa odamning hissiy holatini tushunishni o‘rgatish va his etishni rivojlantirish kerak. E’tiborni, qo‘rquvni, quvonchni, zavqlanishni va qayg‘uni ifoda etish uchun eskizlar bunga yordam beradi: «Men nima yeyayotganimni biling», «Qayerda ekanimni bilib oling», «Tulkioy eshitib turibdi» va boshqalar. Dramatisiyalashgan o‘yinlar jarayonida bolalar rollarni ta’sirchan ifoda etishga, mustaqil ravishda tomoshalar ko‘rsatishga, rollarni taqsimlashga harakat qiladilar. «G‘oz-oqqushlar», «Uch kichkina to‘ng‘iz», «Qizil shapkacha» kabi ertaklarni kichik guruh tarbiyalanuvchilari va ota-onalarga katta istak bilan namoyish etadilar.

Ota-onalar teatr faoliyatiga katta qiziqish bildirishadi, teatr uchun kostyumlar, qo‘g‘irchoqlar tayyorlashda yordam berishadi, bolalar bilan hamkorlikda tomoshalarda rol ijro etishadi. Shuningdek, ota-onalar bilan: «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni teatr san’atiga qiziqishni qanday oshirish?» mavzusida suhbatlar; «Teatr o‘yinlari maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish vositasi», “O‘yin va teatr”, “Teatr va ota-onalar” mavzusida maslahatlar; “Maktabgacha teatr dunyosi” mavzusida ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglar uchrashuvlari; «Teatr uchun eng yaxshi qo‘g‘irchoq», «Eng yaxshi teatr niqobi» mavzusida tanlovlar o‘tkazish bolalarda teatr faoliyatiga yanada qizikish uyg‘otadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda teatr o'yinlari o'z samarasini bermoqda: bolalar faollashadilar va so'z va nutq boyligi oshadi, o'zlarini erkin tutish ko'nikmalarini egallaydilar, muloqot qilish va va eng muhimi, ular emotsional rivojlanadilar. Bolalar «Teatr» so'zini eshitganlarida ularning ko'zlari quvonchdan chaqnaydi, sevinch uchqunlari porlaydilar, yuzlari tabassumdan yorishadi.

Teatr bola uchun katta ahamiyatga ega, bolalar u bilan uchrashuvni sabrsizlik bilan kutadi! Teatr hamma (yoki deyarli hamma) narsaga qodir. U mo'jiza yaratadi: quvontiradi, o'rgatadi, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning hulqini korreksiyalaydi, emotsional namoyon bo'lishiga ko'maklashadi, bolalarning nutqi, notiqlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'ziga ishonchini oshiradi, omma oldida chiqish ko'nikmalarini egallashida yordam beradi. Teatr san'ati bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi. Teatr san'ati bilan kun sayin muloqot qilib borar ekan, bolalar bir-biriga nisbatan toqatli, kelishuvchan, og'ir-bosiq bo'lib, o'zini tartibga solib oladi. Teatr maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va kayfiyati (ruhiyati) ga kuchli emotsional ta'sir o'tkazadi, ularning fikrlash doirasini kengaytirib, nutqini boyitadi, ahloqiy-ma'naviy tasavvurini shakllantiradi, aqliy tasavvurlarini rivojlantiradi, intellektual qobiliyatlarini oshiradi.

Teatr bolani ma'naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehrli olam, unda bola o'ynab, quvonadi, o'ynab atrof olamni o'rganadi, ya'ni uning emotsional olami boyiydi. Bolada ijodga e'tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo'lishi uning taassurotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi. Bu borada teatrlashtirish faoliyatining juda katta ijobiy ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan bu kabi faoliyat bola hayotiga yangi qimmatli mazmun olib kiradi, quvonch hissini uyg'otadi, barcha kuch va qobiliatlari, jumladan nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi. Hamma bolalar spektakllarni yaxshi ko'radi. Ularga nafaqat tomosha qilish, balki artist bo'lish yoqadi. Teatr san'ati bolalarga yaqin va tushunarli, chunki uning asosida o'yin yotadi. Teatrda

o'ynash va bolalar o'yini aynan bir xil shartlilikdan kelib chiqadi va o'zida voqelikni har bir inson ko'ra oladigan va ifodalay oladigan darajada fokuslaydi.

Bolalarda o'yinga bo'lgan ehtiyoj, shubhasiz, katta va u juda erta namoyon bo'ladi. Ikki-uch yoshidayoq kichkintoylar sakrayotgan quyoncha va ona-tovuqqa ergashayotgan jo'jachalarni tasvirlaydi. Ular jon-dili bilan kuchukcha, mushukcha, uloqchalar qiyofasiga kiradi. Ular imitatsiyalash va taqlidiy harakatlarni bajaradi, bu harakatlar hamisha rejali, ammo favqulodda boy va shu sababli o'zida katta emotsional quvvatni jamlaydi.

Teatr-o'yin faoliyati shakllari xilma-xil: qo'g'irchoq teatri o'zining barcha turlari bilan. Teatr-o'yin faoliyati bolalarni badiiy tarbiyalash, estetik rivojlantirishga ko'maklashadi, ularni yangi taassurotlar bilan boyitadi, avval egallagan bilimlarini mustahkamlaydi, faollashtiradi, tashabbuskorligi, nutqi, badiiy didini rivojlantiradi. Faoliyat tasavvur uchun boy oziqa beradi. Bolalar atrof olamdan boy taassurot oladi va uni jonli o'yin harakatlari va obrazlarda gavdalantirishga intiladi.

Dramatizatsiya bolalar ijodining keng tarqalgan turi bo'lib, xilma-xil ko'rinishda: insho, improvizatsiyalangan kichik sahnalar ko'rinishida ham, tayyor adabiy materialni inssenirovkalash ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Bolalarni adabiy syujetlarning emotsional ichki boyligi, personajlarning muayyan harakatlari o'ziga tortadi.

Teatr-o'yin faoliyati turlari xilma-xil va har biri o'zicha qiziqarli. Bolalar maqtanchoq xo'rozchani yoki boshqa jonivorlarni o'ynash va o'zini artist sifatida his qilishga qiziqadi. Teatr faoliyati – bola nutqini rivojlantirish uchun bitmas-tuganmas xazina. She'riy asarlarni “o'ynash”dan ish boshlab, sahnalarga o'tiladi, ishning yuqori cho'qqisi drama (sahna) lashtirish hisoblanadi, bunda bolalar qahramonning xarakterini ochib bergani holda savodli gapirishi lozim. So'zni sahna harakatlari bilan birlashtirish murakkab, ayniqsa tortinchoq bolalar uchun juda murakkab ish sanaladi. Tarbiyachi uchun bevosita ta'limiy faoliyatni amalga oshirish, nutqni rivojlantirish muhim, sahnalar kichik spektakllarga o'xshashi kerak. Bunda tarbiyachi bosh rolni o'ynaydi, bolalar esa artist bo'lishga o'rganadi. Bu jarayonda qo'g'irchoqlar, ayiqchalar va shu kabilar jonlanadi. Bolalar o'ynaydi, niqoblar kiyadi, turli

jonivorlarga aylanadi, o'rmonda bo'ladi, bizni stol-stullar emas, balki ertaklar mamlakati o'rab turadi.

Tomoshaga tayyorgarlik jarayonida ham bolalarning o'zi qatnashadi. Bunda tomoshaning mazmuni, bayram muhitini tashkil qilish masalalari muhokama qilinadi, rollar taqsimlanadi. Bolalar ishtirokchi (artist) bo'lganida ularning faol nutqi namoyon bo'ladi va mashq qildiriladi. Hamma vaqt va hamma sharoitda yaxshi gapirish uchun nafaqat gapirishni bilish, balki omma oldida, notanish tinglovchilardan uyalmasdan gapira olishga odatlanish talab qilinadi.

Boy ichki dunyo egalari, nutqni mukammal egallagan, ammo shu qadar uyatchan, o'ziga ishonmaydigan, omma oldida nutq so'zlashga odatlanmagan kishilar uchraydiki, ikki-uchta notanish kishining borligi ularning lom-mim deyolmay qolishiga sabab bo'ladi. Bunga qarshi kurashish, bolalarda o'zi va o'z kuchiga ishonchni rivojlantirish zarur. Omma oldida nutq so'zlash odatini insonda kichik yoshdan notanish auditoriya oldida nutq so'zlashga o'rgatish yo'li bilan shakllantirish mumkin. Buni teatrlashtirilgan faoliyatda ajoyib tarzda amalga oshirish mumkin. Bola MTTda jamoa (ko'pchilikning) ishida qatnashayotganini anglab yetishi, ularning xatti-harakati hammada qiziqish uyg'otayotgani, bundan boshqalar manfaatdor ekani, ular hammani qiziqtirishi mumkin va kerak bo'lgan harakatlarni amalga oshirayotganini tushunib yetishi juda muhim. Kichik sahnalarni o'ynab, boshqa qiyofalarga kirib, bolalar nutqini sayqallashtiradi, ularda o'ziga ishonch, topqirlik rivojlanadi, ijod uchun imkoniyatlar ochiladi.

Zamonaviy olamda, ezgu hislar va hamdardlik, hamkechinmalikka kam o'rin qolayotgan bir davrda, aynan teatrlashtirilgan faoliyat maktabgacha ta'lim yoshidagi bola tarbiyasi uchun juda zarur, zero u bolada ezgu hislar uyg'otadi va yorug'lik urug'larini shakllantiradi, pedagoglarga bolaning emotsional sohasiga murojaat qilish, "hiszlarni tarbiyalash" bilan shug'ullanish imkonini beradi. Aynan teatrlashtirilgan faoliyat, san'atning amaliy turi sifatida, ham tarbiya, ham ta'lim uchun katta imkoniyatlarga ega va shaxsni tarbiyalash imkonini yaratadi. Aynan u bolani to'laqonli qiziqtirishi, uni yanada jur'atli, faol qila oladi. Teatrlashtirilgan faoliyat bolaning barcha qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bola aqlan, jismonan va eng muhimi, emotsional

rivojlanadi. Pedagog uchun teatrlashtirilgan faoliyat zarur va u bilan imkon qadar erta, ikkinchi kichik guruhdan boshlab shug‘ullanish kerak, shunda tayyorlov guruhiga kelib o‘zimiz kutgan natijaga erishamiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Ye.A.Antipova. Maktabgacha ta’lim tashkilotida teatrlashtirilgan faoliyat. –M.: TS «Sfera», 2006.
2. M.D.Maxanyova. Maktabgacha ta’lim tashkilotida teatrlashtirilgan faoliyat darslari. –M.: TS «Sfera», 2007.
3. Churilova E.G. Metodika i organizatsiya teatralizovannoy deyatelnosti doshkolnikov i mladshix shkolkov. Programma i repertuar. – M.: Vlados. 2004. – 160 s.
4. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. –T.: Talqin. 2006.

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI TARIXIY OBIDALAR VOSITASIDA MILLIY G‘URUR ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISH**

*Sh.T.Xasanova - Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi dotsent v.b.*

*Z.I.Chinpulatova - Maktabgacha ta’lim 1-bosqich magistri*

*M.B.O‘ljaboyeva - Maktabgacha ta’lim 301-gurux talabasi*

O‘zbek xalqi o‘zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhur. O‘zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzey hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bir buyuk asar, nodir qo‘lyozmalar, xalq amaliy san’ati namunalari o‘zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi. Chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me’morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o‘simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o‘z orzu-umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san’atining ayrim turlari, ularning o‘ziga xos tomonlari, haqiqiy o‘zbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unitilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va amaliy san’atini ko‘z qorachig‘idek

saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Tarixiy haqiqatni tiklash davlat siyosati darajasida belgilandi. Bu hayotiy zarurat edi. Chunki o'z ozodligini, erkini qo'lga kiritgan xalq ko'p asrlar davomida bosib o'tgan tarixiy yo'lini aniq bilishi, buyuk ajdodlari merosidan to'la bahramand bo'lishi kerak edi. Bu millatimizning o'zligini anglab yetishi, istibdod davrida toptalgan g'ururini tiklashi, yuksaltirishi, mamlakatimizning kelajak yo'lini belgilab olishi uchun xizmat qilardi. Tariximizni haqqoniy yoritishda xalqimizning yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qadimiy shaharlarimizdagi yodgorliklar, obidalar, inshootlarni qayta qurish, ta'mirlash, asl holda bunyod etish kabi ishlarga alohida e'tibor berildi. Bu bejiz emasdi. Chunki bu madaniy boyliklar tariximizning asl manbalari, jonli guvohlari, ilmiy asoslari hisoblanadi. Mamlakatimizni nafaqat Sharqda, balki butun dunyoda tarixiy madaniy yodgorliklarga boy o'lkalardan biri sifatida namoyon etadi. Shular orasida tarixiy me'moriy obidalar alohida o'rin tutadi. Samarqanddagi Registon, Ruhobod, Xoja Ahror Vali, Jom'e masjidi, Chorsu majmualari, Amir Temur, Bibixonim maqbaralari, Hizrati Hizr masjidi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, Nodir Devonbegi madrasasi, Buxorodagi Chashmai Ayub, Bolo hovuz, Chor minor, Ark, Labi hovuz majmualari, Kalon minorasi, Mag'oki attor, Kalon, Qushbegi, Toqi-Sarrofon, Muzaffarxon masjidlari, Tolipoch darvozasi, Mir Arab, Mirzo Ulug'bek, Ko'kaldosh, Abdullaxon, Tosh saroy madrasalari qaytadan, asl tarixiy qiyofasida qad rostladi. Xivadagi Ko'xna Ark, Tosh hovli, Qibla toza bog', Dishon qal'a, Nurullaboy majmualari, Ichon qal'a devori, darvozalari, Juma masjidi, Muhammad Aminxon, Feruz, Islom Xo'ja madrasalari, Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi, Jom'e masjidi, Norbo'tabiy, Miyon Hazrat madrasalari, Qarshidagi Odina masjidi, qadimiy ko'prik, Xojai Jarroh, Chor Gumbaz majmualari, Qilichboy, Bekmir madrasalari tarixning noyob merosi — nodir yodgorliklar, osori-atiqalar, inshootlar sifatida qayta tiklandi, ta'mirlandi, xalqimizning ma'naviy mulkiga aylandi. Xuddi shunday ulug'vor ishlar Toshkentda Hazrati imom, Shayx Xovand Tohur, Zangiota majmualarida, Ko'kaldosh madrasasida, Termizda Sulton Saodat, Qirq qiz, Hakim at-Termiziy majmualarida, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dor ut-tilovat, Gumbazi sayyidon, Dor us-siyodat

majmualarida ham olib borildi. Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Imom al-Buxoriy, Xoja Doniyor majmualari, Buxorodagi Labi hovuz, Kalon masjidi, Chor Bakr, Ark me'moriy yodgorliklari, Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz, Dor us-siyodat, Oqsaroy obidalar turkumi, Marg'ilondagi Piri Siddiq, Said Ahmad meros obe'ktlari, Xivadagi Ichon qal'a shahristoni nodir yodgorliklari, Toshkentdagi Xasti Imom me'moriy inshootlari, Termizdagi termiziylar qadamjolari tarixiy ko'rinishga monand tiklandi. Ayni paytda, ulug' ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Sulton Uvays Qoraniy, Iso at-Termiziy, Mahdumi A'zam, Abu Xafs Kabir kabi allomalarimiz nomlari bilan ataladigan 50 dan oshiq muqaddas ziyoratgohlar ham qayta bunyod etilib, xalqimizning oyog'i uzilmaydigan obod va go'zal maskanlarga aylandi.

**O'zbekiston** – quyoshli, buyuk tarixiy insonlar yashagan, Buyuk Ipak Yo'li o'tgan ajoyib, betakror, ming asrlik an'analar va madaniyatiga ega o'lka. Betakror, so'lim go'shalarga ega O'zbekistonimiz, ko'ngli ochiq xalqimiz, o'tib ketgan bobo-kalonlarimiz, hozirda mustaqillikka erishgandan keyingi yutuqlarimiz haqida qancha gapirsak ham ozdir. Bugungi kunda bizning quyoshli o'lkamizga dunyo xalqlarining qiziqishi tobara oshib kelmoqda. Yurtimizdagi tarixiy obidalar, an'analarimizga, madaniyatimizga, matolarimizga, arxitekturamizga, hunarmandlar tomonidan qilingan ishlariga, sayyohlar e'tibori kun sayin ortib bormoqda.

Toshkent - O'zbekistonning zamonaviy poytaxti. Tyan-Shyan tog' yonbag'ri Chirchiq daryosi oraisida joylashgan. Unga asos solingan davr tahminan e.avv. II asrlar deb hisoblanadi. Bu yerdan Buyuk Ipak Yo'li karvonlari o'tgan bo'lib, u davrlarda shahrimiz Shosh deb nomlangan. Saqlanib qolgan qo'lyozmalarga ko'ra o'sha davrlarda shaharda muhtasham, go'zal qasrlar qad rostlab turgan. Ko'xna Samarqand shahri nafaqat O'zbekistonning balki dunyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. U Rim va Vavilon shaharlarining tengdoshidir. Temuriylar sulolasining qadimgi poytaxti va Buyuk Ipak Yo'lining





asosiy boshlang'ich nuqtalaridan biri hisoblangan. Birgina Samarqand "Buyuk Ipak yo'lining yuragi" deb nom olgan. Afsonaviy Registon maydoni Markaziy Osiyoning takrorlanmas me'moriy yodgorligidir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo'lgan. Go'ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvaridi. Sherdor madrasasining peshtoqi Mirzo Ulug'bek madrasasi peshtoqi bilan asosan bir xil, binolar bir-biriga o'xshash bo'lsa ham, lekin sifat va me'morchilik jihatidan farq qiladi. Sherdor madrasasi sathi 70x57 metr, ya'ni to'rt burchakli shaklda bo'lib, hovlisi ikki qavatli hujralar bilan o'rab olingan, ularning soni 52 ta, hovlining burchaklarida darsxonalar joylashgan. Ammo bu obidada masjid yo'q, janubi-g'arbiy darsxona esa ziyoratxona hisoblangan, chunki unga tashqi tomondan bevosita Imom Muhammad ibn Ja'fari Sodiq mozori maqbarasi tutashgan. Sherdor madrasasi fasadidagi minora va gumbazlari Ulug'bek madrasasiga o'xshash, ammo orqa tomondagi fasadlar burchagi guldasta minoralar bilan o'ralgan. XVII asrga kelib yer sathi madaniy qatlamlarining ko'tarilishi tufayli XV asrdagi dastlabki yer sathidan ikki metrga yaqin baland ko'tarilgan. Ana shuning uchun bir muncha past ko'ringan Ulug'bek madrasasining qisqargan shaklidek barpo etilgan. Sherdor madrasasi qurilganda XVII asr me'morchiligiga xos ancha yangiliklar qo'llanilgan, qurilish jarayonini tezlashtiruvchi va arzonlashtiruvchi ilg'or usullardan foydalanilgan, ammo badiiy bezaklarning ta'sir kuchi bir muncha pasayib ketganligi sezilib turibdi. Lekin ranglarning o'z o'rnida ishlatilganligi va ayrim pannolarning g'oyat nafis bajarilganligi bu yodgorlikni yaratgan me'mor va naqqoshlarning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Naqshlar butun obida yuzini qoplagan. Ularda chok, yirik xandasaviy suls, kufiy yozuv naqshlari va gul bandlari tasvirlarda uyg'unlashgan bo'lib, faqatgina Samarqand obidalariga xos tarzda ishlangan. Aynan shu usul Samarqand me'moriy bezaklar maktabini tashkil qiladi.

Buxoro – yana bir qadimiy shaharlardan biri. Bu shahar Markaziy Osiyoning eng maftunkor shaharlaridan biri hisoblanadi. Qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli maskani desak mubolag'a bo'lmaydi. Ismoil Samoniy maqbarasi, ko'plab masjid va madrasalar, karvon-saroylar, hammom ulkan qo'rg'on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark, Minorai Kalon kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo'q marvaridlaridandir.



Xiva - 1967 yilda YuNESKO tomonidan Butunjahon meroslari ro'yhatiga kiritilgan shahar-qo'riqxonasi hisoblanadi. Bu go'zal maskanda 100 dan ortiq tarixiy obidalar saqlanib qolgan. Ichan Qala, Islom Xo'ja madrasasi, Kalta Minor shular qatoridan.

Yurtimiz tarixi, boy madaniy va ma'naviy merosidan hikoya qiluvchi ushbu noyob obidalar bugungi avlod qalbida buyuk o'tmishga ega ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usini jo'sh urdiradi. Binobarin, ajdodlardan meros osoriyatqalar bugungi va kelgusi avlodning yurtga munosib insonlar bo'lib kamol topishlarida muhim omil sifatida xizmat qiladi.



Tarixiy obidalar farzandlarimizni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash, dunyoqarashini shakllantirish, barkamol inson bo'lib yetishishlarida katta ahamiyatga ega. Bolalar bilan tarixiy me'moriy obidalarga sayohat uyushtirish, san'at asarlarining go'zalligidan ta'sirlanish orqali milliy g'urur elementlarini tarkib toptirishga hamisha ham birdek e'tibor qaratilayotgani yo'q. Ajdodlarimizning ulkan mehnatlari evaziga qad rostlagan ushbu osori atiqalar, tarixiy me'moriy obidalar ta'lim-tarbiyaning nihoyatda kuchli vositalaridir, ular bolaning estetik olamiga, ruhiy dunyosiga benihoya kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bunday sayohatga borgan bolalar undan olgan go'zal taassurotlarini bir umr unutmaydilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarixiy obidalar vositasida milliy g'urur elementlarini shakllantirishni yuqori darajada ta'minlash bolalarning tarixiy obidalarga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga xizmat qiladi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonida samarali natijalarga erishishga olib keladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Norboy Ortiqov. Yosh avlodni muqaddas g'oyalar ruhida tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar. Toshkent, 1995.
2. Toshtemir Turdiev. Ajdodlar merosi — xalq dahosining timsoli. Adolat. Ijtimoiy-siyosiy gazeta. 2016. №42.
3. Buxoroning diqqatga sazavor joylari. [http://turizm.kasaba.uz/uz/sights\\_of\\_uzbekistan/sights\\_of\\_bukhara](http://turizm.kasaba.uz/uz/sights_of_uzbekistan/sights_of_bukhara)
4. Xivaning diqqatga sazavor joylari. [http://turizm.kasaba.uz/uz/sights\\_of\\_uzbekistan/sights\\_of\\_bukhara](http://turizm.kasaba.uz/uz/sights_of_uzbekistan/sights_of_bukhara)
5. Samarqandning tarixiy qadamjolari. [Samarqand viloyati hokimligi rasmiy veb-sayti](http://samarqand.viloyati.hokimligi.rasmiy.veb-sayti)

## **ПРИНЦИПЫ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ В ИСТОЧНИКАХ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА**

*Хамраева Мафтуна Гулом кизи Студентка факультета “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами,  
Мирёкубова Комола Баходир кизи Студентка факультета “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами*

В государственной образовательной политике республики Узбекистан приобщение обучающихся к национально-культурному наследию народа ставится в ряд первостепенных задач образования.

Одним из действенных средств в духовно-нравственном воспитании учащихся является устное народное творчество. Общественная ценность народного творчества определяется его просветительским, идейно-воспитательным значением в сочетании с силой эстетического воздействия фольклора, возникшие и взращенные на почве многовековой истории народа, его благородных идей и чаяний, в высокохудожественной форме отразили широту его мировоззрения, обычаи, разнообразие общественных отношений, которые являются ценнейшим источником обучения и воспитания.

Устное народное творчество – это сплав сказок (характеристика положительных и отрицательных героев сказок, элементы ритмичности и рифма, поэтика и стиль сказок); песен (балладные, исторические, лирические и частушки); былин и эпоса с их фантастической гиперболой; обрядовая поэзия (мотивы); детский фольклор (считалки, жеребьевки, потешки, дразнилки и т. п.) и т. д. Следует обратить особое внимание на огромное значение народного творчества как средства нравственного и эстетического воздействия на личность.

Народное искусство изначально было связано с трудовой деятельностью и представляло одновременно как материальную, так и духовную культуру. Оно развивалось в основном как коллективное творчество на основе преемственности и традиций. По своей сущности в эпических произведениях – сказки, предания, легенды, былички и др. раскрываются нравственные, моральные, мировоззренческие взгляды народа, его сознание и мировосприятие.

Воспитательную силу устного народного творчества, а в нем народной педагогики, признавали в эпоху средневековья Ибн Сино, Беруни, Рудаки, Саади, Хисров и другие философы-мыслители – педагоги, обогатившие сокровищницу педагогических идей, не только раннего средневековья, но и последующих эпох.

Так, Абу Али ибн Сино оставил свои высказывания о колыбельной, убаюкивающей песне, её воспитательной силе; Рудаки использовал в своих трактатах и поэтических строках поговорки и пословицы, которые вошли в сокровищницу народного творчества.

В своих педагогических воззрениях Саади Шерози уделял огромное значение вопросу формирования профессиональных навыков детей, изучение ими народных ремесел.

Известно, что Беруни огромное внимание уделял проблемам народной культуры, изучение культуры различных народов. Он назвал устное народное творчество «достоинством и умом народа». «Изустная литература», - по его словам, - «становила и укрепляла его нравственный облик, была его исторической памятью, праздничными одеждами его души.

Термин «фольклор» который в 1846 году ввел в науку английский ученый Вильям Томс, в переводе означает «народная мудрость». В отличие от многих западноевропейских ученых, которые к фольклору относят самые различные стороны народного быта, отечественные ученые (У. Махкамов, С. Очилов, С. Каримова, И. Стыркас и др.) фольклором считают устное народное творчество поэтические произведения, создаваемые народом и бытующие в широких народных массах, наряду с фольклором музыкальным и танцевальным.

Народная художественная культура (включая изобразительное и декоративно-прикладное искусства) - это социально обусловленная и исторически развивающаяся художественная деятельность народных масс, для которой характерны взаимосвязанные специфические признаки. В их числе коллективность творческого процесса, традиционность, устная передача от поколения к поколению, вариативность, связь с трудом, бытом и обычаями. И хотя его нельзя отнести к профессиональному искусству, тем не менее оно имеет свое самостоятельное место в истории искусства.

Фольклор самобытен, собственно народен (национален) и вместе с тем общечеловечен (сходен по социально-эстетическим идеалам и идейному содержанию). Он зародился в глубокой древности из элементов трудовых песен, заговоров и заклинаний – на утилитарной основе. Постепенно их утилитарные качества уступили место художественным.

Специфика фольклора, заключается в том, что он является собой художественное творчество народа – нации, коллективное искусствослова, творимого по своеобразным законам устной передачи от поколения к поколению отдельного народа. Со временем изменяется, дополняется, соединяется, связан с преемственностью, традиционностью, заимствованием, с коллективным творчеством. Под влиянием истории, времени, фольклорных традиций, фольклор наполняется вариантными и версионными произведениями.[1]

В узбекской народной педагогике много сходного и общего, объединяющего с народной педагогикой других наций, в то же время свое, специфическое, отражающее культуру данного народа. Наиболее древние

узбекские литературные произведения – свыше 200 эпических поэм, множество легенд, эпических песен, исполняемых народными поэтами – бахши. Герои фольклора борются с враждебными силами – злыми духами, драконами и т.п., устанавливая справедливость. Воспитательные возможности народной культуры.

### **Литература:**

1. Ф. Хамраев. Древние письменные памятники//Преподавание языка и литературы, 2001 №2.

## **5-7 YOSHLI BOALALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA MATEMATIK QOBILYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

*Xolto'rayeva Sabina Xo'shmurod qizi Nizomiy nomidagi TDPU  
o'qituvchisi*

Hozirgi kunda mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bunga yaqqol misol tariqasida "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlatimiz rahbari etib tayinlanganida ilk kunlardan oq ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim sohasiga qaratgan e'tiborini keltirishimiz mumkin. 2016-yilning 29-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'grisida"gi PQ-2707-sonli qarori tasdiqlandi. Mazkur qarorda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy texnika bazasini yanada mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tizimi tarmog'ini yanada kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, talim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun sharoit yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari"ga <sup>[1]</sup> muvofiq bola 5-6 yoshda birmuncha matematik bilimlarga ega bo'lib geometrik shakllarni bilishi va ularni predmetlar

orasidan ajrata olishi kerak. Bundan tashqari bola predmetlarning uzunligi, eni, qalinligi va balandligiga ko'ra taqqoslaydi. Muloqot davrida matematik terminologiyani qo'llaydi, belgilar tizimini tushunadi (son va belgilarni qo'llagan holda +, -, =). Birdan o'ngacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanaydi, predmetlarni soni va sanog'iga qarab taqqoslaydi va predmetlar tengligi, tengmasligi guruhlarini aniqlaydi va ularni bir- biri bilan taqqoslab o'z mustaqil fikrini bayon eta oladi. Maktabga tayyorlov guruhiga (6-7 yosh) kelib bolaning matematik tasavvurlari sezilarli darajada kengayadi. Bola hayotda son va sanoqning ahamiyatini tushunadi. Geometrik shakllar va figuralarni biladi va yigirmagacha bo'lgan ayrim matematik harakatlarni bajaradi. 10 gacha qo'shish va ayirishning sodda matematik vazifalarini yechadi (son va belgilarni qo'llagan holda +, -, =). Son qatori haqida tushunchaga ega, guruhlarni teng yoki teng emasligini tahlil qiladi (qancha ko'p?, qancha kam?). Hajmi, balandligi va qalinligiga qarab predmetlarni ketma- ket joylashtiradi. Shartli belgi asosida suyuq, sochiluvchan va qattiq materialni o'lchash malakalariga ega bo'lishi zarur. Maktabga tayyorlov guruhida davlat talablarida belgilangan talablarni to'laqonli bajarish uchun boalada matematik bilimlarni shakllantirish tarbiyachininin asosiy vazifasi bo'lishi shart va zarurdir.

Har qaysi yosh guruhida miqdor va sanoq, kattalik. geometrik shakllardan, fazoda mo'ljal olish, vaqt bo'yicha oriyentir (mo'ljal) olish, arifmetik masalalar yechish, Masala yechishda «qo'shish», «ayirish», «tenglik» matematik tatamalardan foydalanish zarur. Bolalarning maktabdagi ko'pgina faoliyatlari tevarak atrofda o'rnini aniqlash (oriyentatsiya qila bilish) bilan bog'liqdir. Shuning uchun bolalar maktabga chiqqunga qadar harakat yo'nalishlari (o'ngda, chapda to'g'ri, burchakdan burchakka va hokazo)ni bilishlari, tevarak atrofdagi narsalarning o'zlariga nisbatan (o'ng tomonda, chap tomonda, yuqorida pastda, orqada, oldinda) joylashishini bilishlari, bir-biriga nisbati, joylashishini (stolning oldida stul) xonada, hovlida, maktabgacha ta'lim muassasassidan uyga qaytishni, ko'chadan o'tish qoidasini bilishlari lozim. Bolalarni qog'oz sathini aniqlay bilishga o'rgatish muhimdir. Chunki bu bilimlar kitobning kerakli betini topishda, bir varaq qog'ozning yuqorigi chap burchagi, daftarning yuqori-pastki tomonlari, burchaklarini topishi, kerakli yo'nalishda daftarda chiziqda

chizishga o'rgatadi. Bolalarga quyidagi topshiriqni berish mumkin: pastki chap burchagiga to'rtta kvadrat, yuqorigi o'ng burchagida bitta ortiq, bolalarni bajargan ishlarini to'laroq so'zlab berishga o'rgatish zarur. Tevarak atrofni bilish vazifasi matematika mashg'ulotida kam vaqtni oladi, uni ko'proq boshqa bo'limlar bilan birgalikda olib borish kerak (kundalik turmush faoliyatida, o'yinda, mehnatda, jismoniy tarbiya musiqa mashg'ulotlarida, gimnastika vaqtida). 5-7 yoshdagi bolalar guruhlari tarbiyachilari bolalarning matematik bilimlarini mustahkamlash uchun barcha turdagi faoliyatlardan foydalanishlari kerak. Masalan, rasm chizish, modellashtirish, loyihalash jarayonida bolalar geometrik shakllar, obyektlarning soni va kattaligi va ularning fazoviy joylashuvi to'g'risida bilimga ega bo'lish, fazoviy tasavvurlar, sanash qobiliyatlari, tartibli sanash, musiqa va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida, sport o'yin-kulgi paytida. Har xil tashqi o'yinlarda bolalarning obyektlarning shartli qiymatlarini o'lchash to'g'risidagi bilimlaridan foydalanish mumkin. Matematika mashg'ulotlarida o'qituvchilar turli usullardan (og'zaki, ko'rgazmali, o'yin) va texnikadan (hikoya, suhbat, tavsif, ko'rsatma va tushuntirish, bolalar uchun savollar, bolalarning javoblari, namunalar, haqiqiy obyektlarni ko'rsatish, rasmlar, didaktik o'yinlar va mashqlar, ochiq o'yinlar) foydalanishi samaradorlikni oshirishda muhim omil sanaladi. 5-7 yoshli bolalarda matematik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotni bola yoshiga mos va to'g'ri tashkil etish, didaktik o'yinlardan foydalanish, guruhda matematika burchagini tashkil etish, ota onalar bilan hamkorlikda ishlash shakllaridan foydalanish yaxshi samara beadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari.- Toshkent shahri, 2018-yil 18 iyul. // 1- ilova
2. 2017-2021 yillarda "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori
3. Jumayev M. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. / O'quv qo'llanma. – T.: «Ilm ziyo», 2005.
4. M.Nigmatova "Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish" Samarqand-2016 yil



## **MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYA ISHLARINI REJALASHTIRISHDA USLUBCHI VA TARBIYACHINING HAMKORLIGI.**

**D.A.Xomidova** Namangan davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, **M.N. Xusanboyeva** Maktabgacha ta'lim metodikasi o'qituvchisi  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 302-guruh talabasi

Yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda maktabgacha talimning alohida o'rnini bor. Bugungi kunda maktabgacha talim uzluksiz talimning nafaqat kichik bir bo'lagi balki talimning asosiy poydevori hamdir. Chunki yosh avlodni har tomonlama yetuk, aqlan va jismonan sog'lom tarbiyalash maktabgacha ta'limning asosiy vazifasidir. Xususan, Prezidentimizning ta'lim to'g'risidagi qonuni maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qaror va farmonlari "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti", "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va hokazolar shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 30- sentyabrdagi PQ-3955 sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish sog'lom, faol to'la qonli jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakillantirish, o'sishda nuqsoni bo'lgan bolalarni shuningdek riabilitatsiya qilish va sog'lomlashtirishga muxtoj bolalarni o'qitish tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida 2019 yil 13-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ynada takomillashtirish chora tadbirlari to'risida"gi 391- sonli qarori shular jumlasidandir. Xususan, maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakillanishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetgunga qadar davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Mamlakatimizda bu sohada yangi , zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etish bilan birga „ Ilm yo'li" variantiv dasturi ham joriy etilganligi buning yorqin dalilidir. Bunda jamiyatning kichik bir bo'lagi hisoblangan bola shaxsini ijtimoiylashtirish, uning psixologiyasi va fiziologiyasiga alohida ta'sir ko'rsatish bosh

maqsad qilib olingan. Bugungi kunda maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur :

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash ;
- maktabgacha ta'limda samarali psixologik-pedagogik uslublarni izlash va yangi metodlarni joriy etish;
- zamonaviy o'quv uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- Integratsion usulda innovatsion mashg'ulotlar va yangi metodlarni qo'llay bilish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun lozim sharoit yaratish;
- maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish;
- malakali pedagog va integratsion mashg'ulot, interfaol metodlar ta'lim tarbiya sifatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Bolalar, pedagog xodimlar, ota-onalar maktabgacha talim tashkilotida talim tarbiya qatnashchilari hisoblanadi. Ularning o'ziga xos alohida vazifalari mavjuddir. Bolalar talim-tarbiya jarayoning eng asosiy ishtirokchilaridir. Pedagoglar tomonidan berilgan bilim, ko'nikma, malakalar bolalar ongida borliqni bilish, his qilish kabi tuyg'ularni shakllanishiga olib keladi. Olgan bilimlari asosida bolalar borliqni taniy boshlaydilar.

Maktabgacha talim tashkilotida har bir pedagog xodimning o'z vazifasi bor. Bu borada tarbiyachi bolalarga ta'lim tarbiya bersa, uslubchi esa mashg'ulotlar samaradorligini oshirish maqsadida yangi metod va usullarni ishlab chiqadi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga ma'sulyatli vazifani xam bajaradi. Bugungi kun tarbiyachisi siyosiy bilimlar yetukligi, chet tillarini bilish savodi, axborot kommunikatsiyalaridan foydalanish, bilim, malaka ko'nikmalarning mavjudligi bilan

ajralib turadi. Ushbu hislatlarga ega bo'lgan tarbiyachigina mashg'ulotlar samaradorligini oshirish va ko'zlangan maqsadga erishishini ko'rish mumkun.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ta'lim-tarbiya rejalaridan kutilayotgan natijalar bittadir. U ham bo'lsa ta'lim-tarbiya sifatini yanada oshirish. Mamlakatimizni yuqori taraqqiyotgan mamlakatlar bilan tenglashtirish va ularning ta'lim texnologiyalarini bizning ta'limda qo'llay olishidir. Albatta bu jarayonlar o'z o'zidan bo'lmaydi. Yosh avlodni yetuk komillikka yetkazish maktabgacha ta'lim ostonasidan boshlanadi. Maktabgacha ta'limni sifatini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Rivojlangan mamlakatlarning statistikasiga etibor berilganda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar 7 yoshgacha hayoti davomdagi bilimlarni 80 foizini egallay olishi aniqlangan. Shuning uchun ular maktabgacha ta'lim tizimiga alohida etibor qaratgan.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.N.Qayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
- 2.Nurmatova M.SH., Xasanova SH.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon" T.:2010y.
- 3.Nurmatova M.SH., Xasanova SH.T., Azimova D. Ustahonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa" T.:2010y.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH**

*Xudoyberganova Shaxodat Baxtiyor qizi*  
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti*  
*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I-bosqich talabasi*

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida zamonaviy yondashuvlardan eng samaralisi o'yin texnologiyalaridir. Barcha faoliyat turlarida aynan o'yin texnologiyasi orqali bolalarning istaklari amalga oshadi. Rivojlanayotgan bola shaxsi o'yin natijasida yangi qoidalar, shart-sharoitlar, komponentlar bilan tanishadi, murakkab vazifalarni yechish ko'nikmasi shakllanadi. O'yin bolalarning hayoti davomida asqotadigan muhim malaka va tajribalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar maxsus tashkil etiladi va aniq belgilangan didaktik vazifani

bajaradi. O'yinlar turli vaziyatlaridagi harakatlarni bajarishga imkon beradi. Aksariyat didaktik o'yinlar o'z-o'zini o'qitish tamoyiliga tayanadi, o'yin bolani bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltiradi. Didaktik o'yinlar o'qitishni turlicha metodik usuli hisoblanadi. U bolalarda bilimlarni shakllanishiga yordam beradi. O'yin- maqsadga qaratilgan o'ylangan jarayondir. O'yin faoliyati jarayonida bola shaxsi rivojlanadi, har bir tarbiyalanuvchini kattalar olami bilan yaqinlashishga yo'naltiradi, bilish, mehnat hamda jismoniy faoliyatni o'zlashtiradi. O'yin demokratik xususiyatga ega bo'lib, bolalar tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi rollar taqsimotida tenglik amalga oshiriladi. O'yin faoliyatida maqsad natijalarni yakunlash bilan emas, balki jarayonni o'zida yuz beradi. O'yin bolalarni rivojlanishida, ta'lim berish va tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kelajakda turli hayotiy vaziyatlarga psixologik tayyorlash vositasi sifatida xizmat qiladi. O'yinni tashkil etishning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlari shundaki, har qanday o'yinda qoidalarga amal qilinadi, har bir o'yin qoidasi maqsad bilan yakunlanadi. SHuningdek, o'yin harakatlarini bajarishda eng optimal variantlar tanlashda improvizatsiya elementlaridan foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari didaktik o'yinlarni tashkil etishda quyidagi pedagogik tamoyillarga amal qilishlari lozim:

1. Bolalarni mavjud bilimlarga tayanish, bevosita idrok qilishga yo'naltirish;
2. Didaktik vazifalar murakkab, lekin bolalar uchun tushunarli bo'lishini nazorat qilish;
3. Turli xil o'yin harakatlari va qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash;
4. Asta-sekin didaktik vazifa va o'yin harakatlarini murakkablashtirib borish;
5. O'yin qoidasini aniq va to'g'ri tushuntirish[2].

Didaktik o'yinlarning tashkiliy qismlari quyidagilardan iborat:

- tashkiliy qism o'yinni borishini tushuntirish
- ta'limiy vazifani bajarish
- o'yin harakatlarini bajarish
- o'yin qoidalariga rioya qilish
- o'yin natijalari tahlili.

O'yin harakatlarini ko'rsatish, jarayonda tarbiyachi bolalarga harakatlarni to'g'ri bajarishni o'rgatadi, agarda qarama-qarshi vaziyat yuz bersa kutilgan natijaga erishilmaydi (masalan, qaysidir bola qarash mumkin bo'lmasa ham qarashi, ko'zni yumish lozim bo'lsa yummasligi). O'yinda rollarni aniqlashda tarbiyachi uning ishtirokchilari, o'yinchilar, muxlislar va hakamlarni bolalar ixtiyoriga qarab tanlaydi. O'yinda tarbiyachining bevosita ishtirok etishi bolalarning yosh xususiyati, tayyorgarlik darajasi, didaktik vazifalarni murakkabligi, o'yin qoidalariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi [3].

O'yinda tarbiyachining ishtiroki o'yin qatnashchilarini yo'naltirib turadi (maslahat beradi, savollar va eslatmalar). O'yin yakuni bu eng ma'suliyatli jarayon bo'lib, uning natijalari tahlil qilinadi, bolalar o'yin faoliyatida mustaqil harakat bajaradilar. Bilimlarni chuqurlashtirish va umumlashtirish, sensor qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish jarayonlarini faollashtirish (xotira, diqqat, tafakkur, nutq)ga qaratilgan o'yinlarga tayyorgarlik ko'riladi. O'yinlar davlat talabi va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga hamda bolalarning yosh xususiyatiga mos bo'lishi lozim. Tarbiyachi o'yin o'tkazishni qulay vaqtini aniqlab olishi zarur (masalan: mashg'ulot yoki mustaqil faoliyat yoki kunning ixtiyoriy davrida). O'yinni o'tkazish joyini tanlaganda qulay va bolalar bir-birlariga xalaqit bermasliklarini ko'zda tutishi maqsadga muvofiq. O'yin o'tkazish joyi guruhda yoki o'yin maydonchasida o'tkazish mumkin. O'yin ishtirokchilarini aniqlash (butun guruh, kichik guruhlar yoki yakka tartibda) ham amalga oshiriladi. Didaktik materiallar tayyorlanadi (o'yinchoqlar, turli xil buyumlar, rasmlar, tabiiy materiallar). O'yinni o'tkazish uchun tarbiyachi o'zi xam puxta tayyorlanishi o'yin mazmuni va qoidasi, tartibi, borishi, o'yin joyi va o'yinga rahbarlik qilish usullarini aniqlab olishi lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Mirzakamalova D.M. Milliy o'yinlarda bola shaxsi shakllanishining psixologik asoslari. Diss.psix.fan.nom. T.: 1996.-155 b.
2. Karpova Ye.V. Didakticheskie igri v nachalnyi period obucheniya. Yaroslavl: «Akademiya razvitiya», 1997.
3. Kozlova S.A., Kulikova T.A. Doshkolnaya pedagogika. M.: «Akademiya»2001 - 416 s.

4. Qodirova F., Toshpo'latova SH., Agzamova M. va boshq. "Maktabgacha pedagogika". T.2010.
5. Qodirova F., Toshpo'latova SH, Agzamova M. "Maktabgacha pedagogika". T.:2016-560 b.

## **РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ КАК УСЛОВИЕ УСПЕШНОГО СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Хусанбаева Сетора Дилмурадовна, Рахимова Луиза Маратовна**  
*студенты ТГПУ им. Низами*

Дошкольное детство — это время, когда ускоряется темп приобретения детьми знаний об их культурном и социальном мире, а также их общее когнитивное развитие. В идеале, за этот период ребенок узнает, что такое плохое и хорошее поведение; как справляться со своими чувствами, желаниями и потребностями социально приемлемыми способами, а также о том, чего ожидают от него его семья, община и все общество, в котором он живет. Дети начинают усваивать нормы, правила и обычаи своей культуры. В тоже время они вырабатывают Я-концепцию, которая может сохраняться на протяжении всей дальнейшей жизни.

Одним из условий социального развития ребенка-дошкольника является развитие у него креативности. Креативность определяется как способность сделать или каким-либо иным способом осуществить нечто новое: новое решение проблемы, новый метод или инструмент, новое произведение искусства.

В зарубежной психологии проблему креативности изучали Е. П. Торренс, Дж.П. Гилфорд, С. Медник и другие.

По мнению Е. П. Торренса, креативность - это не специальная, а общая способность, которая базируется на констелляции общего интеллекта, личностных характеристик и способностей к продуктивному мышлению. Торренс называет креативностью способность к обостренному восприятию недостатков, пробелов в знаниях, недостающих элементов, дисгармонии и т.д.

Фромм предлагает свое определение креативности: «это способность удивляться и познавать, умение находить решение в нестандартных ситуациях, это нацеленность на открытие нового и способность к глубокому осознанию своего опыта»<sup>23</sup>.

Креативность охватывает некоторую совокупность мыслительных и личностных качеств, способствующих становлению способности к творчеству. Одним из компонентов креативности, который, однако, не исчерпывает ее полностью, является способность личности к дивергентному мышлению.

Фрейд<sup>24</sup> считал творческую активность результатом сублимации (смещения) полового влечения на другую сферу деятельности: в результате творческого акта лежит всегда опредмеченная в специально приемлемой форме сексуальная фантазия.

Креативность, по его мнению, - это творческая направленность, врожденная всем, но теряемая большинством под воздействием окружающей среды. Креативность является одним из условий, способствующих социальному развитию ребенка. Главная роль в этом отводится родителям как факторам социализации. Предоставляя ребенку возможность решения различных творческих задач, родители способствуют и социальному развитию ребенка.

## **ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ И ЕГО ПРЕИМУЩЕСТВА**

***Хусанбаева Сетора Дилмурадовна***

*Студентка факультета “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами*

***Рахимова Луиза Маратовна***

*Студентка факультета “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами*

Дистанционное образование — это термин, который используют применительно к широкому спектру образовательных программ и курсов, начиная от обучающих курсов и курсов повышения квалификации, не имеющих аккредитации (так называемое «неформальное образование»), заканчивая

---

<sup>23</sup> Бурменская, Г. Л. Одаренные дети / Г. Л. Бурменская, Б. М. Слуцкий ; пер с англ. -М. : Прогресс, 1991

<sup>24</sup> Дружинин, В. Н. Психология общих способностей / И И. Дружинин. -М. : ИЦ «Академия», 1995.

аккредитованными программами высшего образования, которые реализуют возможность тесного общения студентов со своими преподавателями и сокурсниками, как это происходит в очном обучении.

Для того чтобы обеспечить эффективное взаимодействие, при дистанционном обучении используется целый набор инструментов, включая интерактивные компьютерные программы, Интернет, электронную почту, телефон и т. п.

Дистанционное образование становится чрезвычайно популярной формой обучения в силу своего удобства и гибкости. Оно устраняет основной барьер, удерживающий многих занятых людей от продолжения образования, избавляя от необходимости посещать занятия по установленному расписанию

Обучаясь дистанционно, можно выбирать удобное для себя время занятий согласно собственному расписанию. Дистанционное образование тесно связано с дистанционным обучением.

Принято считать, что дистанционное образование — это процесс передачи знаний (за него ответственен преподаватель и учреждение образования), а дистанционное обучение — это процесс получения знаний (за него ответственен обучаемый) [1].

Возможные варианты использования дистанционного обучения:

-совмещение традиционных очных занятий (урок) с дистанционными (например, проведение консультаций, дополнительных занятий для мотивированных детей или, наоборот, для слабоуспевающих);

-организация постоянной группы обучаемых (киберкласс) из разных учебных заведений (городов, регионов, стран) для прохождения дистанционного курса, за обучением которых следит (консультирует, помогает) куратор;

-дистанционное самообразование без поддержки куратора.

Дистанционное обучение имеет как положительные, так и отрицательные стороны. Преимущества дистанционного обучения:

1.Свобода доступа, мобильность — обучаться можно практически в любом месте и в любое время, используя любые доступные средства (гаджеты).



2. Занятый человек может обучаться без отрыва от основной работы.

3. Снижение затрат на обучение — обучаемый несёт затраты на носитель информации, но не на методическую литературу. Отсутствуют материальные траты на проезд к месту обучения. Стоимость курса будет меньше, так как не учитывается заработная плата педагогов, содержание учебных заведений и т. д. Производство электронных учебных материалов не подразумевает вырубку леса.

4. Гибкость обучения — продолжительность и последовательность изучения материалов обучаемый выбирает сам, полностью адаптируя весь процесс обучения под свои возможности и потребности

5. Возможность развиваться в ногу со временем — пользователи электронных курсов развивают свои навыки и знания в соответствии с новейшими современными технологиями и стандартами.

Электронные курсы также позволяют своевременно и оперативно обновлять учебные материалы

6. Потенциально равные возможности обучения — обучение становится независимым от качества преподавания в конкретном учебном заведении.

7. Возможность определять критерии оценки знаний — в дистанционном обучении имеется возможность выставлять четкие критерии, по которым оцениваются знания, полученные обучаемым в процессе обучения.

Недостатки дистанционного обучения:

1. Необходима сильная мотивация — практически весь учебный материал обучаемый осваивает самостоятельно. Это требует развитой силы воли, ответственности и самоконтроля. Поддерживать нужный темп обучения без контроля со стороны удастся не всем

2. Электронное обучение не подходит для развития коммуникабельности — при электронном обучении личный контакт учащихся друг с другом и преподавателями минимален, а то и вовсе отсутствует. Поэтому такая форма обучения не подходит для развития коммуникабельности, уверенности, навыков работы в команде.

3. Недостаток практических знаний — обучение специальностям, предполагающим большое количество практических занятий, дистанционно затруднено. Даже самые современные тренажеры не заменят будущим учителям «живой» практики.

4. Проблема идентификации пользователя — пока самый эффективный способ проследить за тем, честно и самостоятельно ли обучаемый сдавал экзамены или зачеты, — это видеонаблюдение или очный зачет, что не всегда удобно.

#### **Литература:**

1. Шевчук В. П. Методика дистанционного обучения // Информатика и образование. - 2007 - N 12 - С. 118-119.

### **BOLALARNING YOSH DAVRIDAGI MUAMMOLARINI OLDINI OLISH VA ULARNING TARBIIYASI BILAN SHUG'ILLANISH**

*Choriyeva Durdona Anvarovna* TDPU “Maktabgacha ta`lim”  
fakulteti PhD.,v.v.b., dotsenti,

**Sabohat Ahmadova** “Maktabgacha ta`lim” fakulteti 2 kurs talabasi

Qadim zamonlarda odamlar bolalarning tarbiyasini qanay usullarda tarbiyalash kerakligini bilishgan. U zamonlarda ham bolalarni tarbiyasini yanada mustahkamlovchi o'yinlar yoki shunga o'xshash ahloqiy jarayonlar bolalarga o'rgatilgan. Shunday jarayonlar orqali bolalarni qanday tarbiyalash kerak qanady usullarni qo'llash kerakligini ham bilib olishgan. Hozirgi kunda yosh onalar o'z farzandlarini yangicha usulda tarbiyalab kelmoqdalar. Ya'ni zamon rivojlangan sari bolalarni tarbiyalash usullari va metodlari ko'payib bormoqda. Onalar faqat shu zamonaviy tarbiya usullaridan foydanmoqdalar. Bunday tarbiya jaroyoni bolalarning an'anaviy tarbiyalash jarayonidan cheklab qo'yishi mumkin. Masalan, imkon boricha bolalarga audio ertaklarni o'rniga bir necha daqiqa bolaga ota-ona vaqt ajratishi, ertak kitoblardan ertaklarni aytib berishi afzalroq sanaladi. Shunda uning ota yoki ona bilan o'zro muloqotni o'rnatishga yordam beradi. Chunki ba'zi ota-onalar ishlari bilan band bo'lib bolaga vaqt ajratmay qo'yishlari ham mumkin. Shuning uchun eng yaxshi vaqt

bu ertak aytib berish jarayonidir. Shundagina bola o'zini ota-onasi uchun kerakli shaxs sifatida o'zini his qiladi. Shuni unutish kerakmaski, bola qachonki o'ziga ishonsa, shundagina u tashabuskor, aqlli va irodali shaxs bo'lib yetishadi.

Hozirda biz ta'limning keskin o'sishini kuzatmoqdamiz, chunki ota-onalar ta'lim g'oyasi va tarbiyani noto'g'ri tushunadilar, oilada bola rivojlanishi uchun eng muhim bo'lgan "tayyorlov maktabi" ni yaratish uchun hech nima qilmaydilar. Masaru Ibuka tayyorlov maktabi haqida ko'plab g'oyalar va o'z qarashlarini bayon qilganlar. Tayyorlov maktabi haqida gap ketganida albatta bolalarni yaxshi o'qitish ularga boshlang'ich bilimlarni berish nazarda tutilgan. Har qanday boshlang'ich maktab bu albattagina oilada namoyon bo'ladi. Ya'ni har qanday bilim va tarbiyani ham oila muhitida paydo bo'lishi va eng avvalo bola oila muhitida shu ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun ham tayyorlov maktabi deganda albattagina oila tushunilishi kerak. Hozirgi kunda aynan shu masala nazarga olinyapti. Sababi oilada bolalar ilk tarbiya kurtaklarini ochishlari zarur. So'ngra matkabgacha tayyorlov muassasalarida shu olgan ko'nikmalarini yanada mustahkamlab boraveradi. Tayyorlov maktabi uchun bolalarni rivojlantiruvchi barcha vositalardan foydalanish kerak. Shunda bolada individual rivojlanish darajasidagi samaradorligi o'sib boraveradi. Urishish yoki majburlash zarur bo'ladigan vaziyatlar ham bor, ammo qiyin vaziyatda bolaga tanlash imkoniyatini berish yoki uni ishontirishga harakat qilish afzalroq. Agar bolaga boshqa muqobil( alternativ) variantni taklif eta olmasangiz, hech bo'lmasa nima uchun shu ishni qilish mumkin emasligini tushuntirish kerak. Sizning tushuntirishlaringizni anglay olmasligi mumkin ammo, tovushingizdagi ishontirish bolaga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Bolalar yoshligida ayniqsa go'daklik davrida ko'p narsalarni anglay olmaydi. Shuning uchun ba'zida shu narsalarni ushlab ko'rishga berishimiz kerak. Shundagina u anglay olishi mumkin. Agar ba'zi hollarda esa bolalarga intonatsion vosita orqali ularga tshuntirishimiz kerak. Albatta bunday yoshda, yosh bolalar kattalarning gaplariga tushunmaydilar. Lekin albatta biz shunga harakat qilishimiz kerak. Jazolashdan ko'ra bolalarga tshuntirishimiz kerak. "Bolani urishgandan ko'ra maqtagan afzalroq"- deydi Masaru Ibuka. Biz bolaga "Sen yaxshi bolasan bunday yomon ishlar sening qo'lingdan kelmaydi, sen odobli bolasan"- deb

aytsak bola shu hislatlarga qarab rivojlanib boradi. Bolani qancha ko'p urishaversak yoki ruhiy jihatdan qo'rqqoq yoki o'sha urishgan isnonga nisbatan salabiy hulq-atvori uyg'onishi mumkin. Shuning uchun bolalar tarbiyasi borasida o'ta ehtiyotkorlik bilan tarbiyalsh kerak. Bolasini yaxshi ko'rgan ota-ona uning darajasiga tushishi kerak. Chunki bolaning kichik dunyosiga kiriladigan eshik ham kichkinadir. Boladek kichik bo'lgan bu eshikdan kirish uchun egilish lozim. Balki surilish, yumalash, bolaning ichki dunyosiga sig'adigan darajada kichrayishi kerak. Bolalar tarbiyasining muhim shartlari ko'p bo'lib, ularga amal qilsak, bolalar yanada mehribon va ota-onasiga nisbatan hurmati cheksiz bo'ladi. Yosh bolalar juda qiziquvchan bo'ladi. Qiziquvchan bolalar har doim savollar beraveradi. Bu savollarga ba'zida ota-onalar javob topa olmaydi. Shunday vaziyatlarda shu savolga javobni birgalikda qidirsak, bola ilm olishni qanday ekanligini anglab yetadi. Bilmagan ma'lumotlarni bilib olganidan hursand bo'ladi. Shu paytda ota-ona bola bilan birgalikda hursandchilikni baham ko'rmoqlik, bolada unutilmas jarayon bo'lib qoladi. Eng asosiysi bolalar hayotidagi har bitta jarayonga ota-ona mas'uliyat bilan yondashishi lozim. Shundagina bola baxtli bo'lib voyaga yetadi. Albatta baxtli bola kelajakda judayam yaxshi inson bo'lib yetishishi shubhasiz.

Har kuni bolalar bilan muloqotda bo'lgan tarbiyachiga u o'z shogirdlarini biladigandek tuyulishi mumkin va bu haqda o'ylash chuqur xato qiladi. Bunga turli vositalar- kuzatish, eksperiment, suhbat, bolalar ijodiyoti mahsulotlarini tahlil qilish, ijtimoiy-psixologik usul, testlar yordam berishi mumkin. Ko'pincha, aniq tadqiqotlarda bir-birini to'ldiradigan va boshqaradigan bir nechta usullar qo'llaniladi.

Shu bilan birga, tadqiqot obyektini, predmetini va vazifasining xususiyatlaridan kelib chiqib, asosiy usullarning muayyan variantlari - bola psixikasi rivojlanishining ayrim tomonlarini o'rganish usullari ishlab chiqilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyat ko'p jihatdan tarbiyachi-tadqiqotchining uslubiy zukkoligiga, uning qo'yilgan vazifalarga to'liq mos keladigan usullar kombinatsiyasini tanlash qobiliyatiga bog'liq.

## **Adabiyotlar**

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva.

2. <http://ipb.uz/post/luighghfgncghc>
3. <https://www.terabayt.uz/uz/post/innovatsiya-tushunchasi-haqida>

## **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI ISSIQ IQLIM SHAROITIDA JISMONIY TARBIYALASH VA CHINIQTIRISH**

*Choriyeva Durdona Anvarovna* TDPU “Maktabgacha ta’lim”  
fakulteti PhD.,v.v.b., dotsenti,  
*Mamadaliyeva E`zoza* TDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabasi

Mamlakatimizda shaxsni har tomonlama va garmonik rivojlantirish, shu jumladan, yosh avlodning jismoniy jihatdan sog’lom va baquvvat bo’lib o’sishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Moddiy farovonlik darajasining oshayotganini, meditsina muassasalari, dam olish uylari, sanatoriyalar, bolalar oromgohlari tashkil etilganligi - O’zbekiston aholisini sog’lig’ini mustahkamlash va ularni jismoniy tomondan rivojlantirish yo’lida qilinayotgan ishlarning bir bo’lagidir.

Oftob, havo va suv barcha yoshdagi kishilar uchun chiniqishning eng oson vositalaridan biri. Tabiatning bu in’omidan jismoniy tarbiya tizimida maktabgacha ta’lim muassasalari, bolalar oromgohlari, sanatoriyalarda chiniqtirish maqsadida foydalaniladi.

Biroq, oftob, havo va suv barcha yoshdagi kishilarga turlicha ta’sir qiladi. Ayniqsa O’zbekistonning issiq iqlim sharoitida quyoshning radiatsiya nurlari turli fasllarda har xil bo’ladi. Shuning uchun chiniqtirish bo’yicha olib boriladigan ishlar O’zbekistondagi bu sharoitlarni hisobga olgan holda olib borilishi lozimdir. Endi O’zbekistondagi iqlimga nazar salsak, Respublikada yog’in kam. Iqlim quruq kontinental, issiqlik va yorug’lik ko’p. O’zbekistonning shimolini katta qismi mo’tadil mintaqaga, janubi esa subtropik mintaqaga mansub. Respublikada quyosh yil davomida qariyb baland bo’ladi. Quyosh iyun oyida ufqdan 72 darajaga, Termizda 76 darajaga ko’tariladi. Yozda kunduzi 15 soat davom etadi, qishda esa 9 soatdan kam bo’lmaydi. Yozda kunduzi 15 soat davom etib, bulut kam bo’lganligi uchun quyosh uzoq vaqtgacha nur sochib turadi. Quyoshdan kelayotgan issiqlikni 70-80 % dan ko’prog’i tuproq va havoni isitishga sarf bo’ladi. Eng illiq oylar iyun-iyul hisoblanadi.

Havo harorati +36 +38 daraja bo'ladi. Qishda O'zbekistonning ko'pgina joylarida ob-havo beqaror bo'lib, issiq va sovuq kunlar almashinib turadi. Eng sovuq oylar yanvar-fevral oylari hisoblanadi. Bahor oylarida iliq va issiq kunlar almashib turadi. O'rtacha harorat +19 +22 daraja, yomg'irlar tugaydi, lekin vaqti-vaqti bilan kelib turadigan salqin havo issiqlikni ko'tarilib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Kuz oylarda ham havo harorati 30-35 daraja bo'lib, kunduz 14 soatni tashkil etadi. Lekin quyoshni nurlari tik tushmaydi ana shunday issiq iqlim sharoitida o'sayotgan bolalarni rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu iqlimda yashovchi bolalarda organizmdagi issiqlikni chiqarishni kamaytira olish, ob-havoga qarab ko'paytirish xususiyatiga egadir (qish oylarda). Ana shunday xususiyatlar bola organizmini chiniqtirish natijasida hosil bo'ladi.

Bolalarni butunlay sog'lom va baquvvat bo'lishi haqida muntazam g'amho'rlik qilinar ekan, chiniqtirish tadbirlarning o'zi bilan kutilgan natijalarga erishib bo'lmasligini unutmaslik kerak. Chiniqtirish tadbirlari tog'ri tashkil etilishi uchun maxsus sharoitlar bo'lishi kerak: bolalar muassasalari va uyda sanitariya-gigiyena sharoitlarni to'g'ri tashkil etganligi, organizmning yoshi va uning sog'liq darajasi talablariga mos keladigan ratsional to'la qimmatli ovqatlar, bola kun tartibini to'g'ri tashkil etilishi, yoshiga qarab uyquni tashkil etish, mehnat bilan dam olishni almashtirib turilishi, bolalarni sof havodan muntazam foydalanishni (sayr) shifokor nazorati.

### **Chiniqtirishning asosiy tamoyillari:**

1. Muntazamlilik
2. Chiniqtirish miqdorini asta-sekin va izchillik bilan oshira borish
3. Har bir organizmni o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish .

Endi bu tamoyillarni ko'rib chiqamiz:

1. Agar bola organizmni har kuni past yoki yuqori harorat ta'siriga duchor qilinsa, bu organizmda tegishli ravishda shartli reflekslar paydo bo'ladi. Masalan, O'zbekistonning issiq sharoitida yozda Rossiyaning o'rta mintaqasidan kelgan bolalar o'zlarini nisbatan yomon sezadilar: ular ko'p suv ichadilar, nafasleri qisiladi, tez-tez nafas oladilar. Hatto ularning organizmi ortiqcha qizib ketadi. Issiq iqlimda yashay

boshlaganlaridan keyin bu salbiy hollar yo'qoladi va bola asta sekin ko'nika boradi (adaptatsiya hosil bo'ladi). Past haroratga ko'nikishda ham xuddi shunday hol ro'y beradi. Biroq chiniqqanlik adaptatsiya hosila xususiyatlar bo'lib, chiniqtirish ishi to'xtatilishi bilan ular yo'qolib ketishi mumkin. Chiniqtiruvchi tadbirlarning mutazamliligiga, ya'ni ularning ahyon-ahyonda emas, balki muntazam ravishda olib borilishi kerak. Chiniqtirishdagi uzoq tanaffuslar organizmning hosila himoya reaksiyasini kuchsizlantiradi yoki yo'qotadi. Shu tufayli uzoq muddatli tanaffuslardan keyin chiniqtirishni boshidan boshlash, bir necha kunlik tanaffusdan keyin esa so'nggi o'tkazilgan mashqlardan boshlash zarur.

2. Chiniqtirishni katta miqdorda boshlamaslik va miqdorni asta-sekinlik bilan oshira borish zarur. Bolalarni chiniqtirishda hajmini asta-sekin va izchillik bilan oshira borish tamoyiliga amal qilish juda muhim ahamiyatga ega, bola qanchalik yosh bo'lsa, bu qoidaga rioya qilish shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Yoshlari teng bo'lgan bolalar o'z jismoniy rivojlanishlari salomatliklari sovuqni yoki oftob ta'sirini sezishlari bo'yicha bir-birlaridan farq qiladilar. Jismoniy yaxshi rivojlanmagan yoki yaqinda biror kasallikni boshidan kechirgan bola tashqi muhit sharoitining o'zgarishini so'g'lom va baquvvat bolalarga nisbatan ancha kuchliroq sezadi.

Bunday hollarda chiniqtirish miqdorini asta-sekinlik oshira borishda izchillik tamoyiliga rioya qilish juda muhim ahamiyatga ega. Chiniqtirish tadbirlarini boshlashdan oldin bolani shifokorga ko'rsatish zarur. Bolalarda biror surunkali kasallik (tonzilit, shamollash) ning kuchayish alomatlari sezilsa, chiniqtirish tadbirlarining boshlamaslik kerak. Ikkinchidan, yuqori nafas yo'llarining tez-tez yallig'lanib turishi, angina, chipqon, chiniqtirishni boshlash zarurligini ko'rsatuvchi alomatlaridir. Bunday hollarda ma'lumki, yuqorida ko'rsatilgan kasalliklar bilan og'rigan bolalar muntazam chiniqtirilganda, ular bunday kasalliklardan tuzalib ketadilar.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. 2020 yil
- 2.F.R.Qodirova, N.M.Qayumova va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. T. 2019
- 3.Mdo.uz
- 4.Lex.uz

## KATTA GURUHLARIDA JISMONIY MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH METODLARI.

*Choriyeva Durdona Anvarovna* TDPU PhD., v.v.b., dotsenti,  
*Sobirova Muhayyo* TDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti talabasi

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida rivojlanishi va uning istiqbol sari dadil borishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Bu yo'lda sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, texnika, iqtisod, ta'lim-tarbiya, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarda chuqur islohatlar olib borilmoqda. Ma'lumki, bu jarayonlarni hozirgi kun talablari asosida tashkil qilish va boshqarish asosiy maqsad hisoblanadi.

Shu sababli mamlakatimizning mustaqilligini to'la ta'minlash, uning jahonda taraqqiy etgan davlatlardan biri sifatida nufuzini xalqaro huquqlar asosida yuqori ko'tarish kabi faoliyatlar nihoyatda muhim. Bu faoliyatlarni amalga oshirishda esa mutaxassis kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlar, "Ilk qadam davlat dastiri"ning qabul qilinishi alohida ahamiyatga molikdir. Aholining salomatligini mustahkamlab borish, yoshlarning jismoniy va ma'naviy kamolotini oshirish, sog'lom avlod tarbiyasini takomillashtirish masalalari kelajagi buyuk davlat qurishning muhim omillaridan biridir. Turli yosh guruxlarida o'zaro bog'liq o'xshash mavzularni kiritilishi ularning individual imkoniyatlariga muvofiq uygun rivojlanish va butun maktabgacha yosh davrining turli guruxlarida bolalarni rivojlantirishda o'quv maqsadlari birligini va uzluksizligini ta'minlash orqali ta'limiy maqsadga erishilishiga olib keladi. Ta'limiy rivojlantirishda maktabgacha ta'lim konsepsiyasiga muvofiq pedagog L.S.Vigotskiyning quyidagi nazariyasiga tayaniladi: "Har qanday faoliyat turining rivojlanishi quyidagicha bo'ladi: avval kattalar bilan hamkorlikdagi, so'ng tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat amalga oshiriladi va nihoyat bolaning mustaqil faoliyati amalga oshiriladi".



Jismoniy mashqlar mashg'ulotlari katta guruhlarda haftasiga 2 ta mashg'ulot, tayyorlov guruhlarida 3 ta mashg'ulot o'tkaziladi. Ular katta guruhlarda 20–25 minut, tayyorlov guruhlarida esa 30-35 minut davom etadi. Tayyorlov guruhlarida uchinchi mashg'ulot kunning ikkinchi yarmida, uyqudan so'ng o'tkaziladi.

Mashg'ulotlarning mazmuni katta va tayyorlov guruhlarda bir tomondan ko'pgina yangi, ancha murakkab mashqlar hisobiga, ikkinchi tomondan egallab olingan ayrim malakalar beixtiyor amalga oshiriladigan harakatlar hisobiga murakkablashib boradi. Asosiy harakatlar qoidasini va umumrivojlantiruvchi mashqlar qoidasini o'rganishni chuqurlashtirish, ularni sifatini yaxshilash davom etadi.

Katta guruhlarda harakatlarni o'rganishning boshlanishidanoq odatdagi xatolarni o'z vaqtida aytib o'tish mumkin. U guruh bolalar bilan har doim o'tkaziladigan, amaliyotda ko'p qo'llanadigan aralash tipdagi mashg'ulotlardan tashqari mujassam mashg'ulotlar keng o'rin egallay boshlaydi. Bunday mashg'ulotlarda tarbiyachi faqat bir maqsadni ko'zlamasdan bir mashg'ulotda ikki va uchta maqsadni ko'zlashi mumkin. Masalan: bolalarni shakllar bilan tanishtirish, yurish, yugurishga o'rgatish, saflanish va qayta saflanishga o'rgatishni davom ettirish. Bu maqsadga erishish uchun tarbiyachi jismoniy mashg'ulotlarning kirish qismida bolalarni buben jo'rligida turli yurishlarga o'rgatib boradi va ularni turli shaklda (doira, to'rtburchak, uchburchak) saflanishlarni taklif etadi.

Bu yoshdagi bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish jarayonida og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlardan keng foydalaniladi va bolalarni mashg'ulotlarda uyushtirish metodlari frontal, guruhiy, individual, musobaqa metodlaridan foydalanadi.

Harakatlarni va harakat sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga mashq va o'yinlar o'tkazishning musobaqa metodi yaxshi yordam beradi. Endilikda bolalar harakatli musobaqalarda komanda tarkibida jamoa bo'lib ishtirok etishni uddalaydigan bo'lib qoladilar. Musobaqalar bolalarning harakat qobiliyatlari maksimal suratda namoyon bo'lishiga yordam beradi, harakat malakasi va sifatlarining jadal suratda takomillashuviga olib keladi. Ko'pincha tayyorlov guruhida turli o'yin-estafetalar o'tkazilgan vaqtda mana shunday komanda bo'lib musobaqalashishga to'g'ri keladi.

Bolalarning yuksak darajadagi harakat faolligini ta'minlash uchun mashqlarini bajarish vaqtida bolalarni uyushtirish metodlari xilma-xil bo'lishi lozim.

Maktabgacha katta yoshdagi bog'cha bolalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bilish faolligining o'sishi o'ziga xos xususiyatdir. Ular tarbiyachining ko'rsatmalarini qiziqish bilan bajaradilar, mashqning bajarilishi va tuzilishiga oid savollar beradilar, topshiriqni qayta ko'rsatib berishni so'raydilar, o'zlari mashqni qay darajada bajarganliklarini aniqlab oladilar. Tarbiyachi bolalarning aqliy faolligini uyg'otish maqsadida ularning bunday qiziqishlarini qo'llab quvvatlaydilar. Bolalar endi o'z malakalarini takomillashtirish uchun mashqlar qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini tushunadilar. Bu narsa shunga olib keladiki, bolalar ko'pincha o'zlari yaxshi bajara olmayotgan harakatlarni mustaqil ravishda mashq qila boshlaydilar. O'z harakatlarini va o'rtoqlarining harakatlarini baholashda tobora adolatli bo'la boradilar. Tarbiyachi bolalarning bir-birlariga yordam berish to'g'risidagi istaklarini rag'batlantiradi, ularga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan topshiriqlar beradi (asbob-uskunalarni tayyorlash, xonani yig'ishtirib qo'yish va shunga o'xshash).

Bolalar erkin harakat qilishni, harakatlarni ishonch bilan tez bajarishni yaxshi ko'radilar. Bu bolalarning muayyan ravishda mashq ko'rganliklaridan hamda ulardagi harakat sifatlari: kuch-g'ayrat, chaqqonlik va epchillikni hamda boshqa sifatlarni ma'lum darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Bu mahalda mazkur sifatlarni maxsus vositalar va metodlar bilan tarbiyalash boshlanadi. Masalan, tezkorlikni rivojlantirish uchun kichik-kichik oraliqlar bilan qisqa masofalarga tez yugurish bo'yicha musobaqa mashqlarini, kuch-quvvatni rivojlantirish uchun qarshilikni yengish bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil mashqlarni (to'ldirma to'p bilan bajariladigan mashqlarni juft-jut bo'lib bajariladigan mashqlar va boshqalar), chaqqonlik va epchillikni oshiruvchi mashqlarni va boshqa shu singari mashqlarni takrorlash ko'zda tutilgan.

Harakatlar mashg'ulot davomida hohlagan paytda qilinishi va baholanishi mumkin. Muhimi: ko'p vaqtni olmasligi va mashg'ulotlarning izchlligini pasaytirmasligi kerak.

Izchllikni oshirish maqsadida bolalar mashqlarini tashkil etishning xilma-xil metodlari, (uzluksiz, yoppasiga, smenali), bir xildagi jihozlarni ko'proq qo'llab, mashqlarni bajarish ma'quldir. Bolalar yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsalar, yil oxiriga kelib, ularni 2-3 guruhchalarga bo'lib mashg'ulot o'tkazish imkoni vujudga keladi, bunda har bir guruh o'z topshirig'ini bajaradi. Guruhlarga bo'lib topshiriq berish metodi tez-tez qo'llanilishi kerak emas, chunki katta guruh bolalari mustaqil ishlashga hali yetarli tayyor bo'lmaydilar. Tarbiyachi murakkab yoki yangi topshiriqni bajarayotgan guruh bilan birga bo'ladi. Boshqa guruh o'zlariga tanish topshiriqni tarbiyachi tayinlagan bola rahbarligida takrorlaydi. Guruhda harakatlanish topshiriqlarining qulaylik bilan birgalikda bajarilishini nazarda tutish muhimdir. Bolalar hammalari yoki bir vaqtda yoki navbatma-navbat bilan harakat qilishlari kerak.

Ma'lum harakatlarni mustahkamlash uchun ko'pincha har xil xususiyatlarga ega bir necha harakatli topshiriqlar ketma-ket bajariladi. Bir jihozdan ikkinchi jihozga o'tishda bolalar navbat bilan ko'rsatilgan harakatlarni bajaradilar: Xaltachani boshga qo'yib gimnastika skameykasidan yurib o'tadilar, so'ngra xaltachani arqondan oshirib tashlaydilar, uning tagidan emaklab o'tadilar, xaltachani oladilar, uni kaftlar ustiga qo'yib ikki oyoqda sakraydilar, gimnastika skameykasi oldiga kelib, dastlabki holatda turadilar.

Harakatlarning bolalar tomonidan baholanishi borgan sari mukammal va asosli xususiyat kasb etib boradi. Bola harakatlarning natijasigagina emas, balki uning go'zalligi va ifodaliligi ham harakatning sifatli bajarilishiga bog'liqligini tushuna boshlaydi. Mashqni qanday bajargani bola uchun muhim bo'lib qoladi. Bolalarning mashqlarni bajarish vaqtidagi o'z-o'zini nazorat qilishlari ham ortib boradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – Yengilmas kuch" T: 2008 y
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.
3. Ilk qadam davlat dasturi -2018 yil
4. V.G.Frolov. Sayrda jismoniy tarbiya mashg'ulotlar, o'yinlari va mashqlari. T., O'qituvchi 1990 .
5. D.J.Sharipova, L.M.Semenova. Kichkintoylarni gigiyenik tarbiyalash. T. O'qituvchi 1997
6. Bolangiz maktabga tayyormi? –T.: Ma'rifat-Madadkor, 1999.

7. O.Xasanboyeva va boshqalar “Oilada barkamol avlod tarbiyasi” T: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2010 yil

## ОРГАНИЗАЦИЯ ЭКСКУРСИЙ В ДОО

*Шокирова Фотима студентка факультета Дошкольное образование,  
направления Психология и педагогика дошкольного образования ТГПУ  
им. Низами*

Экскурсия в детском саду – мероприятие, которое очень нравится детям. В этой статье вы узнаете, как проводить, что должен знать воспитатель, какие существуют виды, какова методика проведения и организации.

Экскурсии в ДОО: что должен знать воспитатель

Экскурсия в ДОО – одна из форм образовательной деятельности, которая помогает знакомить дошкольников с окружающим миром.

Проведение мероприятия способствует решению трех групп задач одновременно:

- Образовательные – дети получают новые знания по тематике экскурсии, расширяют кругозор.

- Воспитательные – способствует развитию у дошкольников эмоциональной отзывчивости, формированию эстетических и нравственно-патриотических чувств.

- Развивающие – стимулируют мыслительные процессы, помогают развивать наблюдательность, внимание, воображение, сенсорные способности. Благодаря экскурсиям ребенок учится обобщать и систематизировать полученные знания, анализировать их и устанавливать причинно-следственные связи.

К проведению экскурсии в ДОО необходимо подготовиться заранее: определить место посещения, продолжительность мероприятия и его цели.

Чтобы достичь запланированных целей, нужно пробудить у воспитанников интерес к экскурсии еще до ее проведения. Важно подготовить детей к восприятию новых знаний, обеспечить позитивный настрой, что поможет малышам сосредоточиться на предмете изучения.

Рекомендуется проводить экскурсии в детском саду как минимум один раз в месяц. При организации мероприятия важно учитывать расстояние до намеченной цели. Продолжительность пешего пути не должна превышать в одну сторону:

- В средней группе – 30 минут.
- В старшей и подготовительной группах – 40-50 минут.

При этом необходимо учесть погодные условия, состояние дороги. Помните, что переизбыток информации способствует ослаблению внимания у детей. Первый кризис наступает на 15-17-й минуте, второй – через 10-15 минут после первого, третий и четвертый – через 8-10 минут, а затем – каждые 5 минут.

1. По форме проведения различают такие виды экскурсий в ДОО, как учебные и прогулочные. Первый вариант предусматривает изучение в ходе мероприятия определенной темы, второй подразумевает проведение природоведческих экскурсий, которые сочетаются с отдыхом на открытом воздухе.

2. По составу участников – воспитателю необходимо четко определить, сколько воспитанников примет участие в конкретном мероприятии: чем младше дети, тем малочисленнее должен быть состав.

3. По месту проведения – городские, загородные, музейные. Кроме того, существуют заочные или виртуальные экскурсии.

4. По типу передвижения – транспортные, пешеходные, комбинированные экскурсии.

При определении типа мероприятия преобладающим фактором становится возраст воспитанников. Кроме того, необходимо принять во внимание время года, погодные условия, а также расстояния до объектов экскурсии.

#### *Методика проведения экскурсий в ДОО*

Экскурсия – не увеселительная прогулка, а мероприятие, которые преследует определенные цели. Методика проведения экскурсий в ДОО подразумевает использование специальных педагогических приемов, чтобы удержать внимание детей, повысить их интерес, способствовать закреплению

полученной информации. В процессе экскурсии важно задействовать все органы чувств ребенка, чтобы новые знания усвоились максимально прочно.

*Стандартная структура экскурсии в ДОО:*

- вводная беседа;
- коллективное наблюдение за объектом;
- индивидуальное исследование;
- вопросы-ответы;
- подведение итогов экскурсии.

Основное условие – экскурсия должна быть живой и увлекательной, стиль изложения информации – мягкий и доверительный. Чтобы поддержать внимание воспитанников, педагог использует такие приемы:

- Юмор, шутки – смешные эпизоды из любимых сказок или мультфильмов, забавные четверостишья помогут детям лучше погрузиться в тему.

- Вопрос-ответ – после рассказа об объекте экскурсии ребята получают возможность задать интересующие их вопросы. Такой формат способствует активному вовлечению детей в беседу и помогает удерживать их внимание.

- Наглядные пособия – помогут переключить слуховое восприятие на зрительное. Например, во время экскурсии на природу воспитанники слушают, как поют птицы, а затем воспитатель показывает им картинки с изображением этих птиц.

- Исследования – выполнение несложных исследовательских заданий переключает внимание воспитанников. Задания простые, например, после изучения деревьев, которые растут в лесу, попросить детей сравнить форму листьев березы и клена, назвать цвета, которые их окружают.

- Элементы ритуала – применительно для военно-патриотических, исторических экскурсий. Например, при посещении Вечного огня предложить дошкольникам устроить торжественную минуту молчания и пояснить, в чем ее смысл.

Чтобы закрепить полученную информацию, в течение двух-трех дней необходимо обсудить результаты мероприятия с детьми. Например, после

прогулки в лес предложить воспитанникам изложить свои впечатления на бумаге и устроить выставку рисунков. Или провести дидактическую игру «С чьей ветки детки» – дети должны угадать, какие плоды соответствуют определенным видам деревьев: дуб – желудь, сосна – шишка и т. д. Если во время экскурсии дети посещали какое-то производственное предприятие, целесообразно провести беседу на тему «Кем работают мама и папа».

Организация экскурсий в ДОО предполагает тщательную предварительную подготовку педагога. Продумать следует многое – от выбора тематики в соответствии с возрастом воспитанников до наглядных пособий, которые можно использовать во время мероприятия.

## **MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH USTUVOR VAZIFALAR SIFATIDA**

**Z.Qodirova** NamDU katta o'qituvchi  
**M. To'xtaxo'jayeva** 3-bosqich talabasi

Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mujallangan Xarakterlar startegiyasida maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish va uni yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berildi. Bu muammolarni to'laqonli hal etishda o'qituvchi-pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan amalga oshirilayotgan ishlarni pedagogik taxlil qilish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarning samarali kechishini ta'minlash zaruriyati yuzaga keldi.

Xar bir mamlakatning iktisodiy kudrati, ijtimoiy-ma'naviy xayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining rakobatbardoshligi, ilm-fan tarakkiyoti bilan belgilanadi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakterlar startegiyasida ta'lim soxasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual saloxiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi” va Nizomda ham pedagog xodimlar tayyorlashga katta e’tibor qaratilib, maktabgacha ta’lim bo‘yicha yangicha fikrlay oladigan, xalq pedagogikasining ulkan tajribasi, milliy an’ana, qadriyatlarni, xalq ijodiyotining boy me’roslaridan bola tarbiyasida qo‘llay oladigan hodimlar tayyorlash masalasi alohida o‘rin egallaydi. Bu masalalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy va tarbiyaviy ishlarni rang-barang, yangicha yo‘nalishda tashkil etilishini taqozo etadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘tkaziladigan malakaviy pedagogik amaliyoti yakuniy ta’lim tizimining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Oliy ta’lim faoliyatining asosiy prinsipi bo‘lgan o‘qishni ishlab-chiqarish amaliyoti bilan qo‘shib olib borilishi, olingan nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olishning qulay imkonini yaratadi.

Malakaviy pedagogik amaliyot davrida talabalar ijtimoiy-siyosiy, pedagogika, psixologiya va maxsus metodika fanlaridan o‘zlashtirgan bilimlariga muvofiq, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik ko‘nikma va malakalarni egallab boradilar va ayni vaqtda o‘zlarining pedagogik layoqatlari hamda qobiliyatlarini sinovdan o‘tkazadilar.

Pedagogik amaliyotning moslashuv davrida bo‘lajak tarbiyachilarda:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o‘tkazish;
- maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan bola tarbiyasidagi muammoli masalalarni hal etish;
- maktabgacha ta’lim tashkiloti ishini har tomonlama o‘rganishi va tahlil qila olish malakalari shakllanadi.

Bundan tashkari bo‘lajak tarbiyachidan pedagogik faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi mutaxassis tarbiyachidan ilgor ish tajribalarini o‘rganish, innovatsiyalarni o‘zlashtirish va amaliyotga tatbik etishni talab etadi. Innovatsiyalarning jadal kirib kelishi tarbiyachilarni ilmiy-tadkikot ishlarida ishtirok etishga jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarbiyachilarning bunday tadkikot ishlariga jalb etilishi keyinchalik erishilgan natijalardan o‘z faoliyatida muvaffakkiyatli foydalanishga imkon beradi.

### **Adabiyotlar**



- 1.Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013y.
- 2.N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2019 y.
- 3.O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. T .: BMT Bolalar jamg‘armasi (YuNISEF), 2018 y.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI**

*Qidirboyeva Odina Ollayorovna TDPU talabasi*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishining xususiyatlari shundaki, bu davr muvaffaqiyatli va yetuk shaxsni shakllantirishdir. Bolalarning maktabgacha rivojlanishi bir necha yil davom etadi, bu davrda bolaga g‘amxo‘r ota-onalar va malakali tarbiyachilar kerak, shundan keyingina bola barcha zarur bilim va ko‘nikmalarni oladi. Maktabgacha yoshda bola so‘z boyligini boyitadi, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, mantiqiy va tahliliy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi, har bir keyingi yilda siz bolaning xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, atrof-muhit bilan tanishish usullarini hisobga olishingiz kerak. Bolaning maktabgacha rivojlanishi doimo bolaning o‘yin faoliyati bilan bevosita bog‘liq.

Shaxsni rivojlantirish uchun bola turli xil hayotiy vaziyatlarda atrofidagi odamlar bilan bemalol o‘rganadigan syujet o‘yinlari kerak. Shuningdek, bolalarni maktabgacha tarbiyalashning vazifalari shundaki, bolalarga butun dunyodagi o‘z rolini anglashga yordam berish, ularni muvaffaqiyatga undash va barcha muvaffaqiyatsizliklarga osongina dosh berishga o‘rgatish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda ko‘p jihatlarni hisobga olish kerak, ulardan beshta asosiysi, ular bolani maktabga tayyorlashning butun yo‘lida va uning keyingi hayoti davomida silliq va uyg‘un rivojlanishi kerak.

Maktabgacha tarbiyaning beshta asosiy elementlari:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi. Bu bolaning asab tizimining rivojlanishi va uning refleks faolligi, shuningdek, ma’lum irsiy xususiyatlar. Rivojlanishning bu turi, birinchi navbatda, irsiyat va chaqaloqning yaqin atrof-

muhitiga ta'sir qiladi. Agar siz bolangizning barkamol rivojlanishiga qiziqsangiz, otanalarga chaqaloqni yaxshiroq tushunishga va u bilan iloji boricha samarali muloqot qilishni o'rganishga yordam beradigan maxsus treninglarga e'tibor bering. Bunday treninglar tufayli bola maktabgacha yoshdagi rivojlanishdan osongina o'tadi va juda muvaffaqiyatli va o'ziga ishongan shaxs bo'lib ulg'ayadi.

Hissiy rivojlanish. Rivojlanishning bunday turiga chaqaloqni o'rab turgan mutlaqo hamma narsa - musiqadan tortib, bolaning yaqin atrofidagi odamlarni kuzatishgacha ta'sir qiladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishiga o'yinlar va ularning hikoyalari, bolaning bu o'yinlardagi o'rni va o'yinning hissiy tomoni katta ta'sir ko'rsatadi.

Kognitiv rivojlanish. Kognitiv rivojlanish - bu axborotni qayta ishlash jarayoni bo'lib, buning natijasida bilimlarning yagona omboriga turli xil faktlar qo'shiladi. Bolalarning maktabgacha tarbiyasi juda muhim va bu jarayonning barcha bosqichlarini hisobga olishni talab qiladi, ya'ni: bola qanday ma'lumot oladi va uni qanday qayta ishlash va amalda qo'llash mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning uyg'un va muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun siz quyidagi ma'lumotlarni tanlashingiz kerak:

- nufuzli manbadan kerakli odamlar tomonidan taqdim etilgan;
- barcha kognitiv qobiliyatlarni qondirish;
- ochilgan va to'g'ri ishlov berilgan va tahlil qilingan.

Ixtisoslashgan markazlarda bolalarning maktabgacha rivojlanishi tufayli farzandingiz eng zarur ma'lumotlarni oladi, bu uning umumiy rivojlanishiga, shuningdek, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga juda ijobiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi. Rivojlanishning bu turi idrokning yoshga bog'liq xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan barcha jihatlarni o'z ichiga oladi. Uch yoshda bolaning o'zini o'zi bilish jarayoni boshlanadi, fikrlash rivojlanadi, faollik uyg'onadi. Har qanday markazda tarbiyachilar bolaga rivojlanishdagi psixologik muammolarni engishga yordam beradi, bu esa bolaning tez ijtimoiylashuviga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirish. Nutqni rivojlantirish har bir bola uchun individualdir. Ota-onalar, shuningdek, tarbiyachilar bolaning nutqini shakllantirishga, uning soʻz boyligini kengaytirishga va aniq diksiyani rivojlantirishga yordam berishlari shart. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi bolaga ogʻzaki va yozma nutqni oʻzlashtirishga yordam beradi, chaqaloq ona tilini his qilishni oʻrganadi va murakkab nutq usullaridan osongina foydalana oladi, shuningdek, zarur muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshda jismoniy va maʼnaviy kuchning jadal toʻplanishi mavjud. Bola tez oʻsadi, butun tanasi dinamik rivojlanadi, yuqori asabiy faoliyat jarayonlari murakkablashadi. Bola atrofdagi dunyo signallariga nisbatan sezgir boʻlib, ularni tahlil qilish va sintez qilish qobiliyatini namoyon qiladi. Boshdan kechirgan voqealardan olingan bilim va taassurotlar uning xotirasida faol ravishda toʻplanadi. Ular oʻsib ulgʻaygan sayin, tashqi dunyo obyektlari chaqaloqni tobora koʻproq jalb qiladi, uni savollar berishga va tushuntirishlarni izlashga majbur qiladi, tasavvur va fantaziyani qoʻzgʻatadi. Maktabgacha yoshdagi bola psixikasi rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari. Qoida tariqasida, maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishiga bir qator yangi ehtiyojlarning paydo boʻlishi bilan yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar taʼsir qiladi, ularning asosiylari:

- aloqa;
- tashqi taassurotlar;
- jismoniy faollik.

Boshqa odamlar bilan muloqot qilish va jismoniy faollikni oshirish tufayli maktabgacha yoshdagi bola maʼlum bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tajriba unga passiv tarzda emas, balki proaktiv idrok shaklida keladi. Yangi tajribalar kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Haqiqiy dunyoni tushunish bolalarda nafaqat ijobiy his-tuygʻularni uygʻotadi, balki qiziqishni ham rivojlantiradi. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarda tushunishga boʻlgan ehtiyoj shunchalik rivojlanganki, oʻquv jarayonida yangi bilimlarni olishga qiziqish paydo boʻla boshlaydi va bu ehtiyoj maktabda qondiriladi.

## **BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH METODIKASI**

*G`ulomidinova Aziza "Maktabgacha ta`lim" fakulteti talabasi*

Maktabgacha yoshdagi bola san`atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo`lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san`at obrazlarini yaxlit va emotsional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab yetishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, yorqin va ritmik marsh musiqasini tinglar ekan, bola eng avvalo, uning ko`tarinki kayfiyatini qabul qiladi va uning muayyan harakat xususiyati bilan aloqasini ilg`ab oladi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emotsional munosabat bildirish va sensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularni tegishli hayot hodisalari bilan qiyoslaydi va o`zining birinchi umumlashtirmalariga keladi. Ayni paytda ular uni to`qib to`ldiradilar, ayrim lavhalarni takomillashtiradilar, o`z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to`qiydilar, badiiy ertaklar asosida o`yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafaqat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy obrazlarni yagona emotsional-mazmun dominantasi asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar. Bolalar adabiy janrlarni farqlay boshlaydilar: ertaklar, hikoyalar, she`rlar; taqqoslashlar, giperbola kabi ayrim ifoda vositalarini ko`rishga qodirdirlar; she`riy ertak kayfiyatini intonasiyalar yordamida ifodalab berishlari mumkin masalan: yumor, lirika, tantana. Bayoniy matnlarning an`anaviy uch qismli tuzilmasi (kirish, harakatning rivojlanishi, yakun) va ularning stilistik vositalari (an`anaviy kirish formulasi, ertak yakuni, takrorlash va boshq.) xaqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi[1].

Uch-to`rt yoshlarda bolalar adabiy ertaklarni tanlashga qodirdirlar: ular ayrim adabiy qahramonlarni biladilar va sevadilar, o`zlari uchun muayyan ertakni ajratib oladilar va doimo ularni o`qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o`zlari ham yoqib qolgan she`riy matnlarni ko`p martalab takrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko`rish yaqqol sezila boshlaydi.

Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

- Turli janr va mavzulardagi adabiy ertaklarni – ertaklar, xikoyalar, she'rlarni, she'riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- Bolalarni ayrim ertaklar va ularning aynan bir xil qaxramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;

- Tarbiyachi bilan birgalikda tanish ertaklarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman saxnalashtirishga jalb qilish;

- Bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik variatsiyalari uchun qulay sharoit yaratish;

- Bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;

Yetti yoshga kelib bola:

O'ziga yoqqan nechta ertaklar nomlarini aytishi; senga qaysi kitob yoqadi? U nima haqida? Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi? Bu ertakda yana kimlar bor? Ular nima qildilar? Bularning barchasi qanday tugadi? kabi savollarga javob bera olishi mumkin;

- Suratlarini o'ziga tanish bo'lgan ertakdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortiqcha personajning surati chiqsa, bola uni chetga olib qo'yadi, biroq pedagog iltimosiga ko'ra, agar ushbu qaxramon xam ertakda ishtirok esa nima ro'y bergan bo'lishi mumkinligini o'ylab topadi;

- O'zi xohlagan kichik she'r (ovunmoq) yoki ritmik tashkil etilgan matnni (bo'g'irsoq qo'shig'i, ertakning ayrim leytmotivlari) emotsional tarzda aytib berishi mumkin.

- Mustaqil faoliyatda – o'yinda, rasm chizishda va boshqa kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi[2].

Bolaning badiiy adabiyot bilan o‘zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taqlidchilikdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak.

Pedagog bolalarning nisbatan yirik hajmdagi adabiy ertaklar syujetlari asosida o‘yinli «hayolotdagi olamni» yaratishlariga ko‘maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy ertak (mualliflik ertagi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu ertakning «hayolotdagi olamini» olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o‘yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida «yashashi» mumkin.

#### **Adabiyotlar:**

1. Shodiyeva Q. O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish. -T.: O‘qituvchi, 2010y.
2. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. ..”Barkamol fayz mediya” 2018y.

## **2 - SHO‘BA. “MAKTABGACHA TA’LIMDA ZAMONAVIY O‘QITISH SHAKLLARI, YANGI PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISH”**

### **BOLALARNI ATROF-OLAM VA TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

*Abdullayeva Nozima Nizomiy nomidagi TDPU  
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi*

Bugungi tezkor zamonda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo’li – mashg’ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashkil etish, deb qaralmoqda. Xo’sh, interfaol metodlarning o’zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o’rinli, maqsadga muvofiq qo’llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyida ana shu savollarga javob berishga harakat qilamiz. Yuqoridagi savollarga javob topishda dastlabki eng to’g’ri qadam tayanch tushuncha – “interfaol” atamasining lug’aviy ma’nosi bilan tanishishdir.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilidagi “interact”(rus tilida “interaktiv”) so’zidan olingan bo’lib, lug’aviy nuqtai nazardan “inter” – o’zaro, ikki taraf lama, “act” – harakat qilmoq, ish ko’rmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko’nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o’zlashtirish yo’lida birgalikda, o’zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim. O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov “Agar bolalar erkin fikrlashni o’rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo’lishi muqarrar” deb ta’kidlagan [1]. Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o’qitishning zamonaviy metodlari keng qo’llanilmoqda. O’qitishning zamonaviy metodlarini qo’llash o’qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasi o’sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy

pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda keng tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun mashg'ulot jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;



- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;

-ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi. Shunday qilib, ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash ta'lim oluvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin [2].

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blist-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta'lim” va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va h/k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. **Interfaol grafik organayzerlar:** “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining

faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Interfaol ta'lim metodlarining turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan qo'llash uchun qulayligi bir muncha shartli va aslida muayyan o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko'p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo'lida qo'llash mumkin ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabatlar shakllarida tashkil etiladi:

An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai tarbiyachining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u mashg'ulotning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida bolajonlarga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish bolajonlarnigagina xos bo'lib, bolajonlarlar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. I.A. Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori» T. «Sharq», 1997y.
2. Babayeva D.R. «Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi» T.: -2018y.

### **MADANIYAT VA SAN`AT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA TA`LIMINING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI**

**Abdullayeva I.X.** *Nizomiy nomidagi TDPU 1-bosqich magistri*

Musiqani qalbi go'zallikka oshno insonlargina sevadi, anglaydi. Musiqa tinglash, uni idrok etish bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Ulug' yozuvchi Chingiz Aytmatov aytganidek, «Faqat musiqagina zamonlarga xos yolg'on aqidalarni yengib o'tib, mudom kelajak sari intiladi»<sup>25</sup>.

O'zbek xalqi ma'naviyatida millat o'tmishi, hozirgi kuni o'z ifodasini topgan bo'lib, jahonshumul kashfiyotlarni yarata olgan minglab allomalarni yetishtirib bergan o'lka hisoblanadi. Ular umumbashariy ahamiyatga ega ma'rifatning shakllanishiga

---

<sup>25</sup> Qodirov.R. Musiqa pedagogikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: «Musiqa» nashriyoti, 2019. – B.38.

o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Shuning uchun ham o'zbek milliy-ma'naviy merosi jahon madaniyatining ajralmas qismi, uzviy bo'lagidir.

Sharq allomalari va mutafakkirlarining asarlarida ifodalangan ma'naviy-ahloqiy fikrlar, musiqa san'atiga bo'lgan ijobiy qarashlar, san'atni ulug'lash, yoshlar qalbini go'zallikka, nafosatga oshno etishdek ulug' maqsadlarni insonlar ruhiyati va ma'naviyati taraqqiyotida rivoj topishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma'daniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Bu qaror—"Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq"<sup>26</sup>: fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya tizimiga birmuncha yangiliklar, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi: Ya'ni

- 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy

---

<sup>26</sup> Ma'daniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori// Yangi O'zbekiston.;2022yil 4-fevral №25

madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Unga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga ya'ni shahodatnomasiga tegishli qayd kiritiladi, musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladi. Bu esa biz uchun anchayin quvonarli yangilik desak mubolag'a bo'lmaydi Sababi, maktablarda san'at sohasiga, musiqa darsiga beriladigan e'tiborning natijasi kelajak avlodning kamolotida o'z ifodasini topadi.

Mazkur qaror biz pedagoglarning oldimizga anchayin katta ma'suliyatni ham yukladi, nagaki, musiqa madaniyati fani o'qituvchisi milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari;

➤ musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholg'u” shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yiladi;

➤ notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritiladi;

➤ o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko'ra milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish mahorati yo'nalishida amaliy to'garaklar tashkil etiladi va har chorakda to'garak ishtirokchilarining hisobot konsert dasturlari tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

Qaror doirasida barcha ta'lim sohasi vakillari, pedagoglar, ta'lim oluvchilar ya'ni millatimiz kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlarning manfaatlari asosiy o'rinni egallagan. Shu nuqtai nazardan biz pedagoglarni quvontiradigan yana bir jihatga e'tiboringizni qaratmoqchiman; musiqa san'ati bo'yicha professional ta'lim hamda oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatga ega bo'lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg'ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarni asosiy ish joyidan bo'sh vaqtida u

yerdagi mehnatga haq to'lash shartlarini saqlab qolgan holda o'rindoshlik asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari musiqa fani o'qituvchisi va musiqa yo'nalishidagi to'garak rahbari lavozimiga to'liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi, shu bilan birga musiqa fani o'qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etishga o'rgatish xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg'ulot olib borish uchun madaniyat va san'at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etiladi.

Barcha talim muassasalarda shuningdek, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida:

O'zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan boshqa madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda lektoriy kontsertlarini o'tkazish yo'lga qo'yiladi;

- lektoriy kontsertlari ta'lim va madaniyat muassasalarida tashkil etiladi hamda o'quvchi va talabalarning musiqiy madaniyati va savodxonligini yuksaltirishga, estetik didi, dunyoqarashini kengaytirishga va musiqani his qilishiga qaratilgan amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'ladi;
- lektoriy kontsertlarining o'tkazilganligi haqida tegishli ta'lim, madaniyat muassasasi, tuman (shahar) hokimligi yoki boshqa mas'ul tashkilot rahbari va O'zbekiston davlat filarmoniyasi bosh direktori tomonidan dalolatnoma tuziladi;
- muassasalarida madaniyat va san'at sohasidagi davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ijodkorlar rahbarligida ularning “mahorat maktablari” tashkil etiladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, madaniyat va san'at borasida yoshlarning intilishlarini qo'llab-quvvatlash ularni qalblarini o'zbek xalq musiqa san'atiga oshno qilib tarbiyalash maqsadida qarorga kiritilgan bir necha bandlarni takidlab o'tish joizdir: Quvonarlisi shundaki, 2022-2024 yillardan boshlab respublikamizning barcha umumta'lim maktablarida 3 tadan milliy musiqa cholg'ulari to'plamlari bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o’rganilishi, an’ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o’zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog’liqdir”. Binobarin biz yuqorida tahlil etgan ushbu qaror ham millat kelajagi va yoshlar kamoloti uchun xizmat qiladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida.” O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so’zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral soni va Internet resurs: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. K.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari.T. «Fan», 2006 yil.

#### **O‘QUVCHILARDA DIQQATNI RIVOJLANTIRISHDA O‘QITUVCHI , PSIXOLOG VA OILANI O‘RNI.**

*Nilufar Abdullaeva Sodiqjanovna NamDU. doktoranti*  
*Masuda Abdullayeva Abdubannayevna NamDU MTT kafedrası p.f.n.dotsent*

Respublikamizda boshlang‘ich ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va ruhan yetuk bola shaxsini tayyorlashda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Barkamol avlod kamoloti g‘oyasini oilaga tadbqiq etish uchun istiqolning dastlabki kunlaridanoq milliy ma’naviyat, qadriyat, milliy ta’lim va tarbiya muammolarini hal qilishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari bo‘yicha ta’lim tizimida olib borilayotgan ishlarga yanada ehtiyoj ko‘pligi aniqlandi. Boshlang‘ich sinflarda ixtiyoriy, barqaror diqqatni shakllantirish, o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirish, o‘qishga qiziqish, ijtimoiy muammolarga nisbatan kreativ yondoshishni takomillashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatni ta’lim jarayonida rivojlantirish, diqqatning va o‘zlashtirishga

chambarchas bog‘liqligining psixologik jihatlarini ta‘minlash hamda turli yosh davrlarida kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Boshlang‘ich ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017 yil 19 oktabr kuni ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida “ zamonaviy talablarga javob beradigan ilg‘or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o‘quv va o‘quv metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish. farzandlarimizga bilim asoslarini, eng zarur hayotiy tushuncha va ko‘nikmalarni o‘rgatadigan zamonaviy tarbiya usullarni yaratish vazifalari yuklatilgan.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Chunki kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatni rivojlantirish, ularda bilimlarni o‘zlashtirishning, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda o‘qituvchini , psixologni vazifasi muhim bo‘lib hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatning taqsimlanish xususiyati qiz bolalarda kuchli rivojlanganligi, diqqatning barqarorligi va ko‘chuvchanligi o‘g‘il bolalarda qizlarga nisbatan kuchli darajada namoyon bo‘lishi empirik tadqiqotlar asosida aniqlangan, o‘quvchilarda diqqatning shakllanishi o‘qituvchining o‘quvchiga munosabati kabi obyektiv omilga hamda shaxsning individual psixologik xususiyatlaridan biri hisoblangan temperamentiga, o‘quv motivatsiyasi kabi subyektiv omillarga bog‘liqligi korrelyatsion tahlillar asosida aniqlangan. O‘quvchilarda diqqatning taqsimlanish xususiyati qiz bolalarda kuchli rivojlanganligi, diqqatning barqarorligi va ko‘chuvchanligi o‘g‘il bolalarda qizlarga nisbatan kuchli darajada namoyon bo‘lishi empirik tadqiqotlar asosida aniqlangan. Mazkur empirik ko‘rsatkichlardan o‘quv jarayonida foydalanish natijasida bo‘lg‘usi pedagog-psixolog va amaliyotchi psixologlarga differensial psixologiyani o‘qitishda uslubiy ta‘minot takomillashtirilgan hamda nazariya va amaliyot uzviyligi kuchaytirilgan, o‘quvchilarda diqqatning shakllanishi o‘qituvchining o‘quvchiga munosabati kabi obyektiv omilga hamda shaxsning individual psixologik xususiyatlaridan biri hisoblangan temperamentiga, o‘quv motivatsiyasi kabi subyektiv omillarga bog‘liqligi

korrelyatsion tahlillar asosida aniqlangan. O'quvchining diqqatini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish, obyektiv tavsiflash imkoniyatlari oshirish, o'quvchilarda diqqatni rivojlantiruvchi korreksion dastur tuzilgan dasturiy takliflarning amaliyotga joriy etilishi natijasida psixolog kadrlarning o'quvchilarga psixologik xizmat ko'rsatish, ularda bilish jarayonlarining asosi hisoblanmish diqqatni shakllantirish uchun zarur ilmiy-amaliy hamda uslubiy tayyorgarligi takomillashtirilgan.

O'quvchilarda diqqat rivojlanishining yosh va jins farqlari, diqqatni rivojlanganlik darajasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda diqqatning rivojlanishini aniqlash bo'yicha olib borilgan empirik tadqiqot natijalarining aroflacha taxlili keltirilgan. O'quvchilarda diqqatni rivojlanishtiruvchi korreksion-rivojlantiruvchi dastur mazmuni bayon etilgan. Korreksion-rivojlantiruvchi dasturini tuzishda psixokorreksiya va psixologiyaning bir nechta tamoyil va yo'nalishlarini asos qilib olingani bois dastur o'ziga xos mantiqiy izchillikni o'zida namoyon etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni o'z vaqtida rivojlantirmasa, bu uning o'qish va mehnat faoliyatida keskin muammolarni keltirib chiqaradi. Diqqat barcha bilish jarayonlarining tuynugi bo'lganligi sababli uning yaxshi shakllanmaganligi to'liq olamni bilish va anglashga halaqit qiladi. Keyinchalik buning oqibatida shaxsning psixik holat va xususiyatlarida og'ishlar ham kelib chiqadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki diqqatning shaxs faoliyatiga, bilish jarayonlariga ta'siri bilan bog'liq turli salbiy oqibatlarining oldini olish, komil inson tarbiyalash g'oyasiga tayangan holda ishlab chiqish, ota-onalar bola tarbiyasida ixtiyoriy diqqat va xotirani rivojlantirish, bola o'z diqqatini aniq bir narsaga qaratishi, shuningdek, aniq bir narsani eslashi kerak (telefon raqamini, manzilini, she'rni, hikoyani eslashi),bola o'z fikrlarini og'zaki ifoda eta olishi kerak.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston. 2017.-592 b.
2. Ayzenberg B.I. Raspredelenie vnimaniya v myslitelnoy deyatelnosti uchaxixsya massovoy i vspomogatelnoy shkolы. Avtoref.... k. ps. n. - M., 1986. - 16 s.



## O‘QUVCHILAR SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMNING VOSITALARI

**Abdunazarova Zebinisa Xudoyshukurovna** –Termiz davlat universiteti 2 bosqich magistranti

Ta’lim-tarbiya jarayoni sifati samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ta’lim vositalari bilan qay darajada ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim jarayonini amalga oshirishda yordam beruvchi vositalarga ta’lim vositalari deyiladi. Ta’lim vositalari uchga bo‘linadi: aniq, texnik va chop etilgan o‘quv materiallari .

Aniq ta’lim vositalarga o‘qitishda qo‘llaniladigan barcha aniq vositalar, xususan: mashina, taraktor, jihoz, dastgoh, tayyor mahsulotlar va hokozalar kiradi. Texnik vositalarga proektor, kino apparat, o‘quv televideniyasi, vediomagnitafon, kompyuter vediofilmlar, multimedia va boshqalar kiradi. Bundan tashqarii sinf doskasi, doska-stend, doska-bloknot, kodoskoplar ham texnik vositalarga kiradi. Chop etilgan o‘quv materiallariga barcha chop etilgan o‘quv va ko‘rgazmali materiallar kiradi. Jumladan, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, tarqatmali materiallar, ishchi varaqalari, nazorat (test) varaqalari, ma’ruza matnlari, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalari, topshiriq kartochlari va boshqalar.

**1. O‘qituvchi uchun vositalar:** o‘quv predmetini o‘qitish metodikasi bo‘yicha qo‘llanmalar, shaxsiy metodika, murakkab masalalar bo‘yicha metodik tavsiyalar, o‘qituvchilar tomonadan tayyorlangan metodik ishlanmalar, mantiiqiy struktura va boshqalar.

**2. O‘quvchi uchun vosita:** darslik, o‘quv qo‘llanma yoki o‘qituvchining ma’ruza matnlari, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalari, topshiriq kartochkalari va boshqalar.

**3. Dars o‘tish uchun vosita:** plakatlar, diagrammalar, modellar, maketlar, etalonlar, namoyish qilish jihozlari, laboratoriya Amaliy ishlarini o‘tkazish uchun jihozlar, diafilm va boshqalar.

Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to‘ldirishi ya’ni uyg‘unlashuvi kerak. Chop etilgan o‘quv materiallari ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlashi va ularning faollashuviga ko‘maklashadi. Shuningdek, o‘qituvchi uchun yuqorida

keltirilgan ta'lim vositalarini dars o'tish jarayonida to'g'ri tanlashi muhim ahamiyatga egadir.

**Sinf doskasi** – o'quv materialini vizual namoyish qilishning an'anaviy va qulay vositasidir. Undan o'quv materialining asosiy tayanch nuqtalarini belgilashdi yoki biror narsani tez yozish lozim bo'lganda foydalanish juda qulaydir. Bundan tashqarii sinf doskasi ta'lim muassasasining har bir o'quv xonasida mavjud.

**Kamchiligi:** yangi materialni tushuntirish uchun doskada yozilganlarni o'chirishga to'g'ri keladi, avval yozilganlarni qayta ko'rsatish imkoni bo'lmaydi. Bundan tashqario'qituvchi doskaga yozayotganida tahsil oluvchilarga teskari holatda bo'lib, uni eshitish qiyin bo'ladi.

**Doska-stend** – mashg'ulotlarda o'quv munozaralari, aqliy hujum, guruh ishlari va boshqa muhokamalar natijalarini hujjatlashtirishda foydalaniladigan o'qitishning texnik vositasidir. Bunda, stendga o'sha kattalikdagi qog'oz qo'yiladi va unga turli rangdagi hamda shakldagi kartochkalar yopishtiriladi. Mashg'ulot davomida stenda mazkur kartochkalar yordamida ilovalar, tuzilmalar, sharhlar va shu kabilarni tuzish mumkin. Uning afzalligi shundaki, kartochka (ilova, tuzilma, sharh) lar joylashuvini xohlagan vaqtda o'zgartirish imkoniyati mavjud. Shuningdek, doska-stend bilan ishlaganda qisqa vaqt davomida barcha tahsil oluvchilarning fikr-mulohazalari va g'oyalarini qamrab olish va qayd etish imkoniga ega bo'linadi.

**Kodoskop (grafoproektor)** – shaffof plyonkadagi tasvir (slyayd) niekranga proeksiyalash uchun qo'llaniladigan jihoz hisoblanadi. Undan ma'ruza vaqtida materiallarni namoyish qilish uchun, shuningdek, guruh ishlari taqdimotida yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Kodoskop foydalanish uchun qulay, moslashuvchan vosita bo'lib, bir marta foydalangan plyonkadan ko'p marta foydalanish mumkin, bundan tashqarii doska bo'lmagan hollarda asosiy tushunchalar, g'oyalar va natijalarni o'qituvchi plyonkaga flomaster yordamida to'g'ridan-to'g'ri yozib ko'rsatishi mumkin.

**Tarqatmali materiallar** – ta'lim oluvchilar uchun o'rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo'lmagan (1, 2 varaq) yozma o'quv materiali hisoblanadi. Mazkur materiallar Mashg'ulot ishini qiziqarli qilish

imkonini berib, ko‘p hollarda ta’lim oluvchilar uchun mustaqil ravishda o‘qib chiqib muhokama qilish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bulsak, ta’lim-tarbiyaning sifati samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan o‘tkazilayotgan mashg‘ulotning ta’lim vositalari ta’minlanganligiga va moxirlik bilan qo‘llashga bog‘liq.

### **Adabiyotlar**

1. Avazov Sh.,Muslimov N., Qosimov Sh., Xodiyev U., Avazov E. Kasb-hunar kollejlarda amaliy kasbiy ta’lim metodikasi va texnologiyalari(chizmalar, jadvallar va suratlarda) Kasb-hunar kollejlarda amaliy kasbiy ta’lim metodikasi va texnologiyalari(chizmalar, jadvallar va suratlarda). Metodik qo‘llanma. Toshkent: “NAVRO‘Z”, 2014. -300 b.
2. B.D.Ulugov , S.U. Kasimov Application of Pedagogical Information Technologies in the Educational Process of Universities in Uzbekistan. International Journal of Information and Communication Technology Education (IJICTE) , DOI:10.4018/IJICTE.20211001.

## **TA’LIM MUHITI – BOLALARNING TO‘LAQONLI TA’LIM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHARTI**

### **Abduqaxxarova Oyjahon Sultonboy qizi**

*Namangan davlat universiteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi*

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yaxshi jihozlangan rivojlantiruvchi muhitsiz to‘laqonli ta’lim faoliyatini tashkil etish mumkin emas. Axir, uning asosiy poydevori – bolalar ta’lim oladigan “Rivojlanish markazlari”dir. Guruhda biron-bir narsa shunchaki joylashtirilgan bo‘lishi kerak emas. Guruhdagi barcha narsalar bolalarning bilimini oshirishga qaratilgan, pedagogik yoki tarbiyaviy (ahloqiy, estetik) ta’sirini bajarishi kerak. Ya’ni, odatdagi oilaviy muhit bilan taqqoslaganda, MTTdagi muhit jadal rivojlanib boruvchi, bolaning bilim va qiziqishlari, ixtiyoriy fazilatlari, hissiyotlari paydo bo‘lishi va rivojlanishiga turtki bo‘lishi kerak. Maktabgacha yoshdagi guruhda subyektiv rivojlanish muhitini tashkil qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: guruhdagi materiallar, jihozlar, inventarlar xilma-xilligi. Imkoniyati har xil bo‘ladigan jihozlar qismlaridan foydalanish (bolalar mebellari, matlar, yumshoq modullar, ekran va boshqalar); bolalarning yosh xususiyatlariga va “Ilk qadam”

DO‘Dga muvofiqligi ; atrof-muhitning o‘zgaruvchanligi (ta’lim sharoitiga, bolalarning o‘zgaruvchan qiziqishlariga qarab) subyektiv rivojlanish muhitdagi o‘zgarishlarni ta’minlaydi; subyektiv rivojlantiruvchi muhitning o‘zgaruvchanligi (o‘yin, qurishyasash, yolg‘izlik uchun muhitlar mavjudligi, o‘yin materialining davriy o‘zgarishi, bolalarning erkin tanlashni ta’minlash uchun turli materiallar va o‘yinchoqlar, bolalarning o‘yin, harakatli, bilim olish va tadqiqot faoliyatini rag‘batlantiruvchi yangi narsalarning paydo bo‘lishi); foydalanish imkoniyati (ta’lim faoliyati olib boriladigan barcha xonalarning tarbiyalanuvchilar uchun ochiqligi, bolalar faoliyatining barcha turlarini ta’minlaydigan o‘yinlar, o‘yinchoqlar, qo‘llanmalardan bemalol foydalanish, materiallar va jihozlarning ishlashi va xavfsizligi); muhitning xavfsizligi (uning barcha elementlarining ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlashi). Bolalarning emotsional farovonligini ta’minlash uchun MTTda va guruhda muhit qulay, deyarli uyday bo‘lishi kerak. Shunday bo‘lgach, bolalarning o‘zlashtirishi tezlashadi, ular o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etadilar. Qulay muhit – bu bolaga qiziqarli va sevimli faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan qulay va ishonchli muhit. Ta’lim muhitining mavjudligini kiyinish xonasiga kirishdanoq ko‘rish mumkin: “Guruh burchagi” va “Ota-onalar burchagi”, bu yerda ota-onalar uchun juda ko‘p foydali, zarur ma’lumotlar mavjud: ta’limiy faoliyat jadvali, kun tartibi, ota-onalar uchun foydali maslahatlar va boshqalar. Nega biz ota-onadan boshladik? Har bir pedagog ushbu joydan bolalarning ta’lim faoliyatida ota-onalar bilan hamkorlik qilish uchun to‘liq foydalanishi mumkin: haftaning mavzusini ilib qo‘yish, bola bilan suhbatlashish uchun mavzularni tavsiya etish va uyda bola bilan qanday ta’lim-tarbiyaviy ish olib borishni taklif qilish. Shuningdek, guruhga kirish xonasida bolalarning ijodiy ishlari ilingan stendlar mavjud: rasmlar va qo‘l mehnatlari ko‘rgazmalari. Farzandining ishini ko‘rib, ota-ona uni maqtaydi va shu bilan o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Har bir bolalar shkafida alifbo harflari tasvirlangan belgi qo‘yiladi – bola 3 yoshdan harflarni bexosdan eslab qoladi. Guruh xonasining kirish qismida “Xavfsizlik burchagi” joylashgan. Unda yong‘in xavfsizligi, ko‘chada va uyda bolalarning xavfsizligi, yo‘l harakati qoidalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilgan. Bola yana ma’lumotni vizual tarzda oladi. Guruh xonasidagi “Til va nutq” markazida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining portreti, “Sharqning buyuk siymolari”, davlatimiz ramzlari aks etgan albom, “O‘zbekiston shaharlari”, “Ona zamin tabiati” aks etgan fotosurat va rasmlar, amaliy san’at asarlari va boshqalar mavjud. Ushbu burchak har doim guruhda bor. Bolalar albomlar, rasmlarni ko‘radilar va o‘zlariga kerakli ma’lumotlarni oladilar va eslab qoladilar. Pedagog faqat haftaning mavzulariga va muhim sanalarga qarab materialni vaqti-vaqti bilan o‘zgartirishi mumkin. Sport burchagi tarbiyalanuvchilarni harakatdagi ehtiyojlarini qondirish va ularni sog‘lom turmush tarzi bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Buning uchun zarur barcha jihozlar mavjud: gimnastika o‘rindiqlari, zinapoyalar, katta va kichik to‘plar, sakrash arqonlari, halqa, gimnastika tayoqlari, keglilar va nostandart jihozlar: tasmalar, rangli bayroqlar, qum qopchalari. Bola sport anjomlaridan foydalanadi va jismonan rivojlanadi. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim faoliyatini mavzuviy rejalashtirish” har bir yosh guruhlari uchun oyning mavzularini, haftaning mavzularini aks ettiradi va beshta rivojlantirish markazlarida ta’limiy faoliyat tashkil etiladi:

“Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika” markazi, “Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” markazi, “Til va nutq” markazi, “Ilm fan va tabiat” markazi, “San’at” markazi

Gap ular ko‘tara oladigan mavzuning ahamiyati haqida ketyapti. Masalan, haftaning mavzusi – “Qo‘shni davlatlar”, bolalar to‘liq tushunishi qiyin juda keng mavzu. Bir hafta davomida barcha kerakli atributlar bilan “Qozog‘iston”, “Tojikiston” kabi qo‘shni davlatlar haqida markazlarda ko‘rgazmalar tashkil qiling. Bu bolalarga bo‘sh vaqtlarida qo‘shni davlatlar to‘g‘risida ko‘proq bilib olishga, madaniyatlar va urf odatlarning farqlari va o‘xshashliklarini, xalq san’ati go‘zalligini tushunishga yordam beradi.

.Biz bo‘lajak tarbiyachi pedagoglar bolalarning to‘laqonli ta’lim faoliyatlarini tashkil etish uchun rivojlantirish markazlari haqidagi tushunchalarimizni mustahkamlashimiz zaruriy shartlardan hisoblanadi. Chunki, oldimizda turgan pedagogik amaliyot jarayonlarini to‘laqonli va sifatli o‘tashimizda rivojlanish markazlari va unda olib boriladigan faoliyatlar mazmuni haqidagi tushunchalarni puxta bilish biz uchun muhimdir.

## Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi ”Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi Toshkent – 2018 yil
2. Rasm, buyumlar yasash va tasviriv *faoliyat metodikasi*. M.Sh.Nurmatova <http://kutubxona.adu.uz/kutubxona/53rasmbuyumlaryasashpdf.pdf>.

## ИГРОВОЙ МЕТОД КАК ОСНОВА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ

*Агзамова Малохат Наджимовна*

*PhD, заведующая кафедрой «Психология и педагогика дошкольного образования», ТГПУ имени Низами*

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев отметил, что мы не сможем воспитать достойное, гармонично развитое поколение, обладающее высоким интеллектуальным потенциалом, знаниями и духовностью без профессионального, верного формирования мышления детей с самого раннего возраста, без вовлечения в процесс воспитания детей квалифицированных педагогических работников, хорошо знающих свое дело, применяющих индивидуальный подход к каждому ребенку.

В настоящей статье рассматриваются понятие «игра», воззрения выдающихся психологов и педагогов на игровой метод воспитания и обучения детей, существующие концепции психологической сущности игры, педагогические исследования анализа функций игры, влияние игры на развитие механизмов творчества детей.

В психологическом словаре понятие *игра* выступает как вид деятельности в условных ситуациях, воссоздающих те или иные области действительности. Главное в игре это – субъект-объектная составляющая процесса, в которой играющий выполняет роли, связанные с решением конкретных, часто творческих задач.

Пик игры приходится на дошкольное детство, когда формируются все психофизиологические способности: движения, речь, мышление, воображение, общение, самосознание и прочее. Индивидуально- неповторимая специфика

игры с той или иной степенью развитости присуща каждому ребёнку от 2-х до 5-ти лет. Согласно Пиаже, игра есть форма творчества, но творчества с определённой целью. Принимая данное положение, следует отметить, что эти цели перед детьми выдвигаем мы - взрослые; а для ребенка сама игра выступает целью.

Кроме всего для детей дошкольного возраста игра выступает как важный аспект познания окружающего мира, в игре дети принимают социально-ролевые функций психического развития личности, а, следовательно, происходит и подготовка к будущей жизни.

Выдающиеся психологи и педагоги всегда проявляли интерес к детской игре. Но рассматривать игру как средство развития, воспитания и целенаправленного формирования детей дошкольного возраста начали лишь во второй половине двадцатого века. Для того, чтобы разобраться в чем заключается суть этого явления и что привело к его возникновению, необходимо обратиться к истории развития прогрессивных взглядов на детскую игру.

Важность игр была отмечена еще древними философами Греции и Рима. Древние греки считали игру одним из самых главных факторов развития. Еще Аристотель считал, что большинство игр и развлечений должно состоять в подражании серьезным делам взрослых.

Об игре говорили и писали великие просветители и педагоги прошлого, но только в трудах психологов и педагогов XIX - XX веков игра стала рассматриваться, как одно из проявлений спонтанно развивающегося сознания, душевной жизни ребенка. В те времена была распространена такая точка зрения - не стоит мешать развитию ребенка, а лишь обеспечить ему время и место для игры. Тогда же возникает и другой взгляд, о том, что в игре следует развивать ребенка, предлагая ему постепенно усложняющиеся игры (Ф.Фребель). Игра рассматривается как особое средство, которое способствует развитию детей дошкольного возраста. Ф.Фребель предложил своеобразную систему, она и стала предпосылкой для включения в деятельность детей игр, направленных на их физическое и интеллектуальное развитие.

В зарубежных исследованиях были представлены различные теории игры.

Теория игры Герберта Спенсера основана на том, что у ребенка накапливается энергии больше, чем требуется для удовлетворения его текущих потребностей. Эта избыточная энергия стремится быть использованной и проявляется в виде движений. Игра, таким образом, служит реализацией избыточной энергии.

В теории игры Карла Гросса отмечен принцип подражания ребенка поведению взрослого, и он усматривает сущность игры в том, что она служит подготовкой к дальнейшей серьезной деятельности; в игре ребенок, упражняясь, совершенствует свои способности.

Теория Карла Бюллера предполагает наличие своеобразного вида - удовольствия, получаемого ребенком в процессе игры «функциональное удовольствие».

По теории психолога Л.С.Выготского: «ребенок всегда играет, он есть существо играющее, но игра его имеет большой смысл. Она точно соответствует его возрасту и интересам и включает в себя такие элементы, которые ведут к выработке нужных навыков и умений». Он рассматривает три основные группы игр: первая группа - игра с отдельными предметами, вторая группа — игры-подражания, третья группа — условные игры. Все эти игры важны для развития ребенка.

В играх с предметами ребенок учится манипулировать ими и отрабатывает определенные функции. Игры-подражания имеют огромное социальное значение. В них проигрываются определенные жизненные ситуации и взрослые роли. Условные игры возникают из числа условных правил и связанных с ними действий.

В работах Д.Б.Эльконина были даны новые представления об игре и игровой деятельности дошкольников. Игра им рассматривалась как специфическая деятельность детей, социальная по своему происхождению и содержанию. На определенном этапе развития общества она служит средством, реализующим стремление детей участвовать в жизни взрослых. С одной



стороны, игра принадлежит детству, а с другой, системе воспитания, используемой в подготовке детей к взрослой жизни.

Игра, отмечал Л.С.Выготский, содержит в себе, как в фокусе увеличенного стекла, все тенденции развития ребенка. В игре ребенок пытается сделать прыжок над уровнем своего обычного поведения: за игрой стоят изменения потребностей и изменения сознания.

Л.С.Выготский разработал концепцию психологической сущности ролевой игры. Основные положения концепции:

игра возникает, когда появляются нереализуемые немедленно тенденции и вместе с тем сохраняется характерная для раннего детства тенденция к немедленной реализации желаний;

центральным и характерным для игровой деятельности является создание «мнимой» ситуации, для которой характерен перенос значений с одного предмета на другой;

главное генетическое противоречие игры заключается в том, что в ней возникает движение в смысловом поле, но способ движения остается как во внешнем действии;

игра содержит в себе тенденции развития, она источник развития и создает зоны ближайшего развития, за игрой стоят изменения сознания общего характера [2].

С критическими замечаниями концепции Л.С.Выготского выступил С.Л.Рубинштейн [4]. Им были выявлены следующие недостатки:

гипотеза сосредоточена на структуре игровой ситуации не вскрывая источников игры;

интерпретация игровой ситуации, как возникающей в результате «переноса» значений и тем более попытка вывести игру из потребности «играть значениями» является сугубо интеллектуалистической;

происходит суживание понятия игры и исключаются ранние формы игры, в которых ребенок, не создавая никаких мнимых ситуаций, разыгрывает какое-либо действие.

С.Л.Рубинштейн трактует игру, прежде всего, как деятельность, уделяя значение, мотивам этой игровой деятельности, полагая, что в игре совершаются лишь действия, цели которых значимы для индивида по их собственному внутреннему содержанию [4].

Организацию игровой деятельности можно свести к следующему:

*на первом этапе* определяется место игры в процессе занятий (где возможно использовать игры в процессе занятий, какие игры стоит применять, определение цели занятий);

*на втором этапе* происходит организация (с помощью чего возможно создание игровой ситуации, какая форма игрового взаимодействия наиболее приемлема, какие педагогические приемы необходимо применить для организации игровой деятельности);

*третий этап* - закрепление достигнутых в игре целей (обсуждение, подведение итогов).

Чем полнее и разнообразнее деятельность дошкольника, чем более она значима для ребенка и отвечает его природе, тем успешнее идет его развитие, реализуются потенциальные возможности и первые творческие проявления. Именно поэтому для дошкольника естественна игра, общение со взрослыми и сверстниками, разные виды художественной деятельности. В этих видах деятельности при условии освоения ребенком позиции субъекта происходит интенсивное интеллектуальное, эмоционально - личностное развитие, формирование произвольности поведения, мышления, развитие творческого воображения.

### **Литература:**

1. Венгер Л.В. Воспитание сенсорной культуры ребенка от рождения до 6 лет, М., Педагогика, 1998, 143 с.
2. Выготский Л.С. Лекции по психологии. СПб.: Союз, 1997, 140 с.
3. Психология игры / Д. Б. Эльконин. - 2. изд. - М. : ВЛАДОС, 1999. – 358 с.
4. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии - СПб: Издательство «Питер», 2000 - 712 с.
5. Ушинский К.Д. История воображения. Собр.соч.: - 2. изд. - М.-Л., 1993- 10 т.

## TA'LIM BOSQICHLARIDA O'QISH DARSLARINI INTEGRATSIYALAB O'QITISHNING AHAMIYATI

**Adashova Guljahon Muhammadjonovna,**  
NamDU, Boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi,  
2-bosqich talabasi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalari va dasturlarga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadini aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir. Boshlang'ich ta'lim dars jarayonida bir qator ishlar fanlararo aloqalarga bag'ishlangan. Bu fanlarni integratsiyalashda o'zbek olimlardan R.Mavlonova, Q.Abdullayeva, N.U.Bekboyeva, A.G.Grigoryans ishlarida ko'rib chiqilgan. Integratsiyalashgan dars natijalari o'qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo'ladi. Fanlararo integratsiya – bir necha o'quv predmetning bir-biriga taalluqli sohalarini ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi.

Integratsiyaning quyidagi darajalarini belgilash mumkin.

1. Tematik (mavzuiy) integratsiya
2. Muammoli integratsiya
3. Konseptual integratsiya
4. Nazariy intergratsiya

Pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi. Uzviylik – o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni asta sekinlik bilan kengayib. chuqurlashib, mukammalashib borishini ko'zda tutadi Predmetlararo aloqadorlik – o'zining mohiyatiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, o'rganilayotgan obyektning turli jihatlari, xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi. O'zaro aloqadorlik – mohiyatiga ko'ra ikki o'quv predmetlari orasidagi aloqadorliklarni, ya'ni birinchi o'quv predmeti bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ish harakat usullarini ikkinchisida qo'llashi va aksincha

qo‘llanilishini ifodalaydi. Integrativ aloqadorlik esa nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo‘lib, avval zikr etilganlaridan o‘quv dasturiga maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi va albatta, uni ta‘minlashni talab etadi. Natijada obyekt haqida tizimli, mukammal bilim, ish-harakat usullari shakllanishiga imkon yaratadi.

Bugungi kunda integratsiyaga asoslangan darslarni tashkil etishda bir qator ta‘lim metodlaridan unumli foydalanilmoqda. Shulardan biri “Insert” usulidir. Buni quyidagi usulda tashkil etish mumkin:

Ma‘ruza matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma‘lumot

- - men bilgan ma‘lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘shimcha ma‘lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

An‘anaviy darslarni ko‘z oldimizga keltirsak, o‘qituvchi mavzuni chiroyli tushuntiradi, savol-javob mavzu doirasida uyushtiriladi. Keyingi darsda o‘quvchilar o‘qituvchi kabi gapirishga harakat qiladi, kitobdan mavzuni qayta-qayta o‘qiydi, biyron aytib beradi. Berilgan savollar ham asosan shu o‘tilgan mavzu doirasida bo‘ladi. Jurnallar “besh” bilan to‘lib boradi. Oradan bir oz vaqt o‘tib mavzu so‘ralganda o‘quvchi aytishga qiynalib qoladi. Yuzaki yodlashning natijasi shunday mavhum holatlarga olib keladi. Masalan, 45 minutlik darsning yarmidan ko‘p vaqtini darslikdagi matnlarni ko‘chirtirish bilan o‘tkazgan o‘qituvchilar ham yo‘q emas. Bugungi darslar o‘quvchini mustaqil fikrlashga bahs munozaraga, o‘zini-o‘zi tahlil eta olishga, egallagan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olish. Bola tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda yana FSMU texnologiyasidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi fan o'qituvchilari mazkur imkoniyatlarning baridan unumli foydalanmoqdalar va dars jarayonida barchasini qo'llashga harakat qilmoqdalar.

O'qish darslarini odobnoma, musiqa, texnologiya, matematika, ona tili tabiatshunoslik, tasviriy san'at fanlari bilan bog'lab o'qitish orqali o'qituvchilar o'z fanlariga bo'lgan qiziqishni uyg'otishlari mumkin.

Masalan: 4-sinf O'qish kitobida "HIDI, TILIMI VA MAZASIDAN" nomli matn berilgan. Dars jarayonida o'quvchilarni 3 guruhga bo'lish mumkin.

1-guruh matnda uchraydigan joy nomlarini yozadi.

2-guruhdagilar matn mazmuniga xos bo'lgan qovun shaklini yasaydilar.

3-guruhdagilar matn mazmuniga mos rasm chizadilar.

So'ngra topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Chizilgan rasm asosida matnni qaytadan hikoya qilib bering.

2. Joy nomlari tarkibidan unli va undoshlarni aniqlab, ularni bo'g'inlarga ajratib bering.

3. Qovun haqida yod olingan she'rni aytib bering.

Topshiriqlar asosida o'quvchilarning ona tili, tasviriy san'at va texnologiya fanlaridan olgan bilimlari sinaladi va o'z navbatida mustahkamladi.

Bu usullar orqali olingan bilim mustahkamlanadi va yangi bilimlar bilan boyiydi.

### **Adabiyotlar:**

1. Abdiyev M., Safarov P., Noan'anaviy dars shakllari. (Ona tili va adabiyoti uchun qo'llanma). Samarqand. 1996.
2. Ziyomuxamedov B., Pedagogik texnologiya – zamonaviy milliy modeli. – T., 2009.

3. Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda pedagogik texnologiyalar. – T., 2008.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MAZMUNI**

*Alixodjayeva Gulbaxor Sabirovna* “Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrası o'qituvchisi,  
*Tilavova Vasila, Sharofiddinova Nodira* talaba

Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim-tarbiya amaliyotiga samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi. Maktabgacha ta'limda yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta'limga bog'lash, har ikkisini tuzilishi va mazmun jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishga, mustaqil fikrlashga yo'llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Demak, pedagogik innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalar, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, tarbiyalanuvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Shuning uchun ta'lim jarayonida bolaning tutgan o'rni, ya'ni bolaga kattalar tomonidan ko'rsatilgan munosabat pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatidir. Mashg'ulotlar orqali samarali natijalarga erishish ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta'limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi.

Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, raxbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va mahoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta'sir ko'rsatish, bolani eng ko'p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qullab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida – o'yin, mashg'ulot, sayr davomida qo'llash yaxshi samara beradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o‘quv- tarbiya jarayonida qo‘lanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o‘qitayotganligi va pedagog kimni o‘qitayotganiga bog‘liq. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini oshirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

Shuning uchun ham ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba yoki o‘quvchilarning bilimli va etuk malakaga egaligini ta’minlaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 150 b.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004.
3. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

### **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA ISHBILARMONLIK O‘YINLARI TEXNOLOGIYASI**

*Alixodjayeva Gulbahor Sabirovna “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrası” o‘qituvchisi,  
Obidjonova Umida, Tilovova Vasila talabalar*

Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o‘tkazishni taqozo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi, chunki ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o‘qitish tizimini qat’iyan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak.



V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra —pedagogik tizim - ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jarayonlar yig'indisidir. Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak. Agar maqsad o'zgarsa mavjud tizim ham o'zgarishi muqarrardir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni bosh maqsad qilib qo'ydi. Chunonchi, Milliy dastur ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat buyurtmasi hisoblanib, milliy istiqlol mafkurasining mohiyat-mazmuniga to'liq mos keladi. Faqat davlat buyurtmasigina ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalarini aniq belgilab beradi yoki oliy ta'lim uchun pedagogik tizimning mavjudlik shartlarini kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ularning vositasida yangi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi (pedagog) faoliyati yangilanadi, ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchilarda hur fikrlilik, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi.

«Texnologiya» - yunoncha ikki so'zdan – «texnos» (techne) – mahorat, san'at va «logos» (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda zamonaviy texnologiya jarayonini to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologiya deganda subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektga sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Bugungi kunga kelib, o'qituvchi (pedagog)lar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan ham bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Metodika (uslubiyat) o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat.

Pedagogik texnologiya esa oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchi (pedagog)ning kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi yig'indisidir. Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan rivojlangan

mamlakatlarda ushbu mavzuning u yoki bu darajada yechilayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani pedagogik amaliyotga joriy etishga bo'lgan urinishlarning ma'lum natijasini ifodalaydi. Hozirda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada, chunki nazariya va amaliyot birligining ta'minlanishi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Demak, pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas.

Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak. O'quv-tarbiya jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir ta'lim oluvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, ta'lim oluvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir ta'lim oluvchining ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi. Ta'lim tashkilotilarda olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag yoki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

Interfaol metodlar - o‘zaro fikr almashishga, o‘zaro fikrlarni to‘ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta’sir o‘tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo‘llashda o‘zaro ta’sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta’sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo‘naltirish, noma’lum holatni ochishga(kashf etishga) ko‘mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.

Hozirgi paytda ta’lim va tarbiya vositasi sifatida ko‘pgina pedagoglarning e’tiborini o‘ziga tortib borayotgan didaktik o‘yinlar ham tarbiyachi, ham tarbiyalanuvchida katta qiziqish uyg‘otmoqda, chunki hamma ham o‘yinga qiziqadi, bu esa o‘yin jarayonida boshlang‘ich ko‘nikmalarni shakllantirishga va rivojlantirishga, tarbiyalanuvchilar fikrlash qobiliyatini o‘stirishga, jamoani uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

## **«ILK QADAM» DASTURINI MAKTABGACHA TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA TATBIQ ETILISHI**

*Aminjonova Zarnigor, Alimatova Diyora, Suyunboyeva Maftuna*  
*TDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabalari*

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori, “Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3276-sonli qarori, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish

to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni qabul qilindi.

Qabul qilingan meyoriy hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Mutaxassislarning tadqiqotlariga ko'ra, inson butun umri davomida oladigan barcha ma'lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan muddatda qabul qiladi. Ilk hayotiy tasavvurlar, inson tafakkurida poydevor bo'luvchi tushunchalar bola ongida aynan shu paytda shakllanadi. Demak, o'g'il-qizlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning kelajakda baxtli bo'lishida nafakat oila, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham muhim o'rin egallaydi.

Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi<sup>[1]</sup>.

Mazkur qaror maktabgacha ta'lim tizimi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni tatbiq etish, farzandlarimizni intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muhim dasturulamaldir. Binobarin, mazkur hujjatga muvofiq, maktabgacha ta'lim tizimi yanada takomillashtirilib, yangi tashkilotlar quriladi, mavjudlari rekonstruksiya qilinadi hamda mukammal ta'mirlanadi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha tashkil qilinadigan qisqa muddatli guruxlarda o'g'il-qizlarning kerakli bilimlarni egallashiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim dasturi MTT Davlat o'quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta'lim jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo'lib, u qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlashi lozim. Dastur muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq, muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lim jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydi.

Dastur majburiy qism va ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan qismdan tashkil topadi. Har ikki qism ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda zaruriy hisoblanadi. Dasturning majburiy qismi barcha beshta ta'lim sohasi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish, nutqiy muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijtimoiy-ijodiy rivojlanishni amalga oshirishga kompleks yondashuvni ko'zda tutadi.

Dastur tarbiyachi (mutaxassis) ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablari asosida bolalar rivojlanishining muayyan sharoitlari, ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limning individual pedagogik modelini qanday yaratayotganini ko'rsatib berishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotsining davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan meyoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotsining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

MTT davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lim tashkilotlarida qo'llash uchun majburiy:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- maktabgacha ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi nodavlat tashkilotlari;

- maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlariga ega bo'lgan «Mehribonlik» bolalar uylari;  
-maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari[ 3,7b].

MTTda davlat o'quv dasturini qo'llash

MTT davlat o'quv dasturi variativ o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi.

Ta'lim tashkilotlari Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan asdiqlangan variativ o'quv dasturlaridan foydalanish huquqiga ega. Maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat o'quv dasturi asosida o'zining MTT ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi.

### **Adabiyotlar**

1. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707-sonli qarori “Xalq so'zi”. 29.12.2016 y.,
- 2.“Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3261-sonli qarori “Xalq so'zi”. 09.09.2017 y.
- 3.”Ilk qadam” davlat dasturi T.,2018 y,60-b.

## **ABU ALI IBN SINO ASARLARIDA O'SMIRLIK DAVRI JISMONIY RIVOJLANISHINING AHAMIYATI HAQIDA**

*Asqarov Farxodjon Toxirovich* NamDU magistranti

Jamiyatning ravnaqi uning o'sib kelayotgan yosh avlodga bo'lgan munosabati va ulatga yaratilayitgan imkoniyatlarga bog'liq. Har qanday mamlakat sog'lom va barkamol, el-yurtiga sadoqatli,iymon-etiqodli farzandlari bilan faxrlanadi,ularga suyanadi.Shunday faziltlarga ega avlodni tarbiyalab,voyaga yetkazgan xalq kelajakka katta ishonch bilan qaraydi. Jahon tibbiyot olamining buyuk sultonlaridan biri, Abu Ali ibn Sinodir (980-1037). Ibn Sinofalsafa, adabiyot, musiqa va boshqa ko'p sohalami ham mukammal bilgan donishmanddir. Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslari beqiyos ko'p. Ular ichida «Tib qonunlari» alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarni

deyarlik barcha xalqlar o'z tillariga tajjima qilishgan. O'zbek tiliga ilk bor 1153-yilda, keyinchalik (1956, 1980, 1993) bir necha bor qayta nashr etildi. Buyuk allomaning ilmiy-pedagogik meroslarini chuqur o'rganishda taniqli pedagog S.R.Rahimov (Samarqand DU), respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor O.A.Rixsiyeva (O'zDJTI) va boshqalarning xizmati kattadir. Respublika hukumati va mas'ul davlat idoralari hamda jamoat tashkilotlarining tashabbusi bilan 1980-yilda Buxoroda Abu Ali ibn Sinoning tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan katta ilmiy anjuman o'tkazildi. Bunda tibbiy xodimlar, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi olimlar va boshqalarning Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik meroslari haqida ma'ruza qildilar. Anjumanning materiallari respub-likada jismoniy tarbiya ilmini takomillashtirishda salmoqli hissa qo'shdi, desa bo'ladi. Ibn Sinoning ta'biri bilan aytganda «Sog'liqni saqlashning asosiy tadbiri - badan tarbiya»dir. Mutafakkir adibning 30 dan ortiq tibbiy asarlari shu kungacha yetib kelganligi ma'lum. Ularning hammasida ham, muallifning jismoniy mashqlarga oid ilg'or fikrlari va amaliy mashqlar mazmuni uchraydi. Ibn Sino jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni hamda uning mohiyatlarini gigiyena, sog'liqni saqlash va kasalni davolashdagi majmuiy tadbirlarda berib boradi. Bu esa har bir insonning jismoniy mashqlar bi-lan qachon va qaysi tartibda shug'ullanishini belgilab beravchi ta'limdir. Masalaga shunday yondashish maqsadga muvofiq bo'lar edi. «Tib qonunlari» haqida mulohaza qilinadigan bo'lsa, kitobning birinchi qismi deyarli inson salomatligini saqlash va uni rivojlantirishga bag'ishlangan. Eng muhim tomoni shundaki, kitobda inson tanasi va uning a'zolari, insonni shakllantirish hamda uning kamolotida yuz beradigan anatomik tuzilishlar, fiziologik va ruhiy jarayonlarning holati, kasalliklaming kelib chiqish sabablari ilmiy jihatdan bayon qilingan. Bu holatlarni bilish, shu asosda insonlar o'z-o'zini tarbiyalashdek muhim bo'lgan ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlami hayotda qo'llash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ibn Sinoning jismoniy mashg'ulot kishining yoshiga, jinsiga, sog'-salomatligiga va kasalligiga qarab, turlicha shakl va uslublarda o'tkazish kerakligi haqidagi g'oyalari juda o'rinlidir. Shuningdek, bolalik, o'smirlik, yigitlik va qarilik g'oyalarida kishi jismoniy mashg'ulotga turlicha munosabatda bo'lishi kerakligi masalalarini alohida uqtiradi. Bu ilmiy-pedagogik ta'lim merosi jahon xalqlari jismoniy

madaniyati tarkibiga singib ketgan ijtimoiy turmush voqealigidir, desa bo'ladi. Bu holatlarni barcha oilalar, ayniqsa, mahalliy millat vakillari, shuningdek, barcha tarbiyaviy maskanlar, o'quv yurtlarida qayta-qayta o'rganishlari lozimdir. O'smirlik davri insonni bolalikdan — yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5—8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11—12 yoshdan 14—15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1—2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, ahloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayotida, uning ruhiyati, organizmining fiziologik holatlarida, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil an'analar kuzatiladi. Bu davrga kelib bola endi «bola» emas va shu bilan birga hali «katta» ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari bu-tunlay boshqacha xarakter kasb etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, baholashi, qadriyatlarini o'zgaradi. Uning uchun o'z «men»i va shu «men» ning ahamiyati ortadi. O'smir organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar. O'smir organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar shundan iboratki, bola rivojlanishining ayni shu davrida biologik, fiziologik yetukligi borasida tub o'zgarishlar amalga oshadi. Fiziologik rivojlanish va jinsiy balog'atga yetish jarayonining yangi bosqichi boshlanadi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishi bilan boshlanadi. Bu davrda gipofiz bezining funksiyalari faollashadi. Uning old kismidan ajralib chiqadigan garmon organizm to'qimalarining o'sishi va boshqa muhim ichki sekretiya bezlari (qalqonsimon bez, buyrak usti va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Ularning faoliyati o'smir organizmida ko'plab o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, jumladan bo'y o'sishining keskin tezlashishi (bir yilda o'g'il bolalarda 4—5 sm, qizlarda 3—4 sm o'sishi kuzatiladi), jinsiy balog'atga yetish, jinsiy organlarning rivojlanishi va ikkilamchi jinsiy belgilarning paydo bo'lishi amalga oshadi. Bu jarayon



qiz bolalarda 13—15 yoshlarda nisbatan jadal kechadi. Jismoniy rivojlanish va jinsiy yetilishning akseleratsiyalashuvi kuzatilayotgan hozirgi vaqtda ayrim qizlar 9—10 yoshda, o'g'il bolalar esa, 11—12 yoshlarida jinsiy balog'atga yetishning ilk bosqichida bo'lishi mumkin. Ibn Sinoning turh xil kasalliklarni oldini olish va uni davolashda badantarbiya mashqlaridan foydalanish tajribalarini respublikada xizmat ko'rsatgan fan arbobi tibbiyot fanlari doktori professor O.A.Rixsiyeva ham ma'qullaydi. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan kishi ingichka og'riq (a'zolarning torayishi) kasaliga uchraydi, chunki harakatsizlik natijasida uning a'zolari zaiflashadi. U badantarbiya turlarini asosan ikki guruhga bo'ladi: 1. Odamning ish jarayonlarida qiladigan harakatlari. 2. Maxsus badantarbiya harakatlari. Badantarbiyaning kuchli turiga, kishining o'z soyasi bilan olishishi, katta va kichik koptoklar bilan chavgon o'ynash, kurash, tosh ko'tarish, chopayotgan otni jilovidan tortib to'xtatish kabilarni kiritadi. Ibn Sinoning tavsiyasiga ko'ra badantarbiya vaqtida tez va shiddatli harakatlar, yengillari bilan doim almashtirib turish, shuningdek, ma'lum bir harakatni uzoq vaqt bajarmaslik uslublarini uqtiradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Usmonxo'jayev T., Xo'jayev G'. «Harakatli o'yinlar» Toshkent. O'qituvchi. 1992 y.
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya asoslari va metodikasi Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil.
3. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yil.

## **BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARIGA INTEGRATSIYASION YONDASHUV**

**Asqarova Dilorom Qurbonovna**

NamDu maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Mamlakatimizni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yanada rivojlantirish maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishga undaydi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim kunduzgi va qisqa muddatli guruhlar ko'rinishida maktabgacha ta'lim xizmatlarini taqdim etish shakllari bilan ajralib

turadi. Shu bilan birga, ta'limning har hil turlari va taqdim etilayotgan xizmatlar shakllariga qaramay, ularning umumiy maqsad va vazifalari mavjud.

Pedagogning vazifasi ta'lim jarayonini bolani ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsini saqlab qolish va takomillashtirish, bolaning mustaqil qaror qabul qilishi, o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini ifoda etishi uchun tashkil etishdir. Pedagog tarbiyalanuvchi bilan barcha bosqichlarni birgalikda olib borishi kerak: tayyorgarlik, natijalarni muhokama qilish, bolalarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash. Bolada ijobiy his-tuyg'ular va xotiralar bo'lishi muhimdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Qisqa muddatli guruhlarda ta'limiy faoliyatlar jadvali, bolalarni maktabga tayyorlashning ham 9 oylik, ham 3 oylik kurslarida taklif etiladi. Bunday jadvalning afzalligi shundaki, agarda ota-onalar pedagog tomonidan ta'limiy faoliyatning aynan shu turi oldiga quyilgan vazifalarga erishish borasida uni qo'llab-quvvatlab, mashg'ulotlarni davom ettirsalar, ochiq havodagi faoliyatlar vaqti uzaytirilishi ham mumkin.

Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki maktabgacha ta'lim tashkilotdagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi.

Bolaning maktabda o'qishga ahloqiy-irodaviy tayyorligi. Maktabda o'qishga ahloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik oxiriga kelib ahloqiy xatti-harakat, iroda, ahloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai nazarni faol egallashiga hamda o'zining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini ahloqiy asosda qurishga imkon beradigan darajaga erishishida

ifodalanadi. Ahloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy hulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha tar'lim yoshi davomida rivojlanadigan o'z hulq-atvorini boshqari qobiliyati: qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, daf'atan asabiylashib ketishga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalg'itadiganiga qarshi o'larok bajarish ko'nikmasi va shu kabilar e'tiborga loyiqdir.

Bolaning maktabda o'qishga jismoniy tayyorligi o'qishning muvaffaqiyatli bo'lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o'zgarishi, jiddiy o'quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo'r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko'pgina tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bu, birinchi navbatda, bola salomatligining yaxshi bo'lishi, organizmning chiniqqanligi, ma'lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko'rsata olishidir.

6-7 yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish - bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirip kerak bo'ladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o‘zaro munosabatning yangi tizimiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlanga bo‘lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak o‘quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o‘z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko‘nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo‘yib va uni hal etish ko‘nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi. Bolalar muntazam ta‘lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o‘quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko‘rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan ko‘rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o‘z faoliyati, hulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko‘nikmasini, o‘zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak.

#### **Adabiyotlar:**

- 1 “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi. – Toshkent, 2018.
2. Tolipov O'. Usmonboyeva M., Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan. 2006
3. D.Q. Asqarova. Bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash metodikasi. Namangan. 2020.

## **TURLI YOSH GURUHLARDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SUYUJETLI-ROLLI O‘YINLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYLARI**

**Asqarova Dilorom Qurbonovna**

NamDu maktabgacha ta‘lim metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

**Xolmirzayeva Muqaddas Xusniddin qizi**

NamDu maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi AU-20-guruh talabasi

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘yin orqali ta‘lim berish va rivojlantirish bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash<sup>27</sup> “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ta‘lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

---

<sup>27</sup> “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. T. 2018 y

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va o'qitishda katta salohiyaga ega. Lekin bu xususiyatlarni u pedagogik jarayon doirasida qo'llanilganida yaxshi natija beradi. Bolalar harakatlarni erkin boshlay olmaydi va ko'pincha pedagoglar rellashtirgan faoliyat turlari yakuniy mahsulotga ega, masalan; bola rasm chizadi, o'qiydi yoki qaror qabul qiladi. Biz tarbiyachi sifatida bu faoliyat turi orqali bolalarga ma'lum mazmuni o'rgatishimiz lozim bo'lsa-da, bolalar erkin o'yin faoliyatida ishtirok etishi uchun ham kun davomida ko'p vaqt ajratishimiz kerak. Bu vaqt mobaynida bolalarga o'yin uchun vaqt berish lozim, bunda kattalarning aralashmasligi yoki o'yinchilarning biri sifatida ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Ko'nikma va bilimlar o'yin orqali qiziqarli va interfaol usullarda o'rgatilgan bolalar qiziqish bilan ishtirok etadi, ma'lumotlarni tushunadilar va eslab qoladilar. YOsh bolalar uchun o'rganish va o'ynash qarama-qarshi faoliyat emas, balki o'zaro bog'liq jarayon. Bolalar o'yinini targ'ib qilishda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar muhim rol o'ynaydi. Bunda ular kuzatuvchi, rejissyor, o'yin ishtirokchilarini rag'batlantiradigan vositachilar sifatida qatnashadilar. Ba'zan qarorimiz to'g'ridan-to'g'ri namoyon bo'ladi. Boshqa hollarda biz bolalarga o'yin holatiga kirishga yoki o'yinni davom ettirishiga yordam beradigan ko'nikmalarni o'rgatish kabi bevosita rollarni o'ynaymiz. Bolalar o'yiniga qachon aralashish va qachon aralashgmaslik kerakligini bilishi ham muhimdir. O'yin orqali o'rganish integratsiyalashgan va muhim bo'lsa-da, u tajribasiz ko'rinmasligi mumkin. SHuning uchun biz bolalar qanday o'rganganlarini, shuningdek, o'yin orqali nimani o'rganishlarini tushunishimiz kerak. Biz bolalarga uzoq, uzluksiz o'yin davrlarini taqdim qilib, har xil turdagi o'yinlarni rag'batlantirish uchun etarli materiallar berib va bolalarni mustaqil o'ynashiga imkon yaratib bersak, ularga eng yaxshi yordamimizni bergan bo'lamiz. Biz, shuningdek bolalar bilan o'ynashda to'g'ridan-to'g'ri rolga qachon va qanday o'tishi kerakligini ham bilishimiz kerak. To'g'ri aralashuvda kattalar ishtiroki o'yinning uzoqroq murakkabroq epizodlariga olib keladi.

Kichkina bolalar biz, ota-onalari va boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatga kirishib hamda predmetlar, materiallar va tabiatni anglash orqali bilimini kengaytiradi. *L.S.Vgodskiy* hisoblashicha, kognitiv rivojlanish eng yaqin rivojlanish

natijasida boshqariladigan o'qitishdan ijtimoiy o'zaro aloqadorlik orqali yuz beradi. Zero, bolalar va ularning hamkorlari dialog orqali bilimlarini birgalikda yaratadi. SHuning uchun ta'lim strategiyalari bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini hisobga olishi kerak, chunki ular pedagoglar va bolalar o'rtasidagi va boshqalar o'rtasidagi muloqotlar asosida o'rganadilar. Kattalarning vazifasi ularni muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradigan muhitni yaratishdir: bolaning yoshiga mos ravishda istaklar, ehtiyojlar va intellektual xususiyatlarni shakllantirish. Pedagog har bir o'yin turining o'ziga xos jihatlarini hisobga olishi kerak. O'yin umumiy tarbiyaviy vazifalarni hal etishga mo'ljallangan bo'lib, ular orasida bolaning ahloqiy sifatlarini shakllantirish vazifalari ustuvor hisoblanadi. Pedagog bolalarning qiziqishini uyg'otish, faolligini oshirish, ijobiy hissiyotlarini uyg'otish uchun qanday kundalik jarayonlarni o'yin shaklida qo'llash mumkinligi haqida o'ylab ko'rishi kerak. Bolalar hayotining shakli sifatida o'yinning muhim ahamiyati uning har xil faoliyat turlariga singishidir: mehnat, o'yin, kundalik jarayonlar. O'yinning ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlari boshqa biron-bir faoliyat turi bilan uyg'unlikda bog'liq bo'lsa, bu samraliroq bo'ladi. O'yinni mehnat, ko'rgazmali va konstruktiv faoliyat bilan bog'lash maqsadga muvofiq. O'yin davomida yangi o'yinchoqni yasash, atributlarni boshqacha bezashga ehtiyoj paydo bo'ladi. Kattalar yordamida bolalar shikastlangan o'yinchoqni tuzatishlari mumkin. Pedagog bolalarning hayoti va faoliyatini o'yin shaklida tashkil etib, faollik va tashabbuskorlikni izchil rivojlantiradi, o'yinda o'z-o'zini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'yin ta'lim shakli sifatida ikki jihatni o'z ichiga oladi: kognitiv va o'yinli. Tarbiyachi bir vaqtning o'zida ham pedagog, ham o'yin ishtirokchisiga aylanadi. U o'rgatadi va o'ynaydi, bolalar esa o'ynab o'rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar foydalanishi mumkin bo'lgan eng yaxshi strategiyalar bu bolalar o'yiniga turtki beradigan, rag'batlantiradigan, kayfiyatni ko'taradigan va uzaytiradiganlaridir. Bolalar o'yinlarida ularning bilimi va tafakkurini boyitish uchun qachon va qanday ishtirok etishni tushunish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali pedagogning mahorati hisoblanadi. O'yin faoliyatida Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi quyidagi rollarda ishtirok etishi

mumkin:bolalar o‘yiniga yaqindan e’tibor bersak, o‘yinda sezgir va malakali yordamchilarga aylanamiz. Maqsadimiz bolalarning kuchli tomonlarini va yuqori darajadagi o‘yinga kirishish va uni saqlab qolishda ular duch keladigan muammolarni aniqlashdan iborat. Biz, shuningdek, bolalar o‘yin orqali qanday muammolar va konsepsiyalarni echa olishini aniqlaymiz: hokimiyat, ezgulik va yovuzlik, qo‘rquv va xavfsizlik, beboshlik va nazorat, yaxshilik va yomonlik. Biz bolalar o‘yinini unda qatnashib, uni boshqarib va bolaning o‘yindan ko‘ngli qolganida yoki uni bilim va ko‘nikmalar etishmaganidan tashlab ketganida qo‘llab-quvvatlashimiz mumkin. Biz bolalarga vaziyat haqida o‘ylashga chorlaydigan yoki rekvizitlarni boshqacha usulda qanday qo‘llash kerakligini ko‘rsatadigan savollarni berishimiz mumkin. Agar bola o‘yin vaziyatiga kirishni xohlamasa, u ishongan katta insonning ishtiroki unga guruhga qo‘shilish uchun o‘zini etarlicha xavfsiz his qilishiga yordam beradi,pedagoglar mahalliy shifokor, musiqachi, nonvoy yoki quruvchi kabi, shunda ular bolalarga o‘z ishlari haqida gapirib, asbob va uskunalaridan qanday foydalanishlarini ko‘rsatib berishadi.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi ”Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi T – 2018 yil
2. Rasm, buyumlar yasash va tasviriv *faoliyat metodikasi*. M.Sh.Nurmatova <http://kutubxona.adu.uz/kutubxona/53rasmbuyumlaryasashpdf.pdf>.

### ***ОРГАНИЗАЦИЯ СЛОВАРНОЙ РАБОТЫ С ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В РАЗВИТИИ ЯЗЫКОВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ***

**Ахмедова Махфуза Садыковна**- преподаватель кафедры родного языка и методики его преподавания в начальной образовании ТГПУ им. Низами  
**Ташева Лалита** – студентка 2 курса, факультета начального образования ТГПУ им. Низами

В современных условиях глобальной интеграции и интенсивного развития общества в целом русский язык тоже становится обязательным компонентом обучения не только в школе, но и в национальных дошкольных образовательных организациях.

Под воздействием социальных факторов, повышения культурного и материального уровня жизни народа и гигантского развития современных средств коммуникации и информации сегодня заметно изменилось интеллектуальное, психическое и физиологическое развитие ребёнка. Установлено, современный ребёнок значительно более информирован, более развит в физическом и интеллектуальном отношении, чем его сверстники середины XX столетия. Поэтому вопрос обучения детей дошкольного возраста (5–7 лет) второму языку (русскому, английскому и др.), как неродному является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня.

Вопросы, связанные с обучением второму языку дошкольников, являются сегодня предметом широких дискуссий, поскольку раннее детство рассматривается многими специалистами и учёными (Е. И. Негневицкая, В. С. Мухина, Н.Д. Гальская, З.Я.Футерман и др.) как наиболее благоприятный период для овладения языками.

Методистами и психологами давно установлено, что второй язык легче усваивается в младшем возрасте (с 5-6 лет). Российский учёный-академик Л.В.Щерба писал, что *«... всякие привычки, в том числе языковые, преодолеваются тем легче, чем они менее застарелые ... , учить иностранному языку нужно начинать как можно раньше, когда родной язык не успел ещё как следует укорениться у ребёнка»*.

Великий врач, учёный-энциклопедист Востока Абу Али Ибн Сина ещё XI веков тому назад в своём знаменитом труде «Канон врачебной науки» писал о том, что «когда [ребёнок] достигает шестилетнего возраста, нужно передать его на воспитание учителю. [Обучение] тоже должно протекать постепенно, не следует сразу привязывать его к книге. ... . Когда ребёнок становится крепким и хорошо освоит разговорную речь (на родном языке), а уши его будут хорошо отчётливо воспринимать звуки, он становится способным изучать грамоту, после чего можно начинать его обучение».

Основоположник узбекского литературного языка, великий поэт, мыслитель, учёный, художник, музыкант, государственный деятель Алишер



Навои в своих поэтических и прозаических произведениях широко представил вопросы воспитания и обучения. При этом он большое внимание уделял вопросам формирования и воспитания ребёнка раннего возраста, которого считал светилом в доме, приносящим в семью радость и счастье.

Ребёнку, говорил Навои, с малых лет необходимо дать правильное воспитание, сообразуясь с возрастом, а к изучению наук и грамоте надо приступить как можно раньше. Педагогические взгляды Навои глубоко гуманистичны.

*Ты породил детей, но должен знать,*

*Как с малых лет им воспитанье дать.*

*Ты должен хорошо детей наречь,*

*Чтоб их потом насмешкам не обречь.* – писал великий гуманист в своей поэме «Смятение праведников».

В знаменитой поэме Алишера Навои «Фархад и Ширин» отец приобщил главного героя Фархада с трёх лет к наукам, наняв ему надёжного, опытного и образованного учителя.

**Согласно статьи 4 настоящего Закона основными принципами дошкольного образования и воспитания являются:**

- доступность дошкольного образования и воспитания для каждого ребенка;
- единство обучения, воспитания и оздоровления детей дошкольного возраста, воспитательного воздействия семьи и дошкольной образовательной организации;
- преемственность и непрерывность дошкольного и общего среднего образования;
- демократический и светский характер образования и воспитания и ряд других.

Целесообразность обучения русскому языку с дошкольного возраста обусловлена тем, что этот период развития ребёнка характеризуется интенсивным формированием познавательных процессов, более быстрым и лёгким, чем на последующих ступенях, усвоением умений и навыков. Этот

период считается наиболее благоприятным для овладения языком в силу ряда психологических особенностей детей (высокая сензитивность, активная память, лёгкость формирования положительной мотивации речевой деятельности).

При обучении дошкольников русскому языку работу необходимо строить на основе чётко продуманной методической системы, учитывающей возрастные и психические особенности детей дошкольного возраста.

Для практического овладения элементарной русской речью необходимо знание детьми определённого количества слов. В процессе двухгодичного обучения русскому языку в национальных дошкольных образовательных организациях ребёнок должен овладеть в общем итоге лексическим минимумом около 300 слов.

На начальном этапе обучения детей должны знакомить со словами с конкретными значениями: существительные, обозначающие предметы из окружающей его жизни; глаголы, отображающие действия этих предметов. Организация словарной работы является одним из важных факторов обогащения как активной, так и пассивной лексики детей. При введении лексики следует брать во внимание социальные условия места проживания (климат, растительный и животный мир, особенности быта и труда людей). Новую лексику, подлежащую активному усвоению, следует вводить постепенно в систему. На занятиях в среднем предлагается 2-5 слов для усвоения. Для объяснения значений слов, словосочетаний и предложений рекомендуется использовать различные виды наглядности, желательны естественные виды, мимику и жесты, а в отдельных случаях и перевод на родной язык.

Речь учителя должна быть грамотной, чёткой, ясной, без фонетических, стилистических и грамматических ошибок и служить образцом для подражания, что является одним из главных факторов эффективности обучения русскому языку. Педагог должен строго контролировать свою речь, не говорить слишком много, не забывать при объяснении новых слов и выражений пользоваться, если это целесообразно, мимикой, жестами, имитацией, наглядностью. А при чтении сказок, стихов не забывать об интонации, паузы, выразительности.

При ознакомлении с новым словом, педагог, показывая картинку или слайд с изображением какого-либо предмета, на родном языке детей спрашивает, что это за предмет, как звучит оно на родном языке. Потом на русском языке чётко, несколько раз произносит его (при наличии можно включить аудиозапись новых слов в чьём-то произношении), а затем просит у детей повторить это слово (2-3 раза) за ним. В результате такой работы ребёнок не только слышит это слово в правильном произношении педагога, но и видит этот предмет, повторяет за ним по образцу. У него образуется прочная связь между словом и предметом.

Слова, не принадлежащие усвоению с помощью живой и натуральной наглядности (*кто или что это, нет, да, какой, нельзя, можно* и т.п.), педагог объясняет с переводом этого слова на родной язык. После первичного введения новой лексики рекомендуется организовать одну из фонетических, лексических, подвижных и ролевых игр по своему усмотрению. Но следует подобрать такие игры, которые способствовали бы эффективному запоминанию и активизации новой лексики, развитию у детей речевых навыков. Работа с новой лексикой проходит в три этапа:

**1. Узнавание.** Дети должны узнать слова, обозначающие тот или иной предмет. В этих целях педагог может применить лексическую игру «*Да или Нет*».

На столе раскладываются разные предметы или картинки с изображением предметов. Педагог, закрыв глаза, берёт этот предмет и называет его. Если он называет предмет правильно, то дети говорят «ДА», а если неправильно – «Нет». Затем эта процедура в игровой форме повторяется детьми.

**2. Повторение.** Педагог предлагает детям по очереди подойти к столу и выбрать любую игрушку и повторить за ним её название. При неправильном произношении слова ребёнком педагог делает фонетические исправления и показывает образец. При нормальном произношении слова ребёнком учителю нужно похвалить ребёнка за его успехи.

**3. Называние.** Дети без помощи педагога называют предметы и произносят слова, называющие эти предметы. Очень эффективны при этом игры «*Угадай*»,

«Почта», «Что это?», «Чудесный мешочек», «Эхо», «Игра в мяч» и др. Данные игры способствуют повышению игрового мотива у детей: играют все, активны все, хотя в каждый момент игры произносит слово только один ребёнок.

К шестилетнему возрасту деятельность детей претерпевает значительные изменения: игровая деятельность носит творческий, дифференцированный, более волевой характер; в игре детей этого возраста больше отражается общественно-трудовая жизнь взрослых, их взаимоотношения и т.д. Шестилетки вполне самостоятельно могут выполнять несложные действия, приказания, просьбы, устанавливать связи между отдельными явлениями и событиями, в какой-то мере обобщать, абстрагировать, фантазировать и т.д.

### **Список использованной литературы:**

1. Закон Республики Узбекистан о Дошкольном образовании и воспитании. Одобрено Сенатом 14 декабря 2019 года. Г.Ташкент.
2. Государственная учебная программа дошкольного образовательного учреждения «*Ilk qadam*» – «Первый шаг». Протокол №4 от 7 июля 2018 года. Авт.: И.В. Грошева, Л.Г.Евстафьева, Д.Т.Махмудова, Ш.Б.Набиханова, С.В.Пак, Э.Джанпеисова.
3. Андрианова В.И., Талипова Р.Т. «Русский язык». Методическое руководство к учебнику «Русский язык в картинках» для 2 класса начальной школы с узбекским языком обучения. Ташкент. «Ўқитувчи», 1997г.
4. Антология педагогической мысли Узбекистана. г. Москва «Просвещение». 1988 год
5. Кадырова Р.М. Обучение детей дошкольного возраста русской разговорной речи в национальных детских садах Узбекистана. Ташкент. «Уқитувчи», 1992г

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARNING NAMOYON BO'LISHI**

*Baqoyeva M TDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti magistri*

Hozirgi kunda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va jahon mamlakatlaridagi o'z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etib tarbiyalash bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar esa yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlod uchun har qaysi ta'lim yoshida o'ziga xos e'tibor qaratilishi yoshlar tarbiyasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan darak beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017—2021 yillarda "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori" (2016 yil 29 dekabr) qabul qilindi.

Qarorga muvofiq O'zbekistonda — "... maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash; bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash; ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish; bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish"<sup>28</sup> yo'nalishlari bo'yicha puxta rejalar ishlab chiqildi va amalga oshirishga kirishildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarining bilish jarayonidagi faolliklarini oshirish uchun yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniga:

- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
- ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali bolalar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
- bolalarni muvaffaqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;
- mustaqil faoliyatning tashkil etilishi;
- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, xayol, xissiyot va irodasi juda jaddalik bilan rivojlanib boradi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farqlay olmasa, unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan turli xildagi o'yinchoqlarni berishimiz lozim, masalan: rangli kiyim-kechaklar, rangli

---

<sup>28</sup> O'zbekiston respublikasi Prezidentining -2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori.-O'zbekiston ovozi gazetasi,2017 y 1 yanvar. № 1-сон (32.216).

xalqalar, rangli qushchalar, rangli gullar va shunga o'xshash turli tuman o'yinchoqlar orqali ularning qiziqishlarini yanada oshirmog'imiz lozim.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning turli narsalarni idrok qilishlarida ularning ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin hali ularni chuqur tahlil qila olmaydilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalar kattalarning yordami bilan suratlarni idrok qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bolalar suratlarni idrok qilayotganlarida kattalar turli xil savollar bilan ularni tahlil qilishga o'rgatishlari lozim. Bunda, asosan, bolalar diqqatini:

1. Suratning mazmunini to'g'ri idrok qilishga;
2. Suratning umumiy ko'rinishida har bir tasvirlangan narsalarning o'rnini to'g'ri idrok qilishga;

3. Tasvirlangan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni bolalar to'g'ri idrok qilishlariga e'tibor qaratishimiz kerak. Maktabgacha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi, bu yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin juda katta ahamiyatga ega. O'yin faoliyati vaqtida bola ko'p narsalarni o'rganadi, biladi va qiziqishlari yanada oshib boraveradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar, yangi bilimlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ular uchun katta taassurotlar qoldiradigan va ularni qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha yoshidagi bolalarda har bir narsalarga, har bir sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savollariga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi bilishga bo'lgan qiziquvchanlik sekin asta so'nishni boshlaydi. Odatda, har qanday tafakkur jarayoni biron narsadan taajjublanish, hayron qolish va natijada turli savollarning tug'ilishi tufayli paydo bo'ladi va juda ko'pgina ota-onalar va ayrim tarbiyachilar agarda bolalar ortiqroq savol berib yuborsalar, "ko'p

mahmadonalik qilma”, “sen bunaqa gaplarni qayerdan o‘rganyapsan”, deb koyib beradilar. Natijada bola o‘ksinib, o‘z xolicha, bilganicha tushunishga harakat qiladi.

Ayrim tortinchoq, uyatchang bolalar esa hech bir savol bermaydilar. Bunday bolalarga turli xil mashg‘ulotlarda va sayohatlarda kattalarning o‘zlari bolaga savollar berishlari va shu bilan ularni faollashtirishlari, qizqishtirishlarini lozim. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, analiz va sintez qilishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz. Sayohatlar bolalardagi tafakkur jarayonini faollashtirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar tabiatga qilingan sayohatlarda turli xildagi narsalarni bir-biri bilan taqqoslaydilar, analiz hamda sintez qilib ko‘rishga intiladilar.

Agar 2 yashar bolaning so‘z boyligi taxminan 250 tadan 400 tagacha bo‘lsa, 3 yashar bolaning so‘z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha, 7 yashar bolaning so‘z zahirasi 4000 taga yetadi, Demak, maktabgacha yosh davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan anchagina takomillashadi. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqining o‘sishi oilaga uning madaniy saviyasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq.

Ota onalar bolalar nutqini o‘stirish bilan shug‘ullanar ekanlar, maktabgacha yoshidagi bolalarning ba‘zi hollarda o‘z nutq sifatlarini to‘laqonli idrok eta olmasliklarini unutmasliklari kerak. Bundan tashqari, bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir-biridan farqlay olish qobiliyati ham hali to‘la takomillashmagan bo‘ladi. Tili chuchuklikni tuzatishning eng muhim shartlaridan biri, bola bilan to‘la va to‘g‘ri talaffuz etib, ravon til bilan gaplashishdir.

Xulosa o‘rnida Maktabgacha ta‘lim muasasasi tarbiyachisi bolalarda o‘qishga, bilishga nisbatan qiziqishini rivojlantirishda quyidagilarga amal qilishlari lozim:

-Bolalardagi bilishga nisbatan qiziqishini hamda aqliy mehnat jarayoniga nisbatan muhabbatni rivojlantirish uchun o‘quv jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, unda bola doim faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o‘zi - kashf eta olishi va muammoli masalalarni yechish uchun sharoit izlashi kerak;

-Bir turdagi ma‘lumotlar va bir xil o‘qitish bolaning juda tez zerikishiga sabab bo‘ladi.

-O'rganilayotgan yangi bilimlar bolaning o'zi uchun qanchalar ahamiyatini, foydaliligini bilishi muhimdir.

- Yangi ma'lumotlar qanchalar bola tomonidan avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'liq bo'lsa, bu ma'lumotlar bola uchun shunchalar qiziqarli bo'ladi.

-Haddan ziyod oson va haddan ziyod qiyin material bolada qiziqish uyg'otmaydi. Berilayotgan bilimlar qiyin, lekin bolaning kuchi yetadigan darajada bo'lishi lozim.

Shuning uchun iroda qatiyatlilik, mehnatsevarlik kabi hislatlarni kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir. Ana shu xislatlar bolaning kelgusida o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashiga va mustaqil ta'lim olishiga asos bo'la oladi.

### **Adabiyotlar :**

1. Jalilova S.X. Aripova S.M. "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" – T: faylasuflar, 2017
2. Sh.A. Do'stmuhamedova, X.A. Tillashayxeva, G. Baykunosova, G. Ziyavidinova "Umumiy psixologiya" {yosh davrlari va pedagogik psixologiya}
3. "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-sonli qarori.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MULOQOTCHANLIKNI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY O'YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI**

*Bo'riyeva Sitara Rustam qizi TDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti  
1 kurs magistri*

"Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi." Sh.M. Mirziyoyev.

So'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu masalaga doir bir necha yig'ilish o'tkazilib tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini



rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni ijrosi ta'minlandi. Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda 2021-yil 1-avgustga qadar bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash hamda boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlarining o'zaro uzviyligini ta'minlash choralarini ko'rildi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilindi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ijodiy o'yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi.

Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlari o'ylab topadilar. Unda oldindan belgilab qo'yilgan qoidalar bo'lmaydi. Qoidalar bolalar tomonidan o'yin jarayonida o'ylab topiladi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. O'yin davomida bu qoidalarga amal qilinishi shart.

Ijodiy o'yinlarga:

- syujetli-rolli o'yinlar;
- sahnalashtirilgan o'yinlar;
- qurish va yasashga doir o'yinlar kiradi.

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks etadi. Bunday o'yinlar mustaqil o'yin bo'lib, uning mazmunini ishtirokchilarning o'zlari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolaning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to'la namoyon bo'ladi. O'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab, o'yinga tatbiq etiladi. Bu bolaning o'yin g'oyasini yaratishida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashida namoyon bo'ladi. Bolaning tevarak-atrofidagi hayotdan – tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinlarda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

O‘yin mazmunining o‘ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, kattalarning ijtimoiy hayoti o‘zining rang-barang ko‘rinishlari bilan syujetli-rolli o‘yinlarning mazmuni bo‘lib xizmat qilar ekan. Ular bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turi o‘yin ekanligini asoslab berdilar.

Ijodiy o‘yinlar syujetlari va mazmunining rang-barangligi, ularni tavsiflash zaruratini keltirib chiqaradi. Ijodiy o‘yinlarda xayoliy vaziyatning mavjud bo‘lishi bolaning tafakko‘rini o‘stirib syujet va rollar o‘yin mazmunini takomillashtiradi. Ijodiy syujetli-rolli o‘yinlarning o‘ziga xos sabablari mavjuddir. Buning eng asosiy sababi – bolalarning kattalar bilan birgalikda ijtimoiy hayot kechirishga intilishidir. Bu sabablar bolaning yoshiga qarab, o‘yin mazmuniga qarab o‘zgarib boradi. Kichiq yoshdagi bolalarda asosiy sabab buyumlar bilan bajariladigan g‘izig‘arli harakatlar bo‘lsa, bola katta bo‘lgan sari o‘yindagi kattalar harakatlarini va munosabatlarini qayta aks ettirish asosiy sabab bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, o‘yinlarni syujeti, mazmuniga ko‘ra 3 guruhga bo‘lish mumkin.

1. Maishiy o‘yinlar (oila, bolalar maktabgacha ta‘lim muassasasi va boshqa voqelikni aks ettiradigan).

2. Mehnat mavzuyidagi o‘yinlar (oila va kattalar mehnatida ishtirok etish, o‘z-o‘ziga xizmat va boshqalar)

3. Ijtimoiy mavzudagi o‘yinlar.

Bolalar rollarni tanlab o‘ynaydilar. Syujetli-rolli o‘yinlarda xatti-harakatlarni, qoidalarini egallash asosida, rolda mujassamlashtirilgan ahloqiy qoidalar ham o‘zlashtiriladi. o‘yinda kishilar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulg‘-atvor me‘yor va qoidalariga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xuddi shu jarayonda o‘yin muomala madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida ham yuzaga keladi. Aqliy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri bu syujetli o‘yin hisoblanib, unda bola atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni aks ettirib, xayolan ularni qayta tiklaydi. o‘yinning xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta‘sir ko‘rsatadi.

#### **Adabiyotlar:**

1.Sh.A.Sodiqova. “Maktabgacha Pedagogika” 2010 yil.

2.F.K.Qodirova . “Maktabgacha Pedagogika”2018 yil.

3.WWW.lex.uz.

4.WWW.pedagog.uz.

## **ФОРМИРОВАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

**Габдульманова Ильнура** Магистр 1- курса направления  
«Музыкальное образование и искусство»  
ТГПУ им.Низами

В творческой деятельности композитора: «Композитору постоянно приходится решать много задач, требующих от него не порывов вдохновения, а точного расчета и знания своего ремесла: структура тем, фактурное развитие, голосоведение, инструментовка и многое другое...». Исполнительское и слушательское музыкальное мышление также протекает при постоянном синтезе эмоционального и рационального. Известный дирижер Леопольд Стоковский говорит об этом так: «Понимание внутренней природы музыки — органичного единства и сложного, но безупречного порядка ее математических основ — нисколько не уменьшит нашего эмоционального восприятия красоты и поэзии музыки»<sup>29</sup>.

С другой стороны, мышление долгое время ограничивали областью логических операций, отказывая ему в связях с эмоциональной стороной человеческой психики. В современной психологии мышление рассматривается не только как процесс неравнозначный логически правильному оперированию понятиями, но экспериментально подтверждается и глубокая взаимосвязь между интеллектуальными и эмоциональными его компонентами.

Изменение понимания сущности музыкального искусства и сущности мышления, осознание принципиального единства эмоционального и

---

<sup>29</sup> Подуровский В.М., Сулова Н.В. - Психологическая коррекция музыкально-педагогической деятельности. Учебное пособие для вузов. — М.: Владос, 2001 (с.8)

рационального и в музыке, и в мышлении позволили говорить о правомерности термина и необходимости исследования обозначаемой им реальности.

В определении того, какие именно явления охватываются понятием «музыкальное мышление», мы обнаруживаем самый широкий спектр мнений — от логики ладово-функционального строения музыкальной формы до философского соотнесения с Логосом жизни.

Сосредоточение на формальной стороне музыки подпитывается мощной музыкально - теоретической традицией, имеющей детально разработанные учения о ладотональной системе, гармонии, анализе форм и т.п. Во многих работах, посвященных музыкальному мышлению, такой подход не декларируется открыто — как сознательное отречение от всего, что не относится к формальной стороне, — но ничего, кроме формы, не изучается. Именно от этого предостерегает В.В. Медушевский в своих последних работах: определяя музыкальное мышление, нельзя допустить сведения до элементарного уровня его высокой духовности. «Музыкальное мышление можно определить как реализуемый в интонировании процесс моделирования системы отношений субъекта к реальной действительности». Итак, музыкальное мышление — это выраженный в интонируемом звуке процесс моделирования отношений человека к действительности. Даже таким неполным определением снимается противопоставление мышления и музыки. А.Н. Сохор заостряет внимание на категории «деятельность»: «Как и всякая художественная деятельность, музыкальное мышление представляет собою единство трех основных видов деятельности: отражения, созидания и общения»<sup>30</sup>. Важное дополнение мы находим и у И.Г. Ляшенко: «Деятельность музыкального мышления представляет собой процесс преобразования звуковой реальности в художественно-образную». То есть модель отношений человека к действительности, выражаясь в звуках, использует некую часть этой действительности — акустическую реальность в качестве звуковой материи

---

для обозначения идеального художественного содержания. Признание за музыкальным мышлением функции общения, коммуникации, по мнению М.Г.Арановского, дает повод рассматривать музыку как один из самых мощных информационных процессов, охватывающих в принципе все общество. Передача информации невозможна без языка. Большинство немusикальных определений мышления также обозначают язык как один из наиболее существенных опосредующих его факторов. Соответственно, музыкальное мышление опосредуется музыкальным языком: «...все формы музыкального мышления осуществляются на базе музыкального языка, представляющего собою систему устойчивых типов звуко сочетаний вместе с правилами (нормами) их употребления». Музыкальный язык, в свою очередь, до сих пор является предметом научных споров. Существует мнение, что музыка не может считаться языком в строгом смысле этого слова, так как не обладает важнейшим для языковых систем уровнем знака с четко зафиксированным значением. Однако его отсутствие не мешает музыке выполнять основные языковые функции. Многие исследователи утверждают, что музыку можно признать специфической семиотической системой, не обладающей этим уровнем. Другие полагают, что остроту проблемы может снять более широкая трактовка знака, значащей единицы: «Мы не считаем возможным формализовать понятие семантической единицы. В разных стилях и жанрах протяженность такой единицы может быть различной». Внутритекстовые связи также должны быть учтены в ее определении: «...отдельно взятый звук или комбинация звуков — это еще не знак. Носителем значений становится тот или иной оборот в зависимости от его места в сопряжении выразительных средств в музыкально-логическом процессе».

Музыкальный язык, в свою очередь, до сих пор является предметом научных споров. Существует мнение, что музыка не может считаться языком в строгом смысле этого слова, так как не обладает важнейшим для языковых систем уровнем знака с четко зафиксированным значением. Однако его отсутствие не мешает музыке выполнять основные языковые функции. Многие

исследователи утверждают, что музыку можно признать специфической семиотической системой, не обладающей этим уровнем. Другие полагают, что остроту проблемы может снять более широкая трактовка знака, значащей единицы: «Мы не считаем возможным формализовать понятие семантической единицы. В разных стилях и жанрах протяженность такой единицы может быть различной». Внутритекстовые связи также должны быть учтены в ее определении: «...отдельно взятый звук или комбинация звуков — это еще не знак. Носителем значений становится тот или иной оборот в зависимости от его места в сопряжении выразительных средств в музыкально - логическом процессе». Связь музыкального мышления и музыкального языка глубоко диалектична. Главная характеристика мышления — новизна, главная характеристика языка — стабильность. Реальный процесс мышления всегда застаёт некоторое наличное состояние языка, которым он пользуется. Но в творческом процессе мышления язык развивается, вбирает в себя новые элементы и связи. С другой стороны, музыкальный язык — не врожденная данность, и его освоение невозможно без мышления. Этот сложный баланс новизны и стабильности и определяет основной круг «языковых» вопросов, затрагиваемых в данном пособии:

— Как практическое освоение музыкального языка может способствовать формированию музыкального мышления?

— Как использовать общие интеллектуальные процессы, уже существующие в психике ребенка, для освоения специфически музыкальных языковых норм?

— Как устанавливать связи между музыкальным языком и другими языковыми системами (вербальной, живописной и др.)?

Обобщая вышесказанное, необходимо отметить, что в определениях музыкального мышления встречается и абстрактный философско-эстетический уровень, и предельно конкретный, связанный с практическими задачами музыкального обучения. В музыковедческих исследованиях термин «музыкальное мышление» иногда применяется как категория историко -

стилевого анализа. В педагогической литературе все чаще появляется психологический ракурс. Музыкальное мышление как наиболее общая категория философского порядка; музыкальное мышление определенной эпохи; музыкальное мышление композитора; музыкальное мышление в процессе реальной музыкальной деятельности личности — все эти понятия взаимосвязаны, но не тождественны. «Безгранично число видов проявления музыкального мышления как центрального феномена музыкальной человеческой деятельности <...> это глобальная многоуровневая бытийная и понятийная метасфера». Структурирование этой метасферы и уточнение ее понятийных нюансов в нашу задачу не входит. В этой книге внимание будет сосредоточено на музыкальном мышлении как психологической функции личности.

#### **Литература:**

1. Арановский М. Мышление, язык, семантика // Проблемы музыкального мышления / Сост. М.Г.Арановский. - М.: Музыка, 1974.
2. Подуровский В.М., Сулова Н.В. - Психологическая коррекция музыкально-педагогической деятельности. Учебное пособие для вузов. — М.: Владос, 2001
3. Сохор А. Социальная обусловленность музыкального мышления // Проблемы музыкального мышления / Сост. М.Г. Арановский. – М.: Музыка, 1974.

### **ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ.**

**Гафиатуллина Регина Равхатовна**

Магистр 1-курса. Направление «Музыкальное образование» ТДПУ имени Низами

Современное образование выходит на более высокий технологический уровень. Инновационные технологии в настоящее время-это движущий процесс, направленный на облегчение во взаимоотношениях как в жизни в целом, так и в отдельной сфере. Это новизна, новшество, необходимое в наше быстро меняющееся время. Многочисленные организационные преобразования в сфере непрерывного образования и внедрение их в практику относятся к инновационным процессам.

Способы, методы, технологии призваны на улучшение качества обучения детей в средней школе. Именно данное время и дети нынешнего поколения нуждаются в интересных и поучительных занятиях на уроках музыки.

Учитывая, что в учебный процесс входит не только получение знаний, но и воспитание и поведение, следует учесть, что благодаря инновационным технологиям урок музыки в общеобразовательной школе можно превратить в творческий процесс, преподнося музыкальный материал в непринуждённой интересной познавательной форме. Цель учебно-воспитательного процесса заключается в формировании новых свойств личности и именно поэтому он занимает центральное место в педагогике.

Разнообразие и использование различных методов проведения уроков дают возможность донести до учащихся более широкий охват материала по музыкальной культуре. Ведь музыка охватывает очень много важных аспектов, благодаря которым неосознанно понимая, ученики становятся духовно богатыми, эстетически нравственными людьми. Людьми, живущие в мире и согласии, продолжая свой род и наследие, обычаи, национальные традиции узбекского народа.

Главной целью инновационных технологий образования является подготовка человека к жизни в постоянно меняющемся мире. Образование должно развивать механизмы инновационной деятельности, находить творческие способы решения жизненно важных проблем, способствовать превращению творчества в норму и форму существования человека.

Наиболее перспективные образовательные технологии на сегодняшний день должны включать в себя такую деятельность педагога, которая целостна по своей природе, последовательна и необходимый результат этой деятельности должен иметь прогнозируемый характер.

Хочется заметить, что среди множества инновационных технологий, важнейшей задачей обучения музыки учащихся является развитие восприятия музыки. Оно определяется как слушание музыки. Это служит формированию



навыков и умений, полноценному восприятию музыкальных произведений, развивает интерес и музыкальный вкус.

Современные педагогические технологии немислимы без широкого применения новых информационных технологий, компьютерных. Большой интерес к современным компьютерным системам является мотивационной основой учебной деятельности. Именно информационные технологии позволяют в полной мере раскрыть педагогические, дидактические функции методов, реализовывать заложенные в них потенциальные возможности; они становятся базой современного образования, гарантирующей необходимый уровень качества, вариативности, дифференциации и индивидуализации обучения и воспитания.

В процессе использования ИКТ на уроке музыки дети узнают, постигают, осваивают закономерности музыкального языка, учатся осознавать и воспроизводить музыку. Все это расширяет кругозор учащихся, раздвигает горизонты исполнительской деятельности, дает возможность значительно повысить уровень исполнительских навыков, развивать музыкальные способности детей. Актуальным для преподавания музыки в общеобразовательной школе становится широкое использование технических средств обучения: музыкального центра, телевизора, видеомангитофона, синтезатора, которые могут быть применены на уроках музыки, при звуковом оформлении школьных праздников и мероприятий. К безусловным достоинствам цифрового электронного инструмента – синтезатора относятся: тембровое многообразие, насыщенность и объемность звучания, относительная техническая простота исполнения на нем.

Во внеклассных мероприятиях синтезатор можно применять в музыкальном оформлении спектаклей, используя разнообразные звуковые эффекты, а также при вокально-хоровой работе с учащимися. Исполнение песен становится интересным, так как звуковое оформление становится современным.

## Литература:

1. Иззетова Д.А.Пўлатова. Философия и методология науки. Учебное пособие . Т., 2013.с.8-11.
2. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жёсткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности руководителя. –Т.; Узбекистан,2017.-56 с.
3. Саифназаров И. Мухтаров А.Султанов Т. Эрназаров Д.Илмий тадқиқот методологияси. Уқув- услубий кулланма.Т. 2019.
4. Заболотская И. В., Терентьева Н.А. Новые информационные технологии в музыкальном образовании. “Проблемы информатизации” теоритический и научно-практический журнал 1996.№ 4.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR BILAN JISMONIY TA'LIM YO'NALISHIDA INTERFAOL USLUBLAR VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH USLUBIYATI**

**Jo'rayeva Nargiza Tairovna** “Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi o'qituvchisi, **Akbarova Aziza, Axunova Munisa** talaba

Hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda ta'limning zamonaviy usullaridan foydalanish jiddiy ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun esa, avvalo, pedagog-tarbiyachilarning o'zlari ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Buning uchun ushbu masalalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bilan bevosita ta'lim jarayonida o'rganilmoqda. Xususan, pedagogik kengash, amaliy va nazariy seminar mashg'ulotlari xamda maslaxat-tavsiya berish jarayonida bu masala dolzarb bulib turibdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning turlari va yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan maktabgacha ta'lim tashkilotlarilarda ko'proq bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, didaktik o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihalash metodi kabilar kullaniladi. Shu jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kengashlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishga zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida belgilangan maqsad va vazifalarga mos keladigan ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanish ham muhim o'rin tutadi.

Bulardan “Aqliy hujum” va “Klaster” (tarmoqlash) metodlari turli mavzularda ko‘proq ishlatilib, turlicha talqin etiladi. Masalan, “Klaster” usulining turli mavzularga moslashtirilgan holda qo‘llanish shakllari klaster-chambarak, klaster-oval, klaster-yulduzcha, klaster-uzum shodasi va shu kabilardan iborat.

Klaster — bu interfaol usul hisoblanib, pedagogik-didaktik strategiyaning muayyan shaklidan iborat. U tarbiyalanuvchilarda fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi. Unda aniq bir obyekt tanlanib obyektning turli qirralari ochib beriladi va albatta tarbiyalanuvchilarda psixik protsesslarning rivojlanishiga yordam beradi. Bunda bolalarning ko‘rishi, sezgisi, xayol tezligi, nutqi va albatta tafakkuri rivojlanadi. Bolalar xayol qilishga, o‘ylashga, tasavvur qilishga, eng asosiysi esa, (xatomi, to‘g‘rimi) fikrlashgaharakatqiladilar. Bunday mashg‘ulotlarda ishtirokchi-tarbiyachilarni kichik guruhlariga ajratiladi yoki yakka tartibda topshiriqlar beriladi. Berilgan topshiriq - mavzulari yoki muammolarning yechimlarini topish uchun ularni mashg‘ulot rahbari bilan hamkorlikda pedagogik va psixologik nuqtai nazarlardan tahlil etib, xulosalar umumlashtiriladi. . Bunda ularni ijodiy fikrlashga yunaltiriladi.



Shunday usullardan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash, tarbiyachilar bunday mashg‘ulotlarni har turli qiziqarli shakllarda tashkil qilishlari mumkin. Shunday mashg‘ulotlardan biri multfilmlar mavzusidagi mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan klaster usuli - multklaster bo‘lib, bunday o‘yin shaklidagi mashg‘ulotning maqsadi bolalarni xayolan tasavvur qilishga, topqirlikka, nutqi ravon bo‘lishiga, so‘zlarni topib gapirishga, gap tuzishga o‘rgatishdir. Bu interfaol o‘yinda bolalarga multfilm qaxramonlari tasvirlangan klaster

namoyish etiladi va ularga oddiy savollar shaklida ifodalangan topshiriqlar beriladi. Interfaol usullarda qo'llaniladigan yondashuvlardan yana biri Venn diagrammasi bo'lib, undan asosan ikki yoki undan ko'p tushunchalarni o'zaro qiyoslash, o'zaro tahlil qilish, ayrim jihatlarini aniqlash va xulosalar chiqarish maqsadlarida foydalaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu usuldan tarbiyalanuvchilar uchun boshqotirma-o'yin shaklida ko'proq foydalaniladi. Bu o'yinda tarbiyalanuvchilarning tarbiyachi bergan yo'nalishga muvofiq berilgan mavzu bo'yicha mustaqil fikrlashlari tashkil qilinadi. Bolalar bir-biriga o'xshash predmet va hayvon, tabiat hodisalarining o'xshash taraflarini va asosiy farqlarini topadilar, ularning asosiy belgi va farqlarini o'yin orqali bilib oladilar, ularda mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi.

Amaliy tajribadan ma'lum bo'ldiki, ta'limning innovatsion usullarini nafakat pedagoglar va kata yoshli maktab o'quvchilari bilan, balki maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar bilan ham o'tkazish mumkin. Bu orqali bolalar dastur vazifalarini oson o'zlashtiradilar, o'rganganlarini uzoq muddat xotiralarida saqlab, turli xolatlarda o'rinli foydalanishga urganadilar. Natijada bolalarning o'ziga ishonchi oradi, mustaqil fikrlash, xulosalarini erkin bayon etishga o'rganadilar.

### **«MEVA VA SABZAVOTLARNI FARQLAYMIZ»**

*Jo'rayeva Nargiza Tairovna "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasida o'qituvchisi,  
Tashlanova Muxlisa, Ro'zmatova Maftuna talabalar*

**Mashg'ulot maqsadi:** Bolalarning tevarak - atrofga doir tushuncha va bilimlarini chuqurlashtirish, so'z boyligini oshirish, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishi, badiiy asardan zavqlanish ko'nikmasini shakllantirishda davom etish. Son-sanoq, geometrik shakllar haqidagi tushunchalarini mustahkamlash, matematika mashg'ulotda egallagan bilimlarini faollashtirish. Bolalarda kattalar mehnatiga hurmat hissini rivojlantirish. Applikatsiya orqali sabzavot va mevalarni tasvirlash malakasini o'stirish, tartibli ishlash, ish jihozlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini faollashtirish. Sabzavot va

mevalar nomi, turi, ishlatilishiga doir bilimlarini og‘zaki bayon etish ko‘nikmasini mustahkamlash. Mantiqiy savol – topshiriqlarni bajarishda mustaqil fikrlash va uni erkin bayon etish madaniyatini rivojlantirish, tabiatga doir tushunchalarini umumlashtirishda yordam berish.

Kerakli jihozlar: proektor, ekran, slaydlar, sabzavotlar va mevalarning asli hamda mulyaji, xaltacha, suratli kartochkalar, tarelka, sabzavot va meva bo‘laklari, cho‘p, oq qog‘oz, yelim, mo‘yqalam, salfetka, ta’limiy o‘yinlar, mantiqiy o‘yinlar kitobchalar.

Mashg‘ulotda bolalar faoliyatlarining o‘zaro bog‘lanishi:

AKT dan foydalanish,  
badiiy adabiyot,  
matematik tasavvurlar,  
jismoniy rivojlantirish,  
tevarak –atrof tushunchalari  
mantiqiy fikrlash,  
tasviriy faoliyat,  
ta’limiy o‘yinlar,  
mantiqiy o‘yinlar .

Mashg‘ulotning borishi: Bolalar, bugun bizning o‘yin va mashqlarimizni ko‘rgani kelgan mehmonlarimiz bilan salomlashamiz. Qarang, ular bizlarga juda qiziq sovg‘a bilan kelishibdi. (Proektor orqali qish fasliga doir tasvirlar bo‘yicha savol- javob o‘tkaziladi). Bolalar aytingchi, qish faslida kasal bo‘lib qolmaslik uchun biz qaysi meva va sabzavotlardan ko‘proq iste’mol qildik. Ha, piyoz, sarimsoq, limon va olmalar juda foydali. Piyoz va sarimsoq haqida bir so‘z bilan nima deb aytamiz? - sabzavot. Olma bilan limon-chi? –meva. Qarang, stolda meva va sabzavotlar ko‘p ekan, ularning nomi, qaerda o‘sishi, shakli va rangini aytib beramiz.

Endi, mana bu rasmlari kartochkalarni oling. Ularda nimalar tasvirlangan? Kaerda pishadi? Mevalarni kim yetishtiradi? Sabzavotlarni kim o‘stiradi? Kartochkalarni tegishli joyga qo‘yib chiqamiz.(shu yo‘l bilan bolalar ikki guruhchaga bo‘linib qolishadi “Mevalar”, “Sabzavotlar”) Men shu sabzavot va mevalar haqida topishmoq aytaman, siz javoblarini aytasiz. (AKT dan foydalanish). Bolalar, siz bu meva va

sabzavotlar haqida she'rlar yod olgansiz, aytib berasizmi?(guruhcha turiga qarab she'rlar aytib berishadi)

She'rlarni yaxshi yodlab olibsiz. Xozir esa "Ajoyib xaltacha" o'yinini o'ynaymiz. O'yin qoidasini bilib oling. (qoidasi tushuntiriladi). Qo'lingizga ilingan narsaning meva yoki sabzavotligi, shaklini aytib, keyin bizga ko'rsating. Mevalarni bu stolga qo'yamiz, sabzavotlarni esa bu stolga. Bolalar, keling, mashq bajarib ozgina dam olamiz. (fiz. daqiqa)

Sabzi, piyoz, kartoshkani yig'ib oldik polizdan. (1-marta bajarganda tizzalar bukilmadan, qo'llar pastga uzatiladi, 2- marta bajarilganda tizzalarni bukib o'tirishadi)

Olma, o'rik, shaftolini yig'amiz bog'imizdan (1- marta bajarishganda turgan joylarida qo'llarini tepaga uzatishadi, 2- marta bajarishda oyoqlar uchiga ko'tarilishadi).

Mashq sizlarga yoqdimi? Navbatdagi o'yinimiz: "Nimani olib qo'ydim?" Stol atrofiga kelinglar, bu yerda meva va sabzavotlar aralash turibdi, yaxshilab ko'rib oling. Endi orqa o'girib turamiz. Men ulardan birini olib qo'yaman, siz qaysini olganimni topib, aytasiz. (3-4 marta o'tkaziladi).

Bolalar, ko'zingizni yumib turing sizlarga sabzavot va meva bo'laklarini beramiz, mazasidan topib aytasiz. (bolalarga tarelkalarga kesib tayyorlangan sabzavot va meva bo'laklari maxsus cho'plarga ilib beriladi. Bolalar ko'zlari yumuq holda bu qaysi meva yoki sabzavotligini, nomini, pishirilganligi yoki xomligini aytishadi.)

Bolalar, stol atrofiga o'tiring, Hozir xohlagan usulingizda sabzavot mevalar tasvirini xosil qilishingiz mumkin, kim rasm chizmoqchi? Applikatsiya qilishni kim xohlaydi, marhamat, boshlang.( Bolalarga kerakli jihozlar beriladi, ular ishlayotganda shu meva va sabzavotlar, ularning yetishtirilishi, kim yetishtirishi, nimaga ishlatilishi, rangi, shakli... haqida savollar berib turiladi).

Sizlarga bugungi o'yinlarimizning qaysilari yoqdi?. Sabzavot va mevalar haqida bilib olganlaringiz va o'rganib olganlariningni uyda ham mustahkamlashingiz uchun sizlarga kitobchalar beraman. Ustiga nima chizilgan bo'lsa, davom ettirib, xohlasangiz chizing, xohlasangiz applikatsiya qiling, keyin olib kelsangiz, jihozlarimizga qo'shib

qo‘yamiz. Mashg‘ulotlarimizda yana o‘ynamiz. Sizga ota-onangiz, aka-opalaringiz yordam berishlari mumkin. Vazifa tushunarlimi. Unday bo‘lsa, mehmonlar bilan xayrlashib, guruhimizga boramiz.

## **MAKTABGACHA YOSHDA GI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA MILLIY XALQ O‘YINLARINING AHAMIYATI.**

*Jo‘rayeva Nargiza Toirovna “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrası o‘qituvchisi, Miraliyeva Nozima, Raximberganova Xusnibonu talabalar*

Yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, yetuk, jismoniy sog‘lom, baquvvat qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan kelajagimiz bo‘lmish bolaning ilk yoshlik chog‘idan boshlab ularning o‘sishi va tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanish ta’lim-tarbiya usuli va vositalaridan unumli foydalanish joizdir.

Tarbiya vositalari xaqida gapirar ekanmiz, bolalar uchun eng sevimli va quvonchli vosita bo‘lgan o‘yinning o‘rni beqiyosdir.

Milliy o‘yinlar bolalarning kuch va qobiliyatlarini o‘stiradi, ularni hayotga tayyorlaydi. Xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari kabi milliy harakatli o‘yinlar ham uzoq tarix osha bizgacha yetib kelgan. Milliy o‘yinlar orqali bolaning nutqi o‘sadi, aqliy qobliyat rivojlanadi. Jismonan epchil va baquvvat bo‘lib o‘sishi ta’minladi.

Milliy va harakatli o‘yinlar bolalarni iymonli, e’tiqodli, aqliy barkamol, sog‘lom qilib tarbiyalashda yordam beradi. Milliy o‘yinlarni xalq yaratgan, shuning uchun ular asrlar osha yashayveradi.

Xalq o‘yinlari bolalarning estetik didini oshiradi, odobli, ahloqli qilib tarbiyalaydi. Ularning til boyligini, eslash qobliyatini, ongini rivojlantiradi. Bolalar chek tanlash, sanash, qo‘shiq, she’r aytish orqali chaqqon va ziyrak bo‘lib o‘sadi.

Milliy harakatli o‘yinlarni mashg‘ulotlar davomida qo‘llash bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi, ularni kayfiyati va boshqa ruhiy sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatlar esa organizmda charchash asoratlarni ertaroq vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaydi, zo‘riqish holatlarini oldini oladi.

Tariximizdan meros bo‘lib qolgan o‘zbek xalq milliy o‘yinlari hayotda tadbqiq etishga kengroq yo‘l ochib berilishi, uni ommaviy tus oldirishi, oilada, maktabgacha ta‘lim muassasalarida, maktablarda, dam olish joylarida, xar xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirish o‘sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir etish muqarrardir. Milliy xalq o‘yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab, xalq marosimlarida, rasm-rusmlarida va urf-odatlarda mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda keng qo‘llangan. Jismoniy tarbiya xalqning urf-odatlarida, udum va rasm-rusumlarida shakllanib, ming yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan. Xalq milliy o‘yinlari ming yillar davomida bizgacha yetib kelgan o‘zbek milliy xalq o‘yinlari “Otda chopish”, “Uloq”, “ Kamonda otish”, “Ho‘roz jangi”, “Besh tosh”, “Sapalak”, “Kurash”, “Kim tez o‘raydi”, “Chillak” kabi va boshqa o‘yinlar orqali botirlik, epchillik, muvozanatni saqlash sifatlarini rivojlantirishda, hamda qaddi - qomatni shakllantirish, ahloq- odob, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni sayqal toptirishda va albatda sog‘liqni mustahkamlashda eng samarali vosita bo‘lib kelgan.

Ish tajribasidan “Kim o‘raydi” o‘yini

O‘yin maqsadi:

Bolalarni tezkorlikka, epchilikka o‘rgatish ularning jismoniy rivojlanishini oshirish.

O‘yin jihozlari uchun jihozlar.

Ikki bo‘lak arqon, uzunligi 4-5 metr, to‘rtta chillak , qalinligi 3 sm.

O‘yinning borishi

O‘yinda 6-8 nafar bola, to‘rt guruhga bo‘linib o‘ynashadi.

O‘yin uchun ikki bo‘lak arqon uzunligi 3-4 metr va to‘rtta chillak kerak bo‘ladi.

Bolalarni to‘rt tomonda qarama-qarshi shaklda joylashtiriladi. To‘rt tomondan bolalar “boshla” deyishi bilan arqoni o‘rab markazga qarab kelishadi. Markazga kim birinchi yetib kelsa, o‘sha bola g‘olib hisoblanadi.

O‘yin jarayonidagi erishilgan natija

1. Jismoniy:

•Qo‘llarni to‘g‘ri va tez harakatlantirish malakasi rivojlanadi.



Qo‘l mayda motorikasi rivojlanadi, iroda charxlanadi, tezkorlikka, epchillikka o‘rganadi.

2. Ijtimoiy ruhiy:

•“Lider” bo‘lishga intiladi.

3. Ma’naviy:

Harakatli o‘yin orqali milliy ruhni xis qilish, chaqqonlik.

Ta’kidlash joizki, agarda har bir o‘yinga shunday tavsif berilsa, o‘zbek xalq o‘yinlari va umuman harakatli o‘yinlar ancha yutuqqa ega bo‘ladi.

O‘zbek xalq o‘yinlariga tavsif: Hayoti zarur harakat malakalarini shakllantiruvchi o‘yinlar:Osilish va osilib chiqish: “Maymunchalar”, “Oq ayiqlar”; yurish, yugirish:“Quvlashmachoq ”, o‘tirish, turish: “Baqa”, “Tovuq va tulkilar”; to‘xtash sakrash: “Qarmoqcha”. Jismoniy sifatlari rivojlantiruvchi o‘yinlar: kuch: “Tortishmachoq” ; tezkorlik: “Kun va tun”; epchillik: “To‘p uchun kurash”, “Lapta”, “Qirq tosh”, “Besh tosh”.

Ma’lumki o‘zbek xalq o‘yinlari o‘z ichiga harakat jihatidan har xil jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlarni qamrab olgan. Shu bois ularni yo‘nalishlari bo‘yicha ajrata bilish zarur deb topiladi. Demak ularni tasniflash zarur o‘rinni egallaydi.

## **BOLALARDA IJOBIY XISLATLARNI TARKIB TOPTIRISHDA KITOB O‘QIB BERISH METODIKASIDAN FOYDALANISH**

*Jo‘rayeva Nargiza Tairovna “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va  
pedagogikasi” kafedراسi o‘qituvchisi,  
Lutfullayeva Odina, Telmonova Toxira talabalar*

Badiiy adabiyotdan foydalaniladigan mashg‘ulotlar g‘oyat osoyishta sharoit yaratilishini talab etadi. Muhimi, hech narsa bolalarni eshitishdan chalg‘itmasligi lozim. Mashg‘ulotni tez uyushtirish, uni bolalar adabiyotiga xos sog‘lom, optimistik xarakterda, xushchaqchaqlik bilan o‘tkazish kerak. Tarbiyachi bolalarni xushmuomalalik va osoyishtalik bilan o‘tirishga taklif etib, bolalarning qanday o‘tirganini tekshirib, mashg‘ulotni boshlaydi. Mashg‘ulot boshlangan vaqtdayoq

bolalarnishg diqqatini jalb etish juda muhim. Bunga ogohlantirish, po‘pisa qilish( «Eshitinglar, keyin sizlardan so‘rayman») bilan emas, balki qiziqarli muqaddima so‘zi, muqaddima suhbat bilan erishish mumkin. Chunki ularda kitob mazmuniga qarab yorqin surat, topishmoq, bolalar tajribasidan va hokazolardan foydalansa bo‘ladi.

Bolalar bilan o‘qib berishdan oldin va o‘qib berishdan keyin olib boriladigan dastlabki ish badiiy asarning mazmuniga bog‘liqdir. Ba‘zan tarbiyachi muqaddima so‘zida asarning nomi, avtorning ismi, mavzuni ma‘lum qiladi. Masalan, «Bugun men sizlarga o‘zbek xalq ertaklaridan “Uch og‘ayni botirlar” ni o‘qib beraman». Mashg‘ulotni muqaddima suhbat bilan boshlash mumkin. Masalan, S.Ya.Marshakning «O‘n ikki oy» ertagini o‘qib berishdan oldin:

Tarbiyachn: Bolalar, bir yilda necha oy borligini bilasizmi?

Bolalar yoki tarbiyachi: O‘n ikki oy.

Tarbiyachi: U oylar qanday ataladi?

Bolalar oylar nomini aytishadi, tarbiyachi esa, zarurat bo‘lsa, ularning javoblarini tuzatadi.

Tarbiyachi: Bir oy tugashi bilanoq ikkinchisi boshlanadi. Hech qachon hali fevral, yanvar tugamasdan kelmagan yoki may oyi aprelni quvib o‘tmagan. Oylar birin-ketin kelaveradi va hech qachon bir-biri bilan uchrashmaydi. Ammo odamlar tog‘lik o‘lka — Bogemiyada bir qiz bir vaqtning o‘zida o‘n ikki oyning hammasini ko‘rganligi haqida hikoya qiladilar. Bu qanday bo‘lgan?

Mana bunday . . .

Keyin tarbiyachi kitobdan o‘qiy boshlaydi.

Ertak o‘qib bo‘lingach, qizcha bir vaqtning o‘zida birdaniga o‘n ikki oyni qanday ko‘rganini, qiyin vaqtda oylar qizchaga qanday yordam berganligi va boshqalar haqida suhbat o‘tkazgan ma‘qul. Ayniqsa, ahloqiy-estetik va bilish mazmuniga ega bo‘lgan kitoblarni o‘qib berishda puxta tayyorgarlik talab qilinadi. Ahloqiy-estetik mazmundagi kitoblar bolalarda ahloqiy sifatlar, hulq-avtorlarning ijobiy formalarini tarkib toptirishga yordam beradi. Ya Sa‘dullaevaning. «G‘isht», “Buvijon”,F. Musajonovning «To‘lab ber», degan asarlari va boshqalar shunday kitoblar jumlasiga kiradi. Muhimi, bolalarning kitobni eshitish jarayonidayoq uning g‘oyaviy mazmunini

tushunib olishlaridir. Bunda muqaddima suhbat katta rol o'ynaydi, tarbiyachi bunday suhbatda bolalar diqqatini eng asosiy, muhim narsalarga jalb etadi

Bilim beruvchi kitoblar har xil bilimlar manbai bo'libgina qolmay, balki kishilarning mehnatiga hurmat, tabiatga nisbatan muhabbat va hokazo fazilatlar tarbiyalash vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun kitob bilan ishlashni shunday yo'lga qo'yish g'oyat muhimki, u bolalarda yuksak ahloqiy sifatlar tarbiyalash imkonini bersin (masalan, katta guruhda Q. Muhammadiyning «Etik» she'rini o'qish).

Mashg'ulotning maqsadi: Bolalarni etikdo'zning mehnati bilan tanishtirish, o'z mehnatiga hammani mamnun etadigan munosabati singari mehnat belgilarini yoritib berish. Mehnatkashga nisbatan hurmat, uning mehnatini qadrlash xislatlarini tarbiyalash.

Mashg'ulotning borishi

Tarbiyachi: Bolalar, oyoq kiyimingizga qarang, ular naqadar chiroyli: Shahnozada oq tasmali qizil tufli, Alisherda jigar rangdagi tufli (bolalar o'z oyoq kiyimlarini ko'zdan kechiradilar). Bolalar, o'ylab aytinglar, bunday chiroyli tufli, shippaklarni sizlar uchun kim tikkan, kim siz uchun harakat qilgan? (bolalarning javoblari) Bolalar, sizlar va hamma odamlar uchun oyoq kiyiminn kim tikishi haqida eshitishni istaysizlarmi? Hozir sizlarga o'zbek shoiri Q. Muhammadiyning «Etik» she'rini o'qib beraman.

II. She'rni ifodali o'qish.

III. O'qigan she'r haqida suhbat:

Tarbiyachi: Salimjonga nimani sovg'a qilishdi? Nima uchun Salimjonga yangi etigini ehtiyot qilishni tayinlashdi? Bu etikni kim tikkan? Nima uchun etik bunday chiroyli va pishiq qilib tikilgan? (odamlar yaxshi tikishga harakat qilishgan) Ustalar kim uchun bunday yaxshi oyoq kiyimi tikishga harakat qilishdi? Salimjon nima deganini aslang-chi

Tarbiyachi bolalar javobidan so'ng she'rdan quyidagi to'rtlikni takror o'qiydi:

«Bilib qo'y, shuning uchun,

Mehnatlarni hurmatlab,

Qovurg'ang sinmasin deb,

Bosayapman puf-puflab».

Ustalar Salimjon degan bola va boshqa kishilar uchun chiroyli etik tikishga juda ko'p mehnat sarflashgan. Bunday chiroyli poyabzalni kiyib, xursand bo'lishlarini o'ylashgan. Salimjonga ham yangi etik juda yoqdi va u etikni ehtiyot qildi. Eslang-chi, u etigiga qanday qarardi. Nima uchun etigi doimo toza va yaltirab turar edi? Xo'sh, sizlar uchun ustalar — etikdo'zlar tayyorlagan oyoq kiyimingizga o'zlaringiz qanday qaraysiz? Uni qanday saqlash lozim? She'r o'qib bo'lingandan keyin bolalarning asarni yaxshiroq eslab qolishlari hamda o'z hayotiy tajribalari bilan bog'lashlari uchun ham ular bilan suhbat o'tkaziladi. Agar bolalarning o'yinlari haqidagi kitob o'qib berilsa, o'qib bo'lingandan so'ng kitobda faqat nima yozilganligi haqidagina emas, balki bolalarning uyda va bog'chada nimani qanday o'ynashlari haqida ham gaplashib olish lozim.

O'qilgan materialni mustahkamlash usullari. Bolalarga o'qilgan asarni chukurroq o'zlashtirib olishda, eslab qolishda yordam berish uchun tarbiyachilar turli metodik usullardan: takroriy o'qib berish, hikoya qilib berish, dramalashtirish va boshqa usullardan foydalanadilar.

## **KITOBLAR BIZNING DO'STIMIZ**

*Jo'rayeva Nargiza Tairovna "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasida o'qituvchisi,  
Shavkatova Shaxnoza, Dehqonova Risola talabalar*

Maqsad: Bolalarga kitoblarni sevishga, ularni avaylab-asrashga o'rgatish. Kitob turlari, ular nimalardan tashkil topganligi, jihozlari, kitob yaratish mehnati haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Kutubxona, kutubxonachi haqidagi ilk tasavvurlarini boyitish. Lug'atini tabiatga doir bilimlar bilan boyitish, meva va sabzavotlarni turkumga ajratib, javoblarini mustaqil izohlashga odatlantirish, bolalarda diqqatni jamlash, fikrini erkin bayon etishga intilishni rivojlantirish. Fazoviy idrokini takomillashtirish.

Mashg'ulotning jihozlari : Kutubxona maketi, kitoblar, rasm-suratlar, «O'yla,izla,top!», «Bosh tovushidan top!», «Nima ortikcha?», «Nima yeydi» kabi o'yin turlari.

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi: Bolalar, diqqat qilib tinglang, hozir sizga Abdulla Oripovning «Ona tilimga» she'rini o'qib beraman.

Ming yildirki, bulbul kalomi.

O'zgarmaydi, yaxlit hamisha,

Ammo sho'rlik tutining xoli.

O'zgalarga taqlid hamisha,

Ona tilim, sen borsan, shaksiz

Bulbul ko'yin she'rga solaman.

Sen yo'qolgan kunda, shubhasiz

Men xam tuti bo'lib qolaman.

Bolalar, she'r mazmunini tushundingizmi? U nima haqida ekan? Biz o'zbek farzandlarimiz. Bizning ona tilimiz – o'zbek tili. Biz til o'rganganimizda nima zarur bo'ladi? Albatta, kitoblar kerak bo'ladi. Hoziri sizlarga kutubxona haqida so'zlab beraman. Kutubxona kitoblar turadigan, saqlanadigan joy, u yerdan hohlagan kitobni olib o'qish mumkin. Kitoblarni o'qib bo'lib, yana kutubxonaga qaytib berish kerak, uni ayab, yirtmay, varaqlariga chizmasdan o'qiymiz. Kutubxonaga topshirgan kitoblarimizni bizdan keyin yana boshqa odamlar so'rab olishadi. Bolalar, qo'limdagi rasmlarga qarangchi, bu «Qaysi jonivor nima yeydi?» o'yiniga chizilgan rasmlar. Rasmlarini diqqat bilan ko'rib chiqsangiz, ertaklarni eslaysiz, Kani, kim topag'on ekan? (Bolalar rasmlarni kuzatib, tulkiga baliq, quyonga sabzi, echkiga karam berish kerakligini aytishadi, ertakning nomini topishadi) Barakalla, sabzavotlarni nomlab, ularning shakli, rangi, o'sishi haqida ham aytib bera olasizmi? Rahmat, mashg'ulotlarda o'rganganlarimiz esingizdan chiqmabdi. Sabzavotlarning foydalari ham esingizdami? Topishmoqlarning javobini kim aytadi?

Makonidir dalalar

Yer tagida bolalar (kartoshka)

O'rmasada- yig'latadi (piyoz)

Qat-qat tunli

Qarich bo'yli (karam)

Yer tagida

Oltin qoziq (sabzi)

- Endi esa, rangiga qarab iplarni bog'lab chiqamiz. Bu yerda nimalar tasvirlangan? Bosh tovushlari biri xil bo'lgan rasmlarni topib, rangli ip bilan birlashtiramiz.(topshiriq bajariladi)

Bolalar, sabzini qaysi hayvon yaxshi ko'radi. Quyunchaga o'xshab sakrangchi,

Oq quyon, oppoq quyon,

Qaraydi u yon- bu yon.

Quyvon bo'lib sakraymiz,

Va darrov o'tiramiz.

Mustahkamlash: Bolalar kitob haqida o'rgangan she'rlarini yoddan o'qib berishadi.

Mashg'ulotning yakuni: Bolalar faoliyatini baholab, rag'batlantirish.

## **TARBIYACHILIK KASBIDA PORTFOLIONING AHAMIYATI VA YURITILISH TARTIBI.**

*Imamova N.Z. Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi*

Yosh avlod tarbiyasida tarbiyachilar o'z kasbini sevishi, kompetentligi orqali inson hayotiga, shaxs tarbiyasiga, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatadilar.

Tarbiyachi kasbi boshqaruvchi va shakllantiruvchi xususiyatga ega. Shaxs shakllanishini boshqarish o'z kasbiga professional yondoshishni talab qiladi. Bu o'zida tarbiyachining nazariy va amaliy tayyorgarligini jamlagan holda uning kasbiy mahoratini namoyish qiladi. U yoki bu kasb yo'nalishi bo'yicha tarbiyachining malakaviy tasnifi pedagog kompetensiyasi modeli me'yorlari bilan o'lchanadi.

Tarbiyachining kompetentligida u zamonaviy texnologiyalarda, ohirgi metodlardan foydalana olishi lozim. Bugun tarbiyachining yuritadigan portfoliosi

haqida suhbatlashar ekanmiz, “Portfolio nima?” , “Tarbiyachi portfoliosida nimalar bo’ladi?” kabi savollarga javob berishimiz kerak bo’ladi.

Portfolio — so‘zi ingliz tilidan tarjima qilinganda “muhim hujjatlar papkasi” degan ma’nonini bildiradi. Shuningdek, portfolio mutaxassisning o‘ziga xos yutuqlari jamlanmasi vazifasini ham bajaradi. Har bir ta’lim muassasasida pedagog shaxsi asosiy o‘rinni egallaydi. U o‘z faoliyatini tashkil qilishda o‘quv, ilmiy hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni to‘g‘ri rejalashtirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishda o‘zgarib boruvchi zamonaviy talablar tezkor ravishda moslashib borishi lozim. Zamonaviy ta’lim muassasalari ta’limning milliy modeliga o‘tishida ijodiy fikrlovchi, ta’limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini qo‘llay oladigan yangi toifadagi o‘qituvchilarni talab etadi. Ma’lumki, mutaxassis kadrlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi ko‘p hollarda uning ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyati, o‘zgaruvchan mehnat sharoitiga moslasha olishiga bog‘liq. Ushbu holatlarni e’tiborga olishda o‘qituvchi portfoliosi texnologiyasidan foydalanish muhimdir. Bu an`ana qayerdan paydo bo’ldi? Hayotiy zaruratmi? “Portfolio” tushunchasi XV-XVI asrlarda G‘arbiy Yevropadan kirib kelgan bo‘lib, uyg‘onish davrida arxitektorlar o‘z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan xujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatlari haqida taassurot hosil qilgan. Hozirgi vaqtda esa biznes olamida portfolio firmaning yutuqlarini ko‘rsatish, fotosuratchi va fotomodellar sohasida esa – suratlar albomi sifatida ishlatiladi. Portfolioni ta’lim sohasida qo‘llash g‘oyasi, 80-yillarning o‘rtalarida AQShda paydo bo’ldi. AQSH va Kanadadan so‘ng, portfolio g‘oyasi Yevropa va Yaponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g‘oya Rossiyada keng tarqaldi va hozirgi kunda bu g‘oya O‘zbekistonda ham keng yoyilgan.

Tarbiyachi portfoliosi – tarbiyachining pedagogik faoliyatida foydalanish maqsadida o‘zi tayyorlagan yoki to‘plagan hamda tizimga keltirgan metodik materiallar yig‘indisidir. Mazkur materiallar qog‘oz yoki elektron variantda bo‘lib,

prezentatsiyalar, dars ishlanmalari, elektron resurslar, boshqa tarbiyachilarning ilg'or ish tajribalar, metodik tavsiyalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Portfolio tarbiyachiga mashgulotlarni qiziqarli va samarali tashkil etish bilan birgalikda, o'z hamkasblarining ilg'or ish tajribalaridan xabardor bo'lish hamda o'z tajribasini ommalashtirish imkonini beradi. Bu tadbirni nafaqat tarbiyachilari balki, ta'lim muassasasi rahbarlari hamda barcha fan metodistlari tomonidan ham amalga maktabgacha ta'lim muassasalarida oshirilishi tavsiya etiladi.

“Tarbiyachi papkasi” ning strukturasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Tarbiyachi to'g'risida umumiy ma'lumotlar:

Ismi – sharifi;

Ma'lumoti;

Mutaxassisligi;

Pedagogik ish staji;

Tarbiyachilik qilayotgan guruh nomi;

Ish stavkasi;

1. Tarbiyachining o'z ustida mustaqil ishlash yo'nalishi va unga oid materiallar:

Malaka oshirish kurslaridan o'tganligi;

Malaka oshirishdagi ijodiy ishlari;

Konferensiyalar, seminar va turli o'quvlarda ishtiroki;

3. Tarbiyachining muvaffaqiyatlari;

Ilg'or ish tajribasi, yaratgan yangiliklari, o'zining mahorati, mukofotlari, ilmiy darajasi.

Adabiyotlar:

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2003. – 190 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste'dod” jamg'armasi, 2009. – 160 b.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004. – 104 b.



## PEDAGOGNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI VA PEDAGOG IMIDJI

*Imamova Nilufar* TDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti o’qituvchisi,  
*Norbekova R.* “Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi talabasi

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bir qatorda bugungi kunda ta’lim tizimining rivojlanib borishi zamon talabiga mos ta’lim-tarbiyaga qaratilgan masalalardan hisoblanadi. Pedagoglarning o’z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda, o’quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etish uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ijtimoiy tajribalarga asosan ish olib borish lozimdir. Pedagogika atamasi ham qadimiy bo’lib, “bola yetaklovchi” degan ma’noni bildiradi. Qadimgi Gretsiyada o’z xo’jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini, ya’ni qullarni “pedagog” (bola yetaklovchi) deb atashgan. Bundan keyin esa, maxsus o’qitilgan va pedagoglikni o’ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan. Pedagogikaning bosh masalasi bu - tarbiya. Tarbiya - shaxsni muayyan yo’nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir biriga ta’sir ko’rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Insonni tarbiyasi haqidagi g’oyalar, qoidalar, qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalarda aks etgan. Pedagogikaning fan sifatida shakllanib, boyib borishida Sharq va G’arb qomusiy olim-pedagoglarining o’rni kattadir. Faylasuf Forobiy o’zining «Fozil odamlar shahri» asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab berdi. A.Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud ahloq” asarida tarbiya oid: “Tarbiya biz uchun hayot - mamot, najot - haloqat, yo saodat - yo faloqat masalasidir” haqiqiy tarbiyaning ildizlarini ko’rishimiz mumkin.

Pedagoglik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, pedagog yosh qalblar kamolotining me’moridir. Bugun u yoshlarni g’oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, tafakkur taraqqiyoti, qonuniyatlarini o’rgatar ekan, avvalo, u yosh avlodni kelajak mehnat faoliyatiga tayyorlashi, kasb – hunar egallashlariga ko’maklashishi va jamiyat uchun muhim bo’lgan ijtimoiy – iqtisodiy vazifani hal etishga chog’lamog’i darkor. Ana shu ma’suliyat pedagogdan o’z kasbining moxir ustasi bo’lishni, o’quvchi - yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatib, ularning qiziqishi,

qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun pedagogik mahorat fani pedagogdan doimo kasbiy mahorati ustida izlanish uchun, unga turli shart – sharoitlar yaratishi, kerakli moddiy va ilmiy – metodik yordam ko'rsatishi hamda pedagogning ijodiy tashabbuskorligini oshirishiga ko'maklashadi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'zini-o'zi va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim - tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli pedagog deyishimiz mumkin.

Zamonaviy pedagog qiyofasi deganda uning tashqi va ichki ko'rinishi nazarda tutiladi. Pedagogning tashqi ko'rinishi "pedagogning imidji"ga albatta mos bo'lishi lozim. Shuningdek, tarbiyachining qiyofasi uning chehrasida va kiyinishida namoyon boladi. Tarbiyachi har qanday kiyimda yurishi mumkin emas. U toza va ozoda, bejirim va latofatli kiyinishi kerak. Bolalar pedagogini, birinchi navbatda, chiroyli kiyingani, nafis pardoziga qarab ham yaxshi ko'radi. Undan keyin, uning chehrasiga, ko'zlaridagi mehrga qaraydilar. Agar pedagogning ko'zlarida bolalarga nisbatan mehr bo'lmasa, u qanchalik chiroyli va qimmatbaho kiyingan bo'lmasin, bolalar uni yaxshi ko'rmaydi. Shu sababli pedagogning istarasi issiq bo'lishi ham zarur. Pedagog hamisha darsga ochiq chehra bilan kirishi kerak. Nutq madaniyatiga rioya qilishi, shevadan qochib,

adabiy tilda, chiroyli muomalada soʻzlashi lozim. Pedagog chiroyli gapira olishi, yaʼni notiqlik sanʼatini ham egallagan boʻlishi lozim. Aslida, har qanday insonga ham kiyinishiga, koʻrinishiga va gapirishiga qarab baho beramiz. Shuning uchun shu uchta belgi insonlar toʻgʻrisida xulosa chiqarishning birlamchi belgilari hisoblanadi. Toʻrtinchidan, pedagog oʻz kasbini sevishi, mutaxassisligi boʻyicha yetarli bilimga ega boʻlishi kerak. Beshinchidan, darsni oʻquvchilarga oson, qulay va qiziqarli qilib tushuntira olishi kerak. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, pedagogdan juda koʻp kasbiy va insoniylik hislatlari talab etiladi. Shu sababli pedagog oʻz ustida tinimsiz va muttasil ishlashi, oʻzini isloh etib borishi, bilimi va hulqini doimiy takomillashtirib borishi zarur.

### **Adabiyotlar:**

1. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2003. – 190 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (taʼlim muassasalari pedagog-oʻqituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Isteʼdod” jamgʻarmasi, 2009. – 160 b.
- 3. Yoʻldoshev J.Gʻ., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: Oʻqituvchi, 2004. – 104 b.

## **YANGI OʻZBEKISTONDA MAKTABGACHA TAʼLIM TIZIMIDA ROʻY BERAYOTGAN ISLOHOTLAR.**

*Yo.O`Irisboyeva Maktabgacha ta`lim psixologiyasi va pedagogikasi  
kafedrasi katta o`qituvchisi*

*Y.Normatova Maktabgacha ta`lim yo`nalishi 103gurux talabasi*

Maktabgacha taʼlim sohasida misli koʻrilmagan oʻzgarishlarni bugun har bir yurtdoshimiz, shu jumladan oʻzimiz ham sezib, kuzatib turibmiz. Uzluksiz taʼlimning poydevori hisoblangan maktabgacha taʼlim tizimini tubdan isloh qilish toʻgʻrisida muxtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan qator qonunlar qabul qilinmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bulardan biri “Oʻzbekiston respublikasi maktabgacha taʼlim vazirligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida,,gi qaror boʻlib bu qarorga muvofiq sohada yangi tizim yaratildi.

-Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy -texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalar qamrovini 100%ga, ta'lim tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifasi qo'yildi,-deydi: maktabgacha ta'lim vaziri Agrebina Shin.

Hozirgi kunga kelib har bir viloyat, tuman, shahar va chekka qishloqlarda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurib foydalanishga topshirilmoqda. bundan kutilgan maqsad bolalarda uzluksiz ta'limning poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotga bolalarni qamrovini oshirish va ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish xislarini rivojlantirish va maktabga sifatli tayyorlash asosiy maqsad qilib olingan, albatta bu natijaga erishish uchun tarbiyachidan katta mahorat bilim va o'z kasbiga ma'suliyat talab qilinadi. Biz talabalar kelajakda tarbiyachi bo'lar ekanmiz, birinchi navbatda bolani sevishimiz, unga mehr berishimiz, boladagi ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantira olishimiz zarur.

Oliy o'quv yurtlarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga "Davlat talablari", "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi pedagogic jarayonga tatbiq etilmoqda. Men taxsil olayotgan Toshkent davlat pedagogika universitetining maktabgacha ta'lim fakultetida ham prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan qator qonunlar amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Jumladan, "Ik qadam,, davlat o'quv dasturi asosida bizning fakultetda maktabgacha ta'lim tashkiloti ko'rgazmali xonasi, tarbiyachining ish hujjatlari, rivojlantiruvchi markazlar, amaliyot xonalari, "Pedagogic-psixologik va analitik xizmat" ilmiy amaliy o'quv markazi, "Kamalak" MTTsi tashkil etilib, darslar olib borilmoqda, bundan ko'zlangan maqsad biz talabalarga nazariy va amaliy bilimlarni birgalikda o'rgatilib, kelajakda o'z kasbimizning mohir pedagoglari bo'lib chiqishimiz asosiy maqsad etib olingan. Biz talabalar o'z ustimizda ishlash, bilim olish va

o'rgangan nazariy bilimlarimizni amaliyotda ham bekami ko'st tatbiq eta olishimiz talab etiladi.

Bola tarbiyasi avvalo uyda shakllanadi. 3yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda esa maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari tomonidan rivojlantirib boriladi. Tarbiyachi qachonki bolaning ota-onasi bilan hamkorlikda ish ko'rsagina bolada o'sish kuzatiladi, afsuski atrofimizda shunday insonlar borki o'zidan ortib bola tarbiyasiga e'tibor qarata olmaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ular uchun faqatgina farzandlarini qornini tuyg'azib, bolaga qarab turishi uchungina kerak. bolaning ta'lim tarbiyasi bn esa qiziqishmaydi. bunday oilalarni biz ma'nan nosog'lom oila desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “ ilk qadam,, davlat o'quv dasturi asosida bola o'zi xoxlagan beshta markazdan birida faoliyat olib bormoqda. Bunda bolani ijodiy qobilyatlarini, nima sohaga qiziqishini kuzatib o'rganiladi.bola bu markazlarni ozi mustaqil tanlab faoliyat yuritar ekan unda avvalo mustaqil fikrlash,erkin qaror qabul qilish kabi ijobiy hislatlar paydo bo'lib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormagan bolalarda esa o'quv jarayonlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklar kuzatiladi u tengdoshlariga nisbatan ortda qolishi mumkin. bolada yoshligidan boshlab bilim olishga bo'lgan qiziqishi shakllansa bola kelajakdaalbatta o'z o'rniga ega buyuk shaxs bo'lib yetishadi.

Tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamoq ,vujudimizni quvvatlantirmoq, ahloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim.-o`zbek pedagogikasi asoschilaridan Abdulla Avloniy.

Buyuk mutaffakkirlarimizning tarbiyaga bergan ta'riflarini o'qir rkanmiz bola tarbiyasida ota-onaning roli nechog'liq muhim ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz.

Bobomiz Abu Ali Ibn Sinoning fikricha: bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi odatlarga o'rgatilishi kerak. bu esa unda mustahkam xarakter shakllanishiga zamin yaratadi.

Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim tarbiya tizimi haqida gapirganda. abdulla avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi:ta'lim tarbiya-biz uchun hayot mamot masalasidir. qaysi sohani

olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi-deydi, prezidentimiz Shavkat mirziyoyev.

Biz shunday davrning talabasi bo'lganimizdan faxrlanamiz va albatta a'lo o'qish va xulqimiz bilan etuk mutaxassis bo'lib mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z xissamizni qo'shamiz.

### **Adabiyotlar.**

1. "Ilk qadam,, davlat o'quv dasturi. 2018-yil.
2. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. t.:tdpu 2019.
3. Shavkat mirziyoyev. "yangi o'zbekiston strategiyasi,,.
4. Barakaev. "O'zbek bolalar adabiyoti va abdulla avloniy ijodi 2004

## **MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KASB TANLASHGA QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON O'YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI**

*Isabekova Dilafruz* *Shermizayevna* TDPU "Maktabgacha ta'lim"  
magistranti

"Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" da shunday deyilgan Maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olganmiz. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida yaratilgan qonunlar, qarorlar, dasturlar o'quv jarayoniga zamonaviy yondashilganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini tubdan yangilash va takomillashtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga

aylandi. Shu yillar mobaynida yurtimizda mazkur sohani rivojlantirishning mustahkam huquqiy-institutsional asoslari yaratildi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz”, - deb ta’kidlagan edi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri bu professional ma'lumotdir. Bola kasblar dunyosi qanchalik xilma-xilligini, ularning har biri o'ziga xosligini tushunishi kerak. Shunga ko'ra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasb tanlashga qiziqishlarni shakllantirishning turli yo'llari mavjud. Bularga mashg'ulotlar, sayr va ekskursiyalar, bayram ertaliklari, kasb egalari bilan suhbatlarni misol qilib olish mumkin. Bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirishning eng yaxshi usuli bu o'yindir. O'yinlarni biz turli guruhlariga, turkumlarga ajratganmiz: qoidali va ijodiy o'yinlar. Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlari o'ylab topishadi. Unda o'yin qoidalari bo'lmaydi. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlari.

Ammo hozirgi kunda biz asosan biladigan va foydalaniladigan o'yinlar sirasiga yangi elektron o'yinlar ham kirib kelmoqda. Elektron o'yinlarga biz kompyuter o'yinlari va mobil o'yinlarni kiritamiz. Bunday o'yinlar ma'lum bir dastur asosida yaratilgan bo'ladi. Aynan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan o'yinlar ham ishlab chiqilgan.

Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan elektron o'yinlarga fermerlik, dehqonchilik, quruvchilik, oshpaz, o'qituvchi, tikuvchi, bog'bon va boshqa kasblarga mo'ljallangan o'yinlarni olishimiz mumkin. Bunday o'yinlarda bolalar kasb doirasida vazifalarni bajaradilar. Masalan, bog'bon

bo'lib, belgilangan vaqt ichida bog'ga gullar ekadi, unga suv qo'yadi, tagini yumshatadi, o'sgan paytda ularni uzib olib, bozorga sotishga olib boradi. Elektron o'yinlarni o'ynash va undagi vazifalarni virtual tarzda belgilangan vaqtda sabr-toqat bilan bajarishga harakat qiladilar.

Elektron o'yinlarni bajarish orqali bolalarda kattalar mehnatiga hurmat, ularning kasbiga qiziqish, mehnatni qadrlash, vazifani o'z vaqtida to'g'ri bajarish, o'zining natijasidan zavqlanish kabi ahloqiy-estetik tuyg'ular shakllanadi. Bolalar kasblar haqidagi tushuncha, bilimga ega bo'lishi bilan birga, bu boradagi bilimlari virtual tarzda mustahkamlaydilar. Shu bilan birga, bolalarda zamonaviy axborot texnologiyalardan to'g'ri foydalana olish ko'nikmasishakllanadi.

Ammo bunday electron o'yinlardan foydalanishning o'ziga yarasha talablari va shartlari bor:

1. Bolaga beriladigan elektron o'yinlar uning yoshiga mos bo'lishi va uning ruhiyatiga zarar yetkazmasligi yani tajovuzkor, vahshiy o'yin bo'masligi lozim;
2. Elektron o'yinlarning o'ynash vaqti 5-10 daqiqadan oshmasligi lozim;
3. Elektron o'yinlar bolaning aqli, tafakkuri, tasavvuri, dunyoqarashi va nutqini o'stirishga xizmat qilishi shart;
4. Elektron o'yinlarni tanlashda o'yinning mazmuni, usdagi qahramonlar ko'rinishi, voqelar rivojiga, tarbiyaviy ahamiyatni hisobga olinadi;
5. Elektron o'yinlar bolaga zavq va quvonch berish bilan birga, kattalar mehnatiga nisbatan hurmat va qizishni tarbiyalashi lozim.
6. Elektron o'yinlardan foydalanish borasida eng avvalo, tarbiyachi avborot texnologiyalarni yaxhi egallagan bo'lishni talab etadi;
7. Elektron o'yinlardan haftada 1-2 marta foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ta'lim jarayoniga yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini kirib kelishi va ularning joriy qilinishi tizimni rivojlanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasb tanlashga qiziqishlarni shakllantirishda electron o'yinlardan foydalalanish juda yaxshi samara beradi. Faqatgina, zarur taablar va shartlarga rioya qilinsagina, biz kutgan natijaga erisha olamiz.



### **Adabiyotlar:**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. 2020 yil
2. F.R.Qodirova, N.M.Qayumova va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. T. 2019
3. Mdo.uz
4. Lex.uz

## **OILA MUHITIDA TARBIYA METODLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

*Kamalova Gavhar Akbarovna Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti magistranti*

Zamonaviy sharoitda yosh avlodning chuqur bilimlarga ega bo'lishi muhim o'ziga xos dolzarflik kasb etadi. Oila tarbiyasini tashkil etish chog'ida qo'llanilayotgan tarbiya metodlari o'zlarining yo'nalishi, mazmuni va asosiy g'oyasiga ko'ra rang-barangdir. Oila tarbiyasi metodlarini quyidagi tarzda guruhlash mumkin:

1. Mazmuniga ko'ra.
2. Qo'llanilishiga ko'ra.
3. Ta'sir darajasiga ko'ra.

O'z navbatida oila tarbiyasida qo'llaniladigan metodlar guruhining har biri ham alohida guruhlariga ajratiladi. Ular:

I. Mazmuniga ko'ra: 1) ijobiy xarakterga ega metodlar; 2) salbiy xarakterga ega metodlar.

II. Qo'llanilishiga ko'ra: 1) faol qo'llaniladigan metodlar; 2) kam qo'llaniladigan metodlar.

III. Ta'sir darajasiga ko'ra: 1) faoliyatdan norozilikni ifoda etuvchi metodlar; 2) faoliyatni rag'batlantiruvchi metodlar; 3) faoliyatning ta'qiqlanishiga olib keluvchi metodlar.

Bolalarning ta'lim-tarbiya berish yo'nalish va mazmunga ega faoliyatlarini tashkil etish jarayonida ham bevosita talab zarur. Mazkur o'rinda bevosita talab mohiyatiga ko'ra yo'l-yo'riq berish kabi namoyon bo'ladi. Bevosita talab aksariyat vaziyatlarda farzand ota-onalarining fikri yoki ma'lum faoliyatga nisbatan betaraf

munosabatda bo'layotgan bo'lsa qo'llaniladi. Qayd etilayotgan jarayonda bevosita talabning quyidagi qoidalarga muvofiq bo'lishi muhim ahamiyatga ega:

1) talab ijobiy mazmunga ega bo'lishi, bolalarni aniq xatti-harakatlarni tashkil etishga yo'naltirishi, ular tomonidan tashkil etilayotgan muayyan harakatlarni ta'qiqlash yoki to'xtatishga xizmat qilmasligi lozim. Albatta, tarbiya jarayonida ma'lum ta'qiqlardan bolalar belgilangan ijtimoiy hulq-atvor qoidalarini buzganlarida samarali foydalanish zarur. Biroq talablarning faqatgina ta'qiqlardan iborat bo'lishi pedagogik jihatdan noto'g'ridir. Talablarning qo'yilishidan ko'zlangan asosiy maqsad ular e'tiboriga bolalarning ijobiy hulq-atvori va faoliyati uchun harakat dasturining berilishi bilan tavsiflanadi.

2) bevosita talab aniq maqsadga yo'naltirilgan, to'laqonli ifodalangan mazmunga ega, aniq va tushunarli bo'lishi lozim. Dastlabki paytlarda bolalarning yangi harakatlarini rag'batlantirganda talab yo'l-yo'riq berish bilan qo'shib ketganday bo'ladi. Bunday holat talablar mazmunini soddalashtirib, mohiyatini aniq yoritib beradi;

3) ota-onalar tomonidan ifodalanayotgan har bir oqilona talab, albatta, bajarilishi, yakuniga yetkazilishi kerak.

Shuni yodda tutish kerakki, har bir yangi talabning bajarilishi ota-onalar tomonidan qo'yiluvchi navbatdagi talablarining kuchi va ta'sirchanligini oshiradi, bolada ota-onasining irodasiga ongli yondashish odatini shakllantiradi. Har bir bajarilmagan talab esa, aksincha, navbatdagi talablarning samaradorligini pasaytirdi.

Bevosita talablarning ijrosi haqida so'z yuritilganda, ularning qat'iy, ishonarli ohangda bayon etilishi muhim ekanligiga e'tiborni qaratish talab etiladi. U vazmin, jiddiy holatda ifoda etilishi, baqiriqqa, bolani haqorat qilishga aylanib qolmasligi kerak.

Bilvosita talablarda ota-onalarning maqsadi to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmay, balki, bir qadar yashirin tarzda bo'ladi. Talabalarni qo'yishda rag'batlantirishdan ham foydalaniladi. Rag'batlantirish omili sifatida faqat talabning o'zidan emas, balki bir qator psixologik omillar, ya'ni, bolaning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, hayotiy

ehtiyoblari va qiziqishlariga tayaniladi. Bevosita talablarni mohiyatiga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Ota-onalarning farzandlariga bo'lgan ijobiy munosabatini ifodalovchi talablar. Bular – iltimos, ishonch, ma'qullashdir. Ayni o'rinda ularni *ijobiy talablar* deya nomlash mumkin.

2. Ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabatini yaqqol ifodalovchi hamda farzandlarni muayyan faoliyatga rag'batlantiruvchi munosabatlar mohiyatini yorituvchi talablar. Bular – maslahat, sha'ma, shartli talab va o'yin shaklidagi talabdir.

3. Bolalarning u yoki bu ahloqiy xislatlariga salbiy munosabatni namoyish etuvchi talablar. Bular – ishonchsizlik bildirish va do'q qilishdir. Ularni *salbiy talablar* deb atash mumkin.

Talab mazmun jihatidan ham, shakl jihatidan ham rivojlanib boradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, pedagogik vaziyatlar o'zgarimas holat emas, ular doim o'zgarib turadi. U yoki bu metodlarni tatbiq etib, bolalar faoliyatida muvaffaqiyatga erishar ekanlar ota-onalar mavjud vaziyatning zarur yo'nalishida rivojlanishini boshqaradi. Ota-ona bevosita talablarni qo'yar ekan, bolalar bilan muayyan munosabatlarga kirishadi va ayni vaqtda ularda bajariladigan faoliyatga munosabatni shakllantiradi. Shu bilan u bevosita talablarning muvaffaqiyatli tatbiq etilishi uchun shart-sharoit hozirlaydi.

Shu bilan birga, tarbiya jarayonida ijobiy talablardan ko'proq foydalanilayotgan oilalarda ota-onalarning bolalarni hurmat qilishlari, ularga nisbatan mehribon ekanliklariga guvohi bo'ldik. Shuningdek, bunday oilalarda bolalar tomonidan ota-onalar tomonidan bildirilayotgan ko'rsatmalarning aniq bajarilishi kuzatildi. Aksincha, salbiy metodlarni suiiste'mol qiladigan ota-onalarni bolalar hurmat qilmaydilar, oilada intizom mavjud emas, tarbiyaviy jarayon samarali tashkil etilmaydi.

Bu albatta, tasodifiy emas. Bolalarga ijobiy munosabatda bo'ladigan, ularga bo'lgan munosabatlarini ishonch bilan ifodalaydigan ota-onalarning o'z faoliyatlaridan qoniqish hosil qiladi. Bunday muhitda bolalar bilan ota-onalarning samimiy munosabatlari rivojlanadi. Va aksincha, ota-ona bolalar faoliyatini nazorat qila olmasa, ularda ma'naviy-ahloqiy sifatlarni, shuningdek, ijtimoiy-foydali mehnatni

tashkil etish ko'nikmalarini shakllantira olmasalar tarbiyasi samaradorligi to'g'risida so'z yuritish befovdadir. Bunday oilalarda tarbiyaviy jarayon doimiy do'q-po'pisa, asabiylik asosida tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, oila muhitida tarbiya metodlaridan samarali foydalanish, bolalarni ijtimoiy-foydali mehnatga o'rgatish alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham bolalar bilan yaxshi munosabat o'rnatish uchun ijobiy metodlarni ko'proq va salbiy metodlarni kamroq ishlatish zarur.

## **MAKTABGACHA TA'LIMDA SIRLI OLAM VA EKOLOGIYA**

*Kamilova Gulmira Alimovna-BuxDU maktabgacha ta'lim kafedrası  
dotsenti, p.f.n.,*

*Tayirova Aziza Soliyevna-BuxDU Pedagogika nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) 2-bosqich magistri*

Insoniyat juda qadim zamonlardan tabiat bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga intilib kelgan. Sababi, ibtidoiy inson tabiatdagi barcha mavjud narsa-hodisalarni o'zi kabi jonli (ruhi bor) deb o'ylab ular bilan ehtiyotlik ila muomala qilgan. Qadim odam tasavvuricha tog'u-toshlar, daryo-yu-ko'llar, osmon jismlari bari-barisi jonlidir. Ibtidoiy odamlarning bunday qarashlari animizm deb yuritiladi. Qadimgi insonlarning tasavvuricha, butun hayvonlar va o'simliklar olami insoniyat olami bilan qon-qarindoshdir va ular o'rtasida o'xshashlik va yaqinlikni daraxtlarning yil fasllariga qarab o'z ko'rinishini o'zgartirishida va hayvonlarning odamzod singari ba'zi xatti-harakatlarini bajarishida ko'radi. Masalan, hayvonlarning o'ziga yegulik axtarishi, bolalariga g'amxo'rliqi, o'zi uchun ehtiyotkorlik choralarini ko'rishi, xavfdan ogoh bo'lib yashashga intilishi, sadoqatliligi insoniy xatti-harakatlarini eslatadi. Yoki daraxtlarning yil fasllarini his qilgan holda har faslga mos tarzda o'z ko'rinishini o'zgartirib turishi uning jonliligidan darak berib turadi. Shuning uchun inson imkon qadar ularni avaylashga intiladi. Ularni huda-behuda ranjitib qo'yishdan cho'chidi. Chunki, u o'zining yashashi, turmush kechirishi, ro'zg'or uchun zarur

bo'lgan aksariy istemol tovarlarini aynan o'simlik va hayvonot olamidan oladi. Shu bosidan inson ularning ranjishidan va o'ziga kerakli bo'lgan nasalardan mahrum etilishidan qattiq cho'chidi.

Ibtidoiy inson o'z ehtiyojlarini qondiradigan narsalarda, shuningdek, go'zal ko'rinishli, yoqimli, foydali narsalarda yaxshi ruhlar, aksincha, yoqimsiz, badbo'y, zararli narsalarda yomon ruhlar makon ko'rgan deb tushungan va shu asosda tabiat predmetlariga muomala qilgan. Shuning uchun ibtidoiy inson gullar, daraxtlar, tog'liklar, suvliklar, o'simliklar va hayvonlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lgan. Ulardagi yaxshi va yomon ruhlarga ozor yetkazishdan ko'rqqan, shu qo'rquv va ehtiyotkorlik zamirida asta-sekin ekologik tarbiyaning shartlari, ko'rsatmalari va talablari shakllana boshlangan.

Ibtidoiy inson tabiatning rang-barangligiga, undagi ranglar, jilosiga, shakl ko'rinishiga, jinsiga, harakat-holatiga, ovoziga, miqdoriga, tabiatda tez-tez sodir bo'lib turadigan stixiyali xodisalarga e'tibor berar ekan, tabiatning boyligi va qudratiga tan bergan va uning oldida u ojizligini his etgan.

Qadimgi inson tabiatdagi har bir rangning, har bir shakl ko'rinishining, raqamlarning, harakat-holatning o'zi mazmuni, mohiyati bor deb tushunib, ularga sig'ingan. Shular asosida tabiatning sirliligini tan olgan.

Bulardan ko'rinadiki, ekologik tarbiyaning ildizlari insoniyatning qadim turmush tarziga borib taqaladi. O'sha kezlardan insonlar tabiat bilan ehtiyotkorona muomalada bo'lishga intilishgan va buni yosh avlod ongiga sindirishga harakat qilishgan.

Ibtidoiy odam o'z hayotining tabiat bilan chambarchas bog'liqligini his qilgani bois, hatto olamning asosida ham to'rtta tabiat unsuri—yer, suv, havo, olov (quyosh) yotadi deb aytgan va aynan shu tabiat resurslarini ko'proq asrab-avaylashga intilgan.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz tabiatni jiddiy kuzatar ekan, undan o'zi uchun foydali ko'p narsalarni kashf etishga muvaffaq bo'lgan. Shu

kuzatishlar zamirida inson tabiatdan nusxa ko‘chirib, juda ko‘p bundyokorlik ishlarini amalga oshirgan. Masalan, ari uyasiga qarab, ko‘p qavatli uylar qura boshlagan. Qushning parvozi samolyotning yaratilishiga turtki bo‘lgan. Quyoshga qarab lampochkalar kashf etilgan va hokazo. Bularning barchasi kuzatishlar-tabiatni bilishning, tushunish va his etishning eng asosiy vositasi ekanligi namoyon etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

Ko‘rgazmali ( kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish); amaliy (o‘yin tarzida, mehnat , oddiy tajribalar, vaziyatlar yaratish); og‘zaki ( tarbiyachining hikoyasini so‘zlash, tushuntirib berishi, badiiy asarlarni o‘qib berishi, bolalar bilan suhbatlashishi, she’rlarni o‘qib berishi).

O‘simlik va hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg‘arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi-uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi, bunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashga to‘g‘ri keladi.

Tabiatning faol himoyachilarini tarbiyalash kattalar rahbarligida tabiatni asrash bo‘yicha ma’lum hajmdagi bilimlarni egallash, tabiatga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish taqozo etadi.

Shunday ekan, hozirgi yoshlar ham tabiat bilan yaqindan oshna tutinsalar, uni jiddiy kuzatib, o‘rganib borsalar hali ko‘p yangi narsalarni kashf qilishga musharraf bo‘lishlari mumkin. Chunki tabiat azaldan insonni to‘ydirib, yedirib, ichirib, kiyintirib kelayotgan ona kabi g‘amxo‘r va mehribondir. U haligacha insonlardan o‘z sahovatini darig‘ tutmay kelayotir. Bunga javoban insoniyat ham ona kabi mehribon tabiatni har tamonlama asrab-avaylashi, uning boyliklaridan oqilona va rejali foydalanishi juda muhimdir.

Demak, tabiatni asrash har kimning insoniy burchidir. Tabiatni asrab avaylash qadimiy ajdodlarimizdan merosdir. Bu borada yosh avlodni hasharotlar olami bilan tanishtirish, ularni tabiatdagi ahamiyati va o‘rnini tushuntirish orqali ekologik tarbiya berish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablari. Toshkent. 2018.
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun Davlat o‘quv dasturi. Toshkent. 2018.
3. Kamilova, G. A. (2021). Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga rahbarlik va boshqarishda zamohaviy yondashuv. Scientific progress, 2(7), 1149-1153.
4. Alimovna K. G. Laws of Ecological Education //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – S. 241-244.
5. Kamilova G. A., Kurbonova G. R. “Effektivnost ekologicheskogo obrazovaniya: obrazovanie doshkolnikov s pomoshyu pedagogicheskix texnologiy //Academy. – 2020. – №. 12 (63).
6. Kamilova G. Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv //Sentr nauchnyx publikatsiy (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1.

## **TA’LIMNING INTERFAOL STRATEGIYALARI**

*Kasimova Dilrabo Baxadirovna “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasida o‘qituvchisi,  
Shodiyeva Sarvinoz, Isomiddinova Munisa talabalar*

Ko‘pgina asosiy interfaol usullar bugun o‘qitishning interaktiv usullarini qo‘llash bilan bog‘likdir. „Interaktiv” so‘zi bizga ingliz tilidagi „interakt” so‘zidan kirib kelgan. „Inter” –bu „o‘zaro”, „akt” – harakat qilish. Interaktiv o‘zaro harakat qilish yoki nima bilan (masalan, kompyuter bilan) yoki kim bilan (odam bilan) suxbat, dialog (muloqat) rejimida bo‘lishni bildiradi. Demak interaktiv o‘qitish – bu hammadan avval dialogli o‘qitishdir, uni borishida pedagog va o‘quvchining, o‘quvchi va kompyuterining o‘zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

6 Mamedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirishda tarbiyaning o‘rni //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

7. Mamedova M.M. Ta‘lim sifatini oshirishda axborot texnologiya larining o‘rni //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1230-1234.

8. Muhidinovna M. M. Preschool Education System and Family Cooperation in the Formation of Social Characteristics //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 267-270

## **MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI SAVODGA O'RGATISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

**Nuritdinova Shaxnoza** MTTM-AU-21 1 –kurs magistranti

Maktabgacha davr-bu bolaning o'sish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo'lgan davrdir.

Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyat rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishga yordam beruvchi jismoniy aqliy va ma'naviy qobiliyatini bilish jarayonida bizni o'rab turgan atrof muhitini o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash boshqa asarlar turlarida rivojlanadi.

Bolalarni kattalar va tengdoshlari bilan erkin muloqot yuritishiga, o'z xolati, xis-tuyg'ularini va maqsadlarini nutq orqali ravon ifodalashida o'z-o'zini qiziqtirgan mavzular bo'yicha tortinmay savollar berishida o'rgatishda va savodga o'rgatishda ta'lim bosqichini puxta tayyorlashni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Har bitta guruhda singari maktabga tayyorlov guruhida bolalarga savod malakasini egallashida va o'rganilayotgan mavzusini quvnoqlik bilan takrorlashi va yengillik bilan o'zlashtirishi uchun innovatsion usullardan foydalanish va albatta multimedialardan foydalanish muhimdir.

MTTlarning maktabga tayyorlov guruhlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishni asosiy va yetakchi shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar Davlat standartlari va talablari asosida belgilangan dasturlar, yo'nalishlar, taqsimlangan soatlar va shular asosida tarbiyachi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan rejalar asosida olib boriladi.

MTTlarda maktabga tayyorlov guruhlarida o'tkaziladigan mashg'ulot ikki bosqichida o'tkaziladi. Birinchi bosqichi 15 daqiqa davom etadi. Bu vaqt davomida



tarbiyalanuvchilarga asosiy ma'lumot beriladi . Undan so'ng 15-20 daqiqali oraliq bosqich dam olish bosqichi o'tkaziladi .So'ngi bosqichida o'rganilgan materiallar mustahkamlanadi.

Maktabga tayyorlov guruhlarida savodga o'rgatishda multimedia texnologiyalarni foydalanish muhim omillardan biridir.

Bolani 20-25 daqiqa davomida zerikmay kitob tomosha qilishida ,kitobda faqat rasmga emas balki harflarga ham e'tibor bilan qarashga undashda tarbiyachi mahorat bilan shu mavzuga doir videoroliklardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi .

O'rganilayotgan mavzuga doir videoroliklar orqalibolalar:

- bolalarning fikrlash qobiliyati oshadi,
- bola bir vaqtning o'zida, ham ko'radi, ham eshitadi (miyaning o'ng va chap yarim sharlari bir vaqtda faollik ko'rsatadi).
- an'anaviy usulga nisbatan bolalarga o'rgatiladigan materiallarni hajmi ortadi ,
- badiiy adabiyotga bo'lgan emotsional munosabatni rivojlantiradi.
- adabiy asarlarni animatsiya orqali ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Maktabga tayyorlov guruhlarida savodga o'rgatishda multimedia texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

- Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi xaqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirishda .

- Alifboni o'rgatishda .
- Tovushlarni eshitib farqlashga o'rgatishda .
- Ma'lum tovushlarni ketma – ketligini aniqlashda.
- So'z ishtirokida gap tuzishda .
- Gapni so'zlarga bo'lish ,so'zlarni bo'g'inlarga bo'lishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda bu sohadagi samaradorlikni oshirishda multimedia texnologiyasidan foydalanish muhim omill bo'lib qoladi.

### **Adabiyotlar**

1. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi .

2."Ilk qadam" Maktabgacha Ta'lim Muassasasining Davlat o'quv dasturi .  
Toshkent-2018 yil.

3." Maktabgacha ta'lim metodikasi"jurnali . 5-son / 2018/may.

4. <http://library.ziyonet.uz>

## **MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING AQLIY RIVOJLANISHIDA SENSOR TARBIYANING AHAMIYATI**

*Raxmonova Gullola Shavkatovna*

BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

So'nggi yillarda jamiyatimiz taraqqiyot qilgan sari yoshlarimizga bo'lgan e'tibor ham kun sayin oshib bormoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual moslashuvchanligi ularning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi uchun keng sharoit yaratilmoqda. Erta yoshdan bolalarning ijodiy qobiliyatlari kurtak otishiga turtki bo'luvchi harakatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanishi bejizga emas. Maktabgacha yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish juda muhim ahamiyatga egadir.

Aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir. Maktabgacha yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir ettirishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli ayniqsa kattadir. Bilimlar zaxirasini egallash, aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish maktabda muvaffaqiyatli o'qish bo'lg'usi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartlaridir.

Aqliy kamolot - bu yoshning o'sib tarbiyaning boyib borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta'siri bolaning aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarning majmuasidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda bilim tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun

faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bola ijtimoiy muhit ta’sirida aqliy tamonidan rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo‘lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o‘quv, mehnat, samarali faoliyatlar (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, aplikatsiya, qurish-yasash) jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta’lim va tarbiya samaraliroq ta’sir etadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishni to‘g‘ri tashkil etish ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlarini va imkoniyatlarini bilish kerak.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni metodi va tashkil etishiga qarab belgilanadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyalashning roli kattadir. Bolalarning bilimlarini egallab olishlari ularning aqliy faolligini rivojlantirish mustaqillik, aqliy malaka va ko‘nikmalarni egallab olishlari ularning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi va bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi bilimlar sistemasini, imliy dunyoqarashini shakllantirish;
2. Bilishga doir ruhiy his tuyg‘u jarayonlarini rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq.
3. Bilishga qiziqish va aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish .
4. Aqliy malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davridir. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga, sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta’sir sistemasidir. Sensor tarbiyaning maqsadi maktabgacha yoshidagi bolalarning sensor qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat.

Sensor tarbiya qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatilishini, nomigagina bilish etarli bo‘lib qolmay, balki ular buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushlash, ular bilan muomalada bo‘lganda xilma-xil sezgilar ishtirok etishi ham juda muhimdir, deb biladi.

Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu tomonlariga alohida etibor berish, bolalarga tegishli topshiriqlar berish, buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo‘yishdan, ularga og‘irligini his qilish, buyumni qo‘lga olib, uning sirtini sezish va sifatini silliq yoki g‘adir - budirligini, issiq yoki sovuqligini va shunga o‘xshashlarni aniqlash kerak.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshidagi bolalarga ta’lim berish, ularda bilim, malaka , ko‘nikmalarni hosil qilish shunday bir jarayonki, unda tarbiyachi bolalar oldiga ma’lum vazifalarni qo‘yadi, ularda o‘z tevarak atrofini o‘rab olgan dunyo haqida to‘g‘ri tushinchalar hosil qiladi, ularga narsa hodisalar o‘rtasidagi eng oddiy bog‘lanishlarini tushuntirib beradi, ularni o‘yin, o‘quv, faoliyatida egallagan bilim va malakalardan foydalanishga o‘rgatadi.

### **Adabiyotlar**

1. Raxmonova G. Talabalarda ma’naviy-ahloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish //materiali konferensiya msnd. – 2021.
2. Raxmonova G. Sh., Toshxonova Z., Tohirova M. talabalarda ma’naviy-ahloqiy kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalari //scientific progress. – 2021. – t. 2. – №. 7. – s. 1032-1037.
3. Raxmonova G. Sh., Chorshamova A. f. k. znachimye storoni natsionalnix igr v protsesse vospitaniya doshkolnikov //problemi pedagogiki. – 2020. – №. 1 (46).

## **SOG‘LOM BOLANI SHAKLLANISHIDA TA’LIM-TARBIYA VA MAKTBGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI MUNOSABATI**

*S.H.Ro‘ziyeva Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, M.Bozorova Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, hulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha

ifodalab kelingan bo‘lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakatdan tortib to keng ko‘lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Maqsadsiz, ma‘lum g‘oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo‘lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Ilg‘or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg‘unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo‘naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir. Ajdodlarmiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o‘rgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e‘tibor berishgan. O‘zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo‘lganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Krimov ta‘kidlaganidek: “Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadlarga erishish o‘zlariga bog‘liq ekanligini, ya‘ni, bu narsa ularning sobitqadam, g‘ayrat-shijoatiga, to‘la-to‘kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog‘liq ekanligini anglab etishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir”.

Ta‘lim-tarbiyada maktab va oila hamkorligi ta‘lim sohasidagi eng dolzarb masalalardan biridir, chunki yoshlarga maktabda berilayotgan ta‘lim-tarbiya samaradorligi maktabning oila bilan hamkorligi nechog‘li yaqinligi, mustahkamligi va tizimli olib borilishiga bog‘liqdir. Maktab va oila hamkorligi o‘zining ko‘p aspektlariga ega bo‘lgan jarayondir. Ana shunday aspektlar orasida psixologik aspekt alohida o‘rin egallaydi. Shu nuqtai-nazardan maktab va oila bolalarga ta‘lim va tarbiya berish yo‘lida hamfikrlikda olib borilayotgan ishlarda bolalarning yosh davrlarni qay darajada hisobga olishida va o‘z faoliyatida yosh davrlariga mos holda tashkil etish, ayniqsa muhimdir. Har bir yosh davri o‘zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida paydo bo‘ladi va o‘z navbatida, o‘zidan keyingisining yuzaga kelish

uchun zamin yaratadi. Oila va maktabda bola holati, ta'lim va tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangicha faoliyat shakllari va nihoyat, bola organizmi ayrim xususiyatlarining shakllanishi, ya'ni yosh faqat biologik emas, balki ijtimoiy kategoriya hisoblanishi bilan harakterlanadi. Shu ma'noda, yoshlar psixologiyasida faoliyatning etakchi turi haqidagi tushuncha mavjuddir. Har bir yosh davri uchun faoliyatning har xil turlari xarakterlidir, yangi o'yin, o'qish va mehnat kabilarning har bittasiga ehtiyoj bor. Lekin, bola rivojlanishining xilma-xil davrlarida bu ehtiyojlar turlicha bo'ladi va faoliyatning tegishli turlari har xil mazmun kasb etadi. Faoliyatning etakchi turi maktab o'quvchisining psixikasida, psixologik jarayonlari va xususiyatlarida muhim o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar o'zlariga loyiq shakldagi ta'lim va mehnat faoliyati bilan shug'ullansalarda, ular uchun faoliyatning etakchi turi o'yin hisoblanadi. Maktab yoshida o'qish faoliyatning etakchi turi bo'lib qoladi, o'yin o'zining etakchi ahamiyatini yo'qotadi. Bolaning yoshi ulg'aygan sari mehnat faoliyatining roli ortib boradi. Maktab davridagi ta'lim davomida o'qish faoliyatining mazmuni va xarakteri o'zgaradi. Yil sayin o'quvchining oldiga qo'yilgan talab orta boradi. O'qish faoliyatining faollik, mustaqillik kabi ijobiy tomonlari tobora katta rol o'ynay boshlaydi. Yosh xususiyatlari yoshning eng tipik va xarakterli hamda rivojlanishning umumiy yo'nalishini ko'rsatadigan jihatlari hisoblanadi. Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, hulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga etkazish, unda ijtimoiy ong va hulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Ta'lim-tarbiya ishlarida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish deganda, mazkur yoshdagi bolalarning talablari, imkoniyatlari, xususiyatlariga mos keladigan pedagogik ish shakllari, usullari va vositalarini qo'llash tushuniladi. Har bir xalq oilasining o'ziga xosligi shu xalqning xarakteridan kelib chiqadi hamda davrga qarab o'zgaradi, takomillashadi. Boshqa xalqlar bilan yonma-yon yashash jarayonida ularning xarakteridagi yaxshi tomonlarni o'zlashtirib boradi. Chunki, hech qaysi xalq mahalliy mahdudlik devoriga o'ralib yashamaydi. O'zbek xalqi, millat bilan millatning

inoq bo‘lib yashashi haqidagi fikrni “Elga el qo‘shilsa-davlat bo‘ladi” deb ifodalaydi. Binobarin, o‘zbek oilalarida tarbiyalanayotgan yoshlar xalqimizning ana shunday ezgu g‘oyalarini ongiga singdiradi. O‘zbek oilalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri millatlararo hamkorlik, inoqlik tuyg‘ulariga sodiqligidir. Bunday ma’rifiy, siyosiy-psixologik holatlarni turli millatga mansub oilalarda ko‘rish mumkin. Oila yoshlarning milliy o‘zligini anglashda asosiy bo‘g‘in bo‘lish bilan birga, siyosiy ruhiyatini, boshqa millat yoshlariga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri shakllantirishda muhim tayanchdir. Xulosa sifatida aytish joizki, ta’lim-tarbiyadagi oila va mahalla hamkorligining psixologik muammosi keng qamrovli bo‘lib, o‘zining falsafiy, huquqiy, ijtimoiy hamda siyosiy jihatlariga ega.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017. - 488 b.
- 2.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent, O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
- 3.O.Xasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: “Aloqachi”, 2007 y.
- 4.Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O‘qituvchi. 2013.
- 5.Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
- 6.N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.

### **BOLA IJTIMOYLLASHUVIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI MASALASIGA ZAMONAVIY YONDASHUV**

*S.H.Ro‘ziyeva Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi, F.Olimova Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratayotganimiz bejiz emas, dedi Shavkat Mirziyoyev. Yoshlar tarbiyasiga bugundan e’tibor bermasak, ertaga kech bo‘lishi mumkin, deb o‘ fikrini yana bir bor ta’kidladi davlatimiz rahbari.

Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bola uchun ijtimoiy-pedagogik faoliyatning yana bir asosiy yo'nalishi bu, oiladagi o'zaro munosabatlar, boladagi unga bo'lgan munosabatlar, uning boshqa oila a'zolariga bo'lgan munosabatlari, eng asosiysi sog'lom munosabatlar, eng asosiysi sog'lom ijtimoiy-munosabatlarni shakllantirish masalasi hamisha dolzarb hisoblanadi. Oila bolaning ilk bor shakllanadigan tarbiya oladigan makoni. Uning ijtimoiyillshauvi, avvalo o'z oilasida shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshadi. U bilan dastlabki ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi odamlar: uning otasi-onasi, akasi-opasi va oilaning boshqa a'zolaridir. Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib, yetuk inson bo'lib kamol topishi hamda hayotda o'z o'rnini topib ketishida uning qanday oilada tarbiyalanganligi, oilada qanday psixologik iqlim hukm surganligi, o'z ota-onasi bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarning qanday tarzda kechganligi muhim ahamiyatga egadir.

Insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masasalardan bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, A.Navoiy, Z.M.Bobur, Muqimiy, Furqat, A.Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini meros qilib qoldirishgan. Ular hozigi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va psixologik ahamiyatga egadir.

Psixolog olim V.Karimova o'zini oilaga taalluqli risolalarida shaxsni ijtimoiylashuvida oilaning roli va uning beqiyosligi shunday ifodalaydi "Bola uchun oila turi, munosabatlar turli, muaomala va muloqot hayotining asosiy mazmuni deb qabul qilinadi, shu sababli u uchun ota-onaning tajribasi muhimdir" Bola hulq-atvorning namoyon bo'lishi ota-onalarning munosabati uslublariga va munosabatlarini namoyon qilish etaplariga bog'liqdir. Oila jamiyatning bosh bo'g'ini, negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchga ega. Milliy iftixor, milliy g'urur kabi ilk



tushunchalar avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon ota-bobalar o'giti, ota-ona ibrati va oila mehri orqali singdiriladi va amalga oshiriladi. Oila-bu o'ziga xos jamoa, u tarbiya jarayonida asosiy o'ringa egadir. Bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi, dedi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev. Shunday ekan, biz oiladan boshlab bolalarga vatan oldidagi burchi, ota-ona oldidagi vazifasi, odamiylik fazilatlarini shakllantirishimiz zarur. Bola ongi asosan maktabgacha yoshda shakllanishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ana shu davrda uning qalbida oiladagi va maktabgacha ta'lim muhit ta'sirida ijtimoiy hayotga tayyorlab borishimiz mumkin

O'zbekistonda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, turli taraqqiyot yoshdagi bolalarning ham ma'naviy, ham intellektual, ham jismoniy rivojlanishi uchun yaratilayotgan sharoitlar, onalarning aynan uch yoshgacha taraqqiyot davrida bolasini parvarish qilish imkoniyatining yaratilganligi yil sayini jobiy samaralar bermoqda. Oiladagi sog'lom muhit, uning farzandlar barkamolligiga bevosita ta'siri katta bo'lib, ijtimoiylik jarayonida farzand psixologiyasi, dunyoqarashida barcha ijobiy fazilatlar aynan oiladagisog'lom munosabatlarning ota-onalarning bu boradagi psixologik hamda pedagogik savodxonligiga bog'liqligini bilamiz.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasalarining ham oilaviy tarbiyadan kam bo'lmagan afzallik jihatlarga qisqacha to'xtalmochimiz, chunki bolaning 3-7 yoshgacha bo'lgan davrida bola shaxsi va intellektual salohiyatining o'sishida katta rol o'ynaydi. Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-ahloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va

faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz. Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi.

**Maktabgacha yosh davrida oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida kuzatilgan kamchilik cheklanish hamda manfaatli imtiyozlar borasidagi natijalar.**

<b>Maktabgacha ta'lim muassasasi</b>	<b>Oila</b>
<b>Kamchiligi</b>	<b>Manfaatli tomoni</b>
<p>*Tarbiyachi bolalar bilan ko'proq rasman muloqot qiladi, hissiy yaqinlikning imkoniyati kam;</p> <p>*Tarbiyachilar tez-tez almashadi, ularning tarbiyalash uslublariga bolalarning ko'nikishi qiyin kechadi, ta'sir maromlari turlicha;</p> <p>*Tarbiyachi hamma bolalarga birday murojaat qiladi, har bir bola bilan individual ishlash imkoniyati chegaralangan;</p> <p>*bir xil yoshdagi bollar bilan ishlaydi</p>	<p>-Ota-ona farzand o'rtasidagi munosabatlar ancha yaqin va iliq muloqot hissiy kechinmalarga boy;</p> <p>-ota-onaning farzandga ta'siri doimiy va tarbiyalash uslublari deyarli o'zgarishsiz;</p> <p>-Kattalarning bolaga nisbatan pedagogik yo'nalishi individual xarakterga ega, har bir farzandning fe'l-atvori inobata olinadi;</p> <p>-Kunning o'tishi o'zgaruvchan, rejim tufayli bola bir qolipga solinib, qiynalmaydi;</p> <p>-Bolada turli yoshli oila a'zolari, hattoki, bobolar, momolar va boshqa qarindoshlar bilan teng muloqot qilish imkoni bo'ladi.</p>
<b>Manfaatli tomoni</b>	<b>Kamchiligi</b>
<p>-Maktabgacha yoshdagi bolaga ta'lim berish va tarbiyalashga qaratilgan maxsus dasturlar va o'quv metodik bazaning mavjudligi;</p> <p>-Ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadaga yo'naltirilganligi;</p> <p>-Bog'chadagi maishiy va boshqa hayot sharoitlari ta'lim va tarbiyaga moslashtirilganligi;</p> <p>-Qo'llaniladigan ta'lim va tarbiya metodlari, tarbiya uslublari bolalarning yosh xususiyatlariga mos;</p> <p>-Bolalar jamoasi va unda turfa xil o'yinlarni o'ynash imkoniyatining mavjudligi;</p> <p>-bola salomatligini saqlashning aniq tizimi bor;</p> <p>-aqlini o'stiruvchi turli qo'llanma va o'yinlarni tashkillashtirish uchun qulay.</p>	<p>*Oilada ta'lim va tarbiyaga oid maxsus dasturlarning yo'qligi, ota va onaning tarbiya to'g'risidagi tasavvurlar ko'pincha yetarli emas, tasodifiy manbalarigina mavjud;</p> <p>*Tarbiya stixiyali xarakterga ega, bu boradagi ayrim an'analar va maqsadli tarbiya uslublariga murojaat etiladi;</p> <p>*Kattalar oilada avvalo o'zlari uchun sharoit yaratib, unga bolani moslashtirishga harakat qiladi;</p> <p>*ota-onalarning boladagi yosh xususiyatlarini yaxshi bilmasliklari, ularga kattalarning "kuchraytirilgan nusxasi deb qarash, ta'sirchan tarbiya vositalari izlamaslik;</p> <p>*Bolaga shaxs sifatida qaramaslik, faqat uning hulqini baholashga intilish;</p> <p>*bola faoliyatining nisbatan bir xilligi, zerikarli ekanligi;</p> <p>ota-onaning o'z tarbiya usullarini xolis baholay olmasligi;</p> <p>*bola bilan bevosita o'yin faoliyatida ishtirok etmaslik, o'yinchoqlar tanlashdagi xatolarning borligi.</p>

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi. Shunday ekan, oila va undagi o'zaro munosabatlar bola uchun eng yaqin va yoqimli. Shunday bo'lsada, bolalar muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash uchun yaratigan shart sharoitlar uning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishi, kun tartibiga ko'nikishi, insoniy munosabatlar muhitiga kirishib ketishida juda katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, malakali pedagog-murabbiylar qo'lida tahsil olgan bolalar maktabga har tomonlama-fizologik, psixofizologik, ijtimoiy psixologik, intellektual va irodaviy jihatdan tayyor bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 11 -moddasida: "Bu ta'lim 6- 7 yoshgacha oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi",- deb ta'kidlangan.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi. Bolaning rivojlanishi, ruhiyati va ta'lim-tarbiyasidagi o'ziga xos davrlar, davrlarga monand o'zgarishlar, muammolar yechish yo'llari shaklan va mazmunan takomillashtiriladi. Bolaning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy hulqi rivojlanishida ilk davrlar o'ta muhim hisoblanadi. Masalan: - bolalarga muloqat qilish, o'rganish va rivojlanish uchun jismoniy, ijtimoiy hamda ruhiy imkoniyatlar tug'ilganda berilgan. Agar bu imkoniyatlar tan olinmasa va rivojlantirilmasa, qo'llab quvvatlanilmasa, ular so'nadi

Bolaga ilk yoshi davrida ota-onalarning bolaga ko'rsatilgan mehr-muhabbati, kelajakda uning insonlarni sevishiga va mustahkam aloqa o'rnatishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017. - 488 b.
- 2.O.Xasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: "Aloqachi", 2007 y.

3.F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma‘naviyat”. 2013

## **MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA LUG‘AT ISHI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHISHNING INNOVATSION YO‘LLARI**

*S.H.Ro‘ziyeva Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, M.Shahriyeva Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi  
1-bosqich talabasi*

O‘zbekistonda ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta‘lim, maktab va oliy ta‘lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabrda, „2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qarorga muvofiq Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 19-iyulda “Maktabgacha ta‘lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida“gi qaror ishlab chiqildi. Ushbu qarorning amaldagi vazifasini bajarish bo‘yicha qator ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasalariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz” –deb ta‘kidlagan edi. Darhaqiqat, o‘tgan qisqa vaqt davomida Davlatimiz Prezidenti “Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dasturi hamda Respublika maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” asosida misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta‘lim tizimining moddiy-texnik bazasini boyitish, yig‘ilgan tajribalardan o‘rnida foydalanish va uni takomillashtirish ishlari jadal sur‘atlarda olib borilayotganligi ushbu qarorlarning naqadar asosli ekanligidan dalolat beradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2018-yil 14-fevralda maktabgacha ta‘lim tizimini isloh qilish va rejalashtirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora- tadbirlar natijadorligi tahliliga

bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Bu videoselektorda barcha hududlardagi kamchiliklar ko'rib chiqildi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etishi takidlandi. Albatta, bunday chora-tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad, avvalo, bolani har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga sifatli tayyorlashdir. Shu bois bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Shularni inobatga olgan holda bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalarning nutqiy ahvoli, ya'ni nutqiy shakllashi, rivojlanishlari, sof va ravon so'zlashlari, nutqiy deffektlarning bo'lmasligi kabi bir qator bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar turibdi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining bosh maqsadi bu- barkamol avlodni tarbiyalash ekan ijodiy tafakkurni shakllantirish masalasi eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Biz bilamizki, tafakkur bevosita va bilvosita nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Til va tafakkur munosabati, ya'niki, qonuniyati aynan boladagi ilk nutqiy imkoniyatlarning paydo bo'lishidan boshlab o'zini namoyon etadi. Bola nutqi qanchalar boy, ravon, uzluksiz va o'rinli bo'lsa, bola tafakkuri buning inikosidir. Shunday ekan, biz nutq o'stirish ishlarini kichik guruh tarbiyalanuvchilaridan boshlashimiz va ularning nutqiy faoliyatini yaxshilash shu bilan bir qatorda lug'at boyligini o'stirishdan boshlashimiz darkor. Bugungi kunda nutqdagi kamchiliklar uchun maxsus mutaxassislar ish olib boradi, ammo lig'atni o'stirish, boyitish muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus mutaxassislar mavjud emas. MTT o'qituvchilarining oldidagi lug'at ishini olib borish va bola nutqidagi lug'at boyligini o'stirish muammolari kunning dolzarb masalasidir. Bu masalada shu kunga qadar juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilgan, ammo bu izlanishlarda lug'at ishining ilmiy-nazariy tomoni to'liq yoritilmay qoldirilgan. Lug'at ishining umumiy tasnifi, turlari va metodikasiga oid yorqin ilmiy ma'lumotlar berilmay qolgan. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishi bu- bolalarning faol lug'atini notanish yoki ular uchun qiyin bo'lgan so'zlar bilan reja asosida boyitib borishdir. Lug'at ishidagi asosiy jihat faqat bolalarga yangi so'zlarni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqqa kiritishdir. Lug'at

ishining o'ziga xosligi adabiy me'yorlardan chekinish sifatida qaraladigan oddiy so'zlashuv so'zlarini, vulgarizm, varvarizm, efimizm, jargo, argo so'zlarini qo'llashni ta'qiqlashdan iborat. Ushbu ish bevosita bir necha turlarga bo'linib o'rganiladi va u o'z metodologiyasiga ega. Lug'atni boyitish metodlari:

- atrof-olamni bevosita kuzatish;
- mazmuni bolalarga notanish bo'lgan yoki juda kam tanish bo'lgan suratlarni ko'rsatish;
- badiiy asarlarni o'qish, diafilmlar va kinofilmlar (xujjatli filmlar) ko'rsatish.

Lug'atni mustahkamlash va faollashtirish metodlari: bolalarga tanish mazmundagi o'yinchoqlarni, suratlarni ko'rib chiqish, didaktik o'yinlar. Har bir bolaning leksik zaxirasini to'ldirish uni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ro'y beradi: so'z bolaning o'zi belgilagan (nusxa ko'chirgan) narsa yoki harakatni tasavvur qilishi bilan bir vaqtga xotiraga kiradi. Bolaning ona tilidagi so'zni o'zlashtirish jarayoni ushbu so'zlarga mos keluvchi narsalarni «tadqiq qilishi» bilan bir vaqtda ro'y beradi: bola narsalarni ko'zdan kechiradi, qo'l tekkizadi, ushlab ko'radi, siypalaydi, uning qanday ovoz chiqarishiga quloq tutadi, ta'mini ko'rmoqchi bo'ladi, hidlab ko'radi. Bola o'z diqqat-e'tiborini jamlagan narsa uning ongiga barcha beshta sezgi – ko'rish, tinglash, hidlash, ta'm, ushlab ko'rish, sezish orqali kiradi. Dunyoni bu kabi sezgilar orqali anglash bolaning emotsional dunyosini rivojlantiradi; u nafaqat keskin holatlarni («ajoyib» - «rasvo») boshdan o'tkazishga, balki barcha oraliq his-tuyg'ularni sezishga qodir bo'ladi.

Narsani sezgi bilan qabul qilish so'z yordamida bola xotirasida ushbu narsa haqidagi tasavvur sifatida muxrlanib qolganidan so'ng uning nomini atovchi so'z bolada eng avvalo u mazkur narsa bilan bevosita to'qnash kelganida boshdan o'tkazgan his-tuyg'ularni uyg'otadi. Masalan, *archa* so'zi. Bola bu so'zni eshitishi bilan uning ilgari his qilgan barcha his-tuyg'ulari darhol jonlanadi: u o'z xayolot dunyosida muayyan archani, uning yashil barglarini ko'radi, deyarli uning hidini tuyadi va h.k. So'zni bu tarzda qabul qilish *she'riy* qabul qilish deyiladi. Agarda tarbiyachi bolaga ilk yoshdan boshlab ona tilidagi so'zlarni ularning butun she'riy ifodasida o'rgatib kelgan bo'lsa (ya'ni, ularni qabul qilishning his-tuyg'u negizi haqida qayg'ursa), bu holda

bolada insonga nafaqat o‘zi ijod qilishi uchun, balki shoirlarning ijodini tushunish uchun ham zarur bo‘lgan shoirlik qobiliyati rivojlanadi.

Bola so‘zning “*his-tuyg‘uli asosini*” o‘zlashtirib olgandan so‘ng u uning umumlashtiruvchi ahamiyatini tushunishga qodir bo‘ladi. Aynan shuning uchun ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘atini boyitish ularni atrofdagi maishiy hayot, tabiat, kishilar mexnati, ularning ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish jarayonida uyushtirilishi zarur. Ayni paytda tarbiyachi (va bola atrofidagi barcha kattalar) bola bilan grammatik jihat dan rasmiylashtirilgan ravon nutqda (ya’ni oddiy nutqda, chunki bir-biriga bog‘lanmagan so‘zlar to‘plamini nutq deb bo‘lmaydi) muloqot qilishlari lozim. Pirovardida, bola kattalar nutqidan eshitgan ayrim so‘zlarini o‘zi ajratadi.

Bola hayotning 3-yilida bolalar “birinchi savollar davrini” boshdan kechiradilar. Bunda ularning atrofda ko‘rgan barcha narsalar nomlarini bilib olishga intilishlari paydo bo‘ladi: “Kim bu?”, “Ismi nima?”, “Bu nima?”, “Nima uchun?”. Ushbu yoshda bolaning qiziquvchanligi eng avvalo «lingvistik» tusga ega bo‘ladi: bunda bolani ushbu so‘zlar bilan ataladigan narsalar mohiyati qanchalik qiziqтира, so‘zlar ham Shu darajada qiziqtiradi. Bola bilan erkin muloqot chog‘ida uning savollariga javob qaytarish uchun tarbiyachi bolaga uchragan va e’tiborini o‘ziga jalb qilgan narsa nomini aytilish orqali bola lug‘atini boyitadi. Chunonchi, narsa belgilari (sifat) nomlarini; harakat va holatni; (fe’llar, sifatdoshlar, ravishdosh va ularning ravishlik belgilari) bilib oladi va esda saqlab qoladi. Bevosita kuzatish mumkin bo‘lmagan narsalar nomlarini bolalar ular tasvirlangan suratlarni ko‘rish orqali bilib oladilar. Insonning narsani uning tasviri (modeli) bilan oson taqqoslashga qodirligi – tug‘ma qobiliyatdir. Bola juda erta yoshdan boshlab ishtiyoq bilan ko‘rib turgan narsalar rasmlarini chizishni boshlaydi, bunda u chizgan rasmlari ko‘rgan narsasiga o‘xshashiga ich-ichidan ishonadi (ayni paytda uning o‘zi aytgan dastlabki so‘zning tovush tarkibi u kattalardan eshitgan so‘zlar tovushiga o‘xshashligiga ishonchi komil).

Shunday qilib bola o‘z nutqini kattalar bilan jonli nutqiy muloqotda boyitadi, Shu bilan birga u mazkur muloqot orqali haqiqatda kuzatayotgan yoki sur`atlar asosida tasavvur qilayotgan narsalari nomlarini bilib oladi. Pirovardida, lug‘at ishlari real obyektlar yoki sur`atlarni hisobga olgan holda olib boriladi. Ushbu metod barcha yosh

guruhlarida qo'llaniladi. Narsalar bilan o'ynash chog'ida bolalar ularning joylarini o'zgartiradilar, har tomonga tashlaydilar, suradilar, ushlab ko'radilar, yurg'izadilar, narsalarni kuzatadilar va ularning sifati, harakatlarini aytib beradilar. Ayni paytda tarbiyachi bola bilan unga yo'naltiruvchi savollar bergan holda so'zlashishi lozim. Bola javob qaytarar ekan, tarbiyachi o'z savoli orqali aytib berayotgan so'zlarni takrorlaydi. Shu tariqa bolaning leksikasi kengayadi. Ayniqsa, syujetli-rolli "rejissyorlik" o'yinlarida, sahnalashtirish jarayonida nutqni rivojlantirish uchun juda ko'plab qulay vaziyatlar yuzaga keladi.

Rolli o'yinda bola o'zi kuzatgan yoki hikoyalar orqali bilgan va esda saqlab qolgan kattalarning turli vaziyatlarini takrorlaydi. Bola kattalarning ana shunday vaziyatlardagi harakatidan va shu bilan birga ularning nutqidan ko'chirma oladi.

"Rejissyorlik" o'yinida bola o'ziga rol olmaydi, aksincha u ushbu syujetda rollarni o'yinchoqlar o'rtasida taqsimlaydi; syujetlar–maktabgacha ta'lim muassasasi, hayvonot bog'i va boshq. Tarbiyachi bolaning mavjud hayotiy tajribasini hisobga olgan holda aytib, yordamlashib turadi. Sahnalashtirish o'yinida bola o'ziga tanish ertak qahramonlaridan biri rolini o'ynaydi, o'yin jarayonida u qahramon so'zlarini takrorlaydi va Shu tariqa o'z nutqini boyitadi. Syujetli o'yinlar o'zlashtirilgan til materialini mustahkamlashda bolalarga ajoyib mashq sifatida xizmat qiladi. Bolalar ataylab o'z oldiga muayyan hayotiy vaziyatlarda kattalardan eshitgan nutqini yoki ertak qahramoni nutqini aniq berishni maqsad qilib qo'yadilar. Harakatchan o'yinlar, qoida asosidagi o'yinlar yod olingan sanoq she'rlar, qo'shiqlari bilan bolalar nutqini boyitadi. Yod olish tarbiyachi nutqiga taqlid qilish jarayonida ro'y beradi, bu o'yinlarni tarbiyachi bolalar bilan birga o'ynaydi va dastlab o'zi qiziqarli, sanoq she'rlarni aytadi, qo'shiq kuylaydi. Bola u yoki bu narsa nomini belgilovchi so'zni (ba'zan, bir marta eshitib) tez va mustahkam (umrbod) esda saqlab qoladi, ammo bu faqat tarbiyachi so'zlarni talaffuz qilishning metodik qoidalariga rioya qilgan taqdirdagina ro'y beradi. Ya'ni, u:

- yetarli darajada baland ovozda so'zlashi;
- aniq talaffuz qilishi, ya'ni artikulyatsiya organlarini g'ayrat bilan va to'g'ri ishlatishi;



• orfoepiya qoidalariga rioya qilishi, bunda u yoki bu soʻz komponentini boʻrttirib yuboruvchi sunʼiy talaffuzdan qochishi lozim.

• soʻzni gapga uning grammatik shakllari imkoniyatlari koʻrinadigan darajada qoʻshish kerak.

Masalan, bizga ayiqcha mehmon boʻlib keldi. Ayiqchanning koʻzlari qora, panjalari katta. Bolalar ayiqcha bilan oʻynashni juda yoqtiradilar.

Bola bu gapni eshitar ekan, “Ayiqcha” soʻzi nutqda oʻzgarayotganini sezib qoladi. Albatta, tarbiyachi kichkintoyga grammatik atamalarni maʼlum qilmaydi, ammo bir vaqtning oʻzida unda lugʻat boyishi bilan birga grammatik sezgi ham rivojlanadi. Biroq, bolalar har doim ham atrofdagi narsalarga qiziqish bildiravermaydilar va har doim ham ularning nomlarini soʻrayvermaydilar. Tarbiyachi bolalar diqqat-eʼtiborini narsalarga, ularning sifatlariga, harakatlariga jalb qilishi zarur. Buni muntazam ravishda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Hafta davomida bolalar quyidagi miqdordagi soʻzlarni oʻzlashtirishlari mumkin:

3 yoshda - 5 ta soʻz  
4 yoshda - 10 ta soʻz  
5 yoshda - 15 ta soʻz  
6 yoshda - 20 ta soʻz  
7 yoshda - 30 ta soʻz

Bolalarda lugʻatni shaklantirishga doir mashgʻulotlar turlari. Lugʻat ishlariga oid dasturlarni amalga shirish mashgʻulotlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu tizim uch koʻrinishdagi mashgʻulotlardan tashkil topadi:

1. Lugʻat ishlari atrof – olamdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va hodisalar doirasini bilan tanishtirish jarayonida amalga oshirilayotgan mashgʻulotlar. Masalan ekuskursiya, narsalarni namoyish qilish. kichik guruhlarda ekuskursiyalar oʻtkazish atrof-olam bilan tanishtirish ob-havo haqida maʼlumot berish, yil fasllari bilan tanishtirish

2. Lugʻat ishlari bolalarning atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishga tayanadigan mashgʻulotlar. Masalan sifatlar xususiyatlar oʻziga xos jhatlari bilan tanishtirish. Atrof- olam bilan tanishtirishda bolalarga daraxtlarning sifatleri bilan yaʼni ularning mevali yoki mevasiz daraxtlar, manzarali daraxtlar haqida tushuntirish mumkin.

3. Umumlashtirishlar jarayonida lug‘at ishining hal qiluvchi vazifasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlar.

Asosan maktabgacha ta‘lim muassasalarida lug‘at ishi bilan ish olib borilganda mashg‘ulotlar davomida tarbiyachilar turli xil bolalarga notanish bo‘lgan so‘zlarni tanishtirib borishlari bilan bir qatorda ularga yana bir yangi so‘z boyligini oshirishadi. Lug‘atni o‘stirish va boyitishda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish katta samara beradi. Bolalar bog‘chasida “Lug‘at doskasi” tashkil etish zarur. “Lug‘at doskasi”ni har mashg‘ulotdan so‘ng almashtirish kerak. So‘zlarni rasmlari orqali doskaga qo‘yish foydaliroq bo‘lardi. Bolalar eshitishdan ko‘ra ko‘proq ko‘rishda xotirasida ko‘p ma‘lumotni saqlaydi. Lug‘at bilan boyitish davomida sheva so‘zlardan foydalanmaslik kerak. Tarbiyachi bunga e‘tiboli bo‘lishi har bir aytayotgan so‘ziga e‘tibor berishi ham muhim. Ana shunday kamchiliklar kamaytirilsa biz o‘ylagan maqsadimizga erishamiz. Zero, Maktabgacha ta‘lim bu bizning ertangi kunimizga zamindir.

### **“ILK QADAM” DAVLAT DASTURI ASOSIDA MASHG‘ULOTLARGA INNOVATSION YONDASHUV**

*Saidmuratova Vazira, Ahmadova Rushana, Azimova Xabiba*  
*TDPU “Maktabgacha ta‘lim” fakulteti talabalari*

*“Agar mendan sizni nima qiynaydi,  
deb so‘rasangiz, farzandlarimizning  
ta‘lim-tarbiyasi, deb javob beraman”  
SH.M.Mirziyoyev*

Bu borada Prezidentimiz tomonidan maktabgacha ta‘lim tiziminis loh qilish maqsadida 2017-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi. Natijada, Maktabgacha ta‘lim vazirligi tomonidan ushbu “Ilk qadam” dasturi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda barcha MTT larda o‘quv-tarbiyaviy faoliyat ishlari “Ilk qadam” dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Dastur bo‘yicha turli xil markazlar tashkil

etilgan bo‘lib, tarbiyalanuvchilar o‘zlari xohlagan markazda o‘z faoliyatini olib borishlariga imkon yaratildi. Bu borada tarbiyachilardan ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashishni va yangi pedagogik texnologiyalar orqali olib borishni talab etadi.

Mashg‘ulotlar MTT da ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Mashg‘ulotlarda bolalar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari shakllantirib boriladi. Mashg‘ulotlar o‘z oldiga qo‘ygan ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni bajaradi. Mashg‘ulotlarni olib borish dastur asosida amalga oshiriladi.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi MTT da ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv asosida yaratilgan dastur hisoblanadi. Dasturda bolaga ta’lim-tarbiya berishning maqsad, vazifalari, asosiy didaktik tamoyillari, har bir yosh guruhiga mo‘ljallangan kompetensiyalar, tarbiyachilar uchun o‘quv faoliyatni olib borishdagi asosiy tavsiyalar, ilovalar, bolalarning rivojlanish xaritasi yoritilgan.

Ilk qadam dasturi Davlat talablari asosida ishlab chiqilgan meyoriy hujjat hisoblanadi. Bu dastur barcha Davlat va nodavlat MTTlar, maktabgacha guruhlarga ega bo‘lgan “Mehribonlik uylari” va maktabgacha va boshlang‘ich ta’limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari uchun majburiydir[1].

Dastur ilg‘or xorijiy davlat tajribalarini o‘rganilgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, unda bolaning mustaqilligiga, erkin fikrlashiga, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya berish ishlari nazarda tutilgan. Shuningdek, har bir mashg‘ulotlarda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish borasida tarbiyachilarga bir qancha vazifalar yuklaydi. Tarbiyachi har bir mashg‘ulotga ijodiy va zamonaviy yondashishni talab etadi. Bolalar bilan o‘quv tarbiyaviy faoliyatni olib borishda yangi innovatsion g‘oya va texnologiyalarni yaratishni va amalda buni joriy etishga, har bir bolaga uning qiziqishlari va xohishlarini aniqlab, o‘zi xohlagan markazda faoliyatini olib borish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib berishga, o‘z ustida tinmay ishlashga o‘rgatadi.

Dastur bo‘yicha bitta mavzu bir haftaga mo‘ljallanib, barcha mashg‘ulotlarda turli xil metod va usullar orqali bolalarga tushuntirilib, bu mavzu ularning ongiga sindirib boriladi. Natijada bolalar bu mavzu bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va

malakalarga ega bo'ladilar va olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladilar. Mashg'ulotlar umumiy tarzda olib boriladi va rivojlanish markazlarida davom ettiriladi.

Mashg'ulotlarni olib borishda yangi pedagogik texnologiyalardan va turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish orqali dasturda belgilangan kompetensiyalarni to'liq bajarilishiga erishish mumkin. Ayniqsa, mashg'ulotlarda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, jamoada birga ishlashga o'rgatadi.

Interfaol metodlarga muammoli vaziyatlarni hal etish, blits-so'rov, rolli o'yinlar, aqliy hujum, BBB kabi usullarni keltirib o'tish mumkin. .

Interfaol metodlardan bo'lmish "Oddiy va murakkab savollar" metodi orqali bolalarga ikki xil usulda: oddiy va murakkab usulda savollar beriladi. Bunday savollar mashg'ulotning turli bosqichlarida qo'llash mumkin [2]. Masalan, biror bir ertak, hikoya yuzasidan bolalarga ikkala usulda savollar beriladi:

1. Oddiy savollarga misollar:.

- Ertakning bosh qahramoni kim ekan?
- Zumrad qanday qiz?
- Zumrad o'rmonda kimni ucgratib qoldi?
- SehrGAR kampir Zumradga nima sovg'a qildi?

2. Murakkab savollarga misollar:

- Zumradning otasi nima uchun qizini o'rmonga tashlab keldi?
- Aytingchi, Zumrad bilan Qimmat o'rtasida qanday farq bor?
- Nima deb o'ylaysiz, Biz kimdan o'rnak olishimiz kerak va nima uchun?
- Qimmat nima uchun bunday ahvolga tushdi?
- Qimmat yaxshi qiz bo'lganida bunday ahvolga tusharmidi?

Bundan tashqari, MTTda mashg'ulotlarda bolalarni fikrlashga undovchi turli xil o'yinlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Zero, dasturda ham bolalar faoliyatini tashkil etishda o'yinli ta'lim faoliyatga alohida e'tibor berish nazarda tutilgan.

Didaktik o'yinlar ma'lum qoida asosida tashkil etiladigan o'yinlar hisoblanadi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan; b) stol-bosma; d) ogzaki so'z o'yinlari[3].

MTT dagi mashg'ulotlar jarayonida bunday didaktik o'yinlardan foydalanish bolalarda mantiqiy tafakkurni shakllantiradi, tartibli, intizomli bo'lishga, o'rtoqlari bila birgalikda ishlashga o'rgatadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida turli xil metod va o'yinlardan foydalanish uchun eng avvalo, tarbiyachidan har bir mashg'ulotga ijodiy yondashishni va izlanuvchanlikni talab etadi.

### **Adabiyotlar**

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T.2018 y
2. O.U.Avlayev, S.N.Jo'rayeva "Ta'lim metodlari". O'quv-uslubiy qo'llanma. T."Navro'z"2017 y
3. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" Darslik. T. 2018-yil. 217-218-betlar

## **ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРШЕМ ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ**

*Сатторова Мохинурбону Сардоровна Студентка факультета и  
направления "Дошкольное образование" ТГПУ имени Низами*

Игра имеет преимущество перед другими видами детской деятельности и занимает особое положение в педагогическом процессе, так как дает возможность детям проявить активность и самостоятельность, воображение, а также реализовать свои представления об окружающем.

Игра, с одной стороны, позволяет детям реализовать свои желания, интересы, а с другой стороны, помогает приобщить к самым разнообразным сферам жизни взрослых.

В формировании игры можно выделить три основных этапа: 1) усвоение условных действий с игрушками и предметами – заместителями; 2) усвоение ролевого поведения (ролевых отношений и взаимодействий); 3) усвоение способов построения сюжета.

На первом этапе взрослый, руководя игрой, делает особый акцент на игровом действии, выделяет его и через него включает ребенка в совместную деятельность.

На втором этапе главная задача состоит в передаче детям способов ролевого поведения. Важно также сформировать у детей умение в пределах одного сюжета выполнять последовательно 2–3 роли.

На третьем этапе в качестве основной стоит педагогическая задача формирования у детей умения строить сюжет игры. Взрослый учит фантазировать, воображать.

К пяти годам дошкольники при правильном педагогическом влиянии, обеспечивающем своевременное обогащение жизненного опыта, уже умеют самостоятельно организовывать сюжетно-ролевые игры: выбирать тему игры, создавать предметно-игровую среду, выполнять соответствующие игровые действия и правила поведения.

У старших дошкольников совершенствуется умение совместно строить и творчески развивать сюжеты игр с постройками. Творческая игра, отмечала Д.В. Менджеричкая, должна входить в плановую педагогическую работу как одно из важнейших средств коммунистического воспитания.

Ma'lumki, uzluksiz ta'limning mohiyati insonning belgilangan ta'lim salohiyatini ko'tarish va boyitish, shuningdek, ta'lim, tarbiya va rivojlanishdagi mumkin bo'lgan bo'shliqlarni bartaraf etishdan iborat. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017-yildagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli qarorida belgilab berilgan ta'limga kompetensiyaviy yondashuv masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ko'rsatilgan tayanch kompetensiyalarni o'quvchi ongida shakllantirish va rivojlantirish, ularda ijtimoiy - huquqiy ko'nikmalarni tarkib toptirish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanib uzviy va uzluksiz ravishda davom ettirilishi ta'lim va tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishini kafolatlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta.

Tarbiyalanuvchi - o'quvchi ta'lim - tarbiyasida, ayniqsa unda ijtimoiy - huquqiy ko'nikmalarni shakllantirishda har bir usul va yo'nalish alohida e'tiborga olinishi, tahlil etilishi va aynan uning uzluksizligini ta'minlash muhimdir.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek: "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil - bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ma'naviyatni shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning o'rni va ahamiyati katta hisoblanadi".

Kichik yoshdagi bolalarda ijtimoiy - huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayoni uzviyligini ta'minlash, uni uzluksiz davom ettirish o'qituvchidan kuchli bilim va tafakkurni talab etadi.

Maqsadga erishish, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda tarbiyachi o'qituvchilar faqat o'rgatish va o'qitish bilangina cheklanmay, amalda o'zlari o'rnak bo'lsagina ushbu tarbiyaning kuchi yuqoriroq bo'ladi. Bu borada diniy bilimlarni ham yetarli darajada shakllantirish muhimdir. Diniy tasavvurning sust bo'lishi bolaning begona g'oyalarga ishonishi va ergashishiga asosiy omil bo'ladi.

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy - huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy - huquqiy bilim-

lar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Bolalarda yoshlikdan shaxsiy huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayoning muhim bosqichidir.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamdaularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish,
- huquqiy ongini qaror toptirishga erishish;
- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma, malakalarni hosil qilish;
- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni (huquqiy tasavvur, idrok, tafakkur, savodxonlik, mas'ullik, faollik, e'tiqod va salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;
- o'quvchilarning huquqiy madaniyatini (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burdonlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

**Huquqiy madaniyat** – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi bo'lib, uni shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- keng ko'lamli ijtimoiy – huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;
- shaxs huquqiy ongini shakllantirish;
- shaxs huquqiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Kichik yoshdagi bolalarda ijtimoiy - huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik jarayonida huquqiy ta'lim - tarbiyaning samaradorligini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lib, ularning ijtimoiy-huquqiy jihatdan tarbiyalanganligi quyidagi holatlar bilan o'lchanadi:

- o'quvchilar tomonidan ijtimoiy-huquqiy tarbiyaga asoslangan o'quv fanlari ning o'zlashtirilish darajasi,
- ijtimoiy-huquqiy bilimlarning muayyan darajasi;
- ularning umumjamiyat ahloqiy-huquqiy me'yorlariga amal qilishlari hamda maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ichki tartib qoidalari, shuningdek o'quvchilar qoidalariga rioya qilishlari, tartib-intizomni buzish hollarining kamayganligi, o'z-o'zini nazorat qilish, hatti-harakatlari mohiyatini ongli tahlil etish qobiliyatiga ega ekanliklari ijtimoiy– huquqiy ongning muayyan darajasi kabilar.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. //O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2016. -13-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017-yildagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli qarori
3. Usmonxon Alimovning "Oilada farzand tarbiyasi" kitobidan "Movarounnahr" nashriyoti. 2021y

#### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH VA SAVODGA O'RGATISH TEXNOLOGIYALARI.**

**Hakimov Abboshon Orifjon o'g'li**

NamDu maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

**Jo'rayeva Fotimahon A'zamhon qizi**

NamDu maktabgacha ta'lim yo'nalishi FU-20-guruh talabasi

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan shakllantirish, ularning tug'ma layoqati, ruhiy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga

tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi ushbu "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" orqali nazorat qilinadi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib, u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi. Davlat talablari ko'rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, ota-onalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismonan sog'lomligi, qobiliyati, ruhiy rivojlanishi va imkoniyatlari, ya'ni bola shaxsining ustuvorligidan kelib chiqiladi. Bola kishilik jamiyatining sog'lom va faol a'zosi bo'lib yetishishi uchun odamlar orasida yashashi, insoniyat hayoti va mehnati jarayonida ko'p asrlardan buyon to'plab kelinayotgan bilimlarni egallab borishi, kattalar tarbiyasida bo'lmog'i lozim.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish. Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish. Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantirish. Ushbu navbatdagi gap atrofida gaplar tuzdirish, shu tariqa xabarni mukammal holga keltirish ishini davom ettirish va nihoyalash bog'lanishli nutq o'stirish borasida katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ta'limiy jihati shundaki, bolalar bir gapni ikkinchisiga mantiqan bog'lash, bunda leksik va grammatik vositalardan foydalanishga doir qo'shimcha bilim oladigan, ko'nikmalar hosil qiladilar. Tarbiyaviy jihati tuzilayotgan jummalarning mazmunli va ta'sirchan ekanligida ko'rinadi.

Ta'limiy faoliyatlarni o'tkazib borish jarayonida bolalar bilan samimiy, erkin muloqotda bo'lish, ularni shoshirmasdan to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini holisona ko'tarinki tarzda baholash muhim omillardan biri bo'lib sanaladi. Hamma yoshdagi guruhlarda bajariladigan mashqlar o'yin elementlari kichik guruhda-syurpriz momenti ko'rinishida, o'xshash harakatlar, ertak qahramoni va hakoazolardan iborat bo'ladi. Katta guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterida bo'ladi.

Shuningdek bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga predmetlar, ularning nomi, tuzilishi, shakli, rangi, xususiyatlari hamda erta o‘qish, sanash, turli material va asboblardan tanishish va ishlash kabilar katta ta’sir ko‘rsatadi. Kishi o‘z faoliyatida bor bo‘lgan imkoniyatlardan qancha ko‘p foydalansa, uning qobiliyatlari ham shunchalik rivojlanadi. Bu imkoniyatlardan foydalanish bolaning ilk yoshligidan boshlansa, oson amalga oshadi. Bu vaqtda olamni bilish jarayoni juda intensivlik bilan kechadi. Bunda kichkintoy har qachongidan ko‘proq ijod bilan shug‘ullangan va ko‘pgina yangi vazifalarni mustaqil echishga majburdir. Ayniqsa, bolalar oldiga muammoli vaziyatni qo‘yish, ularni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Shuning uchun matematika ta’limiy faoliyatlari o‘yin va qiziqarli masalalar orqali uyushtirilsa yaxshi samara beradi. Jumladan:

- ta’lim jarayonini osonlashtiradi;
- bolani chuqurroq bilim olishga undaydi,
- bolalarni ijodiy qobiliyatlarini o‘stiradi,
- matematika bo‘lgan qiziqishini oshiradi,
- bolalarning tez fikrlash, tasavvur qilish, o‘qish malakasini rivojlantiradi.

Matematik o‘yinlar bolalar bilimni boyitishga, ularning aqliy faoliyatini o‘stirishda, bola hayotining rivojlanishiga yordam beradi. Bolalarning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o‘qish, yozishga doir malaka va ko‘nikmalarini boyitib borishga doir quyidagi mashq va mashg‘ulotlarni tavsiya etish mumkin:

«Ertak to‘qiyimiz»

*Maqsad:* Bolalarda xotirani, ijodiy tafakkurni, tasavvurni rivojlantirish va qo‘lmatorikasini yaxshilash.

*Ko‘rsatma:* Bola bir butun matnlarni eslab qolishi va qayta esga tushirish malakasini ham o‘zlashtirishi lozim. Shu sababli bolaga 4-5 asosiy epizoddan iborat qisqa hikoya va ertak o‘qib beriladi hamda uni takrorlab berishi so‘raladi. Bolalar eshitganlarini behato takrorlab berishga ko‘p hollarda qiynaladilar. Bola eshitganini yozib ololmaydi, shu sababli unga ertakni suratlar orqali eslab qolishni taklif etish kerak. Avvaldan tayyorlangan qog‘oz varag‘iga kvadrat chiziladi va ertak boshi

eslanadi. Masalan, ertak boshida qizcha uydan chiqqani aytilgan, shu kvadratga uycha va qizcha rasmini chizish bilan voqea boshini tasvirlasa bo'ladi. So'ng yana bitta kvadrat chiziladi va boladan ertakning davomini eslash so'raladi. Shu holatni 2-3 belgi bilan tasvirlash so'raladi va shu tariqa ertakning qolgan voqealarini ketma-ket davom ettirish imkoni yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini o'stirish maqsadida qiziqarli matematik o'yinlar, mantiqiy masalalar va mashqlar berib, bosh qotirmalar, mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Interfaol ta'lim - ta'lim oluvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, ular orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish, mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Inson savodxonligi uning kelajak hayotining sifati darajasini belgilaydi va bugungi dunyoning jadal texnik yuksalish davrida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkonini yaratadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi, Toshkent-2019.
3. Abidova L. MTTda matematika mashg'ulotlarini tashkil etishda qiziqarli matematikaning o'rni // Zamonaviy ta'lim jurnali. №2. 2005
4. Mirjalolova L. Bolalarning so'z boyligini ertaklar asosida oshirish. – Toshkent, 2008.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SYUJETLI ROLLI O'YINLARINING AHAMIYATI**

*Hamdamova Nigora Olimjonovna Toshkent viloyati Parkent tumani  
"Objuvoz Lolalari" nomli 2-son DMTT tarbiyachisi*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sevimli faoliyati syujetli rolli o'yinlardir. Syujetli rolli o'yinlar davomida bola o'zining his-tuyg'ulari, qiziqishlarini, qobiliyati ya'ni tabiatini ochib beradi. Shuning uchun aynan syujetli rolli o'yinlar davomida bolaning samarali tarbiyasi uchun zarur bo'lgan uning shaxsiy fazilatlari va imkoniyatlarini kuzatish mumkin.

Syujetli rolli o‘yin faoliyatiga o‘rganishda bolalar bir necha bosqichni bosib o‘tadi;

**1-bosqich:** predmetlar bilan manipulyatsiya qilishni o‘rganish davri (1yoshdan 2 yoshgacha);

**2-bosqich:** predmetlar bilan alohida amallarni bajarish faoliyatiga o‘tish davri (2 yoshdan 3 yoshgacha);

**3-bosqich:** syujetli rolli o‘yinlar o‘ynash davri(3 yoshdan 6 yoshgacha ); Maktabgacha yoshdagi bola atrof olamni bilish jarayonida rolli o‘yinlar orqali bevosita kattalar olamiga kirib boradi, dunyoni o‘rganishga intiladi. Kattalarning hayotini aks ettirgan holda bolalar ularning o‘zaro munosabatlarini ham namoyish etadilar, o‘rganadilar, o‘zlashtiradilar.

Masalan: kizaloq qo‘g‘irchog‘ini o‘zi kiyintiradi, ovqatlantiradi, o‘zi shifokor bo‘lib davolaydi, obrazga kirib g‘irchoqning savollariga javob beradi, uning iltimosini bajaradi, maslahatlar beradi, bola avtomashinani uzi xaydaydi, uchuvchi bulib samolyotda uchadi ...

Ta‘lim jarayonida tarbiyachi bola shaxsi va uning ma‘naviy ehtiyojlarini, har tomonlama qondirishga yo‘naltiradi. Bolalarni syujetli rolli o‘yinlar vositasida ahloqiy-estetik tarbiyalash ularni axborot qabul qilish, tushunish va harakatlarni izohlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi ifodali til bilan tanishishiga ko‘maklashadi.

Syujetli rolli o‘yinlarning o‘ziga xosligi – o‘yin (erkinlik, ixtiyoriylik) va badiiy (tayyorlangan, ongli ravishda his etib ko‘rilgan) komponentlarni birlashtirishidir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning yosh xususiyatlariga mos, hajmi katta bo‘lmagan ertaklar asosida syujetli rolli sahnalar qo‘yish mumkin. Bu kichik ko‘rinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uyg‘otadi shuningdek syujetli rolli o‘yinlar bayram tadbirlariga ham ko‘tarinki ruh baxsh etadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida syujetli rolli o‘yinlarni sahnalashtirish jarayonida quyidagi ifoda vositalaridan foydalanish lozim:

kichik guruhda sodda obrazli-ifodali ko‘nikmalar, ya‘ni ertak hayvonlariga xos harakatlarini ijro eta olish;



o'rta guruhda badiiy obrazli ifoda vositalari, ya'ni intonatsiya, mimika va pantomimikaga o'rgatish;

katta guruh bolalarida badiiy obrazli ijro mahoratlarini takomillashtirish;

tayyorlov guruhida ijodiy mustaqillik, nutq va pantomimika harakatlarini rivojlantirish.

Tarbiyachi syujetli rolli o'yinlarni tashkil etish jarayoniga yetarli darajada faol bo'lmagan bolalarni ham jalb etishi lozim, bu bilan ularga tortinchoqlikni yengib o'tishlariga yordam beradi.

Syujetli rolli o'yinlar jarayonida bolalarda o'zaro do'stona, xamkorlik munosabatlari jamoada o'zini tutish, umumiy maqsad uchun harakat qilish ko'nikmalari shakllanadi, ahloqiy xatti-harakatlar va normalarni oson o'zlashtiradilar. Syujetli rolli o'yinlar jarayonida unda bola o'ynab, quvonadi, atrof olamni o'rganadi, uning ichki olami boyiydi. Bolada ijodga e'tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo'lishi uning taassurotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi. Bu borada syujetli rolli o'yinlarning ijobiy ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan bu kabi faoliyat bola hayotiga yangi mazmun olib kiradi. Quvonch hissini uyg'otib, barcha kuch va qobiliyatlari, jumladan nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. "Maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning samaradorligi: muammolar va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Andijon davlat universiteti. Andijon – 2019

2. Куцакова Л.В., Мерзлякова С.И. «Воспитание ребенка-дошкольника: развитого, образованного, самостоятельного, инициативного, неповторимого, культурного, активно творческого». Москва.: Владос, 2004.

3. Сорокина Н.Ф. «Играем в кукольный театр: Программа «Театр-Творчество-Дети»: Пособие для воспитателей, педагогов дополнительного образования и музыкальных руководителей детских садов. Рекомендовано Министерством образования РФ. М.: АРКТИ 2002.

4. Чурилова Э.Г. «Методика и организация театрализованной деятельности дошкольников и младших школьников». М.: Владос. 2001.

## MAKTABGACHA TA'LIM- FARZANDLARIMIZ KELAJAGIGA ZAMIN

*Hamroyeva Nigora Abdulloevna*  
BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Bugungi kunda kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan mas'uliyatli, ma'naviy yetuk, ahloqan pok, bir so'z bilan aytganda jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, milliy ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish borasidagi "Ilk qadam" davlat dasturi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun Davlat talablari"ga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatining asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolalarning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida anchayin jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Bugungi kunda bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko'nikmasini shakllantirish ham muhimdir. Shu o'rinda, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim asosida o'z-o'zidan ma'lumki, shaxs, uning o'ziga xosligi, o'sha o'ziga xoslikdan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va rivojlantirish masalasi yotadi. Shu bilan birga shaxsga nafaqat bilim va tarbiya berish, balki uning turli hayotiy vaziyatlarda ongli va mas'uliyatli qaror qabul qila olish malakasini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday ta'lim shaklining yana bir ustunligi bola shaxsi kimningdir istak va xohishiga ko'ra emas, o'z imkoniyatlari va individual xususiyatlariga ko'ra shakllanadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning g'oyalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: - ta'lim umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqqan holda muayyan jamiyat ma'naviyati bilan moslashuvga asoslanadi; - ta'limning maqsadi o'z "Men"iga, shu bilan birga umuminsoniy qadriyatlar tizimiga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish; - shaxs kamoloti to'laqonli, ya'ni ong va tuyg'ular, ruh va tan birligi tarzida amalga oshiriladi; - ta'lim jarayonida shaxsning barcha huquqlari, shu bilan birga ta'lim mazmunini

tanlash huquqi ham himoyalanaadi; - muassasada guruh ishi individual ish bilan birgalikda olib boriladi va bunda bola faoliyatining o'ziga xos uslubi shakllanishiga alohida e'tibor qaratiladi; - ta'lim shaxs faoliyati turi sifatida ichki asosga ega, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining teng munosabatlari va hamkorlikda qaror qabul qilishlariga tayanadi; - eng yaxshi ta'lim rasmiy boshqaruvga emas, balki mehr, e'tibor va hamkorlikka tayangan ta'limdir. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki bola shaxsining shakllanishi, ijtimoiylashuvi va muhim hayotiy ko'nikma va malakalarini rivojlanishi aynan maktabgacha ta'lim yoshiga to'g'ri keladi. Avvalo muassasada bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantiruvchi muhitni yaratish ahamiyatlidir. Muhit maktabgacha ta'lim muassasalarida bolani o'rab turgan, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsalarni, shu jumladan, binolarning rejalashtirilishi va o'lchamlari, hovlidagi o'yin maydonchasi, guruhdagi mebel, materiallar, jihozlar, o'yinchoqlarni o'z ichiga oladi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda maktabgacha ta'lim muassasasi muhitida bolalarning kognitiv (aqliy), nutq va muloqotchanlik, ijtimoiy-hissiy hamda jismoniy motor rivojlanishiga sharoit yaratilishini ta'minlash juda muhimdir. Bolaning rivojlanishiga sharoit nafaqat guruh xonalarida, balki muassasa hovlisida, yo'laklarida, o'yin maydonchalarida ham yaratilgan bo'lishi shart. Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv muhiti ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning yoshi, psixologik, fiziologik xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holda eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishda tarbiyachilar quyidagi tamoyillarga amal qilishlari kerak bo'ladi: - bola shaxsining rivojlanish qonuniyatlarini mukammal tushunish; - o'yin va ta'limiy faoliyatlar bolalarni muntazam kuzatish; - bolaning qiziqish va ehtiyojlariga javob beradigan individual va guruhiy rivojlantirish ta'limiy faoliyatlarini rejalashtirish; - o'zgaruvchan va egiluvchan o'quv muhitini yaratish; - bolalarni hurmat qilish va diqqat bilan ularning fikr, g'oya va maqsadlariga e'tibor qaratish; - bolalar o'z muammolari va o'zaro muammolarini o'zlari hal etib, bir-birlariga hurmatda bo'lishlariga ko'maklashish; - bolalarning tafakkur va fikrlash jarayonini rivojlantirish uchun savollar berish.

Xulosa qilib aytganda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning ustuvorligi shundaki, bunda shaxsning takomillashuviga ilk bolalik davridanoq qadam qo'yiladi, shaxs pedagogik jarayonning obyektidir emas, subyektidir sifatida ko'riladi, ta'lim tizimining maqsadi faqat shaxs kamolotiga qaratiladi, hamma bola birdek iste'dodli deya qaraladi va oliy insoniy qadriyatlar va sifatlarni (mehr-oqibat, insonparvarlik, o'z kuchiga nisbatan ishonch, mehnatsevarlik, izlanuvchanlik) shakllantirish imkoniyatlari ochiladi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari. Toshkent. 2018.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun Davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2018.
3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent "Nihol" nashriyoti. 2016.

#### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING ERTAK JANRIDAN FOYDALANISH ZARURIYATI.**

*Xamroyeva Diyora Burxon qizi* Buxoro Davlat Universiteti  
Maktabgacha ta'lim fakulteti 2-kurs magistratura talabasi

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy ahloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi o'z mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanishi ta'lim tarbiya jarayonini yanada samarali kechishiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida biz yangi texnologiyalardan foydalanishimiz bilan bir qatorda an'anaviy ta'limni ham esdan chiqarmasligimiz

zarur. Bolalarning milliy ruhda tarbiyalashimiz, milliy urf-odatlarimizni o'rgatishimizda ularni ma'naviy –ahloqiy jihatdan tarbiyalashimizda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanmaslikni iloji yo'q. Sababi ,o'zbek xalqi qadimdan mehnatkash, farzandlar tarbiyasiga juda qattiq e'tibor beradigan xalq bo'lgan. Bolalarga ta'lim –tarbiyada ko'proq xalq og'zaki ijodi bilan ta'sir qilish yo'lidan borganlar .Ta'kidlash joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiya berishda xalq og'zaki ijodi janrlaridan bo'lgan ertaklar bizga qo'l keladi. Sababi ertaklar barcha yoshdagi bolalarga birdek yoqadi va ta'sir qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ertaklarning ta'limiy xamda tarbiyaviy ahamiyati katta . Xalq og'zaki ijodi – insoniyatga tengdosh eng qadimiy san'at bo'lib, uning janrlari o'zning ta'sirchanligi, xalqchilligi, qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Har bir xalqning og'zaki ijodi o'sha xalqning fe'l-atvorini, urf-odatlarini, adriyatlarini, an'analarini, orzu-intilishlari hamda tabiatini o'zid aks ettiradi. Xalq folklorida ta'lim va tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk, yuqori ahloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lgan va tarbiya ishida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik ma'lumotlar o'zbek folklorining sanab o'tilgan barcha janrlarida o'z ifodasini topgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalarga ahloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir.

Sababi , ushbu metodlar bolalarning ahloqiy tasavvurlari hamda bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan barcha metodlar orqali bolalarga ahloqiy normalar va qoidalar, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Bolalarda ahloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Bolalarga ahloqiy tarbiya normalarini o'rgatayotganda ularni noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish mumkin emas. Bu o'rinda barcha metodlardan o'z o'rnida izchillik bilan kompleks ravishda foydalanish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda tushuntirish va namuna ko'rsatish metodidan foydalanish katta natija beradi.

Tushuntirish odatda bolalarga yangi ahloqiy tushunchalarni, normalarni, ahloqiy qonun –qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga tushuntirish kattalarning jonli so‘zi va namunasiga asoslanadi. Masalan, o‘zidan kattalarga qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib “Assalomu alaykum” deb aytish va h. Tarbiyach ahloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruhlarida qo‘llashi mumkin. Suhbat uchun tanlanayotgan ertak yoki hikoyaning mazmuni yorqin, tushunarli bo‘lib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha ta’sir etishi kerak.

Ahloqiy mavzulardagi ertaklardan namunalar ko‘rsatish orqali bolalar ahloq normalari va qoidalarini, ijobiy hulq shakllarini egallaydilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ahloqiy tajribalarini kengaytirib borish, hulqning ahloqiy sabablarini aniqlab boorish tarbiyachidan ziyraklik talab etiladi. Ertakdagi qahramonlarning hatti –harakatlarini tahlil qilish jarayonida bolalar o‘z fikr-mulohazalarini aytishlariga o‘rganadilar. Ertak qahramonlarining har bir xatti-harakatini ongli ravishda, ahloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Badiiy adabiyotni o‘qib berish, san’at asarlari va amaliy san’at buyumlarini tomosha qilish, multfilmlar tomosha qilishda, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uyg‘otardi, shu bilan bir qatorda ahloq qoidalari va normalarini singdirib boradi. Bolalarning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda maktabgacha ta’lim tashkilotida turli xil metodlardan foydalaniladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalalarni ahloqiy tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped.fan.nom. ... diss. avtoref. - T.: 1998.- 18 b.
2. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida ahloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish. - T., 2010. - 90 b.
3. Boboyev H., Hasanov S. «Avesto» ma'naviyatimiz sarchashmasi. -T.: Adolat, 2001.- 157 b.
4. Yo‘ldoshev I., To‘rayev S., Kornilov M., Xodjayev B. «Diniy bag‘rikenglik madaniyati» maxsus kurs dasturi. - T., 2009. - 30 b.
5. Kornilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari /Ped. fan. nomz. ... dis. avtoreferati. - T., O‘zPFITI, 2005. - 22 b.

6. Milliy urf-odat, marosim va an'analarning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rnini //Nazariy-seminar materiallari. - T.: Oliy va o'rta maxsus maktab muammolari instituti, 1999. - 92 b.
7. Muxsiyeva A.SH. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. - T., 2005. - 147 b.

## **BOLALARNING MAKTABDA TA'LIM OLISHIGA TAYYORLIGINI TASHXISLASHGA YANGICHA YONDASHUV**

**Hasanova Irodahon Najmiddin qizi**

NamDu maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqearining o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so'z boyligi zahirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uni, mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Maktabgacha davr, bu-bolada motivatsiya, o'z-o'zini hamoyon va tadbiriq eta olish, barpo qilish, nimanidir bajarish xohish-istagi, intilishi rivojlanadigan davr. Unda bola shaxs sifatida shakllanishi poydevor yaratiladi. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlari va umuman, hayotda muvofaqiyatli bo'lishiga yordam beruvchi umuinsoniy xislatlar shakllanadi. Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotida egallagan bilimi, malaka va ko'nikmalari uning ertangi maktab ta'limidagi muvaffaqiyati uchun zamin yaratadi. Maktabgacha ta'limda bolaga beriladigan bilim va tushunchalar, jumladan, o'quv ko'nikmalarini shakllantirish bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, kelgusida maktab ta'limida qiyinchiliklarni engib o'tishga xizmat qiladi. ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'ylaydilar. Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish,

tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini takozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi-psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, surovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib utilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga muljallangan metodikalardan iboratdir. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar. Bu esa ulardagi so'z boyliklarining keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanyapti, degan gap emas. 5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining yana muhim ko'rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir.

Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa-hodisalar o'rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu urinda bolalar chizmalı tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladilar. Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo'la borsa-da, predmetlar va ularning (tafakkuri) o'rnini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazliligicha qolaveradi.

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo'ladigan o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli malakalarning shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirigini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo'rqitish hollari ham kuzatiladi. Bu bolada qanday nohush vaziyatlarni keltirib chiqaradi deb o'ylaysiz? 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo'rqitish hollari ham kuzatiladi. Ikkita gapni eplab gapira olmasang, maktabda qanday o'qiysan?", "Sanashni bilmaysan-u, maktabga qanday borasan?", "Maktabga borsang, o'rtoqlaring bu qilg'ingdan kulishadi!" "Hech narsani bilmaysan,



maktabga borsang bizni uyaltirasan!” kabi ta’na-dashnomlar bolada maktabdan qo‘rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo‘lishi mumkin. Shunday qo‘rquv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, ularda o‘ziga nisbatan ishonch uyg‘otish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e’tibor zarur bo‘ladi Kattalarning bunday hulqni anglash evaziga bolalar ham kattalarga, o‘qituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon qiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan bo‘lsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan ham tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa, albatta, bola bilan olib boriladigan ta’lim jarayonini murakkablashtiradi Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo‘lishini yodda tutishlari lozim.

Kern-Irasek uslubi bo‘yicha tashxis o‘tkazish. Bolalarni tekshiruvdan o‘tkazish 4 topshiriqdan iborat bo‘lib, undan ko‘zlangan maqsad ulardagi maktab uchun zarur bo‘lan faoliyatlari rivojidadagi, jumladan, bosh miya chanog‘ini analitik va sintetik vazifalari, motorikalaridagi yetishmovchilikni aniqlash. Kern-Irasek metodi bo‘yicha bolaning maktabda ta’lim olishga tayyorligi darajasini aniqlash alohida yoki 10-15 boladan iborat guruh bilan bir vaqtning o‘zida olib borilishi mumkin.

«Grafik diktant» bolaning o‘quv topshiriqni qanday qabul qilishini, o‘quv harakatlarini qanday bajara olishini aniqlashtiradi.

Tashxis o‘tkazish, bolaning rivojlanganligi va maktabda ta’lim olishga tayyorgarligi darajasini aniqlash maqsadida turli usullarning bir necha variantlari berilmoqda. Biroq bu har bir bolaga tashxis qo‘yishda maskur uslublarning barchasini qo‘llash zarur, degani emas. Bolani tashxisdan o‘tkazishni majburiylikka asoslanmagan, ishonchli suhbat yoki o‘yin tartibida olib borgan ma’qul. Toki bola o‘zini tekshirilayotganligini sezmasin. Bolani berilgan savollarga javob berivyotganda shoshirmaslik, uning qiziqishini so‘ndirmaslik uchun suhbat va tavsiya etilayotgan o‘yinlardan 2-3 tasini o‘tkazgan ma’qul. Bir marta tashxis o‘tkazish vaqti 20-25 daqiqadan oshmasligi lozim.

## **Adabiyotlar:**

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Yevstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. – Toshkent, 2018.
2. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm Ziyο, 2006.
3. Mavrulov A. Ma’anaviy barkamol inson tarbiyasi. – T: O‘zbekiston, 2008.

## **TEATRLASHTIRILGAN MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISHGA INNOVATSION YONDASHUV**

**Xolmatova Adolat** Namangan Davlat Universiteti Maktabgacha ta’lim  
yo’nalishi magistranti

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatlarini tashkil etish texnologiyalaridan foydalanish muxim ahamiyatga ega. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va o‘qitishda katta salohiyatga ega. Bunday ta’limiy faoliyatlarni yuksak saviyada tashkil etish va o‘tkazish har bir tarbiyachidan mazkur soha bo‘yicha ma’lum tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab etadi.

Har bir insonning bolaligi rolli o‘yinlar asosida o‘tadi, u bolaga kattalarning hayotiy qonun-qoidalarni anglashni o‘rgatadi. Har bir bola o‘zi bilganicha o‘ynaydi, lekin bu o‘yinlar asosan kattalardan, sevimli qahramonlardan o‘rganib yoki ularga taqlid qilgan holda amalga oshiriladi. Bolalar o‘yinlariga improvizatsiya qilingan teatrlashtirilgan tomosha sifatida qarash mumkin. Bolaga o‘zini rejissor, aktyor, musiqachi, dekorator holida ko‘rish imkoni beriladi. Dekoratsiya va kostyumlarni tayyorlash bolada ijodiy va texnik faoliyatni rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Tomoshani tayyorlash jarayonida bolalar chizish, yasash, tikish ko‘nikmalarini o‘rganish bilan birga, oldilarida amalga oshirishlari lozim bo‘lgan vazifalarga nisbatan istak, hoxish tuyg‘ulari yanada rivojlanadi va ular bundan katta zavq oladilar.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida teatrlashtirilgan faoliyatning barcha yo’nalishlariga katta e’tibor berish lozim va shart, chunki ular,

-jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish modelini yaratishni;

-milliy va ma’naviy qadriyatlarni singdirib borgan holda bolaning madaniyatini oshirishni;

-bolalar adabiyoti, musiqa, tasviriy san'at, o'zini tutish odobi, milliy an'analar va qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish va bu boradagi qiziqishini muntazam oshirib borishni;

-to'g'ri fikrlash, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni o'yinlar orqali bolalar ongiga singdirib borishga yordam beradi. .

Teatrlashtirilgan faoliyat bilan bolalar nutqini rivojlantirish uzviy bog'liq bo'lib, qahramonlarning so'zlari, bola nutqi bilan uyg'unlashib uning so'z boyligini orttiradi, nutqining tovush madaniyat mukammalashadi.

Teatrlashtirilgan mashg'ulotlar o'z ichiga ertaklardan lavhalar qo'yish, rasmga qarab rolli suhbatlar tuzish, hayotiy mavzularga oid mustaqil improvizatsiya (o'xshatish) qilish (kulguli voqealar, qiziq hodisalar va hokazo); qo'g'irchoq tomoshalarini ko'rish va uni muhokama qilish, drammatizatsiyalashgan o'yinlar, rolni ijro etish ifodaliligini rivojlantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal); bolalarni xissiy rivojlantiruvchi mashqlarni qamrab oladi.

Teatrlashtirilgan faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish, jamoani to'g'ri yo'naltirishda tarbiyachi katta rol o'ynaydi. Tarbiyachi nafaqat ifodali o'qishi yoki aytib berishi, balki ko'rishi, eshitishi, obrazga kirishi, ya'ni aktyorlik va rejissorlik mahoratlariga ham ega bo'lishi zarur. Aynan shu holat bolalarda teatrlashtirilgan faoliyatga qiziqishni uyg'otishi, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ijobiy tomonga o'zgarishiga yo'l ochadi. Tarbiyachi o'zining aktyorlik faolligi bilan tortinchoq bolalarni faqatgina tomoshabinga aylantirib qo'ymasligi, har bir bolani diqqat bilan kuzatishi lozim. Tarbiyachi bolalarni muntazam ravishda qo'llab quvvatlashi, ularning xato qilish va sahnaga chiqishda qo'rqish, «artist» va «tomoshabin»ga bo'linib qolishlariga yo'l qo'ymaslik lozim.

Quyidagi vazifalar teatrlashtirilgan faoliyatni shakllantirish bo'yicha amalga oshiriladigan darslar majmuasi davomida hal etiladi:

-tarbiyalanuvchining ijodiy qobiliyat va ijodiy o'z o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish;

- bolalarda ijodiy faoliyatning barcha jabhalariga qiziqish uyg'otish;

- improvizatsiya (o'xshatish) qilish ko'nikmalarini egallash;

- nutq faoliyatining barcha shakl, funktsiya va komponentlarini rivojlantirish;
- bilish ko'nikmalarini mukammallashtirish.

Teatrlashtirilgan o'yin teatrlashtirilgan mashg'ulotning asosi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida teatrlashtirilgan o'yinni o'tkazishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- janr va mavzuning turli-tumanligi;
- pedagogik faoliyatning barcha yo'nalishlariga teatrlashtirilgan faoliyatni har doim va har kuni singdirish.
- Bolalarning teatrlashtirilgan o'yinni tayyorlash va o'tkazishdagi maksimal faolligi.
- Bolalarning teatrlashtirilgan o'yinni uyushtirishda o'zaro va kattalar bilan hamkorligi.

Teatrlashtirilgan faoliyatni rivojlantirish tizimi uch bosqichda amalga oshiriladi:

- Adabiy va folklor asarlarni ijodiy his etish;
- Maxsus bilimlarni asosiy («aktyor», «rejissor») va qo'shimcha («ssenariy muallifi», «bezakchi», «kiyim ustasi») nuqtayi nazarda o'rganish;
- mustaqil ijodiy faoliyat.

Pedagogik vazifa suniy teatrlashtirilgan faoliyat bilan qiyinlashib boradi. U his etish, fikrlash, tasavvur, nutq bilan uyg'unlashib, bolalarning turli xil faolliklarida namoyon bo'ladi yani, nutqiy, musiqiy va hokazo.

Shuning uchun teatrlashtirilgan faoliyatni umumlashtiruvchi faoliyat deb atashimiz mumkin.

Teatrlashtirilgan o'yinlar davomida bolalarda:

- atrof olam haqidagi tushunchalari kengayadi;
- tasavvur, ong, anglash kabi psixologik tushunchalari rivojlanadi
- ko'rish, eshitish, so'zlab berish kabi turli analizatorlar rivojlanadi;
- so'z boyligi, grammatik nuqtayi nazardan to'g'ri gapirish, o'z fikrini to'g'ri ifodalash, talaffuz, temp, so'z intonatsiyasi va ifodasi faollashadi va yaxshilanib boradi;
- motorika, koordinatsiya, tembr, suhbat qurish ko'nikmalari mukammalashadi;
- xissiy-irodaviy faoliyati rivojlanadi;
- xulq shakllanishi ro'y beradi;

- jamoada faoliyat olib borish, bir-biri uchun javobgarlik rivojlanadi;
- mustaqil fikrlilik, ijodiy faollik rivojlanadi;

teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etish bolalarga olam-olam quvonch baxsh etadi, ularda bu faoliyatga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

Shunday qilib, Teatrlashtirilgan faoliyat bolalarning ichki kechinmalari, munosabatlari, emotsional faoliyatining rivojlanishiga ya'ni asar qahramonlariga munosabat bildirish, ularning holatiga kirishga harakat qilish kabi holatlar bilan birga boladagi ijodiy faollikni o'yin, fantaziya, to'qib chiqarish orqali kengaytiradilar

### **Adabiyotlar:**

- 1.N.Qayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
- 2.Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon" T.:2010y.
- 3.Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. D.Azimova. Ustahonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa" T.:2010y.

## **MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

*Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna* pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Bugungi kunda maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishga ehtiyoj mavjud. Chunki, innovatsion jarayonlar tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda samara beradi.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi qonunda “bolalarga ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish”kabi ustuvor vazifalar belgilangan<sup>41</sup>. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni atrof olam bilan tanishtirish orqali ularni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash mazmuni va texnologiyasini takomillashtirish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi[1].

---

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida.2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son.Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.

Texnologiyalar nafaqat ta'lim mazmunini rivojlantirish, balki maktabgacha har tomonlama sifatli bo'lishini ta'minlashda ham qo'l keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida atrofdagi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari quyidagi zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Sand-Art texnologiyasi (qumda rasm chizish) texnologiyasi bolalarda xotira, diqqat va fazoviy tasavvurning rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar atrof olamni ijodiy idrok qilishi va o'z tasavvurini namoyon etishi uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur texnologiyaning afzalligi shundaki, bolalarda ijodiy faoliyat oson kechadi, qumdagi har qanday manipulyativ harakatlar badiiy ijodiy natijalar hisoblanadi, masalan, qumdagi kaftlarning izi relyef-avtografni ifodalaydi, oynali stolga qumni sochish gullar tasvirini paydo qiladi. Qumdan foydalanish, turli darajada ishlash imkoniyatini yaratadi, sensor harakatlardan boshlab, to tahlil qilish jarayonigacha bajariladi. Qumda rasm chizishning muhim xususiyati shundan iboratki, chizilgan tasvirlarni ifodalash, qumdagi animatsiyalarni jonlantirish, kutilmagan tasvirlarni keyingi tasvirga o'tgunicha uni yana o'zgartirish mumkin. Qo'lning barcha barmoqlari ishtirok etadi, teri tuyish sezgisi rivojlanadi, integrativ yondashuv amalga oshiriladi. Qumda chizish uchun tishi uchburchak, turtburchak, doira va kvadrat shakldagi haskash, mo'yqalam, trafaret, tayoqchalardan foydalaniladi. Bolalarning yosh xususiyatlariga tayangan holda jihozlar tanlanadi. Sand-Art texnologiyasi orqali bolalar kaft va barmoqlari bilan uy-ro'zg'or buyumi, transport vositalari, bayroqchalar, harf va raqamlarni chizadi.

“Bizning ko'cha” mavzusi doirasida tayyorlov guruhi bolalari qum bilan yakka tartibda va kichik guruhlarda ishladi. Makur texnologiya ko'p tarmoqli bo'lib, bolalarga ta'lim berish, tarbiyalash, bir vaqtning o'zida diagnostik, rivojlantiruvchi va korreksion vazifalarni bajarishni ta'minlaydi. Natijada, bolalarda mantiqiy tafakkur, bilishga qiziqish, xotira va diqqat rivojlanishiga erishiladi. Ayniqsa, o'ziga ishonchi past bo'lgan bolalar xato qilishdan qo'rqmaydi, o'zining ichki olamini ifodalash, fantaziya qilishga imkon yaratadi. Bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, topshiriqlar berildi. Bolalar chizgan rasmiga oid she'rlar aytdi.

5-7 yosh bolalar esa qumda ertak va hikoyalar “to‘qidi”. Intellektual rivojlanishda qiynalayotgan bolalar bilan Sand-Art texnologiyasidan foydalanganda dastlab faqat qum bilan tanishtirish va uni badiiy tavsirlarda ishlatish mumkinligi haqida so‘zlab berildi. Bolalar istagiga ko‘ra qumni oynali stol ustiga sepish yoki yoyib tashlash topshirig‘i berildi. Asta-sekin qumdan turli shakl va rasmlar chizish taklif qilindi. Mashg‘ulot yakunida bolalarning hissiy holati, asab tizimi tinchlandi, ham ijobiy tomonga o‘zgardi. Ushbu texnologiya ijodiy-izlanuvchanlik faoliyati uchun qulay vaziyat yaratdi.

“Kvest-o‘yin” texnologiyasi bolalarda motivatsiyani oshiradi. Kvest-o‘yin faoliyatga qiziqish uyg‘otadi, atrof olam haqidagi yangi ma’lumot va ko‘nikmalar, bilimlarni yanada oshiradi. Bolalar o‘yin orqali o‘zining shaxsiy imkoniyatini anglashni o‘rganadi, tashabbus ko‘rsatadi va ongli ravishda xulosa chiqaradi.

Kvest-o‘yinlar bolalarni o‘rtoqlari va kattalar bilan muloqot qilish, yetakchi rolini o‘ynash, nizoli vaziyatlardan chiqishga undaydi, eng muhimi, bolaning nutqi rivojlanadi[3]. Kvest-texnologiya bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, ta’limiy vazifalar o‘yin faoliyati orqali bajariladi hamda izlanuvchanlik ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bolalar o‘z bilimini ifodalashi uchun yangi o‘qitish vositalaridan foydalanish imkoniga ega bo‘ladi. Davlat talabining barcha sohalari bo‘yicha rivojlanishi ta’minlanadi. Bolalarda ijobiy kayfiyat paydo bo‘ladi, o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarganligi uchun ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi, yakka tartibda emas, jamoada ishlashga harakat qiladi, o‘zaro bir-biriga yordam ko‘rsatadi, muammoli vaziyatlar tadqiqotchilik faoliyati bilan hal qilinadi, bola ziyraklik va dadillikka o‘rganadi. Tadqiqot davrida o‘tkazilgan kvest-o‘yinlar bolalarda muloqotchanlik, izlanuvchanlik, harakat, tasviriy faoliyat, musiqiy hamda badiiy idrok kabilarni rivojlantirdi.

Kvest-o‘yinlar uch bosqichda amalga oshirildi.

1-bosqich. Kvest o‘yin uchun jihozlar, o‘quv materiali va shart-sharoit tayyorlandi.

2-bosqich. Kvest ssenariysi va rejasi ishlab chiqildi.

3-bosqich. Bolalar mavzu mohiyati bilan tanishtirildi.

Kvest-o‘yinlar o‘tkazishda quyidagi asosiy mezonlarga tayanildi:

- o‘yin ishtirokchilar uchun xavfsizligi;
- mantiqiyligi;
- noyobligi;
- maqsadga yo‘nalganligi;
- aniq bir syujetga rioya qilinishi;
- o‘yin o‘ynash muhiti yaratilishi.

O‘yin faoliyatida bolalarda bir vaqtning o‘zida intellekt, jismoniy qobiliyat, hayol va ijodkorlik namoyon bo‘ladi. O‘yin ishtirokchilari o‘zaro kelishuv, majburiyat va vazifalarni taqsimlash, birga harakat qilish, bir-biri uchun qayg‘urish, o‘zaro yordam ko‘rsatish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. Ushbu texnologiya nafaqat bolalarning o‘zaro, balki ota-ona va bola munosabatlarini ham mustahkamlaydi. Ota-onalar ham faol ishtirok etadi, MTT va oilaning o‘zaro hamkorlikdagi munosabati shakllanadi. Kvest-o‘yinlar bolalarni o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltiradi, ijodiy, jismonan sog‘lom va o‘z shaxsiy pozitsiyasiga ega bola shaxsini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida muammoli, hamkorlikdagi, dasturli, blok-modulli, shaxsga yo‘naltirilgan, o‘yinli va boshqa texnologiyalar keng qo‘llab kelinmoqda. Har qanday ta’lim texnologiyasi uzluksiz ta’limning qaysi bo‘g‘inida qo‘llanmasin, uning markazida bola shaxsi va uning qiziqishlari, imkoniyatlari ko‘zda tutilishi kerak.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida. T.: 2019 yil 16 dekabr, O‘RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y.,( 03/19/595/4160-son).
2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Maktabgacha ta’lim vazirligi MH-1-son buyrug‘i. T.: 2018. 18 iyun.-31b.
3. Korneyankov S.S. Innovatsionniye psixologo-pedagogicheskiye texnologii obucheniya i samorazvitie lichnosti. Vestnik ChitGU.: 2012.№5.
4. Samorukova P.G. Metodika oznakomleniya detey s prirodoy v detskom sadu. Uchebnoe posobiye / L.A. Kameneva, N.N. Kondrateva, L.M. Manevsoba, Ye.F. Terenteva. M.: Prosvesheniye, 1991.- 240 s.



## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSAALARIDA ERKIN VOHIDOV SHE'RLARINI MULTIMEDIA VOSITALARI ORQALI O'RGATISHNING AHAMIYATI

*Xo'jamberdiyeva Shaxnoza Ko'paysinovna NamDU, Maktabacha ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti*

Maktabgacha ta'lim sohasi mazkur tizimning ilk bo'g'ini hisoblanadi va butun talim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi – barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin Vohidovning “Olma”, “Gilos” she'rlari kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilar yoshiga, qiziqishlari va tasavvurlar olamiga mos. Har ikki she'r yosh bolalarda quvnoq kayfiyat uyg'otadi. Olma tilidan: “Men sizlarni olmangiz”, “Xomligimda olmangiz, Nortojiga o'xshab so'ng, voy qornim, deb qolmangiz!” – deya ogohlantiruvchi misralarning yumorga boyligi bolalar ruhiyatiga yaqinligi uchun ta'sirchanlik kasb etgan. Gilosning: “Topsang qo'shalog'imni, qulog'ingga taqib ol”, - deya murojaat etishi ham kichik yoshdagi tinglovchilar tasavvurini boyitadi, obrazli fikrlashga o'rgatadi.

She'r tahliliga yo'naltiruvchi savollarga kichkintoylarning har qanday javobi qabul qilinishi, ular tarbiyachi tomonidan to'ldirilishi lozim. Muhimi, she'rdagi poetik tasvirni tasavvur qilib, zavqlansinlar, uning ma'nosini idrok etsinlar, o'z tasavvurlaridan tug'ilgan fikrlarni bayon eta olsinlar.

Bahs-munozaralardan chetda turuvchi, talashib-tortishishni xushlamaydigan, ochiq muloqotga kirishishdan ko'ra davraning “u tomonida” turishni ma'qul ko'ruvchi, “chetdan kuzatuvchi” bolalarning ta'sirlanishi sust kechsa-da, ular o'rtoqlarining fikrlarini tinglab, o'z qarashlariga solishtirib ko'rgach, munosabat bildirishlari mumkin. Bunday toifaga kiruvchi bolalar o'z fikrini aytishga shoshilishmaydi, his-hayajonlarini ham yaqqol sezdirmaydi. Ba'zi bolalar tarbiyachi bergan savolga o'ylab, shoshilmasdan javob beradilar; o'z fikrlarini og'zaki nutqda ravon, mazmunli, mantiqli va ta'sirchan ifodalashga intiladilar. Bunday bolalar bilan ota-onalar oilada kitob bilan ishlashga yetarli ahamiyat berganlar. Natijada, ular badiiy asarlarni, ertaklarni yaxshi ko'radilar, ayniqsa badiiy asarlarni sevib eshitadilar. Ularning bog'lanishli nutqi

sababli ancha rivojlangan, fikrlash salohiyati yuqori, bayon tarzi izchil, og‘zaki nutqi rivojlangan va standart talablarga javob beradi.


Anglashiladiki, bir guruhdagi 15-20 nafar tarbiyalanuvchilar xilma-xil xarakter, idrok, ruhiyat va tafakkur egalaridir. Ularning og‘zaki nutq darajasi ham turli rivojlanish ko‘rsatkichlariga ega. Ayni holatni hisobga olib, tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchining nutq darajasi ko‘rsatkichlarini belgilab olishi lozim.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o‘qish, rasmlarni ko‘rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish kompyuterli o‘yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Xalq shoiri Erkin Vohidovning “Olma”, “Gilos” she‘rlarini kichik guruhlarida multimedia vositalari orqali o‘qib o‘rganishni tavsiya qilar ekanmiz, bu she‘rlarning tarbiyalanuvchilar fantaziyasiga, 3-4yoshli bolalar ruhiyatiga ta‘sir ko‘rsatish xususiyati e‘tiborga olinishi kerak. She‘r sodda badiiy tilda bitilgan obrazlilik va jonlantirish, o‘xshatish, sifatlash kabi tasviriy vositalar qo‘llanganligi sababli olma va gilos kichik kitobxon bilan go‘yo so‘zlashadi, xomligida uzmaslikka, Nortojiga o‘xshab so‘ng “Voy, qornim deb qolmangiz!” – deya noxush holatga tushib qolmaslikka chaqiradi. Gilos ham o‘z sifatlarini birma-bir “so‘zlar” ekan, bolalarni u kabi totli, mazasi bol bo‘lishga go‘yo chorlaydi. “Topsang, qo‘shalog‘imni qulog‘ingga taqib ol” misrasi esa aynan bolalarga xos odatni, sho‘x-shodonlik qayfiyatini, bolalarcha zavq-shavqni ifoda qiladi.

Xo‘sh, nima uchun Siz qo‘shaloq gilosni qulog‘ingizga taqib olgingiz keladi? Gilosning da‘vati qanday ma‘noni anglatadi? Gilosning sifatlariga o‘zingizdagi qaysi odatlar yoki xususiyatlarni qiyoslay olasiz?

Mashg‘ulot davomida ekranda quyidagi tasvir paydo qilinadi:



Ushbu chizmadagi fikrlarni davom ettirish kichkintoylarga topshiriladi. Olma va gilos mevalari haqida qo‘shimcha ma’lumotlarni bolalarning o‘zlari yoritib beradilar.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Q. Xusanboyeva “Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li”, -T. “Muharrir”, 2013.
2. Sh. Qurbon va J.Jovliyev “Erkin Vohidov saboqlari: adabiy portretga chizgilar”, - T.: A.Navoiy O‘z.Milliy kutubxonasi. 2017.
3. Keldiyorov R. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik asoslari. (O‘qituvchi kasbiy-ma’naviy fazilatlarini asosida). Ped.fan.nom.diss... – T.: 2001..
4. «Ilk qadam» Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi, -T.: 2018

#### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR O'YINLI TA'LIM FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Sh.K.Xo‘jamberdiyeva NamDU, Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti,  
Sh.Xojimirzayeva Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistranti*

O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘lishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni “bolalikning hamrohi” deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar

hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta`lim bilan uzviy aloqada bo`lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo`ladi. Bola shug`ulanadigan ko`pchilik jiddiy ishlar o`yin shaklida bo`ladi. O`yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o`yilaydi. O`yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo`ladi.

O`yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san`atshunos olimlar diqqatini o`ziga tortib kelgan bo`lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o`z o`yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o`sha davrdagi ba`zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o`yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilgan edi.

Ilk yoshli bolalar o`yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o`yin bo`lib, u narsa-buyum-o`yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo`l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o`yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o`yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta`lim-tarbiyaviy ishlarini ma`lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o`z o`yinlarida qo`llay boshlaydilar.

Bu yoshdagi bolalar o`yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o`yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo`lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich rolli o`yin bo`lib, unda bolalar o`zlariga tanish bo`lgan kattalar mehnati va qishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o`yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to`g`risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o`yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib MTTning pedagogik jarayonida o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashqil etilishi, tuzilishi, bolalarning ahloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida etakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, taffakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyaiga ega bo'lib bolaning umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli usullar va

metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, so'zlab berish va hokozolar.

Bola o'ynayotib o'z bilimidan foydalanishni, uni har xil sharoitda ishlata bilishni o'rganadi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning fantaziyasi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo'l ochiladi.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan birga ahloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechilmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi hislarni, ulug'vor orzular va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechilmalar birlashtiradi. SHuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iborat.

O'yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o'z o'yinlarida har xil kasbdagi qishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga mehnatiga bo'lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O'yin bolada ko'pincha mehnat qilish xoxishini uyg'otadi, o'yin uchun keraqli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O'yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo'lgan texnikaga qiziqish paydo bo'ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar.

O'yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O'yinda ijodiy hayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o'yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlarda harakatning go'zalligi va maromi bolalarni o'ziga maftun qiladi.

O'yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o'z-o'zidan amalga oshmaydi. O'yin befoyda, hatto zarali bo'lishi, ba'zan yomon hislarni qo'zg'atishi mumkin. Tarbiyachi o'yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntazam ravishda ta'sir etib borishi zarur.

Bu vazifani hal etishda o'yin bolalar bog'chasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi. Ikkinchi tomondan, o'yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko'chiriladi.

### **Adabiyotlar**

1. Abdurazzoqova Z., Mamatova M. Darslarda yangi ilg'or texnologiyaning qo'llanilishi // Ta'lim texnologiyalari; 2007 yil 1-soni.
2. Avliyakov N.H., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. -T: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Ahrorova Z. O'qitishning yangicha usullari. // Ta'lim va tarbiya, 2003 yil 3-4-sonlari.

### **BADIIY ADABIYOT VOSITASIDA BOLALAR NUTQINI GRAMMATIK JIHATDAN TO'G'RI O'STIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

*Sh.K.Xo'jamberdiyeva NamDU, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti*  
*D.Husanova Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti*

Badiiy adabiyot bolalarga aqliy, ahloqiy va estetik tarbiya berishda, nutqini har taraflama rivojlantirishda va boyitishda katta ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Badiiy adabiyot bolalarga jamiyat hayotini va tabiatni, kishilik dunyosining ichki his-tuyg'ularini va o'zaro munosabatlarni poetik obrazlarda ochib beradi, tushuntiradi. U bolaning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, xayolini tarbiyalaydi va o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtiradi. Bu namunalar o'zining ta'siri jihatidan xilma-xildir: hikoya orqali bolalar so'zlarning aniqligini, ma'nodorligini anglab oladilar; she'rlardan esa ularning musiqaviyligini, kuylanuvchanligini, ohangdorligini bilib oladilar, xalq ertakkiri bolalarga tilning ifodaliligini, mazmundorligini ochib beradi, nutqning xilma-xilligini, hazil-mutoyibaga boyligini bolalarning ko'z oldida namoyon

qiladi. Badiiy adabiyot bolalarga kishilarning hayoti va mehnatlari, ishlari va qahramonliklari, bolalikdagi eng qiziqarli voqealar, ularning o'yinlari, mehnatlari haqida hikoya qilib beradi.

Badiiy adabiyot bolalarga hayotni tushuntiradi va shu orqali bola hayotiy tajribasining ortib borishiga ta'sir etadi. Badiiy adabiyot kishilarning ichki dunyosini, ularning his-tuyg'ularini, xarakterlarini ochib berishi bilan bolalarni hayajonlanishga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga va uni muhokama qilishga o'rgatadi. Badiiy asarning eng yaxshi namunalari bolalarda ahloqiy sifatlarni tarkib toptirishga: yaxshi-yomon, haq-nohaq, rost-yolg'on va h.k. so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg'ular va kayfiyalarni his etishi ham lozim. Bolalar bog'chasida asarning mazmuni va formalarini analiz qilishning ba'zi elementlari ham tarkib toptiriladi. Har bir bola maktabga o'tish paytida asarda hikoya qilangan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o'z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta bilishi, asarning formasini aniqlay bilishi (she'r, hikoya, ertak) lozim. Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o'qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani diqqat bilan ko'zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalash zarur. Bog'cha bolalarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidagi taassurotlarni o'rtoqlashish istagi va ko'nikmasini tarbiyalashi lozim. Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo'lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya'ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdiridagina u o'zining tarbiyaviy rolini bajaradi. Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko'rib chiqish va takrorlash materialini belgilab olishi lozim. Tarbiyachi taqvim-reja tuzish paytida yaqin bir-ikki hafta ichida bolalarga o'qib beradigan asarlarini tavsiya ro'yxatidan belgilab oladi. Bunda u bolalarda his - tuyg'u va hulq-atvorni, tevarak-atrofga har xil qiziqish hamda munosabatlarni tarkib toptirishdek muhim tarbiyaning



umumiy vazifalariga amal qiladi. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o'zaro munosabatlarini, o'yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi. Har bir asarni tevarak-atrofdaga ma'lum hodisalar bilan bog'lash va o'sha vaqtdagina o'qib berish lozim, deb o'ylash noto'g'ri. Albatta, kitobdagi hodisalarga bog'liq mavzuni o'qib berish kerak. Lekin boshqa vaqtda ham bunday kitob o'qishni o'tkazish lozim. Ahloqiy-epik mazmundagi kitoblar o'qib bo'lingandan keyin ham suhbat o'tkazishni talab etadi. Bunday suhbatlarda juda ko'p savol va tushuntirishlar bo'lmasligi lozim, chunki bolalar kitobni o'qish paytidayoq qahramonlar xatti-harakatlarining mohiyatini chuqur anglab oladilar. O'qilgan asar haqida o'tkaziladigan suhbatlarda bolalarni qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga o'rgatish va bolalarning qahramon va uning xatti-harakatlariga o'z munosabatlarini aytishlariga erishish lozim». Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi -bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir. Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar bolalarga juda qiziqarlidir. Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga takdid qiladi. Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqyealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustrasiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Kichkintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim. Ilk yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan folklor asarlari tashkil qilali. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir.

## **Adabiyotlar**

1. Kadirova R.M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dialogic nutqni rivojlantirishning omillari (o'quv qo'llanma). –T.: TDPU, 2002.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. –T., 1996.
3. Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T., 2001.

## **ТРУДОВОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.**

**Чориева Дурдона Анваровна** Факультет дошкольного образования ТГПУ им. Низами и PhD кафедры дошкольного образования психологии и педагогики

Трудовое воспитание - это целенаправленный процесс формирования у детей дошкольного возраста сознательного отношения и склонности к труду как основной жизненной потребности, а также формирование привычки к труду путем включения ребенка в активную трудовую деятельность.

Цель трудового воспитания дошкольников - формирование у детей представлений о трудовой деятельности взрослых, формирование трудовых навыков и умений, воспитание трудолюбия как качества личности. Различные исследователи предлагают свои формулировки задач трудового воспитания. Приведем некоторые из них. Так, В.И.Логинова выделяет следующие задачи: формирование отношения к труду; воспитание потребности трудиться; усвоение трудовых знаний, умений, навыков в основных видах труда. В.Г.Нечаева в задачи трудового воспитания включает: формирование трудовых навыков и умений; воспитание отношения к труду, стремление оказывать помощь взрослому; воспитание нравственно-волевых качеств личности; овладение навыками трудовой деятельности; воспитание отношения к труду взрослых. Трудолюбие проявляется в потребности ребенка включаться в трудовую деятельность, способность испытывать радость в ее процессе, достигать цели.

**Задачи трудового воспитания детей дошкольного возраста:**

1. Воспитание положительного отношения к труду взрослых, стремление оказывать им посильную помощь.

2. Формирование трудовых умений и навыков и их дальнейшее совершенствование, постепенное расширение содержания трудовой деятельности.

3. Воспитание у детей положительных личностных качеств: привычки к трудовому усилию, ответственности, заботливости, бережливости, готовности принять участие в труде.

4. Формирование навыков организации своей и общей работы.

5. Воспитание положительных взаимоотношений между детьми в процессе труда - умение работать согласованно и дружно в коллективе, оказывать помощь друг другу, доброжелательно оценивать работы сверстников, в корректной форме делать замечания и давать советы.

Виды труда дошкольников:

- самообслуживание,
- хозяйственно-бытовой труд,
- труд в природе
- ручной труд.

Содержание труда реализуется в разных формах организации. В науке разработаны и в практику внедрены разные формы организации труда детей дошкольного возраста:

- поручение
- дежурства
- общий труд
- совместный труд
- коллективный труд

Трудовое воспитание дошкольников осуществляется с помощью ряда средств:

- собственные трудовые деятельности детей
- ознакомление с трудом взрослых
- художественные средства.

Для того чтобы дети трудились с удовольствием, необходимо создавать эмоционально-положительную атмосферу. Правильно организовывать материальную среду и трудовое оборудование. Руководство детской трудовой деятельностью требует от педагога знания специфики развития и воспитания ребёнка, а также умения активно способствовать приобретению необходимых навыков. Важно учитывать нагрузку, избегая перегрузки детей. Обязательно учитывать индивидуальные интересы и склонности детей к тому или иному виду труда.

### Список литературы

1. Сухомлинская О. В., Идеи свободы в воспитании, "Свободное воспитание", 1993, № 3.
2. Н.М.Каюмова. "Дошкольная педагогика". 2019 г.

### MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION FAOLIYAT KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Choriyeva Durdona Anvarovna* TDPU, "Maktabgacha ta'lim"  
fakulteti PhD, v.v.b., dotsent,  
**Abduqodirova Ozoda** "Maktabgacha ta'lim" fakulteti magistri

Mustaqillik O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini yaxshilash yo'lida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish imkonini berdi. Uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlarining puxta asoslanganligi, ta'lim muassasalari faoliyati mazmunining davr talablariga muvofiq takomillashtirilganligi, ta'lim olish sharoitlarining yaxshilanganligi, shuningdek, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatining yuzaga kelganligi o'z navbatida o'qituvchilar kasbiy mahoratining yuqori darajada bo'lishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilganidek, ta'limiy islohotlarning yuqori bosqichida ta'lim muassasalarida o'qitish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur jarayonda o'qituvchilarning pedagogik texnologiya asoslaridan chuqur xabardor

bo'lishlari, barcha ko'rinishdagi pedagogik faoliyat jarayonini innovatsion g'oyalar asosida tashkil eta olishlari muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotining tezkor taraqqiyoti, ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida jadal sur'atda ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim jarayonini tashkil etishda davriy o'zgarishlarni inobatga olish, fan yangiliklarini o'quv materiallari mazmuniga singdira olish lozimligini taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilardan pedagogik faoliyatni innovatsion loyihalar asosida tashkil etish orqali o'quvchilarda o'quv hamda ijtimoiy faollikni shakllantirish, ularning mustaqil tafakkurga ega bo'lishlariga erishishni maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda.

Pedagogik ijodkorlikning o'ziga xos ko'rinishi sanaluvchi innovatsion faoliyatni tashkil etishda o'ziga xos qiyinchiliklar ko'zga tashlanadi. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatga noan'anaviy yondashish ehtiyoji hamda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishlari mavjud qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan olganda boshlang'ich va maktabgacha ta'limda tarbiyachi va o'qituvchilarning innovatsion faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega.

Individual xususiyat bo'lgan ko'nikma "olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan ish harakat" sifatida kasbiy faoliyatni tashkil etishda o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining innovatsion ko'nikmalarga egaliklari esa ta'lim jarayonining qiziqarli tashkil etilishini ta'minlabgina qolmay, uning samarali kechishi uchun sharoit ham yaratadi. Shuningdek, innovatsion ko'nikma pedagogik faoliyatni muayyan texnologik loyihalar asosida ijodiy tashkil etishga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishda, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy hamda texnologik bilimlarni yetarli darajada o'zlashtira olganliklari, boy dunyoqarash va ijodiy fantaziyaga ega bo'lishlari ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy malakalarini takomillashtirish borasidagi mavjud pedagogik qarashlarni nazariy jihatdan tahlil etilib, umumlashtirish; muammo mohiyatini yorituvchi bir qator asosiy tushunchalar ("faoliyat", "innovatsiya", "innovatsion

faoliyat”, “innovatsion faoliyat ko‘nikmasi”) mazmunini boyitish; maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishda ahamiyatli bo‘lgan omillarni belgilash, mazkur jarayoni andozasini asoslash; shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarining va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida innovatsion faoliyat ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqish orqali “Maktabgacha pedagogika”, “Pedagogika nazariyasi”, “Pedagogik mahorat” va “Pedagogik texnologiya” kabi o‘quv fanlarining mazmuni takomillashtiriladi.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. 2020 yil
- 2.F.R.Qodirova, N.M.Qayumova va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. T. 2019
- 3.Mdo.uz
- 4.Lex.uz

## **SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN SINTEZLANGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYASI**

*Choriyeva Durdona Anvarovna* TDPU, “Maktabgacha ta’lim”  
fakulteti PhD, v.v.b., dotsent,

**Ahmedova Nilufar** Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti  
talabasi

Insondagi til, xotira va ong bilan bog‘liq holda miyada boradigan jarayonlarni tadqiq etish va o‘rganish juda muhim va murakkabdir. Chunki yuqori tartibdagi bilish qobiliyatlari va ularning tarkibi, masalan, til, xotira va ong bilan birga yolg‘on, abstrakt tafakkur, faoliyatni rejalashtirish kabilarni tadqiq etishda turli muammolar yuzaga keladi. Shu bilan birga miya va u bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim tizimlar xanuzgacha ma’lum darajada sirligicha qolyapdi, chunki miya funksiyalarini o‘rganish va aniqlash jarayoni nihoyatda sekinlik bilan amalga oshirilmoqda [1, B.3].

Inson hulq-atvorini uning biologiyasidan alohida ko‘rilishi mumkin emas, hulq-atvor – biologiyaning bir ko‘rinishidir [1, B.5]. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bilimlarni o‘zlashtirilishi o‘quvchi intellektining rivojlanganlik darajasiga emas, balki o‘qituvchi tomonidan o‘quv materiallarini o‘quvchilarningborliqni tushunish, ma’lumotlarni qabul qilish, o‘zlashtirish va anglash strategiyalarining xususiyatlarinihisobga olgan

holda taqdim etilishiga bog‘liq. Mana shu shartning bajarilishi o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini yanada ko‘proq faollashtirishga yordam beradi.

Neyropedagogika pedagogik jarayonlarni inson bosh miyasida sodir bo‘ladigan neyrologik o‘zgarishlar nuqtai nazaridan o‘rganib, innovatsion ta‘lim muxitini tashkil etishda – uning integrativ nazariy bazasini, umumiy metodologiyasini hamda aniq diagnostik va korreksion texnologiyalarini yaratishda samarali qo‘llanilishi mumkin. Bunda asosiy e‘tibor o‘quvchining hulq-atvori va bilish faolligi uning bosh miyasi faoliyatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hamda o‘quvchi va pedagogning individual laterallik profili variantlarining o‘zaro mos kelishini hisobga olgan holda ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishiga qaratiladi [2].

Neyropedagogikaning asosiy tamoyili – har bir insonning miyasi betakrorligida bo‘lib, ma‘lumotlarni qabul qilish xajmi va ishlash tezligi, u yoki bu xotira tizimining ustunligi va tafakkur jarayonlarining borishi bilan farq qiladi. Shu sababli har bir o‘quvchining ta‘lim olish, atrof-muxitni tushunish va tafakkur qilish jarayoni bir-biridan farq qiladi. O‘qituvchilarning asosiy vazifasi – har bir o‘quvchidagi shu betakrorlikni saqlab qolish va yanada rivojlantirishdan iborat.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchi va pedagog lateraligining o‘zaro muvofiq kelishi ular o‘rtasida ma‘lumot almashinuvining yuqori darajada samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Mazkur profillarning o‘zaro to‘g‘ri kelmasligi esa aksincha, pedagogik muloqot samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Kognitiv neyrologiya sohasidagi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish asosan intuitiv-hissiy (kommunikativ) hamda mantiqiy-ratsional (nokommunikativ) yo‘llar bilan sodir etiladi. Murakkab kognitiv jarayonlarda bosh miya yarimsharlarining har ikkalasi xam ishtirok etsada, ularning faoliyat strategiyasi bir-biridan sezilarla darajada farq qiladi [3, B.205]. Chap yarimshari yetakchi bo‘lgan o‘quvchilar uchun o‘quv ma‘lumotlarini ketma-ket va mantiqiy tahlil qilish hamda tahlilning xususiy bo‘laklardan umumiyga yo‘nalganligi hos bo‘lsa, o‘ng yarimshari yetakchibo‘lgan o‘quvchilar uchun voq‘elikni intuitiv va umumiy yaxlitlikda anglash hamda tafakkurning umumiydan xususiyga moyilligi hosdir.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishining pastligini bir nechta sabablari tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lib, bularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi oldiga qo'yilayotgan vazifa va talablar yarimsharlar rivojlanganlik darajasiga hamda yosh jixatlariga to'g'ri kelmasligi;
- miyaning ayrim tarkiblari anatomik rivojlanishida orqada qolayotganligi oqibatida o'quvchi funksional tizimlari shakllanishida xam kechikish sodir bo'lishi;
- yarimsharlar va ichkisharlar o'rtasidagi muhim aloqalarning rivojlanmaganligi;
- taklif qilinayotgan va qo'llanilayotgan metodikalarning o'quvchilar tafakkur tiplariga, gender xususiyatlariga mos kelmasligi.

Neyropedagogika nuqtai nazaridan o'qitish, ta'lim berish samaradorligi o'qituvchini o'quvchi intellektiga emas, balki uning imkoniyatlariga adaptatsiya qilishiga bog'liq. Chunki o'qituvchi uchun mazkur adaptatsiya o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini to'la faollashtirishga yordam beradi.

Ta'lim muassasalarida bilish jarayoni samaradorligini yanaada oshirish uchun ushbu jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilar bosh miya yarimsharlarining har birini faollashtiruvchi, ya'ni "miyaga kirish" imkonini beruvchi turli metodlarni sintezlashni talab qilinadi [4, B.1-9]. Ijodiy, ilmiy, evristik vazifalar nafaqat o'ng yarimshari yetakchi bo'lgan, balki chap yarimshari yetakchi bo'lgan o'quvchilar uchun ham berilishi ularga o'z kuch va imkoniyatlarini sinab ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Sintezlangan ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning neyropedagogik xususiyatlari hamda tafakkuri strategiyasidan kelib chiqqan holdata'lim jarayonini tashkil etish bo'lib, mazkur texnologik jarayonini rejalashtirishda o'qituvchi tomonidan quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

1. O'quv jarayonining maqsad va vazifalarini aniq hamda tushunarli qilib belgilash.
2. Ta'lim jarayonida, davriy ravishda o'quv ma'lumotlarini o'quvchilarning tafakkur strategiyalariga zid (teskari) bo'lgan metodlar bilan almashtirish.



3. Tafakkurning bilimdan ustuvorligi [5, B.32-37].
4. O'qituvchi o'quv materialidagi qiyinchiliklarni aniqlashi va ularni bartaraf etishda tajribaga ega bo'lishi.
5. Shakllantiruvchi baholash.
6. Turli laterallikka ega bo'lgan o'quvchilar tafakkurining o'zaro xamkorligini shakllantirish [6].
7. Mashg'ulot davomida ko'tarinki emotsional-ruhiy holatda bo'lish [7, B.38-42].
8. O'quvchi tashabbusining ustuvorligi.
9. Vazifalarni individual darajada differensiallash.

Bosh miya yarimsharlarini bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda va xamjihatlikda faol ishlashi o'quvchi tomonidan uning bilish faoliyatini tashkil etish maqsadida berilayotgan ma'lumotlarni intensiv o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

### **Adabiyotlar:**

1. Evolutionary Cognitive Neuroscience / Edited by Steven M. Platek, Julian Paul Keenan, and Todd K. Shackelford./ The MIT Press. Cambridge, Massachusetts. London, England. 2007 Massachusetts Institute of Technology. –P. 3.
2. Gulyamov D., Mamatkulov D., Axmedova M., Umarova M., Abidjanova M. / Neyropedagogika / Uslubiy qo'llanma. -Toshkent: TDPU, 2017. -160 b.
3. Tunkun Ya.A. Osnovi neyropedagogiki: istoriya, teoriya i praktika / J.: Kiberleninka, 73-2, -203. S.204.

## **HALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI ORQALI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH**

*Choriyeva Durdona Anvarovna TDPU "Maktabgacha ta'lim"*  
*fakulteti PhD, v.v.b., dotsent,*  
*Rajabboyeva Gulchehra talaba*

Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, ahloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, tasirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi. She'riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi.

Bu namunalar o'z tasir kuchiga ko'ra turlicha bo'ladi: hikoyalarda bolalar so'zlarning lo'ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she'rlarda o'zbekcha nutqning musiqiylikni, ohangdorligini ilg'aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko'rsatadi.

Bolalar badiiy ertaklar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg'ulari – birovning dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uyg'ona boshlaydi. Bu prinsipiiallik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir. «His-tuyg'ular bilimdan oldin keladi; kimki haqiqatni his qilmagan bo'lsa, u uni tushunmagan va tanimagandir».

Xalq – bolalarning betakror o'qituvchisidir. Halq ertaklaridan boshqa hech qaysi ertaklarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko'ra bir-biridan zo'rg'a farq qiladigan so'zlarni hayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik yumor, sanoq she'rlar – pedagogik ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo'rqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malhamdir». Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayvonot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar [1].

Bolalar estetik, ayniqsa ahloqiy tasavvurlarni kattalarning (ota-onalar, pedagoglar) o'qib chiqilgan ertaklar bo'yicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy ertaklardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan ertak bo'yicha haddan tashqari ko'p nasihat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon yetkazadi: mayda-chuyda savollar bilan «sochib tashlangan» ertak bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini yo'qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur. Maktabgacha davrdagi har bir

yosh bosqichi o‘zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo‘yadi. Yosh o‘tib borishi bilan adabiy ertaklarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she‘r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

Besh-olti yoshli bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari – bolalarning psixologik rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo‘lgan uyg‘unligidan iborat. Bir tomondan – bolalar yuqori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinchi tomondan – olti-yetti yoshli bolalarning taqlidchilikka, me‘yoriylikka intilishi xammaga yaxshi ma‘lum. Bola qoidalarni, harakat usullarini o‘zlashtirishga intiladi va u bunga qodirdir. Yuqori baholanadigan natijalarga erishish uchun unda obrazli stereotiplar oson shakllanadi va ular bolaga adabiy matnni talqin qilish hamda uni to‘g‘ri tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Badiiy adabiyotning quyidagi janrlari maqsadga muvofiqdir: folklorning kichik shakllari, she‘riy ertaklar, hikoyalar, she‘rlar. Ayni paytda bola uchun adabiy obrazlarning emotsional jozibadorligi quyidagi hollardagina ortadi: ya‘ni, agarda badiiy mazmun uning qabul qilishi uchun imkon doirasida bo‘lsa; badiiy ertak yorqin va ifodali taqdim etilsa; bola badiiy matn mazmunini tashqi harakatlarda ifodalasa; badiiy ertak asosida o‘zi xam improvizatsiya qilsa.

Pedagogik ishlarni bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki yo‘nalishda olib borish lozim.

Birinchi badiiy ertakni yaxlit va tugallangan estetik obyekt sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan bog‘liq. Bolalar aynan bir ertakga ko‘p marta duch keladilar, tarbiyachi uni takror o‘qiydi, mazkur ertakni sahnalashtirishni, diafilmlar va videofilmlar namoyishini tashkil etadi. Bolalar she‘rni yoddan o‘qiydilar (yaxlit yoki qisman), bunda ular o‘qishning ifodaliligini saxnalashtirish elementlari bilan kuchaytiradilar. Guruhda bolalarga yoqib qolgan kitobdan bemalol foydalanish mumkin bo‘lgan sharoitni yaratish zarur. Bunda tarbiyachining o‘ziga qanday kitoblar yoqishini bolalarga haqqoniy bildirishi juda muhimdir.

Ikkinchi yo‘nalish ayrim badiiy obrazlarni o‘zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar

yaratishni ko'zda tutadi. Bu asalarni o'xshashlik yoki qarama-qarshilik asosida guruhlash, obrazlarning ular faoliyatining turli ko'rinishlarida rivojlantirish tufayli amalga oshirilishi mumkin.

Illyustratsiya bolaga harakat rivojini kuzatib borish va matni tushunish imkonini beruvchi asosiy tayanch vositalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan turli badiiy usullarda va texnikalarda bajarilgan yuqori badiiy ahamiyatli qiziqarli illyustratsiyalardan foydalanish zarur. Biroq, uch-to'rt yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ko'pincha shunday vaziyat yuzaga keladiki, bunda surat matni bezamaydi, aksincha matn suratga jon baxsh etadi. Ayniqsa, bu obrazlari yuqori darajada noaniq bo'lgan va obrazlari yuqori darajada ifodali bo'lgan (folklor she'rlarining kichik shakllari) ertaklarga taalluqlidir [2].

Munosabat: bolalarga yorqin emotsional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qahramonlarga faol ko'maklashish hamda ular haqida qayg'urish xosdir. Bolalar kitob, she'r va xalq qo'shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, hazil, qofiyadosh so'zlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qolishni hamda o'z nutqida qo'llashni xohlaydilar.

#### **Adabiyotlar:**

1. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. T.: "Barkamol fayz mediya" 2018.
2. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz., Sariog'och, 1998.

### **ФОРМИРОВАНИЕ ГУМАННЫХ ПРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

*Чориева Дурдона Анваровна PhD кафедры «Психология и педагогика дошкольного образования» ТГПУ имени Низами*

*Кадырова Шахноза Студентка 2 курса факультета «Дошкольное образование» ТГПУ имени Низами*

Результаты методов исследования показывают, что развитие личностно-нравственной культуры ребенка формируется не только в результате определенных занятий, но и во взаимодействии со сверстниками в повседневной жизни. У дошкольников внутренние черты личности начинают развиваться в

свободном состоянии. Среда свободы - это дом или среда между близкими, то есть мы убеждены, что проявление моральных и человеческих качеств в ребенке также зависит от окружающей среды. Культурно-воспитательные аспекты - один из важнейших нравственных аспектов дошкольников. Этот аспект позволяет человеку развивать чувство гуманности по отношению к другим и свободно общаться с ними. Самое главное, этот процесс требует нового подхода. Сегодня одна из главных задач - формирование нравственного и человеческого аспекта подрастающего поколения. Потому что маленький ребенок очень любопытен и все примет осознанно. Они безупречны, как белая бумага. Вот почему обучение их таким безупречным качествам с раннего возраста и формирование в них таких качеств стало одной из основных целей, которые мы с вами ставим перед собой. Как бы мы ни были важны для будущих поколений, с этого момента наши будущие поколения будут продолжать проявлять в нем как моральные, так и духовные качества, а также положительные качества, которые уникальны для многих людей.

Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki pedagogning kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinli foydalana olishi lozim.

Innovatsiya – ingliz tilidan olingan bo'lib, «In-ichida», «Novus-yangi», «yangilik», «yangilik kiritish» degan ma'noni anglatadi. U muayyan ijtimoiy birlikka (tashkilotga, aholiga, jamiyatga, guruhga, tizimga) yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib borishi va ularning maqsadga muvofiq o'zgarishidir.

«Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunosik sohasida paydo bo'lib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Yevropa va AQShda paydo bo'lgan.

Dastlab innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slatenin, A.I.SHerbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan. X.Barnet, Dj.Basset, D.Gamilton, N.Gross, M.Mayez, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning «Hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan.

Innovatsiyalar ikki turga bo'linadi:

1. Stixiyali, ya'ni innovatsiyalarga bo'lgan ijtimoiy talablar natijasida paydo bo'lib, bunday innovatsiyalarni yaratishga doir oldindan mo'ljallangan reja, metod va texnologiyalar bo'lmaydi.

2.Ongli, ya'ni ilmiy asosga ega maqsadga yo'naltirilgan innovatsiyalar. Innovatsion pedagogika tushunchasi G'arbda 50 yillar oxirlarida, bizning mamlakatimizda esa keyingi 20 yillikdan boshlab qo'llanilib, olimlar ushbu sohani maxsus o'rgana boshladilar. Jahon pedagogik nashriyotlarda va jurnallarda innovatsion maqolalar chop etila boshladi. So'ngra Yunesko qoshida ta'limni rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi tashkil etildi. Bu tashkilot turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilikka maxsus nashrlarda ular haqida ma'lumotlarni tarqatib bordi. Bu jarayonlar bilan bog'liq holda «innovatsion jarayon» tushunchasi vujudga keldi.

Innovatsiya jarayoni - tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizim bo'lib, u ta'lim jarayonini zamonaviy soha yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beruvchi innovatsion harakatlardir. Innovatsion jarayonlarga nisbatan ikki xil qarash mavjud:

Hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birlamchi, raqobati va natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Innovatsion jarayonlar quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Yangi g'oyaning paydo bo'lishi, ya'ni fundamental va amaliy ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi.

2. Kashf etish vaqti, ya'ni amalga oshgan obyekt, moddiy yoki ma'naviy mahsulot namuna ko'rinishidagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikni qo'shimcha ishlab, mukammallashtirish. Bu bosqich yangilik kiritishdan mustahkam samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi. 4.

Yangilikning tarqalishi uning yangi sohalarga diffuziyalanib (qo'shib) keng tatbiq etilishi.

5. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi. Yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi. Bu bosqich yangi samarali yangilik paydo bo'lishi yoki uning yanada samarasi bilan almashishi bilan yakunlanadi.

Yangilikning ikki turi mavjud:

1. Birinchi marta yaratilgan yangilik. Bu yangilik ixtiroga teng, ya'ni yana o'rnatilgan yangi haqiqat demakdir.

2. Avvalgi mavjud bo'lgan nazariyani yanada takomillashtirib, zamonaga moslashtirishdan iborat.

Pedagogikida innovasion jarayonning kechishini 4 ta asosiy qonuniyatga bo'ysinishi aniqlangan:

1. Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni. Bunda pedagogik jarayonlar haqidagi tasavvurlar buziladi, pedagogik ong buziladi, pedagogik yangilik baholanadi.

2. Nihoyat amalga oshirish qonuni. Bunda yangilikning hayotiyliigi bo'lib, erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

3. Komillashtirish qonuni. Bunda pedagogik innovatsiya qolipga tushadi va amaliy harakat tendentsiyasiga ega bo'ladi.

4. Pedagogik innovasiyaning davriyligi va qaytish qonuni. Bunda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Innovasion jarayonlarning asosini quyidagi yondoshuvlar tashkil etadi: 1. Madaniyatshunoslik, ya'ni inson uchun bilishning ustuvorligi.

2. Shaxsiy faoliyat, ish faoliyatidagi yangi texnologiyalardan foydalana olish.
3. Ko'p suhbatli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
4. Individual - ijodiy (tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari, kreativ faoliti) yondashuvi.

Innovasion pedagogik jarayonlar quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

1. Pedagog-tarbiyachilarning o'zini-o'zi boshqarishi va ta'lim-tarbiya olishga yo'naltirilganligi.
2. Pedagog-tarbiyachilarning bilish faoliyatining rivojlanganligi,
3. Pedagog-tarbiyachilarning faolligining oshganligi

Innovatsion pedagogik jarayonlar bevosita tarbiyachining innovasion faoliyati bilan bog'liqdir. Pedagog faoliyatida moslanuvchanlik tushunchasi mavjud bo'lib, bu bir xil mashhur masalalarni yechish yo'li hisoblanadi, ammo oqibatda bunday yo'l aniq holatdagi pedagogik faoliyat uchungina moslashadi.

MTTda innovatsion muhitni shakllantirish va MTT amaliyotiga ilg'or texnologiyalarni va interfaol usullarni keng tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Demak, pedagog-tarbiyachi ijodkorlik va tashabbuskor bo'lishida u ta'lim jarayonini yangicha modellashtirish, ishni innovatsiyalar asosida yangi o'qitish texnologiyasini joriy qilishi zarur. Shuninidek pedagog:

- o'quv mehnat faoliyatini samarali tashkil etishni
- muloqotga kirisha olishi,
- materiallardan va turli axborotlardan mustaqil foydalanishni, mutolaa qilishni

va ularni o'zining pedagogik faoliyatida qo'llashni bilishi lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva.
2. <http://ipb.uz/post/luighghfgncghe>
3. <https://www.terabayt.uz/uz/post/innovatsiya-tushunchasi-haqida>

# **3-SHO‘BA.”MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI”**

## **ФОРМИРОВАНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДОШКОЛЬНИКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МУЛЬТИМЕДИА**

*Абдурасулова Мадинабону Абдуваххобовна Студентка факультета и  
направления “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами*

Операционные компоненты учебной деятельности детей в ходе математического развития в рамках компьютерных сред формируются благодаря:

- непосредственному обучению счету, решению задач, различению форм и величин;
- выполнению заданий, в которых обозначен только результат деятельности, способ его достижения обуславливает педагогический инструментарий среды (решить задачу, охарактеризовать множество);
- использованию пошаговых инструкций, позволяющих отрабатывать образцы речевого сопровождения математических действий.

Компьютерная среда «Вундеркинд» включает 6 блоков разноуровневых учебных заданий («Алфавит», «Малыш 1, 2, 3, 4», «Круглый остров»), объединенных игровыми ситуациями и персонажами; ее презентация основана на следующих этапах взаимодействия педагога и детей.

1. Создание игровой ситуации.
  2. Освоение элементов информационной культуры для развития игровой ситуации:
- приёмы владения мышью, тачпадом;
  - способы перемещения внутри блоков (красные стрелки – вперёд, синие - выход в меню блока);
  - знание путей выхода из заданий (анимационные «кнопки», клавиша «выход», совокупность клавиш Alt+ F4).



Речевое и математическое развитие на репродуктивном уровне:

- репродуктивный выбор цвета (Например: это красный цвет, это – синий; выберем синий?);
- раскрашивание (например: раскрасим ёлочку зелёным цветом; какого цвета ёлочка?);
- соотнесение количества предметов с цифрой (например: дядя один, сколько на рисунке дядей?).

Речевое и математическое развитие на частично-поисковом уровне:

- идентификация зрительного образа цифры с её названием (Например: какая это цифра?);
- самостоятельное соотнесение количества предметов с цифрой (Например: покажи сколько предметов?);
- самостоятельный выбор цвета (Например: хочешь раскрасить иначе? каким цветом?).

Речевое и математическое развитие на творческом уровне:

- самостоятельный выбор объекта обучения и его раскрашивание (Например: какую цифру, букву раскрасим? назови, покажи.);
- составление рассказа по сюжетной картине (Например: что изображено?);
- теоретико-множественное обоснование зрительного образа цифры (Например: почему предметов 5? - аргументируй свой ответ.)

Перечисленные особенности позволяют заключить, что компьютерная среда «Вундеркинд» преимущественно интегрирует математическое и речевое развитие дошкольников разных возрастных групп на уровне интерактивного освоения вычислительной культуры и культуры речи. Дети активно усваивают такие разделы частных методик, как «Количество и счет», «Развитие словаря», «Форма и геометрические фигуры», «Развитие связной речи», «Пространство и время», «Формирование звуковой культуры речи» при условии педагогического сопровождения со стороны взрослого.

Важно понимать, что компьютерная среда «Вундеркинд» предусматривает интегрированное решение задач предметной подготовки дошкольников:

- формирование системы математических представлений о множестве, отношениях, числе (раздел «Алфавит», задание «Арифметика»); величине, форме, пространстве (задания «Геометрические фигуры», «Нарисуй картинку», «Обезьяны»); времени (раздел «Круглый остров»);

- формирование предпосылок математического мышления: повышение уровня наглядно-образного мышления (задания «Найди пару», «Собери лицо», «Собери картинку», «Обезьяны»);

- развитие сенсорных способностей (работа с мышью), мелкой моторики, работа с тачпадом; развитие глазомера, наблюдательности (за счет освоения сенсорных эталонов в заданиях «Геометрические фигуры», «Нарисуй картинку»).

### **Литература:**

1. Джанпеисова Г.Э. Методика использования компьютерной программы в процессе формирования геометрических представлений у дошкольников. //Ж. Педагогик таълим. - 2003 -. № 6. - С.22-25.
2. Табдуллина З.М. Развитие навыков работы с компьютером у детей 4-7 лет. Планирование занятий, рекомендации, дидактический материал, консультации для родителей. Волгоград: Учитель, 2010.

## **O`ZBEKISTON TA`LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONIDA FINLANDIYA TAJRIBASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI**

**Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasini mudiri PhD., **Yunusova Dildoraxon Xikmat qizi** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich magistranti

2021-yilning 6-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi. Farmonda maktab ta'limi bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasini, xususan Finlyandiya ta'lim

tizimining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish vazifasi yuklatildi. Davlatimiz rahbari tomonidan aynan Finlyandiya misol qilib ko'rsatilgani bejizga emas. Ushbu mamlakat ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlardagi o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. Fin o'quvchilari PISA tadqiqotidagi barcha yo'nalishlarda savodxonlik va ta'lim tengligi ko'rsatkichlari bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishgan.

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (PISA - The Programme for International Student Assessment) shunday tadqiqot dasturlarining eng keng tarqalgani hisoblanadi. PISA tadqiqotlarida 2015-yilda 72 ta mamlakatdan 500000 nafardan ortiq va 2018-yilda 79 ta davlatdan 600000 nafardan ko'proq 15 yoshli yigit-qizlar ishtirok etishgan. PISAning o'ziga xos xususiyati shundaki, u sof bilimni emas, balki turli sohalarda savodxonlikni baholaydi. Savodxonlik - "o'quvchilarning asosiy mavzular bo'yicha bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati, turli vaziyatlarda muammolarni aniqlash, talqin qilish va hal qilishda samarali tahlil qilish, mulohaza yuritish va muloqot qilish qobiliyati" sifatida izohlanadi. PISA dasturi doirasida har 3 yilda takrorlanuvchi sikllarda o'quvchilarning matematik, tabiiy fanlar va o'qish fanlari savodxonligi baholanadi.

PISA dasturi 2000-yilda tashkil etilgandan buyon Finlyandiya unda muntazam qatnashib kelmoqda va erishgan natijalari bilan fin ta'lim tizimi dunyodagi ko'plab mamlakatlarning e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. O'tkazilgan yettita PISA siklining natijalarida ozgina tebranishlar va so'nggi ikki siklda biroz pasayish kuzatilsada, Finlyandiya ta'lim tizimi PISA tadqiqotlari natijalari bo'yicha uzoq davrda eng yaxshi natijalarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, keyingi muhim jihat shundaki, Finlyandiya PISA tadqiqotlarida ishtirok etuvchi mamlakatlar orasida o'quvchilarning haftalik o'quv yuklamasi eng qisqa davlat hisoblanadi. Fin o'quvchilari haftada barcha fanlarni o'rganish uchun o'rtacha jami 36,1 soat sarflaydilar, ushbu ko'rsatkich maktab va maktabdan tashqari o'quv jarayonini o'z ichiga oladi. Eng qisqa o'qish vaqti va yuqori ballar Finlyandiya ta'lim tizimining jozibadorligini orttirdi.

Ma'lumot uchun: Finlyandiya Respublikasi PIRLS (The Progress in International Reading Literacy Study – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini baholash) tadqiqotida 2011 (568 ball) va 2016 (566 ball) yillarda ishtirok etgan va mos ravishda 3 va 5-o'rinlarni egallagan.

Finlyandiyaning asosiy ta'lim to'g'risidagi qonunida (1998-yil) Finlyandiya ta'limining uchta asosiy maqsadi belgilab berilgan: (1) o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish, (2) jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish hamda (3) butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash.

Finlyandiya aholisi bugungi kunda 5,5 mln. kishini tashkil etadi va mamlakatda mavjud 2341 ta umumta'lim maktablarida taxminan 560500 nafar o'quvchi tahsil oladi. Maktablarda haftasiga 5 kunlik o'qish joriy etilgan. Barcha maktablar bir xil mavqega ega, bolalar qobiliyatiga ko'ra turli sinf yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga ajratib o'qitilmaydi.

Fin maktablarida boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi va 3-sinfgacha bolalarga baho qo'yilmaydi, o'qituvchilar tomonidan uyga vazifa deyarli berilmaydi, 2017-yildan aksariyat maktablar dars vaqtida "ruchkadan voz kechishgan" va dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi.

Finlyandiya ta'lim tizimi ikki bosqichli ma'muriy tuzilishga ega: Ta'lim va madaniyat vazirligi (Ministry of Education and Culture) hamda vazirlik huzurida faoliyat yuritadigan, lekin o'z faoliyatida mustaqil Milliy ta'lim agentligi (Finnish National Agency for Education). Agentlik maktabgacha va maktab ta'limini, vazirlik esa oliy ta'lim tizimini boshqaradi. Finlyandiya ta'lim siyosatida uchta muhim tamoyil mavjudligini ta'kidlash mumkin: bilimga asoslangan jamiyat haqidagi qarashlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim tengligini ta'minlash va mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish. Mahalliy hokimiyat vakolatlarini kuchaytirish jarayonini o'tgan asrning 70 yillaridan 2000-yillarga qadar Finlyandiya ta'lim tizimidagi eng muhim o'zgarishlardan biri sifatida ta'kidlash mumkin.

Ta'lim muassasalarini boshqarish asosan mahalliy hokimiyatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ta'lim muassasasi faoliyatiga deyarli hech kim aralashmaydi.

Finlyandiya ta'lim tizimining yana bir tamoyili bo'lgan ishonch madaniyati tufayli maktablarga tekshiruv tashriflari yo'q.

Finlyandiya ta'lim tizimining asosini quyidagi 7 ta tamoyil tashkil etadi deyish mumkin:

1. Tenglik
2. Bepul ta'lim
3. Individuallik
4. Amaliylik
5. Ishonch va o'qituvchilar salohiyati
6. Ixtiyoriylik
7. Mustaqillik

1. **Tenglik** - Finlyandiyadagi barcha maktablar o'quvchilarga bir xil sharoit va bir xil ta'lim tizimini taqdim etadi.

2. **Bepul ta'lim** - bepul ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarga barcha o'quv jihozlari va tushlik ham bepul taqdim etiladi.

3. **Individuallik** – darslarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar bilan o'qituvchilar yoki yaxshi o'zlashtirgan o'quvchilar alohida shug'ullanishadi. Finlyandiyada o'quvchilar qo'shimcha darslarga qoldirilmaydi.

4. **Amaliylik** – o'quvchilarni imtihonga emas balki hayotga tayyorlash. Darslarda o'quvchilar, masalan, viza kartadan qanday foydalanish, shartnomalar tuzish, saytlar yaratish, tikish, ovqat pishirish, marketing va sotuv ishlari bilan shug'ullanish kabi amaliy ishlar bilan shug'ullanadilar.

5. **Ishonch va o'qituvchilar salohiyati** – barcha maktablardagi o'qituvchilar magistratura darajasiga ega bo'lishlari shart. O'quvchilarga uy vazifasi deyarli berilmaydi, ota-onalar farzandlari bilan uyda shug'ullanmaydi va o'qituvchilarning o'quvchilarni hayotga tayyorlashiga to'liq ishonishadi.

6. **Ixtiyoriylik** – dars jarayonida qay darajada ishtirok etish o'quvchilar ixtiyorida. O'qituvchilar o'quvchilarni darsga qiziqтира olmasalar o'quvchilar sinfni tark etishi yoki o'zlari yoqtirgan boshqa biror mashg'ulot bilan shug'ullanishlari mumkin.

7. **Mustaqillik** – fin ta'lim tizimida o'qituvchilar o'quvchilarni imkon qadar o'zlari bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishlari kerakligiga yo'naltiradi. Bilimlarni hayotda qanday tatbiq etish ko'nikmalari amaliy mashg'ulotlar yordamida shakllantiriladi. O'quvchilarning har qanday fikrlari inobatga olinadi va qo'llab quvvatlanadi.

Finlyandiya ta'limining muhim xususiyatlaridan yana biri shundaki, u barcha darajalarda, ya'ni maktabgacha ta'limdan oliy ta'limga qadar to'liq bepul ta'lim olishni ta'minlaydi. Shuningdek, barcha o'quv materiallari, darsliklar, sog'liqni saqlash xizmatlari va maktabga qatnash transport xizmatlari ham bepul amalga oshiriladi hamda boshlang'ich va o'rta ta'limda barcha o'quvchilarga maktablarda bepul tushlik beriladi.

Finlyandiya o'n yillik majburiy ta'lim davomida milliy imtihon yo'q. Barcha maktablarda bir xil ta'lim beriladi, o'quvchilar muvaffaqiyatiga qarab turli maktablarga birlashtirilmaydi va deyarli barcha o'quvchilar uylari yaqinidagi maktabga borishadi. Finlyandiya ta'lim tizimi va jamiyati o'qituvchilarning malakasiga tayanadi. Finlyandiya ta'limini baholash markazi ta'limdagi baholashni butun mamlakat bo'ylab olib boradi. Baholashlarning asosiy maqsadi ta'lim sohasidagi manfaatdor tomonlarni tegishli fikr-mulohazalar bilan ta'minlashdir va ular o'qituvchilarga tekshiruv tashriflarini o'z ichiga oladi.

Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati bir qancha omillar tizimidan tarkib topgan va bunda o'qituvchilarning salohiyati ushbu tizimning eng muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, ta'limda teng sharoitlar, uzoq muddatli ta'lim siyosati, ishonch madaniyati va mustaqil ta'lim olish odatiga urg'u berish bu muvaffaqiyatning boshqa sabablari hisoblanadi. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi yuqori darajadagi hamkorlik ta'lim tizimining uzluksiz ishlashiga yordam beradi.

Finlyandiya qirq yildan ziyod vaqt mobaynida keng qamrovli va uzoq muddatli ta'lim islohotini olib bormoqda. Finlyandiyaning muvaffaqiyati izchil va uzoq muddatli ta'lim islohoti bilan chambarchas bog'liq. Ikkinchidan, Finlyandiya muvaffaqiyatining sabablarini o'rganayotgan ko'plab tadqiqotchilar, bir-biriga bog'liq

bo'lgan turli xil omillarga asoslanishini ta'kidlaydilar. Ularni uch guruhga ajratish mumkin: o'qituvchilar salohiyati, ta'lim siyosati va fin madaniyati bilan bog'liq omillar.

O'qituvchilarning yuqori salohiyati birinchi navbatda o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha o'qitish dasturlariga bog'liqdir. Eng yaxshi o'rta maktab bitiruvchilari bo'lajak o'qituvchi sifatida tanlab olinadi. Yuqori malakali o'qituvchilar Finlyandiya ta'lim tizimi muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadigan bosh omil deyish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun alohida o'quv maktablari belgilanadi va ular odatda o'quv vaqtlarining 10-15 foizini ushbu maktablarda o'tkazadilar. O'quv maktablari talaba-o'qituvchilarga barcha kerakli o'quv materiallari bilan ta'minlangan alohida xona ajratib beradilar. Talaba-o'qituvchilar dars jarayonlarini kuzatish bilan birgalikda ta'lim jarayonida ham faol qatnashib, katta tajriba to'plashadi hamda maktab jamoasi va o'quvchilar ham ulardan juda foydali yordam olishadi.

O'qituvchilarning ta'lim tizimidagi moslashuvchanligi va mustaqilligi ham ta'lim sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar malaka oshirish kursiga qo'shilishni xohlasa, ma'muriyat ularni doimo qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchilardan faqatgina malaka oshirish dasturida o'rgangan narsalarini maktabdagi boshqa o'qituvchilar bilan bo'lishishi so'raladi.

Ta'lim siyosati bilan bog'liq yana bir jihat - bu ta'lim muassasalariga nisbatan markaziy va mahalliy boshqaruvning balansidir. Qaror qabul qilish jarayonida mahalliy hokimiyat organlari, maktablar va o'qituvchilar mustaqillikka ega, bu o'z navbatida ularga o'quv jarayonlarini samarali tashkil etish uchun katta mas'uliyat yuklaydi.

Finlyandiyada ta'lim islohotlarining muvaffaqiyatida fin xalqining o'zaro tenglik va hamkorlik qadriyati, shuningdek, ta'lim tizimi va boshqa ijtimoiy xizmatlar o'rtasida jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash bo'yicha yuqori darajadagi hamkorlikning mavjudligi va ularning yagona uyg'unlikda faoliyat ko'rsatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, Finlyandiya muvaffaqiyatining sabablari haqida gapirar ekanmiz, ushbu yutuqning yana bir tomoni Finlyandiya ta'limida nimaga urg'u berilsa

PISA dasturidagi baholashlar ham aynan shular bilan chambarchas bog‘liq. Ya’ni o‘quvchilarga faqat bilim berish o‘rniga, savodxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish Finlyandiya ta’limining markazida turadi, bu fin o‘quvchilariga PISA kabi savodxonlikka yo‘naltirilgan baholash tizimida ustunlik beradi.

Finlyandiya ta’lim tizimini batafsil tahlil qilish orqali ko‘plab xulosa va takliflar ishlab chiqish mumkin. Ulardan ba’zilar quyidagilar:

- Finlyandiya muvaffaqiyatini bitta omil yordamida tushuntirish mumkin emas, chunki bir-biri bilan juda bog‘liq bo‘lgan omillar tarmog‘i mavjud;
- Har qanday ta’lim islohoti uzoq muddatli siyosatni talab qiladi;
- Fin xalqining asosiy qadriyatlari Finlyandiyada ta’lim muvaffaqiyatining muhim qismidir. Tenglik va hamkorlik Finlyandiya ta’lim tizimini hamjihatlikda ishlashga majbur qiladi.
- O‘qituvchilarning salohiyati eng muhim omil va bu boshqa ko‘plab omillar bilan, masalan, o‘qituvchilarni tayyorlash ta’lim sifati, o‘qituvchilik kasbining jamiyatdagi obro‘si va o‘qituvchilarning mehnat sharoitlari bilan bog‘liq.

Turli xil madaniyat va qadriyatlarga ega bo‘lgan va yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarning PISA dasturidagi muvaffaqiyatlariga ta’sir qiluvchi omillar bo‘yicha taqqoslash qaysi madaniy sharoitda qaysi omillar ishlashini aniqlashga katta yordam berishi mumkin.

Ushbu ma’lumotlar internet ma’lumotlari asosida tayyorlangan bo‘lib, Prezidentimizning qaroriga asosan Finlyandiyaning ta’lim sohasidagi ijobiy tajribasini, shu jumladan o‘quv dasturlari, darsliklari, o‘qitish metodikalari va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi joyiga borgan holda o‘rganish belgilangan.

## **ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 23-sentabrdagi ta’lim to‘g‘risidagi qonun.
3. Mutalipova M., Imomov M. “Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar” moduli buyicha o‘quv-uslubiy majmua. T.: Nizomiy nomli TDPU, 2017
4. K.Xoshimov va S.Ochilov O‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanma. T.1997 y.



## MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI

*Axmedova Ziyoda Xamidullaevna Uchtepa tumani MTB tasarrufidagi 388-DMTT direktori*

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, bu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali pedagog va tarbiyachilar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari, metod hamda texnologiyalarni tadbiq etish, bu sohada o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish orqali bolalarni har tomonlama intellektual rivojlantirish muhim kasb etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasida "...bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash"<sup>45</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifani takomillashtirish ijrosi bo'yicha maktabgacha ta'limda bolalarni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, uning ilmiy-metodik ta'minotini yaratish masalalari maqsad qilib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

➤ maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda;

---

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda;
- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'i kengaymoqda;
- ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda;
- xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;
- qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga qiziqishni shakllantirish maqsadini ko'zlagan holda, olti-yetti yoshgacha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladi. Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini tatbiq etishda jamoat va homiy tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

Maktabgacha ta'lim-bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi - maktabga borishiga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.

Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;
- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Yuqorida bayon etilganlar shunga guvohlik beradiki, O'zbekiston Respublikasidagi maktabgacha ta'lim tizimi bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, davlat va jamiyat talablariga binoan har tomonlama rivojlantirilishini ta'minlashi lozim.

Maktabgacha yoshning xususiyati shundan iboratki, ushbu davrda aynan umumiy rivojlanish ta'minlanadi, natijada kelajakda har qanday ijtimoiy bilim, malaka, ko'nikma va faoliyatning turli ko'rinishlarini egallash uchun poydevor yaratiladi.

Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta'lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

Yuqoridagilar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tadbiq etishda bola va pedagog shaxsining alohida rivojlanishi emas, balki ta'lim jarayoni yaxlit subyektining rivojlanishi amalga oshirilishi lozimligidan dalolat beradi. Mazmun-ma'nolar tizimi yaxlit subyektning rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi: bola ongida shaxsiy mazmun-mohiyatlar tizimi, pedagogning shaxsiy, hayotiy mazmun-mohiyati va ma'noviy tarkibi.

Maktabgacha ta'lim tizimining qayta tashkil etilishi - bu, avvalambor, maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'proq mos keluvchi tartibni yaratish. Bundan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkiloti bola ta'lim-tarbiyasida davlatning asosiy talablarini qondira oladigan tashkilot sifatida qabul qilinishi kerak.

### **“UCHINCHI RENESSANS” DAVRIDA SHARQ ALLOMALARI MEROSIDAN FOYDALANISH TA'LIMDAGI UZVIYLIKNING ASOSIY TALABLARIDAN BIRI SIFATIDA**

**N.G.Dilova BuxDU dotsenti**

Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, xususan, ilm-ma'rifat sohasidagi ulkan o'zgarishlarni tahlil etganimda, har gal ulug' allomaning shu so'zlari yodimizga kelaveradi. Mintaqamizdagi Birinchi Renessans allomalaridan biri Forobiy fozil jamiyatni shunday tasvirlagan edi. «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir. Bu esa ilm va yaxshi ahloq yordamida qo'lga kiritiladi». O'zbekistonda tarixan juda qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy,

ilmiy-ma'rifiy va madaniy muhit yaratildi. Bu esa mamlakat obro'-e'tibori va nufuzini oshirishga xizmat qilayotgan evrilishlarga asos bo'lmoqda.<sup>46</sup>

O'zbekistonimiz Islom dinining yuksak darajada taraqqiy etishida ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar yurti sifatida ham olamga mashhur. Islom bag'rida paydo bo'lib, insoniylikni eng yuqori pog'onaga ko'tarish falsafasiga aylangan tasavvufning ravnaqi ham ko'p jihatdan Vatanimizda yetishib chiqqan ulug' avliyo zotlarga bog'liq bo'ldi. Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Husayn Bayqaro, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ulug' zotlar dunyoviy va diniy ilmda har jihatdan o'zlarini namoyon eta olganlar. Ularning madaniyat va ma'naviyat, ilm taraqqiyoti uchun qilgan ishlari, yosh iste'dodlar tarbiyasiga g'amxo'rliqi hozir ham ahamiyatli va ibratlidir.

Yoshlardagi g'urur, g'ayrat va shijoatni ma'qullash lozim, bu - yaxshi sifat, biroq uni xoksorlik, kamtarlik bilan omuxta etmoq darkor, deb biladi Navoiy. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir-birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb, voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi.

XIX asr o'zbek ijtimoiy va adabiy hayotning yirik vakillaridan biri Komil Xorazmiy o'z asarlarida ma'rifat ahloqiy kamolot, vatanparvarlik g'oyalarini olg'a surdi. U ilm-ma'rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning ahloq kamolatida tutgan o'rni, ahloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi xaqidagi pedagogik fikrlarini xam bayon etadi. Komil Xorazimiyni fikricha, ilm-hunar, ma'rifat insonning ahloqiy kamoloti, ijtimoiy ma'naviy hayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go'zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo'lganlar

---

1. M.A. Raxmatov Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. -T: "Zamin nashr", Toshkent 2021

obro‘e‘tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi.

Shoir tarixshunos, tarjimon va xattot Munis Xorazmiy tilga ko‘p erk bermaslikni maslaxat beradi. Uning ta‘kidlashicha, ortiqcha so‘zmonlik kishi boshiga oltin o‘rniga qattiq tosh bo‘lib tegishi mumkin, deydi. Munis Xorazmiy o‘z asarlarida xalqni adolatli, ongli, bilimli bo‘lishga, jaholatdan yiroq turishga da‘vat etadi. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqotda bo‘lishga, ularni hurmat qilib e‘zozlashga chorlaydi. Munis Xorazmiyning asarlariga bayon etilgan ta‘lim-tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Sadiy Sheroziyning pedagogik qarashicha bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo‘lishi mumkin. Qobiliyat o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo‘lmasa, boladagi qobiliyat so‘nadi, tarbiyani 3 asosiy - aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo‘ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga, ya‘ni oilaviy tarbiyaga kata e‘tibor beradi. Sadiy Sheroziy ota-onalarga xarakterini hisobga olgan holda ahloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, xarakter shakllangach, bolaga nasihat ta‘sir etmaydi.

Inson o‘zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko‘rishni orzu qilgan hazrat Alisher Navoiy buni aniq qilib shunday ifoda etgan edi: “Odami ersang demagil odami - Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”. Ma‘lumki, har bir inson o‘zligini anglash orqali o‘z millatini anglash tomon rivojlanib boradi, chunki milliy o‘z-o‘zini anglash - kishilarni harakatga keltiruvchi ichki ma‘naviy-ruhiy salohiyat hisoblanadi. Bu salohiyat halqaro darajadagi o‘zlikni anglashga, o‘z millatini, o‘z madaniyatini va qadriyatlarni saqlab qolishga, ularni zamon sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylantirishga intilishini kuchaytiradi.

Buyuk O‘zbekistonimizda o‘z tarixiy, sivilizatsion o‘rnini yangidan tiklash, xalqimizning genetik insoniy salohiyatiga monand taraqqiyot darajasini ta‘minlash, Uchinchi Renessans tamal toshini qo‘yishning ayni mavridi keldi. Bunda eng avvalo, ilgari Renessanslar saboqlaridan xulosa chiqarib, harakatlarimizni zamonamiz talablari, davr ruhiyati bilan uyg‘unlashtirmog‘imiz lozimligi, milliy tariximizda ikki

Uygʻonish davrlariga asos solgan ulugʻ ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlarini roʻyobga chiqarish, eng asosiysi, yosh avlodni bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim oʻqish va izlanishga daʼvat mujassamdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, “Uchinchi renessans” davrida yoshlarga taʼlim-tarbiya berish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirib, hayotga tayyorlashda allomalarimizning boy ilmiy merosi va pedagogik qarashlaridan unumli va uzluksiz foydalanish bugungi globollashuv davrida juda muhimdir. Zero, buning natijasida milliy qadriyatlarimizga yoʻgʻrilgan, oʻzida insoniy ezguliklarni aks ettirgan komil avlodni tarbiyalashdek yuksak vazifani sifatli amalga oshirgan boʻlamiz. Bu esa, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi Oʻzbekiston” gʻoyasini amalga oshirishda bizga yaqindan yordam beradi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. M.A. Raxmatov “Yangi Oʻzbekiston Uchinchi Renessans ostonasida”. -T: “Zamin nashr”, Toshkent 2021.
2. Berdibekov P., Shokirov M. Barkamol shaxs tarbiyasida Alisher Navoiy maʼnaviy merosidan foydalanish. jvxtxqtmoi references
3. N.G.Dilova Ajdodlar merosini oʻrganish asosida talabalarni shaxslararo munosabatga tayyorlash “Taʼlim va innovatsion tadqiqot lar” xalqaro ilmiy metodik jurnal. 2021 5 son.
4. N.G.Dilova /Ajdodlar merosini oʻrganish asosida talabalarni shaxslararo munosabatga tayyorlash/ “Taʼlim va innovatsion tadqiqot lar” xalqaro ilmiy metodik jurnal. 2021-yil 5-son

#### **NOODATIY TADBIRLAR VA ULARNING BOLA RIVOJLANISHIGA IJOBIY TAʼSIRI**

*Joʻrayeva Nasiba Kozimovna TDPU “Maktabgacha taʼlim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasida oʻqituvchisi*

Yosh avlodni kelgusi hayotda uni komil inson qilib shakllantirish ruhiy va maʼnaviy jarayonlarga bogʻliq. Maktabgacha taʼlim muassasasi tarbiyachilarning ongli faoliyatida maqsadli tarzda oʻz ustida ishlash, intilish, tinimsiz izlanish, tanlangan vosita va metodlarni qoʻllash kabi tarbiyachilik sanʼatini takomillashtirishga qaratiladi. Bu esa tarbiyachidan ijodkorlikni, oʻz faoliyatiga innovatsion yondashuvni

talab etadi.. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratishi, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligi bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida amal qilinayotgan "Ilk qadam" Davlat dasturi talablarini bajarishida qo'l keladi.

"Ilk qadam" maktabgacha ta'lim Davlat dasturida bolaning rivojlanish kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun birinchi navbatda tarbiyachining o'zi o'z ustida ishlalashi va qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Tarbiyachining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, ahloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa tarbiyachining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: Buning uchun u o'zida quyidagi ko'nikmalarni kamol toptirishi zarur bo'ladi:

1. Foydali fikrlash – mashg'ulotlarni bevosina o'yin mashg'ulotlari asosida tashkil etishi, mashg'ulotlarda bolalarga o'z yosh xususiyatlariga mos muammolarni qo'ya bilishi. Masalan, "nutq o'stirish" mashg'ulotlarida A.S.Pushkinning "Baliqchi va baliq hakida ertak" ertagi bilan tanishish jarayonida "Mening oltin balig'im bo'lganda, men.", muammosini qo'yish bolalarni mashg'ulotga qiziqishni ortirish bilan birga ularning orzularini, kerak bo'lsa ular xarakterlarini o'rganishga yordam beradi.

2. Tarbiyachi bolalar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarda o'z ehtiyojlari va hislari to'g'risida tengdoshlariga, boshqa shaxslarga xabar berish. Bunday paytda verbal, noverbal kommunikatsiyadan o'rinli foydalanish, fikrlarini tartibli va izchil bayon etish ko'nikmalarini tarbiyalashda tarbiyachi namunasi muhim bo'ladi. Chunki maktabgacha ta'lim muassasasidagi bolalarda taqlidchilik kuchli. Shuni inobatga olgan holda tarbiyachining o'zi o'z nutqiga e'tiborli bo'lishi lozim.

3. Bolalarni bilishga ishtiyoqini oshirish maqsadida turli hayoliy bashoratlarni yoki tarixga sayohatlarni amalga oshirish yo'llarni topa bilishi zarur, masalan, katta guruh bolalarining o'z orzularini bashorat qilishga imkon beruvchi "Nima bo'lardi,

agarda. . “mazmunida murojat qilish. Bu esa tarbiyachiga bolalarni yaqindan o‘rganishga imkon beradi.

MTTlardagi tarbiyachining faoliyati bevosita o‘yin bilan bog‘liq. Yana bir narsani alohida ta’kidlash lozimki, maktabgacha ta’lim muassasalaridagi boolalarda birinchi bo‘lishga, guruhda yetakchilikka intilish tuyg‘usi kuchli bo‘ladi. Shularni inobatga oladigan bo‘lsak, bolalar bilan birgalikda har oyning oxirida mashg‘ulotlarning yakuni sifatida “Mening yulduzli onlarim” tanlovini tashkil etib o‘tkazish ham uning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini va ijodkorlik qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Bunday mavzudagi tanlovlarni turli yo‘nalishlar asosida tashkil etish mumkin. Bu tanlovlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi. Chunki bolalarda g‘oliblikka, birinchi bo‘lishga intilish juda kuchli bo‘ladi. Shuning uchun bolalar bunday tanlovlarda zo‘r qiziqish bilan ishtirok etadilar.

Shu o‘rinda yana bir narsaga e‘tibor qaratish lozimki, tarbiyachi bunday tanlovlarda ota-onalarning ishtirokiga erishsa yana ham yaxshi bo‘ladi. Bolasining intilish va iqtidorini ko‘rgan ota-onalar uyda bolalari bilan shug‘ullanib, ularning qobiliyat va iqtidorlarini oshirishga ko‘maklashadilar. Shuningdek MTTga ota-onalarni faqatgina turli yig‘ilishlarga chaqirmasdan ularni bolalarining iqtidori va qobiliyatini ko‘rishga, bolalar bilan birga tanlovlarda ishtirok etishga chorlash ular uchun yangilik bo‘ladi.

MTT metodistlari va tarbiyachilarining tashabbuskorligi va ijodkorligi samarasi sifatida tayyorlov guruhlarda har uch oyda bir marta “**Zukkolar**” tanlovini o‘tkazish ham samarali bo‘ladi.

Bu tanlovni biz quyidagi tartibda o‘tkazishni ma’qul ko‘rardik:

**1. Tanishuv** (Bunda bolalar o‘z guruhlarining nomlanishi va guruh a‘zolarining qiziqishlari haqida ma’lumot beradilar)

**2. Savollarga javob berish.** (Hay’at a‘zolari tomonidan guruhlariga fan asoslari, ya’ni MTTda o‘tilgan mashg‘ulotlar yuzasidan savollar beriladi. Guruh a‘zolari savolning javobini birgalikda topadilar va javobni aytadilar.)



**3. Mohir qo'llar tanlovi.** (Bunda bolalar qo'l ishi bajaradilar. Plastilindan haykalchalar yasaydilar, applikatsiyalar yaratadilar, ikkilamchi mahsulotlardan: gugurt qutilaridan, turli boshqa qutilardan foydalanib buyumlar yasaydilar, donlarni qog'ozga kleylash yordamida biror shaklni yaratadilar)

**4. Kim chaqqon?** Musobaqasida mozaikalardan shakllar yasaydilar, kubik-rubikni terish ishini bajaradilar, legolar yordamida uy yoki boshqa narsalarni yasashlari mumkin..

**5. Topishmoqlarga javob topadilar.**

**6. Tez aytish aytadilar yoki syujetli matn yaratadilar.**

Ma'lumki, ota-onalarning ba'zilar MTTdagi bolasining nimalarni o'rganayotgani, nimalarga qobiliyati borligini biladi va bu borada bolaning tarbiyachisi bilan hamkorlikda ish olib borishadi. Bolasiga alohida vaqt ajratib u bilan shug'ullanadi, turli to'garaklarga olib borishadi. MTTga ham tez-tez kelib bolasining ta'lim-tarbiyasi bilan qiziqadi. Ammo ayrim ota-onalar bolasining taqdiri bilan qiziqmaydi, ishlashini, MTTga kelish uchun ishdan ruxsat ololmasligini bahona qilishadi.. Bolaga ta'lim-tarbiya berish MTTning vazifasi deb qarashadi.

**Bular quyidagi ko'rinishdagi savollar bo'ldi.**

- ❖ Bolangiz qaysi rangni yaxshi ko'radi?
- ❖ Bolangizni sevimli multfilm qahramonini bilasizmi?
- ❖ Bolangizga oxirgi marta qachon ertak yoki hikoya aytib, o'qib berdingiz?
- ❖ Bolangiz qaysi qo'shiqni yoqtiradi?
- ❖ Bolangizni sevimli mashg'uloiti nima?
- ❖ Bolangiz bilan oxirgi marta qachon sayr qilgansiz?

Ota-onalar bu savollarga javob berayotgan bir paytda boshqa xonada bolalari ham ota-onalari haqidagi savollarga javob berishadi.

- ❖ Dadangiz sizni qanday erkalatadi?
- ❖ Onangizni sevimli mashg'ulotni bilasizmi?
- ❖ Dadangiz yoki oyingizni yoqtirgan rangini bilasizmi?
- ❖ Dadangiz yoki onangiz bilan qachon tabiat qo'ynida sayr qilgansiz?
- ❖ Dadangiz yoki oyingiz sizga qachon o'quv qurollarini sovg'a qilgan?

Shundan keyin ota-onalar bolalari bilan birgalikda biror mavzuda, masalan, “O‘lkamizda bahor” mavzusida rasm chizishadi. Ota-ona va bolalarning chizgan rasmlari MTT ota-onalar ko‘mitasi tomonidan baholandi.

“Ota-onamga syurpriz” deb nomlangan dasturda bolalar ota-onalariga o‘z qo‘llari bilan buyumlarini, rasmlarini, syujetli aplikatsiyalarini taqdim etishadi.

Umuman olgan bunday tadbirlarda bolalar o‘rtasida turli fan asoslaridan musobaqalar o‘tkazilsa ham bo‘ladi.

Bu MTT ma‘muriyati va tarbiyachilarning ijodkorligiga bog‘liqdir.

“Har birimizga bitta gul yoki daraxt” aksiyasida bolalar ota-onalari bilan gul va daraxt ko‘chatlarini ekishadi.

To‘g‘ri, bunday noodatiy tadbirlarga dastlab ota-onalar kam kelishi mumkin, ammo ota-onasi bilan MTTda turli tadbirlarda qatnashgan bolalarning tassurotlarini eshitgan boshqa bolalar keyingi aksiyaga albatta ota-onalarini kelishini hojlashadi. Buni tarbiyachi ota-onalarga tushuntirishi lozim.

Xullas, MTT tarbiyachisining ijodkorligi, topqirligi bola rivojlanishigagina emas, balki ota-onalarning bolalari bilan ishlashlariga ham o‘zining ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR**

*Kazakova Nigora Baratovna Uchtepa tumani MTB tasarrufidagi 388-DMTT  
tarbiyachisi*

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma‘naviy hayot darajasining yuksalishi ta‘lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasida” ta‘lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta‘lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo‘lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta‘lim tizimini yaratish ko‘zda tutildi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta‘lim tizimida boshqaruv

mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim. Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan ajdodlarimiz yosh psixologiyasining muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo'nalishda, ma'lum konsepsiya asosida o'rganmagan bo'lsalar ham, allomalarning asarlarida mazkur xolatlarning aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishlar tog'risida qimmatli fikrlar bilfirganlar. Bular to'rt xil manbalarda uchraydi: Ularning biri – xalq ijodiyoti rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar; Ikkinchisi – mahsus ijodkor kishilar muayyan shaxsga bag'ishlab yozgan og'it va nasihatlar, hikoyatlardadir. Uchinchisi – qomusiy, O'rta Osiyo mutaffakirlari ilmiy – nazariy qarashlari; to'rtinchisi – turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullari, ya'ni badiiy asarlardadir. Xozirgi kunda ham Bola shaxsi uning yosh davrlari psixologiyasi, uning ruhiyati, dunyoqarashi ta'lim va tarbiya olishi. Kelajakda yetuk kadr va muitahasis bo'lib yetishishi, ajdodlarga mos avlod bo'lishi masalasi xalqimiz oldida turgan muhim, dolzarb masala sifatida rivojlanib kelmoqdadir. Oldimizdagi dolzarb masala sifatida turibdi. Mamlakatimizda mustaqil, huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson moxiyatini yangidan kashf qilishga, uning o'zligini anglashdagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy barkamol, intellektual, aqliy-amaliy kadrlarni yaratish uchun ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini qaytadan rekonstruksiya qilishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu ishlar o'zining amaliy va nazariy natijasini ham topayotgani hech kimga sir emas. Yangidan yangi qonunlar hamda Prezident farmonlari ham bu sohani naqadar tubdan o'zgartirishimiz kerakligini esimizga solmoqda, yangiliklar yaratilmoqda. Jumladan, 2012-yilning 10-dekabr sanasida ‘Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari tog'risida’

qaror qabul qilingach yanada bu sohaga e`tibor yanada mustahkamlandi. Yanada ko`proq e`tibor berila boshlandi. Yangidan yangi dasturlar amaliyotga joriy etila boshlandi. Unga ko`ra uzluksiz ta`lim tizimining chet tillar bo`yicha davlat ta`lim standarti “Chet tillar bo`yicha ta`limning barcha bosqichlari bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar” amaliyotga joriy etildi. Aytib o`tish lozimki, yurtimizda yoshlarning chet tillarini mukammal o`rganishi uchun yetarlicha shart-sharoit yaratishda ushbu qaror katta ahamiyat kasb etdi. Xabaringiz bor so`nggi yillarda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarga ta`lim-tarbiya berish bilan bir qatorda, xorijiy tillarni o`rgatishga ham aloxida e`tibor qaratilmoqda. Ayniqsa maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarga chet tilini o`rgatishimiz uchun ko`plab ishlar, dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qarorda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun uzluksiz ta`lim tizimini barcha bosqichlarida , jumladan maktabgacha ta`lim tashkilotlarida xam chet tillarini o`zlashtirish darajasini oshirish uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda.

**Birinchi**dan davlat ta`lim standartlarida belgilangan “Tinglab tushunish” (Listening), “O`qish”(Reading), “Yozish” (Writing), “Gapirish”(Speaking) ko`nikmalari ta`limning har qaysi bosqichida joriy qilinganligiliginini misol qilib keltira olamiz. Ushbu dasyur asosida ta`lim-tarbiya berish maktabgacha ta`lim muassasalaridan boshlanmoqda.Ayniqsa maktabgacha ta`lim tizimimizda bollarning tinglab tushunish va eshitish orqali o`rganishlari uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratib berilgandir. Kichik yoshdagi bolalarning harf tanimasligi va o`qiy olmasligini hisobga olgan holda ular uchun mahsus chet tilini oson o`rganish uslublari ishlab chiqildi. **Ikkinchi**dan hali maktabga chiqmagan, harf tanimaydigan bolalar uchun Maktabgacha ta`lim tizimida “Ilk qadam” dasturi joriy qilindi. Bunda bolajonlar turli o`yinlar, qo`shiq va she`rlar , ertaklar , multfilmlar orqali chet tilini, jumladan ingliz tilini bemalol o`zlashtirishlari mumkun. Qo`shiq tarzida harflarni yod olishlari, ranglarni ko`rib mahsus ko`rgazmaliqurollar orqali o`rganishlari mumkun. O`yin tarzida o`rganish usuli esa bolalarimizda ham qiziq ham ma`suliyat bilan o`rganishlariga yordam beradi. **Uchinchi**dan Bolalar uchun mahsus yaratilgan dastur orqali ingliz alifbosini ko`radilar, mashqlar ostidagi qo`shiq orqali yodlab

o`rganadilar. Bu jarayon bolalarning chet tilida og`zaki nutq va tinglab tushunish ko`nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi qilib belgilab qo`yilgandir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev, maktabgacha ta`lim tizimiga ham juda ham ko`plab e`tibor berganlar. “Bolalar tarbiyasi jarayoniga o`z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go`dakligidan ongi va tafakkuri to`g`rini to`g`ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma`naviyatga ega bo`lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo`ladi”, deb alohida ta`kidladilar muhtaram Prezidentimiz. Bola shaxsining psixologik asoslari ham jahon va o`zbek psixolog va pedagoglari tomonidan minglab yillardan beri o`rganib kelinmoqda. Bola shaxsi rivojlanish uchun, kelajagimizni munosib avlodlarga qoldirishimiz uchun albatta biz bollarimizga ular yohligidanoq chet tilini o`rgatishimiz kerak. Uning dunyoqarashi ahloqiy va aqliy tarbiyasi, dunyosi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ANIQ FANLARGA DOIR BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH SIFATI NAZORATIGA YONDASHUV**

*Kasimova Dilrabo Baxadirovna “Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi o‘qituvchisi,  
Xusanova Yulduz, To‘lanboyeva Xilolaxon talabalar*

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo`lga kiritgandan so`ng bolalar tarbiyasi, ularga ta`lim berish masalalari yanada dolzarb tus oldi. Kelajagimiz vorislari, bugungi kunda ta`lim muassasalarida ta`lim va tarbiya jarayoniga jalb etilgan yosh avlodning qanday bilim, tushuncha va malakalarga ega bo`lishi jamiyatning taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Davlatimizning bosh siyosatlaridan bo`lmish-kadrlar tayyorlash muammosining ijobiy hal etilishi ana shu dolzarb masalaning samarali yechimiga olib keladi.

Ta`lim tizimining dastlabki bosqichi – maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish mazmuni bolalarning kelgusi bosqichlarda muvaffaqiyatli ta`lim olishiga zamin yaratadi. O`zbekiston Respublikasida amalda bo`lgan “Bolajon” dasturi o`z

mazmun-mohiyatiga ko‘ra 2-7 yoshli bolalarning turli yo‘nalishlarga doir tasavvur, tushuncha, bilim hamda ko‘nikmalarini shakllantirib, mustahkamlash vazifalariga qaratilgan. Mazkur yo‘nalishlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 372-son "O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida"gi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 31-son, 356-modda) va 2007 yil 25 oktyabrdagi 225-son "Maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida"gi qarorlariga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 43-son, 431-modda) muvofiq, maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari mezonlariga mos keladi. Bu Davlat talablari bolalarda maktabgacha yoshdanoq aniq fanlardan dastlabki ilk, eng sodda tushunchalarni egallashga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunida o‘z aksini topgan.

Jismoniy rivojlanish, o‘z-o‘ziga xizmat va gigiyena, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, o‘qish va savodga tayyorgarlik, bilish jarayoni va atrof - muhit to‘g‘risidagibilimlarga ega bo‘lish kabi yo‘nalishlar tarkibida maktabgacha yoshdagi bolalar egallashi lozim bo‘lgan malakalar mujassam qilingan. Bolalarda aniq fanlarni keyinchalik yaxshi o‘zlashtirishiga zamin bo‘luvchi tushunchalar maktabgacha yoshdan boshlab ta’lim jarayoniga kiritilsa, undan tashqari ta’lim o‘yin ko‘rinishida, bolalarga qiziqarli tarzda olib borilsagina, ta’lim kutilgan natijani beradi. “Ilk qadam” dasturining “Bilish jarayoni” bo‘limi tarkibidagi “Atrof olam to‘g‘risidagi bilimga ega bo‘lish va uni anglash”, “Elementar matematik bilim va ko‘nikmalar” bo‘limchalari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga aniq fanlarga doir ilk tushunchalar berish mumkin. Masalan, fizika, ximiya, matematika, astronomiya, geometriya, tabiat hodisalari, vaqt tushunchasi, narsalarning xossalari, odam va hayvonlar organizmiga doir bilimlar, jismlarning shakli, kattaligi, xajmi, tezligi kabi tushuncha-ko‘nikmalar turli murakkablikdagi o‘yin mashg‘ulotlarda asosan, 5 yoshdan boshlabshakllantiriladi. Bu benihoya muhim vazifani amalga oshirish uchun maktabgacha ta’lim muassasasida tegishli zarur sharoitlar yaratilgan bo‘lishi kerak. Xususan, tegishli ko‘rgazmali va tarqatma materiallar majmui, dastur vazifalarini o‘zida mujassamlagan mashg‘ulotlar ishlanmalari, bolalarga mos ta’lim muhiti,

pedagoglar jamoasining tegishli tayyorgarligi, ta'lim muassasasining ota-onalar hamda maktab, mahalla jamoatchiligi bilan hamkorligi, ta'lim muassasasi pedagoglarining uslubiy- amaliy mahoratlarini oshirish maqsadida mavzuga doir pedagogik kengash va seminar o'quv mashg'ulotlarining muntazamligi, pedagoglarning uzluksiz malaka oshirib borishi, bolalar o'zlashtirishini nazorat- tahlil qilish, xulosalar asosida choratadbirlar ishlab chiqib, ijrosini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixo-fiziologik xususiyatlariga ko'ra, ularga beriladigan bilim mazmuni ta'limiy o'yinlar vositasida o'zlashtirilishi oson bo'ladi. Bu jarayonni tashkil etishda bolalar bilim va ko'nikmalari quyidagi ta'limiy o'yin va mashqlar orqali mustahkamlanadi: qum va tuproqning xossalarini taqqoslash uchun "Nima o'zgardi?" o'yini, narsalarning asosiy belgilarini idrok etishga o'rgatish uchun "Bir xil rangli doiranecha?", "Matematik estafeta" o'yinlari, milliy valyutamiz bilan tanishtirish maqsadida "U yerda qancha qoldi", "Maydalang" o'yinlari, narsalarning fizik xossalarini anglashga o'rgatadigan "Toping-chi, kimning bo'yi uzun?", "Geometrik domino" o'yinlari, konstruktorlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan "Shakllarni to'rtta cho'ntakka joylang", "Ziyrak bo'ling", "Berilgan shaklni kim tezroq tuza oladi?", "Qanday shakl hosil bo'ladi?", "Shaklni toping", "Qaysi shakl yetishmaydi?" o'yinlari, odam organizmi imkoniyatlarini tushunishga o'rgatadigan "Men nimani aytsam shuni bajaring", "Qaerga borib, nima topasiz?" o'yin-mashqlari, mantiqiy fikrlash va uni erkin bayon etishga o'rgatadigan "Shakllarni to'g'ri joylashtiring", "Teskari sanoq", "Qaerga borasan, nimani topasan?", "Kecha, bugun, ertaga", "Topgan-topaloq", "Butun va qismlar" o'yinlari, fizikaviy ilk tushunchalarni shakllantiradigan "Atomlar", "Rangli doiralar va ovallar", "Klaster", "Mozaika" o'yinlari, tabiatga doir bilimlarni shakllantirish uchun "Fasllar", "Kim bilsa davomini sanasin", "Yil fasllari" o'yinlari, taqqoslash, xulosalar qilish, fikrni bayon etishga o'rgatadigan "Toping nechta o'yinchoq?", "O'ngda-chapda, oldinda-orqada", "Qo'ng'iroqcha qaerda jiringlayapti?", "Men qanday son o'yladim?", "Etadimi?", "Ko'p, oz, shuncha", "Shartli belgilar asosida harakat qilamiz" o'yinlarini tashkil etish lozim. O'yinlar bolalar guruhchalari bilan yoki zarur xolatlarda yakkama-yakka tashkil etiladi. Shuningdek, o'yin-mashqlar jihozlari bolalarga tushunarli, sodda va yorqin

bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Shu o‘rinda, maktabgacha yoshdagi bolalarning aniq fanlarga doir ilk tushunchalarini shaklantiruvchi an’anaviy hamda bilim-malakalar miqyosini baholash uchun noan’anaviy ko‘rinishdagi o‘yinlar tashkil etilishi mumkin.

## **СОВРЕМЕННЫЕ КОНЦЕПЦИИ ОРГАНИЗАЦИИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА**

**Махмудова Севара Асатилла кизи** Магистр направления дошкольного образования ТГПУ им Низами

В системе дошкольного образования Республике Узбекистан многое произошло впервые. Так, согласно постановлению Президента Республики Узбекистан «Об организации деятельности Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан» было создано МДО. С тех пор правительством Республики Узбекистан и МДО были созданы основные нормативно-правовые акты и документы по усовершенствованию системы дошкольного образования. «Государственный Стандарт Дошкольного Образования и воспитания Республики Узбекистан» и ЗРУ «О дошкольном образовании и воспитании» является основным гарантом качества дошкольного образования на сегодняшний день. Данные документы разработаны на основе Конституции Республики Узбекистан, постановлений Президента Республики Узбекистан «О мерах коренного усовершенствования системы дошкольного образования», «Концепции развития системы дошкольного образования до 2030» и других законодательных документов касающихся системы дошкольного образования с учетом Конвенции ООН о правах ребенка. Согласно концепции модернизации образования, общество предъявляет определённые требования к педагогическому процессу на современном уровне. Главной и первостепенной задачей является необходимость повышения качества образования, а это возможно через совершенствование форм и методов обучения, через внедрение образовательных технологий. Сосредотачивая усилия на повышение качества и эффективности учебной и воспитательной работы, необходимо добиваться того, чтобы каждый учебно-воспитательный процесс способствовал развитию



познавательных интересов учащихся, активности и творческих способностей, а следовательно повышению качества обучения.

Основными целями государственных стандартов являются:

-обеспечения государством равенства возможностей для каждого ребенка в получении качественного дошкольного образования;

-обеспечение государственных гарантий уровня и качества образования на основе единства обязательных требований к условиям реализации основных образовательных программ, их структуре и результатам освоения;

-организация системы дошкольного образования в соответствии с современными требованиями, воспитание детей здоровыми и всесторонне развитыми. Именно государственный стандарт как нормативный правовой документ призван обеспечить каждому ребенку независимо от национальных, территориальных, имущественных и других различий возможность достижения необходимого и достаточного уровня развития для последующего успешного обучения на следующем уровне системы непрерывного образования. Так как любой стандарт представляет собой образец, следовательно, одна из главных функций государственного стандарта - являться ориентиром, инструментом и одновременно критерием оценки состояния и развития системы дошкольного образования. Требования государственных стандартов – обязательные требования к минимуму содержания, структуре программ, условиям и срокам их реализации. Каждая образовательная организация имеет право на разработку собственной вариативной программы на основе предложенной учебной программы с учетом территориального расположения, контингентом населения, уровня педагогического коллектива и приоритетных направлений педагогической деятельности ДОО. Для успешной реализации учебной программы должны быть обеспечены следующие психолого-педагогические условия:

1. Использование в образовательном пространстве форм и методов работы с детьми, соответствующих их психолого-педагогическим особенностям;

2. Возможность выбора детьми материалов, видов активности, участников совместной деятельности;

3. Построения взаимодействия с семьями воспитанников в целях осуществления полноценного развития каждого ребенка, вовлечение семей воспитанников непосредственно в образовательный процесс.

4. Организация должна создавать возможности для предоставления информации о программе семье и всем заинтересованным лицам, вовлеченным в образовательный процесс, а также широкой общественности.

Разработчики государственного стандарта исходили из того, что все дети разные и у каждого будет свой путь развития. Поэтому на требования к оценке образовательных результатов наложено вето. А чтобы вариативность не превратилась в хаос, в государственный стандарт заложены требования к содержанию, которые будут ориентирами для разработчиков программ. К примеру, инновационность определяется тем, что он сочетает в себе одновременно индивидуализацию и социализацию на уровне дошкольника. Индивидуализация характеризует уникальный вектор развития ребенка в этом возрасте. Социализация же выражена в регламентации системы условий развития ребенка. Это не только материальные условия в детских садах, но и воспроизведение различных форм деятельности — система общения ребенка с воспитателями и сверстниками. В документе часто повторяется целевая установка — поощрение инициативы самостоятельности ребенка. Раньше делали упор на то, что взрослый — главный, направляющий. Теперь он — посредник, который поддерживает активную инициативу ребенка. Образовательная деятельность строится на основе индивидуальных особенностей каждого ребенка, при котором сам ребенок становится активным в выборе содержания своего образования, становится субъектом образования (индивидуализация дошкольного образования); содействие и сотрудничество детей и взрослых, признание ребенка полноценным участником (субъектом) образовательных отношений; поддержка инициативы детей в различных видах деятельности. В Стандарте также указано, что право на мониторинг развития

ребенка имеет не воспитатель, а человек, обладающий соответствующими компетенциями, то есть педагог-психолог. И только с разрешения родителей! Освоение учебной программы не сопровождается проведением промежуточных аттестаций и итоговой аттестации воспитанников, динамика развития и освоения государственных требований отражается в личных картах развития воспитанниках по выполнению индикаторов развития согласно возрастным категориям, а аналитическую работу педагоги проводят в ходе ненавязчивых наблюдений в ходе воспитательно-образовательного процесса.

### **Список литературы**

1. ПП РУз под № 3305 «Об организации деятельности Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан» от 30 сентября 2017 года
2. «О мерах коренного усовершенствования системы дошкольного образования» (от 09.09.2017, №3261),
3. ПП РУз «Концепции развития системы дошкольного образования до 2030»(утвержден 08.05.2019 ПК – 4312)
4. Касымов К. М. Теория организации и управления организацией. -Т: А.Кодирий 2004 г.
5. . Ш.Е.Сейтхалилов. Управление качеством образования. -Т: «Турон-икбол»: 2006г
6. . М.Шарифходжаев.Ю.Абдуллаев. Менеджмент. -Т: «Укитувчи» 2002г. С.С.Гуломов. Основы менеджмента.-Т: “Фан” 2002.г

## **SHAXSNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK-GIGIYENIK TARBIYANING ROLI**

**Muxamedjanova Ruxsora Tulyabekovna** Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti psixologi

Ekologik tarbiya ekologik madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, insonning ongi, dunyo qarashi va tasavvurlariga ta'sir qilish orqali tabiatga nisbatan ongli va ma'naviy munosabat saviyasini muntazam va maqsadli ravishda oshirib borish jarayonidir.

Ma'lumki, insonning barkamolligi, ma'daniyati tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki uning ma'naviy dunyoqarashi bilan belgilanadi.

Jamiyatning ravnaqi va kelajagi shu jamiyatda yashovchilarning ham ma'naviy, ham ma'daniy barkamolligiga bog'liq. Insoniyat ma'naviy tomondan qashshoq bo'lsa, kelajagi porloq jamiyat qurib bo'lmasligi hayotiy haqiqatdir. Ilmiy adabiyotlarda

ekologik, gigiyenik ma'daniyatni shakllantirish borasida anchagina maqolalar, asarlar chop etilmoqda.

Demak, shunday ma'ruza, maqola, asarlarga tashnalik ortib bormoqda.

Chunki bir tomondan , ekologiya va gigiyena sohasidagi madaniyatning hamma uchun kerakligi bo'lsa, ikkinchi tomondan , atrof-muhitning buzilishi va bu jarayon inson salomatligiga salbiy ta'sir etishning oldini olish vazifalari dolzarblashib borayotgani va tezda bu muammolarni bartaraf etib barqaror rivojlanishni ta'minlanishni taqozo etishni ko'pchilik hamyurtlarimizni tushunib yetayotgani quvonchli holdir.

Mustaqil O'zbekistonning har bir fuqarosi o'zini, vatanini, xalqini sevib, ular bilan hamkorlikda ekologo-gigiyenik madaniyatni oshirib borish oldida turgan eng dolzarb muammolar ekanini tushunib yetishi, qo'ldan kelguncha shu muammoni hal qilishda faol qatnashishi lozimdir. Bu muammo ko'p qirrali bo'lib, hammaning e'tiborini jalb qiladigan hamda bu borada ta'lim-tarbiyani, uning salohiyatini oshirish va hamjihatlikni ta'minlash davr talabi bo'lib qolmoqda. Ekologik jarayon murakkablashayotgani uchun u yangicha fikrlashni, dunyoqarashni, ma'daniy, ma'naviy yetuklikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsni bilimli qilish, unda ma'daniyatni shakllantirish pedagoglar oldiga qo'yilgan eng murakkab vazifadir. Inson shaxsi tabiat bilan o'zaro chambarchas bog'langanligini hamda u tabiatning bir qismi ekanini tushunib yetishi, tabiiy muhitda qanday o'zgarishlar bo'lmasin, insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri qaytib o'ziga salbiy ta'sir etishini va murakkab vaziatni yuzaga kelayotganini anglab yetishini taqozo qiladi. Tabiat insonning antropogen faoliyatning salbiy ta'siri oqibatida insonga xavf tug'dirishi hamda tabiiy bo'layotgan ofatlar oqibatida jabrlanishini tushunishi va bularning hammasi ekologik qonunbuzarliklar natijasi ekanligini tushunib yetish, shu bilan birga bajarilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqishida faol qatnashadigan insonni tarbiyalash darkor bo'ladi. Har bir insonning ekologik va gigiyenik tarbiyasi umumiy ta'lim-tarbiyaning bir qismi hisoblanadi, ya'ni shaxsda ijodiy, ma'naviy, ruhiy va ularga hamohang tarzda jamiyatning rivojlanishi ham mavjuddir, ammo bu tarbiyada shaxsning oldida aniq va maqsadli vazifalar qo'yiladi. Masalan, tabiatga mehrligi,

oqibatli bo'lish, ona-vatan tabiatini sevish, tabiat resurslarni boyitishga harakat qilish, uni asrash yo'l-yo'rig'ini o'rganish lozim. Bu borada ta'lim-tarbiya bir qatorda turib bir maqsadni, ya'ni tabiatni inson-jamiyat-tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni, o'zaro munosabatlarini va bir-birlariga nisbatan ta'sir etish me'yorlarini o'quvchilar (bolalar)ga tushuntira olish kerak.

Aholining hamma qatlamlariga uzluksiz ta'lim-tarbiya berish, bu doimo maqsadli bo'lib, shaxsning tabiiy atrof-muhitni, o'z salomatligini asrashdagi muammosini yechishda asosiy rol o'ynaydi. Bunda, ta'lim berish jarayoni tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, kelajakda ekologiya va gigiyena sohasidagi fan-texnika rivojini ta'minlaydi.

Ekologo-gigiyenik ta'lim-tarbiya masalalarini hal etishda umumiy va ayrim vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

Jumladan, respublika fuqarolarining har bir shaxsiga yuqori javobgarlik mas'uliyatini sezishni, tabiiy boyliklarning yanada ko'paytirishni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tejamkorlikni asosiy masala deb bilish, ishlab chiqarishda paydo bo'ladigan zararli chiqindilarni utilizatsiya qilish, zararsiz holatga keltirish muammolarini ham ma'lum darajada hal etish va bajarish bosqichlarini o'rganish, tarbiyalash, ta'lim berishni dasturlar yordamida o'tkazishni taqozo qiladi.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning eng asosiy vazifalaridan biri ekologiya va gigiyena fani sohasidagi bilimlarni tarqatish va ma'rifat ishlarini rivojlantirishdir. Bu tabiiy atrof-muhitni, tabiatni asrash, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni, tirik tabiiy muhit omillari bilan jonsiz tabiiy muhit omillari o'rtasidagi bir butun yaxlitlikni tushunish va har bir shaxsda shu jarayonlar bilan bog'liqlik tushunchasini shakllantirishni taqozo etadi. Inson tabiat qo'ynida yashar ekan, uning beminnat sahovati, in'omi va marhamatidan bahramand bo'ladi. Shunday ekan, insonning eng yaqin "do'sti" bo'lmish tabiatni ardoqlash va e'zozlash har bir kishining muqaddas burchi bo'libgina qolmasdan, balki shu ko'rkam tabiatning bir oliy ne'mati hisoblanadigan insonning sharaflı burchi bo'lishi lozim. Ta'biatni avaylab asrash, e'zozlash unga bo'lgan muhabbat inson qalbida yoshlikdan uyg'onadi va davrlar o'tishi bilan shakllanadi.

Yoshlarning yuragida ona vatanga, ona tabiatga bo'lgan hurmatini oshirishda keng jamoatchilik, qolaversa ota-ona va o'qituvchilarning hissasi salmoqli o'rin tutadi.

Asosiy maqsad - vatanimizning tabiiy muhitini asrash, uning boyliklarini ko'paytirish va har bir shaxsning, yoshlarning tabiat bilan hamohanglikda rivojlanishni ta'minlash.

Bugungi kunda ekologik xavfsizlikka tahdid globallashib borayotgan bir davrda, har qanday jamiyatda ham insonning ekologik madaniyatini, ma'naviyatini oshirish maqsadida tarbiyalash umumiy ta'lim-tarbiyaning mas'uliyatini yanada mukammallashtirishga yordam beradi. Aholining ongiga tabiat bu men va sen, biz yashaydigan makon, tabiat butun yer kurrasi mavjudotlarining yashaydigan yagona zamini degan asosiy nazariy va amaliy bilimlarni singdirish lozim.

Zero, hayot kishilardan atrof-muhitning nafaqat bugungi kuni uchun, balki kelajak avlod uchun ham asrashni talab qilmoqda, - deydi A.Ismoilov va R.Axadov.

Davr xalqimiz dunyoqarashini milliy istiqlol ruhida isloh qilishni talab qilmoqda. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot - yo halokat, yo sadoqat- yo falokat masalasidir". Shunday ekan, milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo'lga qo'yish jamiyatimizda sog'lom muhitni saqlash bilan barovar ekanligini anglashimiz darkor.

## **BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

*Toshpo'latova Hilola, Suvanova Mohinur, Bolliyeva Sitora*  
*TDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti talabalari*

Ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish, kasbiy faolligini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga e'tibor kundan kun ortib bormoqda.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-

tadbirlari” ga muvofiq, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’lim tarbiyaning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o’quv adabiyotlarining yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini tayyorlash tizimini yadana takomillashtirishni taqazo etadi” [47.5b]

Mazkur fikrlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, bugun tarbiyalanuvchi va tarbiyachilarni ongli fikrlashga, mustaqil va erkin faoliyatga o’rgatish, kasbi qiziqishi va faolligini rivojlantirish jarayoniga hamda tahsil olayotgan va faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalariga ham alohida e’tibor qaratilayotganligini ko’rishimiz mumkin, bu o’z navbatida bo’lajak tarbiyachilarda kasbiy faollik tuyg’usini rivojlantirish jarayonlarini o’rganish orqali ushbu faoliyatni kuzatish va tahlil qilish zaruriyatini ham belgilaydi.

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi tarbiyachilarida kasbiy faollikni rivojlantirish jarayoni ularning dunyoqarashini o’zgartirishga, ijtimoiy faolligini oshirishga, ularda mustaqillik ma’naviyati, milliy iftixor tuyg’usi, or-nomus va mehr–oqibat kabi qator tushunchalarni singdirish, ya’ni milliy mentalitimizga mos va xos sifat va fazilatlarni ularda tarkib toptirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim yo’nalishi tarbiyachilarida kasbiy faollikni oshirishning ahamiyati va zaruriyati haqida bilim, ko’nikma va malakani egallash natijasida, tarbiyachilarda kasbiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, hayotga, mehnatga va ijodiy izlanishga hamda o’z xalqiga munosib xizmat qilishga, milliy boyligimizga, Vatanimiz va Davlat ramzlariga, umummilliy qadriyatlar va milliy urf-odatlarimizga bo’lgan ijobiy munosabatni tarkib topishga yordam beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida maktabgacha ta’lim yo’nalishi tarbiyachilarida kasbiy faolligini oshirish orqali ularda mehnatga va mehnat ahliga bo’lgan munosabatni shakllantirishga, Vatanga, tabiat va jamiyatga, ota-ona, yoru-do’stlarga mehr-muhabbat va sadoqat, umummilliy qadriyatlar va milliy urf-odatlarimizga hurmat, ularga egalik qilish hamda o’z vaqtida himoya qila olish mas’uliyatini shakllantiradi.

---

<sup>47</sup>2017-2021 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi“

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi tarbiyachilarida kasbiy faollik tushunchasini singdirish orqali ularda sharq va g'arb allomalarining ma'naviy me'rosi, buyuk allomalarimiz, ota-bobolarimizning hayoti, ushalmagan orzu-maqсадlari va ular qoldirgan meros haqida tushunchalarga ega bo'lishi, mustaqil mamlakatimizning istiqbolli kelajagi, ilm-fan taraqqiyoti yo'lida tinmay mehnat qilish, ma'naviy boyliklarni qadrlash va asrash, uning kelajagi haqida qayg'urish, o'z xalqi va mamlakati yutuqlari bilan mag'rurlanish, o'zligini anglash va milliy an'analarga sodiq bo'lish, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va yurt tinchligi yo'lida o'z jonini fido qilishga tayyor har tomonlama faol, ijodkor, fidoiy bo'lishga to'g'ri yo'naltirishga erishish zarur sanaladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi tarbiyachilarida kasbiy faollikni rivojlantirishda mustaqil faoliyat yuritishda individual tafakkurni o'rni alohida sanaladi. Ma'lumki, individual tafakkur hamkorlikdagi aqliy va jismoniy mehnat jarayonida, shaxslarning o'zaro muloqotga kirishishi jarayonida jamoaviy tafakkurga o'sib o'tadi. Jamoada tanqidiy qarash, o'z-o'zini tanqid, baholash, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tekshirish, nazorat qilish, "jamoaviy o'ylash", guruh bo'yicha mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi [48].

Demak, maktabgacha ta'lim yo'nalishi tarbiyachilarida kasbiy faollikni rivojlantirishda inobatga olinishi zarur bo'lgan omillardan biri individual tafakkurning jamoaviy tafakkurga o'sib o'tishi ekan. Bunda tarbiyachilarning tarbiyalanganligi, dunyoqarashi va ahloqiy sifatlari o'ziga xos ahamiyat kasb etib, talabalar tafakkurini rivojlantirish jarayonida talabalarning individual psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda, ular tarbiyalanayotgan muhitni o'rganish, ularning qobilyati, iqtidori, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish zarur hisoblanadi. Chunki ixtiyoriy inson asosan, ikki yo'l bilan, bironing bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, donolar fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qish, tajriba o'rganish, shogird turish orqali bo'lsa, ikkinchisi inson o'zining fikrlashi, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan xulosalar chiqarish va eng asosiysi – tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkinligini inobatga olinishi zarur. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki,

---

<sup>48</sup>G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. T.: O'qituvchi, 1990. 3b



talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonlarida ularda kasbiy faollikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ta'lim-tarbiya jarayonida ko'proq erkin va mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning subyektivligini oshirish hisobiga, subyekt-obyekt munosabatlaridan subyekt-subyekt munosabatlariga o'tish, ya'ni mazkur jarayonda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish, shuningdek, ularning mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchliligini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta'lim yo'nalishi tarbiyachilarida kasbiy faollikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish muhim sanaladi. Bunda, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda kasbiy faolligi va mustaqil faoliyatning mazmuni va mohiyatini anglab yetish, shaxslararo munosabatlarda kasbiy faollikni rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning ahamiyatini tushinib yetish, pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish, pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi tarbiyachilarida kasbiy faollikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor talab qilayotgan birinchi omil ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda ularning faolligi va mustaqil faoliyatining ahamiyati bo'lib, pedagogik jarayonlarda tarbiyachilarning faolligini ta'minlashda ularning mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lim va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini-o'zi tarbiyalashi muhim ahamiyat kasb etadi va bu ahamiyat ular rivojlanishga asos sifatida xizmat qilishida o'z ifodasini topadi.

Tadqiqotlarda bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyachi ta'lim - mustaqil ta'lim, tarbiya - o'zini-o'zi tarbiya, ma'lumot-mustaqil ma'lumot va tarbiyaviy munosabatlar haqida yetarli malakani egallashi zarurligi keltiriladi.

Bolaning rivojlanishida, ya'ni uni tarbiyalashda jamiyat tomonidan tashkil etilgan ta'lim muassasalarining va ta'lim-tarbiya jarayonida qatnashayotgan barcha kishilarning faoliyatlari ham muhim rol o'ynaydi.

Shunga ko'ra, tarbiya – insonlar rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan jarayon sanaladi. Mazkur jarayon bir avlod ijtimoiy tajribasining keyingi avlodlar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning ijtimoiy hayotga qo'shilishlarini ta'minlab beruvchi zaruriy faoliyat bo'lib, u inson tarbiyalanganligining mezon sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq holda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida insonning rivojlanishiga tashqi muhitning ta'sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimningdir tajribasiga tayanadi hamda unga asosan o'zining ko'nikma va malakalarini shakllantirib boradi. U faqat o'tmish merosxo'ri sifatida ijtimoiy hayotga qo'shib boradi va kelajak uchun tayyorlanadi.

Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo'lib, u insonlar rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy xislatlari shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi.

## **НЕТРАДИЦИОННЫЕ СПОСОБЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ МОЛОДЁЖИ В НАУКУ И ИННОВАЦИИ**

*Туракулова Дурдона Боходировна* Студентка ТГПУ имени Низами

Под вовлечением молодёжи - понимается популяризация науки, в котором лежит огромное превращение научных данных в интересную и понятную для большинства людей информацию. Важную роль в этом процессе играет научная фантастика, которая вдохновляет множество научных открытий. Приход молодых людей в науку, новые технологии, которые делают жизнь легче, всё это зависит от степени популярности науки.

XXI век- век новых технологий и научных открытий. Для развития дальнейших достижений страны в сфере политических изменений, роста

экономики и научно-исследовательской отрасли, достигающих мировых уровней необходимо молодым учёным усиленно работать над собой. Для того чтобы рассмотреть возможности вовлечения студентов в научную деятельность, необходимо провести исследование между молодёжью, выяснить их мнения о науке и найти пути привлечения молодежи в дальнейшие исследования. В результате этого эксперимента будут выявлены представления студентов, не занимающихся научной деятельностью, их причинах неучастия в научно-исследовательской деятельности. Основной мотивацией студентов, кто занимается наукой по принуждению преподавателя, является получение хорошей оценки у преподавателей в кафедре, что является большой проблемой в развитии науки. Молодежь не считает науку перспективным и достойным занятием. Процесс освоения учебного материала осуществляется студентами не для прогресса научной мысли, а для их личного интереса и потребностей их субъективного характера. Это в свою очередь и является большой проблемой в сфере научной деятельности.

Нетрадиционные методы вовлечения молодёжи в науку.

Для того чтобы сделать науки более популярной для молодежи необходимо проводить с ними научные мероприятия. Это делается для того, чтобы они попробовали себя в различных форматах, в тех современных форматах, которые сегодня их делают научно-доступными.

Говоря о нетрадиционных способах вовлечения молодёжи, можно дать им возможность реализовать себя в научной деятельности и предоставить им нужные условия для рабочего процесса как общечеловеческих, так и материальных. То есть организовать лаборатории с необходимыми инструментами, возможно комнаты для научных опытов, дать студентам самостоятельно проводить научные мероприятия. Этим они не только повысят свой уровень знаний, но и научатся выступать перед большой аудиторией. Для выяснения какого-нибудь научного вопроса нужно проводить свободную беседу между студентами и профессорами, которая должна проводиться в развлекательной форме. Студенты сами должны обмениваться информацией

между собой, им тема должна быть интересна. Необходимо прежде всего привлечь внимание к актуальным проблемам в конкретной отрасли, в экономике, в стране в целом.

В конце статьи можно сказать, что без развития общества и без популяризации науки молодых учёных не возможна развитие страны, что на сегодняшнее время развитие социальной, экономической нормы, технологический, а также инновационный уровень порой необходимы для развития страны!

#### **Литература:**

1. Замятина О. М., Мозгалева П. И., Солодовникова О. М., Гончарук Ю. О. Современные методы педагогики для вовлечения и стимулирования научно-технического творчества детей и молодежи // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2015. – Т. 15. – С. 31–35. – URL: <http://e-koncept.ru/2015/95148.htm>.

### **ROBOTOTEXNIKA – STEAM TA'LIM MODULI SIFATIDA.**

**Xalilova Dilnoza Furqatovna** Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi  
**Sobirjonova A.S.** TDPU "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

STEAM-ta'lim-yangi texnologiyalarni rivojlantirishga, innovatsion fikrlashga, yaxshi tayyorlangan muhandislik kadrlariga bo'lgan ehtiyojni ta'minlashga qaratilgan fanlarni birlashtirishdiradi. STEAM-ta'limni joriy etish yaxshi muhandislarni tayyorlash vazifasini yanada rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

STEAM-treningda bolalar turli sohalardagi bilimlarni qo'llashadi: matematika va boshqa aniq fanlar, muhandislik, dizayn, raqamli qurilmalar va texnologiyalardan foydalanish. Shunday qilib, talabalar loyihani yaratish va ishlash jarayonini umumiy tushunishni o'rganadilar. Steam (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) bu fanlardan bilim olish va ularni amalda qo'llash qobiliyatini nazarda tutadi.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta fan sohaslarida — kompyuter fanlari, fizika, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohaslarida rivojlanishi mumkin. Misol uchun, LEGO ta'lim echimlari STEAM vakolati va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan: tadqiqot, muhandislik, matematik, san'at va dizayn.

STEAM-talabalar har qanday murakkablikdagi vazifalarni bajarishga imkon beruvchi universal amaliy yondashuvni, shu bilan birga, bolalar o'z bilimlarini amalda qo'llaydilar. Har qanday ishlab chiqarish yoki uy vazifasini bajarishda inson ko'plab sohalardan bilimlarni to'playdi. Ushbu yondashuv robototexnika bo'yicha qo'shimcha umumiy ta'lim dasturlarini rivojlantirishda foydali va zarurdir.

Zamonaviy muhandisni shakllantirish maktabgacha ta'limdan boshlanishi kerak, bu maktabgacha ta'lim mazmunini va bolalarni o'qitishning yangi texnologiyalarini o'zgartirishni talab qiladi. Ishning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda sifatli ta'limni ta'minlashdir.

Bolalarning bilimlarini tushunish uchun samarali ta'lim texnologiyalaridan biri STEAM-ta'lim texnologiyasidir.

STEAM-ta'lim texnologiyalari atrof-muhitni turli xillikda bilishda samaradorlikka erishishning to'liq vositasi bo'lib qoladi. Zamonaviy bolaning tashabbuskor va qiziquvchan bo'lishi kerakligini tushunish, har qanday tanqidiy vaziyatdan chiqib ketishi mumkin bo'lgan nostandart muhandislik uslubi bilan pedagogika, shu jumladan maktabgacha ta'limning ustuvor yo'nalishlariga qat'iy kiritilgan.

STEAM-ta'lim muhandislik, innovatsion fikrlashni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

STEAM to'rtta yo'nalishni birlashtiradi:

Fan- (biologiya, fizika va kimyo)

Texnologiya-(dizayn)

Muhandislik

San'at

Matematika

Maktabgacha ta'limdagi STEAM texnologiyalari asta-sekin maxsus tashkil etilgan muhitda amalga oshiriladi. Yagona ta'lim STEAM makon shakllantirish oddiy mexanizmlari va bo'g'imlarning turli yordamida, dizayn va statik va dinamik modellar modellashtirish o'zlashtirish bilan boshlanadi – qo'l, blok, tishli, va hokazo...

Bu sizga modellarni yaratish, turli strukturaviy va birlashtiruvchi elementlardan, mexanizmlardan va viteslardan foydalanishning asosiy tamoyillarini o'rganishga imkon beradi. Muhandislik bilimlari va ko'nikmalarini sotib olish boshqaruv tamoyillarini tushunish, boshqariladigan obyektlarning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganish va ketma-ketlik va harakat zanjirlarini (algoritmarni) yaratish, dasturiy ta'minotni o'zlashtirish orqali davom etadi. Algoritmarni o'rganish va boshqariladigan tizimlarni dasturlash analog shaklda va kompyuterdan foydalanmasdan boshlanadi, dasturiy muhiti yordamida davom etadi.

STEAM-texnologiya va robototexnika.

Robotlar STEAM-ta'lim bilan bevosita bog'liq. Bu dizayn, texnik ijodkorlik, dasturiy ta'minotni birlashtiradigan integral STEAM texnologiyasi. Ta'lim faoliyati uchun bolalarga muhandislik va dasturiy ta'minotni o'rgatib borish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida robototexnika mashg'ulotlarida robot-plastmassani yig'adigan tarkibiy elementlarning materiallari o'rganiladi (kirish darajasidagi robotlar mustahkam ABS=plastikdan tayyorlangan).

Elementlarning shakli-robotlarning strukturaviy darajadagi moslashuvchanligi teshiklarning mavjudligi, shuningdek, turli birikmalardan foydalanish bilan ta'minlanadi. Robotlarning to'g'ri ishlashi uchun zarur bo'lgan har xil mexanizmlar, turli sensorlari, masofalar, elektrotexnika asoslari va dasturlash tillari kerak bo'ladi. Robototexnika maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi uchun universal vosita bo'lib, turli sohalarining integratsiyasini ta'minlaydi va ta'lim va tarbiya bilan shug'ullanish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'limda robototexnikaning o'ziga xosligi.

Maktabgacha ta'limda robototexnika bolalarni robotlar, sensorli qurilmalar va programlanadigan texnika bilan tanishtirishga imkon beradi. Asta-sekin, bolalar atrof-muhitning o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy texnologiyalarning rolini tushunishadi. Bunday ta'lim faoliyati bolaga: murakkab texnik fanlarni o'rganishni; har qanday vazifalar uchun nostandart echimlarni topishni; o'z loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni; ba'zi psixologlarning fikriga ko'ra, maktabgacha ta'limda

robototexnika tengdoshlar va tarbiyachilar bilan muloqot qilish orqali etakchilik fazilatlarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'limda robototexnika bolalarni robotlar, sensorli qurilmalar va programlanadigan texnika bilan tanishtirishga imkon beradi. Asta-sekin, bolalar atrof-muhitning o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy texnologiyalarning rolini tushunishadi.

STEAM-ta'limning afzalliklari:

- Mavzular bo'yicha integratsiyalashgan ta'lim.
- Haqiqiy hayotda ilmiy va texnik bilimlarni qo'llash.
- Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish.
- O'z kuchiga ishonchni shakllantirish.
- Faol muloqot va jamoaviy ish.
- Texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish.

#### **Adabiyotlar:**

1. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi.
2. Т.С.Волосовец, В.А.Маркова, С.А.Аверина STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М.Бином..Лаборатория знаний 2019.
3. "STEAM talim tizimi nima?" <https://www.integer.uz/steam>

### **KUN TARTIBI - MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH SHARTI SIFATIDA**

*Qoraboyeva Zohida To'lanboyevna NamDU katta o'qituvchi,  
Davlataliyeva Mohidil Abrorjon qizi NamDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Inson salomatligi, uning hayot kechirishi, keksayguniga qadar ish qobiliyatini saqlab qolishi ko'p asrlardan buyon tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Insoniyat yer yuzida qanchadan buyon yashayotgan bo'lsa, shunchadan buyon u uzoq yashash yo'lini izlamoqda. Shunchaki yashashni emas, balki umrining oxirigacha ijodiy faollikni, sog'lom aql va kuch-quvvatni saqlab qolishni orzu qilmoqda.

Agar kun tartibida belgilangan barcha ishlarni doimo bir vaqtda bajarilsa, organizm

bunga o'rganib qoladi: nerv tizimi ishida ma'lum tartib o'rnatiladi, bu mehnat qobiliyatini yaxshilaydi va o'qituvchi organizmining me'yorida shakllanishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustahkam gigenik malakalarni shakllantirish bolalar hayotini oqilona tashkil etishni – to'g'ri tuzilgan kundalik rejimni va unga qat'iy amal qilishni talab etadi. Kun tartibi – bu vaqtning eng oqilona taqsimlanishi, uyqu, ovqatlanish, o'yin, boshqa narsa bilan shug'ullanish, toza havoda bo'lish va mehnat faoliyatining ketma-ketligidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalash sharoiti birinchidan, bolalarning rivojlanishi qonunlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon ekanligini hisobga olgan holda yaratilishi, ikkinchidan esa bu sharoitlar bolalar organizmining o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etishi, shuningdek, bolalar sog'lig'ini saqlashi va mustahkamlashi kerak.

Показания для назначения метод психокоррекции применяют, если в поведении ребенка начинают наблюдаться следующие нарушения:

- гиперактивность, импульсивность;
- неконтролируемая агрессия;
- тревожность, мнительность;
- чрезмерная стеснительность, боязливость;
- неоправданные страхи;
- трудности запоминания;

- неусидчивость;
- нарушения мышления;
- трудности в процессе обучения.

#### Основные методы

Программу психологической коррекции специалист составляет индивидуально для каждого пациента, выбирая наиболее подходящие методы.

Самыми популярными методами психокоррекции детей являются игры. Игровые методы бывают направленные и ненаправленные. Направленная иглотерапия построена на активном участии психолога в игре ребенка. Ненаправленная иглотерапия проходит в свободной форме. Играя, ребенок учится самовыражаться, достигать эмоционального равновесия. К методам директивной игровой коррекции относят сюжетно-ролевые игры и психодрамы.

Сюжетно-ролевые игры. Ребенок пытается научиться вступать с окружающими в контакт, разговаривать, внимательно слушать ответы, пользоваться мимикой и жестами для того, чтобы передать свои мысли и чувства, поэтому такие игры очень важны.

Арт-терапия — это система индивидуальных занятий, направленных на развитие речи средствами художественного творчества. Арт-терапия (от англ. art — искусство, therapy — лечение) — это вид психотерапии и психологической коррекции, основанный на лечебном воздействии изобразительного творчества с целью влияния на психоэмоциональное состояние ребенка.

Музыкотерапия прекрасно помогает справиться с эмоциональными нарушениями. Основные психологические механизмы музыкотерапии: катарсис (эмоциональная разрядка, регулирование эмоционального состояния), эмоциональная экспрессия, повышение социальной активности. Эффективными методами музыкотерапии являются рецептивная методика (восприятие музыки с определенной целью) и активная терапия (коррекционно-направленная, активная музыкальная деятельность).

Для изменения этой ситуации важным и необходимым, на наш взгляд, явилось установление положительной эмоциональной связи ребенок —



взрослый, в основе которой лежит понимание и уважение чувств и потребностей детей, поддержка их инициативы и активности. Установлению такой положительной эмоциональной связи способствовали задачи, реализуемые психологом в ходе психо-коррекционных занятий и требующие:

- поддерживать инициативу каждого ребенка;
- внимательно относиться к чувствам детей, ценить и принимать их такими, каковы они есть;
- быть откровенным с детьми;
- активно участвовать в совместной деятельности и делиться возникающими чувствами;
- выслушивать детей, поощрять их к анализу мыслей, чувств и поступков и принятию самостоятельных решений;
- формировать чувство доверия у детей и ответственности за свое поведение и чувства.

Комплекс психо-коррекционной работы с детьми дополнялся консультациями с родителями и тренингом с учителями по развитию навыков эффективной межличностной коммуникации, учитывающей чувства и мотивы поведения ребенка в конкретной ситуации.

Саморегуляция организма зависит от осознания настоящего и от способности жить в полной мере по принципу «здесь и теперь». Часто ригидное поведение детей, которое они считают единственно верным, является результатом фиксации на их собственных субъективных представлениях, которые могут быть ложными или искаженными под влиянием социального опыта и некоторых личностных особенностей. И хотя ситуация в настоящем возникает новая, ребенок, находясь в «средней зоне», продолжает воспринимать ее через свой прошлый опыт, проецируя его в настоящее и будущее. Тем самым реальная потребность, которая должна регулировать поведение в настоящий момент, заслоняется в сознании ложно доминирующей. Как результат такой внутренней борьбы противоположных тенденций возникают напряженность,

тревожность, которые находят свое внешнее выражение в ригидных паттернах неадаптивного поведения.

Пережив психотравмирующую ситуацию в том возрасте, когда ребенок еще не способен к активно-поисковому ее преодолению, он как бы закрепляется в своей исходной тенденции к пассивно-оборонительному реагированию, вместо того чтобы постепенно преодолеть эту тенденцию. Новая конфликтная или стрессовая ситуация затрагивает значимые эмоциональные отношения человека: она провоцирует закреплённый с детства стереотип пассивно-оборонительного поведения в любой сложной обстановке, т. е. вызывает отказ от поиска способов разрешения конфликта, или воспроизводит первоначальный тип реагирования. Таким образом, ребенок больше сконцентрирован на избегании и защите себя от своих внутренних переживаний и ограничивает свое взаимодействие с окружающим миром, так как для него это неприятно и болезненно из-за прошлого неудачного опыта. Как правило, дети, которые находятся в плохом контакте с собой (не осознают своего поведения, избегают или скрывают свои чувства и проблемы), ограничены в своих возможностях более широко замечать окружающий их мир. Внимание этих детей имеет одностороннюю направленность, отсюда и «однолинейность» мышления и негибкость поведения.

Для осуществления этого направления психологической коррекции была использована работа по замечанию телесных ощущений, свободному владению телом, усилению и расширению сенсорного опыта детей. Использовались массаж, упражнения на принятие образа своего тела, релаксационные, дыхательные, медитативные упражнения, пантомимические и танцевальные движения, подвижные игры на ловкость, работа с керамическим тестом, рисование пальцами.

В упражнениях на развитие сенсорного опыта детей к обязательным моментам следует отнести:

— расширение лексического запаса слов, выражающих ощущения и чувства детей;

— реальное переживание различных вариантов ощущений и чувств и выражение их в многообразных формах;

— развитие каналов восприятия через более детальный, много контекстный подход к воспринимаемым явлениям.

Реализация этого направления была возможна после осуществления вышеприведенных этапов коррекционной работы, т. е. после того, как дети имели возможность обратить внимание на свои поведение и чувства, выразить свои чувства и потребности, лучше замечать свое тело, более внимательно и детально замечать окружающий мир. Это дает возможность повысить способность к эффективной саморегуляции. На этом этапе психокоррекционный акцент делался на расширение поведенческих возможностей детей, их поисковой активности как в повседневной деятельности, так и в стрессовых для них ситуациях. Для решения поставленных задач оправданным, на наш взгляд, явилось использование на занятиях приемов и упражнений, развивающих образное мышление, воображение, творчество. Эти приемы служили не только средством самовыражения, но и использовались при решении личностных и межличностных проблем детей.

#### **Список литературы:**

1. Залевский, 1993. Психокоррекция ребенка.
2. Понятие о " арт - терапия" - Яценко, 2012.
3. Музыкаотерапия- психотерапевтический метод - А. Рубинштейн И.Штраус.

### **OILADA BOLALARNING SHAXS XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI**

*Mamedova Maftuna Muhidinovna*

*Buxoro davlat universiteti, maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

O'zbekiston o'ziga xos turli milliy urf – odatlar, an'analarga boy ulkan mamlakat. Qadriyatlar qadri – mustaqillik sharofati va istiqlol shukuhi ila ko'p orzu – niyatlarimiz ro'yobga chiqmoqda. Yetmish yil ichida yo'l qo'ygan xato – kamchiliklar tuzatilib, hamma sohalarda haqiqat tiklanmoqda. Jumladan qadimiy boy va betakror xalq an'analari, urf – odatlari, rasm – rusumlari, marosimlar, udumlar, ya'ni milliy

qadriyatlarimizga jon ato etildi, turmushga keng joriy etila boshlandi. Ma'naviy qadriyatlarining yana bir qudratli manbai oila va undagi farzand tarbiyasi munosabatlari odobidan iboratdir.

Kattalarni hurmat qilish o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning qoidalari bo'lib kelgan. Ota – bobolarimiz, oqila onalarimizning ijodi, teran aql – zakovoti, o'ziga xos dunyoqarashi va xayotiy falsafasi, ko'p asrlik sinov – tajribalari juda chuqur, ammo ixcham, lo'nda shaklda chiroyli bayon etilgan, hayot sabog'i – donishmandlikning ba misoli qomusiga aylangan, tarixning xar hil to'fon unsurlariyu jangu – jadallariga bardosh berib davrdan – davrga, avloddan – avlodga o'tib kelayotgan xalq mafkurasi – ma'naviyati, ma'rifiy va ahloqiy – ruxiy tarbiyasi bilan bog'liq qadriyatlarga, xalq an'anaviy sharqona pandu – nasihatlar, o'gitlar va boshqa katta tarbiya vositalariga befarq qaraldi.

Ushbu qoidalar azal-azaldan allomalarimiz pedagogik qarashlarida ham o'z ifodasini topgan.

Farobiy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm hikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilimli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va axli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin»<sup>49</sup>.

Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – ahloqiy tarbiyada aloxida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi ahloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning ahloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota – ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

---

<sup>49</sup> Ал Фаробий Социально – этические трактаты. Алма – ата 1976й. 198 бет.

Ahloqiy tarbiyada eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakka – yakka suxbatga bo'lish unga nasixat qilishdir.

Ibn Sino bolada ahloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan o'zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan bolab zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi.

Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti – xarakatlariga berilishining oldi olinadi.

Ulug'bekning oila muhiti sog'lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, xavasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muxim o'rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa o'qimishli ota – onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga aloxida e'tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga aloxida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o'qtiradi.

Voiz Al – Koshifiyning o'qtirishicha insonni ta'lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatni o'stirish mumkin. Koshifiy o'zining pedagogik qarashlaricha bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga aloxida e'tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga aloxida axamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muxit muxim o'rin tutadi. Bola to'g'ri so'zli, vadaga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerak.

Barcha milliy an'analarimizni avaylab – asrab, rivojlantirib, kelajak avlodga yetkazib berish bizning asosiy vazifamiz bo'lib, hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyoti ko'pgina davrlarda tarbiyaning mazmuni va yo'nalishi milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz va urf – odatlarimiz uyg'unligi bilan belgilanadi.

Yosh avlodni tarbiyalashda bugungi kunda bu qadriyatlar, an'analar o'zining barcha qirralarini ko'rsatib yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bolalarni milliy an'analar ruhida tarbiyalash uchun oila, maktab va mahallalar birgalikda quyidagilarni bosqichma – bosqich amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bolalarni milliy an'analar ruhida tarbiyalashda ota – onaning pedagogik madaniyatini shakllantirish. Oilada yo'qolib ketayotgan an'analarimizni yosh avlod ongiga singdirish, milliy tarbiyamizni yanada rivojlantirishda xalq pedagogikasining ahamiyati beqiyos.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi qonuni 2019-yil 16-dekabr
2. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori
3. O.Hasanboyeva Pedagogika tarixidan xrestomatiya Toshkent: O'qituvchi, 1993. — 208 bet.
4. Hasanboyeva O. "Oila pedagogikasi" –Toshkent: Aloqachi, 2007. 287-289 b.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR NUTQINI O'YINLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

***Yu.R.Maxmutazimova** Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi, **Abdullayeva Madina**, talaba*

Har bir bola maktabgacha ta'lim tashkilotida o'z fikrini mazmunli, grammatik jihatdan to'g'ri, bir-biriga mantiqan bog'langan holda bayon etishga o'rganishi kerak.

Bog'lanishli nutq deganda, ma'lum bir mazmundagi fikrni mantiqan bir-biriga bog'lab, izchil ravishda grammatik jihatdan to'g'ri va obrazli qilib bayon qilish tushuniladi. Bog'lanishli nutqning ikki xil: dialogik va monologik turlari mavjud.

Dialogik nutqda savol tuza olish va savol berish, eshitgan savoliga taalluqli javobni berish, kerakli e'tirozni berish, suhbatdoshini javobini tuzatish va to'ldirish,

muhokama va munozara qilish, o'z fikrini asoslash kabilar juda muhimdir. Monologik nutq bir kishining nutqi bo'lib, so'zlovchidan keng, aniq, to'liq, bog'langan fikrni talab etadi. Monolog hikoyani tushuntirishi, so'zlovchidan o'z fikrini asosiy narsaga qaratishni, jonli, obrazli, his-xayajon bilan gapirishni talab etadi.

Dialogik nutqini rivojlantirish – bolalarni kattalarning nutqini tinglash va tushunish, savollarga javob berish, boshqa odamlarning oldida o'z fikrini aytish, bir-birini tinglashdan iborat. Kichik guruhlarda bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatishda mashg'ulotning o'yin shaklidan foydalaniladi. Bu mashg'ulot turiga bolalarning nutq faolligi, savollarga javob berishi asosiy o'rinni egallaydi. Shuningdek maxsus mashg'ulotlar va logopedik o'yinlar bolalarning so'zlashuv nutqini tarkib toptiradi.

1.Suhbatlar

2.Logopedik o'yinlar

3.Suratlarini ko'rib chiqish va uhaqida suhbat

Suhbat ta'lim-tarbiya ishining murakkab turidir. Suhbat logoped va tarbiyachining guruhdagi bolalar bilan ma'lum bir mavzu yuzasidan maqsadga qaratilgan holda tashkiliy so'zlashishidir.

MTT da bolalar bilan o'tkaziladigan suhbat ularning kundalik faoliyatlari va turli voqea-hodisalarni kuzatishi natijasida olgan tushunchalarini aniqlash va ularni bir tizimga solish maqsadida o'tkaziladi.

Logoped bolalar bilan suhbatni tashkil etar ekan, u bolalarga haqiqatni to'liq va chuqur idrok etishga yordam beradi, ularning diqqatini tushunishi qiyin bo'lgan narsalar, voqea-hodisalarga jalb etadi.

Suhbat mashg'ulotida bola ilgari ko'rgan, kuzatgan voqea-hodisalarni esga tushiradi, mantiqiy fikr yuritishga harakat qiladi, tahlil qiladi.Suhbat bolalarni jamoaga birlashtiradi, bir-birlariga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, nutqini faollashiga ta'sir ko'rsatadi. Suhbat bolalarni o'z fikri bilan o'rtoqlashishga, jamoaga so'zlashishga, faolligini oshirishga, o'zini tuta bilishga odatlantiradi, dunyoqarashini shakllatiradi.

Suhbat mashg'ulotida bolalar kelgusida maktabda ta'lim olish jarayonida zarur bo'lgan bilim, malaka va odatlarni egallaydilar. Suhbat asosan uch xil bo'ladi:

1. Kirish suhbatlari.

2. Sayohat va kuzatish davomida o‘tkaziladigan suhbat.

3. Yakuniy suhbat.

Suhbatda asosiy o‘rgatish usuli savollar berishdir. Mazmuni va shakli jihatidan har xil murakkablikka ega bo‘lgan savollardan foydalaniladi. Bolalarni nutqini to‘liq rivojlantirishda, lug‘atini faollashtirishda suhbatning ahamiyati juda kattadir. Guruhlarda bolalarni so‘zlashuv nutqiga o‘rgatishda mashg‘ulotning o‘yin shaklidan foydalaniladi. Bu mashg‘ulot turiga bolalarning nutq faolligi savollarga javob berishi asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, logopedik o‘yinlarda ham o‘zi savol berib, o‘zi javob beradi, so‘zlashuvning bunday shakli bolalar qiziqishini oshiradi, nutqini faollashtiradi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqini o‘stiruvchi, tasavvurlarini kengaytiruvchi seriyali suratlardan foydalanish mumkin: Quyida nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar dialogik nutqini rivojlantirishga oid o‘yinlardan namunalar keltiramiz.

“Bozorda” o‘yini.

Maqsad: bolalarning lug‘at boyligi, bog‘langan nutqi va muomala madaniyatini rivojlantirish.

Jixoz: mulyaj, rangli rasmlar, plastilindan yasalgan meva va sabzavotlar.

O‘yinning borishi: logoped – bolalar bugun sizlar bilan bozorga borib sabzavot va mevalar xarid qilamiz. Biringiz sotuvchi qolganlar esa xaridorlar bo‘ladi. Xaridor o‘ziga kerakli meva yoki sabzavotni so‘raydi, sotuvchi esa uni maqtab rangi, mazasi, qaerda o‘sishi xaqida izox berishi kerak. Sotuvchining nutqi aniq sotayotgan narsasigto‘la izox berishi kerak. Logoped esa uning nutqini kuzatib to‘g‘irlab borishi lozim. Xar bir bola sotuvchi va xaridor rolini bajaradilar. O‘yin davomida bolalar sabzavot va mevalarni ushlab, paypaslab ko‘radilar, bu esa ularning mayda qo‘l motorikalarini rivojlantirishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Mo‘minova L.R. «Bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish»- T.: «O‘qituvchi», 1992.
2. Mo‘minova L. R., Ayupova M. Yu. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni savodga o‘rgatish dasturi. (maktabga tayyorlov guruxlari uchun)». - T.: «Ijodkor», 1995.
3. Pojilenko Ye.L. «Volshebniy mir zvukov i slov». - M.: «Vlados», 2003.



4. G.Shalayeva “Logopedicheskie igri” - M-2010 g.
5. R.Sh.Shomaxmudova “ Maxsus va inklyuziv ta’lim” . T -2011 y.

## ПРОЦЕСС ВЫБОРА ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДИК

*Пайзиев Тимур Маратович Студент 2 курса направления «Практическая психология» НУУ имени М.Улугбека*

Выбор метода обследования – один из наиболее сложных этапов диагностической работы психолога.

Всё множество имеющихся диагностических методик охватывается тремя основными диагностическими подходами:

- **Объективный подход** – диагностика осуществляется на основе успешности (результативности), способа (особенностей) реального поведения, замера объективных характеристик состояний субъекта, его деятельности (личностные: тесты действия, ситуационные тесты, интеллектуальные тесты, тесты специальных способностей и тесты достижений), анализа документов (личного дела);
- **Субъективный подход** – диагностика осуществляется на основе сведений, сообщаемых обследуемым о себе (многочисленные опросники);
- **Проективный подход** – диагностика осуществляется на основе анализа особенностей взаимодействия с внешне нейтральным, как бы безличным материалом, становящимся в силу его неопределённости объектом проекции.

Внутри каждого из подходов могут быть выделены группы достаточно однородных, близких друг другу методик. В то же время некоторые из конкретных методик трудно отнести к одному из подходов, они будут занимать как бы промежуточное положение. Между этими подходами нет непроходимых границ.

При создании методического комплекса психодиагност должен учитывать:

*Адекватность методик целям, задачам обследования, а также выдвинутой гипотезе* позволяет избежать следующих ошибок в формировании психодиагностического комплекса:

- подход «по рецепту» в выборе психодиагностических методик заключается в том, что психолог-диагност убежден в том, что для каждого случая имеется какой-либо тест;

- узколабораторный подход заключается в том, что психодиагност довольствуется лишь частичными результатами;

- комплексный, но ригидный подход заключается в том, что в ходе обследования применяются наборы методик, большинство из которых не релевантны целям диагностики и даже нежелательно загружают обследуемого.

*Адекватность методов психологической теории, в рамках которой работает психолог, помогает обеспечить преемственность диагностики и психологической помощи.*

*Соответствие методик возрасту и состоянию обследуемого.* Данное требование позволяет обеспечить достоверность полученных данных, с одной стороны, и соблюдать интересы обследуемого — с другой.

*Соответствие методик уровню квалификации и практическому опыту психолога-диагноста.* Этот важный принцип позволяет следовать этическим принципам психолога и повышать непрерывно квалификацию специалиста.

При выборе психодиагностических средств важно учитывать *характеристики пространства*, в котором реализуется психодиагностический процесс.

Учет особенностей *организации обследования* (групповое или индивидуальное) обязателен для выбора психодиагностического инструментария. Не все типы психодиагностических методов можно реализовывать при групповом обследовании, чаще при групповом обследовании используют опросники и тесты.

*Временные характеристики диагностического процесса.*

При выборе психодиагностических методик необходимо учитывать продолжительность консультации, например, при плановом психодиагностическом обследовании в учреждении временные рамки

определяются обычно администрацией учреждения и производственной необходимостью.

*Знание методических ограничений психодиагностических процедур*

позволит психологу-диагносту подобрать методики таким образом, чтобы получить наиболее полную картину изучаемого феномена.

Грамотно подобранный методический комплекс позволяет получить необходимый спектр достоверной психодиагностической информации с наименьшими временными и энергетическими затратами.

*Разработка процедуры обследования.*

Процедура обследования включает в себя способ организации и последовательности применения различных психодиагностических методик.

*Процедура клинического психодиагностического обследования.*

Клинический подход предполагает глубокое, качественное и целостное изучение индивидуальных случаев. Клиническое обследование предполагает более гибкую позицию психолога-диагноста.

Во-первых, в клиническом обследовании допустимо изменять инструкции — пояснять, уточнять и т.д. Время выполнения задания учитывается при интерпретации результатов, но специальные ограничения встречаются реже.

Во-вторых, при клиническом обследовании взаимодействие с обследуемым, его реакция на замечания и одобрение являются важными приемами получения информации.

В-третьих, клиническое обследование предъявляет высокие требования к квалификации психолога и опыту практической деятельности, так как предоставляет возможности изменять порядок и сложность заданий, гибко реагируя на поведение обследуемого, требует высокого уровня квалификации в фиксации обширных и многообразных результатов наблюдения.

Также, говоря о разработке процедуры обследования, следует продумать порядок предъявления методик. Методики, направленные на диагностику познавательных функций и требующие от обследуемого высокой концентрации

внимания и интеллектуальных усилий, лучше предъявлять в середине обследования.

После завершения подготовительного этапа психолог-диагност приступает к реализации основного этапа проведения обследования.

### **Литература:**

1. Ануфриев А. Ф. Психологический диагноз.
2. Бурлачук Л. Ф. Психодиагностика.
3. Справочник практического психолога. Психодиагностика.
4. Лаак Я. тер. Психодиагностика: проблемы содержания и методов.
5. Ануфриев А. Ф. Психологический диагноз.

## **МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALAR FONEMATIK IDROKINI RIVOJLANTIRISH**

**M.R.Po‘latxodjayeva** Nizomiy nomidagi TDPU katta o‘qituvchi

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda nutq kamchiliklari tovushlarini noto‘g‘ri talaffuz qilish bilan chegaralanib qolmay, shuningdek tovushlarini yetarli farqlamaslik va so‘zni tovush tomonidan tahlil va tarkib qilishdagi qiyinchiliklardan ham iborat.

Aqli zaif nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish qancha erta boshlansa, shuncha samarali yutuqlarga erishish mumkin. Aqli zaif nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalardagi nuqsonlarning maktabgacha yoshda bartaraf etish tavsiya etiladi. Bunda mashg‘ulotlardan keng foydalaniladi. Mashg‘ulotlar frontal, guruhli va individual tarzda o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlarda olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarining maqsadi quyidagilardan iborat:

- Nutqdagi noto‘g‘ri talaffuzni to‘g‘irlash;
- To‘g‘ri talaffuz malakalarini shakllantirish;
- Bolalarni nutqini diqqat bilan eshitishga o‘rgatish;
- Fonematik idrokni rivojlantirish;
- Tovushlarni tahlil va tarkib qilish malakalarini shakllantirish.

Nutqning fonetik tomondagi kamchiliklarini bartaraf etish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Og‘zaki nutqni idrok etishni shakllantirish;
- Artikulyatsion apparat motorikasini rivojlantirish;
- Sirg‘aluvchi, shovqinli, sonor, til orqa va chuqur til orqa tovushlarni to‘g‘ri artikulyatsiyasini tarbiyalash.

Nutqning fonetik idrok tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Tovush artikulyatsiyasini aniqlash, bo‘g‘in va so‘zlardan tovushlarni ajratish;
- Berilgan tovushning so‘zdagi o‘rnini topish (so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida);
- So‘zlardan tovushlar ketma-ketligi va sonini aniqlash.

Fonematik idrokni rivojlantirish korreksion-logopedik ishning asosiy yo‘nalishidir.

Bu ishlar tovushlar tahlili ustidagi ish bilan o‘zaro bog‘liqlikda olib boriladi.

Ushbu jarayonda quyidagi ishlarni olib borish ko‘zda tutiladi:

- Nutqdan tashqari, ya’ni nutqsiz tovushlarni bilish va ajratish;
- Ma’lum tovushni bo‘g‘inlar ichidan ajratish;
- Ma’lum berilgan tovushga so‘z o‘ylab topish;
- Bir tovush bilan farqlanadigan bo‘g‘inlar tizimini qaytarish (bir-biridan uzoq va bir-biriga yaqin tovushlar asosida);
- Ma’lum tovushga rasm tanlash;
- Jarangli va jarangsiz tovushlari ajratish.

Bolalarni nutqdan tashqari tovushlarini ajratishga o‘rgatishda quyidagi o‘yindan foydalanish mumkin

### **Shovqin chiqaruvchi qutichalar (I variant)**

Maqsad: shovqin farqlanishini idrok etish va differentsiatsiyalash; mayda motorikani shakllantirish, eshitiruv xotirasini rivojlantirish.

Jihoz: har birida 6dan qutichalar solingan ikki tortmadan iborat. Ularning shovqin shkalasi eng quyi shovqindan eng balandigacha qamrab oladi. Qutichalar turli materiallar bilan to‘ldirilgan va chayqatilganda har xil shovqin chikaradi. Bu qutichalarning bir tomonida qizil yoki ko‘k qopqog‘i bor. Har bir qizil qopqoqli

quticha ko'k qopqoqli quticha bilan bir xilda. Material bilan ishlash yo'li: bir turkumdagi qutichalar tortmadan chiqarilgan va stolga vo'yilgan. Logoped qutichani oladi, uni yuqoriga va quyiga chayqatadi, chiqayotga shovqinga diqqat bilan quloq soladi. Shu tariqa bolani chayqatish texnikasiga o'rgatiladi. Bu harakatni takrorganlarda u o'z ko'zlarini yumadi bola qiziqishi harakatga yo'naltirilgan bo'ladi. Endi logoped boshqa tortmadagi qutichalarni olamdi, qizil qopqoqli qutichalar stolning bir tomoniga, ko'k qopqoqlilari esa boshqa tomoniga qo'yiladi. Shu tariqa ancha baland konsentratsiyaga erishiladi u qoliga har turkumdan bitta quticha oladi. Galma-galdan chayqatish orqatish orqali ularni taqqoslaydi.

**Metodik ko'rsatma.** Agar har ikkala qutichadan chiqayotgan shovqin bir biriga mos kelmasa, u bmr qutichani chetroqqa qo'yadi, o'sha turkumdagi boshqa qutichalar bilan mashq takrorlanadi. Xuddi shunday shoqin chiqargan quticha topilguniga qadar mashq davom etadi. Shunday tarzda tanlangan qutichani ikkala turkum orasiga qo'yadi. Logoped hamma qutichalar jufti topilguniga qadar mashqni davom ettiradi. Logoped bolani mashqni takrorlashga undaydi, qutichani aralashtiradi va keyin bolani ishga taklif qiladi, o'zi esa uni diqqat bilan kuzatadi.

**II variant.** 6 nafar bolaga bir seriyadagi qutichalar tarqatiladi. Logoped boshqa seriyadagi bironta qutichani shiqirlatadi. Xuddi shunday shovqin eshitiladigan qutichani tutib turgan bola uni logopedga keltiradi.

**III variant.** 12 qutichani xammasi tarqatiladi. Har bir bola o'z qutichasi shovqinini tinglaydi. U xuddi shunday shovqin chiqaruvchi qutichani tutgan bolani topishga harakat qiladi.

**IV variant.** Qutichalar 6 nafar bolaga tarqatiladi. Eng baland shovqinli quticha tutgan bola o'rnidan turadi. Qutichasini shovqini pasroq bola uning yoniga turadi. Shu tariqa butun qator xosil bo'lmaguncha mashq davom etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Mo'minova.L.R. Alohida extiyojga ega bo'lgan bolalarga erta korreksion-rivojlantiruvchi yordam "Complex Print" nashriyoti Toshkent 2020 y
2. Mo'minova.L.R. va boshqalar Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar "Matrix" Toshkent-2020

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI INGLIZ TILIGA O'RGATISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI .**

**Rahmonqulova X.B.**

JDPI. Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Mamlakatimizda barkamol yosh avlodni tarbiyalashning rang barang yo'l-yuriqlari, usul vas uslublari mavjud bo'lib, uning omillari ham biqiyos darajada ko'pdir. Ayniqsa, bolalarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish , ikkinchi til ( chet tili – ingliz tili ) ni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari , intilishlari nihoyatda beqiyosdir.

Bolalar tarbiyasining bu tomoni ham hozirgi kunning davlat va jamiyat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalardan biridir. Hurmatli yurtboshimiz SH.M. Mirziyoyev bu muammoni davr talabi asosida hal qilishga alohida e'tibor berib, ta'limni sifatli tashkil etishni , ya'ni chet tilini o'zlashtirishga oid turli tadbirlar, tilni bilish va uni o'zlashtirishda innovatsion yondashuvlar yangicha metod va usullar shakllarini ishlab chiqish, tiklash, targ'ib qilish, hayotga tadbiq etish , ayniqsa bu borada yosh davrlarga xos ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish , qo'shimcha ma'lumotlar to'plash va yig'ish , ularni boyitish va shu manbalar asosida bolalar va yoshlar o'ratsida keng ta'limiy –tarbiyaviy tashviqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan biri ekanligi haqidagi fikrni ilgari surmoqdalar.


Aslida bu , xalq qadriyatlariga daxldor bo'lib, manbalarni yig'ish , boyitish va uni bolalarga , yoshlarga taqdim etish barkamol avlodni tarbiyalash yo'lidagi asosiy va zaruriy vazifalardan bir hisoblanadi.

Shu tufayli Prezidentimiz 2012. 10 dekabrda PQ-1875 sonli “Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish” bo'yicha chiqargan qarori bu sohani rivojlanishi va takomillashishiga dasturamal bo'lib kelmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan chet tilini o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar, darslar, tadbirlar, ekskursiya va sayohatlarni tashkil etish jarayonlari hamda ularni ijtimoiy –pedagogik jihatdan asoslash , sinov tajribalarining eng yetuk va zarur bo'lgan natijalarini hayotga amaliy taqbiq etish, qo'llash masalalari bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tiliga o'rgatishda eng avvalo bolalarning yosh xususiyatlari albatta hisobga olinadi .

## MAKTABGACHA YOSH DAVRLARI



Maktabga tayyorlov guruhida “Ilk qadam” davlat o’quv dasturida berilgan mashg’ulotlar jadvali asosida Ikkinchi til (Inliz tili) haftada 1 marta o’tkaziladi . Mashg’ulotni oily ma’lumotli mutaxassis o’qituvchi olib boradi.

Masalan: “Ilk qadam” davlat o’quv dastur asosida maktabgacha yoshdagi 5 yoshli bolalarda quyidagi mavzularda mashg’ulotlarni o’tish mumkin.

Mavzu: *Greetings-Tanishuv.*

Yangi so'zlar: *Good morning! Good bye! One, two, yes, no. Mashg'ulotlarda ishlatiladigan iboralar:*

Good morning children! - Good morning, good morning, good morning to you! How are you?  
- O'Key.

What is your name? - My name is... i

Where do you live? -I live in Gulistan.

Are you Aziz? - Yes / No.

Good bye children!

Stand up!

Sit down!

Come here!

Look at me!



*Ashula: "Do everything together"*

Clap, clap, clap your hands,

Clap your hands together. Stemp, stemp, stemp your feet, marta

Stemp your feet together. Nod, nod, nod your head, Nod your head together.

Dance, dance, dance a dance, 2 marta Dance a dance together.

*Jismoniy tanaffus:*

Hands up clap, clap, clap. Hands down shake, shake, shake. Hands on hips! One, two, three hop! One, two, three stop!

*"Day and night" o'yinini tashkil etish:* Bolalar xonaning o'rtasiga turadilar. Olib boruvchi "Day" desa ular o'ynab, sakrab, yugurib yuradilar, lekin olib boruvchi "Night" desa ular jim bo'lib, qimirlamay turishadi. Joyidan qimiriagan bola o'yinni tark etadi.

Har bir mavzuda o'tilgan yangi so'z va iboralarni, albatta o'zbek tilidagi tarjimasi bilan bolalarni tanishtirib borishlari lozim. Yilning oxiriga kelib esa ular bir nechta so'z va iboralar, she'r, o'yin, ashulalarni yod olgan bo'lishlari lozim.

Mahg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi adabiyotlar jamlanmasidan o'rinli foydalanish lozim.

1. «Английский язык игровой курс для детей» А.П.Васильевич .Дубна

2002 г

2. "English rhymes for children" В. А. Верхогляд. Москва 2000 г.

3. "Merry English songs and scenarios of holidays" С.В. Арапова Т.:1996 г.

4. "Merry English music book".

Xulosa tariqasida aytish joizki, bolalarni ikkinchi til ( chet tili - ingliz tili) ga o'rgatish va ularni nutq malakasini rivojlantirish yo'lida katta ishlar olib borilib, maqsadga yetishishda kutilayotgan samaralarga erishilmoqda.

Sh sababali chet tili sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlash ularni malakasini oshirish, amaldagi mutaxassis kadrlarning ilmiy-pedagogik mahoratlari, salohiyatlarini yanada yuqori pog'onlarga ko'tarish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini tarmoqlariga jiddiy e'tibor berishga to'g'ri keladi. Eng muhim masala samarali yakunlangan, hayotga zarur bo'lgan amaliy faoliyatlarda qo'llashga zarur, qulay bo'lgan tadqiqot

natijalariga barcha tizimdagi , shu jumladan maktabgacha ta'lim tizimlari ijodiy yondashgan holda ish yuritishlari lozim.

### **Adabiyotlar.**

1. Agzamova D. English teaching methodology . "Barkamol fayz mediya nashri. Toshkent. 2016
2. Ingliz tili dasturi ( maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun) Toshkent. 2018
3. English language teaching methodology. "Fan va texnologiya nashri Toshkent 2015 y
4. "Merry English songs and scenarios of holidays" C.B. Арапова Т.: 1996 г.
5. " Ilk qadam " davlat o'quv dasturi Toshkent 2018 yil

## **DEVIANT FE'L-ATVORLI BOLALAR VA O'SMIRLAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN NOQONUNIY XATTI-HARAKATLARNING IJTIMOIY ILDIZLARI**

*Z.A. Ro`ziboyeva TDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti o`qituvchisi*

Kuzatishlarga qaraganda, keyingi yillarda oilalarda turli xil sabablarga ko'ra, xususan kishilarda kundalik turmush tashvishlariga barham berish, qiyinchiliklarni yengib o'tish va kelajakka nisbatan yangicha qarash layoqatining yetishmasligi va shu kabilar oilada farzandlar tarbiyasiga e'tiborning biroz susayishiga sabab bo'lib, ota-onalar farzandlari bilan kam muloqotda bo'lishiga to'g'ri kelmoqda. Shaxsning ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamolligi ijtimoiy turmushda vujudga kelgan turli xil nizoli vaziyatlardan chiqib ketishiga yordam beradi. Ma'naviy-ahloqiy jihatdan sust rivojlanganlik va shaxsdagi o'ziga xos xususiyatlar (o'zgaruvchan xarakterlilik, qo'zg'aluvchanlik, beqarorlik, hissiyotga beriluvchanlik, tobelik, jur'atsizlik va boshqalar) esa bolalar va o'smirlarda deviant hulqning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ota-onalarning oilada farzandlari bilan qilayotgan muomala va munosabatlari ko'rinishlari bolalar va o'smirlarda hulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Oilada qahr-g'azab asosidagi ota-ona munosabati bolalarni uydan bezdiradi. Uydan bezish, oila muhitini tan olmaslik o'smirlarda oilaviy muhitga nisbatan deformatsiyalashuvni keltirib chiqaradi. Natijada o'smir oiladan tashqari ko'cha muhitini o'ziga ma'qul ko'radi. Ko'cha muhiti esa ba'zan kriminal mazmunga ega bo'lishi mumkin. Natijada noahloqiy va g'ayriqonuniy hulq-atvor muhitiga tushib

qolgan o'smirda hulq og'ishining kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ota-onalarning qahr-g'azab asosidagi munosabati bolalar va o'smirlarda salbiy xarakter xislatlarining xususan, qo'rqqoqlik, tobelik, asabiylik, hissiyotlarga beriluvchanlik va mustaqil tafakkurning sustligi kabilarning shakllanishiga olib keladi. Qo'rqqoq, tobe bolalar va o'smirlardagi asabiylik, qo'zg'aluvchanlik va hissiyotlarga beriluvchanlik vaziyatlarning chigallashuviga, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish yo'llarini noto'g'ri qo'llashga olib keladi. Ota-onalarning farzandlari hayoti va faoliyati bilan qiziqmasliklari, ularni nazoratsiz qoldirishlari ham o'smirni g'ayriqonuniy hulq-atvoriga olib keladi. Shuning uchun ota-onalar farzandlarining ayniqsa, o'smirlik yoshi davridagi faoliyatlarini, bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanayotganliklarini domiy ravishda nazorat qilib borishlari maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmaganlarda deviant fe'l-atvorning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi oilaviy tarbiyaga bog'liq bo'lgan omillardan yana biri oilaviy tarbiyada o'ta qattiqqo'llik, avtoritar yondashuv, bolalarning fikr va qarashlarini inobatga olmaslikdir.

Bugungi kunda o'zbek oilalarida mavjud bo'lgan tarbiyadagi nuqsonlardan yana biri ota-onalarning cheklash, rad etish, taqiqlash, ruxsat etmaslik asosidagi tarbiyalash usulidir. Bu xildagi tarbiya usulida bolalarning irodasi, xohish-istagi, o'y-hayollari, orzu va intilishlari, fikr va mulohazalari inobatga olinmaydi. Shuningdek, bunday tarbiya usulida bolalarga o'z fikr mulohazalarini ochiqcha bayon etish, mustaqil qarorlarga kelish va muayyan vaziyatlarga o'z nuqtai nazarini bildirish imkoniyati cheklanadi. Bolaning tafakkuri, qiziqishi, erkinligini hurmat qilmaslik mustaqil fikr yuritish qobiliyatining sust rivojlanishi, tortinchoqlik, o'z fikr-mulohazalarini bayon eta olmaslik, tobelik, qo'rqqoqlik va jur'atsizlik kabi salbiy xislatlarni keltirib chiqaradi. Jur'atsiz, tobe, tortinchoq bolada faollik va o'z-o'ziga ishonch hissi yetishmaydi. Shuningdek, ularda nutqning sust rivojlanishi holati ham kuzatiladi. Bunday bolalar butun umr davomida birovlariga tobe bo'lib yashaydilar. Ularda rahbarlik, boshqaruvchanlik qobiliyatlari o'ta past rivojlangan bo'ladi. Hozirda o'zbek oilalarida berilayotgan tarbiya nuqsonlaridan yana biri oilaviy tarbiyada milliy

qadriyatlarimizdan, ya'ni mifologiya, ertak, maqol, rivoyat va hadis ilmidan yetarlicha foydalanilmayotganligidir.<sup>50</sup>

Bolalar va o'smirlarda hulq og'ishining oldini olishning muhim shartlaridan biri tarbiyaviy jarayonda ta'lim muassasasi va oila hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Ko'pincha oila va muassasa hamkorligi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o'smirlar tarbiyasini, ayniqsa, ular hulqidagi o'zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi. Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshga oid va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat eng nozik davr hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlik davrini o'tish davri, deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. Yoshlar bilan individual munosabatda ularning qanchalik emotsionalligi, hissiyotga beriluvchanligini, affektga moyil yoki moyil emasligini, o'z hissiyotini tuta olisholmasligini va shuningdek, unda qanday hislar ustun ekanligini bilish juda muhimdir. Kattalar har bir bolaning qanchalik to'g'riso'zligini, mehnatsevarligini, vijdonliligini, do'stlik va hamkorlikni qanchalik his qilishini kuzatib, bilib borishi zarur. Salbiy ahloqiy sifatlarga ega bo'lgan yoshlarda tajanglik, qo'pollik, yolg'onchilik, bezorilik, egoizm, qaysarlik, o'jarlik, intizomsizlik, qoidalarga rioya qilmaslik, o'zbilarmonchilik kabilar kuzatiladi va bunday xislatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda individual yondashuv lozim. Chunki ular jamoa yoki ko'pchilik orasida o'zlarining ayblarini oshkor bo'lishini yoki tarbiya, tanbeh berayotgan kishining nasihat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar, ular bilan muomalada nihoyatda ehtiyotkorlik, samimiylilik, do'stona munosabatda bo'lish talab qilinadi. Yoshlar bilan ishlashda ularning xarakteri, qiziqishlari, shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim. Ko'p nasihat qilmaslik, urishmaslik, ovozini baland ko'tarmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiq. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna, oila va muassasadagi kishilarning ishga ijobiy munosabatigina yoshlarda shunday bo'lishga havas tug'diradi. O'smirlarning xatti-

---

<sup>50</sup> Norbek Tayloqov Voyaga yetmaganlar o'rtasida suitsid holatlarning oldini olish. Metodik qo'llanma –T.: «Kamalak» nashriyoti Toshkent - 2017

harakatlarini ijobiy yo‘nalishga burib yuborish uchun ularda mas’uliyat, g‘urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularni o‘zlari qiziqqan to‘garaklarga jalb qilish yaxshi natijalar beradi. Eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Ularning qo‘lidan keladigan ishlarga e‘tiborli bo‘lib, uni bajarganidan keyin rag‘batlantirish, uni ishni yana ham yaxshi bajarishda o‘z fikrlarini bayon qilish ham muhimdir. Yoshlarni be‘mani hordiq chiqarish va ko‘cha-ko‘yda maqsadsiz yurishlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Buning uchun maktab, mahalla, jamoatchilik va oila hamkorligini mustahkamlash, bolalarni iloji boricha maktabdan tashqari muassasalarga jalb etish chora-tadbirlarini qo‘llash kerak. Ushbu jarayonlarda mahalla faollari, ta‘lim muassasasi psixologlari, pedagoglar va keng jamoatchilikning ishtirok etishini ta‘minlash kerak. Ta‘lim muassasasida pedagog-psixologlar bilan hamkorlikda o‘quvchilarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni rivojlantirish, ularda o‘ziga ishonch, o‘z hulqini yaxshilash motivlarini quyidagi yo‘nalishlarda shakllantirishlari zarur:

- bolalarni o‘z hulq-atvorini o‘zi baholashga o‘rgatish;
- o‘quvchilarning ijobiy xatti-harakat qilishlarini muntazam nazoratga olish va ularga ishonish;
- oilada, muassasada bolalarning oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag‘batlantirish;
- tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash;
- o‘quvchilarga individual yondashuv har biriga aniq maxsus pedagogik ta‘sir o‘tkazish;
- tarbiyaviy ta‘sirning bolani har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirish;
- darsdan tashqari faoliyatlarda bolalarga mustaqil faoliyat (o‘qish, o‘yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish;
- har bir bola uchun ularni aqlan hamda ahloqan rivojlanishiga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish;
- ota-onalar bilan ishlash jarayonida xududiy “Oila markaz”lari, mahalla fuqarolar yig‘ini va shifokorlar bilan hamkorlik qilish.

### **Adabiyotlar:**

1. Axmedova M.T. Pedagogik konfliktologiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, Adabiyot uchqunlari, 2017. - 319 b.
2. Kudryavsev V.N. Yuridicheskaya konfliktologiya. Sentr konfliktologicheskix issledovaniy. –M.: 1995.

## **BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISHIDA TA’LIM VA TARBIYANING ROLI**

*Tursunova Maftuna, Ashurova Ozoda, Hazratova Munisa*  
*TDPU “Maktabgacha ta’lim” fakulteti talabalari*

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallagan miqdor va sifat o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi.

Bolalarning rivojlanishi bu miqdor o‘zgarishlarigina bo‘lib qolmay, bu avvalo bola organizmini va ruhiyatida tevarak-atrofdagi hayot tasirida yuzaga keluvchi sifat o‘zgarishlaridir. Tashqi ta’sir ichki jarayon bilan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi, masalan, bolaning yangi talabi bilan imkoniyati o‘rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshilik yoki nomutanosiblik uning rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Bizda doimo inson bolasining rivojlanishi, ta’lim-tarbiya olishi qaysi davr, qaysi yoshdan, qachondan boshlanadi mazmundagi savollar tug‘iladi. Aynan bu haqda turli –xil adabiyotlarda fikrlar keltirilgan va doimo bu kabi mulohazalar har bir davrda o‘z javobiga ega bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda maktabgacha ta’limning tubdan o‘zgarishi, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan bolalarning ko‘pchiligini maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ta’lim va tarbiya mana shu davrda bolalar ongida hosil bo‘ladi.

Maktabgacha yosh davri o‘z ichiga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda organizmning jadal rivojlanishi davom etadi. Umumiy o‘sish bilan bir qatorda to‘qima va organlarning tarkib topishi va funksional rivojlanishi sodir bo‘ladi. Nafas olish organlari, qon aylanish organlarining rivojlanishi, muskullar massasining ortishi muhim ahamiyatga ega. Miya og‘irligi 1110 g dan 1350 g gacha

ortadi. Katta yarim sharlar po'stloq qismining boshqaruv roli ortadi. Shartli reflekslar tarkib topish tezligi kuchayadi, 2-signallar tizimi intensiv rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlantirish jarayoni maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar tomonidan maktabgacha ta'limda bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limda bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida turli yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining ruhiy va jismoniy rivojlantirish uchun mashg'ulotlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, bolalar mana shu dastur asosida tarbiyalanadilar.

Bir so'z bilan aytganda bolalarning ruhiy rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning roli zamonaviy yondashuvlarga ko'ra maktabgacha ta'lim davriga to'g'ri kelmoqda. Shu o'rinda ta'lim va tarbiya so'zlariga alohida ta'rif bersak va ularning bir-biridan farqi nima, uzviyligini tahlil qilishimiz lozimdir.

Ta'lim - bolalarga bilimni tartibli bayon qilish jarayoni bo'lib, muayyan ko'nikma va malakalarni singdirish, ularning ongi va hulqiga ta'sir etish, aqlini, ongini, idrokni, dunyoqarashini, etiqodini va bilim faolligini rivojlantirishdir. [3]

Tarbiya – aniq maqsadga hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida tashkil etilib, shaxsni mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. [2]

Tarbiya bolaning «rivojlanish oldi zonasiga» qarab o'zgaradi, ya'ni bolada murakkabroq, mazmuvdagi bilimlarni o'zlashtirib olish imkoniyati paydo bo'lishiga qarab belgilanadi. Masalan, go'dak emaklashni o'zlashtirib olgandan keyin yurishga o'tishi, ayrim bo'g'inlarni aytishni o'rgangandan keyin faol nutqqa o'tishi, buyumlar bilan harakatlarni o'zlashtirib olgandan keyin o'yin, mehnat faoliyatining paydo bo'lishi va hokazo. [ 3]

Bolaga tarbiya berish jarayonida o'z-o'z o'zidan A. Avloniyning “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo momot, yo najot- yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidir” [1] deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda ta'sir qiladi. Bunda qulay samarali omillardan foydalaniladi, salbiy ta'sirlarning kuchini ma'lum darajada kamaytiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida kishi organizmi rivojlanadi hamda muhitni stixiyali ta'minlay olmaydigan narsalar ta'lim-tarbiya orqali o'rganiladi. Masalan, bola o'z ona tili atrofini o'rab olgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Ammo o'qish va yozishni maxsus ta'lim orqali o'rganadi. Ma'lum bilim, ko'nikma malakalar ta'lim-tarbiya jarayonida egallanadi.

Ta'lim bolaga turli bilim, tushuncha, malaka ko'nikmalarni bersa, tarbiya atrof-muxitda, jamiyatda o'zini qanday tutishni o'rgatadi. Bu ikkala jarayon uzviylikda bolaning ruhiy rivojlanishiga ta'sir qiladi.

“O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” da tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalari belgilab berilgan.

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqat, o‘qish, va yozish malakalari;
- bilish jarayonini rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish;

Aynan mana shu rivojlanish jarayonlari bolalardagi ta'lim-tarbiya jarayonlari qamrab oladi. Xususan 6-7 yosh bolalarda “jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish” rivojlanish sohasi bo‘yicha tasavvuridagi predmentlarni qo‘llari bilan (gul, qush, kapalak, qasr ko‘rsatash;) arqonlardan turli tugunlarni tugish; o‘yin faoliyati mobaynida mayda o‘yinchoqlar bilan o‘ynash ko‘nikmalari rivojlanida. Ijtimoiy- hissiy rivojlanish bo‘yicha bolalar o‘z hissiyotlarini nazorat qilishni, turli ijtimoiy vaziyatlarga emotsinol munosabat bildirishni, o‘z hissiy holatini izohlab berishni, o‘zgalarni hissiyotlarga qarab muammoli qilishni o‘rganadi. Mana shu ikki rivojlanish sohasining o‘zini tahlil qilsak bittasi ta'lim berish usuli bo‘lsa bittasi tarbiya usuli bo‘lib xizmat qiladi.



Bolalarga ta'lim –tarbiya berishda o'yin faoliyati alohida o'ringa egadir. Chunki borliqdagi barcha narsa va hodisalarni o'yin faoliyati orqali anglaydi va tushunadi. Barcha ijobiy-salbiy fazilatlar bolalarga o'yin orqali tushuntirilsa ularning olamiga kirib boriladi.

Bola o'zining ruhiy rivojlanishi jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat ko'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti–harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.

Ta'limning boshlang'inch nuqtasi maktabgacha ta'lim bola rivojlanishining asosi va zaminidir. Butun borliqda barcha tushunchalar, insoniy fazilatlar, bilimlar, qadriyatlar bolalikning ilk davrlarida shakllanadi, rivojlanadi, kelajak uchun qadamlar tashlanadi.

### **Adabiyotlar**

1. A.Avloniy “Turkiy guliston yohud ahloq” T: O'qituvchi. 1993
2. N.Kayumova “Maktabgacha pedagogika” TDPU nashriyoti T:2013
3. Sh.Shodmonova “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi” T:2008

## **ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ КРИЗИСА ТРЁХ ЛЕТ**

*Терехова Ольга Евгеньевна Старший преподаватель кафедры «Педагогика и психология дошкольного образования» ТГПУ имени Низами*

*Шокирова Зухра Одилжон кизи Студентка направления “Психология и педагогика дошкольного образования” факультета “Дошкольное образование” ТГПУ имени Низами*

Кризисный период – это новый этап, резкий скачок в психоэмоциональном развитии ребенка, появление у него новых понятий о жизни, навыков и особенностей поведения. Типичны и симптомы кризиса 3-х лет, которые индивидуальны у каждого малыша, но имеют и целый ряд общих черт. Из

послушного, спокойного и ласкового малыш превращается в капризного бунтаря. Он нарушает установленные правила, делает все наперекор маме или папе, устраивает истерики и всячески отстаивает свои права на самостоятельные действия. Иногда родители теряются – как себя вести с ребенком, что делать, если у него случилась истерика.

Первые признаки кризиса наступают не ровно в три года, у большинства малышей они могут проявиться в период от 2,5 до 4 лет. В зависимости от индивидуальных особенностей характера, методов воспитания и отношения родителей основные проявления могут продолжаться на протяжении от 2-4 месяцев до полутора лет и более.

Психологи не могут точно и однозначно назвать конкретные причины возникновения возрастных кризисов. Выделяются определенные влияющие причины кризиса 3-х лет и факторы, которые прослеживаются в тех или иных ситуациях: особенности темперамента ребенка; авторитарное воспитание – еще одна из причин серьезного кризиса дошкольного возраста; повышенная тревожность родителей и избыточная забота о малыше (гиперопека); проблемы со здоровьем; конфликты внутри семьи.

## **7 главных признаков явления**

### **1. Негативизм**

Это проявление нужно отличать от элементарного детского непослушания, которое случается в любом возрасте. Поведение непослушного ребёнка обусловлено его желаниями, которые не совпадают с родительскими требованиями. В случае негативизма малыши отказываются от собственных желаний, даже если они совпадают с требованиями или предложениями мамы или папы. То есть дети не хотят что-то делать лишь потому, что инициатива исходит от близкого взрослого.

### **2. Строптивость**

Строптивное поведение несколько напоминает негативизм, однако отличается обезличенностью, то есть оно направлено не на определённого члена семьи, а на привычный жизненный уклад.

Можно сказать, что таким способом ребенок протестует против всех предметов и порядков, которые его окружают.

### **3. Упрямство**

Упрямое поведение не следует путать с настойчивостью. В первом случае ребёнок стоит на своём только потому, что прежде уже потребовал этого. Настойчивость же – проявление воли, позволяющее детям достигать желанной цели.

### **4. Деспотизм**

Ребенок стремится всеми способами заставить родителей сделать то, что ему нужно, пусть даже это будет сиюминутное желание. То есть детский деспотизм можно назвать своеобразным стремлением к власти над матерью или отцом.

### **5. Обесценивание**

В 3 года дети нередко перестают ценить всё, что прежде представлялось им очень важным. Причём относится это как к близким людям, так и к неодушевлённым предметам и правилам поведения. Прежде, казалось бы, воспитанный ребёнок начинает бросать любимые машинки, отрывать куклам руки, вырывать страницы из книжек, больно дёргать кота за хвост.

### **6. Своеволие**

Дети 3-летнего возраста стремятся к максимальной самостоятельности, неудивительно, что этот период ещё называется кризис идентичности «Я сам». Малыш пытается обойтись своими силами, вне зависимости от ситуации и собственных ограниченных возможностей.

### **7. Бунт (протест)**

Протестное поведение – это реакция ребёнка на давление со стороны значимых взрослых, которые требуют завтракать в одно и то же время, не кричать на улице, не ломать игрушки и т.д.

Когда заканчивается кризис трех лет, психика ребенка выходит на новый уровень развития.

Согласно теории Л.С.Выготского и А.А. Леонтьева, у малыша меняются следующие сферы жизни:

Ведущая деятельность – это деятельность, внутри которой появляются и дифференцируются другие формы деятельности, перестраиваются частные психические процессы и возникают личностные новообразования. После кризиса у малыша возникает совершенно новая ведущая деятельность – сюжетно-ролевая игра, в которой он начинает познавать мир отношений между людьми.

Социальная ситуация развития – это система социальных условий, которые влияют на внутреннее развитие ребенка. После кризиса у ребенка на первый план постепенно выходит общение со сверстниками, взрослый становится примером для подражания в сюжетно-ролевых играх.

Возникают личностные новообразования. После кризиса трех лет у ребенка появляются самосознание, гордость за свои достижения, самостоятельность.

#### **Литература:**

1. <https://lifemotivation.online/psychology/child-psy/voznastnye-krizisy/3-let/krizis-3-let-u-rebenka>
2. Психология развития / Под ред. Т. Д. Марцинковской. -- М.: Академия, 2005.

## **INTELLEKTIDA NUQSONI BO‘LGAN KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLARNING O‘ZIGA XOSLIGI**

**A.Utebayeva** Nizomiy nomidagi TDPU

Psixologik korreksiya – bolaning to‘laqonli rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida ma’lum psixologik tizimlarga yo‘naltirilgan ta’sir. Bu insonning ichki olamiga ta’sir etish bo‘lib, bunda psixolog bolaning aniq istaklari, kechinmalari, bilish jarayonlari va harakatlarning aniq namoyon bo‘lishi bilan ish yuritadi.

Psixologik korreksiya davomida turli ish shakllari olib boriladi:

1.O‘yin terapiyasi. U nafaqat korreksion maqsadda, balki profilaktik hamda psixogigiyenik maqsadlarda qo‘llaniladi. O‘yin terapiyasining yakka va guruhli shakllari mavjud. Agarda bolada muloqot etishda muammolar bo‘lsa, u holatda guruhli terapiya, yakka terapiyaga qaraganda foydaliroq.

O‘yin terapiyasida turli o‘yin materiallari qo‘llaniladi: “oila” o‘yini, qo‘g‘irchoqlar bilan o‘ynash, qurish o‘yinlari, o‘yin-mashqlar.

2. Artterapiya – psixoterapiyaning maxsus shakli bo‘lib, u san‘atga - tasviriy va ijodiy faoliyatga asoslangan. Uning maqsadi – bolaning o‘z fikri, dunyoqarashini, o‘z-o‘zini bilishini san‘at orqali rivojlantirish.

Artterapiya psixologning bolalar bilan ramziy darajada muloqot etish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Badiiy ijod timsollari barcha ong osti jarayonlarni, jumladan qo‘rquv, ichki nizolar, xotiralar, tushlarni aks ettiradi. Artterapiya usuli ichki “MEN” hissiga asoslanib, inson chizayotganida, qurayotganida (spontan) ko‘ruv obrazlarida aks etadi.

Artterapiya o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar joyi shunday bo‘lishi kerakki, bunda bolalar shovqin qila olishlari, bemalol harakatlana olishlari mumkin bo‘lib, psixolog esa ular faoliyat jarayonlariga aralashmaydi.

3. Guruhli psixoterapiya. Guruhli psixoterapiya S.Slavsens tomonidan taklif etilgan bo‘lib, uning fikricha bu yerda bolaning faolligi qanday sharoitlarda namoyon bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshda bola intellektual rivojlanishini korreksiyalash sensor imkoniyatlarni idrok etish, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur va belgi-ramziy funksiyani, ixtiyoriy diqqat va xotiranining boshlang‘ich shakllarini rivojlantirish vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Erta boshlangan korreksion ish aqliy rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etishda hal qiluvchi rolni o‘ynab, u bola rivojlanishidagi ikkilamchi nuqsonlarning kelib chiqishining oldini olish imkonini beradi. Asosiy korreksion vazifa ilk va maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda topshiriqni bajarish davomida mo‘ljall olishning qidiruv usullarini shakllantirish, buning asosida esa, predmetlarning sifat va munosabatlariga qiziqishni uyg‘otishdan iborat. O‘yin va mashqlar bolalarda predmetlarning sifat va

munosabatlariga diqqatni rivojlantiradi, to‘laqonli idrokni shakllantiradi. Nutqni muloqot jarayoniga to‘g‘ri va o‘z vaqtida kiritish uchun, predmet, uning sifati, xususiyati bilan tanishtirishning ilk bosqichlarida bolani ushbu sifatlarni boshqa predmetlardan ajratish, ularni taniy olish va idrok etishga o‘rgatish, shundan keyingina so‘zni namuna sifatida berish kerak. Korreksion ishda taktil-harakat idrokini rivojlantirish muhim bo‘lib, u ham anglashdan boshlanib, tasavvurlarning shakllanishi bilan yakunlanadi. Eshituv idrokining rivojlanganligi ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, u aqli zaif bolaga uni o‘rab turgan atrof-olamda mo‘ljol olishga ko‘maklashib, tovush signali asosida harakatlanish, ko‘pgina muhim obyektlarni farqlash va b. imkonini yaratadi. Idrokning to‘laqonli to‘g‘ri rivojlanishi sabab tafakkurining ba’zi jihatlarini ham rivojlantiradi. Bola predmetni uning qismlari bilan birgalikda to‘g‘ri tasavvur etsa, u butunning buzilish sababini anglab yetishi mumkin. Idrokdan tafakkurgacha bo‘lgan yo‘l ko‘rgazmali-obrazli va mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga ta’sir etadi. Tafakkurning barcha turlarini shakllantirishga doir ishning to‘g‘ri va o‘z vaqtida tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega, chunki intellektning buzilishi mazkur bolalar rivojlanishidagi asosiy nuqson hisoblanadi. Aqli zaif bolalar korreksiyasining asosiy yo‘nalishlari va vazifalari:

1. Kattalar bilan emotsional munosabatni, ular bilan hamkorlik etishga yo‘naltirilganlikni shakllantirish, bolani ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish usullariga o‘rgatish, kattalar bilan emotsional muloqot etishni va elementar ko‘rsatmalarni bajarishni shakllantirish, diqqatni, taqlid etishni, namuna asosida harakatlarni o‘zlashtirishni rivojlantirish.

2. Yozuvga tayyorlash, mehnatga doir topshiriqlarni bajarish maqsadida qo‘llarning ko‘ruv-harakat koordinatsiyasini rivojlantirish, ushlab olishni rivojlantirish, o‘zaro bog‘langan harakatlarni, qo‘llar harakatiga taqlid etishni rivojlantirish, barmoqlar harakatini rivojlantirish, qo‘l panjasi harakatini rivojlantirish.

3. Sensor rivojlanish. Shakl, hajm, rangni idrok etishni shakllantirish, predmetning to‘laqonli obrazini, atrof-olamni idrok etish va unda mo‘ljol olishni shakllantirish, taktil-harakat idrokini rivojlantirish, eshituv idrokini rivojlantirish, nutqiy va nutqiy bo‘lmagan eshituvni rivojlantirish.

4. Tafakkurni rivojlantirish, idrok etishdan tafakkur etishga o'tish, idrok etishdan ko'rgazmali-obrazli va mantiqiy tafakkur elementlariga o'tish, sabab tafakkur elementlarini, ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish.

5. Nutqiy rivojlanish. Nutqiy muloqotni rivojlantirish (ishchi elementar muloqotni), nutqning bilish funksiyalarini rivojlantirish (so'z ma'nosini kengaytirish, aniqlashtirish va umumlashtirish).

### **Adabiyotlar**

1. Mo'minova.L.R. Rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar Toshkent-2020 y

2. Shomaxmudova.R.Sh Alhida extiyojli bolalarni oilada tarbiyalash usullari Toshkent-2016y

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HULQ-ATVORINI KORREKSIYALASHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR**

*Choriyeva Durdona Anvarovna* TDPU "Maktabgacha ta'lim"  
fakulteti PhD,v.v.b., dotsenti,

**B.Axtamov** Maktabgacha ta'lim psixologiya va pedagogika yo'nalishi talabasi

Hozirgi rivojlanib kelayotgan zamon har bitta insonning ham moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga ta'sir etib kelmoqda. Ularning ta'sir etishi ham katta yoshdagi insonlarga va kelajak avlodlariga ham ta'sirlari mavjud. Hayotning globallashuvi insoniyatga ijobiy ta'sir etayotga bu biz va sizni yanada hayotga bo'lgan motivimizni oshirib uni barqarorlashuvigaa olib kelmoqda. XIII asrlarda san'atda bolalarning sur'atlari chizilamagan va ularning tashqi ko'rinishi u qanaday odam ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilmagan. U zamonlarda bolalarga inson sifatida ham qaralmagan, bolalarni tabiatning ma'lum bir davridagi odamning hayoti deb uncha ko'p bolalarga e'tibor ham berilmagan. Kattalar yosh bolalarga befarq va ularga nisbatan ahamiyatsiz bo'lganlar. Bundan bilishimiz mumkunki, bolalik davriga bo'lgan odamlarni qiziqishi paydo bo'lgan. Bundan boshlab bolalarga bo'lgan e'tiborning paydo bo'lishi va ularning hulq- atvorlari, kiyinishi, o'zining tushishi, etika va estetika talablarini nafaqat katta yoshdagi odamlar balki bunday ahloqiy va ma'naviy sifatlarni ham bolalarda shakillantirish ko'zda tutilgan. Asta sekin ko'plab tadqiqotlar natijasida ko'plab

olimlar bolalarning ruhiyatiga va ularning fiziologik jihatlariga ahamiyat bera boshlaganlar. Shunday qilib bolalarning psixologiyasi ham va ularning yoshi o'tgan sari barqarorlashuv ro'y berayotganini o'rganishgan.

Hozirgi kunda bolalarning shaxsiy intellektual va estetik jihatlarni bir maromda rivojlantirishni olib borish ko'zda tutilgan. Bolalarni yoshlikdan ularning ma'naviy sifatlarni shakillantirsak, o'zlarini o'rab turgan atrof muhitga nisbat layoqatlari ham rivojlanib boradi. Ikki olamda ham odamga kerakli va foydali narsa yaxshi fe'l va xush hulqdir. Tadqiqot metodlarning xulosalariga ko'ra, bolaning shaxsiy-ahloqiy madaniyatining rivojlanishi nafaqat biror mashg'ulotlar natijasida shakillanib boradi, balki kundalik hayotida tengdoshlari bilan muloqotda bo'lganida ham shakillanib borishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ichki shaxsiy hislatlari ularning erkin holatida rivojlana boshlaydi. Erkinlik muhiti bu uy yoki o'zining qardoshlar orasidagi muhiti hisoblanadi, ya'ni bolada ahloqiy va insonparvarlik hislatlarini nomoyon etilishi muhitga ham bog'liqligiga amin bo'lamiz. Madaniy va ma'rifiy jihatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy ahloqiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunday jihat insonning insonga nisbatan insonparvarlik hissiyotlarning rivojlantirishiga va ular bilan erkin muloqotda bo'lishga zamin yaratadi. Eng asosiysi bunday faoliyat jarayoniga yangicha yo'dashish ta'lab etiladi. Hozirgi kunda aynan yosh avlodlarning ahloqiy va insonparvarlik jihatlarini shakillantirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Negaki, yosh bola o'ta qiziquvchang va har narsani ongli taraftan qabul qiladigan bo'ladi. Ular xuddi oppoq qog'oz singari beg'ubor bo'ladi. Shuning uchun ham ularning ayanan yoshligidan shunday beg'ubor hislatlarga o'rgatish va ularda shunday jihatlarni shakillantirish siz-u bizning oldimizga qo'ygan eng asosiy maqsadlarimizga aylanib kelmoqda. Qanchalik biz kelajak avlodlariga ahamiyatli bo'lsak, hozirgi kundan boshlab bizning kelajak avlodlarimiz ham ahloqiy jihatdan, ham manaviy jihatdan va ko'plab insonga xos bo'lgan ijobiy hislatlar unda namoyon bo'lib boraveradi.

Shaxsning irodasi- ichki va tashqi qiyinchiliklarga va atrofdagi bo'layotgan hatti-harakatlarga ruhiy jihatdan aks etish ta'siri, shakli deb tushuniladi, vazminligi, insonparvarlik xususiyatidagi manaviy sifatlari uning ichki madaniyati, haqqo'yliqi,



do'stonligi, samimiyligi, hayotdan mamnunligini, muloyimligini, qadr-qimmatini aks ettiradi. Shunday barcha hisslarning shakillanish hulqi tengdoshlarning atrof muhitning salbiy hulqlariga qarama-qarshi chiqa olsa, bunday bolada ijobiy insonlarga xos hulq-atvorlarining shakillanib borayotganidan xulasa chiqra olamiz. Insonda har qanday hisslarni shakillantirish uchun o'z-o'zini yaratish imkoniyatiga ega emas. Inson o'zida yaxshi va yomon jihatlarni yaratishi uchun unga faoliyat ta'sir etishi lozim. Faoliyatsiz xech qanday maqsadga erishib bo'lmaydi.

Shaxsning irodasi -ichki va tashqi muhitning ma'naviy va fiziologik ta'sirlariga, atrof-muhitdagi bo'layotgan hatti-harakatlarga nisbatan ruhiy ta'sir jarayoni hisobladani. Aynan bolalarda irodaviy hislatlar shakillanib borishi kerak va zarur. Chunki, o'ziga bo'lgan ishonch va tashabuskorlik hislatlari ham bolada ijobiy harakterlarning vujudga kelishiga olib keladi. Bolalarda bunday hisslarning shakillanishiga ularga qulay va erkin muhit yaratish kerak. Mashg'ulotar davomida bolalarga ishonch bildirishimiz ularda iroda va shijoatning ilk kurtaklarni namoyom etishga yordam beradi. Bizning so'zlarimiz va bizlarning ularga nisbatan bo'lgan hatti-harakatimiz ham ularda ahloqiy hisslarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bolalarga namuna, suhbat, ko'rgazmali vositalar orqali ulardagi axlqosizlik jihatlari odob va tarbiyaviy jihatlarga o'zgartirishimiz hamda, tarbiya bilan birgalikda intellektual layoqatlarini ham oshirishimiz mumkin. Agar ota-onalar bolalarni musiqa o'rganishga majbur qilsalar, butun harakatlari bola yeg'lashi va asabiylashishi bilan tugaydi. Doktor Suzukining fikriga ko'ra, majburlash – o'qitishning eng yomon yo'li deb hisoblaydi. O'rganilayotgan fanga bolada qiziqish uyg'otish – bu eng yaxshi pedagogik usuldir. Shuning uchun ota-onalarning asosiy vazifasi bolaga o'rgatishni istagan narsaga uni qiziqtirishdir. Haqiqatdan ham bolaga birinchi navbatda ota-onasi biror narsaga qiziqish uygo'tishlari kerak, chunki birinchi tarbiya va ta'lim oiladan boshlanadi. Agar biz bolalarga u yoqtirmagan mashg'ulotiga jalb qilsak, unda shu mashg'ulotga nisbatan nafrat tuyg'usi paydo bo'ldi. Bolalar o'sha jarayonni kuzatishga yo'l ochib bersak, ular shuni ko'rib unga nisbatan qiziqishlari paydo bo'la boshlaydi. Bolalarda ko'proq san'at ma'daniyatini oshirsak ungadgi barcha ijobiy hulq-atvorlar shakillanib boradi. Masalan, birorta bolaga musiqa eshitish yoqmaydi. Unga

shu musiqani mayin ovozda , yoqimli kuy asboblaridan namoyon bo'lgan kuylarni eshtirib ko'rsak yoki bolajoncha o'zining yoshiga mos bo'lgan musiqalarni kuylasak birgalikda shundagina bolada musiqaga mehrni uyg'otgan bo'lamiz. Bola yozishni yoqtirmaydi deylik, bolaga harflarni ko'rinishini, ularning yozilish jarayoniga qiziqtirish kerak. Biror bir narsaga o'rgatayotganimizda bolalarni oldin shu narsaga qiziqtirib so'ng, o'sha jarayonni o'rgatishimiz joiz hisoblanadi.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI SENSOR TARBIYALASH YO'LLARI**

**M.S.Yusupova** Nizomiy nomidagi TDPU 1-bosqich magistri

Ma'lumki, idrok qilish sezish natijasida aqliy harakatlar narsa va hodisalarning xususiyatlarini analiz hamda sintez qilish, umumlashtirish va abstraksiyalash protsessi yuzaga keladi bu esa bilish faoliyatining zarur sharti hisoblanadi.

Sensor harakatlarning rivojlanishi darajasi bolaning qobiliyatlari shakllanayotganida hamda muayan bilimlarini va ayrim amaliy ko'nikmalarini egallash jarayonida va ayniqsa nutqini rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bolada shakl va bo'yoqlarni idrok qilish qobiliyati rivojlangan bo'lsa, u tevarak atrofdagi narsalarning xossalarini har tomonlama ko'ra biladi, his qila oladi va nutqida qo'llay oladi. Sensor protsessalari ayniqsa, ilk bolalikda alohida ahamiyatga ega bo'ladi chunki voqealikdagi narsa va hodisalarning shakli, katta-kichikligi, rangi va boshqa xossalarini to'g'ri va aniq idrok qilish qobiliyati ayni shu ilk va maktabgacha tarbiya yoshi davrida tez rivojlanadi.

His qilishning shakllanishi – bolalarda qabul qilish jarayonining shakllanishi va predmetlar, o'rab turgan atrof borliq haqida tasavvurlarni xosil bo'lishidir. Bola dunyoga kelganda xis qilish tuyg'ulari shakllanib bo'lgan bo'ladi. Lekin ularning normal funksiyasini atrof – borliqni qabul qilishlari ta'minlab beradi.

His etish jarayoni to'g'ri shakllanishi uchun, maqsadga yo'naltirilgan xissiy tarbiya zarur va muhimdir. Bolaga ko'rishni, barmoqlar bilan paypaslashni, obektlarni eshitishni o'rgatish kerak, ya'ni unda qabul qilish harakatlarini shakllantirish kerak.

Lekin predmetni tekshirish, ko‘rish, paypaslash yetarli emas. Bunda predmetni bir qancha belgilarini aniqlash bilan birga, ularni boshqa predmetlar bilan belgilarning munosabatlarini aniqlash zarurdir. Buning uchun bolaga kerakli o‘lchovlarni berish kerak, bunla bola nimani qabul qilayotganligini biladi. Bu xis qilishning asosiy tushunchalari bo‘lib, tarixiy ko‘rinishga ega bo‘lib, qabul qilish jarayonida taqqoslashni ta‘minlab beradi. Ularga geometrik shakllarning tartiblari, kattaliklarning shkalalari, og‘irlik o‘lchovlari, yuqori tovushlar qatori, ranglar jilosi, ona tilining fonetik tarkibi kiradi. Yuqorida ko‘rsatilgan hamma tushunchalar bola tomonidan o‘z vaqtida egallangan bo‘lishi zarur. Qabul qilish jarayonida bola asta sekinlik bilan ko‘rish, eshitish, harakat, bilish obrazlarini orttirib boradi. Lekin bunda bola predmetlarning munosabati va belgilarini qabul qilish jarayonida, bu munosabatlar va belgilar so‘zlar bilan izohlangan bo‘lishi kerak. Bu esa predmetning obrazlari haqida tasavvurlarni mustahkamlaydi, ularni yana ham aniqlashtiradi. Agar qabul qilish obrazlari so‘zlar bilan mustahkamlangan bo‘lsa bir qancha vaqt o‘tishiga qaramay bola tasavvurlarida uyg‘otish mumkin. Buning uchun kerakli so‘zga javob beradigan – birikmani aytish kifoyadir.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni buyumlarning shakli, katta-kichikligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu xossalarni to‘g‘ri idrok qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qachalik to‘g‘ri hal qilinsa bolalarning faqat aqliy tarbiyasigina emas, balki estetik, jismoniy va xatto ahloqiy tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi, ya‘ni bola umuman samarali rivojlanib boradi.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda idrokning rivojlanishi orqada qolgan bo‘ladi. Shuning uchun birinchi, maxsus korreksion vazifa rivojlantirishni iloji boricha erta boshlashni ta‘minlashdir.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda idrokning rivojlanishini orqada qolishi bilan birgalikda idrokning sekin sur‘atda rivojlanishi kuzatiladi. Demak, ikkinchi vazifa idrokning rivojlanish sur‘atini tezlashtirish jadallashtirishdir.

Nuqsonli rivojlanish – orqada qolish va turli buzilishlar bilan xarakterlanadi. Demak, bir holatda – korreksiyalash, boshqa holatda kompensatsiyalash ishlarini olib borish asosiy vazifalardandir.

Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda idrok va tasavvurlarni rivojlantirish samarali bo‘lishi uchun maxsus metodikalarni qo‘llash lozim.

Avvalo ta’limning og‘zaki va ko‘rgazmali metodlarini to‘g‘ri birgalikda qo‘llash zarur. Idrokni rivojlantirish bo‘yicha ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri predmetning butun obrazini hosil qilishdir. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalar predmetlarning alohida xususiyatlarinigina emas, balki predmetlarni bir butunligini ham, yetarlicha aniq, to‘g‘ri idrok qila olmaydilar. Ta’limning boshlanishida bolalar ko‘pincha kerakli predmetni boshqalari orasidan ajrata olmaydilar. Ajratish va predmetni butunligicha idrok etishga o‘rgatish ta’limning dastlabki davridanoq boshlanadi. Bunda diqqatni, predmetlar bilan harakat qilishga taqlid qilishni, eslab qolishni rivojlantirishga qaratilgan o‘yin va mashqlardan foydalaniladi. Bunday o‘yin va mashqlarda bolalar alohida predmetlarni ajratishga, ularning joylashishlarini kuzatishga boshqa predmetlar orasida ajratishga o‘rganadilar.

Predmetning butun obrazini hosil qilishga qismlardan shakllarni yig‘ish yordam beradi. Masalan, kartondan qirqilgan uychalarni qo‘ziqorinlarni yig‘iladigan mashina mamoletlarni yig‘ish. Butun obrazni shakllantirishda bolaning tasviriy faoliyati kata rol o‘ynaydi. (applikatsiya, rasm chizish, yasash). Ammo, shuni ta’kidlash lozimki bolaning idroki past darajada bo‘lganda tasviriy faoliyatning o‘zi ham hali shakllanmagan bo‘ladi va idrokning rivojlanishiga yordam bera olmaydi.

Idrokning va tasavvurlarning rivojlanishi faoliyatining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday bog‘lanish ikki tomonlama bo‘lib, bir tomondan har bir faoliyat idrokning ma’lum darajada rivojlanmaganligida shakllanadi. Boshqa tomondan esa idrokning o‘zi faoliyat jarayonida rivojlanadi. Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda maktabgacha tarbiya muassasalariga qabul qilinayotgan davrda idrok va tasavvurning yig‘ilgan (yo‘naltirilgan) obrazlari deyarli mavjud bo‘lmaydi.

## **Adabiyotlar**

1. Mo‘minova.L.R. Alohida extiyojga ega bo‘lgan bolalarga erta korreksion-rivojlantiruvchi yordam “Complex Print” nashriyoti Toshkent 2020 y
2. Mo‘minova.L.R. va boshqalar Rivojlanishida kamchiligi bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar “Matrix” Toshkent-2020

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI**

**M.U.Xamidova** Nizomiy nomidagi TDPU dotsent

Ma’lumki, dunyoni bilish asosida sezgilar va idrok yotadi. Ko‘rish, sezish, eshitish, kinesteziya, hid bilish, ta’lim bilish bolalarga atrofimizdagi voqelik haqida ma’lum tasavvurni hosil qilish imkonini beradi. Boshqa tomondan, idrok va sezgi kabi psixik jarayonlarni rivojlantirish bolaning intellektual rivojlanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshitiuvchi bolalarda barcha psixik jarayonlar, jumladan, tafakkur, xotira, idrok va sh.k. larning jadal rivojlanishi kuzatiladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘z tengdoshlaridan sezilarli darajada orqada qoladi. Shu bois maqsadli maxsus sistemali tarbiya talab qilinadi. Bola, kundalik hayotda jonli ishtirok etib, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilib, faol rivojlanadi. Uning nutqi, atrof olam haqidagi tasavvurlari shakllanadi. Maktab muassasasida kar va zaif eshituvchi bolalar bilan yakka ,frontal mashg‘ulot va darslar ularga yoshiga mos bilim va malakalarni egallash, maktab ta’limida tayyorgarlik ko‘rishda yordam beradi, shuningdek intellektual faoliyatni rivojlantiradi.

Didaktik o‘yin va o‘yinchoqlardan: geometrik loto, «sehrli qopcha», matreshka, piramidachalar va sh.k. dan keng foydalaniladi. Natijada, bolalar predmetlarni paypaslab ko‘rib farqlash, ularni tanib olish, qiyoslashga o‘rganadi. Mashg‘ulotlarda bola ma’lum sensor tajribani egallaydi va mustahkamlaydi, bu unga atrof olamga moslashish uchun zarur. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni sensor tarbiyalash, ayniqsa eshitib idrok qilishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Nutq va nutqiy bo‘lmagan tovushlarni farqlashga qaratilgan mashqlar o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlar

jarayonida bolada tovushlar olami haqida tasavvur hosil qilinadi, bu og‘zaki nutq rivojiga ijobiy ta’sir etadi.

Ko‘rgazmali-obrazli va ko‘rgazmali-amaliy fikrlash bolaning intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur so‘z-mantiqiy tafakkur rivoji uchun zarur. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bu borada sog‘lom tengdoshlaridan ancha orqada qoladi. Aynan shuning uchun ham bolalarning fikrlash faoliyatini shakllantirish nutqni rivojlantirish bilan birgalikda olib boriladi. Butun dastur materiali mavzudarga bo‘lingan va aqliy harakatlarni bosqichli rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Masalan, «Idish-tovoqlar» mavzusini o‘rganishda, bolalar dastlab idishlardan kundalik turmushda foydalanish bilan amaliy tanishadi. Keyin ular predmetlar va ularning ishlatilish usullarini o‘rganadi. Keyinchalik nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida predmetlarni tanib olish va ularga nomi yozilgan tablichkalarni biriktirish mashq qilinadi. Bola predmetni qo‘liga olishi, paypaslab ko‘rishi, boshqa joyga olib qo‘yishi, ya’ni predmet bilan ma’lum harakatlarni bajarishi mumkin. Bu predmetning nomini eslab qolishni tezlashtiradi. Nihoyat, «Qo‘g‘irchoqqa ovqat ber» tipidagi didaktik o‘yinlar, syujetli-rolli o‘yinlar o‘tkaziladi.

Tafakkurning ko‘rgazmali – amaliy shakli bolalarda turli predmetlar bilan manipulyatsiya jarayonida shakllantiriladi. Shu tariqa bola o‘zi uchun predmetlarning xossalarini kashf qiladi, dastlabki umumlashtirishlarni amalga oshiradi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar predmetlar tasnifini egallashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun mashg‘ulotlarda predmet yoki rasmlardan foydalangan holda, umumlashtiruvchi so‘zlar albatta aytiladigan didaktik o‘yinlar o‘tkaziladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni nutqiga erta o‘rgatish juda muhim. Meyorda rivojlanayotgan bola uchun nutqni egallash sensitiv davri uch yoshgacha davr bo‘lsa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolada orqada qolish kuzatiladi. Nutqning shakllanmaganligi intellektual rivojlanishning kechikishiga olib keladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqni egallashi uchun zarur shartlardan biri nutqiy muhit yaratish sanaladi. Bola egallashi zarur bo‘lgan nutqiy material o‘xshash vaziyatlarda kattalar tomonidan doimiy qo‘llanishi, natijada, bolalar tomonidan takrorlanishi kerak. Dastlab

soʻz va jumlar pedagog tomonidan maishiy faoliyat davomida beriladi. Keyinchalik shu soʻz va jumlar mashgʻulotlarda qoʻllaniladi.

Nutq rivojlanishi nafaqat mashgʻulotlar, balki turmushda, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida, shuningdek amaliy faoliyatda ham amalga oshadi. Bolalar nutqiy muhitga har biriga bevosita murojaat qilish yoʻli bilan kiritiladi. Bola ogʻzaki nutqida qoʻygan xatolar kattalar tomonidan albatta, daktil shaklda, toʻgʻrilanadi. Bu eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarga oʻz nutqini tahlil qilishda yordam beradi. Bolaning ogʻzaki nutqni egallashi asosida taqlid yotadi. Kattalarning ketidan aynan bir materialni turli vaziyatlarda koʻp bora takrorlab, bola uni eslab qoladi. Asta-sekinlik bilan faol qoʻllanadigan soʻzlar bolaning faol lugʻatiga kirib boradi. Bundan tashqari, bolalarda zarur nutqiy materialni ovoz chiqarib aytish koʻnikmasi paydo boʻlladi, nutqiy tafakkur rivojlanadi. Topshiriqlarni jamoa boʻlib bajarish, umumiy oʻyinlarda ishtirok etish davomida bolalar bir-biri bilan va pedagog bilan ogʻzaki nutq vositasida muloqot qilishi kerak. Buning uchun pedagog va tarbiyachi boladarni lisoniy muloqotga oʻrgatadi, zarur jumalarni shakllantiradi, lisoniy faollikni ragʻbatlantiradi. Masalan, navbatchilik paytida bolalarni savol berishga, oʻrtoqlariga topshiriqlar berish yoki yordam soʻrashga oʻrgatiladi. Mashgʻulotlarda lisoniy muloqotni talab qiladigan vaziyatlar yaratiladi yoki shunday oʻyinlar oʻynaladi.

Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarning ogʻzaki nutqi syujetli-rolli oʻyinlar davomida eng samarali tarzda rivojlanadi. Bu maqsadda nutqni rivojlantirish boʻyicha mashgʻulotlarda bolalarga tanish ertaklar sahnalashtiriladi, syujetli-rolli oʻyinlar tashkil qilinadi, bunda bolalar bir-biri bilan oʻz roliga muvofiq tarzda muloqot qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Korsunskaya .B.D. Razvitie rechi gluxix doshkolnikov –M.: 2000.
2. Korsunskaya .B.D. Chitayu sam Kniga dlya chteniya gluxix doshkolnikov.- M.1999

## **5- SHO`BA. “MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA CHET TILLARNI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH”.**

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINIDA NUTQINI SHAKLLANTIRISH KICHIK SAHNA SYUJETLARINI UYUSHTIRISHNING AHAMIYATI**

**Umirova Navruza Mamasoliyevna**

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Xaqaro ta’lim dasturlari fakulteti assistenti.

Prezidentimizning 2012 yil 10-dekabrda chiqargan “Chet tillarni o’qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori ishlab chiqilgandan buyon ingliz tili fanini o’qitishga yanada mas’uliyatli yondashgan holda turli pedagogik texnologiyalar, ilmiy-amaliy metodlar, darsliklar, adabiyotlar, o’quv qo’llanmalar foydalanish uchun ishlab chiqilib amalda foydalanib kelinmoqda.

Bundan tashqari Maktabgacha ta’li va tarbiya to’g’risidagil 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan qonunga muvofiq hamda “Ilk qadam” davlat dasturi asosida Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg’ulotlarni beshta markazlarda olib borilishi bolalarning aqliy va jismoniy tayyorgarligini oshirish va davlar talablari asosida tayyorlashni taqazo qiladi. Bolalarni ingliz tilida elementar so’zlarni ayta olishi, to’g’ri talaffuz qilishi, so’zlarni kerakli vaziyatlarda ishlata olishi uchun markazlarni bir-biriga muvofiq ravishda uyg’unlashtirib noana’anaviy shaklda olib borish bir muncha samarali bo’ladi. Chunki bolalarni ikki yoki undan ko’p tillarda gapira olishlari uchun Maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi mashg’ulotlar sifati katta ahamiyatga egadir. Bolalarni chet tili so’zlarni yod olishi va amalda ishlata olishlari uchun “Nutq o’stirish” va “Syujetli rollik o’yinlar” markazlarida o’rgatishda amaliy mashg’ulotlar tashkil etish hamda qisqa dialog va monologlarni rollarga bo’lib o’ynashlari orqali tilni mukammlar o’z nutqida ishlatishiga zamin yaratiladi.

Bizga ma’lumki maktabgacha yoshdagi bolalar xotirasi mixanik xotira hisoblanib, ular biror chet tilidagi kundalik hayotda keng ishlatiladigan so’zlarni yoki kichik iboralarni yod olish ular uchun juda oson lekin ma’nosini anglash va tushunish ularga



qiyinchilik tug'diradi. Shu boisdan bolalarga chet tilidagi so'zlarni amalda ertaklar va hikoyalarni sahnalashtirish orqali tushunishiga erishishimiz mumkin.

Bundan tashqari yangi interaktiv metodlardan foydalanib mashg'ulotlar tashkil etilib bolalarga ingliz tili yoki boshqa xorij tilini o'rganishga kirishib ketishlari uchun qulay muhit yaratadi. Masalan: kopyuter, proyektor, tarqatma materiallar, kichik animatsion kartinkalar, video va audio yozuvlaridan foydalanish ularda o'rganayotgan tilida gapiradigan mamlaotlar madaniyati va urf-odatlarini hamda yashash sharoitlari bilan tanishmuhi yaratiladi.

Sahnalashtirgan suhbatlari, dialoglari va monloglarini keyinchalik o'z hayot faoliyatlarida foydalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sahnalashtirish orqali ularda yashirin holatdagi istedodlari va yangi qirralari ochiladi va namoyon bo'ladi. Bu istedodlarni til o'rganishga yo'naltirishimiz xorij tilini amaliy usulda bolalar ongida samarali shakllanishiga erishamiz. Natijada bolalar nutqining o'sishiga va ravonligizamin yaratadi.

Bu jarayon qanday amalga oshishini taxlil qiladigan bo'lsak, dastlab to'g'ri talaffuz bilan so'zlarni tarbiyachi yoki chet tili o'qituvchisi orqasidan takrorlashi keyinchalik, rasmda ko'rgan narsa va buyumini chet tilida ayta olishi malakasiga aylanadi bu bosqich kichik iboralarni sodda gaplar orqali sahnada ayta olish ko'nikmalariga aylanadi. Bu jarayonlarning asosida sahnalashtirish rollarga bolalar xarakterlarini moslashtirish orqali erishiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish orqali ular nutqini o'stirish va amalda kundalik hayotda ishlata olishi uchun sahnalashtirish usulining ahamiyati samarali hisoblanadi. Bu jarayoda bolalar bir-birini tinglash, tushunish va jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalari ham shakllanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Joraboyev B.O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
2. Samarova S. (2018). Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity. Eastern European Scientific Journal, (6).
3. Raxmanova M.Q. (2020). Ta'lim jaraenida o'quv munozaralarini tashkil etishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ijodkorligi va faolligi. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 4(4), 68-73.

4. Shokarimova K.A. (2020). Pedagogik qobiliyat va pedagogik mahoratning talimtarbiya berishdagi ahamiyati. Science and Education, 1(Special Issue 2).
5. Shokarimova K. A. (2021). The way of improving reading and writing skills during the lessons. Academic research in educational sciences,
6. Ражапова И. Т. (2019). Методика обучения видам русского глаголов. Илм сарчашмалари.

## **TEACHING MONOLOGICAL SPEECH TO PRESCHOOL CHILDREN**

**Najmiddinova Gulnoza Odilovna**

Lecturer at TSPU named after Nizami, Faculty of Preschool Education

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2019 No. PP-4312 approved the "Concept for the development of the preschool education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", which clearly outlined the goals and priority areas for the development of the preschool education system. The Concept emphasized that the creation of conditions for the comprehensive intellectual, moral, aesthetic and physical development of preschool children requires a revision of the existing order of organizing the educational process in preschool educational organizations and the introduction of modern methods of providing preschool education services.

The tasks and content of teaching monologue speech are determined by the characteristics of the development of coherent speech of children and the features of a monologue statement.

The formation of the skills and abilities of monologue speech requires the mandatory development of the following specific qualities of a monologue:

1. Connections, i.e. teach various ways of interphrase communication: repetition, synonymous, pronominal, allied;
2. Imagery, that is, to form in children the ability to use various means of imagery in monologues (epithets, comparisons, metaphors, etc.).

When teaching children how to build a detailed statement, it is necessary to form their ideas about the structure of the text (beginning, middle, end) and the ways (means) of connection between sentences and structural parts of the statement. It is the methods of communication that act as one of the important conditions for the formation of the coherence of a speech statement.

